

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

R.S. MURATOV, I.A. DJALALOVA, S.SH.ORIPOV

KORXONA IQTISODIYOTI

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan oliy o'quv yurtlarining iqtisodiy ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan

Toshkent - "Iqtisodiyot" - 2011

R.S.Muratov, I.A.DJalalova, S.Sh.Oripov. © “Korxonalar iqtisodiyoti” - Darslik. – T.: TDIU, 2011 - 500 b.

Ushbu darslikda korxonalar to'g'risidagi ijtimoiy va tashkiliy-iqtisodiy tizimning ajralmas birikmasi sifatida zamonoviy umumiy tushunchalarning mohiyati ochib berilgan. Asosiy e'tibor, korxonalarning ichki faoliyatida sodir bo'layotgan mikroiqtisodiy jarayonlar va ularni tashqi iqtisodiy muhit bilan o'zaro munosabatlarini muvofiqlashuvini o'rgatadi. Jumladan, investitsiyalarni jalb etish masalalari va korxonaning moliyaviy-iqtisodiy holatini tahlili, asosiy resurslarga bo'lgan ehtiyoji, hamda bozor iqtisodiyoti sharoitida zamonoviy korxonani bozor munosabatlarining asosiy sub'ektlari miqyosida faoliyat ko'rsatishining dolzarb masalalari yoritib berilgan. O'z navbatida, darslik o'rganilayotgan umumnazariy masalalar bilan bir qatorda, korxonani ko'p qirrali va murakkab faoliyatini yanada kengroq va har tomonlama o'rganib chiqish imkonini beradi.

Mazkur qo'llanma biznes sohasi bo'yicha mutaxassislar, tadbirkorlar, hamda iqtisodiyot yo'nalishida mutaxassislar tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlari talabalari, magistrleri va aspirantlari uchun darslik sifatida tavsiya etiladi.

Р.С.Муратов, И.А.Джалалова,С.Орипов. © Экономика предприятия. – Учебник. – Т.: ТГЭУ, 2011. – 500 с.

В данном учебнике раскрыты современные представления о предприятии как целостной организационно-экономической и социальной системе. Основное внимание уделено рассмотрению микроэкономических процессов, происходящих внутри предприятия и во взаимодействии последнего с внешней экономической средой. В частности, вопросов инвестирования и анализа финансово-экономического положения предприятия, обоснования потребности предприятий в основных ресурсах, а также посвящен актуальным проблемам функционирования в условиях рынка современного предприятия (фирмы) как одного из основных субъектов рыночных отношений. Наряду с общетеоретическими вопросами ряд тем сопровождается конкретными примерами, позволяющими лучше представить сложную и многостороннюю деятельность предприятий.

Рекомендовано в качестве учебного пособия аспирантам, магистрам, специалистам и предпринимателям, а также студентам высшего учебного заведения по подготовке специалистов экономических специальностей всех форм обучения.

R.S. Muratov, I.A. Djalalova, S.Sh. Oripov. © Enterprise Economics. – Textbook. - T.: TSUE, 2011. – 500 p.

This textbook, reveals current understanding of the enterprise as a whole organizational and economic and social systems. The main attention paid to the micro-economic processes taking place within the company and in conjunction with the recent external economic environment. In particular, investment issues and analysis of financial and economic situation of the company, study the needs of enterprise's core resources, and is dedicated to topical issues of function in the marketplace of the modern enterprise (company) as one of the main subjects of market relations. Along with general theoretical issues of a number of subjects is accompanied by concrete examples, allowing better representation of the complex and multifaceted activities of enterprises.

Recommended as a textbook for graduate students, MSc students, researchers and entrepreneurs, as well as students of higher educational institutions and for training specialists of economic specialties of all educational directions.

Ma’sul muharrir: Bekmurodov A.SH. – i.f.d., professor

Taqrizchilar:

X.T. Muxitdinov - Toshkent Iqtisodiyot kolleji direktori, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

M.A. Yusupov - TDIU, “Marketing” kafedrası dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.

© Toshkent - “Iqtisodiyot” - 2011

Mundarija

Kirish	8
1-Bob. «Korxonada iqtisodiyot» kursining mazmuni va vazifalari	10
1.1 Mamlakatni modernizatsiyalashtirish sharoitida «Korxonada iqtisodiyot» kursining ahamiyati va iqtisodiy fanlar tizimidagi o'ri.....	10
1.2. «Korxonada iqtisodiyot»–iqtisodiy fanning tarkibiy qismi va boshqa fanlar bilan aloqasi.....	18
1.3. «Korxonada iqtisodiyot» kursining ob'ekti, predmeti, vazifalari va fanining usullari.....	24
2- Bob. Korxonada – mustaqil xo'jalik yurituvchi bozor sub'ekti	39
2.1. Korxonada - bozor iqtisodiyotining xo'jalik sub'ekti, milliy iqtisodiyot rivojlanishida korxonaning o'ri va roli.....	39
2.2. Davlat korxonalarini isloh qilish. O'zbekiston Respublikasidagi xususiylashtirish modeli.....	52
2.3. Korxonaning belgilari va tasnifi.....	61
2.4. Korxonada faoliyatini iste'molchilar talabiga yo'naltirish. Mahsulotlarni standartlash metrologiya va sertifikatsiyalashtirish.....	74
3-BOB: Korxonani tashkil etish va uning faoliyatini to'xtatish	81
3.1 Korxonani tashkil etish va faoliyatini tugatish tamoyillari va tartib-qoidalarini.....	81
3.2. Korxonalar faoliyatini litsenziyalash tartibi.....	94
3.3. Korxonaning moliyaviy barkarorligi mezonlari va ko'rsatkichlari.....	96
3.4. Korxonaning tashqi iqtisodiy shartnomalari va turlari.....	103
4-Bob: Korxonada va uning tarkibiy bulinmalarini boshqarish	109
4.1.Korxonada faoliyatida boshqaruv tushunchasi va uning ob'ektiv zaruriyati.....	109
4.2.Korxonalarini boshqaruv xususiyatlari va tarkibiy qismi. Boshqaruv sub'ekti va ob'ekti.....	117
4.3. Korxonani boshqarishning tamoyillari, shakllari va usullari.....	121
4.4. Korxonani boshqarish apparati. Korxonani boshqarishda	

rahbarning xususiyatlari, o'ri va roli.....	132
5-Bob: Korxonada faoliyatida biznes-rejalashtirish va prognozlash.....	151
5.1.Bozor iqtisodi sharoitida rejalashtirishning metodologiya asoslari.Rejalashtirish usullari va bosqichlari.....	151
5.2.Rejalashtirish tamoyillari, uslublari va kursatkichlari. Korxonada rejalashtirish tizimi va rejaning turlari.....	159
5.3.Korxonada faoliyatiga ta'sir kiluvchi omillar: tashqi va ichki muhit. Korxonada rejasining bo'limlari va ko'rsatkichlari.....	168
5.4.Biznes-reja tushunchasi, turlari va tarkibi. Kichik biznes, xususiy tadbirkorlik sub'ektlari uchun biznes- reja ishlab chiqish.....	173
6- Bob. Ishlab chiqarishning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi.....	186
6.1. Samaradorlikning iqtisodiy va ijtimoiy tushunchasi, korxonada ishlab chiqarish faoliyatida mohiyati va ahamiyati.....	186
6.2.Korxonada ishlab chiqarish samaradorligining tarkibiy qismlari va mezonlari.....	191
6.3. Ishlab chiqarish xarajatlarining umumiy (absolyut) va qiyosiy-iqtisodiy samaradorligi.....	199
6.4. Mamlakatni modernizatsiyalashtirish sharoitida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari.....	206
7- Bob. Korxonaning asosiy fondlari va ishlab chikarish quvvati.....	217
7.1 Asosiy fondlar va ularning korxonada faoliyatidagi o'ri.....	217
7.2 Asosiy fondlarning turlari, tarkibi va ko'rsatkichlari.....	221
7.3 Korxonaning ishlab chiqarish quvvati va uni hisoblash usullari.....	228
7.4.Asosiy fondlardan foydalanishni yaxshilash yo'llari va ko'rsatkichlari.....	237
8-Bob: Korxonada aylanma fondlari va aylanma mablag'lari.....	248
8.1. Aylanma fondlar va aylanma mablag'lar tushunchasi, iqtisodiy tabiati va ularning korxonada faoliyatidagi ahamiyati.....	248
8.2. Aylanma fondlarning tarkibi, shakllanish manbalari va	

ularning korxonaga iqtisodiyotiga ta'siri.....	254
8.3. Aylanma mablag'lardan foydalanish ko'rsatkichlari va aylanma mablag'larni normalashtirish.....	264
8.4. Aylanma mablag'lar tejamkorligi va ularning samaradorligini oshirish yo'llari.....	274
9-Bob: Xodimlar va ularning korxonaga faoliyatidagi o'rni	284
9.1. Globallashuv va bozor munosabatlari sharoitida mehnat munosabatlari, mehnat resurslari, ularning tarkibi va tavsifi.....	284
9.2. Korxonada xodimlar siyosati, kadrlar barqarorligi va qo'nimsizligi. Mehnat shartnomasi va pudrat shartnomasi.....	287
9.3. Mehnat me'yori, xronometraj va ish kunining fotografiyalash usullari. Mehnat unumdorligi konsepsiyasi va uni oshirishning tamoyillari.....	300
9.4. Mehnatga haq to'lashning qoidalari, shartlari va korxonada ish xaqini tartibga solish. Yagona tarif setkasi mohiyat.....	308
10-BOB: Korxonaning ishlab chiqarish faoliyati, xarajatlari, foydasi rentabelligi	317
10.1. Xarajatlar tug'risida tushuncha, tarkibi va ularning tasnifi.....	317
10.2. Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar. Foyda va uni shakllantirish manbalari, taksimlash tartibi.....	327
10.3. Korxonaga sof foydasi, taqsimlash tartibi va uni oshirish yo'llari.....	330
10.4. Rentabellikning iqtisodiy mazmuni va ko'rsatkichlari. Yalpi foyda o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar hisob-kitobi.....	341
11-Bob. Korxonaning investitsiyaviy faoliyati.....	352
11.1. Investitsiya tushunchalari mazmuni, mohiyati va investitsiyalarning turlari.....	352
11.2. Investitsiya manbalarini shakllantirish. Moliya bozorlari tasnifi.....	362
11.3. Investitsiyaviy loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash.....	372
11.4. Korxonaning investitsiya strategiyasi. Investitsion loyixaga, uning samaradorligini hisoblash. Investitsiya oqimini diskontlashtirish.....	375
12-Bob. Korxonaning xavfsizligi va tijorat siri.....	382
12.1. Korxonaga xavfsizligini ta'minlashning maqsadi, vazifalari va	

tamoyillari.....	382
12.2. Korxonada xavfsizlik xizmati, uning funksiyalari va tarkibi.....	389
12.3. Korxonaning tijorat siri mohiyati va uni himoya qilish mexanizmlari.....	399
12.4. Raqobatchilar to'g'risida axborot olish uslublari, turlari va ularni himoya qilish sub'ektlari.....	407
Glossariy.....	417
“Korxonada iqtisodiyoti” fanini o'zlashtirish bo'yicha testlar.....	424
“Korxonada iqtisodiyoti” fanini o'zlashtirish bo'yicha huquqiy me'yoriy-asoslar	433
Tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati.....	496

**Ushbu darslik O'zbekiston
Respublikasi Davlat
mustaqilligining 20 yilligi va
Toshkent Davlat iqtisodiyot
universitetining 80 yilligiga
bag'ishlanadi.**

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgach, mamlakat barcha xo'jalik yuritish tizimining bozor munosabatlariga o'tishi iqtisodiyotning asosiy bo'g'ini hisoblanuvchi korxonalar maqomining sezilarli ravishda o'zgarishiga sabab bo'ldi.

Korxonalar endilikda davlatga tegishli bo'lgan paytlardagidan farqli o'laroq mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha faoliyatlarini direktiva ko'rsatkichlari asosida emas, balki O'zbekiston Respublikasi "Korxonalar to'g'risida"gi qonuni va bozor talablariga asosan mustaqil ravishda yuritmoqda. Ular o'zlariga kerak bo'lgan ishchi va xodimlar sonini mustaqil belgilamoqda, ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyasi, tejamkorlik rejimiga rioya qilish masalalari bilan Shug'ullanmoqda, zamonaviy marketing va menedjmentni yo'lga qo'yimoqdalar hamda joriy ishlab chiqarishni rejalashtirmoqdalar va rivojlanishning zaruriy prognozlarini amalga oshirmoqdalar.

"Shu bilan birga, xolisona tahlil, islohotlarimizning mantiqi va izchilligi, ularning eng zamonaviy bozor normalariga muvofiqligini baholash iqtisodiyotni boshqarish tizimini yanada chuqurlashtirish, takomillashtirish va liberallashtirish bo'yicha jiddiy ehtiyoj mavjudligini ko'rsatmoqda."¹

Shu kabi masalalar "**Korxonalar iqtisodiyoti**" kursining mazmunini tashkil qilib, ularni o'rganish iqtisodchilar (mutaxassisliklari va bo'lajak ish joylaridan qat'i nazar) tayyorlovchi ko'plab oliy o'quv yurtlarining o'quv rejalariida ko'zda tutilgan. Ushbu kurs bo'yicha bir qancha darsliklar chop etilgan (ayniqsa Rossiyada) bo'lib, ular barcha o'quvchilar, birinchi navbatda, iqtisodchilar uchun juda qiziqarli va foydalidir.

¹ И. А. Каримов. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги "Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси" маърузаси// Халқ сўзи газетаси, 12.11.2010.

Mazkur darslik R.S. Muratov, I.A. Djalalova va S.SH. Oripovlar tomonidan tayyorlangan, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabalariga mo'ljallangan kurs dasturiga asosan tayyorlangan, va biroz o'zgartirishlar kiritilib ixchamlashtirilgan.

Mazkur darslikning maqsadi - talabalarga barcha iqtisodiy masalalar echimini topish, kelajakda iqtisodiy bilimlar olish uchun o'ziga xos poydevor bo'lib xizmat qiluvchi zamonaviy korxonalar iqtisodiyoti asoslarini o'rganishga ko'maklashishdir.

1-bob. “Korxonalar iqtisodiyoti” kursining mazmuni va vazifalari

1.1. Mamlakatni modernizatsiyalashtirish sharoitida «Korxonalar iqtisodiyoti» kursining ahamiyati va iqtisodiy fanlar tizimidagi o’rni

1.2. «Korxonalar iqtisodiyoti»–iqtisodiy fanning tarkibiy qismi va boshqa fanlar bilan aloqasi

1.3. «Korxonalar iqtisodiyoti» kursining ob’ekti, predmeti, vazifalari va fanining usullari

Tayanch iboralar: Iqtisodiyot, tarmoqlar, moddiy ishlab chiqarish, “Iqtisodiyot doimo moddiydir”, kompyuterlashtirish, informatizatsiya, internet tarmog’i, ishlab chiqarish infratuzilmasi, ijtimoiy infratuzilma, fan-texnika taraqqiyoti, samaradorlik, iqtisodiy barqarorlik, raqobatchilik kurashi, boshqarish tizimi, talab va taklif.

1.1.Mamlakatni modernizatsiyalashtirish sharoitida «Korxonalar iqtisodiyoti» kursining ahamiyati va iqtisodiy fanlar tizimidagi o’rni

Insonning oliy maqsadi yaxshi yashash, lekin havodan tashqari hamma narsa chegaralangan. Ulardan ratsional foydalanish doimo inson ongi oldiga ko’plagan siyosiy, iqtisodiy, texnikaviy, texnologik, ekologik va hokazo muammolarni qo’yadi. Bu muammolar yakka insondan tortib, korxonalar, firma, ularning birlashmalari, umuman regionda iqtisodiyoti miqyosiga taalluqlidir. Shuning asosida, xo’jalik yuritish, uni boshqarish tug’risida insoniyat doimo fikr yuritib, u to’g’risida bilimlar tizimini yaratib kelgan. Fan - bu insoniyat tarixida to’plangan tabiat, jamiyat va fikrlash to’g’risidagi bilimlar tizimidir. Shu bilimlar asosida insoniyat tabiat sirlarini, jamiyat muammolarini ichiga kiradi, o’rganadi va o’z hayotiga moslashtiradi.

Har bir inson oldida yosh bolaligidan savol tug’iladi. Osmon, er, oy, yulduzlar qanday vujudga kelgan? Kim yaratgan? Insonning moddiy borliq bilan munosabatlari, iqtisodiy muammolarni insoniyat o’zi to’plagan, yaratgan bilimlar tizimi orqali hal qilishi lozim. Umuman, ibtidoiy jamiyat rivojlanib, ibtidoiy jamoalar o’rtasida tovar almashish munosabatlari shakllana boshlanishi bilan insonlar iqtisodiyot to’g’risida fikr yuritish boshlagan. Chunki insonlar narsa (go’sht, bug’doy, kamalak,

bolta kabi) to'g'risidagina o'ylab qolmay, ular narsalar, mahsulotlar orqali o'zaro munosabatlar to'g'risida, ya'ni iqtisodiy, moddiy munosabatlar to'g'risida fikr yurita boshlaganlar. Asta-sekin insoniyat hayotidagi munosabatlar chukurlashib, ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida alohida tarmoqlar, Shu jumladan tijorat sohasi vujudga kelgan. Shu sababli insoniyat jamiyati kabi iqtisodiyot ham o'z tarixiga ega. Tijoriy fikr yuritishlar (tarixiy hujjatlardan ma'lumki) miloddan av. 2000-3000 yillar oldin boshlangan bo'lib, uni savdogarlar tomonidan qilingan hisobiy yozuvlar (loydan qilingan taxtachalardagi hisob-kitob yozuvlari), bizlargacha etib kelgan arxeologik topilmalar tasdiklaydi.

“O'tgan davr mobaynida hayotimiz sifati, mamlakatimiz qiyofasi qanday o'zgarib borayotgani, qanday yutuq va natijalarga erishganimiz, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida qanday sur'atlar bilan rivojlanib borayotganimizni baholash ehtiyoji tug'ilmoqda.”²

Kadimiy Sharqda miloddan 3000 yillar oldin narsalarni kiraga berish, undan foiz olish kabi faoliyatlar ishlatilgan. Qadimiy Egitliklar, Greklar oldi-sotdi, pul, baho, savdo, foyda, kredit kabi iqtisodiy kategoriyalarni ishlatganlar. O'zbek tilidagi «iqtisod» so'zi grekcha «Okonomika» (ekonomika), ya'ni «oysoz» - uy, xo'jalik va «potoz» - qoida, tartib, qonun mazmunini bildiruvchi so'zlar birlashmasidan olingan bo'lib, uy xo'jaligini yuritish Qonuni mazmunini bildirishligi bejiz emas. Shuning uchun iqtisodiy fanlar o'rganadigan kategoriyalar qadimgi sharq olimlari qalamiga mansub bo'lgan asarlarda uchraydi (Sokrat, Kesnofont, Platon, Aristotel, Epikur).

Markaziy Osiyo allomalarining asarlarada iqtisodiyotga taalluqi g'oyalarlar, xo'jalik yuritish bo'yicha fikrlar ko'pdan ko'p uchraydi. Ularning qatoriga Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur, Ulug'bek, Bobur kabi mutafakkirlarni ijodlari kiradi.

Misol uchun Amir Temur Tuzuklarini keltirish mumkin. Temur Tuzuklarida iqtisodiyotga, davlatni boshqarishga oid va hozirgi zamonda ham o'z faoliyatini yo'qotmagan iqtisodiy muammolarni hal qilish yo'l-yo'riklari, qoidalarini topish mumkin. o'z aksini topgan. Unda davlatning

² И. А. Каримов. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” маърузаси// Халқ сўзи газетаси, 12.11.2010.

tarkibiy tuzilishidan tortib, davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarini shakllantirish, mehnatni taqdirlash, maosh to'lash, soliq undirish, jarimalar, in'omu ehsonlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Insoniyat tarixiga ko'z tashlasak, jamiyatni tashkil qilinishida siyosiy va iqtisodiy jihatlaridagi farqlari aniqlanadi.

Siyosiy hayotda tarixan ongli (fahm orqali) tartibga solish orqali jamiyatni boshqarish boshlangan. Davlat boshqaruvi g'oyalarsi o'sha davrlardanoq dohiy (qabila boshlig'i), qariyalar kengashi, xalq majlisi kabilarda o'z aksini topgan.

“Iqtisodiyot” atamasi birinchi bor Aristotel tomonidan kiritilgan hamda odamlarning tovar ishlab chiqarish va ayirboshlashdagi xo'jalik faoliyatini anglatgan. Tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va realizatsiya qilish tizimi qanchalik yaxshi tashkil qilingan bo'lsa, iqtisodiyot ko'rsatkichlari va aholining turmush tarzi, resurslardan oqilona foydalanish, bahoni shakllantirish, soliqqa tortish, samarali qo'llanuvchi boshqaruv tizimi kabi omillarni hisobga olgan holda, Shunchalik yuqori bo'ladi.

Iqtisodiyot inson hayotining moddiy, ma'naviy, fiziologik va boshqa ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan har bir jabhasini qamrab oladi. Oila qurish, kelajak avlodni tarbiyalash, zaruriy turmush tarzini ta'minlash uchun odamlarga oziq-ovqat, kiyim-bosh, turar-joy va boshqa vositalar kerak bo'ladi. Bu predmetlar, qoidaga ko'ra, iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi korxonalarda ishlab chiqariladi. Shu sababli iqtisodiyotning, ayniqsa, avvalgi ma'muriy-buyruqbozlik tizimidagi rejali iqtisodiyotdan farq qiluvchi bozor iqtisodiyotining rivojlanish tendentsiyalari va qonunlarini bilish, ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tushunish va istalgan xo'jalik muammolarini hal qilishda muhim shart hisoblanadi.

«Iqtisodiyot» fan sifatida tabiatda hamda inson, jamoa va jamiyat hayotida vujudga keluvchi turli xil iqtisodiy jarayon va hodisalarni prognozlashtirish, tahlil qilish va baholash bo'yicha bilimlar majmuasini ifoda etadi.

U bir inson uchun ham, butun jamiyat uchun ham zarur bo'lgan moddiy va nomoddiy ob'ektlarning katta qismini hamda moddiy va ma'naviy ne'matlarni tayyorlash va taqsimlash usullari va jarayonlarini o'z ichiga oladi. Agar «Iqtisodiyot» fanining normativ jihatlarini korxon, firma va davlatning iqtisodiy siyosatini ta'minlasa, pozitiv jihatlarini esa real

voqelikni baholaydi va tahlil qiladi hamda uning rivojlanishidagi qonuniyatlarni aniqlaydi.

Shu tariqa «Iqtisodiyot» fani izlanish va uslubiy vazifalarni bajaradi hamda jamiyat hayotining barcha soha va tarmoqlarida qabul qilinuvchi amaliy qarorlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiy asoslab berilgan hisob-kitob va prognozlar «Iqtisodiyot» fanining muhim tarkibiy qismi sifatida xo'jalik tavakkalchiligining riskini kamaytirishga, ishlab chiqarish va resurslardan foydalanishni optimallashtirishga, Shuningdek, yangi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishda eng to'g'ri tanlov olib borishga imkon yaratadi.

“Biz o'z oldimizga qo'ygan uzoq muddatli strategik maqsadlar, ya'ni zamonaviy rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, iqtisodiyotimizning barqaror o'sishini ta'minlash, hayot sifatini yaxshilash va jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallash borasidagi say-harakatlarimizga bugungi kun nuqtai nazaridan xolisona baho berishimiz tabiiydir.”³

«Iqtisodiyot» fani tarkibiga **tarmoqlar** (sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport va hokazo), **funksional** («Mehnat sotsiologiyasi va iqtisodiyoti», «Iqtisodiy statistika», «Moliya va kredit», «Bahoni shakllantirish» va hokazo) kabi **turli fan** («Iqtisodiy geografiya», «Demografiya», «Iqtisodiyot tarixi» va boshqalar) tarmoqlari tizimi kiradi. «Iqtisodiyot» fanining bu va boshqa yo'nalishlarida chuqur bilimga ega bo'lish insonlarning ijtimoiy faolligini oshirish, oqilona xo'jalik yuritish, kadrlarni yangi iqtisodiy fikrlash ruhida tarbiyalashga katta turtki bo'ladi.

Iqtisodiyotning real sektori – iqtisodiyotning bevosita moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq sohasi bo'lib, u o'z ichiga sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, aloqa tarmoqlarini oladi.

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash – ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma'naviy jihatdan Yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga oluvchi jarayon. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashning asosiy yunalish va vositalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: korxonalaridan eskirgan asbob-uskunalarni chiqarish; ishlab

³ И. А. Каримов. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” маърузаси// Халқ сўзи газетаси, 12.11.2010.

chiqarishni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash; mahalliy resurslar asosida ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etish; ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimentini kengaytirish; ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish va resurslarni tejash; sifatni boshqarish va sertifikatlash tizimini joriy etish; chiqitsiz va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va boshqalar.

Kooperatsiya aloqalari – turli soha ishlab chiqarish tarmoqlarida ma’lum mahsulotni tayyorlash bo’yicha uzoq muddatli aloqalarni o’rnatish.

«Iqtisodiyot» fanining, jumladan, yuqorida sanab o’tilgan yo’nalishlarning metodologik asosi, ularning poydevori bo’lib iqtisodiy nazariya xizmat qiladi. U real voqelik bilan bog’liq bo’lish baroabrida davlatning iqtisodiy siyosatini, uning kuchli va kuchsiz tomonlarini, Shuningdek, iqtisodiy taraqqiyotga erishish mumkin bo’lgan yo’llarni mos keluvchi bosqichlarida aks ettiradi. Bu maqsadda «Iqtisodiyot» fani statistik kuzatuv, gipotezalarni ilgari surish va tekshirish, tahlil va sintez, induksiya va deduktsiya, iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish, tajriba (eksperiment)lar o’tkazish kabi bir qator voqelikni anglash usul va uslublarini ishlab chiqqan va ulardan muvaffaqiyatli ravishda foydalanadi. Aytish joizki, bu usullar nafaqat iqtisodiy, balki predmeti va tavsifiga ko’ra, tabiiy va boshqa turdagi fanlarda ham qo’llanishi mumkin.

Shu bilan birga «Iqtisodiyot» fani barcha hayotiy muhim savollarga tayyor javob bermaydi, Chunki iqtisodiyot ishlab chiqarish, boshqaruv, tartibga solish, bashorat qilish sohasi sifatida oddiy fan tushunchasidan ko’ra, murakkabroq kategoriyani anglatadi. U faqatgina ilmiy vosita bo’lib, iqtisodiy voqelikni anglash usuli xizmatini o’taydi. Iqtisodiyot iqtisodiy fanning o’ziga xos sinov maydoni, asossidir. Iqtisodiyotning rivojlanish tendentsiyalari va qonunlarini ilmiy jihatdan o’rganish, «Iqtisodiyot» fani va uning alohida tarmoqlarining muhim vazifasi hisoblanadi.

Moddiy ishlab chiqarishdan ajralgan holdagi real iqtisodiyot mavjud emas. Moddiy ishlab chiqarish iqtisodiyot rivojlanishining asosi, xo’jalik faoliyatining boshlang’ich nuqtasi bo’lib kelgan va shundayligicha qoladi. Shu sababli iqtisodiyotning turli darajadagi - korxonalar, tarmoqlar va butun davlat miqyosidagi holati moddiy ishlab chiqarishning yutuqlari, jumladan, moddiy ishlab chiqarishning keng ma’noda iste’molga, yoki bugungi til bilan aytganda bozor talabiga mos kelishi bilan tavsiflanadi va oldindan belgilab beriladi.

Ma'lumki, mehnat taqsimoti va unga bog'liq ravishda mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashish mehnat unumdorligini o'stirish, tayyorlanayotgan mahsulot sifatini saxshilash va tannarxini kamaytirish uchun imkoniyat yaratadi. Ayni paytda, u yoki bu mahsulot turiga

Korxonalar o'rtasida barqaror kooperatsiya aloqalarini o'rnatish va ularni kengaytirish bo'yicha boshlangan ishlarni davom ettirish, bu jarayonga kichik biznes va xususiy tadirkorlik sub'ektlarini keng jalb etish zarur. Respublika sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasi ishini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish lozim.

I.A. Karimov (ma'ruzadan)

ixtisoslashish ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish uchun xom ashyo, butlovchi qismlarni boshqa ixtisoslashgan korxonalaridan sotib olish ehtiyojini keltirib chiqaradi. Shu tariqa korxonalar o'rtasida kooperatsiya aloqalarini o'rnatishga zarurat yuzaga keladi.

Bugungi kunda kooperatsiya aloqalarining xom ashyo etkazib

berishdan iborat oddiy ko'rinishidan tortib to franchayzing tizimini qo'llash kabi murakkab turlarigacha mavjud.

Kooperatsiya aloqalari – mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha bir yoki bir necha korxonaning hamkorligi.

Korxonalarining bozorlarda qaysi mahsulot yoki xom ashyoga ehtiyoj borligini bilishlari, uni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishlari uchun zarur bo'lgan materiallar va xom ashyoni qaysi korxonalaridan olishlari mumkinligi to'g'risida axborotga ega bo'lishlari ularning rivojlanishi, umuman mamlakat iqtisodiyotining yuksalishida muhim omil hisoblanadi.

“Iqtisodiyotimizda 2010 yili yuqori o'sish sur'atlari ta'minlanib, aholining real daromadlari 123,5 foizga oshdi, o'tgan yilda inflyatsiya darajasi 2009 yildagi 7,4 foiz o'rniga 7,3 foizni tashkil qildi. Bu avvalambor qat'iy, Shu bilan birga, puxta o'ylangan pul-kredit siyosati va inqirozga qarshi ko'rilgan samarali chora-tadbirlarimizning natijasidir.”⁴

Zamonaviy fan-texnika taraqqiyoti ishlab chiqarish va iqtisodiyotning uzluksiz rivojlanishida **kompyuterlashtirish va informatizatsiya**, internet tarmog'iga kirishni ilgari surmoqda. Bu esa boshqaruv tizimining eng muhim bo'g'inlaridan tashqari, ishchi kuchining sifatini oshirish vositasi

⁴ И. Каримов. “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараккиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади” – 2010 йилнинг асосий яқунлари ва 2011 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

hamda ishlab chiqarish jarayonini muvaffaqiyatli tashkillashtirish uchun turtki bo'lib xizmat qiladi.



1-rasm: O'zbekistonda tashqi savdo aylanmasi hajmining o'sishi, mlrd. AQSH doll.

Manba: Davlat statistika ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Biroq moddiy ishlab chiqarishning etakchilik rolini inkor qilmagan holda, iqtisodiyotning rivojlanishiga **ishlab chiqarish infratuzilma** (transport, aloqa, energetika va axborot xizmati) va **ijtimoiy infratuzilma** (maorif, sog'liqni saqlash, umumiy ovqatlanish, uy-joy-kommunal xizmati va boshqalar)ning rolini ham ko'rsatib o'tishimiz darkor. Bu sohalarda ham aholining katta qismi mehnat bilan band bo'lib, ularning mehnati moddiy ishlab chiqarish xodimlari mehnatidan kam foyda keltirmaydi. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, **iqtisodiyot** - ilmiy kategoriyaga qaraganda ishlab chiqarish kategoriyasiga Yaqinroq bo'lib, fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohaslarining o'zaro samarali aloqalari, reurslardan oqilona foydalanish va ratsional boshqaruv tufayli faoliyat ko'rsatmoqda va rivojlanib bormoqda.

Iqtisodiyot doimo dinamik bo'lib, sifat va miqdor o'zgarishlariga duchor bo'ladi. Ba'zi hollarda salbiy holatlar (masalan, qishloq xo'jaligida qurg'oqchilik, qoramollar o'limi; urush, terrorizm va hokazo) yuzaga kelsa ham, iqtisodiyotda ijobiy siljishlarga erishish mumkin. Fan-texnika taraqqiyoti, malakali kadrlar, xo'jalik mexanizmi va undan oqilona

foydalanish, izlanish, tadbirkorlik, tashabbuskorlik, rag'batlantirish - bularning barchasi iqtisodiyotda ijobiy siljishlarga erishish uchun xizmat qiladi.

Ijtimoiy-madaniy taraqqiyot rivojlanishi bilan davlat boshqaruv funktsiyalari mustahkamlanib va turg'unlanib borgan. Iqtisodiy hayotda bunday emas. Ibtidoiy jamoa davridan to kapitalistik tizimgacha bir-biri bilan ongli ravishda birlashmagan. Yakka ongli xo'jaliklarni kuzatamiz. Har bir xo'jalik sub'ektlari o'z tashabbusi, o'z ixtiyoricha, tavakkalchiligiga asosan ish yuritgan. Ularning birligi, jamiyatning va xalq xo'jaligining iqtisodiy jihatdan birligi Yakka xo'jalik yurituvchilarning o'zaro iqtisodiy munosabatlari orqali amalga oshirilgan.

“Qariyb **yigirma yillik** mustaqil taraqqiyotimiz mobaynida O'zbekistonda **Yalpi ichki mahsulotning o'sishi** 3,5 barobarni, aholi jon boshiga hisoblaganda esa 2,5 barobarni, aholining real daromadlari 3,8 barobarni tashkil etgani e'tiborga sazovordir.”⁵

Ijtimoiy mehnat taqsimoti chuqurlashi, bozor munosabatlari shakllanishi bilan xo'jalik yuritishni ongli ravishda tartibga solish g'oyalari tug'ila boshlaydi. Chunki uyushtirilmagan iqtisodiy faoliyatni (minglab xo'jalik sub'ektlarini) ongli ravishda tartibga solmaslik ijtimoiy halokatlarga olib kelishi mumkin.

Hozirgi zamon korxonalari iqtisodiyotning (xalq xo'jaligining) uyushtirilgan. davlat tomonidan tartibga solinadigan xo'jalik sub'ekti bo'lib hisoblanadi.

Xo'jalik korxonasi iqtisodiy fanlar nuqtai nazaridan ishlab chiqarish elementlarini (mehnat, kapital, tabiiy resurslar, tadbirkorlik) o'z manfaatlari, xo'jalik yuritish va foyda olish maqsadi orqali birlashtirgan, o'z resurslarini o'z ixtiyori bilan ishlatish huquqiga ega bo'lgan sub'ektiga tushuniladi.

Shunday qilib, tarixdan iqtisodiy nazariya shakllanib kelgan va iqtisod (ekonomika) termini ishlatib kelingan.

Hozirgi kunda iqtisodiyot bir necha xil mazmunda ishlatiladi.

Birinchidan;, iqtisodiyot deganda xo'jalik (xalq xo'jaligi, tarmoq, hudud, birlashmalar, korxonalar va firmalar) tushuniladi;

Ikkinchidan; iqtisodiyot bu ishlab chiqarish, taqsimot, muomala va iste'mol fazalarida vujudga kelgan insonlar, xo'jalik sub'ektlari o'rtasidagi

⁵ И. А. Каримов. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” маърузаси// Халқ сўзи газетаси, 12.11.2010.

moddiy va boshqa boyliklar bilan bog'liq munosabatlar tushuniladi;

Uchinidan, iqtisod bu siyosat, ya'ni davlat siyosati, davlatlararo aloqalar va hokazolardan iboratdir;

Va nihoyat, **to'rtinchidan**, iqtisod bu - fan.

Fan - bu tabiat, jamiyat va tafakkur, ijtimoiy taraqqiyotni tahlil qilish va umumlashtirish to'g'risidagi insoniyat tomonidan jamlashtirilgan bilimlar yig'indisiga tushuniladi. Bu bilimlar orqali insoniyat tabiat sirlarini chuqur o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi, texnika va texnologiyani. tabiiy fanlarni rivojlantiradi hamda ijtimoiy taraqqiyotni muhim muammolarini hal qiladi.

Bozor munosabatlariga asoslanilgan hozirgi davrda iqtisodiyotni ko'tarish uchun bu va boshqa imkoniyatlar avvallardagiidek faqatgina davlatning qo'lida mujassamlangan emas, balki iqtisodiyotning asosiy ishlab chiqarish bo'g'inini tashkil qiluvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar - korxonalar, firma, kombinat va boshqa ishlab chiqarish strukturasi vakillariga ham katta imkoniyatlar berilgan.

1.2. «Korxonalar iqtisodiyoti» – iqtisodiy fanning tarkibiy qismi va boshqa fanlar bilan aloqasi

Iqtisodiyot fanlari va amaliyot xo'jalikni oqilona samarali boshqarish uchun unga mos xo'jalik yuritish mexanizmini ishlab chiqqan. Unga mos iqtisodiy dastaklar (baho, soliq, foyda, kredit, ish haqi kabilar), kategoriyalar, ko'rsatkichlar, usullarni (iqtisodiy yoki ma'muriy usullar, rejalar, normallashtirish kabilar) xo'jalik yurituvchilar o'z maqsadlariga muvofiq boshqaruv jarayonlarida ishlatadilar.

Korxonalar iqtisodiyoti fani Yuqorida keltirilganlarni mazmuni va mohiyatini ochib beradi, ularni xo'jalikni boshqarish uchun ishlatish shakl va usullarini o'rgatadi.

Nisbatan barqaror va bozor kon'yunkturasi o'zgarishlariga tez moslashuvchan, yangi ish o'rinlari yaratish imkonini beradigan kichik biznesni jadal rivojlantirish masalasini hal etish bizning sharoitimizda hamon muhim ahamiyatga molik masala bo'lib qolmoqda.

I.Karimov (ma'ruzadan)

Korxonalar faoliyatida jamiyatning rivojlanish iqtisodiy qonunlarini ko'rinshi shakllari o'z aksini topadi. "Hammamiz yaxshi bilamizki, bizga sobiq sovet tizimidan bir tomonlama rivojlangan, faqat xomashyo etishtirishga yunaltirilgan, paxta yakkahokimligi halokatli darajada avjiga chiqqan, ishlab chiqarish va sotsial infratuzilmasi o'ta qo'lg'och, aholi jon

boshiga ise'mol ko'rsatkichi eng past bo'lgan iqtisodiyot meros bo'lib qolgan edi.”⁶ Shunday ekan korxonani boshqarish asosida iqtisodiy qonunlar talablari sub'ektiv holda ko'ra bilish va unga asosan qarorlar qabul qilish zarur bo'ladi. Masalan: iqtisodiy qonunlardan biri mehnat unumdorligini ish hakdga nisbatan tezroq o'sishidir. Bu qonunning talabi buzilsa pul muomalasini muvozanati buzilishiga olib kelishi, ortiqcha pul vujudga kelishi, tovarlar defitsiti paydo bo'lishi kabi hodisalar vujudga kelishi muqarrardir.

«Korxonalar iqtisodiyoti» - aholi va xalq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko'rsatishning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'muriy-xo'jalik mexanizmlarini o'rganuvchi va ochib beruvchi fandidir. U tabiat va jamiyatning muayyan ishlab chiqarish sharoitlarida rivojlanishining ob'ektiv qonunlari namoyon bo'lishi va amal qilishiga, Shuningdek, korxonalar faoliyatiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi davlat miqyosida qabul qilinuvchi qoida, normativ va qonun hujjatlariga tayanadi.

Iqtisodiyot – bu odamlar jamiyati, muayyan, cheklangan resurslardan foydalanib, kerakli mahsulot yoki xizmatlarni ishlab chiqish, odamlar guruhlarida o'rtasida taqsimotiga aytiladi.

Korxonalar iqtisodiyoti - qanday yuqorida keltirilgan vazifa ayrim korxonalar chegarisida hal etilishi haqidagi fan.

«Korxonalar iqtisodiyoti» «Iqtisodiyot» fanining tarkibiy qismi bo'lsada, mustaqil bilimlar sohasi hisoblanadi.

1-jadval.

Korxonalar iqtisodiyoti fani o'rganadigan masalalar tarkibi

MENEJMENT	ISTE'MOLCHI
Resurslar (moddiy, mehnat, moliyaviy)	Moliya, byudjet
Korxonalar iqtisodi	Bank, kredit soliq sug'urta
Marketing va logistika	Buxgalgeriya hisobi, statistika

Hozirgi kunda korxonalar iqtisodiyotiga bo'lgan qiziqish sezilarli ravishda o'sgan. Gap shundaki, bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi huquqiy-tashkiliy shakldagi korxonalar, xom ashyo, material va asbob-uskuna etkazib beruvchilar, shuningdek, bevosita mahsulot yoki tovar

⁶ И. Каримов. “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади” – 2010 йилнинг асосий яқунлари ва 2011 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

iste'molchilari (xaridorlar) bilan yangicha iqtisodiy munosabatlar vujudga kelib, rivojlanib bormoqda. Bundan tashqari, korxonalar, bu – avvalo ishlab chiqarish jamoasi, odamlarning turli tarzdagi faoliyati bo'lib, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi yuzaga keladi hamda ma'lum bir turmush tarzi, ma'naviyat va axloq normalari shakllanadi. Bularning barchasi xo'jalik yuritish shakli va usullarini qayta ko'rib chiqish, korxonaning iqtisodiyot rivojlanishidagi o'rni va roliga yangicha yondashishni talab qiladi.

Bugungi kunda aksari korxonalar aktsiyadorlik jamiyatlari, xolding va moliya-sanoat guruhlarini tuzish yo'lidan bormoqda. Davlat korxonalarining tashabbuskorligi, ijodiy izlanish va tadbirkorligi uchun keng yo'l ochib, ularning ishlab chiqarish funksiyalarini rejali iqtisodiyot davridagi kabi nazorat, limit va qattiq normalar bilan cheklab qo'yayotgani yo'q. Ya'ni qonunda taqiqlab qo'yilgan hollardan tashqari barcha holatlarda mustaqil xo'jalik faoliyati va erkinligi zamonaviy korxonalar faoliyatining eng asosiy xususiyati bo'lib, mazkur o'quv qo'llanmada ko'rib chiqiladigan barcha masalalar ushbu asosda yuzaga kelgan.

Biroq bozor iqtisodiyoti avtomatik ravishda muvaffaqiyat va to'kinlikni ta'minlab beradi, davlat esa barcha korxonalar faoliyatiga umuman aralashmaydi, deb o'ylash mutlaqo xato bo'lar edi. Davlat iqtisodiyotning asosiy islohotchisi bo'lib kelgan va hozir ham shundayligicha qoladi. Davlat o'z zimmasidan ma'muriy-buyruqbozlik funksiyalarinigina soqit qilib, maxsus iqtisodiy ta'sir choralari yordamida iqtisodiyotni nazorat qilish va boshqaruv funksiyalarini, Shuningdek, iqtisodiyotning xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning to'g'ridan-to'g'ri majburiyatiga kirmaydigan hamda ularning qo'lidan kelmaydigan sohalarni rivojlantirishdagi ishtirokini saqlab qolgan.

Agar o'n yil oldin, ya'ni 2000 yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida sanoatning hissasi atigi 14,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda bu ko'rsatkich 24 foizni, transport va aloqaning ulushi tegishli ravishda 7,7 va 12,4 foizni tashkil etdi, xizmatlar bo'yicha bu raqam 37 foizdan 49 foizga o'sdi. qishloq xo'jaligining ulushi esa 30,1 foizdan 17,5 foizga tushdi."

I.Karimov (ma'ruzadan)

Ma'lumki, iqtisodiyot jamiyat holatini, ishlab chiqarish kuchlaridan foydalanish va ularning rivojlanish darajasini, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanishni, odamlarning madaniyati va ma'lumoti darajasi va hokazolarni aks ettiradi.

«Korxonalar iqtisodiyoti»

bilimlarning mustaqil sohasi va iqtisodiyot fanining tarkibiy qismi sifatida masalaning aynan Shu tomoniga ko'proq e'tibor qaratadi. Jamiyat uchun

zarur bo'lgan moddiy boyliklardan tashqari milliy daromadning ham asosiy qismi aynan korxonalarda ishlab chiqarilishi sababli korxonalar iqtisodiyotining holati butun xalq xo'jaligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi, deb hisoblanadi.

Korxonalar qaysi tarmoqqa mansubligi va mulk shaklidan qat'i nazar qanchalik yaxshi va samarali ishlasa, iqtisodiyot ko'rsatkichlari hamda aholining turmush tarzi shunchalik yuqori bo'ladi.

Bunday sharoitlarda xo'jalik amaliyoti va fan oldiga **birinchi o'rinda** har bir korxonalar, to'g'rirog'i, ishlab chiqarishda qatnashuvchi butun jamoaning bozor munosabatlariga asoslangan hozirgi iqtisodiyotning rivojlanish tendentsiyalari va qonunlarini, avvalo, uning asosiy ko'rsatkichlari - talab va taklif tushunchalarini bilishi va to'g'ri tushunishi, **ikkinchidan**, milliy iqtisodiyotning rivojlanishi va mamlakatni rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shilishida o'z hissasini qo'shishi, **uchinchidan** esa, ishlab chiqarishning har bir bo'g'inida yuqori samara va sifat ko'rsatkichlariga erishish masalasi qo'yiladi.

Iqtisodiyotning rivojlanishiga kerakli bilim va ko'nikmalarni, mablag' va kuchlarni kiritmasdan turib korxonalar ham, jamiyat ham rivojlangan iqtisodiyotni hamda moddiy ne'matlarning to'kinligi va turmush tarzining yuqoriligini talab qila olmaydi.

Hozirgi kunda bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va korxonalarining mustaqil faoliyat ko'rsatishlariga keng imkoniyatlar ochib berish bilan birga kadrlarga, ularning bilimlari, ko'nikmalari va malakalariga katta talablar qo'yimoqda. Bir tomondan fan-texnika taraqqiyoti, ikkinchi tomondan esa bozor munosabatlari va raqobatchilikning rivojlanib borish sharoitlarida mehnat bozorida faqatgina zamonaviy korxonalar iqtisodiyotini yaxshi biluvchi, uning balansini to'g'ri tushunuvchi, biznes-reja ishlab chiqarishga qodir, investitsion va boshqa xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan qarorlarni qabul qilishni to'g'ri amalga oshiruvchi mutaxassislar muvaffaqiyatga erishishi mumkin.

Bundan ko'rinib turibdiki, asosiy e'tibor korxonalar mablag'lari va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi ko'lamini oshirish va buning natijasida ishlab chiqarishning texnika va texnologik quvvatlarini modernizatsiyalash, mehnat unumdorligini oshirish orqali aholining yuqori daromad olishiga erishish, bularning oqibatida esa, mamlakat farovonligini yuksaltirish maqsad etib qo'yilgan.

Investitsiyalar – asosiy va aylanma kapitalni qayta tiklash va ko'paytirishga, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qilingan

sarflarning pul shaklidagi ko'rinishi. U pul mablag'lari, bank kreditlari, aktsiya va boshqa qimmatli qog'ozlar ko'rinishida amalga oshiriladi.


Investitsiya dasturi - respublika iqtisodiyotini barqaror va tadrijiy rivojlantirishga erishishga, tabiiy, mineral-xom ashyo, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish yo'li bilan respublika ayrim tarmoqlari va mintaqalarini tarkibiy o'zgartirishning asosiy ustuvorliklarini va strategik vazifalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan bir-biri bilan o'zaro bog'langan chora-tadbirlar kompleksi.

Investitsiya muhiti – investitsiyalar jozibadorligi hamda xavf-xatar darajasini belgilab beruvchi ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy va siyosiy omillar majmui.

Investorlar – xususiy va qarzga olingan mulkiy va intellektual qiymatlarni sarflash haqida qaror qabul qiluvchi investitsiya faoliyati sub'ektlari. Investorlar ob'ektlar va investitsiya natijalariga egalik qilish, foydalanish va tasarruf qilish huquqiga ega bo'ladi. Investorlar kreditorlar va haridorlar rolini bajarishlari, Shuningdek investitsiya faoliyatining boshqa ishtirokchilari funktsiyalarini bajarishlari mumkin. Odatda investorlar kapital qo'yilmalar sarflanadigan sohalarni aniqlaydilar, kontrakt va shartnomalarning shartlarini ishlab chiqadilar va investitsiya aktining boshqa tomonlari bilan – kontraktor, hukumat organlari, pirovard mahsulot ishlab chiqaruvchilar va Shu mahsulotning iste'molchilari bilan hisob-kitoblarni amalga oshiradilar.

“Ya'ni, erishilgan bunday marralar – barqaror rivojlanib borayotgan iqtisodiyotga asoslangan, ochiq demokratik huquqiy davlat qurish, inson, uning manfaatlari, huquq va erkinliklari so'zda emas, amalda oliy qadriyatlar darajasiga ko'tarilgan, jahon miqyosida obro'-e'tibor qozongan jamiyat barpo etish borasida biz o'z oldimizga qo'ygan yuksak maqsadga qaratilgan uzoq va murakkab yo'lning bir qismi, xolos.”⁷

⁷ И. А. Каримов. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” маърузаси// Халқ сўзи газетаси, 12.11.2010.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturining 2010 yilga belgilangan asosiy ko'rsatkichlari mln.so'm.

Manba: Davlat statistika Qo'mitasining ma'lumotlari asosida tayyorlangan

Biroq Shuni ham unutmaslik kerakki, istalgan bilimlar doimo to'ldirib va mukammallashtirib borilmas ekan, eskirib qolishi hamda korxonalar hayotida vujudga keluvchi turli xil vazifalarni hal qilishga yaramay qolishi mumkin. Gap shundaki, fan-texnika va iqtisodiyotning rivojlanishi qo'shimcha bilimlar chegarasini kengaytiradi hamda korxonalar xodimlarining hozirgi kun talablariga javob beruvchi bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishlarini talab qiladi. Shu sababli olingan axborotlar, o'rganilgan formula, atama va kategoriyalar bilan cheklanib qolish yaramaydi. Ularni doimiy ravishda to'ldirib, fan va xo'jalik amaliyotining so'nggi yutuqlari asosida rivojlantirib borish lozim. Olingan bilimlar faqat Shu asosdagina amaliyotda qo'llanib, jamiyatning bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylanishi mumkin.

«Korxonalar iqtisodiyoti» fan sifatida boshqa iqtisodiy fanlar bilan, jumladan, «Iqtisodiy nazariya», «Mikro va makroiqtisodiyot», «Sanoat iqtisodiyoti», «Lizing», «Korxonalarda ishlab chiqarishni tashkil qilish», «Xom ashyo etkazib berish va mahsulotni sotishni o'rganish» bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unda korxonalarining tashkiliy tuzilmasidan tashqari joriy va istiqboldagi ishlab chiqarishni rejalashtirish, mehnat

iqtisodiyoti va sotsiologiyasi o'rganiladi hamda mehnatni tashkil qilish va haq to'lashning asoslari ishlab chiqiladi.

«Korxonalar iqtisodiyoti» korxonalar faoliyati va butun xalq xo'jaligi rivojlanishining miqdor ko'rsatkichlarini sifat ko'rsatkichlaridan ajralmagan holda o'rganuvchi «Iqtisodiy statistika» bilan, Shuningdek, joriy va istiqboldagi ishlab chiqarishni hamda ishlab chiqarish texnologiyalarini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan «Korxonalar xo'jalik faoliyatining tahlili» bilan ham bog'liq. Gap shundaki, korxonalar hayotida ro'y berayotgan iqtisodiy jarayonlarni texnika va texnologiyalarni bilmasdan o'rganishning iloji yo'q. Fan-texnika taraqqiyoti sharoitlarida texnika va texnologiyada jadal sur'at bilan yuz berayotgan o'zgarishlar nafaqat ishlab chiqarish xususiyatlarida, balki ayirboshlash, taqsimlash va iste'mol qilish hamda ishlab chiqarishning iqtisodiy natijalarida ham aks etadi va shu sababli mazkur fanni o'rganishda hisobga olinmasligi mumkin emas.

Mazkur fanning «Korxonalar xo'jalik faoliyatining tahlili» fani bilan o'zaro aloqasini alohida ko'rsatib o'tish kerak. Bunda ishlab chiqarishning moliyaviy va boshqa jihatlariga baho berish, zahiralarni aniqlashdan tashqari, bashoratlash yordamida korxonalar rivojlanishining istiqbollari aniqlanadi.

Bozor iqtisodiyoti rahbarlarga va mutaxassislariga yangi iqtisodiy fikrlashni, Yangicha ish yuritishni, minglarcha sub'ektlar va iste'molchilar bilan o'z faoliyatini muvofiklashtirish, situatsiyalarni, jarayonlarni o'z manfaati va maqsadiga yo'naltirish, ularni chuqur tahlil qilish, kelajak uchun rejalashtirish kabi muammolarni hal qilish yo'llarini bilish talablarini qo'yadi. Bularsiz raqobatchilik sharoitida har qanday korxonalar, firma inqirozga uchrab qolishi ehtimoldan uzoq emas. Bu borada bo'lajak rahbarlar, mutaxassislar, tadbirkorlarga korxonalar iqtisodiyoti fannidan olgan bilimlari asqotadi degan umiddamiz

1.3. «Korxonalar iqtisodiyoti» kursining ob'ekti, predmeti, vazifalari va fanining usullari

«Korxonalar iqtisodiyoti» xuddi boshqa fanlar kabi birinchi o'rinda o'rganish funksiyasini bajaradi. Uning mahsulot ishlab chiqarish moddiy-texnika resurslarini sarf qilishni talab qilishi bilan, xodimlar mehnati ularga haq to'lash va rag'batlantirishning boshqa shakllari bilan, daromad hajmi esa xarajatlar miqdori va bahoni shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan qo'shma korxonalarda sodir etiluvchi hodisa va jarayonlarni o'rganishi va

izohlashi mo'ljallangan. Bunda gap qandaydir omillarni oddiy tarzda konstantsiya qilish haqidagina emas, balki korxonalar iqtisodiy hayotining mohiyatini anglash, ularning iqtisodiy ahvolini yaxshilash yo'llarini tanlash, baholash va tahlil qilish, eng muhim iqtisodiy jarayonlarni prognozlashtirish va modellashtirish haqida ham boradi.

Ob'ekt lotincha «**objektum**» so'zidan olingan bo'lib, o'zbekcha narsa, buyum mazmunini bildiradi. Falsafada esa ob'ekt so'zi bizdan tashqarida va bizning ongimizga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan borliq, voqelik, moddiy dunyo, mavjudot mazmunida hamda kishi faoliyati, diqqat-e'tibori qaratilgan hodisa, predmet yoki shaxs ma'nosida ham ishlatiladi.

Oddiy hayotda ob'ekt korxonalar, tashkilot, muassasa yoki biron bir faoliyat o'tkaziladigan joy ma'nosida tushuniladi.

Har qanday fanning o'rganadigan, uning maqsadi qaratilgan ob'ekti mavjud.

Korxonalar iqtisodiyoti fanining ob'ekti iqtisodchi olimlar tomonidan har xil ta'riflanadi va ular bir-biridan mazmunan farq qiladi. Nemis olimlari F.K.Bea, E.Dixtla, M.Shvayttslerlar madaniyat korxonalar iqtisodiyotining ob'ekti deb hisoblaydilar. Ularning fikricha doimiy o'zgarib turuvchi iqtisodiy reallik haqiqatda olganda boshqa hodisalar (diniy, xuquqiy, badiiy, texnikaviy, tibbiy xarakterdagi) bilan tig'iz bog'liq bo'lib, ular majmuasi (yig'indisi) korxonalar iqtisodini tajribaviy asosini tashkil qiladi. Bu asosini ular milliy madaniyat deb hisoblash mumkin deydi. ularning fikricha, iqtisodiy muammolar va iqtisodiy hatti-harakatlar madaniyat sohasi bilan to'la integratsiyalashadi.

Rossiya olimlari (V.YA.Xripach, G.Z.Susha, G.K.Onoprienko va boshqalar korxonalar iqtisodiyoti fanini ob'ektini «korxonalar» deb hisoblaydi. K.A.Raitskiy) -«Alohida xo'jalik sub'ektlarida ro'y berayotgan barcha jarayonlar va ulardan kelib chikganlar» deb ta'rif beradilar.

Nemis olimlari-«Sanoat, korxonasi, hunarmandlik korxonasi, savdo korxonasi, bank, sug'urta tashkiloti, davlat organi, teatr, oliy maktab, muzey yoki machitmi farki yo'q. Bularning hammasi korxonalar iqtisodining ob'ekti bo'lib hisoblanadi va ular bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy masalalar tadqiqot predmeti bo'lishi mumkin» deb ta'kidlaydilar.

Mamlakat olimlari korxonalar iqtisodiyoti fanining ob'ekti deb barcha mulk shakllariga mansub «Korxonalar to'g'risida»gi qonun asosida faoliyat yuritayotgan kichik, o'rta va yirik korxonalar tushuniladi deb ta'kidlashadi.

Yuqorida keltirilgan korxonalar iqtisodiyoti fanining ob'ektiga berilgan ta'riflarga chuqur nazar solsak, ularning har biri biz keltirgan «Ob'ekt» so'zini mazmuniga qandaydir yaqinligi bor. Lekin korxonalar iqtisodiyoti fanining ob'ektiga ta'rif berganda bir fikrga kelish uchun, korxonalar (kichik, o'rta, yirik) deganda biz ko'z oldimizga nimani keltiramiz, madaniyat degandachi, xo'jalik sub'ektidagi ro'y berayotgan jarayonlar va ulardan kelib chiqadiganlarga nimalar kiradi? - degan savollar echimini topish zarur.

Korxonalar, firma, muassasa deganda qandaydir faoliyat bilan shug'ullanadigan joy, bino ko'z oldimizga keladi. Binoni joylashtirilishi, qurilishi, arxitekturasi va boshqa jihatlarini ob'ekt sifatida o'rganadigan fanlar mavjud. Korxonalar iqtisodiyoti fanining metodoloyasi, uning maqsadi, diqqat-e'tibori korxonalar ichida uning faoliyatida sodir bo'layotgan iqtisodiy reallikka qaratiladi.

Madaniyat - ijtimoiy-tarixiy amaliyotda inson tomonidan ijod etilgan yoki yaratilgan (yaratilayotgan) moddiy va ma'naviy boyliklar majmuasi bo'lib, ularni har xil jihatlarini o'rganadigan, unga mos fanlar (falsafa, madaniyatshunoslik, estetika, arxitektura va hokazolar) mavjud.

Nemis olimlari aytgan iqtisodiy muammolar, iqtisodiy hatti-harakatlar madaniyat sohasi bilan integratsiyalashganini inkor qilib bo'lmaydi. Lekin bu hol madaniyat - korxonalar iqtisodiyoti fanining ob'ekti deb ta'kidlashga ham asos bo'la olmaydi.

Korxonalar iqtisodiyoti fani sanoat korxonasida mahsulot ishlab chiqarishni texnologik jarayonini yoki teatrdagi peesani, kinoteatrdagi filmni jihatlarini o'rganmaydi, aksincha, u korxonalar faoliyatining iqtisod, jihatlarini, ishlab chiqarish hajmi, tannarh daromad, foyda ishchilar soni, ish haqi, xarajatlari va hokazolarni o'rganadi va bular korxonalar iqtisodiyoti fanining predmetidan joy oladi.

Bu xulosalar K.A.Raitskiy bergan ta'rifga ham taalluqli, Chunki u bergan ta'rif («...alohida xo'jalik sub'ektlarida ro'y berayotgan barcha jarayonlar..») bo'yicha korxonalar fani ob'ektiga barcha jarayonlar kiritilayapti.

Korxonalar iqtisodi - haqiqatdan olganda tajribaga asoslangan amaliy fanlar tarkibiga kirib, u har kunlik korxonalar faoliyatida ro'y berayotgan iqtisodiyotga oid makoniy va zamoniylar dalillarni, hodisalarni va muammolarni o'rganish, tahdil qilish, rejalashgirish va boshqarish masalalarini o'rganadi.

Korxonada iqtisodiy o'rganadigan iqtisodiy reallik inson va uning faoliyatiga bog'liq bo'lib, u inson tomonidan vujudga keltiriladi va takomillashtiriladi. Shu sababli iqtisodiy reallik o'z tabiati bo'yicha doimiy o'zgaruvchidir.

Shunday qilib korxonada iqtisodiy fanining ob'ekti shunaqa ko'rinishdagi korxonada, korxonada ro'y berayotgan jarayon va madaniyat bilan chegaralanishi, yoki o'z chegarasidan chiqib ketmasligi zarur. Mulliflarning fikricha, korxonada iqtisodiyoti fanining ob'ekti - korxonada faoliyatida ro'y berayotgan iqtisodiy reallikdir.

Bu erda korxonada mulk shaklidan, tarmoq va sohalaridan, katta kichikligidan qat'i nazar ko'rilmoqda. Korxonada iqtisodiy reallikdan tashqari texnik-texnologik, ilmiy-texnik, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy va ma'rifiy jarayonlar, hodisalar xam ro'y beradi. Korxonada iqtisodiyoti fani ularni korxonada iqtisodiy faoliyatiga ta'sir qiluvchi omil sifatida o'rganadi.

Lekin ular korxonada iqtisodiyoti fanining to'g'ridan-to'g'ri predmetiga kirmaydi. Bu hodisalar va jarayonlar boshqa fanlarni predmetiga kiradi.

Korxonada iqtisodiyoti fanining ob'ekti - korxonada faoliyatida ro'y berayotgan iqtisodiy reallikdir.

Korxonada iqtisodiyoti fani o'z ob'ektida ro'y berayotgan real iqtisodiy hodisalarni o'rganib, ularning ahamiyati, holati va kelajagini yoritib, ma'lumot berishni o'rgatishi zarur.

Shu sababli fanning ob'ekti doirasida, uning predmetini aniqlab olish, fanni o'qitishda, talabalar tomonidan uni o'zlashtirishda chuqur nazariy va amaliy ahamiyat egallaydi.

Mazkur fanning tadqiqotlari ob'ekti bu kichik, o'rta va yirik korxonalar bo'lib, ular turli mulk shakliga ega bo'ladi hamda O'zbekiston Respublikasining "Korxonalar to'g'risida" gi qonuni asosida tashkil qilinadi. Hozirgi kunda iqtisodiy faoliyatning, moddiy ishlab chiqarishning joriy va istiqbolli rivojlanish strategiyasi hamda mamlakat iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashning asosiy og'irligi aynan korxonalar "elkasi" ga yuklatilmoqda.

Kichik biznes sub'ektlari – korxonada ko'lami, ishlab chiqarish hajmi, ishlovchilar soni, moliyaviy mablag'lari miqdori va boshqalar jihatidan imkoniyatlari cheklangan ishlab chiqaruvchi sub'ektlar. Respublikamizda sanoat ishlab chiqarishning ayrim tarmoqlarida (masalan, engil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik sanoati va h.k.) 100 kishigacha, ayrimlarida (masalan, mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-

energetika sanoati va boshqalarda) 50 kishigacha, xizmat ko'rsatish sohasida 25 kishigacha ishlovchi korxonalar kichik biznes sub'ektlari hisoblanadi.

Xususiy tadbirkorlik – bu fuqarolar (alohida fuqarolar) tomonidan o'zlarining tavakkalchiliklari va mulkiy javobgarliklari ostida, shaxsiy daromad (foyda) olish maqsadida amaldagi qonunchilik doirasida amalga oshiriladigan tashabbuskor xo'jalik faoliyatidir.

Kichik korxonalar – mustaqil xo'jalik faoliyatini olib boruvchi, o'z balansiga ega bo'lgan, soliqlar va boshqa to'lovlarni to'lagandan so'ng qolgan foydasini o'zi taqsimlaydigan korxonalar.

Mikrofirma – kichik biznes korxonasining bir turi. Mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarishning tarmoqlarida 20 kishigacha, xizmat ko'rsatish sohasida 10 kishigacha, savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishigacha ishlovchi korxonalar mikrofirma hisoblanadi.

Korxonalar iqtisodiyotning bir bo'g'ini bo'lib, unda eng malakali kadrlar mujassamlangan hamda samarali boshqaruv - menejment qo'llanib, resurslardan oqilona foydalanish va zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish masalalari hal qilinadi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning yuqori sifat ko'rsatkichlarini saqlagan holda xarajatlarni minimallashtirish va daromad (foyda)ni maksimallashtirish deyarli har bir korxonaning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan, mamlakatimizning salohiyati, qudrati va iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan navbatdagi muhim ustuvor yo'nalish – bu asosiy etakchi sohalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, transport va infratuzilma kommunikatsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan strategik ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun faol investitsiya siyosatini olib borishdan iborat.


I.Karimov (ma'ruzadan)

“Mustaqil

taraqqiyotimizning o'tgan davrida amalga oshirgan ishlarimizni sarhisob qilar ekanmiz, ularni haqqoniy baholash va islohotlar dasturiga ma'lum o'zgartishlar kiritish bilan birga, birinchi navbatda ertangi kun talablaridan kelib chiqqan holda, mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilish yo'lidagi izchil harakatlarimizni kuchaytirishimiz, ularni yangi, yanada yuqori bosqichga ko'tarishimiz darkor.”⁸

⁸ И. А. Каримов. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” маърузаси// Халқ сўзи газетаси, 12.11.2010.

Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikning ЯИМ даги улуши, фоизда



3-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAIM dagi ulushi, foizda.

Manba: Davlat Statistika Qo'mitasining ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Korxonalar xo'jalik mexanizmi ierarxik tuzilishidan qat'iy nazar uning elementlari shakl nuqtai nazardan bir xil ko'rinishda namoyon bo'lib, lekin mazmunan bir-biridan farq qiladi. Bizning maqsadimiz korxonalar xo'jalik mexanizmi mazmunini va elementlarini yoritib berish bo'lganligi uchun faqat xo'jalik mexanizmini korxonalar faoliyati doirasida ko'rib chiqamiz.

Bizning fikrimizcha, korxonalar xo'jalik mexanizmi quyidagi elementlardan tashkil topadi:

Birinchidan, ishlab chiqarishni tashkil qilish shakllari, korxonalar va tadbirkorlikning shakl va turlari, ularni ixtisoslashi, kooperativlashishi, konsentratsiyalanishi va hokazolar.

Ikkinchidan, korxonani boshqarish tarkibi, usul va shakllari. Bu element iqtisodiy munosabatlarni boshqaruv aspektiga tuzilishini, ishlab chiqarishga ta'sir qilish uchun ishlatiladigan ma'muriy va iqtisodiy usullarni o'z ichiga oladi.

Uchinchidan, korxonaning davlat organlari va iqtisodiyot boshqa

sub'ektlari bilan moliyaviy-kredit munosabatlari, xo'jalik aloqalari.

To'rtinchidan, korxonada faoliyatida ishlatiladigan iqtisodiy rag'batlantirish shakllari, usullari, iqtisodiy dastaklar (baho, ish haqi, foydalar kabi).

Beshinchidan, korxonada faoliyatini ishlab chiqarishni tartibga solishni xuquqiy shakl va usullari. Yuridik qonunlar, davlat organlarining normativ hujjatlari, ko'rsatmalari, korxonaning nizomi, ustavi va xokazolar.

Oltinchidan, ishlab chiqarishga ta'sir qiluvchi sotsial-psixologik omillar.

Ettinchidan, davlatning iqtisodiy siyosati. Bozor iqtisodiyotiga o'tash davrida O'zbekiston Respublikasi davlatining iqtisodiy siyosatining asosiy negezini Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov tomonidan nazariy asoslangan beshta ustuvor yo'nalishlari tashkil qiladi. Ularning asosiy mazmuni quyidagilarda o'z ifodasini topadi.

....mohiyat e'tiboriga ko'ra, avvalo, eski ma'muriy-buyruqbozlik, taqsimlash tizimidan bozor munosabatlariga asoslangan boshqaruv tizimiga o'tish bo'yicha biz tanlagan, mashhur besh tamoyilni o'z ichiga olgan o'zbek modeli, davlatimiz va iqtisodiyotimizni bosqichma-bosqich, izchil isloh etish va tadjriy rivojlantirish strategiyasi uchun tom ma'noda sinov yili bo'ldi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor.

I.Karimov (ma'ruzadan)

1. Iqtisodiyotni siyosatdan ustunligi.

2. Davlat bosh islohotchi.

3. Qonun va Konstitutsiyaning ustuvorligi.

4. Kuchli ijtimoiy siyosat yurgizish.

5. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish.

Bu tartib va qoidalar korxonada iqtisodiyotida o'z ifodalarini topadi va korxonaning faoliyatini

yo'naltiradi.

Sakkizinchidan, raqobat, jur'at, xavfsizlik, tijorat sirlarining shakl va usullari.

Korxonaning xo'jalik mexanizmi murakkab va ko'p qirrali tushunchadir. Xo'jalik mexanizmini o'rganish orqali korxonada faoliyatida ro'y berayotgan iqtisodiy hodisalar va jarayonlarga baho berish, ularni rejalashtirish yo'llarini aniqlash imkoniyatiga ega bo'lamiz,

Yuqoridagilardan kelib chiqib korxonada iqtisodiyoti fanining predmetiga ta'rif berish mumkin.

Korxonada iqtisodiyoti **fanining predmeti** - korxonada ro'y berayotgan iqtisodiy reallikni shakllantiradigan, tartibga soladigan tashkiliy, iqtisodiy shakl va usullar yig'indisi, ya'ni korxonaning xo'jalik mexanizmidir.

Korxonada iqtisodiyoti fanining predmeti -korxonaning xo'jalik

mexanizmidir.

Fanning **predmeti** bozor munosabatlari sharoitlarida korxonalar faoliyatining nazariy va amaliy asoslarini, korxonalar faoliyatida iqtisodiy qonuniyatlarning namoyon bo'lishini, Shuningdek, ularning ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyati samaradorligini reurslardan oqilona foydalanish, ratsional boshqaruv, investitsion va tadbirkorlik faolligi asosida oshirish yo'llarini aniqlash bilan ifodalanadi.

Fanning predmetini tashkil qiluvchi eng asosiy muammo va masalalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

*0 bozor munosabatlari korxonaning roli, o'rni va xatti-harakatlari hamda davlat idoralari bilan o'zaro aloqalari;

*1 korxonaning tashkiliy strukturasi va boshqaruv mexanizmi;

*2 ishlab chiqarishni rejalashtirish va prognozlashtirish;

*3 korxonaning innovatsion va investitsion faoliyati;

*4 resurs korxonaning salohiyati va resurslardan foydalanish;

*5 ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini baholash va tahlil qilish;

*6 korxonaning tijorat sirlari va iqtisodiy xavfsizligi.

Bizning yaqin istiqboldagi eng muhim vazifamiz boshlagan ishlarimizni izchil davom ettirish – iste'mol talabini kengaytirish maqsadida sostiial sohani rivojlantirish, mehnatga haq to'lashni yanada oshirish, xizmat ko'rsatish sektorini, infratuzilma obektlarini rivojlantirishga, transport va kommunikatsiya loyihalari amalga oshirilishiga alohida e'tibor berishdir.

I.Karimov (ma'ruzadan)

Korxonada iqtisodiyotni o'rganish predmeti – korxonaning tijorat tashkiloti sifatidagi mohiyati asosiy ishlab chiqarish fondlari, aylanma mablag'lari, ishchi kuchi, investitsiyalarning o'zaro bog'lanishi, o'zaro harakati va ulardan foydalanishni Yaxshilash yo'llarini o'rganadi.

Yuqoridagi va boshqa savollar o'zgaruvchanlik dinamika asosida o'rganilib, zamonaviy korxonalarni boshqarishning turli shakl va usullari vujudga kelishi va yo'qolib ketishining tarixiy sabablari aniqlanadi. Bunday muayyan tarixiy yondashuv ushbu fanni o'rganishning muhim metodologik holatlaridan biri hisoblanadi.

Fanning maqsadi ta'lim olayotganlarga amaliy iqtisodiy bilimlarni, Shuningdek, mustaqil fikrlash hamda olingan axborotlar va mustaqil

o'rganish yordamida korxonalar iqtisodiyoti muammolari(masalalari) bo'yicha qaror qabul qilish ko'nikmalarini singdirishdir. Yana Yam aniqroq aytadigan bo'lsak, gap bo'lajak mutaxassislarni ishlab chiqarishni tashkil qilish, rejalashtirish va boshqarish vazifalarini malakali tarzda hal qilish, korxonaning xarajat va daromadlari qanday yuzaga kelishi hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyati mavjud bo'lgan yo'llarni topish haqida bormoqda.

“Ana shu maqsadlarga erishish uchun **“2011-2015 yillarda O'zbekiston sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida”gi dastur** tasdiqlandi. Ushbu dastur sanoat sohasida umumiy qiymati qariyb 50 milliard dollarni tashkil etadigan 500 dan ortiq yirik investitsiya loyihasini amalga oshirishni ko'zda tutadi.”⁹

Korxonalar faoliyatida shakllanadigan iqtisodiy reallik (hodisalar; jarayonlar) qanday vositalar orqali vujudga keladi?

Birinchi vosita bu inson omili, uning mehnati.

Ikkinchidan mehnat vositalari, Ya'ni kapital.

Uchinchi - tabiiy resurslar, er.

To'rtinchi omil - tadbirkorlik.

Keltirilgan to'rt omil orqali jamiyatda inson ehtiyojini qondirajak uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy boyliklar yaratiladi. Bu omillar korxonada birlashtirilib, tovar va xizmat ishlab chiqarilishiga yo'naltiriladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, korxonalar iqtisodiyoti fanining asosiy vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- iqtisodiy hodisalar va jarayonlarni, o'lchov birliklari, ko'rsatkichlari va kriteriyalarini aniqlash usullarini o'rganish;

- korxonalar xo'jalik mexanizmining holatini o'rganish, baholash, kelajakka bashorat qilish;

-bo'lajak iqtisodchilarni korxonalar faoliyatini tahlil qilish, rejalashtirish, kelajagini bashorat - qilish usullari bilan qurollantirish;

- xo'jalik yuritishni yangi shakl va usullarini aniqlash;

-barcha turdosh korxonalarining rivojlanish tendentsiyalari va qonuniyatlarini aniqlash, takliflar berish;

-korxonalarda birlashtirilgan omillardan (er, kapital, mehnat,

⁹ И. Каримов. “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз таракқиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади” – 2010 йилнинг асосий якунлари ва 2011 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

tadbirkorlik) samarali foydalanish yo'llarini belgilash. Chunki bu omillar jamiyat, tarmoq va sohalar bo'yicha, ayniqsa alohida korxonalar bo'yicha olinganda, makon va zamon birligida, chegaralangan ekanligini hech kim inkor qilmaydi.

Korxonona iqtisodiyoti fanining usullari.

Har qanday ilmiy fan o'rganadigan predmetidan kelib chiqib o'z usullarning (metodlarini) yaratgan. Metod grek tilidan «**metod**» so'zidan olinib, «biron narsaga yo'l topish» degan ma'noni bildiradi.

Fan usuli (metodi) deganda tabiat va jamiyatda sodir bo'layotgan hodisalar va jarayonlarni bilish, o'rganish va tadqiq qilish uchun fanda qo'llaniladigan usullar va uslublar majmuasi. tushuniladi.

Usul, falsafiy ma'noda qaralsa ilmiy fan o'rganadigan predmetni inson fikrida nusxalanishi yoki shakllanishini bildirib, ularni o'rganish quroli sifatida qaraladi.

Ongli ravishda, ilmiy asoslangan fan usullarini qo'llash, har bir fan uchun yangiliklar yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi

Barcha iqtisodiy fanlarning usullarini falsafiy asosi va umumiy bilish quroli sifatida dialektika usuli ishlatadi. Shu bilan birga bilish jarayonining rivojlanish asosida ilmiy fikr yuritishning umumiy usullari ham topilgan. Ular qatoriga induksiya, deduksiya, analiz va sintez kabilar kiradi.

Keltirilgan usullarni qisqacha mazmunini yoritib o'tamiz.

Aslida, tarixda dialektika dialog va tortishuv mahorati, ya'ni savol-javob orqali tortishuv o'tkazish qobiliyati hamda narsalar, tushunchalarni shakllar va turlarga tashiflash mahorati deb tushunilgan.

Dialektika grekcha so'zidan kelib - chiqib tabiat, jamiyat va tafakkurning umumiy qonunlarini o'rganish usuli sifatida vujudga kelgan.

Qadimiy falsafa tabiatda va jamiyatda butun borliq o'zgaruvchanligini asoslagan va hodisalar jarayonlarni bir holatdan ikkinchi qarama-qarshi holatga o'tishini isbotlagan. Aristotel dialektikani ehtimol fikrlarni isbotdash to'g'risidagi fan deb qaragan.

Butun borliq, mavjudotni har biri ham bor ham yo'q; o'z-o'ziga teng va teng emas; o'ziga o'xshaydi va o'zidan qarama-qarshi holatga o'tadi. Shuning uchun ham borliq to'la qarama-qarshilikdan iborat, yagona va ko'p, mangu va o'tuvchan; o'zgarmas va o'zgaruvchan; tinch holatda va harakatda. Bunday jarayonlarni o'rganish usuli sifatida dialektika vujudga kelgan.

Shunday qilib, falsafaning tabiat, jamiyat va tafakkurni o'rganish usuliga dialektika deb tushuniladi.

Iqtisodiy reallik ham butun jamiyatdagi borliqdi bir qismidir, shuning uchun iqtisodiy reallikda sodir bo'layotgan hodisalar va jarayonlarni o'rganishda barcha iqtisodiy fanlar, shu jumladan, korxonada iqtisodiyoti dialektika usulidan keng foydalanadi.

Induktsiya lotincha «dialektike» so'zidan olingan bo'lib habar olish mazmunini bildiradi, U fikr yuritganning bir tipi va tadqiq qilish usulidir. Umuman, induksiya tadqiqot qilishda, xulosalarni asoslashda xususiylikdan, ayrim voqelikdan umumiylikka o'tish usulidir. Iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda umumiy nazariy bilimga ega bo'lish uchun uning alohida tomonlari, empirik asoslari o'rganilib xulosa qilinadi.

Deduktsiya lotincha «deduktio» so'zidan olinib so'zma-so'z «chiqarish» ma'nosini bildiradi. Deduktsiya ham induksiya kabi fikr yuritishni bir tipi va tadqiq qilish usuli bo'lib, induksiya usulini teskarisini ishlatadi. Deduktsiya usuli ishlatilganda umumiylikdan xususiylikka qarab fikr yuritiladi va tadqiqot olib boriladi.

Induktsiya va deduktsiya logik fikr yuritishga asoslangan. Iqtisodiy tadqiqotlar o'tkazishida ayrim belgilarni tahlil qilib uning asosida umumiy jarayonga baho berish yoki uning teskari hollari yuz berishga ko'p to'qnashamiz.

Analiz va sintez grekcha «analysis» va «synthesis» so'zlaridan olingan bo'lib, analiz – bo'lish ajratish va **sintez** - muvofiqlik, munosiblik ma'nosini bildiradi. Analiz va sintez tadqiqot usuli bo'lib, umumiy mazmunni yaxlitlikni alohida tarkibiy bo'limlarga (xususiylikka) ajratish va yaxlitlikni alohida tarkibiy bo'limlardan yaratish jarayoniga tushuniladi. Bular ham tadqiqotni logik uslublaridandir. Iqtisodiy amaliyotda bu usullardan keng foydalaniladi. Bunga asos bo'lib «Iqtisodiy tahlil nazariyasi», «Xo'jalik faoliyatini iqtisodiy tahlili» degan fanlarning mavjudligi hisoblanadi.

Korxonada iqtisodiyoti ilmiy fan sifatida yuqorida keltirilgan falsafaning usullaridan va boshqa fanlarda ishlatiladigan ko'p arsinalli usul va uslublarni o'z predmetini o'rganishda ishlatadi. Tabiiy yo'nalishi bo'yicha bu usul va uslublar iqtisodiy jarayon va hodisalarni tahlil qilish, ilmiy tadqiqot o'tkazish, prognozlash, rejalashtirish qurollari sifatida ishlatiladi. Bir qator alomatlar bo'yicha bu usullar son va sifat tahlili, solishtirish, kuzatish, tajriba o'tkazish, sistemali tahlil, modellashtirish, estropolyatsiya, interpolyatsiya kabilarga bo'linadi. Bular bilan bir qatorda statistik, matematik bashorat (gipoteza) usullari keng ishlatiladi.

Iqtisodiy hodisalar va jarayonlari boshqaruv tizimiga, ularni o'rganish, tadqiqot qilish uchun iqtisodiy axborotlar majmuasi ishlatiladi, Ular fan ob'ektining xo'jalik faoliyati to'g'risida tasavvur beradi. Umuman, axborotlarsiz qandaydir qaror qabul qilish qiyin.

Axborot qabul qiluvchiga uch xil tushunish **filteri** orqali etkaziladi, Ya'ni qabul qilish, tushunish va baholash. Shu nuqtai nazardan axborot, qaror qabul qilish yoki biron bir vazifani bajarish uchun foydali bo'lgan, qabul qilingan, tushunilgan va baholangan yangi bilimlar qatoriga kiradi.

Axborotlar doirasi juda kengdir va uning har xil turlari mavjud: tabiat, tarix ijtimoiy hayot, siyosat to'g'risida, texnikaviy, iqtisodiy va hokazolar.

Iqtisodiy axborotlarga tushuncha berib o'tamiz,

Qisqacha qilib aytganda, iqtisodiy axborotlarda iqtisodiy jarayon va hodisalarning son va sifat tomonlari o'z ifodasini topadi. Iqtisodiy axborotlarga keng ma'noda qaralsa, quyidagilardan tarkib topadi:

Mamlakatimizni rivojlantirish, yangilash va modernizatsiya qilish bo'yicha tanlagan strategiyamizni va inqirozga qarshi qabul qilgan dasturimizni amalga oshirish natijasida yurtimiz dunyodagi sanoqli davlatlar qatorida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning barqaror sur'atlarini ta'minlash, aholimizning moddiy farovonligini yuksaltirishga erishgani barchamizga katta mamnuniyat va iftixor baqishlaydi, albatta.

I.Karimov (ma'ruzadan)

Bu o'rinda ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va mamlakatimizdagi xomashyo va resurslarga boy mavjud manbalardan oqilona foydalanish asosida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan yuksak texnologik mahsulotlarni ishlab chiqarishni ta'minlaydigan istiqbolli iqtisodiyot tarmoqlari haqida so'z bormoqda

I.Karimov (ma'ruzadan)

- boshqaruvchi va boshqariluvchi ob'ektlar o'rtasida aloqa vositasi sifatida ishlatiladi;

- barcha aloqador ob'ektlar, sub'ektlar orasida bir-biriga yuboriladigan xabarnoma sifatida ko'rinadi;

- boshqaruv qarorlarini asoslash va qabul qilish uchun zarur bo'lgan hodisalar, jarayonlar, munosabatlar va narsalarning xususiyati

to'g'risidagi yangi bilimlar majmuasi sifatida namoyon bo'ladi;

- hodisalar va jarayonlarni o'ziga xos xususiyatlaridan darak beruvchi xabarnoma sifatida tasavvur qilinadi;

- iqtisodiy usul va uslublarni ishga solish, fan predmetini o'rganish va tadqiq qilish hamda xulosalarini namoyon qilish uchun dastak bo'lib

xizmat qiladi.

“Faqat keyingi 10 yilning o’zida bosma ommaviy axborot vositalarining soni 1,5 barobar, elektron ommaviy axborot vositalarining soni esa 7 barobar ko’payib, bugungi kunda ularning umumiy soni qariyb 1200 taga etdi. Mavjud barcha telekanallarning qariyb 53 foizi, radiokanallarning esa 85 foizi nodavlat ommaviy axborot vositalari hisoblanadi. Ommaviy axborot vositalari O’zbekistonda yashaydigan millat va elatlarning 7 ta tilida faoliyat olib boradi, Shuningdek, bosma materiallar va teleko’rsatuvlar ingliz tilida ham tarqatilmoqda.”¹⁰

Yuqoridagilardan ko’rinib turibdiki, iqtisodiy ma’lumotlar iqtisodiyotda ahamiyati katta bo’lib, ishlatilish doirasi ham keng.

Konkret qilib ta’rif berilsa, iqtisodiy axborotlarda jamiyatda sodir bo’layotgan barcha iqtisodiy ishlarning son va sifat jihatlari (xajmi, mazmuni) o’z ifodasini topadi.

Qisqacha xulosalar

Iqtisodiyot – bu odamlar jamiyati, muayyan, cheklangan resurslardan foydalanib, kerakli mahsulot yoki xizmatlarni ishlab chiqish, odamlar guruhlarini o’rtasida taqsimotiga aytiladi.

«Korxonalar iqtisodiyoti» - iqtisodiy fanlarning tarkibiy qismi bo’lib, bozor strukturalari faoliyatining amaliy shakllari va nazariy asoslari hamda iqtisodiy faoliyat sub’ektlarining o’zaro aloqalari mexanizmini o’rganishga qaratilgan.

Korxonalar iqtisodiyoti – har qanday yuqorida keltirilgan vazifalarning ayrim korxonalar chegarisida hal etilishi haqidagi fan.

«Korxonalar iqtisodiyoti» fan sifatida zamonaviy mutaxassisga o’z sohasining bilimdoni bo’lishga, ishlab chiqarishdagi ahvolning o’zgarishiga tez moslashishi, qat’iy belgilangan maqsadga ega bo’lishi va eng asosiysi, zamonaviy korxonalarning xo’jalik mexanizmini bilishiga ko’maklashadi.

«Korxonalar iqtisodiyoti» fan sifatida tashkilotchilik malakasidan tashqari tadbirkorlik ruhini, bozor va raqobatchilik qonunlari haqidagi bilimlarni singdiradi hamda korxonalar hayotida eng samarali qarorlar qabul qilinishiga xizmat qiladi.

¹⁰ И. А. Каримов. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” маърузаси// Халқ сўзи газетаси, 12.11.2010.

«**Korxon**a iqtisodiyoti» kichik, oʻrta va yirik korxonalar oʻrtasidagi farqlarni, kichik va oʻrta korxonalarining yirik korxonalariga nisbatan moslashuvchanligi va raqobatbardoshligini hamda ularning bozor talablariga tezroq javob berishlarini koʻrsatadi.

«**Korxon**a iqtisodiyoti» muayyan iqtisodiy fan sifatida korxonalarni alohida, atrofdagi voqelikdan ajratgan holda emas, balki jamiyat hayotidagi barcha iqtisodiy hodisa va jarayonlar ishtirokida butun iqtisodiy tizimda oʻrganadi. Shu sababli mazkur fanning muhim belgisi sifatida korxonalarining raqobatga asoslangan bozor munosabatlari sharoitlaridagi faoliyati hamda boʻlajak mutaxassislariga bozor va raqobat qonunlarini oʻrgatishini koʻrsatish mumkin.

«**Korxon**a iqtisodiyoti» maqsadli vazifa sifatida xoʻjalik yurituvchi subʼektlarning taʼlim darajasini oshirishni koʻzda tutib, muayyan korxonalarda yuzaga kelayotgan ahvol uchun javobgarlikni oʻz zimmasiga olmaydi. Mazkur oʻquv kursi korxonalar hayotida roʻy berishi mumkin boʻlgan iqtisodiy hodisa va jarayonlarni umumlashtiradi va ochib beradi.

Korxona - iqtisodiyotning asosiy boʻgʻini. Bozor munosabatlari sharoitlarida iqtisodiy faoliyatning asosiy ogʻirligi turli xil mahsulot ishlab chiqaruvchi, xizmat koʻrsatuvchi hamda malakali kadrlar mujassamlanib, resurslarning turli xillaridan foydalaniluvchi korxonalar zimmasiga yuklatilgan.

Korxonalar iqtisodiyoti kursini oʻrganish predmeti – korxonaning tijorat tashkiloti sifatidagi mohiyati asosiy ishlab chiqarish fondlari, aylanma mablagʻlari, ishchi kuchi, investitsiyalarning oʻzaro bogʻlanishi, oʻzaro harakati va ulardan foydalanishni Yaxshilash yoʻllarini oʻrganadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Bozor iqtisodiyoti maʼmuriy-buyruqbozlikka asoslangan avvalgi iqtisodiyotdan nimasi bilan farqlanadi?
2. Iqtisodiy fanlar va aynan “Korxonalar iqtisodiyoti” fani jamiyat kadrlarining shakllanishida qanday rol oʻynaydi?
3. Ishlab chiqarish (sanoat) korxonasi bozorning xoʻjalik yurituvchi boshqa subʼektlaridan qaysi xususiyatlari bilan farqlanadi?
4. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida korxonalar faoliyatining maqsadi nimada?
5. Korxonaning bozor va ishlab chiqarish aloqalarini ochib bering.
6. Raqobatchilik korxonalar faoliyatiga qay tarzda taʼsir oʻtkazadi?

7. Zamonaviy korxonalarning faoliyati qaysi qonun hujjatlariga asoslangan? Korxonalar faoliyatiga bevosita ta'sir qiluvchi muayyan qonunlarni sanab o'ting.

8. "Korxonalar iqtisodiyoti" fani «Mikroiqtisodiyot» va «Makroiqtisodiyot» fanlaridan nimasi bilan farqlanadi?

9. Iqtisodiy siyosat, iqtisodiy muhit va iqtisodiy fanlarning o'zaro aloqalarini ko'rsatib bering.

10. Korxonaning iqtisodiy faoliyati bilan Shug'ullanuvchi zamonaviy mutaxassis qanday xislatlarga ega bo'lishi lozim?

2- BOB. Korxonalar – mustaqil xo'jalik yurituvchi bozor sub'ekti

2.1. Korxonalar - bozor iqtisodiyotining xo'jalik sub'ekti, milliy iqtisodiyot rivojlanishida korxonalarining o'rnini va roli

2.2. Davlat korxonalarini isloh qilish. O'zbekiston Respublikasidagi xususiyashtirish modeli

2.3. Korxonalarining belgilari va tasnifi

2.4. Korxonalar faoliyatini iste'molchilar talabiga yunaldirish. Mahsulotlarni standartlash metrologiya va sertifikatlash

Tayanch iboralar: Korxonalar, nizom, nizom jamg'armasi, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi, ishlab-chiqarish va texnika munosabatlarida korxonalar, ijtimoiy munosabatlarda korxonalar, tashkiliy-huquqiy munosabatlar va moliyaviy-iqtisodiy munosabatlarda korxonalar, korxonalar funktsiyalari, mikrofirmalar, kichik korxonalar, xususiyashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish, kommandit o'rtoqligi, mas'uliyati cheklangan jamiyat, kontsern, konsortsium, xo'jalik assotsiatsiyasi, korporatsiyalar, sindikat, trestlar, xoldinglar, standartlash, metrologiya, sertifikatlash.

2.1. Korxonalar - bozor iqtisodiyotining xo'jalik sub'ekti, milliy iqtisodiyot rivojlanishida korxonalarining o'rnini va roli

Bugungi kunda mustaqillikka erishgan milliy iqtisodiyotimizda miqdor va sifat jihatdan o'zgarishlar ro'y berayotgan sharoitda, mamlakatimiz iqtisodiyoti jamiyatni demokratiyalashtirish, iqtisodiyot salohiyatlarini mustahkamlash va mamlakatni rivojlangan davlatlar qatoriga kiritishga yo'naltirilgan, bozor munosabatlariga o'tishning mamlakatimiz uchun maxsus ishlab chiqilgan modeli asosida rivojlanib bormoqda. Bu model O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan iqtisodiyotni islohot qilishning beshta muhim tamoyiliga

asoslangan hamda xo'jalik faoliyati yurituvchi sub'ektlarning erkinligi, xususiy mulkchilik va tadbirkorlikni himoya qiluvchi zaruriy qonun hujjatlari bilan belgilab berilgan.

“O'zbekiston 1991 yili o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng umrini o'tab bo'lgan mustabid, ma'muriy-buyruqbozlik, rejali-taqsimot tizimidan voz kechib, “o'zbek modeli” deb nom olgan o'z taraqqiyot yo'lini tanlab oldi.”¹¹

Iqtisodiyotning rivojlanishi uchun talab qilinuvchi ushbu vazifalarning amalga oshirilishida korxonalar katta rol ajratilib, ular iqtisodiyotning asosiy ishlab chiqarish bo'g'ini bo'lish bilan birga mahsulot ishlab chiqarish, aholiga xizmat ko'rsatish tufayli iste'molchilarning talablarini ham qondiradilar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ma'muriy buyruqbozlik xo'jaligidan farqli o'laroq iqtisodiy faoliyat markazi barcha iqtisodiyotning asosiy bo'g'ini bo'lmish – korxonalar tomoniga siljib o'tadi.

Korxonalar – ijtimoiy ishlab chiqarishning bosh bo'g'ini bo'lib, unda ilmiy iqtisodiyotning asosiy iqtisodiy masalalari hal etiladi.

Mahsulotlar yaratish va xizmatlar ko'rsatish muayyan texnologik jarayonlar, mehnat qurollari materiallari, odamlarning bilimi va ko'nikmalari ijtimoiy mehnat taqsimoti va kooperatsiyalashga asoslangan hoda mustaqil amalga oshiriladigan tizimga aytiladi.

Korxonalar ish o'rinlarini beradi ish haqi to'laydi soliqlar to'lash yo'li bilan davlat va ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishda qatnashadi.

Aynan korxonada mahsulot ishlab chiqarish jarayonlari va ishchini ishlab chiqarish vositalari bilan o'zaro aloqasi amalga oshiriladi.

Korxonalar o'z faoliyatini o'zi boshqaradi, ishlab chiqarilgan mahsulotni olingan sof foydani soliq va boshqa to'lovlarni to'lagandan so'ng qolgan qismini tasarruf etadi.

.....mohiyat e'tiboriga ko'ra, avvalo, eski ma'muriy-buyruqbozlik, taqsimlash tizimidan bozor munosabatlariga asoslangan boshqaruv tizimiga o'tish bo'yicha biz tanlagan, mashhur besh tamoyilni o'z ichiga olgan o'zbek modeli, davlatimiz va iqtisodiyotimizni bosqichma-bosqich, izchil isloh etish va tadrijiy rivojlantirish strategiyasi uchun tom ma'noda sinov yili bo'ldi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor.

I.Karimov (ma'ruzadan)

¹¹ И. А. Каримов. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” маърузаси// Халқ сўзи газетаси, 12.11.2010.

Korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi va assortimenti, xilma-xilligi, xom ashyo etkazib beruvchilar va haridorlar baholarni shakllantirish, resurslardan tejimli foydalanish, kadrlarni qo'llash, yuqori unumli texnika va texnologiyadan foydalanish masalalari hal etiladi.

Korxonada faoliyatining samaradorligi ishlab chiqarishni quyidagicha tashkil etish shakllariga ega:

Kontsentratsiyalash, bir joyga jamlash;

Ixtisoslashtirish;

Kooperatsiyalash.

Ishlab chiqarishni murakkablashtirish kabi usullardan foydalanishga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan, **korxonada** bu - *huquqiy shaxs maqomiga ega, mustaqil ravishda xo'jalik faoliyati yurituvchi sub'ekt bo'lib, o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkidan foydalanish asosida iste'molchilar (xaridorlar) talabini qondirish va daromad (foyda) olish maqsadida mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqaradi va sotadi yoki ayirboshlaydi.*

Korxonada – ijtimoiy talablarni qondiruvchi va sof foyda olish maqsadida mahsulot ishlab chiqaruvchi, ishlar bajaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi mustaqil xo'jalik yurituvchi iqtisodiyot sub'ektidir.

Korxonada insoniyat ehtiyojlarini qondirish uchun vujudga kelgan jamiyatning birlamchi va asosiy bo'g'inidir.

Korxonaning mohiyati ham yuqoridagilardan kelib chiqadi.

Ijtimoiy ishlab chiqarish ishlatiladigan resurslarni turlari, ishlab chiqariladigan mahsulotlar, tovarlar va xizmatlar jihatlariga qarab tarmoqlarga bo'linadi. Masalan: og'ir sanoat, engil sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, aloqa, savdo, har xil xizmat ko'rsatish tarmoqlari kabilar. Tarmoqlar esa korxonalar va ularni birlashmalarini o'z ichiga oladi.

Taqqoslash uchun qayd etish mumkinki, 2009 yilda sanoat ishlab chiqarishi hajmi oldingi yilga nisbatan Qozog'iston Respublikasida atigi 1,7 foizga o'sgan bo'lsa, Rossiya Federatsiyasida 10,8 foizga, Ukrainada 21,9 foizga qisqardi.

“Agar o'n yil oldin, ya'ni 2000 yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida sanoatning hissasi atigi 14,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda bu ko'rsatkich 24 foizni, transport va aloqaning ulushi tegishli

ravishda 7,7 va 12,4 foizni tashkil etdi, xizmatlar bo'yicha bu raqam 37 foizdan 49 foizga o'sdi."¹²

Taqrmoqlar va sohalarini 4 xil katta guruhlariga bo'lish mumkin.

Birinchisi - o'z ichiga tabiiy boyliklarni, qishloq xo'jalik mahsulotlarini, daryolar, dengizlar, okeanlar, o'rmon resurslarini ishlab chiqaruvchi va qayta ishlab chiqarish sanoatlariga etkazuvchi tarmoqdar.

Ikkinchisi - tabiiy boyliklarni, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini daryolar, dengizlar, okeanlar, o'rmon resurslarini qayta ishlab chiqaruvchi tarmoqlar.

Uchinchisi - birinchi va ikkinchi guruhdagi tarmoklarga xizmat ko'rsatuvchi tarmoklar (transport, aloqa, kommunal xo'jalik, savdo-sotiq, tijorat, ta'minot kabilar).

Ijtimoiy ishlab chiqarish iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va sohalarini majmuasi mazmunida ishlatilmoqda.

To'rtinchisi - boshqaruv, yurispridentsiya, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa aholiga xizmat ko'rsatuvchi sohalaridan iboratdir.

Milliy iqtisodiyot taqrmqlar va sohalar majmuasidan iborat bo'lib, ular hududlarda tarixan shakllanib, bir-biri bilan maqsad va vazifalari, xo'jalik aloqalari orqali tig'iz bog'liq, umumiy qonun-qoidaga bo'ysunuvchi yagona tizimdir. Shu sababli uni iqtisodiyot nazariyasida ijtimoiy ishlab chiqarish sifatida qaraladi.

Milliy iqtisodiyot asosini korxonalar tashkil qiladi. Barcha inson uchun zarur bo'lgan moddiy, ijtimoiy, ma'naviy borliqlar korxonalarda yaratiladi. Korxonalar, tarmoqdar va sohalar tarkibi, mazmuni, masshtabi, rivojlanish darajasini belgilaydi. Ulardan tarmoq va xududiy birlashmalar tashkil topadi, shahar, tuman, viloyatlar tuziladi.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar – mamlakat yaxlit iqtisodiyoti darajasidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayon va hodisalarni o'lchash va baholash imkoniyatini beruvchi ko'rsatkichlar. Masalan, yalpi ichki mahsulot, milliy daromad, iqtisodiy o'sish, ishsizlik, Inflyatsiya darajasi va boshqalar.

Yalpi ichki mahsulot – mamlakatda bir yil davomida ishlab chiqarilgan jami pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor qiymati.

¹² И. Каримов. “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз таракқиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади” - Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

“Qariyb **yigirma yillik** mustaqil taraqqiyotimiz mobaynida O‘zbekistonda **yalpi ichki mahsulotning o‘shishi** 3,5 barobarni, aholi jon boshiga hisoblaganda esa 2,5 barobarni, aholining real daromadlari 3,8 barobarni tashkil etgani e‘tiborga sazovordir.”¹³

Xususan, yil yakuniga ko‘ra O‘zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o‘shishi 8,1 foizni tashkil etdi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 9,0 foizga ko‘paydi, qishloq xo‘jaligidagi o‘shish 5,7 foizni tashkil etdi, chakana savdo aylanmasi 16,6 foiz, aholiga pullik xizmat ko‘rsatish 12,9 foizga oshdi (1-jadval).

1-jadval.

O‘zbekistonda 2010 yilda erishilgan asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar (o‘tgan yilga nisbatan)


Asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar	2008 yil	2009 yil	2010 yil
Yalpi ichki mahsulotning o‘shishi	9,0	8,1	8,5
Sanoat mahsulotning o‘shishi	12,7	9,0	8,3
Xizmat ko‘rsatish hajmi	21,3	13,9	13,2
Savdo sohasi	7,2	16,6	15,7
Davlat byudjeti profitsiti (YAIMga nisbatan)	+1,5	+0,2	+0,3
Inflyatsiya darajasi	7,8	7,4	7,3
Iqtisodiyot bo‘yicha o‘rtacha ish hakining oshishi	40,0	40,0	32,0
Aholi jon boshiga real daromadlarning o‘shishi	23,0	26,5	23,5

Manba: Iqtisodiyot vazirligi ma‘lumotlari asosida tayyorlangan

Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, yalpi ichki mahsulotning qo‘shimcha o‘shish sur‘ati oldingi yillarga qaraganda kamroq bo‘lsada, yuqori darajada bo‘lgan. Ayniqsa, 2009 yilda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlari ta‘sirida MDH mamlakatlari bo‘yicha iqtisodiy o‘shish emas, balki aksincha, o‘rtacha 6,7 foiz hajmidagi iqtisodiy pasayish kuzatilganini e‘tiborda tutilsa, iqtisodiyotimizning bunday sharoitdagi o‘shishining naqadar ahamiyatli ekanini tushunish mumkin.

¹³ И. А. Каримов. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” маърузаси// Халқ сўзи газетаси, 12.11.2010.

Ayni paytda, keyingi yillar davomida yalpi ichki mahsulotning mutlaq qiymatlardagi o'sishi barqaror ravishda yuksalib kelmoqda (1-rasm).



1-rasm. O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning yillar davomida o'sish dinamikasi, foizda

Manba: Iqtisodiyot vazirligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'tgan yili yuzaga kelgan murakkab iqlim sharoitiga qaramay, mamlakatimizda ilk bor 7,3 million tonnadan ortiq don, Shu jumladan, 6 million 600 ming tonna bug'doy etishtirildi, 3,4 million tonna paxta xom ashyosi tayyorlandi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining kengayishi iqtisodiyotning boshqa soha va tarmoqlari ishlab chiqarish hajmidagi salmog'ining oshishi orqali ham namoyon bo'ldi. Xususan, mazkur sohaning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 2008 yildagi 13,9 foizdan 2009 yilda 16,9 foizga, qishloq xo'jaligida tegishli ravishda 97,8 foizdan 97,9 foizga, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida – 23,1 foizdan 23,7 foizga, pullik xizmat ko'rsatish hajmida – 48,5 foizdan 48,7 foizga, eksport hajmida – 12,4 foizdan 14,6 foizga qadar oshdi (2.-jadval).

2-jadval. O'zbekistonda kichik biznesning iqtisodiyot asosiy tarmoqlarida ishlab chiqarilgan mahsulot (ish,xizmat)lar hajmidagi ulushi, foizda

Ko'rsatkichlar	2008 y	2009 y	2010 y
Sanoat	13,9	16,9	19,6
Qishloq xo'jaligi	97,8	97,9	97,9
Qurilish	48,3	41,6	52,3

Savdo	48,1	46,5	50,5
Pullik xizmat	48,5	48,7	47,7
Eksport	12,4	14,6	13,6
Import	35,7	42,5	36,6

Manba: Iqtisodiyot vazirligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Korxonalarining faoliyati milliy iqtisodiyot va uning tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Korxonalar qanchalik yaxshi, samarali va rentabelli ishlasa, butun iqtisodiyotning, jumladan, ularning o'zlarining ham ko'rsatkichlari yuqori bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti korxonalar faoliyatini erkinlashtiradi, ularning mustaqilligini mustahkamlaydi hamda ishlab chiqarishni tashkil etish va rentabellikning yuqori ko'rsatkichlariga erishishga keng imkoniyatlar yaratadi, deb hisoblanadi. Balki haqiqatdan ham shundaydir. Biroq korxonalar, ayniqsa, davlatga tegishli bo'lgan korxonalar qanday ishlashi, uning jamiyatga keltiruvchi foydasi, rentabellik darajasi, xodimlarning bandligi qanday bo'lishi faqat korxonalarinigina emas, davlatning ham ko'z oldida bo'lishi zarur.

Xuddi shuning uchun ham davlat korxonalariga katta imkoniyatlar yaratib berish bilan birga ularni belgilangan tartibda nazorat qilib ham boradi. Davlat korxonalar "taqdiriga", ularning ishlab chiqarish faoliyati yakuniy natijalariga befarq qarab tura olmaydi. Bankrotga uchragan korxonalar, zarar keltiruvchi ishlab chiqarish, iqtisodiy nochorlik - bularning barchasi korxonalar jamoasi uchun ham, davlat uchun ham og'ir yuk hisoblanadi.

Aksariyat adabiyotlarda korxonaning maqsadi to'g'risida so'z yuritilganda, bu masalaga bir tomonlama qarashlarni kuzatamiz. Ya'ni korxonaning maqsadi o'z faoliyatidan foyda (daromad) olish deb ta'kidlanadi. Masalan: A.A.Sergeev - "Korxonalar - foyda olish maqsadida mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat qilish uchun barpo etilgan mustaqil faoliyat yurituvchi sub'ekt, - deb ta'riflaydi va shakllari ko'pligiga qaramay korxonalar foyda olish maqsadi orqali bir xil tus oladi, - deb ta'kidlaydi. Aslida korxonalar o'z mahsulotlariga bo'lgan talabini qanchalik to'la qondirsa uning samaradorligi Shuncha yuqori bo'ladi. Shu borada Amerika avtomobil qurilishini hamda "Amaliyot falsafasi" ni yaratgan "fordizm" nazariyasi asoschisi Genri Ford aytganlarini keltirish o'rinli deb hisoblaymiz. G.Ford o'zining tadbirkorlik faoliyatini jamiyatga xizmat qilishda, deb tushungan va "Faqat foyda olish uchun qilinadigan ish - eng yuqori darajadagi xavf-xatarli faoliyatdir.

Korxonaning maqsadi foyda olish yoki chayqovchilik emas, aksincha iste'mol uchun ishlab chiqarishdir. Bordiyu xalq ishlab chiqaruvchi, unga xizmat qilinmayotganligini sezib qolsa, uning kelajagi uzoqqa bormaydi deb ta'kidlagan.

Taniqli tadbirkor "Bin" firmasi boshlig'i L.P.Bkn firmaning memorandumida, hamma ishchi va xizmatchilari bajarishi shart bo'lgan, quyidagi tezisni yozdirib, unga rioya qilishni qattiq nazorat qilgan: "Iste'molchi - bizni nigohimiz: Biz iste'molchiga bog'liqmiz, iste'molchi bizga emas. Hech kim, hech qachon o'z iste'molchisi bilan tortishib, hech narsa yutmagan. Iste'molchi - bu bizga o'z talabini keltiruvchilar. Bizni ishimiz ularning talabini o'zimiz uchun hamda ular uchun ham foyda keltirish orqali qondirishdan iborat.

Bizning fikrimizcha, korxonaning asosiy maqsadi ikki yo'nalishdan iborat ekanligini ta'kidlash zarur. Birinchisi foyda yoki daromad olish uchun faoliyat yuritish bo'lsa, ikkinchisi talabni (ehtiyojni) qondirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Chunki bu maqsadlarni har biriga erishish ikkinchisiz amalga oshmaydi.


Korxonaning maqsadi

X – darajadagi foyda yoki daromad olish

U - darajadagi talab yoki ehtiyojni qondirish

Ushbu maqsadlarga erishish korxonadan bir qator boshqa maqsadlarni amalga oshirishini talab qiladi. Ular qatoriga texnik, ijtimoiy va ekologik maqsadlarni kiritish mumkin. Talab va standartga javob beradigan mahsulot yaratish hamda ishlab chiqarish va texnik rivojlanish programmalarini amalga oshirish uchun texnik maqsadlar qo'yiladi. Ularga eng avvalo tovar yoki mahsulotni Yaratish va tayyorlash, ularning sifat ko'rsatkichlarini standartga moslash, ishlab chiqarish potentsiyasini saqlash va rivojlantirishlar kiradi.

Shunga ko'ra, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash dolzarb ahamiyat kasb etib, respublikamizda ushbu jarayon bir qator asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirildi (2-rasm).



2-rasm. Iqtisodiyot real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari

Ayniqsa, real sektor korxonalarini qo'llab-quvvatlashda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ichki talabni rag'batlantirish masalalari alohida o'rin tutdi.

Iqtisodiyotning real sektori – iqtisodiyotning bevosita moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq sohasi bo'lib, u o'z ichiga sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, aloqa tarmoqlarini oladi.

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash – ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma'naviy jihatdan Yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga oluvchi jarayon. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashning asosiy yunalish va vositalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: korxonalaridan eskirgan asbob-uskunalarni chiqarish; ishlab chiqarishni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash; mahalliy resurslar asosida ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etish; ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimentini kengaytirish; ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish va resurslarni tejash; sifatni boshqarish va sertifikatlash tizimini joriy etish; chiqitsiz va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va boshqalar.

Ishchi-xodimlar, ularning oilasi va jamiyat tamoyillaridan kelib chiqib, korxonaning oldiga ijtimoiy maqsadlar ko'yiladi.

Tabiat va jamiyat muhofazasini ta'minlash har xil ko'rinishdagi ofatlar

(yong'in, suv toshqini, er qimirlash va h.k.) oldini olish uchun tegishli ekologik maqsadlar amalga oshiriladi.

Korxonada yuqorida keltirilgan maqsadlarga erish uchun bir qator vazifalarni bajarishi kerak. Bular qatorida quyidagi asosiylarini ko'rsatib o'tamiz. Boshqaruv vazifasi, texnik-texnologik, ishlab chiqarish, ilmiy tadqiqotlar, xo'jalik aloqalar, davlat bilan munosabatlar, informatsion ta'minot, moddiy-texnik ta'minot, ishchi kuchi ta'minoti, ijtimoiy, ekologik va hokazolar.

Mamlakatimizni rivojlantirish, yangilash va modernizatsiya qilish bo'yicha tanlagan strategiyamizni va inqirozga qarshi qabul qilgan dasturimizni amalga oshirish natijasida yurtimiz dunyodagi sanoqli davlatlar qatorida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning barqaror sur'atlarini ta'minlash, aholimizning moddiy farovonligini yuksaltirishga erishgani barchamizga katta mamnuniyat va iftixor bag'ishlaydi, albatta.

I.Karimov (ma'ruzadan)

Bu vazifalarni ayrimlarining mazmuni, echimlari ushbu darslikning keyingi boblarida yoritiladi, ayrimlariga javobni tegishli fanlar o'rganadi va boshqa adabiyotlardan topish mumkin.

Korxonada faoliyatida ishlab chiqarish, takror ishlab chiqarish va muomala jarayonlari ro'y beradi. Ishlab chiqarish doirasi ishlab chiqarishga tayyorgarlik

ko'rish va mahsulot ishlab chiqishdan iborat. Takror ishlab chiqarish esa ishchi kuchini jalb etish va ularning malakasini oshirish, ishlab chiqarish vositalarini yangilash va kengaytirish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Muomala doirasida korxonada uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish vositalari xarid qilinadi va tayyor mahsulot (ish, xizmat)lar sotiladi.

Korxonada faoliyatiga ichki va tashqi muhitlar ta'sir ko'rsatadi.

Ichki muhit bu odamlar, ishlab chiqarish vositalari, axborot va pul mablag'i ularning birgalikdagi harakati natijasida tayyor mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqariladi. Korxonada tayyor mahsulot (ish, xizmat)larni sotishda, moddiy, moliyaviy va mehnat resurslarini jalb etishda va hokazolarda tashqi muhit bilan aloqada bo'ladi va unga ta'sir ko'rsatadi.

Tashqi muhit - bu tayyor mahsulot (ish, xizmat)lar iste'molchilari, ishlab chiqarish vositalarini etkazib beruvchilar, banklar va boshqa moliyaviy tashkilotlar, davlat organlari va korxonada atrofida yashovchi ishchi kuchi.

Korxonada moddiy omillar birikib, mehnat jarayoni yuz beradi, jamiyatning talab ehtiyojini qondirishga qaratilgan moddiy mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqariladi.

Ijtimoiy mehnat taqsimoti tizimida korxonada o'z o'rniga ega bo'lib,

ma'lum sohaga ixtisoslashgan bo'ladi. Unda muayyan texnika-texnologiya jamlanadi va shunga muvofiq ish kuchi faoliyat yuritadi (ma'lum kasbiy malaka va mahoratga ega bo'lgan kishilar mehnat qiladi).

Korxonalar ixtisoslashuviga qarab sanoat, transport, qurilish, aloqa, Qishloq xo'jaligi, savdo, maishiy xizmat va boshqalarga bo'linadi.

Mamlakatimiz milliy iqtisodiyotida sanoat korxonalari etakchi o'rinlardan birini egallaydi. Yalpi ichki mahsulotning 20-25 foizi aynan sanoat tarmog'ida yaratiladi.


“Erishilgan bunday marralar – barqaror rivojlanib borayotgan iqtisodiyotga asoslangan, ochiq demokratik huquqiy davlat qurish, inson, uning manfaatlarini, huquq va erkinliklari so'zda emas, amalda oliy qadriyatlar darajasiga ko'tarilgan, jahon miqyosida obro'-e'tibor qozongan jamiyat barpo etish borasida biz o'z oldimizga qo'ygan yuksak maqsadga qaratilgan uzoq va murakkab yo'lning bir qismi, xolos.”¹⁴

Sanoat korxonalari xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarini ilg'or, zamonaviy texnika bilan qurollantiradi. Qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, aloqa va boshqa sohalarning texnik-iqtisodiy darajasi aynan sanoatning rivojlanish darajasiga bog'liqdir. Sanoat tarmog'ining yanada rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining kuchayishida muhim omil hisoblanadi.

Sanoat korxonalari ishlab chiqarish vositalari bilan bir qatorda xalq iste'moli buyumlarini ham ishlab chiqaradi va aholi turmush darajasining oshishiga xizmat qiladi.

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmlari shu yillarda muttasil yuqori sur'atlarda o'sdi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'siriga qaramasdan tarmoqda o'sish sur'ati 2010 yilda 8.3 foizni tashkil etdi (3-rasm).

¹⁴ И. А. Каримов. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” маърузаси// Халқ сўзи газетаси, 12.11.2010.



Sanoat, xususan, og'ir industriya xalq xo'jaligida takror ishlab chiqarishning asosi hisoblanadi. U beto'xtov o'zi va xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari uchun ishlab chiqarish vositalarini takror ishlab chiqaradi. Og'ir industriya sanoatining barcha tarmoqlarini, qishloq xo'jaligini, aloqani, qurilishni, savdoni ilg'or texnikalar bilan qurollantiradi. Sanoatning barcha xalq xo'jaligi tarmoqlarini texnik-jihozlashi ijtimoiy mehnat unumdorligini oshirishga va ishlab chiqarish masshtabini kengaytirishga xizmat qiladi.

Sanoat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini qayta kurishning asosi hisoblanadi. U qishloq xo'jaligini yangi texnika vositalari bilan ta'minlash orqali sohadagi mehnatni sanoatlashtirilgan (industriyalashtirilgan) ko'rinishga olib keladi.

Sanoat qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydi va xalq iste'moli tovarlarining asosiy qismini ishlab chiqadi. Aholining iste'mol tovarlari bilan ta'minlanish darajasi ko'pincha sanoatning rivojlanishiga bog'liqdir.

Sanoatning rivojlanishi ishlab chiqarish kuchlarining oqilona joylashtirilishiga, mamlakat iqtisodiy hududlarining har tomonlama yuksalishiga, tabiiy boyliklardan maqsadli foydalanishga yordam beradi.

Sanoat, shuningdek, mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlashning asosi hisoblanadi, chunki u zamonaviy harbiy texnika turlarini va vositalarini ishlab chiqadi.

O'zbekiston Respublikasi industriyasi tarkibida kuchli, ayrim

hududlarda esa noyob, og'ir, engil va oziq-ovqat sanoat korxonalari mavjud. Ular bir qancha avlodlar mehnati bilan yaratilgan ishlab chiqarish kuch-qudrati hisoblanadi va mamlakatning iqtisodiy yuksalishiga xizmat qilmokda.

Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi sharoitida korxonalar faoliyatining asosiy yo'nalishlari kuyidagilardir:

- bozorni har tomonlama o'rganish asosida mavjud mahsulot (ish, xizmat)larga bo'lgan va kelajakda paydo bo'ladigan talabni aniqlash va o'z istiqbolini belgilash;

- mahsulotlarni reklama qilish, o'rash, turli: texnik xizmatlar ko'rsatishni tashkil etish;

- mahsulot (ish, xizmat)larning yangi turlarini va modellarini Yaratish nuqtai nazaridan ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish;

- iste'molchilar talabiga mos keladigan mahsulotlar ishlab chiqishni tashkil qilish;

- ishlab chiqarishni muvofiklashtirish, rejalashtirish, dasturlash va moliyalashtirish;

-mahsulotlarni sotish tizimini tashkil etish va takomillashtirish;

- korxonada boshqaruvini takomillashtirish va boshqalar.

Qayd etilgan asosiy yo'nalishlar korxonalarda bir qancha masalalarning hal etilishini talab qiladi. Jumladan:

- korxonada egalarining daromad olishini;

- iste'molchilar talabini qondiradigan mahsulotlar ishlab chiqarilishini;

- xodimlarni ish haqi bilan ta'minlash;

- korxonada atrofida yashovchi aholi uchun ish joylari bilan ta'minlanishini;

- atrof muhitni himoya etilishini;

- ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlanishini va h.k.

Bu masalalarvi hal etish uchun korxonalar bir qancha vazifalarni bajarishi kerak bo'ladi,

- ishlab chiqarish va shaxsiy iste'moli uchun mahsulotlar tayyorlash;

- iste'molchilarga mahsulotlarini sotish va etkazib berish;

- mahsulotlar sotilganidan keyingi davrlarda ularga texnik xizmatlar

ko'rsatyish.

- ishlab chiqarishni moddiy va texnik jihatdan ta'minlash;
- xodimlar mehnatini tashkil etish va boshqarish;
- moliyaviy majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish;

- amaldagi standartlar, me'yorlar va qonunchilikga rioya etish. Shuni ta'kidlash lozimki, mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ekt sifatida, korxonani nimani, qancha, qanday usullar bilan ishlab chiqarish, uni kimga, qaerda, qanchaga sotishni, olingan pul tushumlarini qaysi maqsad yo'lida ishlatishni o'zi hal qiladi. U bozorga qarab ish tutadi.

Bozordagi raqobat korxonani iqtisodiy muhitiga tez moslashib, doimo manevr qilishga - mahsulot turlarini yangilash, sifatini oshirish, faol reklama siyosatini olib borish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, investitsiya va innovatsiya bilan shug'ullanish kabilarga undaydi.

“Jahon miqyosida globallashuv va raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi zamonda biz dunyoda yuz berayotgan tub o'zgarishlar jarayonida egallab turgan o'rnimizni xolisona va tanqidiy baholashimiz, tobora oshib borayotgan hayot talablariga javob berishimiz, kechayotgan davr bilan hamqadam bo'lishimiz shart.”¹⁵

2.2. Davlat korxonalarini isloh qilish. O'zbekiston Respublikasidagi xususiylashtirish modeli

O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos modeli yaratilgan bo'lib, uning beshta ustuvor yo'nalishi Respublika Prezidenti I.A.Karimov tomonidan nazariy jihatdan asoslangan va ishlab chiqarilgan. Bu yo'nalishlar qisqa qilib aytganda: birinchidan, islohotlarni evolyutsion yo'l bilan, ya'ni bosqichma-bosqich amalga oshirish; ikkinchidan, davlat islohotlarni boshqaruvchi vazifasini bajarishi, uning bosh islohotchi ekanligi; uchinchidan, islohotlar inson uchun, uning hayoti farovon bo'lishi, manfaatlari va talablari ro'yobga chiqishiga shart-sharoit yaratish uchun amalga oshirilishi e'tiborga olib jamiyatda kuchli ijtimoiy siyosat yurgizish; to'rtinchisi, iqtisodiyotning siyosatdan ustunligini ta'minlash, uni mafkuradan ozod qilish; beshinchisi, qonunning ustunligini ta'minlash, qonunlarga rioya qilshidir.

Ushbu yo'nalishlarga mos O'zbekiston Respublikasidagi

¹⁵ И. А. Каримов. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” маърузаси// Халқ сўзи газетаси, 12.11.2010.

xususiylashtirish modeli ishlab chiqilgan.

Xususiylashtirish modeli quyidagilardan iborat:

- xususiylashtirish respublikada o'tkazilayotgan islohotlarning o'zagini tashkil qilib, uning ichki mantiqiga bo'ysindirilgan;
- xususiylashtirish jarayoni davlat tomonidan boshqariladi;
- xususiylashtirishda qonunning ustuvorligiga birlamchi bo'lib, barcha jarayon, istisnosiz, taalluqli qonunlar va me'yoriy huquqiy hujjatlarga rioya etishi shart;
- xususiylashtirish aholining kam ta'minlangan qismini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, aholi o'sishini hisobga olish, asta-sekin ijtimoiy kafolatlar tizimiga o'tishini e'tiborga olishda adresli yo'naltirilishi;
- xususiylashtirish jahon tajribasini hisobga olgan holda, inqilobiy sakrashsiz, bosqichma-bosqich, evolyutsion yo'l bilan amalga oshirilishi.

Iqtisodiy nochor korxonalar – muayyan miqdorda kapital yo'qotish, ishlab chiqarish maydonlarini qisqarishi, ishsizlar sonining ortishi, raqobatbardosh bo'lmagan mahsulot ishlab chiqaradigan va buning uchun katta miqdorda materiallar, xom ashyo, yonilg'i, mehnat resurslari sarflaydigan qoloq, samarasiz korxonalar.

Korxonaning bankrotligi – korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining nochorlikka yuz tutishi natijasida o'z qarzi majburiyatlari bajara olmasligi. Korxonalar xo'jalik sudining qaroriga ko'ra rasmiy holda bankrot deb e'lon qilinadi.

Moliyaviy sog'lomlashtirish – korxonalar bankrotligini bartaraf etish yoki raqobatbardoshligini oshirish maqsadida chora-tadbirlar tizimini qo'llash orqali uning moliyaviy holatini sog'lomlashtirish.

Bozor iqtisodiyotini shakllanishining asosiy negizini mulk masalasini hal etilishi tashkil etadi. Shu sababli ham 1992 yili O'zbekiston Respublikasida Davlat mulk va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash qo'mitasi tashkil qilindi.

Bu organ respublikada bozor islohotlari jarayonlarini amalga oshiruvchi ijro organlardan biri bo'lib, uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda yagona siyosatni o'tkazish;
- davlat tasarrufidan chiqarish, hususiylashtirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash jarayoniga tashkiliy-uslubiy rahbarlik qilish;

- bozor infratuzilmasini yaratish;
- fuqarolarning mulkiy huquqlarini himoya qilish va xususiylashtirilgandan keyin tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash;
- xususiylashtirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga doir dasturlarni ishlab chiqish va hokazolar.

Ushbu organ mamlakat hukumati bilan birgalikda xususiylashtirishning strategiyasi va taktikasini ishlab chiqdi. Ushbu dasturga muvofiq o'tish davri sharoitida mulkni xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish tartib va usullari aniqlandi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos mulk munosabatlarini shakllantirishning asosiy yo'li mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishdir. Shu sababli islohotlarning asosi mulkni xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish tashkil qiladi. Bu esa davlat korxonalarini isloh qilish asosini tashkil qiladi.

Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish deb qanday jarayonni tushunamiz?

O'zbekiston Respublikasining "Davlat tasarrufidan chiqarish va xo'susiylashtirish to'g'risida"gi Qonunining birinchi moddasida bu tushunchalarning umumiy ta'rifi berilgan, unda: "Davlat tasarrufidan chiqarish - davlat korxonalarini va tashkilotlarini jamoa, ijara korxonalariga, aktsiyali jamiyatlarga, mas'uliyati cheklangan jamiyatlarga, davlatga karashli bo'lmaydigan boshqa korxonalar va tashkilotlarga aylantirishdir.

Xususiylashtirish - fuqarolarning va davlatga taalluqli bo'lmagan yuridik shaxslarning davlat mulki ob'ektlarini yoki davlat aktsiyali jamiyatlarining aktsiyalarini davlatdan sotib olishdir", - deb ta'riflangan. Shu bilan bir qatorda bu tushuncha moddiy ishlab chiqarish va ularni taqsimlashni xizmatni davlat nazoratidan chiqarish hamda boshqaruv xuquqlarini Yangi mulqdorlarga yoki yollanma boshqaruvchilarga berishni ham aks ettiradi. Chunki bu jarayonlar nafaqat mulkdorni o'zgarishini bildirib, u mulkka egalik va boshqarish huquqining xususiylashtirish shaxs ixtiyorida jamlanishini ham taqozo qiladi. Bu jarayon jamiyatda konstitutsional o'zgarishlarga olib kelishi muqarrar, ya'ni amalda yangi xo'jalik-huquqiy tizimini yaratishni ham talab qiladi.

"Biz ishlab chiqqan va bugungi kunda hayotga tatbiq etayotgan o'zbek modelining ma'no-mazmuni – davlat qurilishi va konstitutstiyaviy tuzumni tubdan o'zgartirish va yangilash, iqtisodiyotni mafkuradan xoli etish, uning siyosatdan ustunligini ta'minlash, davlatning bosh islohotchi vazifasini bajarishi, ya'ni islohotlar tashabbuskori bo'lishi va ularni

muvofiqlashtirib borishi, qonun ustuvorligini ta'minlash, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, islohotlarni bosqichma-bosqich va izchil olib borish tamoyillariga asoslanadigan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishdan iboratdir.”¹⁶

Xususiylashtirish monopoliyaga qarshi yo'nalishga ega bo'lib, iqtisodiyotni tarkibiy o'zgarishlarga, xo'jalik tizimini rekonstrukturalashga asos bo'ladi, jamiyatni barqarorlashtirish va Inflyatsiyaga qarshi kurash muammolarini hal qilishga yordam qiladi.

Respublikada xususiylashtirishni huquqiy-me'yoriy jihatdan ta'minlash uchun zaruriy qonunlar va me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilgan. Ularda mulk shakllari, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, ularning qoidalari, amalga oshirish usullari, shakllari, bosqichlari, ob'ektlari va ularni sotib olish tartiblari va boshqa shart-sharoitlari belgilab ko'yilgan. Xususiylashtirish bosqichlari "oddiydan murakkab sari" qoidasi asosida o'tkazilishi belgilab qo'yilgan.

Bu asosida Respublikada xususiylashtirishni uch bosqichi amalga oshiriladi.

Birinchi (1992-1993 yillar) bosqichni savdo, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat sohasi va kichik sanoatni o'z ichiga olgan kichik xususiylashtirish tashkil etdi. Natijada 53902 inshoot yangi mulk shaklini egalladi. Shulardan: 10638 tasi savdo; 12561-maishiy xizmat ko'rsatish; 24316-matlubot kooperatsiyasi; 4753-tayyorlov sohasi inshootlari tashkil etgan. Ularning 95 foizi yuridik shaxs maqomini olgan.

Bu davrda korxonalar va yashash joy fondlari xususiylashtirildi. Mulkdor sifatida mazkur korxonalarining xodimlari va uylarda yashovchi kishilar ro'yobga chikdi. Davlat mulki bo'lgan 53902 ob'ekt asosida 18000 oilaviy korxonalar va yopiq turdagi 1700 aktsiyadorlik jamiyati tuzildi. 700 dan oshiq sovxoz jamoa xo'jaliklariga aylantirildi. Umumiy maydoni 170000 gektar bo'lgan 15000 fermer xo'jaligi tuzildi. 1993 yilda YAMMning 35% iqtisodiyotning nodavlat sektorida ishlab chiqildi.

Ikkinchi (1994-1995 yillar) bosqichda ommaviy xususiylashtirish amalga oshirildi, bu bosqich engil, oziq-ovqat, farmatsevtika sanoati, tayyorlov shoxobchalari, qurilish, transport, aloqa korxonalarini va sanoatning ayrim inshootlarini o'z ichiga oldi.

Xususiylashtirishning ikkinchi bosqichida 180000 kichik, o'rta va

¹⁶ И. А. Каримов. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” маърузаси// Халқ сўзи газетаси, 12.11.2010.

yirik korxonalar mulk shaklini o'zgartirdi, ularning aksari Yagi ochiq turdagi aktsiyadorlik jamiyatlariga aylantirildi. Sanoat korxonalarini keng miqyosda xususiylashtirilishi natijasida 2 mln. aktsiya, pay va ulushga ega bo'lgan xususiylashtirilgan korxonalar egalari, 85 ming xususiy va kichik korxonalar egalari, 14 ming ko'chmas mulk egalari o'z ichiga olgan mulkdorlar sinfi tashkil topdi.

1996 yildan boshlab xususiylashtirishni uchinchi bosqichi amalga oshirilishi boshlandi. Ushbu bosqich islohotlarni chuqurlashtirish davriga mos bo'lib, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, yirik davlat korxonalarini mulkchilikning boshqa shakllariga aylantirildi. Xoldinglar, moliya-sanoat guruhlari, korporatsiyalar (assotsiatsiyalar), kontsernlar, agrofirmalar tashkil qilish va boshqa masalalarni hal qilishga ko'paytirilgan.

1998 yildan boshlab industrial gigantlar hisoblanishi yonilg'i-energetik kompleksi, kimyo, metallurgiya va mashinasozlik sohaslarining yordamchi korxonalarida, 1999 yildan boshlab esa xorijiy sarmoyador xususiylashtirish jarayoniga keng jalb etish boshlandi.

“Hozirgi kunda mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning 80 foizdan ortig'ini **nodavlat sektor** ta'minlamoqda. Tan olishimiz kerakki, 1991 yilda qabul qilingan “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida”gi Qonun, o'tgan davr mobaynida 80 tadan ortiq qonunosti hujjati unga uyg'unlashtirilganiga qaramasdan, bugun qayta ko'rib chiqishni va yangi tahrirda qabul qilishni talab etmoqda.”¹⁷

O'rta va yirik korxonalarini xususiylashtirish jarayonining asosiy shartlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 18 noyabrdagi 477-sonli "Davlat mulkini xususiylashtirishda xorijiy sarmoyalarni jalb qilish choralari haqidagi" farmoyishida keltirilgan,

Mahsulot raqobatdoshligini ta'minlash uchun ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash bo'yicha katta va kichik loyihalarni izlash, buning uchun zarur mablag' va manbalarni topish – bu har bir korxonalar rahbari va muhandis-texnik xodimlarining birinchi navbatdagi eng muhim vazifasi va majburiyati bo'lmog'i kerak.

I.Karimov (asardan).

xususiy tadbirkorlik va qimmatli qog'ozlar bozori, korxonalarini aktsiyalashtirish va mulkdor sinfini shakllantirish ishlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 28 avgustda "Kichik

¹⁷ И. А. Каримов. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” маърузаси// Халқ сўзи газетаси, 12.11.2010.

biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat dasturi to'g'risidagi» 344-sonli qarori asosida amalga oshira boshlandi.

Kichik va xususiy tadbirkorlik etakchi rol o'ynaydigan ko'p ukladli iqtisodiyotning jadal shakllanayotgani tufayli 2009 yilda 60 mingga yaqin mikrofirma, kichik va o'rta korxonalar tuzilib, ularning umumiy soni 400 mingtadan oshib ketdi.

Mahalliy organlar va tarmoq tuzilmalari rahbarlari tomonidan sifatsiz mahsulotni ishlab chiqarish, eskirgan texnika va texnologiya asosida zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarni saqlab qolish uchun urinishlariga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bunday korxonalar soni bugungi kunda 200 tadan oshib, ularning aksariyati engil va oziq-ovqat sanoati sohasida saqlanib qolmoqda. Holbuki, bu sohalarda tez o'zgaruvchan bozor talabi texnika va texnologiyani uzog'i bilan 5-7 yilda, rivojlangan mamlakatlarda esa bundan ham qisqa muddatlarda o'zgartirishni talab etadi. Bunday vaziyatni mazkur korxonalarni bankrot deb e'lon qilish yo'li bilan tubdan o'zgartirish darkor.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18-noyabrdagi PF-4053 sonli «Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonida ko'zda tutilgan iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish, modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan Yangilash jarayoniga tijorat banklarining mablag'larini kengroq jalb qilishni yo'lga qo'yish tadbirlari muhim hisoblanadi.

Qarorda Respublika Komissiyasining qarori asosida bankrot korxonalarni tijorat banklariga sotish yoki to'g'ridan-to'g'ri balansiga berishning 3 ta mexanizmi ko'zda tutilgan:

1) bankrot korxonalar kreditlik qarzi tarkibining 70% va undan ortiq qismini bank kreditlari tashkil etsa, u holda korxonani tijorat banklari balansiga berish;

2) bankrot korxonani auksion savdolari orqali eng yuqori narxni taklif qilgan va tegishli majburiyatni o'z zimmasiga olgan tijorat banklariga sotish;

3) bankrot korxonani tanlov savdolari orqali tijorat banklariga «nol» qiymatda investitsion majburiyat sharti bilan sotish.

Ushbu tadbirlar mamlakatimizdagi bankrot korxonalarni tarkibiy qayta tuzish hamda yangi xo'jalik faoliyatini yo'lga qo'yish jarayonlarini sezilarli darajada tezlashtirdi (3-jadval).

3-jadval

2010 yilda mulki mavjud bo'lgan bankrot-korxonalarni tugatishda Yangi yo'nalishlarning bergan samarasi

Hududlar	Jami tugatish jarayonida bo'lgan korxonalar soni	Tugatilgan, kelishuv bitimi tuzilgan yoki to'lov qobiliyati tiklangan korxonalar soni	Sotilgan yoki banklar balansiga berilgan korxonalar soni	Tijorat banklariga sotish uchun auktsion savdolariga qo'yilgan korxonalar soni	Yil yakuniga tugatishga qolganlar soni
Qoraqalpog'iston Respublikasi	42	36	0	2	4
Andijon	31	16	5	2	8
Buxoro	10	4	4	0	2
Jizzax	28	20	0	0	8
Qashqadaryo	36	22	7	1	6
Navoiy	9	3	3	1	2
Namangan	28	14	8	1	5
Samarqand	12	4	3	1	4
Surxondaryo	29	19	5	0	5
Sirdaryo	3	3	0	0	0
Toshkent	11	2	5	0	4
Farg'ona	11	2	2	3	4
Xorazm	63	34	21	0	8
Toshkent sh.	25	10	7	1	7
2009 yilda jami	338	189	70	12	67
2008 yilda jami	308	104	-	-	204

Jadvaldan ko'rinadiki, bankrot-korxonalarni tugatishning yangi mexanizmlari joriy etilishi bilan ularning soni 2008 yildagi 204 tadan 2009 yil oxiriga 67 taga qadar qisqargan.

Shuningdek, **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 19 noyabrdagi F-4010 sonli** «Iqtisodiy nochor korxonalarni tijorat banklariga sotish to'g'risidagi tartibni tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoyishi bilan iqtisodiy nochor korxonalarining moliyaviy qobiliyatini tiklash

bo'yicha bir qator imtiyozlar (ko'maklar) berilgan. Jumladan, ushbu Farmoyishga ko'ra bankrot korxonalar negizida yangi tashkil etilgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar:

- qo'shimcha qiymat solig'idan ozod qilindi;
- uch yil davomida foyda solig'i, yagona soliq to'lovi, mulk solig'i va er solig'larini to'lashdan ozod qilindi;
- boshqaruv kompaniyalarga berilganda foyda solig'i va Yagona soliq to'lovidan ikki yil davomida ozod qilindi.

Shuningdek, yuqorida qayd etilgan me'yoriy hujjatlar orqali tijorat banklariga ham muayyan imkoniyatlar berilgan. Jumladan:

- bankrot korxonada negizida ustav jamg'armasi 100% gacha bo'lgan yangi korxonada tashkil etish;
- bankrot korxonaning tugatilishi munosabati bilan unga avval berilgan, qoplanmagan kreditini, Shu jumladan Hukumat kafolati bilan berilgan kredit summasini bank kengashining qarori bilan hisobdan chiqarish;
- bankrot korxonada uchun malakali boshqaruv kompaniyasini tuzish va jalb qilish;

- bankrot korxonani tugatish bahosida sotib olib, uning faoliyatini tiklab, qaytadan bozor bahosida sotish va h.k.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 19 noyabrdagi 4010-sonli «Iqtisodiy nochor korxonalarini tijorat banklariga sotish to'g'risidagi tartibni tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoyishi bilan iqtisodiy nochor korxonalarining moliyaviy qobiliyatini tiklash bo'yicha bir qator imtiyozlar (ko'maklar) berilgan.

Tijorat banklarini zarar ko'rib ishlayotgan va iqtisodiy nochor korxonalarini sog'lomlashtirish jarayoniga jalb qilish tajribasi amalda o'zini to'la oqladi.

Hali ham eski texnika va texnologiyalar asosida ishlayotgan, hech qanday iqtisodiy istiqboli bo'lmagan korxonalarini tugatish va ularning negizida yangi zamonaviy ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish

Yuqorida qayd etilgan me'yoriy hujjat orqali tijorat banklariga ham muayyan imkoniyatlar berilgan. Jumladan:

- bankrot korxonada negizida ustav jamg'armasi 100 foizgacha bo'lgan Yangi korxonada tashkil etish;
- bankrot korxonaning tugatilishi munosabati bilan unga avval berilgan, qoplanmagan kreditini, Shu jumladan Hukumat kafolati bilan

berilgan kredit summasini bank kengashining qarori bilan hisobdan chiqarish;

- bankrot korxonaga uchun malakali boshqaruv kompaniyasini tuzish va jalb qilish;

- bankrot korxonani tugatish bahosida sotib olib, uning faoliyatini tiklab, qaytadan bozor bahosida sotish va h.k.

Ayni paytda mazkur jarayonning samaradorligini va ta'sirchanligini ta'minlash maqsadida tijorat banklari balansiga o'tkazilgan bankrot korxonalarini tiklash, texnik va texnologik modernizatsiya qilish va ishlab chiqarishni qayta qurollantirish, zarur bo'lganda korxonani to'liq rekonstruktsiya qilish orqali faoliyat yo'nalishini o'zgartirish, strategik hamkorlik va investorlarni jalb qilishni nazarda tutuvchi biznes-rejalarni ishlab chiqish belgilangan.

Yuqorida keltirilgan jarayonning boshlanishida korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarishning o'ziga xos yo'nalishlarini qayd qilish zarur. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ijara korxonalarining tashkil etilishi;

-mulkchilikning aralash shakllari, ya'ni davlat va shirkatchilik shakllariga ega bo'lgan korxonalarini tashkil etilishi;

-dastlabki xususiy korxonalar va aktsiyadorlik kompaniyalarning tashkil etilishi;

-boshqaruvning oliy va o'rta bo'g'inining qayta tashkil etilishi. Bu yo'nalish vazirliklar va idoralar aktsiyadorlik negizidagi korporatsiyalar va kontsernlarga aylantirilishini taqozo qiladi.

1990-1992 yillari O'zbekiston Respublikasida yuqorida keltirilgan yo'nalishlar orqali mulkchilikning nodavlat shakllariga ega bo'lgan ishlab chiqarish tuzilmalarining barcha turlari tashkil etildi va sinovlar o'tkazildi. Ushbu jarayon davlat korxonalarini ommaviy tarzda davlat tasarrufidan chiqarishiga ob'ektiv imkoniyatlar yaratdi.

Davlat mulkini (korxonalarini) isloh, qilish, ya'ni xususiylashtirish, davlat tasarrufidan chiqarish, jahonning turli davlatlari tajribasidan kelib chiqib, quyidagi usullar asosida amalga oshirilishi mumkin:

1. Davlat korxonalarini aktsiyalarini ochiq sotish;

2. Davlat korxonalarini xususiy investirlash (mavjud ob'ektni to'g'ridan-to'g'ri sotib olish yoki aktsiyalar paketini to'la sotib olish yo'li bilan amalga oshiriladi);

3. Korxonalarining mulkini sotish va keyinchalik mavjud qarzlarni to'lash yo'li bilan davlat korxonasini tugatish;

4. Davlat korxonasini alohida bo'limlarga ajratish yoki bo'lish va

qayta qurish yo'li bilan ularni qismlar bo'iicha sotish;

5. Aktsiyalarni kim oshdi savdosi orqali sotish;

6. Korxonalarni mehnat jamoasi a'zolari va rahbarlari tomonidan sotib olish;

7. Davlat korxonasining xususiy shaxs tomonidan ijaraga olinishi yoki davlat va xususiy korxonalar o'rtasida korxonani boshqarish to'g'risida bitim tuzish. Bunday korxonaning mablag'lari davlat mulkchiligicha qoladi.

Shu munosabat bilan **“Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi Qonunni** tanqidiy qayta ko'rib, yangi tahrirda ishlab chiqish va qabul qilish hamda unda korporativ boshqaruv va nazorat organlarining vakolatlari, huquqlari va javobgarligini yanada aniq belgilash lozim. Ushbu qonundagi aktsiyadorlik jamiyatlarining Kuzatuvchilar kengashlari, umumiy yigilishlari, taftish komissiyalarining roli va ahamiyatini oshirish, minoritar, ya'ni qo'lida aktsiyasi kam bo'lgan aktsiyadorlarning kafolatlarini ko'proq ta'minlash, barcha aktsiyadorlarni va bo'lajak investorlarning aktsiyadorlik kompaniyalari faoliyati to'g'risida axborot olish imkoniyatlarini kengaytirishni ko'zda tutish ayni muddao bo'lur edi.”¹⁸

2.3. Korxonaning belgilari va tasniflanishi

Jamiyatda uchta asosiy iqtisodiy sub'ektlar tovar-pul munosabatlariga asosan aloqa qilib turadi. Bular davlat, korxonalar va uy (oila) xo'jaligidir.

Bularning munosabatlari ikki tomonlama xarakterga ega bo'ladi.. Davlat bilan bozor sub'ektlarining munosabatlari asosan qonunlar, qonuniy hujjatlar bilan tartibga solinadi, lekin xo'jalik aloqalari (oldi-sotdi) shartnomalar, kelishuvlar, davlat buyurtmalari, kontraktlar, davlat subsidiyalari orqali amalga oshiriladi.

Bozor sub'ektlari (korxonalar, uy xo'jaligi)ning aloqalari, munosabatlari shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

Bozor tizimida iqtisodiy sub'ektlarning bir-biri bilan oldi-sotdi munosabatlarining predmetlarini keltiramiz (4-jadval).

¹⁸ И. А. Каримов. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” маърузаси// Халқ сўзи газетаси, 12.11.2010.

4-jadval

Bozor sub'ektlarining oldi-sotdi predmetlari

Bozor sub'ektlari	Sotish predmetlari	Sotib oladigan predmetlar
I. Davlat	Er, er osti boyliklari, suvlar, havo bo'shlig'i, o'simliklar va hayvonot dunyosi, uy-joy, litsenziya, davlat tashkilotlari va muassalarining xizmatlari.	Davlat va jamiyatga zarur bo'lgan tovarlar (davlat boshqaruv organlari, mudofaa va hokazolar), ishchi kuchi, jihozlar, fan-texnika yutuqlari va boshqalar.
II. Korxonalar	Tovarlar, xizmatlar, o'ziga tegishli moddiy ne'matlar, intellektual mulk.	Er, tabiiy boyliklar, moddiy resurslar, ishchi kuchi, tovarlar, xizmatlar, qimmatbaho qog'ozlar va hokazolar.
III. Uy xo'jaligi	Ishchi kuchi (mehnat), o'ziga tegishli moddiy ne'matlar, tovarlar, xizmatlar.	Iste'mol tovarlari, xizmatlar, moddiy ne'matlar.

Xo'jalik faoliyati va xo'jalik ishlari bilan har bir shaxs, fuqaro qadimdan shug'ullanib kelgan. Ular o'z-o'zini ta'minlash masalasini hal qilish bilan shug'ullanishadi. Bunday xo'jalik yuritish shakliga uy (oilalar) xo'jaligi deb yuritiladi va u jamiyatning birlamchi, boshlang'ich bo'g'inidir.

Ularning belgilariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Shaxsiy ehtiyojni qondirish, ular ishlab chiqargan narsasini o'zi yoki oilasi iste'mol qiladi, ular ishlab chiqaruvchi va iste'molchi hisoblanadilar. Hozirgi zamonda uy (oilalar) xo'jaliklari ortiqcha mahsulotlarini sotish uchun bozorga ham chiqaradi. Bunday hollarda oilalar xo'jalik faoliyatidan ko'shimcha daromad manbai sifatida foydalaniladi va ular qisman jamiyatni, boshqalarni ehgiyojini qondirish uchun xizmat qilgan hisoblanadi. Bunday holda uy xo'jaligining mahsuloti tovar shakliga aylanadi;

2. Ular faoliyatida shaxsiy mulkidan foydalanadi (ayrim hollarda kredit yoki ssudalardan foydalanishi ehtimoldan holi emas);

3. O'z ish kuchini ishlatishadi, yollanma ishchi kuchidan

foydalanilmaydi:

4. Faoliyatida ishlatiladigan barcha resurslardan samarali foydalanishga va ko'proq mahsulot ishlab chiqishga intilishadi;

5. Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmaydi, ularga hokimiyatdan ruxsatnoma olish shart emas;

6. Faoliyat yuritishda mustaqil qarorlar qabul qiladi va nihoyat, ular o'z tavakkalchiligi asosida ish yuritadi.

(Jamiyatning asosiy bo'g'iniki, ishlab chiqarish va xizmatni bozor va jamiyat uchun amalga oshiruvchi, o'z xo'jalik faoliyatini o'z ehtiyoji (talabi) uchun emas, tashqi, boshqalar ehtiyojini (talabini) qondirishga yo'naltiruvchi korxonalar tashkil qiladi.

Bunday hollarda iqtisodiy faoliyat ijtimoiy, ommaviy xarakter olib, ular nafaqat o'zi yoki oilasi uchun, balki boshqalar uchun ijtimoiy-iqtisodiy maqsadni ko'zlab ishlaydilar. Shuning uchun ham korxonalar ta'rifini yoritish uchun uning mazmuniga har tomonlama yondashish zarur. Korxonalar iqtisodiyotiga bag'ishlangan adabiyotlarda bu masalaga yaxlit yondashuv mavjud bo'lib, uning mazmuniga tashkiliy-iqtisodiy, huquqiy nuqtai nazardan, hamda korxonaning jamiyatda tutgan o'rni, mavqeiga qarab yondashish tavsiya qilinadi.

Tashkiliy iqtisodiy nuqtai nazardan qaraganda korxonalar moddiy, mehnat va moliyaviy resurslar majmuasidan iborat bo'lib; u tadbirkorlik faoliyati asosida tashkil qilinib, mahsulot ishlab chiqish, biron bir ish yoki xizmatni aholining, bozorning talablarini qondirish va foyda olish maqsadida yoki ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan vazifasini bajarishdan iborat. Shunday qilib korxonalar xo'jalik sub'ekti bo'lib, uning maqsad va vazifalari tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishdan kelib chiqadi.

Korxonalar tushunchasining muhim tomonlaridan biri faoliyatidagi barcha masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish huquqiga egalik qiladi, o'z harakatlariga javobgar hisoblanadi. Bu nuqtai nazardan korxonalar-jamiyatning mustaqil xo'jalik sub'ekti sifatida namoyon bo'ladi.

Nihoyat, korxonalar tushunchasining xuquqiy maqomi mavjud bo'lib, u albatta huquqiy shaxs bo'lishi shart. Huquqiy shaxs sifatida korxonalar

..... ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishning eng muhim maqsadi va asosiy ustuvor vazifasi – bu islohotlarni davom ettirish va chuqurlashtirish, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, 2009-2012 yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturini so'zsiz bajarish va shu asosda iqtisodiy rivojlanishning yuqori va barqaror sur'atlarini, samaradorligini hamda makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashdan iboratdir.

I.Karimov (ma'ruzadan)

"O'zbekiston Respublikasidagi korxonalar to'g'risida"gi Qonunning birinchi moddasida quyidagicha ta'rif berilgan: "Huquqiy shaxs huquqiga ega bo'lgan, mulkchilik huquqi yoki xo'jalikni to'la yuritish xuquqi bo'yicha o'ziga qarashli mol-mulkdan foydalanish asosida mahsulot ishlab chiqaradigan va sotadigan yoki mahsulotni ayriboshlaydigan ishlarni bajaradigan, xizmat ko'rsatadigan, bellashuv hamda mulkchilikning barcha shakllari teng huquqligi sharoitida amaldagi qonunlarga muvofiq, o'z faoliyatini ro'yobga chiqaradigan mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ekt korxonaga hisoblanadi".

Korxonaga xo'jalik yurituvchi sub'ekt sifatida ishchi jamoasini tashkil qilishni aniq tizimi (sistemi)ga, korxonaning tarkibiy tuzilish, boshqarish texnologiyasi va tarkibiga ega bo'lishi kerak, shunday qilib, korxonaning - **birinchi belgisi** uning tashkiliy tuzilishi va boshqarilishidir.

Korxonaga tashkiliy yaxlitligi uning **ikkinchi belgisi**dir. Tashkiliy yaxlitlik tegishli tartibda korxonaning ta'asis etuvchi hujjatlarida o'z aksini topgan bo'lishi kerak,

Uchinchi belgisi o'zlik mulkiga ega bo'lishi. Korxonaga mol-mulkini o'z xohishi bo'yicha ishlatishi mumkin.

To'rtinchidan korxonaga o'z harakati va burchlari oldida moddiy javobgarligi.

Va nihoyat korxonaning **oxirgi belgisi** uning o'z nomiga ega bo'lish. Bu belgi tashqi qarashda formal ko'ringan bilan moddiy ahamiyatga egadir. Chunki u o'z nomi bilan bitimlar tuzadi, tashqi aloqalarni amalga oshiradi, o'z imidjini asraydi, ulug'laydi, sud organlariga talabgor yoki javobgar sifatida chiqadi, faoliyatini reklama qiladi va boshqa funksiyalarini amalga oshiradi.

Zamonaviy korxonaga-mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ekt bo'lib, ularning ishlab chiqarish vositalari va boshqa mulklari rejali iqtisodiyot sharoitlaridagidek davlatning o'zigagina tegishli bo'lmaydi.

Shu sababli korxonalar:

- **mulkchilik shakliga** ko'ra- davlat va nodavlat,
- **tarmoq belgilariga** ko'ra - mashinasozlik, energetika, metallurgiya, neft va gaz sanoati, qurilish kompleksi, oziq-ovqat, engil sanoat, savdo va hokazolar,
- **ishlab chiqarish miqyosi va xodimlar soniga** ko'ra - yirik, mikrofirma va kichik,
- **faoliyat yuritish muddatiga** ko'ra - uzluksiz, mavsumiy va uzlukli korxonalariga bo'linadi.

Iqtisodiy islohotlar – iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini sifat jihatidan takomillashtirish, uning barqaror va mutanosib rivojlanishini ta'minlash imkonini beruvchi, maqsadga muvofiq holda va izchil ravishda amalga oshiriluvchi tub o'zgarishlar, chora-tadbirlar majmui.

Iqtisodiy rivojlanish sur'atlari – mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkich va natijalarining miqdor jihatidan ko'payishi va sifat jihatidan takomillaShuvi darajasi.

Iqtisodiy rivojlanish samaradorligi – iqtisodiyotni rivojlantirish natijalarining bu borada qilingan sarf-xarajatlarga nisbati.

Makroiqtisodiy muvozanat – iqtisodiyot turli tomonlarining o'zaro tengligi bo'lib, eng avvalo Yalpi talab va Yalpi taklifning tengligi orqali namoyon bo'ladi.

Biroq ushbu belgilardan qat'i nazar, deyarli har bir korxonada Nizom asosida faoliyat yuritadi. Nizomda korxonaning nomi, manzilgohi, yuqori turuvchi organi va bu organning nomi, Nizom jamg'armasi, bank muassasalaridagi rekvizitlari, korxonada rahbariyatining lavozimlari, rahbar shaxslarning majburiyatlari, tuzilmaviy bo'linmalar ro'yxati, hisobot tartibi va hokazolar ko'rsatilgan bo'ladi.

Agar Nizomda korxonaning tashkiliy-huquqiy funksiyalari belgilangan bo'lsa, uning ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyati tarkibiga asosiy va aylanma fontlar, pul mablag'lari va boshqa aktivlar kiruvchi **Nizom jamg'armasiga** tayanadi. Nizom jamg'armasi qonunga asosan korxonani tashkil qilish jarayonida muassislar - davlat, huquqiy va jismoniy shaxslar tomonidan shakllantiriladi. Korxonada rivojlanishi va ishlab chiqarishning kengayib borishi, daromad hajmi va boshqa moliyaviy tushumlarning ortishi natijasida Nizom jamg'armasi ko'paytirilishi mumkin. Umuman olganda, Nizom jamg'armasi korxonaning iqtisodiy barqarorligi va moliyaviy jihatdan baquvvatligini aks ettiradi.

Korxonani turli belgilariga ko'ra tavsiflash mumkin:

- **ishlab-chiqarish va texnika munosabatlarida korxonada** – bu, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi va turlari, ularni tayyorlash texnologiyasiga miqdor va sifat jihatidan mos keluvchi mashinalar tizimi;

- **ijtimoiy munosabatlarda korxonada** – bu, turli kategoriyadagi xodimlar o'rtasida ularning huquq va majburiyatlari asosida yuzaga keluvchi munosabatlar ;

- **tashkiliy-huquqiy munosabatlarda** korxonada huquqiy shaxs sifatida faoliyat yuritadi;

• **moliyaviy-iqtisodiy munosabatlarda korxonalar** – bu, tarmoqning mustaqil bo'lg'ini bo'lib, o'z-o'zini moliya bilan ta'minlash, o'z-o'zini boshqarish, ya'ni bozor munosabatlari tamoyillarida faoliyat yuritadi.

Amaldagi qonunchilikka asosan korxonalar davlat ro'yxatidan o'tganidan keyingina huquqiy shaxs sifatida tan olinadi. Davlat ro'yxatidan o'tish uchun birinchi o'rinda quyidagi hujjatlar ahamiyatga ega bo'ladi: muassisning arizasi; korxonaning Nizomi; korxonani tashkil qilish haqida qaror yoki muassislarning shartnomasi; davlat bojini to'laganlik haqida kvitantsiya va boshqalar.

Korxonalar o'ziga xos bo'lgan ma'lum xususiyatlarga ega:

birinchidan, korxonalar o'ziga tegishli va xo'jalik boshqaruvidagi xususiy mulkka ega bo'lib, ushbu mulk uning faoliyati moddiy-texnikaviy imkoniyatlarini, iqtisodiy mustaqilligi va ishonchligini ta'minlaydi;

ikkinchidan, korxonalar kreditorlar, jumladan, davlat bilan o'zaro munosabatlardagi majburiyatlar yuzasidan o'z mulki bilan javob berish xususiyatiga ega bo'ladi;

uchinchidan, korxonalar xo'jalik aylanmasida o'z nomidan harakat qilishi mumkin, ya'ni qonunga asosan xo'jalik faoliyati yurituvchi hamkorlar, mahsulot (ish, xizmat) iste'molchilari, xom ashyo va asbob-uskuna etkazib beruvchilar hamda boshqa huquqiy va jismoniy shaxslar bilan shartnoma tuzish huquqiga ega;

to'rtinchidan, korxonalar qonunchilikka asosan sudda da'vogar va javobgar sifatida qatnashish huquqiga ega;

beshinchidan, korxonalar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lib, ishlab chiqarish va mahsulot savdosi xarajatlarini hisobga olib boradi hamda davlat organlari tomonidan belgilangan tartibda o'z vaqtida hisobotlarni taqdim etadi;

oltinchidan, korxonalar o'z nomiga ega bo'lib, unda korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli o'z aksini topadi.

Bizning fikrimizcha, korxonalarni mulk shakllariga va sohalariga qarab shakllarga tasniflanishi mumkin. Korxonaning shakllariga to'xtalib o'tamiz.

Korxonalar mulk shakllariga asoslangan holda tashkiliy-xuquqiy shakllarga turlanadi. "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi qonunga binoan mulk quyidagi shakllarda yuzaga chiqadi;

- fuqarolarning shaxsiy va xususiy mulki;
- jamoa (shirkat) mulki, Shu jumladan, oilaviy mahalla, kooperativ mulk, ijaraga olingan korxonalar mulki, aksionerlar

jamiyati, davlat korxonasi jamoaning, jamoat tashkilotlari va diniy tashkilotlar, kontsern (konsartsiyumlarning mulki, yuridik shaxs hisoblangan boshqa jamoalar mulki;

- Respublika, Qoraqalpog'iston Respublikasi, ma'muriy-hududiy tuzilmalar (maishiy) mulkdan iborat davlat mulki;

- aralash mulk;

- qo'shma korxonalar, ajnabiy fuqarolar, tashkilotlar va davlat, Shuningdek, ajnabiy yuridik shaxslar mulki.

Mulk shakllariga munosib korxonalar quyidagicha shakllarga tasniflanishi mumkin:

- shaxsiy yoki xususiy mulkka asoslangan xususiy korxonalar;

- jamoat mulkiga asoslangan korxonalar;

- davlat mulkiga asoslangan korxonalar;

- aralash mulkka asoslangan qo'shma korxonalar;

- ajnabiy davlatlar, ajnabiy fuqarolar mulkiga asoslangan korxonalar.¹⁹

Sohalarga qarab korxonalarni quyidagi shakllarga ajratish mumkin: moddiy ishlab chiqarish sohasidagi; transport; qurilish; aloqa; muomala; xizmat; ta'lim; infratuzilma (infrastruktura); boshqaruv sohasidagi hamda jamoat jamiyatlari va diniy tashkilotlar korxonalariga.

Korxonalar yuqorida keltirilgan shakllariga, ya'ni mulk shakliga va sohasiga mos holda va alohida belgilariga qarab turlarga tasniflanadi.

Ishlab chiqarish masshtabi (hajmi)ga qarab kichik, o'rta va yirik korxonalariga turlanadi.

Bu korxonalariga asosan ishchilarning soniga qarab toifaga ajratiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 30 avgustdagi farmoniga binoan 2004 yil 1 yanvardan kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlari toifasiga quyidagilar kiradi:

Kichik biznes sub'ektlari – korxonalar ko'lamini, ishlab chiqarish hajmi, ishlovchilar soni, moliyaviy mablag'lari miqdori va boshqalar jihatidan imkoniyatlari cheklangan ishlab chiqaruvchi sub'ektlar. Respublikamizda sanoat ishlab chiqarishning ayrim tarmoqlarida (masalan, engil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik sanoati va h.k.) 100 kishigacha, ayrimlarida (masalan, mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika sanoati va boshqalarda) 50 kishigacha, xizmat ko'rsatish sohasida 25 kishigacha ishlovchi korxonalar kichik biznes sub'ektlari hisoblanadi.

Xususiy tadbirkorlik – bu fuqarolar (alohida fuqarolar) tomonidan

¹⁹ "Ўзбекистон Республикасида мулкчилик тўғрисида"ги қонуннинг 4 моддаси.

o'zlarining tavakkalchiliklari va mulkiy javobgarliklari ostida, shaxsiy daromad (foyda) olish maqsadida amaldagi qonunchilik doirasida amalga oshiriladigan tashabbuskor xo'jalik faoliyatidir.

Kichik korxonalar – mustaqil xo'jalik faoliyatini olib boruvchi, o'z balansiga ega bo'lgan, soliqlar va boshqa to'lovlarni to'lagandan so'ng qolgan foydasini o'zi taqsimlaydigan korxonalar.

Mikrofirma – kichik biznes korxonasining bir turi. Mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarishning tarmoqlarida 20 kishigacha, xizmat ko'rsatish sohasida 10 kishigacha, savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishigacha ishlovchi korxonalar mikrofirma hisoblanadi.

1. Yakka tartibdagi tadbirkorlar:

2. Ishlab chiqarish tarmoqlarida band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni 20 kishidan, xizmat ko'rsatish sohasi va boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'lmagan tarmoqlarda 10 kishidan, ulgurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishidan oshmagan mikrofirmalar;

3. Quyidagi tarmoqlarning o'rtacha yillik xodimlar soni:

3.1. Engil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochni qayta ishlash, mebel sanoati va qurilish materiallari sanoati - 100 kishidan;

3.2. Mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish va qayta ishlash, qurilish hamda boshqa sanoat ishlab chiqarish sohalari - 50 kishidan.

3.3. Fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohasi (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'lmagan soha - 25 kishidan oshmagan kichik korxonalar.

Korxonalarni ishchilar soniga qarab toifalash har xil davlatlarda iqtisodiyot tarmog'iga qarab har xil bo'lishi mumkin. Masalan: Amerika Qo'shma SHtatlarida qayta ishlash sanoatidan tashqari barcha mikrofirmalarga tarmoklar uchun - 20 kishigacha, kichik korxonalar - 100 kishigacha, o'rta - 500 kishigacha va yirik korxonalar - 500 kishidan ko'p. Qayta ishlash sanoatida kichik korxonalar - 500 kishigacha ishlaydigan korxonalar kiritiladi.

Rossiyada kichik korxonalar chakana savdo va maishiy xizmatda - 30 kishigacha, ulgurji savdoda - 50, ilmiy-texnik sohada va Qishloq xo'jaligida - 60, ishlab chiqarish qurilish va transportda - 100 kishigacha ishlaydigan korxonalar kiritiladi.

Ukrainada kichik korxonalariga chakana savdoda - 12 kishigacha, noishlab chiqarish sohasida - 25, fan va ilmiy xizmat ko'rsatish sohasida - 100, sanoat va qurilishda - 200 va boshqa ishlab chiqarish soqalarida - 50 kishigacha.

2. Xo'jalik yuritish shakllariga qarab korxonalar aksioner (ochiq, yopiq) korxonalar, shirkat (kooperativ), ijara korxonalariga tasniflanadi.

3. Mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha ixtisoslashuviga qarab, ixtisoslashgan, universal va aralash korxonalariga bo'linadi.

4. Korxonalar ishlab chiqarish mahsuloti yoki xizmat turlariga qarab juda keng tasnifga egadir. Masalan: aviatsiya zavodi, tekstil fabrikasi, konditer zavodi, avtokorxonalar, tijorat banki, mehmonxona, savdo uyi, shifoxona, universitet, maktab, machit va hokazolar. Ayni ushbu turlariga qarab aksariyat korxonalariga nomlar qo'yiladi.

“Bizning bu boradagi eng katta yutug'imiz yalpi ichki mahsulot tarkibida **kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi** ko'paygani hamda mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda uning roli sezilarli darajada oshganida namoyon bo'lmoqda.

2000 yilda yalpi ichki mahsulotning qariyb 31 foizi iqtisodiyotning faol rivojlanib borayotgan ushbu sektori ulushiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2010 yilda bu ko'rsatkich 52,5 foizni tashkil etdi.”²⁰

Korxonalarining qonun hujjatlari va boshqa xo'jalik huquqi normalarida ko'zda tutilgan mulkchilik shakli, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turi va hajmi, kapitalning shakllanishi, turli xil firmalararo uyushmalarga a'zo bo'lish usullari va olib boruvchi raqobatchilik kurashlari bilan farq qiluvchi faoliyat tavsifi va mazmuniga bog'liq bo'lgan strukturaviy tuzilishining usul va ko'rinishlari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksiga binoan **xo'jalik yuritishning tashkiliy-huquqiy shaklini** ifodalaydi.

Hozirgi zamon sharoitlarida davlat, munitsipal, jamoa, individual (oilaviy, xususiy) turdagi korxonalar mavjud bo'lib, ular o'zlariga biriktirib qo'yilgan mulk tavsifi yoki tezkor (operativ) boshqaruv huquqiga ko'ra ham tasniflanadi.

Xo'jalik faoliyati yurituvchi har bir sub'ekt bir qator huquqlarga ega bo'lib, bular bir tomondan, ularning ichki tashkilotchiligini aniqlab bersa,

²⁰ И. А. Каримов. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” маърузаси// Халқ сўзи газетаси, 12.11.2010.

ikkinchi tomondan, jismoniy va huquqiy shaxslar hamda davlat bilan o'zaro munosabatlarini amalga oshirishga ko'maklashadi.

Korxonalar huquqiy shaklining har bir ko'rinishida ularning egalari, ya'ni xususiy mulk egalari, korxonalar bilan turli darajadagi aloqada bo'ladilar. Masalan, ochiq turdagi hissadorlik jamiyati egalari korxonalar mulkining bir qismigagina egalik qilish huquqiga egalik hamda boshqaruv funksiyalarini amalga oshirishda ham o'z aksiyalari miqyosida ishtirok etadilar.

Xo'jalik o'rtoqliklarida (jamiyatlarida) esa mulk egasi va mulk yaqinlashtirilgan bo'lib, korxonani boshqarishda ularga bevosita ishtirok etish imkoniyati yaratib berilgan.

Keng tarqalgan korxonalar shakllaridan biri xo'jalik o'rtoqliklari bo'lib, ular ishonch asosidagi to'liq o'rtoqlik (kommandit o'rtoqligi) ko'rinishida tashkil qilinishi mumkin.

Qonunga asosan ishtirokchilari imzolangan shartnomalar bo'yicha tadbirkorlik faoliyati yurituvchi hamda ularga tegishli mulk javobgarligiga ega bo'lgan o'rtoqliklar - to'liq o'rtoqliklar hisoblanadi.

Kommandit o'rtoqligi (ishonch asosida) -bir nechta fuqarolar yoki huquqiy shaxslarning o'zaro xo'jalik faoliyati yuritish maqsadidagi shartnomalar asosida birlashuvi natijasida paydo bo'ladi.

Jamiyatlarning ko'pchiligida kapitallar birlashtirilgan bo'ladi. Mas'uliyati cheklangan jamiyat (MCHJ) bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilib, Nizom jamg'armasi hujjatlarda (Nizom va ta'sis shartnomasi) belgilab qo'yilgan ulushlarga bo'lingan bo'ladi.

Bunday jamiyat muassislari jamiyatning majburiyatlari uchun javobgar bo'lmaydilar hamda jamiyat faoliyatida o'zlari kiritgan ulushlar doirasida zarar ko'rishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasida ochiq va yopiq turdagi hissadorlik jamiyatlari mustaqillikka erishilgandan keyin keng faoliyat ko'rsatmoqda.

Nizom jamg'armasi aksiyalarga taqsimlangan jamiyat hissadorlik jamiyati hisoblanadi. Hissadorlik jamiyati a'zolari jamiyatning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar, biroq o'zlariga tegishli bo'lgan aksiyalar qiymati doirasida zarar ko'rishlari mumkin.

Hissadorlik jamiyatlarining ijobiy jihatlari qatoriga quyidagilar kiradi: aksiyadorlik kapitalining teng taqsimlangan, erkin muomaladagi ulushlar - aksiyalarga taqsimlanishi; aksiyadorlar jamiyat majburiyatlari uchun javobgarligining aksiyalar qiymati hajmida cheklanganligi; aksiyadorlik kapitalining hajmi va a'zolar sonini osonlik bilan o'zgartirish imkonini beruvchi Nizom asosida birlashish; umumiy boshqaruv vazfalarining

xo'jalik faoliyatini boshqarish vazifalaridan alohida yuritilishi va hokazolar.

Iqtisodiyotimiz oldida turgan asosiy vazifalardan biri sanoat ishlab chiqarishini jahon iqtisodiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan raqobatbardosh korxonalar tashkil qilish maqsadidagi tuzilmaviy qayta qurishdan iborat. Buning uchun integratsiya hamda turli tashkiliy-huquqiy shakldagi korxonalarni vaqtinchalik yoki doimiy ravishda kooperatsiya yoki kontsentratsiya asosida birlashtirish amalga oshiriladi.

Xalqaro moliya tashkilotlari – davlatlar o'rtasidagi valyuta va moliya-kredit munosabatlarini tartibga solish, mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga ko'maklashish, kredit ko'rinishida yordam berish maqsadida davlatlararo kelishuvlar asosida tashkil etilgan tashkilotlar. Bunday tashkilotlar qatoriga xalqaro hisoblashuvlar banki, Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi, Xalqaro moliyaviy korporatsiya, Osiyo taraqqiyot banki, Evropa investitsiya banki, mintaqaviy xalqaro rivojlanish banklari va boshqalarni kiritish mumkin.

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar – ikki turdagi – ishtirokchilari bevosita davlatlardan iborat hukumatlararo (davlatlararo) hamda tarkibiga ishlab chiqaruvchilar birlashmalari, kompaniya va firmalar, ilmiy jamiyatlar va boshqalar kiruvchi nohukumat tashkilotlari.

Jahon banki – 1944 yilda Xalqaro valyuta jamg'armasi bilan bir vaqtda tuzilgan birinchi davlatlararo investitsiya institutidir. Bank o'zining faoliyatini 1946 yil 25 iyundan boshlagan.

Xalqaro valyuta jamg'armasi – xalqaro savdo va valyuta hamkorligini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatish maqsadida 1944 yilda tashkil etilgan xalqaro valyuta-moliya tashkiloti. Xalqaro valyuta jamg'aramasi – a'zo davlatlar o'rtasida valyuta-kredit munosabatlarini tartibga solib turish va ularga to'lov balansining kamomadi bilan bog'liq valyutaviy qiyinchiliklar paytida chet el valyutasida qisqa va uzoq muddatli kreditlar berish yo'li bilan moliyaviy yordam ko'rsatish uchun mo'ljallangan hukumatlararo tashkilot. O'z amaliy faoliyatini 1947 yil 1 martdan boshlagan.

Osiyo taraqqiyot banki – Osiyo va Uzoq Sharq mintaqasiga bevosita qarzlarni berish hamda texnik jihatdan ko'maklashish orqali mazkur mamlakatlar iqtisodiyoti o'sishini rag'batlantirish maqsadida 1966 yilda tashkil etilgan bank.

Kooperatsiya jarayonida kontsern, konsortsium, xo'jalik assotsiatsiyasi kabi tashkiliy shakllar vaqtinchalik yoki doimiy ravishda tuzilishi mumkin. Ushbu tuzilmaviy birliklarining mohiyatini qisqacha ko'rib chiqamiz.

Kontsern umumiy manfaatlarga ega hamda shartnomalar, kapital va qo'shma faoliyatda ishtirok etish bilan bog'liq bo'lgan korxonalarining yirik birlashuvini aks ettiradi.

Konsortsium kompaniya va banklarning vaqtinchalik birlashuvi natijasida, yirik kapital talab qiluvchi loyihalarni amalga oshirish yoki mablag'ni birgalikda joylashtirish maqsadlari uchun umumiy kelishuvlar asosida yuzaga keladi. Konsortsium buyurtmachilar oldidagi majburiyatlar uchun javobgar hisoblanadi.

Xo'jalik assotsiatsiyasi jismoniy yoki huquqiy shaxslarning o'zaro hamkorlik yuritish maqsadida ko'ngilli ravishda birlashuvini anglatadi va unda birlashuvga kiruvchi sub'ektlar o'z mustaqilligini saqlab qoladilar.

Korporatsiyalar umumiy maqsadlarga erishish, hamkorlikda faoliyat yuritish maqsadida birlashib, mustaqil huquqiy sub'ekt - huquqiy shaxsni tashkil qiluvchi shaxslar yig'indisini tavsiflaydi. Ko'pincha ular aktsiyadorlik (hissadorlik) jamiyatlari shaklida tashkil qilinadi.

Korxonalarining konsentratsiya asosida birlashuvi kartel, sindikat, xolding va moliya-sanoat guruhlarini ko'rinishida amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish sohasidagi **kartellar** ishlab chiqarish masalalari, narxlar, tovarlarni sotish, ishchi kuchini yollash va Shu kabi masalalar bo'yicha kelishuvga asoslanib faoliyat yuritadi.

Integratsiyaning bu shaklida korxonalar mustaqillikni saqlab qolgan holda kooperatsiya asosida birlashadilar.

Sindikat – tijorat faoliyatini (ta'minot, sotish, narxning paydo bo'lishi) hamkorlikda tashkil qilishga asoslangan birlashmadir. Sindikat tarkibiga kiruvchi korxonalar huquqiy hamda xo'jalik yuritish mustaqilliklarini saqlab qoladilar.

Trestlar yuqori darajada markazlashganligi bilan ajralib turadi. Uning tarkibiga kiruvchi korxonalar ishlab chiqarish, tijorat va huquqiy mustaqilliklarini yo'qotib, yagona reja asosida faoliyat yuritadi.

Xoldinglar ishtirokchilarning moliyaviy imkoniyatlarini birlashtirish va muvofiqlashtirish hamda ishlab chiqarish quvvatlari bilan vaizifalarni tezkor ravishda amalga oshirish imkonini beruvchi boshqaruvning samarali shaklini ifodalaydi.

Integratsiya jarayonlarini amalga oshiruvchi korxonalar quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:

- *7 resurslardan yanada samaraliroq foydalanishga erishish;
- *8 kooperatsiya asosidagi aloqalarini yangilash va mustahkamlash;
- *9 mamlakatdagi korxonalarining tashqi bozorga chiqishi;
- *10 ishlab chiqarishga investitsiyalarning yangi shakllarini jalb etish;
- *11 ichki va tashqi bozordagi raqobatda muvaffaqiyat qozonish maqsadida narx va sotish bo'yicha yagona siyosat yuritish.

Moliyaviy xolding sho'ba korxonalarining ishlab chiqarish va tijorat faoliyatiga aralashish huquqiga ega emas.

Moliya-sanoat guruxlari.

Moliya - sanoat guruhi - kredit-moliya va investitsiya muassasalari, korxonalar va tashkilotlarning ishlab chiqarishni xalqaro ko'lamda ixtisoslashtirish va kooperatsiyalashni chuqurlashtirish orqali maksimal foyda olish maqsadida mablag'larini birlashtirib, tashkil qilingan tashkiliy-tarkibiy boshqaruv tuzilma.


Mulkchilik shaklidai qat'iy nazar har qanday tashkiliy-huquqiy turdagi korxonalar, Shuningdek, kredit-moliya, investitsiya va boshqa muassasalari, nodavlat pensiya jamg'armalari va boshqa jamg'armalar, sug'urta tashkilotlari, Shu jumladan, xorijiy tashkilotlar moliya-sanoat guruhining ishtirokchilari bo'la oladilar.

Moliya-sanoat guruhlarining tashkil etilishi, faoliyati, qayta tuzilishi va tugatilishi O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasidagi korxonalar to'g'risida", "Xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari to'g'risida", "Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlar huquqini himoyasi to'g'risida"gi Qonunlari, "Moliya-sanoat guruhlari haqidagi Nizom" va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunlari bilan tartibga solinadi.

2009 yilda global iqtisodiyotning o'sishi taxminan 1 foizga qisqargan bo'lsa, joriy yilda dunyoda iqtisodiy rivojlanish 3 foiz atrofida oshishi mumkin, bu esa inqirozgacha bo'lgan davrdagi ko'rsatkichlardan ancha pastdir (4-rasm).

Haqiqatan ham, eng rivojlangan mamlakatlardagi YAIM ning o'sish sur'atlari aksariyat hollarda inqirozdan oldingi darajaga etmaganini ko'rishimiz mumkin (4-rasm).

Rasmda ifodalangan 2010 yildagi tezkor olingan ma'lumotlarga ko'ra, YaIMning o'sish sur'ati AQSHda 1,5 foizni, Yaponiya 1,7 foizni, Buyuk Britaniyada 0,9 foizni, Germaniyada 3,6 foizni tashkil etgan. Faqat Germaniya o'zining iqtisodiy o'sish sur'ati bo'yicha inqirozdan oldingi davr ko'rsatkichlariga etgan. Biroq, umumiy holda jahon iqtisodiyotidagi o'sish sur'atlarini barqaror deb bo'lmaydi.



*Izoh: 2010 yilda tezkor holda oldindan olingan ma'lumotlar keltirilgan.

4-rasm. Ayrim rivojlangan mamlakatlarda YAIMning o'sish sur'atlari (oldingi yilga nisbatan foizda)

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Moliya-sanoat guruhlarini quyidagi masalalarni hal qilish vakolatiga ega:

ishtirokchilar resurslarini birlashtirish, xo'jalik aloqalarini o'rnatish va Shu asosda yangi umumiy iqtisodiy makonni yaratish;

- investitsiya resurslarini jalb etish, ishlab chiqarishni texnik-iqtisodiy darajasi, mahsulotning sifati va raqobatbardoshligini oshirish;

- investitsiya resurslarini fan echimlarini ko'p talab qiluvchi tarmoqlarga, transport, telekommunikatsiya va foydali qazilmalarni qazib olishga yo'naltirish;

- o'z tarkibida korxonalariga xizmat ko'rsatuvchi huquqiy jihatdan mustaqil tuzilma bo'g'inlari vakolatli bank, savdo uyi, ta'minot-sotish tashkiloti, marketing bo'yicha bo'linmalar va hokazolarni tashkil etish;

- iqtisodiyotning tuzilmaviy qayta qurilishiga ko'maklashish va boshqalar.

Ishtirokchilari orasida O'zbekiston Respublikasidan tashqarida bo'lgan xuquqiy shaxslarga ega bo'lgan moliya-sanoat guruhlarini

transmilliy kompaniya hisoblanadi. Davlatlararo moliya-sanoat guruhining tashkil etilishi faoliyati va tugatilishi hukumatlararo tuzilgan bitimlar bilan belgilanadi.

Agrofirmalar.

Tuman qishloq xo'jalik majmuining rivojlanishini ta'minlash maqsadida, paxtakor va boshqa xo'jaliklar, qayta ishlash korxonalari hamda xizmat ko'rsatuvchi korxonalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi, xuquqiy shaxs maqomiga ega bo'lgan tashkiliy-tarkibiy boshqaruv organ.

Agrofirmalar quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- davlat tayyorlov korxonalariga paxta tolasi, boshqa xo'jalik mahsulotlarini etkazib berish; -
- qishloq xo'jaligini ilmiy-texnik darajasini oshirish, jahon standartlariga mos mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlash;
- mahsulot ishlab chiqarish va sotish sohasida bozor munosabatlarini rivojlantirish, moddiy-texnik resurslarning raqobatchi bozorlarini yaratish;
- xo'jaliklar va boshqa korxonalariga investitsiyalarni jalb qilishda ko'maklashish;
- marketingni tashkil etish bozor holatini (kon'yunkturasini) o'rganish va xo'jaliklar, korxonalar va tashkilotlarga etishtirilgan mahsulotlarini sotishda ko'maklashish- hamda o'z nizomiga muvofiq boshqa vazifalarni.

2.4. Korxonalar faoliyatini iste'molchilar talabiga yo'naltirish. Mahsulotlarni standartlash metrologiya va sertifikatlash

Ushbu BOBning 2.1. bo'limida keltirilgan korxonaning maqsadlaridan kelib chiqib, korxonalar faoliyatini iste'molchilar talabiga yo'naltirish masalasiga kelsak, bu masala korxonaning asosiy maqsadining negizini tashkil qiladi. Korxonalar faoliyatini iste'molchilar talabiga yo'naltirishning huquqiy asoslarini O'zbekiston Respublikasi "O'zbekiston Respublikasidagi korxonalar to'g'risida" (15.02.1991y), "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" (18.12.1993y), "Metrologiya to'g'risida" (28.12.1993y), "Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlash to'g'risida" (28.12.1993y), "Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to'g'risida"gi (30.08.1997y) Qonunlar va Vazirlar Mahkamasining ushbu masalalarga oid qarorlari tashkil qiladi.

"O'zbekiston Respublikasidagi korxonalar to'g'risida"gi Qonunning 1-moddasini 2-bandida: "Korxonaning faoliyati maqsadlarini ro'yobga

chiqarishga o'z mahsuloti; ishlari va xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini qanoatlantirish hamda ana Shu asosda mehnat jamoasi a'zolarining ijtimoiy va iqtisodiy manfaatlarini hamda korxonalar mol-mulki egasining manfaatlarini ta'minlash yo'li bilan erishiladi" - deb ta'kidlab ko'yilgan. Bundan kelib chiqadiki, korxonalar o'z maqsadlariga faqat mahsuloti, ishlari va xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish orqali erishadi. Korxonalar o'z faoliyatini to'la-to'kis iste'molchilarning talabini qondirishga yo'naltirishi shart va zarurdir. Bu borada ularning mas'uliyati ham qonunlarda belgilab qo'yilgan. Masalan: "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 27-moddasida iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarni buzganligi uchun ishlab chiqaruvchi javobgar bo'ladi deb belgilab qo'yilgan.

Ushbu qonunning 5-moddasida ishlab chiqaruvchi o'z korxonasining nomi va joylashgan (yuridik) manzili haqida iste'molchini xabardor qilishi shartligi, 6-moddasida ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) iste'molchiga o'zi realizatsiya qilayotgan tovar (ish, xizmat)lar haqidagi zarur, to'g'ri va tushunarli ma'lumotlarni o'z vaqtida berishi shart ekanligi belgilab qo'yilgan.

Tovar (ish, xizmat) haqidagi ma'lumotda ularni majburiy talablarga muvofiq kelishi shart bo'lgan normativ hujjatning nomi, tovar (ish, xizmat)ning asosiy iste'mol xususiyatlari, bahosi, sotib olish tartibi, ishlab chiqargan sanasi, ishlab chiqaruvchining kafillik majburiyatlari, ulardan samarali va xavfsiz foydalanish qoidalari kabilar keltiriladi. Bularni mazmunidan Shunday xulosa qilish mumkinki, ishlab chiqaruvchi iste'molchi uchun xizmat qilishga majbur.

Global moliyaviy-iqtisodiy bozor – jahon mamlakatlari o'rtasidagi moliyaviy-iqtisodiy aloqalarni yagona xo'jalik tarzida amal qilishiga asoslangan munosabatlar.

Jahon bozori kon'yunkturasi - jahon tovar bozorlaridagi sotish sharti, ushbu bozorlardagi talab, taklif, narxlar darajasi, ularning o'zgarish tendentsiyalari.

Joriy kon'yunktura – muayyan davrda tovarlarga bo'lgan talab va taklifning tarkibi, dinamikasini shakllantiruvchi iqtisodiy sharoit va omillar majmui. Joriy kon'yunktura ayni davrdagi milliy va jahon

iqtisodiyotining u yoki bu omillaridan tarkib topgan vaqtinchalik vaziyatni ifodalaydi.

“Mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim istiqbollari va ustuvor yo’nalishlarini belgilab olar ekanmiz, biz **ichki ehtiyojning o’sishiga** alohida e’tibor qaratishimiz kerak bo’ladi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi oqibatlarini yumshatishga qaratilgan Inqirozga qarshi choralar dasturida ana Shunday yondashuv asosida ish tutganimiz o’tgan yillarda o’zini to’la oqladi.”²¹

Mahsulotlarni standartlash, metrologiya va sertifikatsiyalash ham korxonalarini o’z faoliyatini iste’molchi talablariga moslashtirishga majburlashtiradigan omillardan biridir.

Standartlashning asosiy vazifasi mahsulotning atrof-muhit, aholining hayoti, sog’ligi, mol-mulkiga xavfsizlikni ta’minlash uchun texnikaviy va axborot jihatidan mahsulotning bir-biriga mos kelishi va o’zaro almashuvchanligi, ularni nazorat qilish usullar birligi va tamg’alash birligini ta’minlash kabilardir.

Respublikada xalqaro iqtisodiy aloqalarning kuchayishi, savdo-sotiqning rivojlanishi, ichki va tashqi bozorga tovar chiqarishdagi raqobatning kuchayishi, ilmiy-texnik taraqqiyotni jadallashtirish, ishlab chiqarish samaradorligi va mahsulot sifatini yaxshilashning barcha imkoniyatlarini, izlab topish va ulardan amalda foydalanish bo’yicha bir qator, muhim vazifalarni ko’ndalang qo’yadi. Bunday sharoitda mahsulot sifatini boshqarish tizimidagi muhim vosita sifatida, uning hayotiy tsiklining barcha bosqichlarida standartlash metrologiya va sertifikatlashtirishning roli benihoya ortadi.

Oldimizga qo’yilgan bunday maqsadlarga erishish, avvalo, o’z imkoniyat va resurslarimizni qay darajada safarbar etishimizga, hamon katta xavfi saqlanib qolayotgan inqiroz oqibatlarini bartaraf etish bo’yicha 2009-2012 yillarga mo’ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturida ko’zda tutilgan chora-tadbirlarni so’zsiz bajarishni nechog’lik ta’minlay olishimizga bog’liq.

I.Karimov (ma'ruzadan)

Jahon birjalarida konditsion, ya’ni standart talablariga muvofiq keladigan tovarlar uchun yuqori narx va har qanday nostandart tovar uchun yaroqsiz mol sifatida juda past narx belgilanadi.

Standartlashtirishning muhim vazifalaridan biri - sifat ustidan davlat nazoratini o’rnatish bo’lib,

²¹ И. А. Каримов. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” маърузаси// Халқ сўзи газетаси, 12.11.2010.

uning asosini haqiqiy olingan mahsulot bilan standart talablari ko'rsatkichlarini qiyoslash tashkil etadi. Shunga ko'ra ishlab chiqarish bilan boshqaruv o'rtasida javob aloqasi o'rnatiladi. Standartlar xalq iste'mol tovarlari asosiy xususiyatlarini nafaqat ishonarli aniqlash, balki tezkorlik bilan aniklash va uning iste'mol qiymati to'g'risida keng tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi. Natijada xar bir muayyan holatda sifatning eng maqbul darajasi bilan ishlab chiqarishni tashkil etish mumkin bo'ladi.

Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish iste'molchilarni himoya qilish asosiy me'yoriy hujjati hisoblanib, muvofiqlik sertifikati yoki muvofiqlik belgisi vositasida mahsulotlar yoki, xizmatning muayyan standart yoki, boshqa me'yoriy texnik hujjatga javob berishini tasdiklaydigan dalildir. Mahsulotlarni va xizmatlarni sertifikatlashtirish orqali yuksak sifatga erishish hamda ularni jahon bozorida raqobat ko'ra olishi ta'minlanadi.

Sertifikatlashtirishning asosiy maqsadlaridan yana biri: Shundaki, sertifikatlashtirish asosidagina mamlakat korxonalar, qo'shma korxonalar va tadbirkorlar xalqaro miqyosdagi iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy hamkorlikda va xalqaro savdo-sotiqda ishtirok etishlari uchun sharoit yaratiladi.

Korxonalar faoliyatini iste'molchilar talabiga yo'naltirishning ijtimoiy asosi tovar (xizmat) ishlab chiqarishni azaldan ijtimoiy xarakterga ega ekanligidan kelib chiqadi. Ishlab chiqaruvchilar o'z manfaatlariga jamiyatni, iste'molchilarni talabini qondirish orqali erishadi. Buning uchun korxonalar boshqaruvchilari jamiyat oldidagi ijtimoiy javobgarlikning mohiyatini to'g'ri tushunishi va uni jiddiylashtirishi zarur.

Ma'lumki, mehnat taqsimoti va unga bog'liq ravishda mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashish mehnat unumdorligini o'stirish, tayyorlanayotgan mahsulot sifatini yaxshilash va tannarxini kamaytirish uchun imkoniyat yaratadi. Ayni paytda, u yoki bu mahsulot turiga ixtisoslashish ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish uchun xom ashyo, butlovchi qismlarni boshqa ixtisoslashgan korxonalardan sotib olish ehtiyojini keltirib chiqaradi. Shu tariqa korxonalar o'rtasida kooperatsiya aloqalarini o'rnatishga zarurat yuzaga keladi.

Korxonalar o'rtasida barqaror kooperatsiya aloqalarini o'rnatish va ularni kengaytirish bo'yicha boshlangan ishlarni davom ettirish, bu jarayonga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini keng jalb etish zarur. Respublika sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasi ishini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish lozim.

I.Karimov (ma'ruzadan)

Bugungi kunda kooperatsiya aloqalarining xom ashyo etkazib berishdan iborat oddiy ko'inishidan tortib to franchayzing tizimini qo'llash kabi murakkab turlarigacha mavjud.

Shundan kelib chiqqan holda, "...bizning yaqin istiqboldagi eng muhim vazifamiz boshlagan ishlarimizni izchil davom ettirish – **iste'mol talabini kengaytirish** maqsadida sotsial sohani rivojlantirish, mehnatga haq to'lashni yanada oshirish, xizmat ko'rsatish sektorini, infratuzilma obektlarini rivojlantirishga, transport va kommunikatsiya loyihalari amalga oshirilishiga alohida e'tibor berishdir.”²²

Yaponiyagi "Matsusita elektrik industrial" kompaniyasining raqiblaridan biri K.Matsusitaning fikricha, boshqarishning yangi falsafasi asosida sotsial javobgarlikni tan olish yotadi. U Shunday deydi: "... har bir kompaniya, o'z masshtabkdan qat'iy nazar, foyda olishdan o'zga, uning faoliyat ko'rsatishini oklaydigan maqsadni ko'zlashi kerak...".

Korxonalar jamiyat manfaati uchun faoliyat yuritishi va aholining moddiy farovonligini oshirishga xizmat qilishi zarurligi butun jahonda tan olingan.

XX asrda sanoatni rivojlantirishda yuqorida keltirilgan boshqaruv falsafasini amaliyotda qo'llab, Yaponiya davlati korxonalari sifatsiz va arzon mahsulotlar ishlab chiqarishdan, iste'molchi talabiga yo'naltirilgan oliy sifatli tovarlar ishlab chiqish orqali o'zlarini ham, jamiyatni ham rivojlanish darajasini yuqori pog'onaga olib chiqqan.

Qisqacha xulosalar

O'zbekiston Respublikasining milliy iqtisodiyoti ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida yuzaga kelgan hamda umumiy iqtisodiy qonun va qonuniyatlar asosida rivojlanib bormoqda. Bugungi kunda iqtisodiyotimiz bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'lidan bormoqda. Prezidentimizning beshta tamoyili asos qilib olingan bu model hozirda jahon mamlakatlari tomonidan ham tan olindi.

O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotining muhim sub'ekti **korxonalar** - iqtisodiyotning birlamchi bo'g'ini bo'lib, inson hayot faoliyati uchun zarur bo'lgan moddiy boyliklarni ishlab chiqarishda bevosita qatnashadi.

²² И. А. Каримов. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” маърузаси// Халқ сўзи газетаси, 12.11.2010.

Har bir korxonada ishlab chiqarish omillaridan foydalanish, ularni iste'mol uchun tayyor mahsulot (ish, xizmat) holiga keltirish yo'li bilan mamlakat iqtisodiyotiga o'z hissasini qo'shadi.

Bozor iqtisodiyotining rivojlanish sharoitlarida mulkdorlar sinfining vujudga kelishi va korxonalarining yangi tashkiliy-huquqiy shakllarini tashkil qilish imkonini beruvchi huquqiy hujjatlar yaratildi.

Korxonalarining har biri boshqasidan o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra farqlanadi. Shu sababli ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etish, rejalashtirish, boshqarish hamda ishlab chiqarish tuzilmasini yaratish uchun korxonalar tasnifini bilish zarur.

Istalgan bir sanoat korxonasi ko'plab bo'g'inlardan iborat bo'lib, ularning tarkibi va tuzilishi hamda o'zaro munosabatlarini tuzilma sifatida ko'rib chiqish mumkin. Korxonalar tuzilmasini o'rganish ularning sanoat majmuasida tutgan o'rni, roli va ahamiyatini aniqlash imkonini beradi.

O'z navbatida ishlab chiqarish tuzilmasini loyihalashtirishda uning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni inobatga olish muhimdir.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Milliy iqtisodiyot tushunchasi va korxonalarining mamlakat xalq xo'jaligi majmuasidagi roli.
2. Sanoat korxonalariga xos bo'lgan belgilar.
3. Sanoat korxonalarining vazifalari va bajaradigan ishlari.
4. O'zbekiston Respublikasining "Korxonalar to'g'risida"gi qonuni va uning mazmuni.
5. Korxonaning davlat ro'yxatidan o'tish uchun qanday hujjatlar talab qilinadi?
6. Sanoat korxonalarining tasnifi.
7. Korxonalarni tavsiflashda ishlatiluvchi mezonlar.
8. Korxonalarining umumiy va ishlab chiqarish tuzilmasi tushunchalari.
9. Korxonada tuzilmasini belgilab beruvchi omillar.
10. Korxonada tuzilmasini mukammallashtirish yo'llari.

3-BOB: Korxonani tashkil etish va uning faoliyatini to'xtatish

3.1. Korxonani tashkil etish va faoliyatini tugatish tamoyillari va tartib-qoidalari

3.2. Korxonalar faoliyatini litsenziyalash tartibi

3.3. Korxonaning moliyaviy barkarorligi mezonlari va ko'rsatkichlari

3.4. Korxonaning tashqi iqtisodiy shartnomalari va turlari

Tayanch iboralar: Tashkil qilish tamoyillari, korxonalar mulki egasi, sho'ba korxonalari, filiallar, vakolatxonalar, huquqiy shaxs maqomi, korxonalar nizomi, ta'sis shartnomasi, korxonalar mulkini shakllantirish, korxonalar davlat tomonidan ro'yxatga olinishi, ro'yxatga olish uchun hujjatlar, korxonalar qayta tashkil qilish, korxonalar tugatish, tugatish komissiyasi.

3.1. Korxonani tashkil etish va faoliyatini tugatish tamoyillari va tartib-qoidalari

Iqtisodiyotning jadal rivojlanishi va ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi faoliyat yuritayotgan korxonalaridan tashqari, yangi korxonalar tashkil qilish va ishga tushirishga tayanadi. Bunday qadam iqtisodiy jihatdan maqbullikka, resurslar imkoniyati va korxonalar mahsulotlariga bo'lgan talabga asoslanadi. Biron-bir mahsulotning taqchilligi yoki umuman yo'q bo'lishi ham, yangi korxonalar yoki ishlab chiqarishni tashkil qilishga sabab bo'lishi mumkin.

Yangi korxonalar tashkil qilish quyidagi tashkiliy tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

- korxonalar tashkil qilish fikrining paydo bo'lishi;
- korxonalar muassislarini tanlash;
- taklif qilinayotgan mahsulotga bozordagi talabni o'rganish;
- korxonalar nizom jamg'armasini tuzish uchun moliya manbalarini aniqlash;
- korxonalar ta'sis hujjatlari va biznes-rejasini tayyorlash;
- davlat ro'yxatidan o'tish;
- muhr, shtamp va boshqa rekvizitlarni tayyorlash;
- soliq idoralarda ro'yxatdan o'tish.

O'zbekiston Respublikasining "Korxonalar to'g'risida"gi qonuniga asosan, korxonalar mulk egasi (egalari) yoki u (ular) tayinlagan vakillik organi, mehnat jamoai yoki muassislar guruhining qarori bo'yicha belgilangan qonun-qoidalarga asosan tashkil qilinishi mumkin.

Shuningdek, korxonalar agar korxonalar mulki egasi yoki u tayinlagan vakillik organining roziligi bo'lsa, faoliyat yuritayotgan korxonalar tarkibidan bir yoki bir nechta tarkibiy bo'linmalarni, ushbu bo'linmalarning mehnat jamoalari tashabbusiga ko'ra, ajratib chiqarish natijasida ham tashkil topishi mumkin.

Korxonalar joriy va hisob-kitob raqamlari ochish va ular to'g'risidagi holatlarni tasdiqlash huquqiga ega bo'lgan, mustaqil huquqiy shaxs maqomidagi sho'ba korxonalar, filiallar, vakolatxonalar, bo'lim va boshqa tashkiliy bo'linmalarni tashkil qilishi mumkin.

Korxonalar qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda maxsus davlat organlarida ro'yxatga olingan kundan boshlab tashkil qilingan hisoblanadi va huquqiy shaxs maqomiga ega bo'ladi.

Korxonalar tashkil qilishdan tashqari, uning moliyaviy barqarorligi va samarali faoliyatini ta'minlash, bozor munosabatlari va raqobatchilik sharoitlarida juda muhimdir. Amaliyotdan ko'rinib turibdiki, bu qoidalarga rioya qilmaslik natijasida korxonalar tashkil qilishga ketgan barcha sa'y-harakatlar o'zini oqlamaydi hamda ijtimoiy ishlab chiqarish rivojlanishining mikro va makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni moliyaviy jihatdan barqaror bo'lmagan korxonalar endi tashkil qilingan yoki faoliyat yuritayotganligidan qat'i nazar, bankrot korxonalar hisoblanadi.

Yangi korxonalar tashkil qilishdan asosan quyidagi maqsadlar ko'zlanadi:

- iste'molchilar talab qilayotgan mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish va uni sotishdan foyda (daromad) olish;
- ishlab chiqarishga ish bilan band bo'lmagan aholini jalb qilish va Shu orqali ish bilan ta'minlashdagi ijtimoiy muammolarni hal qilish;
- ishlab chiqarishga mavjud qushimcha resurslarni jalb qilish;
- fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda yangi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish;
- Yakka tarzda yoki hamkorlikda faoliyat yuritish uchun kichik korxonalar (o'rtoqchilik kabi) tashkil qiluvchi alohida fuqarolar yoki shaxslar guruhi a'zolarining shahsiy ehtiyojlarini qondirish;
- ishlab chiqarishni mustahkamlash va rivojlantirish hamda bozor muhitini kengaytirish.

Korxonada tuzilgandan keyin uning faoliyatini tashkil etish masalasi juda ham jiddiy ahamiyatga ega.

Hukumatimiz tomonidan yangi korxonalar faoliyatini tashkil etish va qo'llab quvvatlash uchun juda ko'plab chora tadbirlar amalga oshirilmoqda.

2009 yilda tadbirkorlarning o'z ishini tashkil etish bilan bog'liq sarf-xarajatlarini qisqartirish ishlari davom ettirildi. Masalan:

- arxitektura-rejalashtirish topshiriq to'plamlarini olish qiymati – 4 barobar;

- loyiha-smeta hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish – 2,5 barobar;

- kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish qiymati – 2 barobarga pasaytirildi.

Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishdagi ruxsat berish jarayonlarining qisqartirilishi va to'lovlarning optimallashtirilishi bilan bog'liq tadbirlar natijalarini quyidagi jadval orqali yaqqolroq ko'rish mumkin (1-jadval).

1-jadval.

Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda ruxsat berish jarayonlarini qisqartirilishi va to'lovlarning optimallashtirilishi

Ruxsat berish bilan bog'liq jarayonlar turlari	To'lov miqdori				To'lov miqdorini qisqarishi, foizda
	Avval amalda bo'lgan		Yangi kiritilgan		
	eng kam ish haqi miqdori bo'yicha	so'mda*	eng kam ish haqi miqdori bo'yicha	so'mda*	
Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish	5	140200	2	56080	- 60
Bankda hisob raqamini ochish	1	28040	0,5	14020	- 50
Arxitektura-rejalashtirish topshiriqlarini ishlab chiqish	40	1120000	10	280400	- 75
Er uchastkasini rasmiylashtirish	-	130000	-	58000	- 56
Ekologik ekspertiza	25	701400	1	28040	- 96
Loyiha-smeta hujjatlarini	10	280400	3	84120	- 70

ekspertiza qilish					
Qurilish davomida nazorat-ijro s'emkalari o'tkazish	5	140200	3	84120	- 40
Normativlar loyihalarining ekologik ekspertizasini o'tkazish	75	2103000	1	28040	- 98,7
Gigienik sertifikatlar olish	10	280 400	3	84 120	- 70
Jami to'lovlar qiymati (litsenziya va ruxsatnomalari z)	-	5037660	-	830960	- 83,5

* Izoh: eng kam ish haqi miqdori to'lovlarni qisqartirishga oid me'yoriy hujjatlar qabul qilingan davrga tatbiqan olingan.

Jadvaldan ko'rinadiki, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda ruxsat berish jarayonlarini qisqartirish va to'lovlarni optimallashtirish tadbirlari ahamiyatli darajada amalga oshirilgan. Masalan, normativlar loyihalarining ekologik ekspertizasini o'tkazish bo'yicha to'lov miqdori 75 marta, ekologik ekspertiza qiymati 25 marta kamaytirilgan. Buning natijasida har bitta tadbirkorlik sub'ekti uchun o'z faoliyatini tashkil etishda umumiy holda 4207 ming so'm miqdorgacha mablag'larni tejash imkoniyati paydo bo'ldi.

2010 davomida inventarizatsiya natijasida aniqlangan qariyb 2 mingta bo'sh bino kichik tadbirkorlik sub'ektlariga ijaraga berildi. Bunda binolarni ijaraga berish tariflari tadbirkorlik sub'ektlarining qaerda joylashgani va ularning faoliyat turiga qarab 3 barobardan 10 barobarga qadar kamaytirildi. Shuningdek, o'tgan davr mobaynida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari uchun quyidagi imtiyoz va qulayliklar yaratildi:

- mahsulotlarning gigienik sertifikatini amal qilish muddati ilgari 3 yildan endilikda cheklanmagan muddatga o'tkazildi;
- fitosanitariya xulosalarini berish muddatlari qisqartirildi;
- elektr va issiqlik tarmoqlariga ulanish uchun texnik shartlarni bajarish muddatlari 1 oydan 3 kungacha qisqartirildi;

- binolarni turar joydan noturar joy toifasiga o'tkazish jarayoni soddalashtirildi;

- davlat mulkidagi bo'sh binolar ijara haqlari 10 va undan ko'p barobargacha tushirilishi natijasida ularning 81 foizi (aniqlangan 3650 tadan 2939 tasi) tadbirkorlik sub'ektlariga ijaraga berildi;

- tashqi reklamani joylashtirish tariflari o'rtacha 20 dan 30 foizgacha pasaytirildi hamda ayrim hududlarning qishloq joylarda haq olish bekor qilindi. Buning natijasida tashqi reklama beruvchi tadbirkorlarning ulushi 34 foizgacha oshdi;

- tashqi reklamani joylashtirish qiymati Toshkent, Farg'ona, Jizzax, Namangan va Navoiy viloyatlarining qishloq joylari uchun 50 foizgacha pasaytirildi;

- elektr energiyasini oldi-sotti shartnomasida belgilangan hajmga nisbatan kam sarflanishi uchun jarimalar bekor qilindi va ortiqcha sarflash bo'yicha jarimalar 50 foizga qisqartirildi.

Bugungi kunda respublikamiz iqtisodiyotining deyarli barcha tarmoq va sohalarida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash tadbirlarining keng ko'lamda amalga oshirilishi raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Biroq, bu boradagi jiddiy muammo – mahsulotlarimiz tannarxining yuqori darajada qolayotganligi ularning raqobatdoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.


Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida»gi (2008 yil 28 noyabr) 4058-sonli Farmonida²³ muhim chora-tadbirlar qatorida mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalarining barcha resurslardan samarali foydalanishi hisobiga mahsulot tannarxini 20 foizdan kam bo'lmagan miqdorda pasaytirish orqali ularning raqobatdoshligini ta'minlash vazifasi ham belgilab berilgan edi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini mutanosib rivojlantirish, uning samarali tarkibiy tuzilmasiga ega bo'lish va Shu orqali barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishish Vatanimiz taraqqiyoti va xalq farovonligini ta'minlashning muhim shartlaridan hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish

²³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2008 йил 28 ноябрда қабул қилинган «Иқтисодийотнинг реал сектори корхоналарини қўллаб-қувватлаш, уларни барқарор ишлашини таъминлаш ва экспорт салоҳиятини ошириш чора-тадбирлари дастури тўғрисида»ги 4058-сонли Фармони.

uchun esa eng avvalo iqtisodiyotning real sektorini jadal rivojlantirish zarur bo'ladi.

Shunga ko'ra, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash dolzarb ahamiyat kasb etib, respublikamizda ushbu jarayon bir qator asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirildi (1-rasm).



1-rasm. Iqtisodiyot real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari

Ayniqsa, real sektor korxonalarini qo'llab-quvvatlashda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ichki talabni rag'batlantirish masalalari alohida o'rin tutdi.

Iqtisodiyotning real sektori – iqtisodiyotning bevosita moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq sohasi bo'lib, u o'z ichiga sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, aloqa tarmoqlarini oladi.

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash – ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma'naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga oluvchi jarayon. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashning asosiy yunalish va vositalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: korxonalaridan eskirgan asbob-uskunalarni chiqarish; ishlab chiqarishni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash; mahalliy resurslar asosida ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etish; ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimentini kengaytirish; ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish va resurslarni tejash; sifatni boshqarish

va sertifikatlash tizimini joriy etish; chiqitsiz va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va boshqalar.²⁴

II Bobda korxonani belgilari, shakl va turlarini ko'rib chiqdik. Korxonada faoliyatini tashkil qilish, uning shakl va turlaridan qat'iy nazar, barchasiga umumiy bo'lgan qoidalarga (printsiplarga) rioya qilinishini talab qiladi.

Mavjud adabiyotlarda korxonalarni tashkil qilish qoidalarini izohlashda bir xil qarashlar mavjud emas. Ayrimlari korxonani tashkil qilish qoidalarini uning belgilari bilan, ayrimlari tashkiliy masalalarni hal qilish etaplari bilan, ayrimlari korxonada faoliyatini samaradorligini ta'minlash qoidalari kabilar bilan aralashtirib yuboradilar.

Bizning fikrimizcha, korxonada faoliyatini tashkil qilish qoidalari, barcha korxonalar uchun bir xil, Shu jumladan foyda olish yoki olinmasligidan qat'iy nazar, ular faoliyatidagi jamiyat ehtiyojlariga yo'naltirib turadigan faoliyat samarasini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni ifodalaydigan jihatlarga ega bo'lgan, ma'kon va vaqt birligida o'zgarmaydigan tartiblar majmuasidan iborat bo'lishi kerak.

Korxonada faoliyatini tashkil qilinishi, avvalambor,

Birinchidan, tegishli tashkiliy-tarkibiy boshqaruv tuzilmasini mavjud bo'lishini talab qiladi.

Ikkinchidan, ishlab chiqarish vositalarini tegishli darajada texnologik birlashuvini, o'zaro harakatlarini moslashtirishni ta'minlash zaruriyati.

Uchinchidan, faoliyatni tashkil qilish, boshqarishda qarorlar qabul qilish va hokazo hollarda qonunning ustunligini ta'minlash.

To'rtinchidan, korxonalarni barchasi huquqiy nuqtai nazardan tengligini ta'minlash zaruriyati.

Beshinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy zaruriyat mavjudligidan kelib chiqish.

Oltinchidan, biznes shaklini tanlash erkinligi, albatta korxonaning ijtimoiy-iqtisodiy zaruriyatidan kelib chiqqan holda.

Ettinchidan, korxonada xo'jalik faoliyatiga davlatning aralashmasligi, uning faoliyat yuritishida erkinligi.

²⁴ Ходиев Б.Ю., Бекмуродов А.Ш., Ғофуров У., Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг «Мамлакатимизни модернизация қилиш ва кучли фуқаролик жамияти барпо этиш – устувор мақсадимиздир» ҳамда «Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир» номли маърузаларини ўрганиш бўйича Ўқув-услугий мажмуа – Тошкент: Иқтисодиёт. - 2010. 331.б

Va nixoyat korxonalar biron-bir mafkuraga bo'ysunmasligi, ularning mafkuradai ozodligi.

Ta'sis hujjatlarini tayyorlash korxonani tashkil etish va keyingi faoliyat yuritish jarayonidagi muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ta'sis hujjatlari faoliyat yurituvchi korxonalarning huquq va majburiyatlarini hamda sharoitlarini ifodalaydi.

Korxonalar faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarida ikki xil ta'sis hujjatlari belgilab berilgan:

korxonalar Nizomi;

Ta'sis shartnomasi.

Amaliyotda korxonalar faqat Nizom yoki faqat ta'sis shartnomasi asosida, Shuningdek, bir vaqtning o'zida Nizom va ta'sis shartnomasiga asosan faoliyat yuritish hollari mavjud.

Shuni qayd qilib o'tish kerakki, korxonaning (huquqiy shaxsning) ta'sis shartnomasi kelishuv asosida tuziladi, Nizom esa muassis (muassislar) tomonidan tasdiqlanadi. Bitta ta'sischi tomonidan tuzilgan huquqiy shaxs Shu ta'sischi tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida faoliyat yuritadi.

Korxonalar Nizomi asosiy ta'sis hujjati bo'lib, unda korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli, nomi va manzilgohi, Nizom jamg'armasining miqdori, daromadlarining tarkibi va taqsimlanish tartibi hamda korxonalar fondlarini tashkil qilish tartibi, korxonani tugatish va qayta tashkil qilish tartibi ko'rsatilishi shart. Boshqacha qilib aytganda, korxonalar Nizomi uning huquqiy maqomini, huquq va majburiyatlarini belgilab beradi.

Korxonani barpo etilishi o'ziga xos tashkiliy bosqichlardan iborat bo'ladi.

Korxonani tuzilishi uni yaratish to'g'risida tug'ilgan g'oyalarni asoslashda boshlanadi va quyidagi ketma-ketlikda keltirilgan ishlar bajariladi;

- korxonani ta'sis etuvchilari aniqlanadi, ularni shartnomasi tuziladi;
- ishlab chiqaradigan mahsulot yoki xizmat turini belgilash;
- korxonaning moliyaviy resurslari manbalarini aniqlash;
- korxonaning Ustav va Nizomini rasmiylashtirish;
- korxonani biznes-rejasini ishlab chiqish;
- korxonalar muhri, shtampi va boshqa rekvizitlarini tayyorlash;
- korxonani soliq organidan ro'yxatdan o'tkazish;
- banqda hisob raqamini ochish, bank bilan shartnoma tuzish;
- korxonalar ajratmalar o'tkazishi majbur bo'lgan, respublikada mavjud maqsadli jamg'armalarda hisobga ko'yilishi;

- korxonani davlat ro'yxatidan o'tkazish va ro'yxatdan o'tganlik to'g'risida hujjat olish.

Korxonani barpo etish hujjatlari va ularni ro'yxatdan o'tkazish tartibi.

"O'zbekiston Respublikasidagi korxonalar to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonun xujjatlarida ko'zda tutilgan tartib asosida korxonalar mulk egasi (ular vakili) qaroriga muvofiq yoki korxonani ta'sis etuvchilar guruhda yo bo'lmasa alohida shaxslar qarori bilan barpo etilishi mumkin. Shu bilan bir qatorda korxonalar ishlab turgan korxonalar, tashkilotlar tarkibidan bitta yoki bir nechta tarkibiy bo'linmalarga ajralib chiqishi natijasida belgilangan tartib asosida ham tashkil etilishi mumkin.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida yangi shakl va turdagi korxonalarni tashkil qilish va ularni tez oyoqqa turib olishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Buning uchun zaruriy huquqiy asos ishlab chiqildi va joriy etildi.

Davlat bozor iqtisodiyoti samarali amal qilishni ta'minlash maqsadida korxonalarni huquqiy asoslarini, ayrim muhim xizmatlarini ado etish vazifalarini o'z zimmasiga oldi. Bular qatoriga xususiy korxonalar qonuniy maqom berish, xususiy mulk huquqlarini belgilash shartnomalarga rioya qilishni kafolatlashni ta'minlash bir tomondan bo'lsa, ikkinchi tomondan, davlat qonuniy "o'yin qoidalari"ni belgilaydi. Bu qoidalar korxonalar, resurslarni etkazib beruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turadi. Qonunlar asosida davlat iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish sohasida hakamlik vazifasini o'z zimmasiga odadi, bu borada qonunbuzarlikka yo'l qo'ymaslikni oldini oladi yoki ularga nisbatan o'z vakolatlari chegarasida choralar ko'radi, erkin va to'g'ri raqobat uchun shart-sharoitlarni yaratadi, moddiy-ashyoviy, moliyaviy, axborot va boshqa resurslarga erishuvning teng imkoniyatlarini ta'minlaydi va bozorda monopol egalikka yo'l ko'ymaydi.

Korxonalarni tashkil etish, ularning faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishining umumiy huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy asoslari O'zbekiston Respublikasining "Korxonalar to'g'risida",

"Kooperatsiya to'g'risida", "Tadbirkorlik to'g'risida", "Ijara to'g'risida". "Xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari to'g'risida", "Tadbirkorlikni kuchaytirish va rag'batlantirish to'g'risida", "Er to'g'risida", "Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlar huquqini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunlar, hamda "O'zbekiston Respublikasida kichik korxonalar to'g'risidagi nizom", "O'zbekiston Respublikasida xususiy tadbirkorlik to'g'risida nizom", "Chet el investitsiyalari, xalqaro

birlashmalar va tashkilotlar ishtirokidagi korxonalarni tashkil etish va bu korxonalarining faoliyatini tartibga solish to'g'risida"gi nizom, "Xoldinglar haqidagi nizom", "Moliya-sanoat guruhlarini haqidagi nizom"lar va boshqa qonun hujjatlar bilan belgilangan.

Yangi korxonalarni tashkil qilishning asosiy maqsadlari, birinchidan, ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lmagan kishilarni ish joylari bilan ta'minlash, ya'ni jamiyatning ijtimoiy muammosini hal qilish; ikkinchidan, siyosiy masalani hal qilish bu esa qishloq joylarda milliy ishchilar sinfi vujudga keltirishda o'z aksini topadi; va nihoyat uchinchidan, iqtisodiy masalalarni echish, xalq iste'mol tovarlarini ishlab chiqarishni kengaytirish, ularni tanqisligini kamaytirish asosida aholining moddiy farovonligini oshirishdan iboratdir.

Korxonani barpo etish hujjatlaridan biri uni ta'sis etish shartnomasi hisoblanadi. Bu xujjat o'z mazmunidan kelib chiqib, kelajakda korxonani tashkil etuvchilarning o'zaro munosabatlarining qoidalarini belgilaydi. Ta'sis etish shartnomasida korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli, turi, faoliyat turi, maqsad va vazifalari, joylashish va huquqiy adresi, ustav kapitali hajmi va unda ta'sischilar hissasi, qatnashuvchilarning o'z hissasini boshqalarga berish sharti, uning boshqaruv va nazorat organlari, foydani taqsimlash usul va tartiblari, ta'sischilarning huquq va burchlari, ta'sischilar to'g'risidagi ma'lumotlar va boshqa masalalarni hal qilish tartiblarini belgilaydi.

Ta'sischilar korxonani ustavini ishlab chiqadi. Korxonaning ustavi rasmiy xujjat hisoblanadi. Chunki ustavda korxonani bilan davlat o'rtasidagi ijtimoiy, iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy munosabatlarni tartibga solish qoidalari o'z aksini topadi. Ustav qonunlar, qoidalar va nizomlarga asoslangan holda tuziladi. Ustavni korxonani ta'sis etuvchilar tasdiklaydi.

Ustavning korxonani ta'sis etish shartnomasidan farqi, birinchidan unda davlat bilan korxonani munosabatlarining tartibi belgilansa, ikkinchidan, korxonani ta'sis etuvchilarning munosabatlari aks etadi. "O'zbekiston Respublikasidagi korxonalar to'g'risida"gi qonunning 9-moddasida korxonani ustavida uning nomi, joylashgan manzili, faoliyat turi va maqsadlari, uning boshqaruv va nazorat organi, ularning vakolati, korxonani mol-mulkini tashkil etish va foydani taqsimlash tartibi, korxonani qaytadan tashkil etish va uning faoliyatini to'xtatish shartlari belgilanishi ko'rsatilgan. Ustavga korxonani faoliyatining xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan respublikadagi qonunlar va boshqa qonun hujjatlarga zid bo'lmagan o'zga qoidalar ham kiritilishi mumkin.

Korxonani o'zi joylashgan erdagi mahalliy hokimiyat va boshqaruv

idoralari tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkaziladi. Korxonalar davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar o'n kun muddat ichida yagona davlat reestriga kiritish uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga yuboriladi.

Korxonalar davlat ro'yxatidan o'tish uchun mahalliy hokimiyat va boshqaruv idorasiga yuqorida keltirilgan korxonani barpo etish to'g'risidagi hujjatlarni (ariza, ta'sis etish shartnomasi, ustavi, biznes rejasi va boshqalarni) taqdim etadi. Mahalliy hokimiyat va boshqaruv idorasi ariza topshirilgan paytdan 30 kun muddat ichida korxonani ro'yxatdan o'tganligi yoki o'tmaganligi to'g'risida qaror qabul qilishi shart.

Korxonalar davlat ro'yxatidan o'tgan kundan boshlab, barpo etilgan deb hisoblanadi va huquqiy shaxs maqomini oladi. Ushbu kundan boshlab, korxonalar xo'jalik faoliyatini yuritishni boshlashi mumkin bo'ladi.

Korxonalar amaldagi qonunlar tartibiga binoan, o'z tarkibida huquqiy shaxs maqomiga ega bo'lgan Shu'ba korxonalar, filiallar, vakolatxonalar, bo'limlarni mahalliy hokimiyat va boshqaruv idoralari bilan kelishilgan holda tashkil qilish va ularni nizomlarini tasdiqlash huquqiga ega.

Korxonalar mulki

Mulk so'zi biron bir jismoniy yoki huquqiy shaxs maqomidagi tashkilotga tegishli ne'matlar (narsalar va moddiy boyliklar) majmuasini bildiradi.

Mulkdor narsalar va moddiy borliqlarga egalik qilish va tasarruf etish huquqlariga ega bo'lgan jismoniy va huquqiy shaxs hisoblanadi.

Mulkchilik mulkdorlar o'rtasida, ular bilan davlat o'rtasida ishlab chiqarish vositalari va mehnat mahsulini o'zlashtirish yuzasidan paydo bo'lgan va tarixan aniq bir shaklda namoyon bo'luvchi iqtisodiy munosabatlarni anglatadi.

Mulkchilik munosabatlari davlat tomonidan kafolatlanadi va qonunchilik asosida himoya qilinadi. Har qanday davlatda mulkchilik to'g'risida huquqiy qonunlar qabul qilinadi va unda mulkka egalik munosabati ifodalanadi. Natijada mulkchilik munosabatlari huquqiy munosabatlar shaklida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida (31 oktyabr 1990 y) O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilingan. Ushbu qonun mulkchilik munosabatlarini tartibga soladi.

Mulk o'z ob'ekti va sub'ektiga egadir. Yuqorida keltirilgan mulkchilik qonuniga binoan, mulk **ob'ektlariga quyidagilar kiradi:**

- respublika hududidagi er, er osti boyliklari, ichki suvlar, havolar havzasi, o'simlik va hayvonot dunyosi;

- imoratlar va inshootlar, asbob-uskunalar;
- moddiy, ma'naviy va madaniyat buyumlari;
- pul va qimmatli qog'ozlar;
- ixtirolar, kashfiyotlar, ilmiy g'oyalarlar, texnik ishlanmalar, axborot;
- fan, adabiyot, san'at asarlari;
- tarix va madaniyat yodgorliklari;
- insonning unumli va ijodiy mehnat qilish qobiliyati (ish kuchi);
- mol-mulkdan xo'jalikda foydalanish natijalari (mahsulot va daromadlar).

Mulk **sub'ektiga davlat**, respublika fuqarolari, jamoalar, ularning uyushmalari, jamoat va diniy tashkilotlar, fuqarolarning oilaviy va boshqa birlashmalari, chet davlatlar, ularning fuqarolari, huquqiy shaxslari, xalqaro tashkilotlar kabilar kiradi.

Jamiyatda ishlab chiqarish vositalariga ega bo'lgan mulkchilik asosiy o'rinni egallaydi. Bozor iqqisodiyoti sharoitida mulkchilik munosabatlari insonlar o'rtasida ishlab chiqarish vositalari va buyumlarga egalik qilish huquqini shaxsan va mazmunan kengaytirishga olib keladi. Mulk shakllari ko'payadi.

Jamiyat mulkining asosiy qismi korxonalar mulki tashkil qiladi.

Korxonalar mulkini asosiy fondlar va aylar mablag'lar, Shuningdek, korxonaning mustaqil balansida qiymati ifodalangan boshqa boyliklar tashkil etadi.

Korxonalar mulkining manbalariga quyidagilar kiradi:

Korxonalar mulkini shakllantirish va undan foydalanish Nizom va Ta'ris shartnomasining muhim qismi hisoblanadi. "Korxonalar to'g'risida" gi qonunga asosan quyidagilar korxonalar mulkini shakllantirishning manbalari hisoblanadi:

- muassislarning pul va moddiy ko'rinishdagi badallari;
- mahsulot (ish, xizmat) sotishdan va boshqa turdagi faoliyatdan olingan daromadlar;
- qimmatbaho qog'ozlardan olingan daromadlar;
- banklar va boshqa kreditorlardan olingan kreditlar;
- byudjetdan olinuvchi mablag'lar (dotatsiya), kapital qo'yilmalar;
- korxonalar, tashkilot va fuqarolarning beg'araz va xayriya badallari, Shuningdek, almashish, meros va sovg'a tariqasida olinuvchi mulk;
- O'zbekiston Respublikasida qonun bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Davlat korxonalarining mulkiy huquqlarini kafolatlaydi. Davlatning korxonalar mulkini (asosiy fondlar, aylar mablag'lar va hokazo) tortib

olishiga yo'l qo'yilmaydi, qonunchilikda ko'zda tutilgan hollar bundan mustasno.

Korxonaga haq evaziga er va boshqa tabiiat resurslariga egalik qilish va foydalanish huquqiga ham egadir.

Korxonaning mulkdori (mulkdorlari) o'ziga qarashli mulkka egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi, unga nisbatan qonunga zid bo'lmagan boshqa munosabatlarni amalga oshirishi mumkin.

Korxonaga faoliyatini to'xtatish uni tugatish yoki qayta tashkil qilish shaklida amalga oshirilishi mumkin. Ishlab chiqarishning barqaror emasligi, moliyaviy qiyinchiliklar, surunkali zarar ko'rish va to'lov qobiliyatining yo'qolishini korxonalarni tugatish yoki qayta tashkil qilishga asosiy sabab qilib ko'rsatish mumkin.

Korxonani **qayta tashkil qilish** – bu, uning birlashib ketishi, qo'shilishi, bo'linishi, ajralib chiqish va shaklini o'zgartirishi degani. Korxonani qayta tashkil qilish ta'sischi (ta'sischilar) yoki korxonaga boshqaruvi qaroriga muvofiq amalga oshiriladi. qayta tashkil qilish korxonaning ishlab chiqarish ko'rsatkichlari, moliyaviy va iqtisodiy ko'rsatkichlari avvalgiga nisbatan yaxshilanishiga xizmat qilishi lozim.

Korxonani **tugatish** huquqiy xatti-harakat bo'lib, ishlab chiqarish va xo'jalik yuritish faoliyatining to'xtatilishini anglatadi. Korxonaga tugatilganda u davlat ro'yxatidan chiqariladi, uning bankdagi hisob raqami yopiladi hamda muhr, shtamp va boshqa rekvizitlari haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Korxonani tugatishga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin:

*12 ishlab chiqarilayotgan mahsulot(ish, xizmat)ga bo'lgan talabning pasayib ketishi yoki umuman yo'qolishi;

*13 ishlab chiqarishning zarar keltirishi;

*14 ishlab chiqarishning atrof-muhit hamda aholi hayotiga xavf tug'dirishi;

*15 korxonaning bino va inshootlari, asbob-uskunalari va boshqa vositalaridan iqtisodiy jihatdan unumliroq, yanada sifatli va iste'molchilar talabiga javob beruvchi mahsulotlar ishlab chiqarishda foydalanish imkoniyatining yuzaga kelishi.

Korxonani tugatishda tugatish komissiyasi tuzilib, unga kreditorlarga korxonaga tugatilganini xabar qilish, kreditorlarni aniqlash va debitorlik qarzini undirish choralarini ko'rish, Shuningdek, korxonaning tugatilishi sababli ishsiz qolgan xodimlar ish bilan ta'minlanishiga yordamlashish vazifasi yuklanadi. Korxonani tugatish jarayonida oraliq tugatish balansi tuzilib, unga tugatilayotgan korxonaning mulki, kreditorlarning talablari

va ularni ko'rib chiqish natijalari ro'yxati kiritilishi lozim. Ushbu balans korxonaning ta'sischisi (ta'sischilari) yoki korxonani tugatish to'g'risida qaror chiqargan idora tomonidan tasdiqlanadi. Tugatish komissiyasi uning aybi bilan keltirilgan zarar uchun javobgar hisoblanadi.

3.2. Korxonalar faoliyatini litsenziyalash tartibi

Korxonalar faoliyatini ayrim turlari davlat tomonidan litsenziyalash (ruxsatnoma) orqali amalga oshiriladi.

Jahon tajribasida litsenziya ixtiro, texnologiya, texnologik bilim, ishlab chiqarish siri, tajribasi, savdo markasi kabilarga beriladi.

Chet ellar amaliyotida litsenziyalar huquqiy xarakteri va miqdoriga qarab har xil turlarda ishlatiladi. Ular maxsus, maxsus bo'lmagan (oddiy), to'la kabilar. Bu litsenziyalar patentli yoki patentsiz bo'ladi.

Jahon bozori amaliyotida litsenziyalar va nou-xau bilan oldi-sotdi savdosi keng tarqalgan. Bunday hollarda litsenziya, ixtiro, texnologiya, texnologik bilim, ishlab chiqarish tajribasi, ishlab chiqarish siri, savdo markasi kabilarni (egasi) sotuvchini (litsenziar) ularni sotib oluvchiga (litsenziat) biron bir davrga ishlatish uchun berilgan ruxsatnoma sifatida tushuniladi. Litsenziyalarni sotish patentli va patentsiz bo'lishi mumkin.

Patentli litsenziya - litsenziyani ishlatish huquqini nou-xausiz berishni ("sof patent") bildiradi,

Patentli litsenziya olish uni ishlab chiqarishga joriy qilishga qo'shimcha xarajatlar talab qiladi. Bu esa tijorat xavfini kuchaytiradi va iqtisodiy samarani kamaytirishi, texnologik nuqtai nazarida amalga oshirishda qiyinchiliklar tug'dirish ehtimoli ko'proq. Shu sababli amaliyotda patentsiz (litsenziya nou-xausi bilan) litsenziyani sotib olishga ko'proq intilinadi.

Litsenziyalar o'z xarakteri va ishlatish xuquqining hajmiga qarab quyidagi turlarga ajratiladi:

Oddiy - bunday litsenziyalar litsenziyalarga (litsenziya egasiga) ushbu hududida bitta litsenziyani bir necha sotib oluvchilarga sotilish huquqini beradi;

Maxsus - sotib oluvchiga litsenziyani ishlatishni monopoli huquqini beradi.

To'la - litsenziatga litsenziyani muddatiga (patent yoki nou-xouni) ishlatishga maxsus xuquq beradi. Litsenziyalar bilan savdo litsenziya kelishuvlar (shartnomalar) asosida amalga oshiriladi. Kelishuvlar (shartnomalar)da faoliyat litsenziyalangan turi; Litsenziyani ishlatish

xarakteri va huquqi; ishlab chiqarish sohasi, doirasi, hududiy chegarasi; litsenziyani ishlatish muddati va boshqa majburiyatlar o'z aksini topadi.

Litsenziya - iqtisodiyotning ayrim sohalari yoki tarmoqlarida jiddiy davlatShumul ahamiyatga ega bo'lgan sohalari, tarmoqlar, korxonalariga ayrim mahsulotlarni yaratish, ishlab chiqarish sotish, tashish, saqlash va ta'mirlash kabi ishlarni amalga oshirish uchun ruxsatnoma berish to'g'risidagi hujjat.

Litsenziyalash yuqorida keltirilgan jarayonlarni amalga oshirishga ruxsatnoma berish uchun bajariladigan faoliyat.

O'zbekiston Respublikasida litsenziyalash jarayoni O'zbekiston Respublikasining "Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida"gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 28 iyun 2002 yilgi 236-sonli faoliyatni ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risidagi qarori amalga oshirish chora-tadbirlari haqidagi qarori va hukumatning boshqa qonun hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

Prezidentimiz I.A. Karimov o'z ma'ruzasida "Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi "O'zstandart" agentligi va Savdo-sanoat palatasi bilan birgalikda uch oy muddatda kichik biznes korxonalariga tashqi bozorlarda o'z mahsulotlarini sotishga ko'maklashadigan, marketing o'tkazish, sertifikat va ruxsatnomalar olishni ta'minlaydigan mexanizmni yaratish uchun barcha zarur ishlarni amalga oshirishi darkor." deb ta'kidlagan edilar.²⁵

O'zbekiston Respublikasining "Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida litsenziyaga quyidagicha ta'rif berilgan.

Litsenziya - litsenziyalovchi organ tomonidan yuridik yoki jismoniy shaxsga berilgan, litsenziya talablari va shartlariga so'zsiz rioya etilgany holda faoliyatning litsenziyalanayotgan turini amalga oshirish uchun ruxsatnoma (hukuk).

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi faoliyatning litsenziyalanishi majbur bo'lgan sohalari va turlarini, litsenziyalovchi organlarni aniqlaydi va belgilaydi.

Litsenziyalar namunaviy (oddiy) va yakka tartibdagi turlarga bo'linadi.

²⁵ И. Каримов. "Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз таракқиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади" – 2010 йилнинг асосий яқунлари ва 2011 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

Namunaviy (oddiy) litsenziyalar turiga cheklanmagan doiradagi huquqiy va jismoniy shaxslarga beriladigan litsenziyalar kiradi.

Yakka tartibdagi litsenziyalar jumlasiga huquqiy va jismoniy shaxslarga alohida talablar va shartlar asosida beriladigan, litsenziya egalariga faoliyatning mazkur turini amalga oshirishda mutloq huquqlar beruvchi, miqdoriy cheklangan litsenziyalar kiradi. Ularning miqdoriy cheklanish me'yori, amal qilish hududi, faoliyat ob'ekti yoki hukumat tomonidan belgilanadigan boshqa asoslarga ko'ra belgilanadi.

Yakka tartibdagi litsenziyalarni berish asosan tanlov (tender) asosida amalga oshiriladi;

Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 28 iyundagi 236-son qaroriga binoan litsenziyalanishi shart bo'lgan mahsulotlar, faoliyatlar turlari va faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalovchi organlar tasdiqlagan.

Qurol-yarog', o'q-dorilar, harbiy-texnika, ularning ehtiyot qismlari, portlovchi va zaharli moddalar, shifrovchi texnikani yaratish, ishlab chiqarish, ta'mirlash va realizatsiya qilish; ko'priklar va tunellar, mudofaa ob'ektlarini loyihalashtirish, qurish, ulardan foydalanshi va ularni ta'mirlash; noshirlik, nodavlat ta'lim muassasalari, diniy ta'lim muassasalari, turizm faoliyatlari; etil spirti hamda boshqa alkogolli mahsulotlarni ishlab chiqarish va hokozalar litsenziyalanishi shart.

Litsenziyalovchi organlarga Ichki ishlar vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Moliya vazirligi, Davlat mulk ko'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi, Markaziy bank, Aloqa va axborotlashtirish agentligi, Elektr energetikada nazorat bo'yicha davlat agentligi va boshqalar kiradi.

3.3. Korxonaning moliyaviy barqarorligi mezonlari va ko'rsatkichlari

Korxonaning yashash faoliyati bir qancha tsikllardan iborat bo'lib, u quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: korxonani tashkil qilish; reorganizatsiya; restrukturizatsiya; sanatsiya; bankrotlik va tugatish. Bu bosqichlar hamma korxonalariga tegishli degan xulosa chiqarish kerak emas. Chunki bular korxonaning faoliyati natijasiga qarab amalga oshiriladi. Bu jarayonlarni vujudga kelishi aksariyat holda korxonaning moliyaviy barqarorligiga bog'liq. Shu sababli korxonani moliyaviy barqarorligini ta'minlash ahamiyatini yoritish uchun yuqorida keltirilgan korxonaning yashash tsikllarini mazmuniga qisqacha to'xtalib o'tmoqchimiz.

Birinchi bosqich - korxonani tashkil qilish va faoliyatini tiklash.

Korxonani tashkil etish qoidalari ushbu bobning birinchi paragrafida keltirilgan. Ushbu qoidada korxonani, tashkil etilishining asosi bo'lib, uni ta'sis etuvchilarning mol-mulki yotadi. Mulksiz korxonani tashkil etilmaydi. Mulkdan foydalanish, uni oshirib borish, saqlash korxonani moliyaviy barqarorligini ta'minlash asosida amalga oshiriladi.

Ikkinchi bosqich - reorganizatsiya. Korxonani faoliyatini takomillashtirish, moliyaviy barqarorligini oshirish, bozorda tutgan o'rnini ("Nisha"sini) saqlash yoki kengaytirish maqsadida o'z tarkibida yangi ishlab chiqarish yoki funktsional bo'limlar ochish, ayrimlarini qo'shish, birlashtirish, samarasizlarini tugatish kabi qayta tashkil qilish ishlarini amalga oshirib boradi. Bu masala aksariyat holda korxonaning moliyaviy ahvolidan kelib chiqadi.

Uchinchi bosqich - restrukturizatsiya. Restrukturizatsiyaga reorganizatsiyaning bir shakli sifatida qarash mumkin. Restrukturizatsiya deganda korxonaning tarkibiy bo'limlarini (tsexlari) xuquqiy shaxs maqomisiz, mustaqil balans va hisob raqami bilan alohida ajratilishiga tushuniladi. Bundan asosiy maqsad ishlab chiqarish samarasini oshirish bo'lib, korxonani buyumi (tsexi) tijorat hisob-kitobiga o'tkaziladi. Ularga mulk ajratiladi, foyda va xarajatlari alohida hisob-kitob qilinadi.

Sanatsiya - iqtisodiy nochor korxonalarini bankrotligining oldini olish maqsadida qarzdor korxonani - huquqiy shaxsning muassislari (qatnashchilari), qarzdorning kreditorlari va boshqa shaxslar, Shu jumladan, davlat tomonidan qarzdor korxonaning to'lov qobiliyatini tiklash bo'yicha o'tkaziladigan chora-tadbirlarni tashkil qiladigan faoliyat.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 26 iyuldagi 362-sonli qarori bilan "Iqtisodiy nochor korxonalarini sanatsiyalash to'g'risida" Nizom qabul qilingan. Ushbu Nizomga binoan qarzdor korxonani - xuquqiy shaxsning muassislari (qatnashchilari), korxonani mulkining egasi, davlat organlari va boshqa shaxslar sanatsiyalash sub'ektlari bo'lishi mumkin.

Qarzdor korxonani sanatsiyalash ob'ekti hisoblanadi. Faoliyatni davom ettirish uchun qarzdor korxonaning to'lov qobiliyatini tiklanishining aniq imkoniyatlari asoslansa, bunday iqtisodiy nochor korxonalar sanatsiya qilinadigan ob'ektlar qatoriga qo'shiladi.

O'zbekiston Respublikasida korxonalarini sanatsiyalash jamg'armasi tuzilgan²⁶. Korxonalarini sanatsiyalash uchun mablag'lar qatoriga keltirilgan jamg'armalardan tashqari, korxonalar egalari, kreditorlar,

²⁶ Иқтисодий ноҷор корхоналар ишлари қўмитаси ҳузуридаги «Корхоналарни санақиялаш жамғармаси тўғрисида Низом». ЎзР ВМ 1999 йил, 26 июл, 362-сонли қарори.

birlashmalar (xo'jalik uyushmalari), boshqa huquqiy va jismoniy shaxslarning moliyaviy ajratmalari ham kiradi.

Sanatsiyalash korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun o'tkaziladigan chora-tadbirlardai biri hisoblanadi.

Keyingi bosqich bu korxonani bankrotligi.

Korxonani bankrotligi uning iqtisodiy nochorligining oqibati.

Bankrotlik deganda sud tomonidan e'tirof etilgan yoki qarzdorni ixtiyoriy ravishda o'zini bankrot deb e'lon qilgan qarzdorning moliyaviy majburiyatlarini bajara olmasligi, qisqa qilib aytganda moliyaviy qobiliyatsizlikka tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasida "Bankrotlik to'g'risida" Qonun (28 avgust 1998 yil, yangi tahririda) qabul qilingan. Huquqiy va jismoniy shaxslarning bankrot bo'lishi jarayonida yuzaga keladigan munosabatlar ushbu qonun va boshqa qonun xujjatlari bilan tartibga solinadi.

Korxonani yashashining oxirgi bosqichi uni tugatilishi. Iqtisodiy nochorlik yoki bankrotlik asosida sud qarori bilan yoki mulkdorning o'z ixtiyori bilan korxonani faoliyati to'xtatilishi mumkin.

Korxonani tugatilishi uning faoliyatini to'xtalishi va davlat reestriga qarzdor tugatilganligi to'g'risidagi yozuv kiritilgan paytdan boshlanadi, korxonani esa tugatilgan deb hisoblanadi.

Iqtisodiy nochor korxonalar boshqa sub'ektlar bilan kelishuv bitimi qilishi mumkin. Kelishuv bitimi (murosali kelishuv) – bu qarzdor bilan kreditor o'rtasida qarzlarni to'lash muddatini uzaytirish yoki qarzlardan chegirma qilish to'g'risidagi bitimdir. Kelishuv bitimi yozma ravishda tuziladi va u xo'jalik sudi tomonidan imzolandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 19 noyabrdagi 4010-sonli «Iqtisodiy nochor korxonalarini tijorat banklariga sotish to'g'risidagi tartibni tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoyishi bilan iqtisodiy nochor korxonalarining moliyaviy qobiliyatini tiklash bo'yicha bir qator imtiyozlar (ko'maklar) berilgan.

Yuqorida qayd etilgan me'yoriy hujjat orqali tijorat banklariga ham muayyan imkoniyatlar berilgan. Prezidentimiz I.A.Karimov Vazirlar Mahkamasi majlisidagi

Tijorat banklarini zarar ko'rib ishlayotgan va iqtisodiy nochor korxonalarini sog'lomlashtirish jarayoniga jalb qilish tajribasi amalda o'zini to'la oqladi.

Hali ham eski texnika va texnologiyalar asosida ishlayotgan, hech qanday iqtisodiy istiqboli bo'lmagan korxonalarini tugatish va ularning negizida yangi zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish darkor.

I.Karimov (ma'ruzadan)

ma'ruzasida bu borada quyidagicha to'xtalgan edilar. "To'lanmay qolgan qarzlari tufayli banklarning balansiga o'tkazilgan bankrot korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish borasidagi tijorat banklarining faoliyati yuksak baholashga molikdir.

Jumladan:

- bankrot korxonada negizida ustav jamg'armasi 100 foizgacha bo'lgan yangi korxonalar tashkil etish;

- bankrot korxonaning tugatilishi munosabati bilan unga avval berilgan, qoplanmagan kreditini, shu jumladan Hukumat kafolati bilan berilgan kredit summasini bank kengashining qarori bilan hisobdan chiqarish;

- bankrot korxonalar uchun malakali boshqaruv kompaniyasini tuzish va jalb qilish;

- bankrot korxonalarini tugatish bahosida sotib olib, uning faoliyatini tiklab, qaytadan bozor bahosida sotish va h.k.²⁷

Biz joriy etgan bunday mexanizm bankrot korxonalarida ishlab chiqarish faoliyatini qayta tiklash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash uchun banklar tomonidan qo'shimcha investitsiya kiritish, ana shunday korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish, yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va zamonaviy boshqaruv usullarini tatbiq etish, shuningdek, ish o'rinlarini qayta tiklash va yangi ish o'rinlarini yaratishni ko'zda tutadi .

Shu tariqa faoliyat ko'rsatishga layoqatli, ilgarigiga qaraganda texnologik jihatdan ancha yuqori darajada ishlaydigan, faoliyati qayta tiklangan korxonalar yangi investitsiyalar etiborini tobora ko'proq o'ziga tortmoqda. Investorlar hozirgi paytda bunday korxonalarini banklardan faol sotib olmoqda.

Bugungi kunda tijorat banklari balansiga berilgan 147 ta bankrot korxonalarining 140 tasida ishlab chiqarish qayta tiklangani, ularning 64 tasi yangi investorlarga sotilgani bu fikrning yorqin dalilidir. Qayd etish kerakki, banklar tomonidan bu korxonalarini modernizatsiya qilish va texnologik qayta jihozlash uchun 156 milliard so'm miqdorida investitsiya yo'naltirildi, 21 mingdan ko'proq ish o'rnini tashkil qilindi.

²⁷ Ходиев Б.Ю., Бекмуродов А.Ш., Ғофуров У., Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг «Мамлакатимизни модернизация қилиш ва кучли фуқаролик жамияти барпо этиш – устувор мақсадимиздир» ҳамда «Асосий вазифамиз – Ватанамиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир» номли маърузаларини ўрганиш бўйича Ўқув-услугий мажмуа – Тошкент: Иқтисодиёт. - 2010. 331.6

Bu boradagi ishlarimizning ahamiyatini tasavvur etish uchun ana Shu qayta tiklangan korxonalarda ishlab chiqarish hajmi 460 milliard so'mni tashkil etib, umumiy qiymati 165 million dollardan ortiq bo'lgan turli mahsulotlar eksport qilinganini aytish kifoya, deb o'ylayman.

Bunday yondashuv kelgusida ham banklarning balansiga o'tkazilgan bankrot korxonalarini qayta tiklash ishlarida eng muhim yo'nalish bo'lib qolishi zarur".²⁸

Korxonaning yashash tsikllaridan kelib chiqsak, u o'z faoliyatini olib borish davrida moliyaviy barqarorligiga qanday e'tibor bilan qarashi lozimligi iborasiz ko'zga tashlanadi, Chunki iqtisodiy nochorlik bankrotlikka, bankrotlik korxonani tugatilishiga olib kelishga muqarrar.

Korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash ko'p qirrali muammo bo'lib, ko'p omillar unga ta'sir qiladi. Shu sababli uning yo'nalishlari ham har xil. Ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- davlat va hokimiyatlar tomonidan berilgan imkoniyatlardan qonunlar va qonun hujjatlari talablari doirasida samarali foydalanish;

- iste'molchilar talab va ehtiyojlarini marketing tadqiqotlari orqali chuqur o'rganish;

- konkurentlarning ko'rsatkichlari va imkoniyatlarini muntazam tahlil qilib borish;

- korxonaning ichki muhitini, faoliyat shart-sharoitlarini bozor ehtiyojlariga moslashtirib borish;

- o'z mahsulotlarini, xizmatlarini raqobatbardoshligini ta'minlash, sifatini yaxshilash;

- korxonaning iqtisodiy parametrlarini, shu jumladan moliyaviy parametrlarini doimiy tahlil qilish, shu asosida ularni yaxshilash bo'yicha konkret chora-tadbirlarni amalga oshirib borish;

- xatarlarni oldini olish, korxonani iqtisodiy, moliyaviy xavfsizligini ta'minlash kabilar.

Bugungi kunda amaliyotda O'zbekiston Respublikasi Davlat Mulk qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan korxonalarining iqtisodiy nochorlik

²⁸ И. Каримов. "Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади" – 2010 йилнинг асосий яқунлари ва 2011 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

belgilarini aniqlash uchun mezonlar tizimi ham qo'llaniladi. Ularning qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- *16 to'lov qobiliyati koeffitsienti (K_{pl});
- *17 xususiy va qarzga olingan mablag'lar nisbati koeffitsienti (K_{ss});
- *18 moliyaviy mustaqillik koeffitsienti (K_{fn});
- *19 xususiy aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik koeffitsienti (K_{os});

Bu ko'rsatkichlar bir qarashda mahsulot ishlab chiqarish sohasiga, demak, ishlab chiqarish samaradorligiga aloqasi yo'qday tuyuladi. Aslida esa aynan ular orqali korxonaning samarali faoliyatini anglatuvchi iqtisodiy va moliyaviy barqarorlik aks ettiriladi. Bundan tashqari, mahsulotning material sig'imi, fond qaytimi, mehnat unumdorligi va rentabellik ko'rsatkichlari, ishlab chiqarishni rejalashtirish va tahlil qilishda qo'llansa, mezonlar tizimi yordamida esa korxonalar o'zlarining faoliyat yuritish qobiliyatini ko'rsatadi hamda turli xil muammoli vaziyatlarda xo'jalik sudlarida o'z manfaatlarini himoya qiladi.

To'lov qobiliyati koeffitsienti (K_{pl}) korxonaning debitorlar bilan o'z vaqtida hisob-kitob qilish hamda tayyor mahsulot va boshqa moddiy vositalarini sotishning qulay sharoitlarda sotish orqali baholanadigan to'liq imkoniyatlarini ko'rsatadi. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$K_{pl} = \frac{A_2 - \Pi_{dz}}{\Pi_2 - D_{zk}}$$

Bu erda:

A_2 – aylanma aktivlar (ishlab chiqarish zahiralari, tayyor mahsulot, pul mablag'lari, debitorlik qarzlari va hokazolar);

Π_2 – majburiyatlar (qisqa muddatli qarzlar, qisqa muddatli kreditlar, byudjet oldidagi qarzlar, kreditorlik qarzlari va hokazo);

Π_{dz} – muddati o'tib ketgan debitorlik qarzlari;

D_{zk} – uzoq muddatli qarz va kreditlar.

Xususiy va qarzga olingan mablag'lar nisbati koeffitsienti (K_{ss}) ularning shakllanish manbalarini inobatga olgan holda, pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasini aniqlaydi. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$K_{ss} = \frac{\Pi_1}{\Pi_2 - D_{zk}}$$

Bu erda:

Π_1 – xususiy mablag'lar manbalari (Nizom jamg'armasi, qo'shilgan kapital, taqsimlanmagan foyda va hokazo).

Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti (K_{fn}) korxonada moliyaviy mustaqilligining kamayishi (ko'payishi), kelajakda moliyaviy qiyinchiliklarga uchrash xavfining kuchayishi (pasayishi) haqida ma'lumot beradi hamda korxonada o'z majburiyatlari oldida javob berishining kafolatlarini belgilab beradi. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$K_{\phi H} = \frac{\Pi_1}{IB}$$

Bu erda:

IB - korxonada balansida aktivi yoki passivining Yakuni.

Xususiy aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik koeffitsienti (K_{os}) korxonaning barqaror ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini yuritish uchun zarur bo'lgan aylanma vositalar mavjudligini tavsiflaydi. Shuningdek u, korxonada egalari va kreditorlar manfaatlaridagi munosabatlarni ham aks ettiradi. Mazkur koeffitsient quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$K_{oc} = \frac{\Pi_1 - A_1}{A_2}$$

Bu erda:

A_1 – uzoq muddatli aktivlar (asosiy vositalar, kapital qo'yilmalar, nomoddiy aktivlar va hokazo).

Ko'rsatkichlar tizimini tayyorlagan mualliflar tomonidan korxonaning to'lovga qobiliyatligi yoki nochorligini aniqlovchi parametrlar belgilab berilgan. Masalan, to'lov qobiliyati koeffitsienti hamda xususiy va qarzga olingan mablag'lar nisbati koeffitsienti 2 dan kichik bo'lsa ($K_{pl} < 2$; $K_{ss} < 2$), moliyaviy mustaqillik koeffitsienti 0,5 dan kichik bo'lsa ($K_{fn} < 0,5$), xususiy aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik koeffitsienti 0,1 dan kichik bo'lsa ($K_{os} < 0,1$) korxonalar nochor deb topiladi. Korxonada nochorligi, demak, xo'jalik faoliyatining samarasizligi to'g'risidagi yakuniy qaror, nochorlik parametrlarining umumiy summasi 4,6 dan kichik bo'lgan holda qabul qilinadi.

Korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash korxonaning iqtisodiy, Shu jumladan moliyaviy parametrlarini (ko'rsatkichlarini) aniqlash, ularni tahlil qilish alohida ahamiyatga ega. Buning uchun bir qator ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish zarur.

3.4. Korxonaning tashqi iqtisodiy shartnomalari va turlari

Jahon iqtisodiyotida integratsion rivojlanish jarayoni ishlab chiqarishni internatsionalizatsiyalashtirish (baynalminan-lapgshirish) bilan tig'iz bog'liqdir. Ishlab chiqarishni internatsionalizatsiyalashuvi xalqaro ijtimoiy mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, ishlab chiqarishni dunyo miqyosida ijtimoiylashuvining natijasidir.

Ishlab chiqarishni ijtimoiylashuvi avvalom bor bir davlat ichida rivojlanib, mehnat taqsimotining chuqurlashuvi natijasida bir davlat chegarasidan chiqib xalqaro ahamiyat egallaydi. U ishlab chiqarish jarayoni bir davlat chegarasidan chiqib, qo'shimcha holda tashkil qilinishiga, bir biriga bog'liq ishlab chiqarish jarayonlarini davlatlararo bog'lanib ketishiga olib keladi. Bu jarayon ishlab chiqarishni internatsionallashuvi degan tushunchani bildiradi.

Ushbu jarayonlar mexanizmiga har xil huquqiy qoidalar, dastaklar kiradi va ular xalqaro tashkilotlar faoliyatida ishlatiladi. Davlatlar iqtisodiy integratsiyalanish asosida 50- yillardan boshlab sifat jihatidan yangi funktsiyalar bajaradigan organlar tuza boshlagan. Natijada bir qancha integratsion guruhlar vujudga kelib ular tashqi savdo, tashqi iqtisodiy siyosat bilan bog'liq vazifalarni amalga oshira boshlagan.

Ular qatoriga xalqaro shartnomalar, kelishuvlar, kodekslar, xartiyalar va bitimlarni kiritish mumkin. Xalqaro iqtisodiy integratsiya har xil bosqichlardan o'tadi, ya'ni, erkin savdo hududi; bojxona ittifoqi; umumiy bozor; iqtisodiy ittifoq va siyosiy ittifoq kabilar. Bularning hammasini umumiyliги davlatlararo munosabatlar, aloqalarda iqtisodiy barʼerlar olib tashlanadi (chetlatiladi), yagona bozor hududini yaratishga imkoniyat tug'diriladi, har bir qatnashuvchi davlat undan samara oladi, ishlab chiqarishni rivojlantiradi, mehnat unumdorligini oshiradi va hokazolar.

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlardan biri "Savdo va tariflar to'g'risida bosh kelishuv" deb ataluvchi (GATT) 1947 yili 23 ta davlatlar kelishuvi asosida tuzilgan.

GATT – ko'p qirrali xalqaro kelishuv bo'lib, qatnashuvchi davlatlararo savdoni tartibga solish, qoidalari va huquqiy normalarini o'z ichiga oladi. GATT dunyoda eng katta xalqaro iqtisodiy tashkilot bo'lib hisoblanadi. 1996 yilda unga 130 ta davlat a'zo bo'lgan, jahon savdosi hajmini 94% tashkil etgan.

1996 yilning yanvaridan GATT nomini o'zgartirib butundunyo savdo tashkiloti (VTO) deb yuritila boshladi. A'zolar soni kamaydi va uni ta'sis etuvchi a'zo davlatlar soni 81 ta davlat hisoblanadi,

Butundunyo savdo tashkiloti (VTO) GATT qoidalaridan tashqari o'z tarkibida "Xizmatlar bilan savdo to'g'risida kelishuv" (GATS) va "Intellektual mulk bilan savdo qilish aspektlari to'g'risida kelishuv" (TRIPS) tashkilotlari mavjud.

VTO - dan tashqari dunyoda zonalar bo'yicha tuzilgan xalqaro mintaqaviy savdo bloklari mavjud. Ularni eng yirik bloklarini quyida keltirib o'tamiz.

Evropa ittifoqi (ES) uni ta'sischi davlatlariga quyidagilar kiradi: Avstriya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Italiya, Irlandiya, Frantsiya, Ispaniya, Portugaliya, Finlandiya, Shvetsiya, Daniya, Belgiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Gretsiya ES 1951 yilda tashkil qilina boshlagan, oldin Evropa ko'mir va po'lat birlashmasi sifatida, 1957 yilda Evropa iqtisodiy sherikligi va Evropa atom energiyasi bo'yicha sheriklik sifatida. Evropa ittifoqi 1993 yili 1 noyabrda Maastrixt kelishuvi deb nomlana boshlagan. Jahonda Evropa ittifoqi "Umumiy bozor" deb nom tarqatgan.

Evropa ittifoqining boshqaruv organi bo'lib, Evropa kengashi hisoblanadi va uning tarkibida Evropa davlat rahbarlari kengashi va Vazirlar Kengashi, Evropa komissiyasi, Evropa parlamenti va Evropa kengashi sudi, Evropa auditorlar palatasi mavjud.

Evropa ipifoqi bilan bir qatorda hajmi jihatdan ikkinchi o'rinda integratsiya guruhi - Evropada erkin savdo assotsiatsiyasi (EAST) faoliyat ko'rsatadi. Bu tashkilotni tuzish to'g'risidagi Konventsiya Stokgolmda 10 ta davlat tomonidan 1959 yili imzolangan. Ushbu davlatlarga quyidagilar kiradi: Buyuk Britaniya, Portugaliya, Daniya, Shvetsiya, Finlandiya, Avstriya, Lixtenshteyn, SHvetsariya, Islandiya, Norvegaya,

Erkin savdo to'g'risida Shimoliy Amerika Kengashi, (NAFTA) - ta'sis etuvchilar AQSH, Kanada va Meksika 1988 yilda AQSH va Kanada kelishuvi bilan tuzilgan, 1992 yili Meksika qo'shilgan.

Osiyo va Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi (ATES). 1989 yili Avstraliya tashabbusi bilan tuzilgan. Bunga kiruvchilar: Avstraliya, Bruney, Malayziya, Singapur, Gollandiya, Yangi Zelandiya, Papua-Yangi Gviniya, Indoneziya, Filippin, Tayvan, Gonkong, Yaponiya, Janubiy Koreya, Kitay, Kanada, AQSH, Meksika, Chili.

"Markosur" - Braziliya, Argentina, Paragvay, Urugvay.

"And pakti" - Venesuela, Kolumbiya, Ekvador, Peru, Boliviya.

G'arbiy Afrika iqtisodiy va valyuta ittifoqi (YUEMOA) - Kot-d Ivuar, Burkino-Faso, Nigeriya, Togo, Senegal, Benin, Mali.

Janubiy Afrika rivojlanish komiteti (SADK) - Angola, Botsvana,

Lesoto, Malavi, Mozambek, Mavrikiy, Namibiya, JAR, Svazilend, Tanzaniya, Zimbabve.

Janubiy Osiyo mintaqaviy hamkorlik assotsiatsiyasi (SAARK) -Indiya, Pokiston, Shri-lanka, Bangladesh, Maldiva, Butan, Nepal.

Jahon amaliyotida korxonalariniig tashqi iqtisodiy faoliyatiga doir shartnomalar har xil nom bilan anglatadi: Ular qatoriga kontrakt, bitim, shartnomalar kiradi. Xalqaro qoidalarda ko'pincha "kontrakt" ' atamasi ishlatiladi. Umuman olganda, yuqoridagilar hammasi huquqiy nuqtai nazardan shartnoma hisoblanadi, faqat har xil atamalar bilan nomlangan.

SHartnoma (bitim) - huquqiy shakl bo'lib, unda tomonlarning huquq va majburiyatli, o'zaro aloqalarini tartibga solish me'yorlari aks etadi.

Aksariyat holda, Shu jumladan, tashqi iqtisodiy bitimlar yozma ravishda rasmiylashtirilishi qonunchilikda belgilab qo'yilgan chet ellarda og'zaki shartnomalar ham ishlatiladi. Shartnoma tomonlar imzolagan bitim, xatlar, teletayp, dasturlar, telegrammalar, telefonogrammalar tarzida ham tuzilishi mumkin.

Tomonlar bitimlarni kelish tartibi, tili mazmuni tarkibiy tuzilishi, muddati, kim imzo chekishi kabilarni o'zaro kelishadilar.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida korxonalar nima haqida shartnoma tuzishni tanlashda, majburiyatlarni, o'zaro xo'jalik munosabatlarining qonunlarga zid bo'lmagan boshqa har qanday shartlarni aniqlashda, Shu jumladan tashqi iqtisodiy faoliyatni mustaqil ravishda amalga oshirishi belgilab qo'yilgan. Hozirgi vaqtda turli xalqaro tashkilotlar tomonidan shartnomalarni namunaviy shakllari tavsiya qilingan va ular qo'llanib kelinmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda shartnomalarning quyidagi turlari keng tarqalgan: oldi-sotdi, pudrat, ruxsatnoma, vakillik, yuk tashish, barter (mavoza), kompensatsiya bitimlari, "qarz surishish negizi" bitimlari, kooperatsiya bitimlari, "qarz surishshp negizi"dagi bitimlar kabilar.

Tashqi iqtisodiy aloqalarda oldi-sotdi shartnomalari asosiy o'rin egallaydi. Bu shartnomalarda shartnoma mavzusi, baxr, hisob-kitob shakli (hisob-kitob varag'iga bankdan pul o'tkazish, inkassa, akkreditiv, naqd pul bilan hisob-kitob kabilar), tovar etkazib beruvchining bazis shartlari ko'rsatiladi. Bazis deganda, xalqaro iqtisodiy muomalada tarkib topgan tovar etkazish shart-sharoitlari, tushuniladi. Bularga tovar etkazib beriladigan joy, muddati, tashxis shartlari, nobudgarchilik ro'y bergan holda ularni qoplash masalalari kiradi.

Bu shart-sharoitlar xalqaro savdo palatasi tomonidan ishlab chiqilgan

"Savdo terminlari" degan nom bilai mashhur bo'lib, bu atamalarni talqin qilishning xalqaro qoidalari (Inkoterms) qo'llaniladi. Hozirgi davrda amalda bo'lgan qoidalarning so'nggi tahriri (1990) ishlatilmoqda.

Bu terminlarga misol sifatida FOB va SIF shartlarini keltirish mumkin.

FOB - yuk tushirish portining nomi.

SIF - tovar etkaziladigan port.

FOB va SIF shartlarida sotuvchining va xaridorning burchlari belgilab kuyiladi.

Yurtimizda korxonalar o'rtasida kooperatsiya aloqalari mustahkamlanmoqda, bu jarayonga kichik korxonalar va xususiy biznes subektlari tobora keng jalb qilinmoqda.

2010 yilda o'tkazilgan Xalqaro sanoat Yarmarkasi va Kooperatsion birjada dunyoning 51 mamlakatidan 700 dan ortiq xorijiy firma va kompaniya vakillari qatnashdi, 500 dan ortiq yangi turdagi mahsulot namoyish etildi, qiymati 2 trillion 600 milliard so'mlik shartnomalar imzolandi.

Bu raqam oldingi Yarmarkadagi ko'rsatkichga nisbatan 1,4 marta ko'pdir. Yarmarkada umumiy qiymati 2 milliard 700 million dollarlik eksport bitimlari tuzildi va bu 2009 yil darajasidan 1,2 barobar ortiqdir.²⁹

Qisqacha xulosalar

Korxonalarni tashkil qilish va tugatish bozor munosabatlari sharoitlarida odatiy va qonuniy holdir. Korxonani tashkil qilish ishlab chiqarishni kengaytirish va biron-bir mahsulotga bo'lgan talabning ortishi natijasida yuzaga kelsa, korxonalarni tugatish esa talabning mavjud emasligi hamda bankrotlikka bog'liq bo'ladi.

Korxonalarni tashkil qilgandan so'ng ularni kelajakda samarali faoliyat yuritishini ham ta'minlash zarur. Shu sababli biron-bir korxonani tashkil qilish asoslangan bo'lishi va ilmiy tamoyillarga tayanishi lozim.

Korxonalar tashkil qilinishini tartibga soluvchi asosiy hujjatlar bu korxonalar Nizomi va ta'sis shartnomasi bo'lib, ba'zi hollarda korxonalar ko'rsatilgan hujjatlarning bittasi asosida ham faoliyat yuritishi mumkin.

²⁹ И. Каримов. "Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади" – 2010 йилнинг асосий яқунлари ва 2011 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

Korxonani tashkil qilish jarayoni boshqaruv organlarida ro'yxatga olish bilan bog'liqdir. qonunchilik tomonidan korxonalarni davlat ro'yxatidan o'tkazishning qat'iy belgilangan muddatlari mavjud.

Korxonani tugatish huquqiy xatti-harakat bo'lib, ishlab chiqarish va xo'jalik yuritish faoliyatining to'xtatilishini anglatadi. Bunga asosiy sabab qilib korxonaning to'lov qobiliyatini yo'qotishini ko'rsatish mumkin.

Sanatsiya davlat, bank yoki boshqa muassasa tomonidan bankrot bo'lishning oldini olish va raqobatbardoshlik darajasini oshirish maqsadida korxonalarining moliyaviy ahvolini yaxshilashni anglatadi.

Sanatsiya korxonalarining shartnoma va boshqa majburiyatlarini buzishning oldini olishga qaratilgan iqtisodiy va moliyaviy chora-tadbirlar tizimidir.

Takrorlash uchun savollar

1. Korxonani tashkil (barpo) etilishi deganda qanday jarayon tushuniladi?
2. Korxonani faoliyatini tashkil qilish qanday qoidalarga asoslanadi?
3. Korxonani tashkil (barpo) qilish qanday bosqichlardan iborat bo'ladi?
4. Korxonani barpo etish hujjatlariga qanday rasmiy hujjatlar kiradi?
5. Korxonani faoliyatini tashkil etishni huquqiy, iqtisodiy ijtimoiy asoslari qanday qonun hujjatlarida aks topgan?
6. Yangi korxonalarni tashkil qilishda qanday maqsadlarni nazarda tutiladi?
7. Korxonani Ustavi ta'sis etish shartnomasidan nima bilan farq qiladi?
8. Korxonani huquqiy shaxs maqomiga qanday ega bo'ladi?
9. Korxonani mulki ob'ektiga nimalar kiradi?
10. Kimlar korxonani mulki sub'ekti bo'lib hisoblanadi?
11. Korxonani mulkining manbalari nimalardan iborat?
12. Mulkdor qanday huquqlarga ega?
13. Moliyaviy barqarorlik tushunchasining mazmunini ochib bering.
14. Moliyaviy barqarorlik qanday ko'rsatkichlar asosida tahlil qilinadi?
15. Korxonani yashash faoliyati qanaqa tsikllardan iborat?
16. Sanatsiya nima va qanday vujudga keladi?
17. Bankrotlikni tushuntirib bering?
18. Moliyaviy barqarorlikni qanday ta'minlash mumkin?

19. Xalqaro kelishuvlar (bitimlar) qanday sabablar asosida vujudga keladi?
20. Qanday xalqaro kelishuvlar (bitimlar)ni bilasiz?
21. Xalqaro kelishuvlar (bitimlar) korxonalariga nima beradi?
22. Shartnoma nima? Ularning qanday turlari mavjud?

4-BOB: Korxonalar va uning tarkibiy bulinmalarini boshqarish

4.1. Korxonalar faoliyatida boshqaruv tushunchasi va uning ob'ektiv zaruriyati

4.2. Korxonalarni boshqaruv xususiyatlari va tarkibiy qismi. Boshqaruv sub'ekti va ob'ekti

4.3. Korxonani boshqarishning tamoyillari, shakllari va uslublari

4.4. Korxonani boshqarish apparati. Korxonani boshqarishda rahbarning xususiyatlari, o'rni va roli


Tayanch iboralar: Boshqaruv, mehnat taqsimoti, boshqaruv tizimi, boshqaruv ob'ekti, sub'ekti, boshqaruv faoliyati, bevosita boshqaruv, o'zini-o'zi boshqarish, boshqaruv munosabatlari, boshqaruv tsikli, boshqaruv qarori, tamoyil, tashkiliy tuzilma, chiziqli tuzilma, funktsional tuzilma, matritsali tuzilma, boshqaruv funktsiyalari, optimallik, tezkorlik, ishonchlilik, tejamkorlik, ijtimoiy-psixologik muhit.

4.1. Korxonalar faoliyatida boshqaruv tushunchasi va uning ob'ektiv zaruriyati

Boshqaruv jamiyat munosabatlarining muhim ko'rsatkichi sifatida jamiyat hayotining barcha jabhalariga tegishlidir. U insonning jamiyatdagi mohiyati, mehnati taqsimoti, kooperatsiya va muomala zarurati, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlardan kelib chiqadi. Boshqaruvsiz tabiatni o'zgartirish, mehnat qurollari va predmetlarini yagona ishlab chiqarish jarayonida birlashtirishga yo'naltirilgan faoliyat yuritishning iloji yo'q. "Mustaqil rivojlanish yillarida – tarixan qisqa bir davrda yurtimiz yangi va ulkan marralarni qo'lga kiritdi, buning natijasida mamlakatimizning qiyofasi butunlay o'zgarib, jahon hamjamiyatidagi o'rni va nufuzi yuksalib bormoqda."³⁰ Boshqacha qilib aytganda, boshqaruv ishlab chiqarishning barcha qatnashchilari va elementlari o'rtasida kelishuvni yo'lga qo'yib, yuzaga kelgan munosabatlarning mazmuni va me'yorini tartibga soladi hamda resurslardan foydalanishning samarali yo'llarini topishga o'z hissasini qo'shadi.

³⁰ И. А. Каримов. "Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси" // Халқ сўзи газетаси, 12.11.2010.

Boshqaruv - ijtimoiy mehnat jarayoniga ishlab chiqarish rivojlanishining ob'ektiv qonunlari asosida yo'naltirilgan tarzda ta'sir o'tkazish tizimi, har bir ishchining va butun jamoaning mehnatini bir vaqtning o'zida nazorat qilish, motivatsiya va tartibga solish usulidir. Moddiy boyliklar va ne'matlar hamda ularga tenglashtirilgan qadriyatlarlarni taqsimlash, iste'mol qilish va ayirboshlash ham boshqaruvni talab qiladi.



1-chizma: Korxonani boshqarish xususiyatlari

Hozirgi paytda, iqtisodiy va ilmiy-texnik o'zgarishlar davrida boshqaruv usullari, tamoyillari va texnikasida sezilarli o'zgarishlar ro'y

bermoqda. Boshqaruv alohida tizim sifatida tobora ko'proq tajriba almashish sohasi, reklama, ishlab chiqarish vazifalarini tezkor hal qilish vositasi bo'lib bormoqda. Bunga esa boshqaruvni professionallashtirish, biznes va tadbirkorlik maktablari hamda maslahat markazlarining ochilishi sabab bo'lmoqda. Ma'muriy-buyruqbozlik tizimi borgan sari xo'jalik yuritishning iqtisodiy usullariga asoslangan boshqaruv tizimiga o'rnini bo'shatib bermoqda.

Boshqaruvga yondashishdagi zamonaviy usullarning muhim ahamiyati inson omilini faollashtirish, o'z-o'zini boshqarish va tashabbuskorlikni rivojlantirish, bozor iqtisodiyoti talablariga javob beruvchi yangi tashkiliy tuzilmalarni yaratishda namoyon bo'ladi. Ma'lumki, o'z korxonasi yoki tsexida, o'z ish yoki xizmat joyining "xo'jayini" bo'lmay turib iqtisodiyotning har tomonlama rivojlanishini talab qilib bo'lmaydi. Insoniyat hayotida Shu narsa isbotlab berilganki, moddiy to'kin-sochinlik o'zidan-o'zi paydo bo'lmaydi, uni mehnat faoliyati va oqilona boshqaruv yordamida yuzaga keltirish mumkin. Bu holatni aniq tushunish va unga to'g'ri baho berish zamonaviy menedjmentni boshqaruv to'g'risidagi fan sifatida qabul qilishni asoslab beradi.


Mehnat taqsimoti va uning ijtimoiy tavsifini kuchaytirishda boshqaruvni, mustaqil faoliyat shaklida alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Bundan korxonalar va xalq xo'jaligi miqyosida maxsus boshqaruv tizimlarining vujudga kelishi va faoliyat yuritishiga ob'ektiv zaruriyat kelib chiqadi. Bunday tizim o'zining gorizontaal va vertikal aloqalari bilan birga fan-texnika taraqqiyoti va ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, Shuningdek, siyosiy kayfiyatlar va ishlab chiqarish munosabatlaridagi o'zgarishlar ta'siri ostida doimiy harakatda va yangilanishda bo'ladi. Shu sababli, boshqaruvni baholash va tahlil qilish jarayonida, biz xalq xo'jaligi rivojlanishining har bir tarixiy bosqichida shakllanuvchi boshqaruv tizimini o'rganamiz.

Boshqaruv tizimi deganda nimani tushunish lozim? Agar jamiyatning butun iqtisodiy tizimini oladigan bo'lsak, uning tarkibiga kiruvchi ko'plab kichik tizimlarni - tarmoqlar, korxonalar, birlashmalar va hokazolarni ko'rishimiz mumkin. Ularning har birini ikki jihatidan: mustaqil faoliyat yuritish nuqtai nazaridan yoki butun birlikning tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqish mumkin. Masalan, korxonalar (firma) mustaqil boshqaruv tizimi yoki tarmoqning (ishlab chiqarishning) bo'linmasi, bo'g'ini sifatida faoliyat yuritishi mumkin. Bunga bog'liq bo'lgan holda boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi, uning vazifalari va funktsiyalari shakllantiriladi




2-chizma: Boshqaruvning tashkiliy tizimi

Amaliyotda Shu narsa isbot qilinganki, boshqaruvning juda ham yirik tashkiliy strukturasi bozor iqtisodiyotida maqsadga muvofiq bo'lmaydi. U kutilgan natijalarni bermaslikdan tashqari, boshqaruv qarorlarini bajarishda muammolarning yuzaga kelishiga, boshqaruvning yakuniy maqsadini oraliq vazifalar bilan almashib ketish xavfi kuchayishiga olib keladi.



3-chizma. Korxonada boshqaruv tizimi bosqichlari.



4-chizma. Korxonani boshqarish xususiyatlari.

Boshqaruv faoliyati - boshqaruvchi shaxs yoki organ tomonidan boshqaruv amallarini bevosita va bilvosita komandalar (buyruq, tavsiya va ko'rsatmalar) shaklida ishlab chiqish va amalga oshirishdir. Boshqaruv amallari ishlab chiqarish jarayonining yakunlanishi uchun moddiy shart-sharoit vazifasini bajaradi. Aytish mumkinki, boshqaruv amallari boshqaruv faoliyati va natijalari o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in bo'lib xizmat qiladi.

Faoliyatning ushbu turi ahamiyati, aynan boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida korxonaning joriy va istiqboldagi siyosati shakllanishida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan kadrlarni to'g'ri tanlash va joylashtirish, ularning malakasi, o'zlariga yuklatilgan vazifalarni to'g'ri tushunishlari ham muhim ahamiyatga egadir. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, hozirgi boshqaruvchilar uchun yaxshi muhandis, texnolog, konstruktor bo'lishning o'zigina kamlik qilib, ishlab chiqarish iqtisodiyoti, biznes-strategiya, marketing, xo'jalik huquqi va shu kabilarni bilish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Faqat ushbu bilimlar majmuasiga va boy mehnat tajribasiga ega bo'lgan taqdirdagina boshqaruvchilar bozor iqtisodiyoti vazifalarini muvaffaqiyatli ravishda bajarishlari mumkin.

Shuni ham e'tiborga olish kerakki, boshqaruv faoliyati boshqaruv apparati (organi) tushunchasiga qaraganda keng talqin qilinadi. Boshqaruv faoliyati tarkibiga jamoatchilik

Ayni paytda biz o'z vaqtida tanlab olgan iqtisodiy taraqqiyot modelining naqadar to'g'ri ekanini va amalda o'zini to'la oqlaganini hayotning o'zi yana va yana tasdiqlab bermoqda.

Ushbu modelning tamoyillari asosida mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilish bo'yicha har tomonlama va chuqur o'ylangan tadrijiy taraqqiyot dasturini izchil amalga oshirganimiz inqirozning, jahon bozoridagi keskin o'zgarish va beqarorlikning iqtisodiyotimizga, moliya va bank tizimiga salbiy ta'sirini sezilarli darajada kamaytirish imkonini berdi.

Islom Karimov.

tashkilotlaridagi faoliyat, ish joylarida ijodiy tashabbuskorlikning yuzaga kelishi hamda ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlarning taklif va maslahatlarini ham kiritish mumkin. Bu esa boshqaruv faoliyatini, **bevosita boshqaruv** (korxonada boshqaruv apparatining faoliyati) va **o'zini-o'zi boshqarish** (boshqaruv faoliyatining jamoatchilik shakli) turlariga ajratilgan holda tasniflash imkonini yaratadi. Faoliyatning ikkala turi ham amalda birgalikda yuritilib, ularning o'zaro aloqalari ishlab chiqarishni boshqarishning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ishlab chiqarishning, jumladan, boshqaruv faoliyatining o'zining samaradorligini oshirishda, ishlab chiqarishning alohida elementlari va bo'g'inlari o'rtasida yuzaga keluvchi **boshqaruv munosabatlari** muhim o'rin egallaydi. Bu erda boshqaruv organi (sub'ekti) yoki boshqaruvchi shaxs tomonidan boshqariluv organiga nisbatan ta'sir ko'rsatishning o'zigina kamlik qiladi. Boshqarilayotgan ob'ektdan boshqaruv ob'ektiga javob tariqasida teskari aloqa ham bo'lishi zarur. Agar bunda teskari aloqa bo'lmasa yoki boshqaruv organi tomonidan qabul qilinmasa, boshqarilayotgan ob'ekt nazorat ostidan chiqishi hamda boshqarilmaydigan ob'ektga aylanishi mumkin.

Bu vazifa amalda boshqaruvning har bir elementi yoki bo'g'ini tomonidan ma'lum bir vazifani bajarishni ko'zda tutuvchi bir-biriga bo'ysinuvchanlik tizimi yordamida bajariladi. Ya'ni gap korxonada direktori, bosh muhandisi va boshqalardan, to tsex boshliqlari va boshqa ishlab chiqarish bo'linmalarining boshliqlarigacha - korxonaning boshqaruvchilari yoki maxsus xizmatlariga yuklatiluvchi funktsional vazifalar haqida bormoqda. Munosabatlarning bunday ko'rinishdagi bir-biriga bo'ysinuvchanligi boshqaruv tizimining samarali tarzda faoliyat yuritishi uchun muhim shart hisoblanadi.

Shu tariqa, **boshqaruv tizimi** ishlab chiqarish samaradorligiga erishish va korxonaning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashda muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan bir paytda ishlab chiqarish samaradorligining o'sish sur'ati, qabul qilingan yoki amalga oshirilayotgan boshqaruv tizimi progressivligining o'lchovi xizmatini ham o'taydi. Bundan kelib chiqqan holda, qo'yilgan maqsadga qisqa muddatda va ishlab chiqarish resurslaridan unumli foydalangan holda yaqinlashish darajasini korxonani boshqarish samaradorligining bevosita mezoni sifatida ko'rsatish mumkin. Bugungi bozor munosabatlari sharoitida boshqaruv tizimi birinchi o'rinda korxonaning barqarorligini ta'minlashi, xo'jalik tavakkalchiligini kamaytirishi, sifatli va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga ko'maklashishi zarur. Shuningdek, u xodimlarning o'z mehnatlari natijasiga qiziqish darajasi ortishiga, ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar va yo'qotishlarga yo'l qo'ymaslikka hamda mehnat va ishlab chiqarish intizomini mustahkamlashga xizmat qilishi lozim.

“Katta yigirmalik” (G-20) – jahondagi 20 ta eng boy va rivojlanayotgan yirik davlatlarni o‘z ichiga oluvchi mamlakatlar guruhi bo‘lib, ushbu mamlakatlarda ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot hajmi jahon yalpi ichki mahsulotning 90 foizini tashkil

Korxonalar yopiq tizim bo‘lmaganligi sababli, boshqaruv tizimiga korxonada yuzaga keluvchi ichki muhitdan tashqari, tashqi muhit, avvalo, aholining turmush tarzi, jamiyat qurilmasi, davlat siyosati va hokazolar ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Biroq har qanday holda ham boshqaruv tizimi, xo‘jalik hayotining zamonaviy talablari va korxonaning raqobatchilik muhitidagi barqarorligiga javob berishi lozim.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin korxonalar iqtisodiyotini boshqarishni tubdan o‘zgartirish asosiy muammolardan biriga aylandi.

Hozirgi sharoitda respublika korxonalari va tashkilotlarida boshqaruv rolining oshib borishi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- bozor iqtisodiyotining barpo qilinishi va u bilan bog‘liq bo‘lgan turli mulk shakllarining vujudga kelishi (davlat, xususiy, aksioner jamiyatlar, ko‘shma korxonalar, mahalla va hokazolar);

- xo‘jalik yuritishning yangi shakllarini vujudga kelishi (aksioner jamiyatlar, kontsern, konsortsium, xususiy korxonalar va hokazo);

- iqtisodiyotimiz hajmining o‘shishi, undagi sifatli o‘zgarishlar, sanoatimiz ilgari ishlab chiqarmagan yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishi, fan-texnika yutuqlarini amaliyotda qo‘llashning keng avj olishi;

- xo‘jalik yuritishni noiqtisodiy yo‘nalishlari rolining oshib borishi (ijtimoiy me‘yorlar, iste‘mol mezonlari, atrofdagi muhit muammolari va xrkazo);

- bilim hajmining oshishi va ularni tuzilishining o‘zgarishi, Yangi fan sohalarining paydo bo‘lishi va bu bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat yo‘nalishlarini tanlash imkoniyatini kuchaytirilishi;

- mustaqillik natijasida ulkan darajada odamlarni mehnat faoliyatlari doirasini kengaytirilishi, ijtimoiy hayotning hamma sohalarini xilma-xilligini ko‘paytirishi;

- bozor sharoitida boshqaruv tizimining o‘zidagi o‘zgarishlar, hamma sohalarda demokratik tamoyillarning kirib kelishi.

Ma‘lumki, Yuqorida qayd qilingan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar ixtiyoriy ravishda, o‘z-o‘zicha kechmaydi. Ularni tartibga solish, muvofiqlashtirish, yo‘naltirish uchun boshqaruv zaruriyati tug‘iladi.

O‘z-o‘zidan ma‘lumki iqtisodiyotni boshqaruv, jumladan korxonalarni boshqarish tushunchalari kundalik hayotda bizga tanish hodisa va

voqealardir. Kundalik hayotimizda insonlar uni ko'radi, his qiladi. Ba'zi bir jarayonlar insonlarning xohishiga bog'liq bo'lmagan holda harakat qiladi. Ayniqsa, bu hol tabiatda ko'proq sodir bo'lib turadi. Ushbu jarayonlar fizik va biologik qonunlar asosida amal qiladi. Shu bilan birga tabiat va jamiyatda inson ta'siri natijasida uning harakatini bir maqsadga qarab yo'naltirish mumkin bo'lgan jarayonlar kechadi. Masalan, odamlar daryo oqimini o'zgartiradi, bulutlarni tarqatadi, ishlab chiqarishni tashkil qiladi, Yangi ob'ektlar barpo qiladi, o'zi xohlagan tomonga qarab transport vositalari harakatini yo'naltiradi, mehnat jamoalarini ishga undaydi, mablag'larni taqsimlaydi, insonlarning ma'naviy hayoti to'g'risida g'amxo'rlik qiladi. Bunday holatlarda insonlarning voqealar jarayoniga ta'sir ko'rsatishi kuzatiladi. Boshqaruv tushunchasi aynan ana Shu ma'nolardan kelib chiqadi.

Shunday qilib boshqaruv biron bir maqsadga samarali erishish uchun insonlar harakatini tartibga solish va muvofiqlashtirishdan iborat. Shuni qayd qilish joizki, insonni har qanday ob'ektga ta'sir ko'rsatishi boshqarish bo'lavermaydi. Boshqarish fanini avtomobilni boshqarish emas, balki uni boshqarayotgan inson qiziqtiradi. Shuning uchun ham xorijiy mamlakatlarda, ayniqsa, AngliYa va AQSHda avtomobilni boshqarishni menejment deb atasangiz. tushunmovchilik bo'ladi. Chunki menejment tushunchasi bevosita xo'jalik ob'ektlarini boshqaruv tushunchasi bilan hamohangdir.

Shunday qilib, boshqaruvni alohida bir faoliyatning turiga aylanishi iqtisodiy taraqqiyotning ma'lum bosqichiga to'g'ri keladi.

Ushbu bosqich mehnat taqsimoti va uning ixtisoslashishi, ishlab chiqarish va xo'jalik jarayonlarining murakkablashishi bilan xarakterlanadi. Xuddi Shu vaziyatda ularni tartibga solish va muvofiklashtirish zaruriyati ko'ndalang bo'lib turadi. Bunday sharoitda ularni boshqarib turadigan rahbar xodimlarga talab paydo bo'ldi.

4.2.Korxonalarni boshqaruv xususiyatlari va tarkibiy qismi. Boshqaruv sub'ekti va ob'ekti

Boshqaruv tushunchasining nazariy jihatdan tahlil qilinishi bizga bevosita korxonalarni boshqarish masalasiga o'tish imkoniyatini Yaratadi.

Korxonalarni boshqaruv bir qator xususiyatlarga ega.

1. Qaysi mulk shakliga asoslanganligiga qaramasdan korxonalarni boshqarish o'zining murakkabligi va alohida xususiyatlarga ega bo'lganligi bilan xarakterlanadi. Korxonaning tarkibida mehnat taqsimoti

asosida alohida guruhlar tashkil qilinib, har biri o'zining xususiyatlaridan kelib chiqqan vazifalarni bajaradi. Ushbu guruh maqsadlari korxonada va jamiyat maqsadlari bilan zid kelmasligi kerak. Ularni nazorat va muvofiqlashtirib turish boshqaruvning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

2. Korxonada turli harakatlar va psixologik xususiyatlarga ega bo'lgan inson guruhlaridan tashkil topadi. Har bir jamoa a'zosining istagi, ehtiyoji, ma'naviy talablari va manfaati mavjud. Shuning uchun ham har bir boshqaruv sohasida band bo'lgan xodimlarning vazifasi ishni aynan Shu xususiyatlarga qarab tashkil qilish va ularga shaxsiy yondashishdan iborat bo'ladi. Bu esa boshqaruvchilardan psixologiya sohasida chuqur bilimga ega bo'lishni talab qiladi.

3. Hozirgi turli mulk shakllariga asoslangan korxonalar murakkab xo'jalik organizmi hisoblanadi. Korxonada egasiga nafaqat ishlab chiqarish jarayonlari bilan, balki marketing, investitsiya masalalari bilan ham Shug'ullanish zaruriyati tug'iladi. Ishlab chiqarish jarayonida korxonada ichidagi turli bo'g'inlar ishini tashkil qilish, ular o'rtasidagi bog'lanishni ta'minlash, harakatlarni muvofiqlashtirish lozim bo'ladi. Faqat Shu holatda ular harakatini bir maqsadga qarab yo'naltirish mumkin bo'ladi.

4. Korxonalarda juda ko'p miqdorda jihozlar o'rnatiladi. Hozirgi paytda ularning aksariyati xorijiy davlatlardan olib kelingan. Masalan, "Samarqand SHarqsanoat" va "Oriyon – 3" kontsemlarida Italiyadan, Rossiyadan, "Tohiriy K°" kontsemlarida Germaniyadan olib kelingan ish jihozlar o'rnatilgan. Ko'p hollarda ushbu korxonalar ichidagi turli mamlakatlardan olib kelingan jihozlarning tashkil darajasi va unumdorligi turlicha bo'ladi. Lekin jihozlar unumdorligi qay darajada bo'lishidan qat'iy nazar ularni harakatga keltiruvchi kuch inson hisoblanadi. Shuning uchun ham korxonada boshqaruvi korxonadagi jihoz va texnikasidan samarali foydalanishni ta'minlashi zarur. Bunga korxonada inson uchun qulay mehnat sharoitlari yaratib berish orqali erishiladi.

5. Ishlab chiqarish jarayonida korxonalarda har kuni ko'plab operatsiyalar bajariladi. Ushbu operatsiyalar bir-birovidan bajarish shakli, texnologiyasi bilan farq qiladi. Masalan, "Oriyon-3" kontsemlariga qarashli konservalash zavodida yuzlab operatsiyalarni talab qiladigan tayyor mahsulotlar ishlab chiqariladi. Bunday sharoitlarda boshqarish har xil operatsiyalarni bajaradigan odamlarning ishini tashkil qilish, turli ish joylardagi odamlar harakatini muvofiqlashtirish, ishlarini bir maromda olib borish vazifalari bilan Shug'ullanadi.


6. Ishlab chiqarish jarayonida korxonada juda ko'p miqdorda turli xil

materiallarni ishlatadi. Materiallarga korxonalariga ikki yo'l bilan olib kiriladi: mamlakatni ichkarisidan va xorijiy mamlakatlardan biron-bir materialni kechikib korxonaga kirishi ishlab chiqarish jarayoniga salbiy ta'sir - ko'rsatib, katta moddiy zarar etkazishi mumkin. Demak, boshqarish bu kamchilikni o'z vaqtida sezib, uni bartaraf qilish uchun oldindan chora ko'rib qo'yish lozim. Bundan tashqari korxonani bir maromda ishlashi uchun korxonada ichidagi transport va yordamchi ishlab chiqarish ob'ektlari faoliyatini tashkil qilish kerak. Bu joylarda ham odamlar ishlaydi. Ushbu faoliyat sohalarda ishlab chiqarishning samaradorligi aynan Shularning harakatiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham bunday odamlarning faoliyatini tashkil qilish, tartibga solish va muvofiqlashtirish boshqaruvning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Boshqaruv ikki tarkibiy qismning birligidan iborat:

1. Boshqaruv sub'ekti. 2. Boshqaruv ob'ekti.

O'zaro aloqada va ma'lum jihatdan bir-biriga bo'ysinuvchi bo'lgan boshqaruv ob'ektlari va sub'ektlari faoliyatning alohida ko'rinishi sifatida boshqaruvning muhim elementlari hisoblanadi. Bu aloqani quyidagi tarzda chizma yordamida ko'rsatish mumkin:



5-chizma: Boshqaruv ob'ekti va sub'ektining o'zaro aloqasi.


Boshqaruv sub'ektlariga boshqarishni amalga oshiradigan tashkilotchilar, rahbarlar, turli soha boshliqlari kiradi. Boshqaruv ob'ektlariga korxonalar, turli mulk shaklidagi mehnat jamoalari, xodimlar, ishlab chiqarish uchun kerak bo'lgan mehnat qurollari va predmetlari, pul vositalarining harakat jarayoni, tabiat resurslari, ilmiy-texnik va axborot imkoniyatlari kiradi. Boshqaruv sub'ekti turli ma'muriy ko'rsatmalar, xodimlar faoliyatini tartibga soluvchi qoidalarni boshqaruv ob'ektiga uzatadi.

Boshqaruv ob'ekti yuqoridagilarga asoslanib, o'zini harakat yo'nalishini o'zgartirib turadi. Komandani qabul qilganligi va unga o'z

munosabatini bildirganligi to'g'risidagi axborotni boshqaruv sub'ekti qayta aloqa orqali bilib oladi. Ana Shu axborot orqali sub'ekt kelajaqdagi harakatning yangi yo'nalishini belgilaydi. Ma'lum vaqtda bu ob'ektni keyingi rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratib beradi. Qayta aloqa kanallari doklad, xabarlar, yozma hisobotlar shaklida bo'lishi mumkin. Shunday qilib, qayta aloqa amaliyotda bu sub'ekt tomonidan o'rnatilgan bevosita tuzatishlar va nazorat qilish natijasidir. Bu o'z ifodasini statistik va kundalik hisobot va buxgalter hujjatlarida topadi.

“Mustaqillik yillarida bosib o'tgan yo'limiz va to'plagan tajribamizni xolisona baholash, qo'lga kiritgan yuksak marralarimizni tahlil etish mamlakatimizni tadrijiy va **bosqichma-bosqich rivojlantirish** bo'yicha biz tanlagan modelning naqadar to'g'ri ekanini va Shu yo'ldan bundan buyon ham ogishmay qat'iyat bilan borishimiz zarurligini yaqqol ko'rsatmoqda.”³¹

Korxonada boshqaruvning ta'siri **boshqaruv ob'ektiga** yo'naltirilgan bo'lib, ishlab chiqarish va xo'jalik yuritish jarayonlari, ishlab chiqarish uskunalari ekspluatatsiya qilish, turli miqyosdagi mehnat kooperatsiyasi va hokazolar **boshqaruv ob'ekti** bo'lishi mumkin.



Korxonada boshqaruv ob'ekti – korxonalar, tashkilot va muassasalar sub'ektlari va ishlab chiqarish jarayoni.

Boshqaruv sub'ekti esa qoidaga ko'ra, **korxonalar rahbari** yoki boshqaruv ob'ektlarini maqsadli ravishda boshqarishni amalga oshiruvchi **xizmat rahbarlaridir**. Agar Yuqorida keltirilgan misolga qaytadigan bo'lsak, orkestr, bu – boshqaruv ob'ekti, dirijer esa, boshqaruv sub'ektidir.

³¹ И. А. Каримов. “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” // Халқ сўзи газетаси, 12.11.2010.

Korxonada boshqaruv sub'ektlari:

Harakatdagi rahbarlik devoni;
Korxonada bo'ysinuvchi bo'limlar, jamoa xodimlari;
Korxonada faoliyat yuritayotgan turli xil ishchilar,
Kasaba uyushmalari tashkiloti va boshqa jamoat
xodimlari tashkilotlari.

Boshqaruv ob'ektlari va sub'ektlari doimo o'zaro aloqada bo'lib, bunda asosiy o'rin boshqaruv ob'ektiga, ya'ni boshqaruvchi tizimga ajratiladi. Boshqaruv ob'ektining mazmuni, unda yuz berayotgan o'zgarishlar boshqaruv sub'ekti vazifalari va harakatlarini belgilab beradi. Bu esa boshqaruv shakllari va usullarini mukammallashtirishda aks etadi. Albatta, bu boshqaruv sub'ektlarining passivligini anglatmaydi, aksincha, boshqaruv tizimining bo'limlari Shu boshqaruv tizimining eng faol qismini tashkil etadi va tavsiflaydi. Aynan boshqaruv sub'ekti ishlab chiqarish resurslari va asbob-uskunalardan foydalanish siyosatini belgilaydi, ishlab chiqarish vositalarining ishchi kuchi bilan birlashuviga ko'maklashadi. ya'ni korxonaning ***nima, qachon, qaerda, kimga ishlab chiqarish*** bilan bog'liq bo'lgan siyosati, birinchi o'rinda boshqaruv sub'ekti tomonidan hal qilinadi. Shu sababli, boshqaruv ob'ektlari va sub'ektlari orasidagi aloqa, jumladan, ularning ichki tashkil qilinishi qanchalik mustahkam bo'lsa, bir xil sharoitlarda ishlab chiqarish hamda boshqaruv tizimining samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi.

Bozor munosabatlari sharoitlarida korxonani boshqarishning tamoyillari maqsad va vazifalari

4.3. Korxonani boshqarishning tamoyillari, shakllari va uslublari

Korxonani boshqarishda samaradorlikka erishish uchun, avvalo, boshqaruvning maqsadlari, Shuningdek, vositalari va unga erishish usullarini aniq belgilab olish zarur. Shu bilan bir paytda boshqaruv maqsadlari tushunarli bo'lishdan tashqari, ular barcha bajaruvchilar tomonidan amalga oshirilishiga ham e'tibor berish lozim. To'g'ri qo'yilgan maqsad korxonani rahbarining, Shuningdek, butun jamoa va har bir xodimning manfaatlarini ifodalaydi. Bunday natijaga maqsad korxonaning joriy va istiqboldagi rivojlanishi bo'yicha vazifalar majmuasining bir bo'lagiga aylangan holda erishish mumkin. Bunday

yondashuv, ishlab chiqarish maqsadining ishlab chiqarishni boshqarish bilan moslashuvini ta'minlovchi eng qisqa yo'lga olib keladi. Bunday moslashuv esa, boshqaruvning ham tizim sifatida, ham alohida faoliyat turi sifatida maqsadga muvofiqligidan darak beradi.

Korxonani **boshqarishning maqsadlarini** quyidagi turlarga bo'lib tasniflashimiz mumkin:


*20 amalga oshirish muddatiga ko'ra - joriy va istiqbolli;

*21 ahamiyat darajasiga ko'ra - asosiy (strategik) va ikkinchi darajali (taktik);

*22 boshqaruv ob'ektiga munosabatiga ko'ra - xususiy va umumiy;

*23 natijaga erishish darajasiga ko'ra - Yakuniy va oraliq yoki bosqichli.

Boshqaruv jarayonida joriy maqsadlarni istiqboldagi maqsadlarga, xususiy maqsadlarni umumiy maqsadlarga, oraliq maqsadlarni Yakuniy maqsadlarga mos kelishi va bo'ysinini ta'minlash zarur. Asosiy maqsadlarni amalga oshirishga ko'proq e'tibor qaratish kerak. Korxonaga yoki unga tenglashtirilgan xo'jalik sub'ektlarini boshqarish faoliyati to'raligicha Shu vazifalarni bajarishga qaratilishi lozim. Asosiy maqsadni ikkinchi darajali vazifalardan ajrata olish qobiliyati, zamonaviy menedjerlarning eng muhim professional ko'rsatkichlaridan biridir.



6-chizma. Boshqaruv tsikli

Boshqaruv qarori - boshqaruv faoliyati texnologiyasidagi muhim bo'g'indir. Boshqaruvning maqsad va vazifalarini amalga oshirish ko'p jihatdan qarorlarning to'g'ri qabul qilinishiga bog'liq bo'ladi. Boshqaruv

qarori bir tomondan asosan korxonaning rahbarlari tomonidan amalga oshiriluvchi mantiqiy-fikriy faoliyat bo'lsa, ikkinchi tomondan, emotsional-psixologik xatti-harakatdir. U insonning boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonlarida to'plagan tajribasi, bilimi va fikrlash doirasining chuqurligiga bog'liq bo'ladi.

Boshqaruv qarorlari quyidagi belgilar bo'yicha tasniflanadi:

*24 *kompetentlik va mas'uliyat bo'yicha* - yakka tarzda yoki kollegial (*jamo*a) boshqaruv qarorlari;

*25 *mazmuni bo'yicha* - ilmiy-texnik, iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy boshqaruv qarorlari;

*26 *xarakteri bo'yicha* - operativ-taqsimlovchi, xo'jalik-raxbarlik va me'yoriy boshqaruv qarorlari;

*27 *ta'sir ko'rsatish darajasi bo'yicha* - bir va ko'p darajali boshqaruv qarorlari;

*28 *ta'sir ko'rsatish yo'nalishi bo'yicha* - ichki va tashqi;

*29 *ta'sir ko'rsatish miqyosi bo'yicha* - xususiy va umumiy (majmuaviy);

*30 *ta'sir ko'rsatish davri bo'yicha* - bir martalik va ko'p martalik.

Boshqaruv qarorlari amalga oshirish imkoniyatlari, o'z vaqtida amalga oshirish, aniqlik, qonuniylik va shu kabi talablarga javob berishi lozim. Bajarish jarayonida eng kam o'zgartirish va tuzatishlarga uchraydigan qaror eng yaxshi qaror hisoblanadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, hozirgi paytda ko'plab korxonalarning rahbarlari boshqaruv faoliyati jarayonida to'g'ri qaror qabul qilish uchun etarli bilim va tajribalarga ega.

Korxonalarda iqtisodiy jarayonlarni boshqarishni tashkil qilish ob'ektiv qonunlardan foydalanishning harakatdagi mexanizmini ishlab chiqishni talab qiladi. Bunday mexanizm menejment asoschilari tomonidan ilgari surilgan tamoyillarda (printsiplarda) o'z aksini topadi.

Tamoyil bu xo'jalik yuritishning muhim qoidasidir. Ularning nazariy ahamiyati Shundan iboratki, ular boshqarish qonuniyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Ishlab chiqarish jarayonida qonuniyatlar aynan tamoyillar orqali o'z harakatini amalga oshiradi.

Tamoyil - maxsus kategoriya bo'lib, alohida shaxs yoki jamoa qaror qabul qilishda unga tayanadi. Tamoyil faqat insongagina xosdir. Mashinalar va jonivorlar biron-bir tamoyilga ega bo'lmaydi. Ma'lum bir tamoyillardan kelib chiqqan holda aynan inson o'zini o'rab turgan dunyo bilan munosabatlarini yaratadi (uy, ko'prik quradi, kemasozlik va hokazolarni amalga oshiradi).

Korxonadagi boshqaruv faoliyati shuningdek, ma'lum bir tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Bu tamoyillar birinchidan, ishlab chiqarish qatnashchilari orasidagi kelishuvlarni o'rnatib, ikkinchidan, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatolarning oldini oladi hamda boshqaruv mehnatining samaradorligini oshiradi.

Zamonaviy fan va menedjment amaliyoti korxonalarni boshqarishning quyidagi tamoyillarini eng asosiylari sifatida qabul qiladi:

- 1) ilmiylik;
- 2) tizimlilik va komplekslik;
- 3) Yakka boshqaruv va kollegiallik;
- 4) tartib va adolat;
- 5) xodimlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish;
- 6) tejamkorlik va samaradorlik;
- 7) tashabbuskorlik va korporativ ruhiyat;
- 8) vakolat va majburiyat.

Boshqaruvning **ilmiylik** tamoyili o'zaklarning o'zagidir. Amalda bu tamoyil, avvalo jamiyat rivojlanishining ob'ektiv qonunlari va fan-texnika yutuqlaridan xabardor bo'lishni talab qiladi. Uning yordami bilan ishlab chiqarish va boshqaruvning zaruriy mutanosibligi ta'minlanadi, boshqaruv qarorlaridagi xatolar kamaytiriladi, og'irlik markazi eng katta sifat va miqdor yutuqlariga erishishga o'tkaziladi.

Ilmiylik tamoyili ishlab chiqarish masalalarini hal qilishda iqtisodiy-matematik usullardan keng foydalanish, boshqaruvning maqsadli-dasturiy usullarini amalga kiritish, zamonaviy elektron-hisoblash texnikasi va boshqaruvning avtomatlashtirilgan tizimlaridan foydalanishni ko'zda tutadi.

Tizimlilik va komplekslilik tamoyili ilmiylik tamoyilining davomi bo'lish bilan birga, o'zining mustaqil ahamiyatiga ham ega. U boshqarilayotgan tizimning vertikal va gorizontal yo'nalishlari bo'yicha barcha xususiyatlarini qamrab olishni ko'zda tutadi. Tizimlilik va komplekslilik tamoyili boshqaruv usullarining tarqoqlikdagi tamoyillariga hamda bir daqiqalik foyda va ehtiros tufayli yuzaga keluvchi qarorlarga qarshi qo'yiladi. U ishlab chiqarishning bir maromda amalga oshirilishini ta'minlashga xizmat qiladi, ishlab chiqarish uchun qulay sharoit yaratadi.

Yakka boshqaruv va kollegiallik korxonani boshqarishning muhim tamoyillaridan biridir. Bu tamoyil, ayniqsa, aksionerlik sharoitlarida faoliyat yurituvchi korxonalarda aniq ko'zga ko'rinadi.

Yakka boshqaruv har bir xo'jalik rahbari o'z vakolati doirasidagi masalalarni hal qilishda qonun tomonidan berilgan huquqlarga asosan bir o'zi (Yakka tarzda) qaror qabul qilishini hamda korxonada faoliyati uchun shaxsan javobgarligini anglatadi. Bundan tashqari, yakka boshqaruv xodim buyruqlarni faqat bitta bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) boshliqdan olishi mumkin yoki shart bo'lgan hollarni ham anglatadi.


Kollegiallik korxonada jamoasining ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan qarorlarni qabul qilishdagi faol ishtirokida ifodalanadi. Ma'lum bir ma'noda, ayniqsa, boshqaruvning iroda bilan bog'liq bo'lgan usullarida kollegiallik yakka boshqaruv qarama-qarshilikni anglatadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida ushbu tamoyilning imkoniyatlari sezilarli ravishda kengaytirilgan.

Tartib va adolat – bu, boshqaruvning har bir qadamda o'zini eslatib turuvchi tamoyilidir. Ko'p hollarda aynan shu tamoyilga ko'ra korxonada va uning rahbariga tavsifnoma beriladi. Korxonada rahbari qanchalik bilimli va tajribali, uning kasb mahorati va madaniyati qanchalik yuqori bo'lsa hamda u jamoa to'g'risida qanchalik ko'p qayg'ursa, tartib va adolat ko'rsatkichlari shunchalik yuqori bo'ladi. qisqaroq qilib aytganda, tartib – bu, har bir kishi va hamma narsa o'z joyida bo'lishini, adolat esa rahmdillik va odillikning uyg'unligini anglatadi. Boshqaruvning tartib va adolat tamoyili kadrlar tez-tez almashishini oldining olib, korxonada obro'sining o'sishiga hamda bunga korxonada jamosini qiziqtirishga xizmat qiladi.

Xodimlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tamoyili mehnat unumdorligini oshirishda muhim turtki hisoblanadi va boshqaruv tizimining samaradorligini aks ettiradi. Xodimlarning sadoqati va qo'llab-quvvatlashiga erishish maqsadida ular o'z xizmatlari uchun, ishchilar esa bajarilgan ishning sifati va miqdori uchun adolatli tarzda haq olishlari zarur. Bundan tashqari, ma'naviy rag'batlantirish moddiy rag'batlantirishdan kam ahamiyatga ega emas. Rahbarning iqtidori, xodim (xodimlar, ishchilar)ning tashabbus va yutuqlarini o'z vaqtida ilg'ab olib, munosib baholash hamda ularni ham moddiy ham ma'naviy rag'batlantirish tizimini mohirona qo'llashida ko'zga tashlanadi.

2005-2010 yillar davomida mamlakatimizda aholi soni 8,7, mehnat resurslari soni esa 14,2 foizga o'sib, 2010 yil mehnat resurslari umumiy aholi sonining 58 foizini tashkil qildi. Respublikada mehnat resurslarining yillik o'rtacha o'sish sur'ati 3,0-3,5 foizga to'g'ri kelmoqda. Shuningdek, mehnat resurslarining 98,5-99 foiz qismi mehnat yoshidagi mehnatga qobiliyatli aholidan tashkil topsa, qolgan 1-1,5 foizi ishlayotgan o'smir va

pensionerlardan iboratdir. 2010 yilda ish bilan bandlik darajasi iqtisodiy faol aholiga nisbatan 94,6 foizni, mehnat resurslariga nisbatan esa 70,5 foizni tashkil etdi.



1-rasm. Iqtisodiyotning nodavlat va davlat sektorlarida ish bilan band bo'lgan aholi soni.

Ushbu 1-rasmdan ko'rish mumkinki, 2007-2010 yillar davomida iqtisodiyotning nodavlat sektoridagi bandlarning o'rtacha soni 11,1 foizga ortgan, aksincha davlat sektorida band bo'lganlar soni 1,6 foizga kamaygan. Shu bilan birga, tahlil qilinayotgan yillarda davlat sektorida band bo'lganlar ulushi 22,1 foizdan 20,0 foizga kamaygan, nodavlat sektorda bandlar ulushi 77,9 foizdan 80,0 foizga ortgan.

Tejamkorlik va samaradorlik tamoyili – bu, korxonalar boshqaruvining barcha bo'g'inlarida amalga oshirilishi lozim bo'lgan tamoyildir. Bu tamoyilning mohiyati moddiy va mehnat resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanish, eng kam xarajatlar bilan eng ko'p natijalarga erishish, ishlab chiqarish zahiralardan to'liq foydalanishda ifodalanadi. Biroq bu tamoyil istisno tariqasida qo'llanmay, faqat korxonalar rahbarining emas, balki butun jamoa va birinchi o'rinda xom ashyo va materiallardan tayyor masulot yaratuvchi ishchilarning mehnat qoidasiga aylangan taqdirdagina haqiqiy tasdig'ini topadi.

Tashabbuskorlik va korporativ ruhiyat boshqaruvning muhim tamoyili bo'lish bilan birga, korxonaning bozor tizimida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga turtki hamdir. Umuman olganda, boshqaruv tashabbuskorliksiz, istiqbolni ko'rmasdan, ijodiy yondashuvsiz muvaffaqiyatlarga erishishi amrimaholdir. Boshqaruv ijodiy negizni, tashabbuskorlikni korporativlik bilan bog'lagan holda boyitadi.

Agar korporativ ruhiyat ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi jamoa uyg'unligining natijasi, ittifoqi bo'lsa, **tashabbuskorlik** faol harakatlarni

anglatib, korxonalar jamoasiga va har bir xodimga ishlab chiqarishni rivojlantirishning turli xil dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda qo'shimcha kuch-quvvat baxsh etadi.

Vakolat va majburiyat tamoyili boshqaruvning ratsional, aniq va yo'lga qo'yilgan tashkiliy tizimini yaratish, lavozimlarga oid yo'riqnoma hamda rahbar va mutaxassislarining huquq va burchlari to'g'risidagi hujjatlarni ishlab chiqish, bajarilgan ish uchun moddiy javobgarlikni belgilash, buyruq va ko'rsatmalarni o'z vaqtida tayyorlashni anglatadi. Har bir lavozim egasi - bo'lim yoki xizmat boshlig'idan, to korxonalar rahbarigacha - boshqaruv faoliyatidagi o'z vakolatlarini yashirmasligi va majburiyatlarini kamaytirmasligi - boshqalarning, ya'ni unga bo'ysinuvchi shaxslarning zimmasiga yuklamasligi lozim.

Yuqorida ko'rsatilgan tamoyillar ham alohida, ham birgalikda boshqaruv tizimining ishonchliligiga va korxonalar rahbari hamda har bir boshqaruv tuzilmasining obro'sini o'stirishga xizmat qilishi lozim. Bundan tashqari, ular doimiy ravishda mukammallashtirib borilishi hamda zamon ruhi va xo'jalik yuritish mexanizmi talablariga javob beruvchi yangi tamoyillar bilan to'ldirilishi zarur. Bu esa boshqaruv tizimi va jarayonlarining yangi shakl va usullarini rivojlantirishga imkon yaratadi.

Boshqaruv tamoyillariga real amaliyotni belgilab, boshqarish apparatining to'g'ri va aniq harakat yo'lini ko'rsatib beradi. Tamoyillar hodisa-voqealar va vaziyatlar tizimida paydo bo'lib turadigan mantiqiy aloqalarni to'g'ri tushunishga, harakatlar maqsadini to'g'ri aniqlashga, boshqarish funksiyasini samarali tatbiq qilishga qaratilgan konkret qarorlar ishlab chiqishga imkoniyat yaratadi.

Har kuni korxonalarda turli xildagi nizoli vaziyatlar sodir bo'lib turadi. Ana Shularni o'z vaqtida bartaraf qilish rahbarlardan aniq qarorlar qabul qilishni talab etadi. Lekin bu qarorlar faqat boshqarish tamoyillarini chuqur bilgandagina o'z samarasini berishi mumkin. Chunki bu tamoyillar hodisa va voqealarning ichki aloqalarini va ularning rivojlanishini oldindan bilishga imkoniyat beradi. Boshqaruv tamoyillari korxonada boshqarish jarayonlarini tashkil qilishdagi dastlabki holatni aniqlaydi. Tamoyillar korxonaning maqsadi va uslublari bilan chambarchas bog'liqdir.

Tamoyillar birinchi marta amerikalik muhandis F.Teylor, frantsiyalik yirik tadbirkor A.Fayol va amerikalik menejment bilimdoni G.Emerson tomonidan ishlab chiqilgan. Ularning bu tamoyillari to hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Aksincha, korxonalarda boshqarishni tashkil qilishda, hozirgi zamon yangi korxonaning shakllanishida klassiklar

yaratgan tamoyillarning tutgan o'rnini alohidadir.

Hozirgi paytda korxonalar amaliyotida bozor iqtisodiyotiga mos quyidagi tamoyillar qo'llanilmokda: 1. Oliy maqsadga qarab intilish; 2. Mehnat taqsimoti; 3. Vakolat va javobgarlik; 4. Ishda Yaxshi sharoit Yaratib berish; 5. Intizom; 6. Ishlab chiqarishni takomillashtirish; 7. Xodimlarga adolatli munosabat, aqli raso bo'lmoq; 9. Yakka boshqarish; 10. Tez, ishonchli, to'la, aniq va doimiy hisob; 11. Yo'nalishning birligi; 12. Ijtimoiy manfaatning shaxsiy manfaatdan yuqori bo'lishi; 13. Xodimlarni rag'batlantirish; 14. Operatsiyalarni normalash; 15. Markazlashtirish; 16. Tartib; 17. Haqiqat; 18. Puxta bilimli maslahat berish; 19. Xodimlar ish joyini barqarorligi; 20. Tashabbus; 21. Korxonaga sadoqat; 22. Ezma standart; 23. Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish. 24. Samaradorlik.

Boshqarishni o'z oldiga ko'rgan maqsadlariga erishish uchun boshqarish ob'ektiga ta'sir ko'rsatishning qulay uslublarini tanlash xatta ahamiyatga egadir. Chunki aynan uslublar boshqarish vazifalari va maqsadi qay darajada bajarilganligini ko'rsatib beradi. Boshqarish uslublarini ko'llash natijasida ob'ektiv iqtisodiy qonunlarning talabi va ularning amaliyotda ko'rinishi amalga oshiriladi. Shuning uchun ham boshqarish uslubi ana Shu qonunlarning amal qilish mexanizmi rolini bajaradi.

“Birgina 2010 yilda budjet sohasi muassasalari xodimlarining ish haqi, pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar, stipendiyalar miqdori 32 foizga, aholining umumiy pul daromadlari esa jon boshiga 1,3 barobar oshdi.”³²

Amaliyotda uslublar tizimini to'g'ri qo'llash boshqarish tamoyillariga bog'liq bo'ladi. Chunki uslublar har doim boshqarish tamoyillari tomonidan belgilangan qoida, nizom asosida qo'llaniladi.

Boshqarish faoliyatining vositasi sifatida boshqarish uslublari boshqarishning sub'ektiv tomonini o'zida gavdalantiradi. Bundan ular xohlagan vaqtda, asossiz tanlanishi mumkin degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Uslublarning tarkibi va mazmuni boshqarish qonuniyatlarini o'zida gavdalantirgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni harakat natijalaridan hosil topadi. Boshqarish uslublariga ilm-fan taraqqiyoti bevosita ta'sir qiladi. Chunki fan-texnika taraqqiyoti uslublarni uzluksiz takomillashtirish, ularni ko'llash sifati va samaradorligini oshirishga olib keladi.

³² И. Каримов. “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади” // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

Shunday qilib boshqarish uslublari qo'yilgan maqsadga erishish uchun boshqarish ob'ektiga ta'sir o'tkazish ma'nosini anglatadi.

Boshqarish uslublari o'zini mazmuni jihatidan iqtisodiy, ma'muriy-tashkiliy, ijtimoiy-psixologik uslublardan tashkil topadi.

Boshqarish uslublari tizimida **iqtisodiy uslublar** markaziy hisoblanadi. Iqtisodiy uslub iqtisodiy mexanizmlar - orqali boshqarish ob'ektiga ta'sir ko'rsatish ma'nosini anglatadi; Bunday holda korxonaning boshqarish organi boshqariladigan ob'ektga ish haqi, mukofotlash, rag'batlantirishning turli shakllari, imtiyozlar, chegaralashni yumshatish, defitsit resurslar bilan ta'minlash, iqtisodiy erkinlikni kuchaytirish kabi iqtisodiy mexanizmlardan foydalanadi. Shuni ta'kidlash joizki, iqtisodiy istak nafaqat ijobiy rag'batlantiruvchi omilga tayanadi, balki soliqlar, to'lovlar, daromaddan ushlab qolish va hatto jarima (sanktsiyalari)ga ham tayanadi.

Iqtisodiy usublarning harakati sharoitida pastki bo'g'inlarga markazlashgan ta'sir ko'rsatish susayadi. Iqtisodiyotning pastki bo'g'inlari mustaqil ravishda qarorlar qabul qilish uchun katta huquq va imkoniyatlarga ega bo'ladi. Korxonalar va xo'jaliklarning o'z-o'zini boshqarishga o'tishi amalga oshiriladi.

“Hozirgi paytda mamlakatimiz aholisining siyosiy-huquqiy madaniyati va ijtimoiy ong darajasining o'sib borishi, jamiyatni demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonlarining jadal rivojlanishi, yurtimizda ko'ppartiyaviylik tizimining tobora mustahkamlanishi davlat hokimiyatining uchta subekti, ya'ni davlat boshlig'i bo'lgan Prezident, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar o'rtasidagi vakolatlarning yanada mutanosib taqsimlanishini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yuzaga keltirmoqda.”³³

Boshqarishni iqtisodiy usublarning hozirgi paytdagi o'zgarish omillaridan eng asosiysi boshqarishni tik chiziqdi shaklidan gorizontal shakliga o'tish hisoblanadi. Bunda boshqarish ob'ektiga ta'sir nafaqat yuqori boshqarish organlari tomonidan, balki korxonalar bilan bog'langan mijozlar, iste'molchilar tomonidan amalga oshiriladi. Bunday ta'sir qilish uslublari o'z ifodasini o'zaro majburiyatlar, bitimlar va shartnomalarda topadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy usublarning qo'llanilishi o'zining ijobiy samaralarini beradi.

³³ И. А. Каримов. “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” // Халқ сўзи газетаси, 12.11.2010.

Tashkiliy-ma'muriy uslublar iqtisodiy uslublardan farq qilib, boshqarish ob'ektiga, ya'ni mehnat jamoalari va alohida xodimlarga bevosita buyruq, farmonga asosida ta'sir o'tkazishga asoslanadi. Shuning uchun ham ushbu uslubni ko'p hollarda ko'rsatma tariqasidagi yoki komandaga oid uslub deb ataydilar. Bunday ko'rsatma va komandalar pastki bo'g'inlar tomonidan majburan bajariladi. Boshqarishni bu uslubining mantiqiy - "Boshliqning buyrug'iga bo'ysunadigan xodimlar uchun bajarilish qonuni degan mazmuni anglatadi. Ushbu ma'muriy uslub asosan bozor iqtisodiyotiga xos bo'lmagan markazlashgan tamoyillar tizimiga xosdir. Tashkiliy-ma'muriy uslub o'zining mazmuniga ko'ra ikki turga bo'linadi: tashkiliy va ma'muriy ta'sir ko'rsatish.

Korxonalarda tashkiliy ta'sir ko'rsatish birinchidan, xo'jalik ishlab chiqarish texnologiyasi, investitsiya va marketing faoliyatini takomillashtirishni, tashkiliy va texnologik me'yorlar va nizomlarni ishlab chiqarishni ta'minlaydi. Ikkinchidan, tashkiliy ta'sir ko'rsatish, korxonalarda mehnat sharoitlarini yaxshilash, ayrim mehnat turlarini bajarish uslublarini aniqlaydi. Uchinchidan, tashkiliy ta'sir ko'rsatish texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish, kompyuter texnologiyasidan foydalanish, berkitilgan vositalardan unumli foydalanshpni ta'minlaydi.

Qaerda va qaysi vaqtda korxonalarda tashkiliy jihatdan o'zgarishlar sodir bo'lib qolsa (bu jarayonda doimo rivojlanish va takomillashtirish tendentsiyasi mavjud) o'sha erda tashkiliy ta'sir ko'rsatishga amal qilish zaruriyati tug'iladi.

Tashkiliy ta'sir ko'rsatish o'z samarasini faqat uni ma'muriy ta'sir bilan to'ldirilgandagina beradi. Chunki, har qanday korxonani tashkiliy tuzilmasi ichida o'zining turli xizmatga oid sifatlari, xususiyatlari, dunyo qarashi va hatto ba'zi vaqtda ko'yilgan umumiy vazifani turlicha tushunishi bilan bir-birovidan farq qiladigan insonlar harakat qiladi. Bunday sharoitlarda bo'g'inlar o'rtasidagi tashkiliy aloqalarni saqlab turish uchun korxonalariga ma'muriy ta'sir ko'rsatish zarur bo'lib qoladi.

Ma'muriy ta'sir ko'rsatish amaliyotda buyruq, farmoyish va ko'rsatma shaklida namoyon bo'ladi.

Buyruq - bu ma'muriy-ijrochi faoliyatni tartibga solib turadi boshqarish akti hisoblanadi. Bajarilishi muqarrar bo'lgan buyruklarni faqat korxonalar rahbari beradi. Buyruklarni ishlab chiqarish jarayonida unga kiritilgan masalalarni chukur tahlil qilish va Shu soha bo'yicha bilimdon mutaxassislar maslahatini inobatga olishga e'tibor berishi lozim.

Buyruqlardan farqli farmoyishlarni rahbarlardan tashqari ularning

muovinklari va o'zining vakolat doirasida funktsional bo'lim boshliqpari berishi mumkin. Farmoyishda ham xuddi buyrukdagidek masalalar aniq va tushunarli yoritilishi, ijrochilar, ijro sanasi va nazorat shakllari ko'rsatilishi lozim. Farmoyishlarda uni bajarilishining aniq muddati ko'rsatiladi.

Ma'muriy ta'sir ko'rsatishning amalga oshirish vositasi ko'rsatma hisoblanadi. Odatda, ular og'zaki shaklda beriladi. Unda ko'yilgan vazifalarning bajarish muddati aniq ko'rsatiladi.

Ma'muriy ta'sir ko'rsatish organlarining qo'ygan vazifalarini amalga oshirish uchun uzluksiz nazorat qilishni yo'lga qo'yish kerak. Har bir buyruqni bajarilish nazoratini shaxsan rahbar yoki uning vakolati bilan uning vakili amalga oshiradi. Ayniqsa, rahbarining shaxsiy nazorati xaddan tashqari muhim hisoblanadi. Chunki, bu o'z vaqgida buyruqlarni bajarish bo'yicha paydo bo'lgan chetlanishlartga payqab, uning oldini olish imkoniyatini beradi.

Boshqarish uslublari ichida **ijtimoiy-psixologik uslublar** muhim o'rin egallaydi. Ijtimoiy-psixologik uslublar bu mehnat jamoalari va ayrim xodimlarga turli psixologik mexanizmlar orqali ta'sir ko'rsatish orqali boshqarishni amalga oshirishdir.

Har bir insonda mehnatga, mulkka, pul, boylikka, iqtisodiy munosabatlarga nisbatan qarashlar tizimi shakllanib va tarbiyalanib boradi.

Har qanday inson katta kichikligiga qaramasdan nafaqat mamlakatimizda harakat qilayotgan huquqiy qonunlar asosida ish ko'radi, balki o'zining dunyoqarashi, tasavvuri, ichki odob-axloq qoidalari asosida o'z turmush tarzini belgilaydi. Bu holat ham iqtisodiyotda va maishiy sharoitda o'z ifodasini topadi. Ijtimoiy-psixologik uslublarning asosiy vazifasi insonlarni psixologiyasidir. Vijdoni va odob-axloqiga ta'sir ko'rsatish orqali boshqarish sub'ekti qo'ygan maqsadga erishishni ta'minlashdan iborat. Odamlarni biron-bir ishni bajarishga majbur qilmaslik kerak. Ularni shu narsani bajarish zarur ekanligiga ishontirish kerak.

Ijtimoiy-psixologik uslublarning samaradorligi va amaliy ta'siri avloddan-avlodga o'tib keladigan insonning vujudidagi tarbiyaga bog'liq bo'ladi. Bunga bir qator mamlakatlarda shakllangan an'analarni misol keltirsak bo'ladi. Masalan. Yaponiya mehnatga bo'lgan sevgi va hurmat, o'z ishiga va firmasiga sodiqdik go'dakligidan boshlab tarbiyalanadi. Agar firmada ish yomon borayotgan bo'lsa, yapon ishchisi mehnat ta'tilidan ham voz kechadi.

Shunday qilib, ijtimoiy-psixologik uslublarning ikki guruhga bo'lish mumkin.

1. Ijtimoiy ta'sir ko'rsatish uslublari.

2. Psixologik ta'sir ko'rsatish uslublari.

Bularni har birini alohida ko'rib o'tamiz.

Ijtimoiy ta'sir ko'rsatish uslublari korxonalarda juda ko'p jamoani ijtimoiy rivjlanish masalalarini hal qilish vositasi sifatida ishlatiladi. Ushbu uslub orqali mehnat jamoalarining ijtimoiy tuzilmasi va xususiyatlari (jamoani ijtimoiy va kvalifikatsion tuzilishi, xodimlar va ishchi-xizmatchilarning madaniy-texnik darajasi, mehnat sharoiti, mehnatni rag'batlantirishni tashkil qilish, ma'naviy va ma'rifiy ishlarni qo'yilishi va hokazo) o'rganiladi.

Ularni amaliyotda qo'llash natijasida jamoa va uni a'zolarining ijtimoiy faolligi oshadi, tarbiya jarayoni yaxshilanadi.

Amaliyotda ijtimoiy ta'sir ko'rsatish uslublari bilan birga mehnat jamoalari va uni a'zolarini boshqarishni psixologik uslublari ham keng ishlatiladi. Ularning asosiy vazifasi mehnat jarayoni bilan band bo'lgan insonlarning psixikasi va kayfiyatiga ta'sir ko'rsatishdan iborat. Ushbu uslublarning yo'nalishi korxonalarda xayrixohlik, do'stlik munosabatlarini, mehnatga qiziqishning oshishi uchun samarali tizimini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Yuqorida ko'rib chiqqan boshqarishning ikki uslublari bir-birovi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, birgalikda xo'jalik faoliyatining hama boshqarish funksiyalariga amal qilishni ta'minlaydi. Shuning uchun ham amaliyotda ularni birontasini rolini pastga urish katta salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

4.4. Korxonani boshqarish apparati. Korxonani boshqarishda raxbarning xususiyatlari, o'rni va roli

Korxonani taraqqiyotning hamma bosqichlarida iqtisodiyotning asosiy va birlamchi bo'g'ini hisoblanadi. Albatta, konkret korxonani boshqarish fanlarining tuzilmasi, uni bajarish shakli va uslublari uning masshtabi va ixtisosligiga bog'liq bo'ladi. Umumiy qilib aytganda, iqtisodiyotimizda mavjud bo'lgan turli mulk shakllariga asoslangan korxonalar bir-birovi bilan o'xshashligi va farqlari mavjud. O'xshashligi shundaki har qanday korxonani mahsulot, tovar, xizmatlar ishlab chiqaradi, ma'lum faoliyatni amalga oshiradi. Aynan ana shunda uning bosh maqsadi va vazifasi o'z ifodasini topadi. Shuning uchun ham ularni shakl va turlaridan qat'iy nazar, korxonalarni boshqarish asosida texnologik jarayonlarni boshqarish yotadi.

Iqtisodiyotning asosiy bo'g'ini hisoblangan korxonalar mamlakatimiz va chet el ta'minlovchilar bilan ko'plab aloqalarni amalga oshiradilar. Ushbu aloqalar xom ashyo bilan ta'minlovchilar va iste'molchilar bilan amalga oshiriladi. Ana shu o'zaro aloqalarni saqlab turish va muvofiqpashtirish korxonalar boshqaruvining eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Biron-bir mahsulotni ishlab chiqarish uchun korxonalar ishlab chiqarishning turli omillaridan foydalanadi. Bularga ishchi kuchi, jihozlar, xom ashyo, materiallar, axborot, pul mablag'lari kiradi.

Shunga qarab korxonani boshqarish bir necha yo'nalishlarga bo'linadi. Bular quyidagilardan iborat:

1. Kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish, ularni madaniy-texnik darajasini oshirish, (personalni) kadrlarni boshqarish;
2. Korxonalarni ishlab chiqarish faoliyatini texnik-iqtisodiy rejalashtirish;
3. Ishlab chiqarishni operativ boshqarish;
4. Korxonani texnik rivojlanishini va ishlab chiqarishni texnik tayyorgarligi;
5. Mahsulotlar sifatini nazorat qilish;
6. Mehnatni tashkil qilish va ish haqi;
7. Ishlab chiqarishni moddiy-texnik ta'minoti;
8. Tayyor mahsulotni sotishni tashkil qilish;
9. Moliya faoliyatini amalga oshirish;
10. Ishlab chiqarishga texnik va tashkiliy-xo'jalik xizmatini tashkil qilish.

Yuqorida ko'rsatilgan yo'nalishlarning yig'indisini chet mamlakatlar amaliyotida korxonalar menejmenti deb ataladi. Administratorlar, korxonalar faoliyatining boshqaruvchilarini menejerlar deyish qabul qilingan. Ushbu atama hozirgi paytda bizning respublikamizda chop kilingan iqtisodiy adabiyotlarda va amaliyotda keng ko'lamda ishlatilmoqda.

Hozirgi sharoitda respublikamizda bir qator korxonalarni boshqarish tuzilmasining turlari mavjud. Korxonalar, kompaniya, kontsernlar odatda boshliq yoki prezident tomonidan boshqariladi. Kompaniya va kontsernlarni prezidenti strategik rahbarlikni amalga oshiradi. Operativ boshqarish ijrochi direktorlar tomonidan olib boriladi. Direktor ko'p holatlarda korxonalar faoliyatining alohida yo'nalishlari bo'yicha o'zining muvoinlariga ega. Masalan, texnika va texnologiya, ishlab chiqarish, fan, iqtisod, moliya va hokozolar bo'yicha.

Korxonalarni boshqarish apparatiga turlicha xizmatga oid bo'limlar

mavjud bo'ladi. Ularni amaliyotda ma'muriy-boshqarish xodimlari deb ataladi. Odatda, korxonada bo'limlarini boshqarish ishlab chiqarish (korxonani boshqaradigan) va funktsional qismlarga (moliya, ta'minot, sotish, kadrlar, texnologiya, ish yuritish, tashqi iqtisodiy aloqalarni boshqarish) bo'linadi. Hammasini umumlashtirib rahbarlar, mutaxassislar va texnik ijrochilar deb ham atash bo'ladi.

Korxonada tuzilmasida bo'linma, tseh bo'lim, laboratoriyalar va boshqa bo'limlarni ko'rsatish mumkin. Hammasida o'zining boshqarish organlari mavjud.

Korxonani boshqarish asosida chiziqli va funktsional tamoyillar yotadi. Shuni qayd qilish joizki, xar qanday ishlab chiqarishni boshqarish tizimida chiziqli tamoyil yotadi. Tizimning ichida bo'g'in va pog'onalarni bir-biridan farq qilish lozim. Bo'g'in bu alohida funktsiyalarni bajaruvchi mustaqil bo'linmadir. Boshqarish bo'g'inini tushunchasiga Shuningdek, bir necha tashkiliy tuzilmalari faoliyatini rahbarligini amalga oshiruvchi rahbarlarni ko'rsatish mumkin. Bularga bosh muxandis, bosh texnolog, smena boshliqlari va hokazolar kiradi.

Boshqarish pog'onasi bu bo'g'inlarning yig'indisi hisoblanadi. U boshqarish ierarxiyasini belgilaydi (quyi mansabdorlarning yuqori mansabdorlarga bosqichma-bosqich bo'ysunishi). Boshqarish tizimidagi chizikli bo'limlar buyrug'ini bajarish unga bo'ysunadigan hamma bo'limlar uchun shart hisoblanadi. Chiziqli boshqarish berilgan farmoyish va vazifalarni bajarilishida anglashmovchilik kelib chiqishiga imkon bermaydi. Chunki ushbu vazifalar bir rahbar tomonidan beriladi. Shu bilan rahbarlik birligi ta'minlanadi, rahbarlarning o'zlariga berkitilgan bo'limlar uchun mas'uliyati oshadi.

Amaliyotdan Shu narsa ma'lumki, korxonada turi boshqaruv apparatining shakllanishi va tashkiliy tuzilmasiga sezilarli ravishda ta'sir ko'rsatadi. Masalan, o'rta va ayniqsa, kichik korxonalar uchun yirik korxonalar boshqaruv tuzilmasini ko'r-ko'rona ko'chirib olish maqsadga muvofiq emas. Bu qimmatga tushishi va ko'p mehnat talab qilishidan tashqari ma'nosiz hamdir. Shu sababli o'rta va kichik korxonalar moslashuvchanligi, harakaatchanligi va bozor kon'yunkturasiga ta'siri ularning tashkiliy tuzilmasi soddaroq va optimal tarzda bilan asoslab beriladi. Kichik korxonalarda asosan yirik korxonalar xos bo'lgan katta funktsional bo'lim va xizmatlar mavjud bo'lmaydi.

“Bizning bu boradagi eng katta yutug'imiz yalpi ichki mahsulot tarkibida **kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi** ko'paygani

hamda mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda uning roli sezilarli darajada oshganida namoyon bo'lmoqda.

2000 yilda yalpi ichki mahsulotning qariyb 31 foizi iqtisodiyotning faol rivojlanib borayotgan ushbu sektori ulushiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2010 yilda bu ko'rsatkich 52,5 foizni tashkil etdi.”³⁴

Xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish sharoitlarida aktsionerlik korxonalarini (jamiyatlarini) boshqarishga katta qiziqish uyg'ongan. Bunday korxonalarining jamoalari ishlab chiqarish va tashkiliy tuzilmani boshqarishda ishtirok etadi. Yakka boshqaruv tamoyillariga asoslangan davlat korxonalaridan farqli ravishda aktsionerlik korxonalari (jamiyatlari) boshqaruv shakli, usuli va tuzilmasini o'zlari mustaqil ravishda tanlaydilar, ishlab chiqarish faoliyati siyosati va shtatlarini belgilaydilar.

Aktsiyadorlik korxonalari (jamiyatlari)da kuzatuv kengashi, boshqarma va aktsionerlarning umumiy yig'ilishi boshqaruv organi vazifasini bajaradi. Ularning faoliyati O'zbekiston Respublikasining "Aktsionerlik jamiyatlari va aktsiyadorlar huquqini himoya qilish to'g'risida"gi qonuniga, Shuningdek, boshqa huquqiy-normativ hujjatlarga, jumladan, aktsiyadorlik jamiyatining ichki tartib va qoidalariga asosan yuritiladi.

Aktsiyadorlik korxonasini boshqarishning tashkiliy tuzilmasida ta'sischi tarkibiga bog'liq bo'lgan-ta'sischi kengashi muhim o'rin egallaydi. Masalan, ochiq turdagi aktsiyadorlik korxonalarida ta'sischi eng kam soni belgilanmagan, yopiq turdagi aktsiyadorlik korxonalarida esa ta'sislarning eng kam miqdori uch kishi qilib belgilangan. Bundan tashqari ularning har biri aktsiyador bo'lishi shart.

Ta'sischi aktsiyadorlik korxonalari (jamiyatlari)ning rahbarini tayinlaydilar hamda bu rahbar keyinchalik aktsiyadorlar nomidan ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyati bo'yicha barcha xatti-harakatlarni bajaradi va buning uchun javobgar hisoblanadi. Aktsiyadorlik korxonalari (jamiyatlari)ni boshqarishda kuzatuvchilar kengashi muhim o'rin tutadi hamda quyidagi huquqlarga ega bo'ladi:

*31 korxonada faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

*32 aktsiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirish;

*33 aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibini tayyorlash;

³⁴ И. Каримов. "Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз таракқиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади" // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

*34 umumiy yig'ilishda qatnashish huquqiga ega bo'lgan aktsiyadorlar ro'yxatini tuzish;

*35 korxonaga (jamiyat) Nizomiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish masalasini kiritish;

*36 korxonaning Nizom jamg'armasini e'lon qilingan aktsiyalar turi va miqdoriga ko'ra, aktsiyalarning nominal qiymatini oshirish yordamida ko'paytirish;

*37 obligatsiya va qimmatbaho qog'ozlarni joylashtirish;

*38 korxonaga mulkining bozor qiymatini belgilash;

*39 ijroiya organi rahbari (direktor, boshqarma raisi) va a'zolarini tayinlash;

*40 jamiyat nomidan xodimlarni ishga yollash bo'yicha mehnat shartnomalarini tuzish;

*41 ijroiya organiga to'lanuvchi mukofot, rag'batlantirish va kompensatsiyalar hajmini belgilash;

*42 jamiyatning zahira va boshqa jamg'armalaridan foydalanish;

*43 aktsiyadorlik korxonasi (jamiyati)ning sho'ba bo'limlari va vakolatxonalarini ochish;

*44 jamiyat nizomida belgilangan, kuzatuv kengashi vakolatlari doirasiga kiritilgan bo

Kuzatuv kengashi **Акциядорларнинг умумий йиғилиши (конференцияси)** n vazifalarni echish jamiyatning ijroiya organiga o'tkazilishi ijroiya organi a'zolari kuzatuv kengashiga saylanish

Кузатув кенгаши gashi asosida tuziladi hamda saylov davomida eng ko'p ovoz kengash a'zoriga no

Бошқарма Jamiyatning moliyaviy va xo'jalik faoliyatini nazorat qilishda taftish hay'ati muhim o'rin

Бошқарув раиси (директор) ri umumiy yig'ilish tomonidan aktsiyadorlar hamda korxonaning aktsiyadorlarini sotib olmagan boshqa xodimlar orasidan saylanadi. Xay'at boshqaruvning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini nazoratini doimiy ravishda voki

Раис муовини (тижорат директори) kuzatuv **Раиснинг бош муовини (ишлаб чиқариш бўйича директор)** egalik qi **Раис муовини (техник директор)** bilan amalga oshirishi **Иқтисодий таҳлил** g u **Ишлаб чиқаришни ташкил қилиш** sin **Маркетинг** ta

ahamiyatga ega. **Бухгалтерия ҳисоби ва** yad **Ташқи кооперация** ati) **Техник хизмат кўрсатиш** g

Ochi **Бухгалтерия ҳисоби ва** yad **Ташқи кооперация** ati) **Техник хизмат кўрсатиш** g

namunav **Бухгалтерия ҳисоби ва** yad **Ташқи кооперация** ati) **Техник хизмат кўрсатиш** g

funktsiya **Бухгалтерия ҳисоби ва** yad **Ташқи кооперация** ati) **Техник хизмат кўрсатиш** g

молия **Бухгалтерия ҳисоби ва** yad **Ташқи кооперация** ati) **Техник хизмат кўрсатиш** g

Харидлар ва баҳони **Бухгалтерия ҳисоби ва** yad **Ташқи кооперация** ati) **Техник хизмат кўрсатиш** g

шакллантириш **Бухгалтерия ҳисоби ва** yad **Ташқи кооперация** ati) **Техник хизмат кўрсатиш** g

o'zaro munosabatlari va bir-biriga bo'ysinishini tushunish lozim. Tashkiliy tuzilma boshqaruvning tizim va alohida faoliyat turi sifatidagi bir butunligini ifodalaydi. U boshqaruv organlarining ma'lum bir tartibini, hokimiyat va bo'ysinish aloqalarini, vertikal va gorizontal mehnat taqsimotining integratsiyalashuvini etadi.

Boshqaruv tuzilmasi dinamik tarzda bo'ladi. U ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlarining rivojlanishi, boshqaruv ob'ektlarining qarama-qarshiliklari va qonuniyatlari haqidagi bilimlarimiz darajasining o'sishiga bog'liq holda o'zgarib boradi. Boshqaruvning tashkiliy tuzilmasiga korxonaning hajmi, uning ixtisoslashuvi va kooperatsiya aloqalari, mulkchilik shakli, qaysi tarmoqqa tegishliligi, joylashgan hududi kabi omillar katta ta'sir ko'rsatadi.³⁵

Boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi korxonaning ishlab chiqarish tuzilmasi bilan aloqada va ko'p jihatdan unga bog'liq bo'ladi. Korxonada qanchalik katta, ishlab chiqarish va unda foydalanuvchi mehnat qurollari va texnologiyalar qanchalik murakkab bo'lsa, boshqaruvning ishlab chiqarish va tashkiliy tuzilmasi, Shuningdek, korxonada boshqaruv apparatining funktsiyalari shunchalik murakkablashadi.

Boshqaruv elementlari va bo'g'inlari o'rtasidagi aloqalarning shakli, tuzilmaviy bo'linmalarining moslashuvchanligi va bir-biriga bo'ysinuvchanligiga ko'ra, boshqaruvning quyidagi tashkiliy tuzilmalari mavjud:

- chiziqli;
- funktsional;
- aralash (chiziqli-funktsional);
- matritsali.


Chiziqli tuzilma boshqaruv tuzilmasining eng ko'p tarqalgan turi bo'lib, unga ko'ra boshqaruvning har bir bo'g'ini o'zidan yuqori turuvchi faqat bitta boshqarmaga ega bo'ladi va barcha masalalar bitta aloqa kanali orqali hal etiladi. Bunday tuzilmada boshqaruv bo'g'inlari tizimi to'laligicha ishlab chiqarish bo'g'inlari tizimi bilan mos tushadi. Har bir ishlab chiqarish jamoasi tepasida rahbar turadi va korxonada xodimlari unga bevosita bo'ysinadilar. Barcha boshqaruv funktsiyalari rahbar qo'lida mujassamlanadi.

Boshqaruvning chiziqli tuzilmasi hal qilinayotgan masalalar ko'lamini unchalik katta bo'lmaganida samaraliroq bo'ladi. Shu sababli bunday

³⁵ И. Каримов. “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз таракқиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади” // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

tuzilmadan asosan tsex, ishlab chiqarish uchastkalari va kichik korxonalarni boshqarishda foydalaniladi. Bunday tuzilmaning quyidagi afzalliklari mavjud:

- boshqaruvning har bir bo'g'ini uchun rahbar tayinlashning nisbatan osonligi,
- boshqaruv qarorlarini tayyorlash va bajarishning tezkor (operativ) amalga oshirilishi,
- boshqaruv funksiyalarini bajarishning nisbatan osonligi.



7-chizma. Korxonada boshqaruvining chiziqli tashkil etish tuzilmasi.

Biroq boshqaruvning bu tizimida bir qancha kamchiliklar ham mavjud bo'lib, ularning asosiylari gorizontaal aloqalarning tarqoqligi, boshqaruvdagi haddan tashqari qattqlik va ishlab chiqarishning diversifikatsiyasi sharoitlaridagi cheklangan imkoniyatlarida namoyon bo'ladi.

Boshqaruvning chiziqli tizimi quyidagi hollarda qo'llanadi:

- xodimlar soni 300-500 kishini tashkil qiluvchi hamda predmetli va texnologik ixtisoslashuv darajasi yuqori korxonalarda (metallga ishlov berish, Yarim tayyor mahsulot ishlab chiqarish, yig'ish, bir turdagi xizmat ko'rsatish va hokazo);

–mahalliy sanoat korxonalarida (masalan, yog’ochni qayta ishlash, mahalliy xom ashyodan mahsulot tayyorlash va hokazo).

Boshqaruvning mazkur strukturasi tavsifistikasini qo’yidagi sxema shaklida ko’rsatish mumkin:

Boshqaruvning funktsional tuzilmasi uchun boshqaruv va ob’ekt funktsiyalari bo’yicha boshqaruv yacheykalari yaratish tavsiflidir. Bu yacheykalar bajarilishi shart bo’lgan qarorlarni boshqaruvning quyi pog’onasiga yoki bevosita ishlab chiqarish bo’g’inlariga etkazib beradi. Demak, boshqaruv funktsiyalar bo’yicha taqsimlanadi va funktsional bo’g’inlar tomonidan amalga oshiriladi, ular tomonidan tayyorlanuvchi boshqaruv qarorlari esa bajaruvchilarga kesishuvchan aloqa kanallari bo’yicha etkaziladi. Boshqaruvning funktsional tuzilmasiga misol qilib bosh mutaxassislarning, ya’ni bosh iqtisodchi, bosh mexanik, bosh texnolog, bosh metallurg, bosh konstruktor xizmatlari (bo’limlari, guruhlari), Shuningdek, korxonada bosh buxgalteriyasini ko’rsatish mumkin.

Boshqaruvning funktsional tuzilmasi amalda chiziqli tuzilma bilan kesishib o’tadi. Bunday sintez chiziqli yoki funktsional tuzilmaga qaraganda **boshqaruvning chiziqli-funktsional tuzilmasini** samaraliroq bo’lishi va keng tarqalishiga sabab bo’ladi. Bu holda boshqaruv ham chiziqli, ham funktsional rahbarlar tomonidan amalga oshiriladi.

Boshqaruvning funktsional strukturasi tuzilmasi afzalliklari quyidagilar:


*45 boshqaruv faoliyatini ixtisoslashtirish darajasining yuqoriligi;

*46 boshqaruv faoliyatining deyarli barcha sohalarini vakolat doirasida qamrab olish;

*47 ishlab chiqarish diversifikatsiyasining turli talab va shart-sharoitlariga moslashish imkoniyatlari;

*48 boshqaruv xizmatlari yoki bo’limlariga xodimlar tanlashning nisbatan osonligi.

Boshqaruvning funktsional strukturasi quyidagi chizma orqali aks ettirish mumkin:




8-chizma. Boshqaruvning funktsional tuzilmasi

Uning kamchiliklari qatoriga esa quyidagilarni kiritish mumkin:

- Yakkahokimlik tamoyilining buzilishi;
- kelishilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilish va bajarish hamda ularning kompleksligini ta'minlash qiyinligi;
- boshqaruvning yuqori pog'onalari uchun rahbar tanlashning murakkabligi.

Chiziqli-shtabli tuzilma boshqaruv aralash tuzilmasining bir ko'rinishi bo'lib, unga chiziqli struktura asos qilib olingan. Boshqaruvning har bir bo'g'inida shtablar tuzilib, uning tarkibiga muammolarni echish uchun malakali mutaxassislar taklif etiladi. Masalan, shtabli tuzilmalar tabiiy ofat, halokat va kulfatlarning oqibatlarini bartaraf qilish, Yangi mahsulot yoki texnologiyani o'zlashtirish, to'satdan yuzaga kelgan, odatiy bo'lmagan vazifalarni echishda tuzilishi mumkin. Bunday hollarda boshqaruv shtabiga rahbarlarning vakolatlaridan kam bo'lmagan haq-huquqlar, vakolatlar beriladi.



10-chizma. Boshqaruvning chiziqli-funksional tuzilmasi

“Ikki palatali milliy parlamentimizni tashkil etish masalasi bo’yicha 2002 yil 27 yanvarda o’tkazilgan referendum yakunlari va Shu asosda “Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to’g’risida”gi konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishi qonun chiqaruvchi hokimiyatni tubdan isloh qilishning asoslarini belgilab berdi.”³⁶

Boshqaruvning matritsali tuzilmalari turli xil bo’lib, ularning barchasi bitta tamoyilda - ishlab chiqarishni vertikal va gorizontal boshqarishda boshqaruv funktsiyalarini tashkiliy tuzilmalar o’rtasida qayta taqsimlash asosida yaratilgan. Bu tuzilmalar ilmiy tadqiqot institutlari, konstruktorlik byurolari, texnologik byurolar, shuningdek, ilmiy-tadqiqot va konstruktorlik izlanishlari olib boriluvchi yirik korxonalarda keng qo’llaniladi.

³⁶ И. А. Каримов. “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” // Халқ сўзи газетаси, 12.11.2010.

Boshqaruvning matritsali tuzilmalari rahbarlardan juda yuqori boshqaruv vakolatini talab qiladi. Bunday tuzilmadan foydalanganda yuzaga keluvchi muammo va vazifalarni echish uchun vaqtinchalik ijodiy guruhlarni tuzish mumkin. To'g'ri, buning uchun jamoa oldida yuzaga keluvchi loyiha topshiriqlarni bajarish uchun qo'shimcha xarajatlar talab qilinishi mumkin.

Boshqaruvning istalgan tashkiliy tuzilmasini loyihalashtirishda hamda amaliyotda qo'llashda tezkorlik, optimallik, ishonchlilik va tejamkorlik kabi asosiy talablarga javob bera olishiga e'tibor qaratilish lozim. Bu talablar qanchalik to'liq va yaxshi bajarilsa, korxonani boshqarish tizimining sifat ko'rsatkichlari shunchalik yuqori bo'ladi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, boshqaruv ob'ekti va boshqaruvchi tizim (boshqaruv apparati) o'rtasida, boshqaruv funktsiyalari yordamida tartibga solinuvchi ma'lum bir munosabatlar yuzaga keladi.

Boshqaruv funktsiyalari ob'ektiv jihatdan zarur va albatta qaytariluvchi xatti-harakatlar majmuasi bo'lib, mazmuni va yo'nalish maqsadlarining bir xilligi tufayli birlashib turadi. Boshqaruv funktsiyalari butun boshqaruv jarayoni davomida uzluksiz tarzda amalga oshiriladi hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish va bajarishning turli bosqichlarida turli xil salmoqqa ega bo'ladi.

Amaldagi tasnifga asosan boshqaruvning quyidagi funktsiyalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. **Rejalashtirish** – ishlab chiqarishni kengaytirish va korxonaning gullab-Yashnashi uchun ishlab chiqarish maqsadlarini belgilash va uning natijalariga erishish.

2. **Istiqbolni belgilash (prognozashtirish)** – joriy faoliyatni samarali tarzda olib borish hamda istiqbolni ko'ra olish va boshqaruv tizimini istiqbolga moslashtirish. Rejalashtirishdan farqli ravishda prognozashtirish ehtimollik tavsifiga ega bo'ladi.


3. **Tartibga solish** – ishlab chiqarishni, jamoani boshqarishda belgilangan ko'rsatkichlardan chetga og'ishlarni to'g'rilab borish.

4. **Tashkillashtirish** – kuch-quvvat va vositalarni ishlab chiqarish dasturini minimal xarajatlar asosida va bu xarajatlarning yuqori samaradorligi orqali amalga oshirishga yo'naltirish, amaldagi tashkilotchilik tizimini yangi yutuqlarga erishish va yangi vazifalarni bajarishga yo'naltirish.

5. **Nazorat** – joriy ko'rsatkichlarning belgilangan (dasturiy) vazifa(norma)larga mos kelish darajasini aniqlash.

6. Hisobga olish – korxonaning ma’lum bir vaqt davomida bajargan ishlariga Yakun Yasash.

7. Tahlil – ma’lumotlarni yig’ish, saqlash, qayta ishlash hamda ulardan boshqaruvni asoslash va boshqa vazifalari uchun foydalanish.



B o ' l i n m a l a r

11-chizma. Boshqaruvning matritsali strukturasi

Shuni qayd qilib o'tish kerakki, boshqaruv funktsiyalari o'rtasida qat'iy chegara yo'q. Boshqaruv faoliyatining bitta turi boshqaruvning bir nechta funktsiyalari belgilariga ega bo'lishi va ular o'zaro chambarchas bog'lanib ketishi mumkin. Shu bilan birga har bir funktsiya o'ziga xos

xususiyatlarga ega bo'lib, ularni bilish rahbarning professional mahorati shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Chiziqli boshqarish korxonaning tashkiliy tuzilmasini barpo qilish asosini tashkil qilib, butun boshqarish mexanizmining samarali harakatini ta'minlaydi. Shuning uchun ham chiziqli boshqarishni ratsional tashkil qilish bir qator talablarga javob berishga lozim. Birinchidan, bo'ysunadigan pog'onalarining soni qancha kam bo'lsa, uni boshqarish Shuncha oson bo'ladi. Iloji boricha kam odamlar boshqarish jarayoniga aralashadi. Bu esa boshqarish ob'ektini, holatini, barqarorligini ta'minlash imkoniyatini to'g'diradi. Ikkinchidan, chizikli boshqarishnn samarali harakat qilishi sharoitlaridan biri buyruklarni pastki bo'g'inlarga uni bevosita rahbari tomonidan berilishi hisoblanadi. Masalan, zavod direktori tsex boshlig'i xabarisiz, ya'ni bevosita tsex ustasiga buyruq berilishi noto'g'ri hisoblanadi. Amaliyotda agar bunday holatlar uchrab qolsa, demak chiziqli boshqarish tamoyili buzilgan hisoblanadi. Uchinchidan, chiziqli boshqarish tizimi rahbarlar va bo'ysunadigan shaxslarning ratsional nisbatini hisobga olgan holda tuzilishi lozim. Rahbar va boshliqlar sonining ko'pligi, odatda, mas'uliyatsizlikni keltirib chiqaradi va boshqarish operativligini susaytiradi.

Korxonani boshqarish tizimining barpo qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ikkinchi tamoyil bu funktsional tamoyildir. Bu tamoyil chiziqli boshqarish tizimidagi rahbarlar o'rtasidagi mehnat taqsimotidan kelib chiqadi. Buning ma'nosi Shundan iboratki chiziqli boshqarish tizimining har bir bo'g'ini ma'lum funktsiyani, yoki uning bir qismini bajaradi. Funktsional boshqarishning zaruriyati ishlab chiqarish tizimining murakkabligi va bu jarayonning xilma-xilligidan kelib chikadi. Ushbu xususiyatlar ma'lum darajada turli sohalar bo'yicha maxsus bilimga ega bo'lishni talab qiladi. Shuning uchun ham korxonani boshqarish va bu jarayon bilan bog'liq bo'lgan masalalarni hal qilish uchun ko'p mehnat va ko'pchilik odamlarning vaqti kerak bo'ladi.

Funktsional boshqarish bu alohida funktsiyalar bo'yicha boshqarishni amalga oshirishdir. Har bir funktsional bo'linmaning o'z rahbari bo'ladi. Ular ham yakkaboshchshshk tamoyili asosida harakat qiladi. Funktsional bo'g'inlarning hamma rahbarlari korxonani chiziqli boshqarish tizimi tarkibiga kiradi. Bu asosda chiziqli va funktsional boshqarishning birligi ta'minlanadi.

Funktsional boshqarish quyi pog'onadagi bo'limlar faoliyatini rahbarligini ta'minlab, bir funktsiya doirasidagi masalalarni hal qiladi. ya'ni, uni boshqarish doirasi va echadigan masalalari chegaralangan

bo'ladi. Funktsional bo'linmaning rahbarlari pastki bo'g'inlarga ma'muriy farmoyishlar berish huquqiga ega emaslar. Shuni qayd qilish joizki, ushbu sertarmoq va murakkab boshqarish nisbatan katta korxonalar uchun xosdir. Uncha katta bo'lmagan korxonalarda bu xil ancha oddiy kechadi.

Ishlab chikarishni tashkil kilish va korxonani boshqarishda raxbarning o'rni.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyotni muvaffaqiyatli rivojlanishi va takomilla Shuvining hal qiluvchi sharoitlaridai biri boshqarish kadrlari bilan olib borilayottan ishlarni doimiy sur'atda yaxshilashdan iborat. Amaliyot Shuni ko'rsatdiki, bozor munosabatlarning imkoniyatlari va ustunligidan samarali foydalanish aynan boshqarish kadrlarining va birinchi navbatda rahbarlarning aqli, ish bilarmonligi, yangi sharoitda boshqarish maqsadlari, tamoyillari va uslublarini qay darajada qo'llay bilish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi.

O'z vaqtida menejment nazariyasi klassiklari har qanday davlatni rivojlanishi uchun uchta asosiy omilga amal qilishni alohida ta'kidlab o'tgan edilar. Bularga insonlar, moliya siyosati, texnika va texnologiya kiradi. Birinchi o'ringa insonlarning ko'yilishi bejiz emas. Yapon, Amerika va Evropadagi ko'zga ko'ringan menejerlarning biznes sohasida erishgan yutuklarini ana Shu omillarga tayanib, ish ko'rganlari bilan bog'lash mumkin.

“Hukumatimizdan, joylardagi davlat hokimiyati organlari va korxonalar rahbarlaridan belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarni so'zsiz bajarish bo'yicha o'zaro muvofiqlashtirilgan ishlarni doimiy ravishda amalga oshirishni ta'minlash talab etiladi.”³⁷

Hozirgi sharoitda korxonalar rahbarlari rolining oshib borishi bir qator omillar bilan belgilanadi. Bularga korxonalaridagi sifatli o'zgarishlar, ishlab chiqarish hajmining oshishi, ishlab chiqarish jarayonlarining murakkablashishi, davrga xos bo'lgan yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish, iishchi-xodimlar mafkurasining o'zgarishi, boshqarishni shakl va uslublarining o'zgarishi, hamma sohada demokratlashtirishni amalga oshirilishi, davr talabi bilan rahbarlarning alohida o'rin egallashi va hokazolarni ko'rsatish mumkin.

Hozirgi sharoitda rahbarlar rolining oshib borishi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

³⁷ И. Каримов. “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади” // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

« turli mulk shakllarining vujudga kelishi (davlat, xususiy, aktsioner jamiyatlar, mahalla va hokazolar);

- xo'jalik yuritishning yangi shakllarini vujudga kelishi (aktsioner jamiyatlar, kontsern, korporatsiya, konsortsium, qo'shma korxonalar, xususiy korxonalar va hokazo);

- iqtisodiyotimiz hajmining o'sishga, iqtisoddagi sifatli o'sishlar, fan-texnika yutuqlarini amaliyotda qo'llash boshqarish qarorlari variantlarini ko'paytiradi, ularni tanlash muammolarini murakkablashtiradi;

- xo'jalik yurtishni noiqtisodiy yo'nalishlari rolining oshib borishi (ijtimoiy me'yorlar, iste'mol mezonlari, atrofdagi muhit muammolari va hokazo) boshqarish kadrlari va birinchi navbatda rahbarlarning mas'uliyatini oshiradi;

- bilim hajmining oshishi va ularni tuzilishining o'zgarishi, yangi fan sohalarning paydo bo'lishi faoliyat yo'nalishlarini tanlash imkoniyatini kuchaytiradi va rahbarlarni boshqarishga ta'sir qilish zarurligini kengaytiradi;

- bozor sharoitida boshqarish tizimining o'zidagi o'zgarishlar, hamma sohalarda demokratik tamoyillarning kirib kelishi;

- qonun ustuvorligini ta'minlash boshqarish qarorlarini qabul qilishda sub'ekt omilning rolini oshiradi;

- bozor mexanizmlarining ta'siri ostida bir qator yangi istiqbolli qarorlar hissasi oshadi, doimiy ravishda yangi muammolar paydo bo'ladi. Bularni o'z vaqtida aniqlab hal qilish, birinchi navbatda, rahbarlardan mahorat, ziyraklik va bilimdonlik talab qiladi.

Hozirgi zamonda ko'pchilik qarorlarning asosiy xususiyati Shunday iboratki, ular o'zlariga iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa yo'nalishlar nuqtai nazaridan yondoshishni talab qiladi. Aynan, rahbar o'zining boshqarish tizimida tutgan o'rniga qarab, yuqoridagi yondoshishni amaliyotga tatbiq qila olishi mumkin. Bundan tashkari, rahbarlar rolining oshib borishi axborotlarni ishlash jarayonini avtomatlashtirish, keng miqyosda kompyuter texnikasidan foydalanish bilan ham belgilanadi. yuqoridagi texnikadan keng ko'lamda foydalanish boshqarish xodimlarini hammaga ma'lum bo'lgan, noijodiy vazifalardan ozod qilib, asosiy diqqat e'tiborni eng, muhim masalalarga qaratishni talab qiladi. Shunday qilib, iqtisodiyot murakkablashib borgan sari rahbarlarning ham vazifalari murakkablashib boraveradi.

Rahbar ijtimoiy, professional va shaxs nuqtai nazardan olib tekshirilishi lozim. Shuni aytish joizki, har qanday xo'jalik rahbari eng

oldin bozor iqtisodiyoti sharoitida turli mulk shakllariga asoslangan mavjud iqtisodiy munosabatlar ustunligini amalga oshirish yo'llarini o'ylab topishi kerak. Bu bilan u yuqori darajadagi mas'ul ijtimoiy-iqtisodiy vazifani bajaragan bo'ladi. Ushbu vazifani bajarish uchun unda hamma imkoniyatlar mavjud. Eng asosiysi, unga kerak bo'lgan va huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlangan vakolat berilgan. Avvalo, bizning respublikamizda bajarilgan vazifalarning sifati va samaradorligi so'z bilan emas uni ishi bilan baholanishi yaxshi yo'lga ko'yilgan. Ushbu baho har bir faoliyatning iqtisodiy va ijtimoiy natijalari bilan belgilanishi lozim.

Xo'jalik rahbari o'zining eng asosiy ijtimoiy-iqtisodiy vazifasini muvaffaqiyatli bajarishi uchun yuqori darajadagi professional bo'lishi va uni amaliyotga joriy qipa olishi lozim va birinchi navbatda, mehnat jamoasining tashabbusini davlat tomonidan belgilangan maqsadga erishish jarayoniga jalb qila bilishi kerak.

Va nihoyat shuni qayd qilish joizki, xo'jalik rahbari birinchi navbatda insondir. Shuning uchun ham inson uchun xos bo'lgan xamma xususiyatlar rahbarga ham xosdir. U kuchli va kuchsiz bo'lishi mumkin. Yashash uchun sharoit yaratish afzalroq ekanligini tushunadi. Ko'pchilik rahbarlar ishdagi muvaffaqiyat uy-ro'zg'orini tinch ekanligiga bog'liq ekanligini ham yaxshi his qiladi. Dam olishning, mashg'ulotlarni o'zgartirib turishning bahosini yaxshi biladilar. Lekin o'zining shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun yaxshi moddiy imkoniyatlarga ega bo'lgan rahbarlar vaqt tansiqqligiga duch keladilar. Natijada o'zlarining yaxshi tilaklarini hayotda tatbiq qilmasdan qoladilar. Bularning hammasi oqibatda ularning sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, bu holdan serg'ayratli, tashabbuskor rahbarlarga ko'proq ziyon etadi. Shuning uchun ham rahbarlarni ijtimoiy, professional va shaxs tomonlarning birligi nuqtai nazaridan olib qaramaslik qarama-qarshi holatga olib kelishi mumkin. Bunday qarama-qarshilikni bartaraf qilish faqatgina jamiyat va rahbarlarni o'zlarining umumiy tirishqoqligi orqali amalga oshadi.

Boshqarish tizimida rahbarlarning alohida roli ularda doimo o'z ustida ishlash, bilimlarni takomillashtirib borish, alohida bilim sohalarini o'rganishni talab qiladi. Chunki, yuqoridagi ishlarni amalga oshirmasdan turib rahbar o'ziga berkitilgan vazifani samarali hal qilishi juda qiyin bo'ladi. Hech kimga bir umr rahbar bo'lish huquqi berilmagan. Faqat halol mehnat, faoliyatida tashabbus, yaxshi xo'jalik natijalari bilan rahbar o'zining rahbar degan nomini oqlay oladi.

Hozirgi sharoitda rahbarlarning rolini aniqlash ularni boshqarish tizimida tutgan o'rnini belgilash imkoniyat yaratadi. Bozor iqtisodiyoti

sharoitidagi zamonaviy korxonalar rahbari a) peshqadam, b) boshqaruvchi, v) diplomat, g) tarbiyachi, d) innovator, e) insoniy mavjudot tariqasida namoyon bo'radi, Bularning har birini amaliyotda sinab ko'rish rahbardan juda ko'p sifat va fazilatlarga ega bo'lishni talab qiladi. Bu borada mehnatni ilmiy tashkil qilish nazariyasining asoschisi F.Teylor menejerda quyidagi sifatlarini ajratib ko'rsatadi: akl, ma'lumot, texnik bilimlar, odoblilik, g'ayratlilik, qat'iyatlilik, rostgo'ylik, mulohazalik. Menejmentning yana bir klassiki A.Fayol esa menejer oldindan ko'ra bilish va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi, o'z sog'lig'i bilan ajralib turishi, rivojlangan aqlu zakovat sohibi bo'lishi, yuksak madaniy va axloqiy darajaga ega bo'lishi kerak, deb ta'kidlagan edi. Qolaversa, hozirgi paytda rivojlangan mamlakatlar firma va kompaniyalarda menejer qanaqa sifatlarga ega bo'lishi kerakligi to'g'risida o'zlarining nuqtai nazarlari mavjud.

Menejment masalalariga oid chet el adabiyotlari bilan tanishish Shuni ko'rsatdiki, ko'pchilik AQSH, Evropa va Osiyo-Tida okeani regionidagi raqobatga bardosh beradigan firma va kompaniyalar qat'iylik bilan menejerlik san'atini o'rganib, uni amaliyotda ustalik bilan tatbiq qilish natijasida katga muvaffaqiyatlarga erishmoqdalar. Bu, o'z ifodasini, o'z vaqtini boshqarish, xizmatga oid xatlarni tayyorlash, odamlar bilan munosabat qilish, auditoriya oldida so'zga chiqishi, muzokaralar olib borish va hokazolarda topdi.

“Shuningdek, boshqaruv tizimini takomillashtirish, ortiqcha byurokratik to'siqlarni bartaraf etish maqsadida “Tadbirkorlik faoliyati sohasida ruxsat berish tartib-qoidalari to'g'risida”gi Qonunni ishlab chiqish va qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi.”³⁸

Bugungi kunda boshqaruv tizimini mukammallashtirish sohasida quyidagi tendentsiyalar yuzaga kelmoqda: boshqaruv faoliyatining maqsadli tavsifini kuchaytirish; boshqaruvning moslashuvchan tuzilmalarini yaratish va boshqaruv apparatining faoliyatini yaxshilash, jumladan, ortiqcha boshqaruv bo'g'inlarini qisqartirish hisobiga; ishlab chiqarishni boshqarishda jamoalar rolining o'sishi va ularning yuqori natijalarga erishishga yo'naltirilganligi; mehnat faoliyati ijtimoiy sharoitlarining yaxshilanishi. Bu tendentsiyalarga asosan korxonalarining boshqaruv organlari tuzilmalarini takomillashtirish yo'nalishlari ham

³⁸ И. А. Каримов. “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” // Халқ сўзи газетаси, 12.11.2010.

aniqlanib, ularga avvalo sifat ko'rsatkichlari asos qilib olingan. Bu ko'rsatkichlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

Optimallik – tuzilma bo'linmalari o'rtasida eng kam boshqaruv bo'g'inlariga ega bo'lgan holda o'zaro aloqalarni ratsional tarzda o'rnatishdir. Shu sababli ko'p bo'g'inlilikni qisqartirish boshqaruv tizimini takomillashtirish oldiga qo'yiluvchi asosiy talablardan biri hisoblanadi.

Tezkorlik (operativlik) – barcha funktsional bo'linmalarining, zarur hollarda ishlab chiqarish bo'linmalarining, boshqaruv qarorlari o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash uchun o'zaro aloqalar aniqlik bilan olib borilishi.

Ishonchlilik – axborotlarni o'z vaqtida olish va boshqaruv qarorlarini bajaruvchilarga va bajarish joylariga o'z vaqtida etkazishni ta'minlaydi. Ishonchlilik va tezkorlik joriy va istiqboldagi boshqaruv tizimining samaradorligida muhim turtki hisoblanadi.

Tejamkorlik – bu, asosan boshqaruv tizimida maksimal samaraga erishgan holda boshqaruv apparati va uning xarajatlarini kamaytirishga, ya'ni ishlab chiqarish samaradorligining o'sishiga erishishdir.

Aytib o'tish kerakki, korxonalar jamoasi va ishlab chiqarishni boshqarishni takomillashtirish sohasida barcha uchun bir xil yo'l mavjud emas.

Mazkur vazifa muayyan sharoit, holat va imkoniyatlardan kelib chiqqan holda yuzaga keladi va hal qilinadi. Biroq bunda ham o'zgarmas bir qoida mavjud bo'lib, unga ko'ra, har bir o'zgartirish, yaxshilanish va shakl o'zgartirishlar avvaldan o'ylab chiqilishi hamda ilmiy jihatdan asoslab berilishi zarur.

Qisqacha xulosa

Xo'jalik mexanizmining mazmuni jamiyat iqtisodiy hayotining shakliga bog'liq bo'ladi. Bozor munosabatlarining rivojlanishi xo'jalik yuritishning yangi shakl va usullari shakllanishi bilan bog'liqdir. Ishlab chiqarishni boshqarishni sub'ektlar va organlar tomonidan odamlar va iqtisodiy ob'ektlarga, resurslardan iloji boricha oqilona foydalanish va eng ko'p daromad olish maqsadida, ta'sir o'tkazish jarayoni sifatida ko'rib chiqish mumkin.

Boshqaruv tizimi quyidagilardan iborat bo'ladi: boshqaruvning maqsad va vazifalarini belgilash, boshqaruvning optimal tashkiliy -strukturasini yaratish, xodimlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, axborot bilan ta'minlash, axborotga texnik ishlov berish vositalari, tahlil, boshqaruv qarorlarini bajarish ustidan nazorat. Boshqaruv rejalashtirish,

tashkillashtirish, marketing, muvofiqlashtirish, mehnat motivatsiyasi, nazorat kabi bir qator funktsiyalarni bajaradi.

Qaror qabul qilish tizimi va uni o'z qo'l ostidagilarga nisbatan qo'llash qobiliyati boshqaruv stilini ifodalaydi.

Tashkiliy, taqsimot va ijtimoiy-psixologik usullardan tashqari bozor sharoitlarida iqtisodiy vositalar (kreditlar, daromad va xarajatlar, foyda, soliqlar va hokazo) ham keng tarqalmoqda.

Zamonaviy ishlab chiqarish korxonasi murakkab, dinamik tizim bo'lib, uning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga korxonadagi ishchidan ta rahbargacha bo'lgan barcha bo'g'inlar faoliyatini hisobga oluvchi boshqaruvning tashkiliy tuzilmalarini Yaratish orqali erishiladi. Boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi boshqarilayotgan ob'ektlarning funktsional vazifalariga va miqyosiga mos kelishi lozim.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Korxonani boshqarish deb nimaga aytiladi?
2. Korxonani boshqarishni rivojlanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
3. Korxonani boshqarishning umumiy belgilari nimalardan iborat?
4. Korxonani boshqarishning tashkiliy tuzilishi nimalardan iborat?
5. Korxonada xodimlarini boshqarish deganda nimani tushunasiz?
6. Korxonani boshqarishda korxonada xodimlarining xulq-atvori qanday ta'sir etadi?
7. Korxonada resurslarini boshqarishning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
8. "Boshqaruv" va ishlab chiqarishni boshqarish tushunchalarining mohiyatini ochib bering.
9. Ishlab chiqarishni tashkil etishda menedjmentning asosiy maqsadi qanday?
10. Korxonada xo'jalik yuritish mexanizmi nimani anglatadi?
11. Korxonada boshqaruv organlarining asosiy vazifalarini sanab bering.
12. Ishlab chiqarishni boshqarishning asosiy texnik qoidalari (talablari) va ularning zamonaviy bosqichda qanday tarzda o'zgarishini tushuntirib bering.
13. Ishlab chiqarishni boshqarishning qanday stil va usullarini bilasiz?
14. Korxonada ishlab chiqarishni boshqarishning har xil tuzilmalarini tavsiflab bering.

5-bob. Korxonada biznes-rejalashtirish va prognozlash

5.1. Bozor iqtisodi sharoitida rejalashtirishning metodologiya asoslari. Rejalashtirish usullari va bosqichlari

5.2. Rejalashtirish tamoyillari, uslublari va kursatkichlari. Korxonada rejalashtirish tizimi va rejaning turlari

5.3. Korxonada faoliyatiga ta'sir kiluvchi omillar: tashqi va ichki muhit. Korxonada rejasining bo'limlari va ko'rsatkichlari

5.4. Biznes-reja tushunchasi, turlari va tarkibi. Kichik biznes, xususiy tadbirkorlik sub'ektlari uchun biznes- reja ishlab chiqish

Tayanch iboralar: Rejalashtirish, biznes-reja, indikativ reja, prognoz, strategik rejalashtirish, joriy rejalashtirish, bashorat, rejalashtirish uslubiyati, balans usuli, normativ usuli, norma, normativ, rejalashtirish tamoyili, texnik-iqtisodiy rejalashtirish, tezkor ishlab chiqarish rejalashtirish, kalendarъ rejalashtirish, dispetcherlashtirish, xususiy ko'rsatkichlar, miqdor ko'rsatkichlari, sifat ko'rsatkichlari.

5.1.Bozor iqtisodi sharoitida rejalashtirishning metodologiya asoslari. Rejalashtirish usullari va bosqichlari

Bozor iqtisodi shakllanishi sharoitida iqtisodiy fanlarning vazifalaridan biri rejalashtirish munosabatlarini to'g'ri va ilmiy asoslashdan iboratdir.

Iqtisodiyot fanining asoschilaridan biri qadimgi grek faylasufi Aristotelning aytishicha, har qanday ne'mat yaratish har joyda, har tomonlama ikki xil shartga bog'liq, ya'ni, birinchisi, har qanday faoliyatni kelajak maqsadini to'g'ri aniqlab olish, ikkinchidan, maqsadga erishishga munosib vositalarini topishdan iboratdir.

“Ma'lumki, O'zbekiston 1991 yili o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng umrini o'tab bo'lgan mustabid, ma'muriy-buyruqbozlik, rejali-taqsimot tizimidan voz kechib, “o'zbek modeli” deb nom olgan o'z taraqqiyot yo'lini tanlab oldi.”³⁹

Ushbu iboralardan kelib chiqadiki, tarixan insoniyat o'z faoliyatini amalga oshirishda abstrakt fikrlash asosida uni doimo prognoz qilgan va

³⁹ И. А. Каримов. “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” // Халқ сўзи газетаси, 12.11.2010.

rejalashtirgan.

Rejalashtirish bozor bilan umuman mos kelmaydi, deb hisoblagan bozor munosabatlari tarafdorlari ham bugungi kunda o'zlarining avvalgi fikrlarida kattiq turmayapdilar. Vaqt va hayotning o'zi, xususan ko'plab xorijiy kompaniya, firma va korxonalar tajribalari rejalashtirish va bashorat qilishning muhim ahamiyat kasb etishini tasdiklaydilar.

Korxonalar bu nafaqat bozor sub'ektidir, u shu bilan bir paytda davlat va boshqaruv tizimlarining eng pastki, bosh elementi ham hisoblanadi. U

Bugungi kunda bozorni pul resurslari bilan zo'r berib to'ldirish davom etayotgani fond va xomashyo bozorlarida sun'iy ravishda oshirib borilgan spekulyativ narxlarning yanada ko'tarilib ketishiga, ta'bir joiz bo'lsa, moliyaviy ko'piklarning battar avj olishiga, inflyatsiyaning jilovlab bo'lmas darajada o'sish xavfining kuchayishiga olib kelmoqda.

Islom Karimov.

davlat boshqaruv tizimi va siyosatidan to'liq mustaqil bo'la olmaydi.

Iqtisodiyoti markazlashgan mamlakatlarda bozor munosabatini erkinlashtirish yunalishida amalga oshirilgan

islohatlar ishlab chiqarish jarayonini chetlab utib, Shu bilan bir paytda mulkchilik shaklidan kat'iy nazar korxonalarda mehnat motivatsiyasi va rejalashtirish tizimini sezilarli ravishda o'zgartirib yubordi.

“Ayni paytda biz o'z vaqtida tanlab olgan iqtisodiy taraqqiyot modelining naqadar too'g'ri ekanini va amalda o'zini to'la oqlaganini hayotning o'zi yana va yana tasdiqlab bermoqda.

Ushbu modelning tamoyillari asosida mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilish bo'yicha har tomonlama va chuqur o'ylangan tadrijiy taraqqiyot dasturini izchil amalga oshirganimiz inqirozning, jahon bozorida keskin o'zgarish va beqarorlikning iqtisodiyotimizga, moliya va bank tizimiga salbiy ta'sirini sezilarli darajada kamaytirish imkonini berdi.”⁴⁰

Agar korxonalar rejani yuz foiz bajargan bo'lsa bu «yaxshi», 101% va undan ortiq bajarsa «a'lo» baholangan. Ko'plab korxonalarda rejani bajarish jamoaning karzi, oshirib bajarish esa uning sharafi degan shiorlar osig'lig' turishi bejiz emas edi. Natijada korxonada rejalashtirishning asosiy vazifasi rejani bajarish va oshirib bajarishga qaratilgan bo'lib, bu narsa qaysi yillar bilan nimalar evaziga erishilishi unchalik ahamiyat kasb etmagan. Bu esa, o'z navbatida, ko'plab korxonalar rahbariyatini kuyidagi yunalishlardan birida xarakat qilishga undagan:

⁴⁰ И. Каримов. “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади” // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

1) yuqori turuvchi boshqaruv organidan bajarish oson bo'lgan topshiriklar olishga intilish;

2) olingan topshiriqni, iqtisodiy va ijtimoyi zarar keltirsa ham, xar qanday narx evaziga bajarish.

Rejalashtirish metodologiyasi rejalashtirish jarayonining ichki logikasini yoritib beradi. Rejalashtirish metodologiyasi rejalashtirish jarayonini tashkil qilish, uni ishlab chiqish va joriy kilish prishshplarini metodlarini tarkibini. tartibini, etaplarini va ko'rsatkichlari sistemasini asoslab beradi.

Rejasiz har qanday g'oyalar, maqsad, safsataga aylanib qoladi. Har kanday ijtimoiy tizimda o'z faoliyatini yurgizishda insoniyat uchta bir-biri bilan tig'iz bog'liq bo'lgan fundamental muammolar bilan to'qnashadi. Bozor iqtisodi sharotida shakllangan iqtisodiy nazariya u muammolarni quyidagicha ta'riflaydi.

Shuni yana bir bor eslatib o'tmoqchimanki, yurtimizda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari 2008 yilda 9 foiz, 2009 yilda 8,1 foiz, 2010 yilda esa 8,5 foizni tashkil etdi. Jahon moliya institutlarining xulosasiga ko'ra, bu dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biri ekani albatta barchamizga mamnuniyat bag'ishlaydi.

Islom Karimov.

Birinchiidan, nima ishlab chiqarish va qancha miqdorda?

Ikkinchiidan, qanday ishlab chiqarish va qancha xarajatlar zarur bo'ladi?

Uchinchiidan, kim uchun ishlab chiqariladi va ular qanday taqsimlanadi?

Bozor iqtisodiyotining shakllanishi va rivojlanish tarixiga nazar solinsa, rejalashtirish boshqarishning asosiy qoidasi (printsipi), asosiy omili sifatida hayotda tarixan ishlatilib kelingan.

Fredrix Uinslou Teylor (1886-1915) hozirgi zamon menejmentining asoschisi deb hisoblangan, ishlab chiqarishni tashkillashtirish nazariyasini yaratgan. Uning "Menejmentni ilmiy printsiplari" nomli asarida mehnatni tashkil qilish qonuniyatlari to'g'risidagi bilimlarni qat'iy ilmiy tizimi, mehnatni tashkil qilish, vaqtni o'rganish usullari (xronometraj), tannarxni hisoblashning matematik usullari, ish haqini differentsiatsiya qilish, mehnat jarayonini tahlil qilish va uning asosida rejalashtirish, tashkil qilish masalalari asoslangan. F.Teylor nafaqat yuqoridagi qoidalarni nazariy asoslagan, ularni ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq qilgan.

Genri Lodrens Gamnt (1861-1919) korxonalar faoliyatini tezkor rejalashtirish va boshqarishga asos solgan. Uning "Grafigi Gamnta" nomi

bilan mashhur bo'lgan grafiklarni rejalashtirish tizimi ishlab chiqarish korxonalarida keng foydalanilgan.

Gorrington Emerson (1853-1931) mehnat unumdorligini oshirishni 12 ta qoidasini ishlab chiqan. Ularga boshqarishni boshlang'ich nuqtasi sifatida maqsadni aniqlash; kamchiliklar va nuqsonlarni tan olish va sababini axtarish; xodimlar faoliyatini reglamentatsiya va nazorat qilish hamda moddiy rag'batlantirish; ishlab chiqarish jarayoni elementlarini normalashtirish, doimiy, to'la, real va tezkor hisob-kitob qilish, rejalashtirish kabi masalalarni kiritgan.

Germaniya Federativ Respublikasi Kantsleri Lyudvig Erxard (1950-1960) iqtisodiy reformalar o'tkazgan va reformaning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida indikativ rejalashtirishni joriy qilish bo'lib hisoblangan. Indikativ rejalashtirishi indikativ ko'rsatkachlarni tasdiqlashdan iborat bo'lib, ularning bajarilishini ta'minlash uchun qudratli iqtisodiy, huquqiy, ma'muriy dastaklar (instrumentlarni) ishlatishni ko'zda tutgan. Jahon iqtisodiyot nazariyasi yutuqlari va tajribasini ishlatish asosida indikativ rejalar chuqur ilmiy asosda ishlab chiqilib, uni tayyorlashga yuqori kasbiy malakaga ega bo'lgan iqtisodchilar, olimlar jalb qilingan.

Korxonalar, firmalar faoliyatini rejalashtirish ilmiy asoslangan holda tashkil qilinadi. CHet el adabiyotlarida rejalashtirishni tashkil qilishni asosan ikki xil usuli keltiriladi. Birinchisi, "Bgeak-dawn" - Yuqoridan pastga usuli, ikkinchisi, "buifd-ir" - pastdan yuqoriga usuli. Birinchi usulni mazmuni korxonalar rahbariyati uning maqsad va vazifalarining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi, quyi bo'limlarda ular detallashtirilib, siljish jarayonida umumiy rejaga kiritiladi. Ikkinchi usul bo'yicha ko'rsatkichlarni miqdori rejalashtirgan davrga quyi bo'limlarda ishlab chiqiladi va rahbariyat ularni umumlashgirib, korxonani umumiy rejasi-anikdanadi,

Rejalashtirishni bozor munosabatlariga mos kelmasligi qalbaki asoslanib -kelinganligi bizlarga hozirgi kunda ayon bo'lib turibdi. Bunday nazariyaning asosida "**markazlashgan-buyruqbozlik**" **konseptsiyasi** yotgan bo'lib, xalq xo'jaligini yagona reja asosida boshqarish, uning barcha sohalarini faqatgina markazdan turib rejalashtirish g'oyalari yotgan edi. Mutanosib rivojlanishni tug'ridan-to'g'ri markazdan rejalashtirish deb tushunildi. Hozirgi kunda, Shu sababli iqtisodiy adabiyotlarda, tadbirkorlar, xo'jalik rahbarlari va oddiy odamlar ongida bozor iqtisodiyotida rejali mutanosib rivojlanish qonuni harakat qilmaydi degan taassurot yo'qolmagan.

“Biz islohotlarni inqilobiy usulda, ya’ni “**shok terapiyasi**” yo’li bilan amalga oshirishdan ongli ravishda voz kechib, tadrijiy taraqqiyot yo’lini tanlab olganimiz tufayli xalqimizni qanday ogir oqibatlariga olib kelishi mumkin bo’lgan iqtisodiy va ijtimoiy to’fonlardan asrab qolishga muvaffaq bo’lganimizni bugun hayotning o’zi tasdiqlab bermoqda.”⁴¹

Shunday qilib, rejali mutanosib rivojlanish qonuni insoniyat jamiyatini rivojlanishining barcha pog’onalari (formatsiyalarida) mulk shaklidan, boshqarish tizimi shaklidan qat’iy nazar harakatda bo’lib kelgan va u insoniyat jamiyatiga taalluqli umumiy iqtisodiy qonun bo’lib hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotiga xo’jalik faoliyatini rejalashtirish emas, markazlashgan-buyruqbozlik qoidasiga asoslangan, davlat tomonidan direktiv ravishda jamiyatning barcha sohalarini yag’ona xalq xo’jaligi rejasi asosida tartibga solish mos kelmaydi. Bozor iqtisodiyoti rejalashtirish nazariyasi va amaliyotini inkor qilmaydi. Bozor iqtisodiyotiga "reja-hukm" emas, "reja-prognoz" mos keladi. Lekin, bu deganimiz bozor iqtisodiyotida umuman "reja-hukm" ishlatilmaydi degan ma’noni tushuntirmaydi, ayrim sohalarda davlat tomonidan qat’iy rejalar ishlatiladi. Masalan: mudofaa sohasida, ayrim davlat ahamiyatiga ega bo’lgan strategik tarmoqlarda, davlatlararo munosabatlarda va hokazolarda.

Rejalashtirish - maqsadni belgilash, unga etish vositalarini aniqlash va harakat yo’llari to’g’risida muntazam ravishda dastur ishlab chiqish jarayonidir.

Rejalashtirish ko’p qirrali, murakkab jarayondir. Tuzilgan reja yoki korxonada dasturi nima qilish, kim bajaradi, qachon va qanday bajaradi degan savollarga ochiq, to’la va asoslangan javob berishi shartdir.

Rejalashtirish - xo’jalik yuritishda ob’ektiv iqtisodiy qonuniyatlardan ongli ravishda foydalanishdir.

Rejalashtirish - bu korxonani tashkil etish, uning faoliyatini va taraqqiyotini belgilaydigan rejani ishlab chiqish hamda uni amalga oshirish ustidan nazorat qilish jarayonlaridir.

Rejalashtirish yordamida korxonalar mehnat, moddiy va moliyaviy resurslardan oqilona va samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo’ladi.


"O’zbekiston Respublikasidagi korxonalar to’g’risida"gi Qonunning 20-moddasida qayd etilganidek, "Korxonada o’z faoliyatini mustaqil

⁴¹ И. А. Каримов. “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” // Халқ сўзи газетаси, 12.11.2010.

rejalashtiradi va xom ashyo resurslari va materiallarning mavjudligini hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulotga, bajarilayotgan ishga, ko'rsatilayotgan xizmatga bo'lgan talablarni hisobga olib, tarakqiyot istiqbollari belgilaydi".

Rejalashtirish bir necha bosqichdan iborat bo'ladi. Ularni umumlashtirib uch bosqichga bo'lish mumkin.


Boshlang'ich bosqichda g'oyalarni shakllantirish, maqsadni aniqlash, ma'lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, rejalashtirilayotgan ko'rsatkichlarning yo'nalishlarini aniqlash, istiqbolni belgilashdan iborat bo'lishi kerak. **O'rtanchi bosqichi** ko'p variantli rejani tuzish, xo'jalik sub'ekti rahbariyati tomonidan ko'rib chiqish, uning optimal variantini ma'kullash. **Oxirgi bosqichi** qabul qilingan rejani bajaruvchilarga etkazish, bajarilishini ta'minlashni chora-tadbirlarini ko'rish va nazorat qilishdan iborat bo'lishi kerak deb hisoblaymiz. Ushbu bosqichlarni standart sifatida qabul qilmaslik kerak. Rejalashtirishning turlari va ko'rsatkichlari, rejalashtirilayotgan faoliyatga qarab bosqichlarni kengaytirish, boshqa ketma-ketlik shakllarini ishlatish mumkin.



1-chizma. Korxonada faoliyatni rejalashtirishni tashkil etishning tarkibiy tuzilishi

Jahon amaliyotida rejalashtirishning alohida bosqichlari, ya'ni rejalashtirish jarayonining ketma-ketligi ishlab chiqilgan va unga rioya

qilishlik bu jarayon bosqichlarini logik bog'liqligini ta'minlaydi.
Strategik rejaning bosqichlari 2-chizmada berilgan.




2-chizma. Strategik rejaning bosqichlari

Rejani ishlab chiqish jarayoni ham uning turlariga qarab alohida bosqichlardan iborat bo'ladi. Masalan: uzoq muddatli rejalashtirish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga olishi mumkin (3-chizma).

Uzoq muddatli rejalar quyidagi tartibda tuzilishi ham korxonalar tajribasida ishlatilib kelinmoqda: - korxonaning maqsadi, investitsiya va ishlab chiqarishni takomillashtirish, resurslarning ishlatilish samarasi, boshqarishni takomillashtirish, raqobat vaziyatlarining tahlili, korxonaning tarkiblarining resurslari, ularning samaradorligi kabilar.

Marketing tadqiqotlari asosida korxonaning



3-chizma. Uzoq muddatli rejalashtirishning bosqichlari

Chet el korxonalarining tajribasi Shuni ko'rsatadiki, rejalarning bajarilishi qat'iy xarakterga ega. Rejalarda asosiy masalalar o'z ifodasini topadi. Masalan: ishlab chiqarishning assortimenti, foyda (yoki daromad) darajasi, xarajatlar miqdori, kapital mablag'larning samarasi kabilar. Bunday bo'limlarning har biri bo'yicha aniq chora-tadbirlar, konkret javobgarlar aniqlaniladi. Alohida bo'limlar bo'yicha (kalendar) taqvim rejalar tuzilib, kim nima qiladi, qanday bajaradi kabi savollarga javoblar belgilab qo'yiladi.

“Jahon miqyosida konvertatsiya qilinadigan asosiy valyutalarning beqarorligi jiddiy xavotir uyg'otmasdan qolmaydi. Bu, birinchi navbatda, rivojlanayotgan mamlakatlarning ushbu valyutalarga bo'lgan ishonchiga jiddiy putur etkazmoqda.”⁴²

Rejalashtirish jarayoniga ko'yiladishn talablarni quyidagicha ifodalash mumkin:

- korxonalarining rivojlanish g'oyalarsii, maqsadini aniqlash;
- asosiy maqsadga erishishni ta'minlaydigan tijorat g'oyalarlarini namoyon qilish;
- rejalashtirish-uzluksiz jarayon bo'lib, barcha jamoaning ijodiy yondashishini, rag'batlantirishni taqozo qiladi (jamo a'zolari rejalashtirish jarayonida faoa qatnashishi, pirovard natijalarda ularning ish haqi undan bog'liqdigidadir);
- reja barcha funktsional bo'limlarni, mutaxassislarni, boshliq bilan uning qaramog'idagi xizmatchlarni o'zaro ta'siri va tig'iz

⁴² И. Каримов. “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараккиётини юксалтириш, халкимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади” // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

bog'lanishda, birgalikda optimal aniqlashga erishish asosida tuzilishi kerak;

- bozor konʻyukturasi o'zgarish ehamollariga mo'ljallangan alternativ variantlar mavjud bo'lishi shart;

- bozor iqtisodi sharoitida barcha resurslardan (ular chegaralangan) oqilona, ratsional foydalanish, xarajatlarning tejamliligini, natijalarning optimalligini ta'minlash;

- korxonada faoliyatini chuqur, har tomonlama baholash maqsadida uning samaradorligi me'zonini, ko'rsatkichlarini aniqlash;

- korxonada faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash, ularning ta'sir qilish darajalarini chuqur tahlil qilish, asoslash, imkoniyatlarni, Yangi rezervlarini aniqlash;

- va nihoyat ishlab chiqarilgan hamda qabul qilingan dasturning bajarilishini ta'minlash va nazorat qilish kabilardir.

Tadbirkorlik – faoliyatining muvaffaqiyatga erishishi ko'p jihatdan ishlab chiqarishni ichki rejalashtirishning sifatiga bog'liq bo'ladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda turli mulkchilik shaklidagi, turli soha va tarmoqlarga taalluqli 800 mingdan ortiq korxonada mavjud bo'lib, ulardan 500 mingga yaqini kichik va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari hisoblanadi. Ularni ishlab chiqarish faoliyati shubhasizki, rejalashtirish va boshqarish ob'ekti bo'lib, bozorga va iste'molchilarga talabini qondirishga yunaltiladi.

5.2. Rejalashtirish tamoyillari, uslublari va kursatkichlari.

Korxonada rejalashtirish tizimi va rejaning turlari

Jamiyatning siyosiy ustkurmasi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitidan qat'iy nazar rejalashtirishni umumiy qoidalari (printsiplari) mavjud. Ular insoniyat taraqqiyotining barcha formatsiyalarida u yoki bu darajada, ayrim hollarda rejalashtirish to'g'risida ilmiy asoslangan fikr yuritishdan chetda bo'lgan holda ishlatilgan.

Rejalashtirishning yana bir muhim tamoyili **ilmiylik** bo'lib, u avvalo tayyorlanayotgan rejalar va ishlab chiqarishni rivojlantirish dasturlariga, Shuningdek, fan-texnika taraqqiyoti talablari, raqobatchilik va bozor talablarini hisobga olishga asoslanadi. Rejalashtirishning ilmiyligi, jonli

mehnat va mahsulotga aylangan mehnat xarajatlarining eng kam miqdorida iloji boricha yuqori natijalarga erishishga, shuningdek, korxonada xodimlari manfaatdorligini oshirishga ko'maklashadi.

Komplekslilik tamoyili ishlab chiqarishni, birinchidan, zamon va makonda, ikkinchidan, ishlab chiqarishni boshqarishning gorizontal va vertikalida, uchinchidan, ishlab chiqarishning resurs asoslarini ta'minlashda, to'rtinchidan, ishlab chiqarishdagi "tor joylarni" hisobga olish va ularni yo'qotish chora-tadbiralrida, beshinchidan, xodimlarning o'z mehnatlari natijasidan moddiy va ma'naviy qoniqishida, oltinchidan, korxonaning mo'ljallanayotgan daromad yoki foyda olishini amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Proportsionallik nafaqat ishlab chiqarishni rejalashtirishda, balki ishlab chiqarishni boshqarishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zarur proportsiyalarga amal qilish ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchining tsexlar va ish joylari bo'yicha hamda ishlab chiqarish bosqichlarida to'g'ri taqsimlanishiga va ulardan to'g'ri foydalanishga ko'maklashadi. Proportsiyalarga amal qilmaslik esa, aksincha, ishlab chiqarishning ba'zi uchastkalarda kuchayib, boshqalarida pasayishiga, ya'ni disproportsiyalarning vujudga kelishiga hamda korxonalarining noritmik tarzda faoliyat yuritishiga sabab bo'ladi. Zaruriy proportsionallikni ta'minlashda ishlab chiqarishni tashkil etishni texnik-iqtisodiy normalashtirish katta rol o'ynaydi.

"Iqtisodiyotimizda 2010 yili yuqori o'sish sur'atlari ta'minlanib, **aholining real daromadlari 123,5 foizga oshdi, o'tgan yilda inflyatsiya darajasi 2009 yildagi 7,4 foiz o'rniga 7,3 foizni tashkil qildi.** Bu avvalambor qat'iy, shu bilan birga, puxta o'ylangan pul-kredit siyosati va inqirozga qarshi ko'rilgan samarali chora-tadbirlarimizning natijasidir."⁴³

Rejalashtirishning uzluksizligi ishlab chiqarishni va umuman, korxonada faoliyatini tashkil etishning muhim tamoyili hisoblanadi. Bu tamoyil amalda joriy rejalarning istiqboldagi rejalar bilan, istiqboldagi rejalarning esa bashoratlar (prognoz) bilan bog'liq bo'lishida o'z aksini topadi. Boshqacha qilib aytganda, rejalashtirish qisqa muddatli tavsifga ega bo'lgan indikativ reja tabiatiga mos kelmovchi, yanvardan martgacha yoki martdan dekabrgacha, ya'ni "...dan" "...gacha" tamoyili asosida amalga oshirilmasligi lozim. Rejalashtirishning "...dan" "...gacha" tamoyilini inkor qilganda biz avvalo vaqt bo'yicha rejalashtirish

⁴³ И. Каримов. "Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараккиётини юксалтириш, халкимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади" // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

uzilishining oldini olishni ko'zda tutamiz. Masalan, o'sha indikativ reja o'z davomiga ega bo'lishi, ya'ni korxonada o'z faolitetini yanvar - mart oylariga rejalashtirganda keyingi davrlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vazifalarni ham, albatta, bozor kon'yunkturasi, iste'molchilar manfaati va ishlab chiqarish holatlarining o'zgarishini ko'zda tutishi lozim. Bu vazifa asosan yil davomida amalga oshiriluvchi rejalarni aniqlashtirish va muayyanlashtirish yo'li bilan bajariladi.

1-jadval

YAIM ishlab chiqarish tarkibi (umumiy hajmga nisbatan foizda)

	Yillar				
	2000	2005	2008	2009	2010
Sanoat	14,2	21,1	22,3	23,6	24
Qishloq xo'jaligi	30,1	26,3	19,4	18,2	17,5
Qurilish	6,0	4,8	5,6	7,4	7,7
Transport va aloqa	7,7	10,6	12,7	11,9	12,4
Savdo va umumiy ovqatlanish	10,8	8,8	9,1	9,1	9,2
Boshqa tarmoqlar	18,7	17,8	21,5	23,1	22,2
Sof soliqlar	12,5	10,6	9,3	6,7	7,0

Manba: O'zR Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Optimallik ham rejalashtirish tamoyillari qatoriga kiradi. Rejalar barcha ishlab chiqarish resurslaridan chiqitlar va yo'ldosh mahsulotlardan keng foydalanishni inobatga olgan holda iloji boricha ratsional va unumli foydalanishni ta'minlashi hamda yuqori natijalarga erishish uchun eng samarali yo'llarni tanlashi kerak.

Rejalashtirishning optimalligiga iqtisodiy-matematik usullar va elektron hisoblash mashinalarini qo'llash, rejalarining bir nechta variantlarini ishlab chiqish yordamida erishiladi. Ko'p variantlilik eng tejamkor reja varianti yoki korxonada faoliyati dasturini tanlashga imkon yaratadi.

Moslashuvchanlik rejalashtirishning bozor sharoitlaridagi muhim tamoyili hisoblanadi. U ishlab chiqarish rejalariga o'z vaqtida o'zgartirishlar kiritish, iste'molchilar va xaridorlar talablarini hisobga

olish, ishlab chiqarishning yuzaga kelishi mumkin bo'lgan pasayishi va inqirozlarning oldini olishga yordam beradi. “Korxonalar to'g'risida”gi qonun ishlab chiqarishni rejalashtirishda ushbu tamoyilni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratadi.

Biroq hech qanday tamoyil, jumladan, yuqorida sanab o'tilgan tamoyillar ham, o'zidan-o'zi, ya'ni shu tamoyillar uchungina kerak emas. Agar amaliyotda qo'llanmasa bu tamoyillar faqat qog'ozda qolib ketishi yoki oddiy chaqiriq bo'lib qolishi mumkin. Shu sababli korxonalar rahbarining rejalashtirish jarayonini, aniqrog'i, rejaning bajarilishi hamda rejalashtirishning belgilangan va boshqa tamoyillari qanday aks ettirilganligini **nazorat qilishi** muhim ahamiyat kasb etadi. Nazorat kerakli natijalarga erishish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan disproportsiyalarni aniqlash va ularning oldini olish, Shuningdek, zahiralarni aniqlash va ulardan foydalanish yo'llarini belgilashga imkon berdi.

Rejalashtirish uslubiyati – bu iqtisodiyotni boshqarishning turli bo'g'inlarida, jumladan, korxonalarni boshqarishda rejalarini ishlab chiqish usullari majmuasidir. Avvalgi rejali iqtisodiyot sharoitlarida u avvalo reja organlarining, ham sobiq ittifoq miqyosida, ham alohida respublikalar miqyosida amal qilgan ***iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalarga*** tayanar edi. Iqtisodiyotning muhim soha va tarmoqlarini joriy va istiqbolli rejalashtirish ushbu ko'rsatmalar asosida amalga oshiriladi.

“Mamlakatimizni iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan uzoq muddatli strategik maqsadni amalga oshirishning mantig'i mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlangan va O'zbekistonning jahon bozoridagi raqobatdoshligini oshirish va mavqegini mustahkamlashga yo'naltirilgan tarkibiy o'zgarishlar va yuksak texnologiyalarga asoslangan zamonaviy tarmoqlar va ishlab chiqarish sohalarini jadal rivojlantirish siyosatini 2011 yildagi asosiy ustuvor yo'nalish sifatida davom ettirishni taqozo etmoqda.”⁴⁴

Mazkur holatda rejalashtirish uslubiyatiga ko'ra, “yuqoridan pastga” tamoyili asosida nazorat raqamlari, limit va normativlar tushirilar, keyin esa “pastdan yuqoriga” tamoyili asosida, ya'ni korxonalaridan yuqori turuvchi organlarga qayta uzatilar edi. “yuqori” darajada reja ko'rsatkichlari yiriklashgan tavsifli bo'lsa, korxonalar miqyosida esa ishlab chiqarish bilan bog'liq holda muayyan va detalli tavsifga ega

⁴⁴ И. Каримов. “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараккиётини юксалтириш, халкимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади” // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

bo'ladi. Rejalashtirishda ushbu tizimning kamchiligi Shunda ediki, deyarli har bir korxonaning faoliyat rejasi majburiy tarzda "yuqoridan" tasdiqlanishi zarur edi. Busiz reja o'z realligini yo'qotar edi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida korxonalar o'z faoliyatini rejalashtirishni mustaqil ravishda amalga oshiradi. Biroq bu rejalashtirishning tekshirib ko'rilgan va foydali usullaridan voz kechishni anglatmaydi. Bugungi sharoitlarda ham korxonalar faoliyatini rejalashtirish-texnik-iqtisodiy hisob-kitoblar, progressiv norma va normativlar, iqtisodiy tahlil, muqobil variantlarni tanlashga asoslanadi.

Rejalashtirishning eng ko'p tarqalgan usullari qatoriga quyidagilarni: balans, normativ, iqtisodiy-matematik, statistik, omillar bo'yicha, ko'p variantli hisob-kitob usuli kabilarni kiritish mumkin. Rejalarning asoslanganlik darajasini oshiruvchi va ularni tezda amalga oshirilishiga xizmat qiluvchi, Shuningdek, tavakkalchilik va vujudga kelishi mumkin bo'lgan talofatlarni kamaytiruvchi usul eng samarali usul hisoblanadi.

Hozirgi paytda **balans usuli**ning ahamiyati oshib bormoqda. Ushbu usulning mohiyati, o'zaro aloqada bo'lgan ko'rsatkichlarni solishtirish bilan ifodalanadi. Balans usuli asosida korxonaning ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi, ishlab chiqarish quvvatiga bo'lgan talablari va ularning manbalari aniqlanadi. Bundan kelib chiqqan holda **moddiy balans, ishlab chiqarish quvvatlari balans, ishchi kuchi balans, ish vaqti balans, qiymat balansini** ajratib ko'rsatish mumkin. Balanslar, qoidaga ko'ra, ehtiyojlar va ularga mos keluvchi resurslarning mavjudligi yoki manbalarini o'z ichiga oluvchi, o'zaro moslashuvchi jadval shaklida tuziladi.

Balans usuli **normativ usuli** bilan birgalikda qo'llanadi. Normativ usulida resurslarni sarflashning yo'l qo'yish mumkin bo'lgan eng yuqori va eng quyi chegaralari aniqlanadi. Bunda ishlab chiqarishni rejalashtirish va tashkil etishda norma va normativ kabi tushunchalardan foydalaniladi.

Norma (me'yor) – bu, belgilangan sifatdagi mahsulot birligi (ish, xizmat) tayyorlash uchun sarflanuvchi xom ashyo, material, yoqilg'i, energiya va boshqa resurslardan foydalanishning yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan maksimal yoki minimal chegarasidir. Agar resurslardan foydalanish normalarini kamaytirish mahsulot sifatining pasayishiga yoki belgilangan standartlar talablarining buzilishiga olib keladigan bo'lsa, u holda bu normalarni kamaytirish mumkin emas.

Normativ – bu, nisbiy kattalik bo'lib, asosan foizlar yoki koeffitsientlar yordamida aks ettiriladi. U mehnat vositalari va predmetlaridan foydalanish darajasini, ularning har bir maydon birligi,

og'irlik birligi, hajm birligiga sarflanishini tavsiflab beradi. Masalan, asosiy fondlarning birlik qiymatiga mahsulot ishlab chiqarish (fond qaytimi), sutning moylilik, vinoning spirtlilik darajasi (foizlarda), avtomashinaning bosib o'tgan yo'li, avtomobil shinasining ekspluatatsiyasi va hokazo.

Norma va normativlar progressiv tavsifga ega bo'lishi, ya'ni ularni ishlab chiqishda zamonaviy fan, texnika va texnologiya rivojlanishining darajasi, mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etish, ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanish hamda ilg'or korxonalarining tajribalarini hisobga olish zarur. Shuningdek, ular doimiy ravishda qayta ko'rib chiqilishi, eskirgan norma va normativlar yangi, xo'jalik hayoti va davr talablariga javob beruvchi norma va normativlar bilan almashtirilishi lozim.

Norma va normativlar quyidagi asosiy guruhlar asosida ishlab chiqiladi:

*49 **tirik mehnat xarajati normalari** (mahsulot biriligiga sarflanuvchi ish vaqti normasi, vaqt biriligida ishlab chiqarish normasi, xizmat ko'rsatish normasi, miqdor normativi);

*50 **moddiy xarajat normalari** (xom ashyo, material, yoqilg'i, energiya, butlovchi qismlar);

*51 **ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish normativlari** (ishlab chiqarish tsiklining davomiyligi, tugallanmagan ishlab chiqarish hajmi, ishlab chiqarish zahiralari va hokazo);

*52 **mehnat vositalaridan foydalanish normalari** (mashinalar, asbob-uskunalar, mexanizmlar, qurilmalar);

*53 **korxonada, tsex, asbob-uskunalarining loyiha quvvatiga chiqish vaqti normalari**.

“Yurtimizda oilalarning sifatli va uzoq muddat foydalanadigan iste'mol tovarlari bilan ta'minlanish darajasi sezilarli ravishda oshdi. Jumladan, bugungi kunda har 100 ta oilaga o'rtacha 132 ta televizor, 99 ta xolodilnik, 18 tadan ziyod konditsioner, 12 ta shaxsiy kompyuter, 27 tadan ortiq engil avtomobil to'g'ri kelmoqda.”⁴⁵

Ko'rinib turibdiki, rejalashtirish juda murakkab va mehnat talab qiluvchi jarayon bo'lib, korxonada faoliyatining resurslar xarajatini normalashtirishdan to mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilishgacha

⁴⁵ И. Каримов. “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараккиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади” // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

barcha ko'rsatkichlarini inobatga oladi. Rejalashtirishning **asosiy vazifalari** quyidagilar:

*54 maqsadni belgilash;

*55 korxonada faoliyatining turli xil yo'nalishlari, ayniqsa, xalq xo'jaligi va aholi uchun zarur bo'lgan masulot ishlab chiqarishning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini asoslab berish;

*56 zaruriy moddiy-texnika asossini shakllantirish;

*57 moliyalashtirish manbalarini aniqlash;

*58 Yakuniy natijalarning ijobiy bo'lishiga erishish.

Rejalashtirish jarayonida har xil metod (usul) va uslublardan keng foydalaniladi.

Metod grekcha "methodos" so'zidan olingan bo'lib "nimagadir yo'l", bilish uslubi, jamiyat va tabiat hodisalarini tadqiqot qilish usuli ma'nosini bildiradi.

Rejalashtirish jarayonida balans usuli (moddiy, moliyaviy, mehnat resurslari balansi), normallashtirish usuli, solishtirish yoki indeks usuli, grafiklar, texnik-iqtisodiy hisoblar, sotsiologik tadqiqot, statistik guruhlash, iqtisodiy matematik usullar, eksport baholash usuli kabilar keng ko'llaniladi.

Rejalashtirishda ko'rsatkichlar tizimidan keng foydalaniladi. Ular qatoriga natural va qiymat; absolyut va nisbiy; son va sifat ko'rsatkichlarini kiritish mumkin.

Korxonaning ishlab chiqarish faoliyatining rejalashtirish xuddi avvaldagi kabi ko'rsatkichlar tizimi yordamida amalga oshirilib, bu ko'rsatkichlar sifat va miqdor, xajm va solishtirma turlarga taksimlanadi.

Miqdor ko'rsatkichlari – absolyut ko'rsatkichlar bo'lib, bu katorga Yalpi va tovar mahsulotlar xajmi, sotuv xajmi, xodimlar soni, ish xaki fondi, foyda yoki daromad miqdori, ishlab chiqarish resurslarini sarflanishi kiritish mumkin.

Sifat ko'rsatkichlari – nisbiy kattalik hisoblanadi. Ular ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini, uning ayrim omillarini aks ettiradi. Bu mehnat maxsuldorligining o'sishi, mahsulot tannarxining pasayishi va xakozolardir. Bu katorga shuningdek, o'zaro miqdor ko'rsatkichlarini ifodalovchi ko'rsatkichlar, masalan ishlab chiqarish rentabelligi, fond sigimi, mahsulot sifati va boshqalarni ham kiritish mumkin.


Xajm ko'rsatkichlari – ishlab chiqarishning, uning ayrim jarayonlari va unda ishtirok etuvchi omillarning absolyut kattaligini belgilaydi. Bu


katorga masalan, yalpi, tovar va sotilgan mahsulot xajmi, mehnat xarajatlari xajmi, olingan foydaning umumiy xajmi va boshqalar kiradi.

Solishtirma ko'rsatkichlar – ikki yoki undan ortiq o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar va mahsulot birligi xarajatlari salmogining nisbatlarini tavsiflaydi. Masalan, mahsulot birligiga metall, elektr energiyasi, yokilgi sarflanishi, ishlab chiqarish quvvatii birligiga kapital kuyilmalar, jami tulovlar xajmida mukofotlarning salmogi va xokazolar.

Ushbu barcha ko'rsatkichlar urtasida o'zaro alokalar mavjud. Bu ko'rsatkichlar rejalashtirish jarayonida ham, korxonaning xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda ham kullaniladi.

Rejalar quyidagi alomatlarga qarab tasniflanadi. Rejalarning tasnifi 4-chizmada ko'rsatilgan.





4-chizma.Rejalarni tasnifi

Rejalarning bir qator alomatlariga qarab turlanishi uni bozor iqtisodi sharoitida keng ishlatilishi to'g'risida mubolag'asiz dalolat berib turibdi.

5.3. Korxonada faoliyatiga ta'sir kiluvchi omillar: tashqi va ichki muhit. Korxonada rejasining bo'limlari va ko'rsatkichlari

Vaziyatni oldindan ko'ra bilish, tasodifiy o'zgarishlar, korxonalarining tashqi aloqalari, ichki faoliyat yurgizish bir qator ob'ektiv va sub'ektiv omillarga bog'liqdir.

Har qanday biznes bunday omillarning ta'siridan holi emas. Shu sababli faoliyatni rejalashtirish jarayonining eng zarur tomoni biznesga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash, ularning ta'sir qilish darajalarini belgilashdan iboratdir. Bizning fikrimizcha, ob'ektiv omillar darajasini iqtisodiy jihatdan hisob-kitob qilib aniqlash mumkin va ular real sharoitdan, resurslardan kelib chiqadi. Sub'ektiv omillar esa faoliyatga kishilarning professional bilimi, mahorati, dunyoqarashi, psixologiyasi kabilar bilan bog'liq bo'lib, rejalashtirish, faoliyatni tahlil qilishda ularning ta'sir qilish darajalarini, miqdorini belgilash iqtisodiy-matematik nuqtai nazardan imkoniyati yo'q. Lekin, bunday omillarni ham mushohada orqali korxonalar rahbariyatiga, mutaxassislariga rejalashtirish jarayonida e'tiborga olishi, Shu omillarni chuqur va har tomonlama o'rganib chiqishi shart.

Ob'ektiv va sub'ektiv omillar korxonaning tashqi va ichki muhitidan kelib chiqadi. Shu sababli barcha omillarni korxonaning tashqi va ichki muhitidan kelib chiqqan holda tasniflash va tavsiflash nazariy va amaliy jihatdan maqsadga muvofiqdir.


Rejalashtirish jarayonida bunday omillarni biznesga ta'sir qilish darajasini aniqlash bilan bir qatorda ularni boshqarish kelajakda o'zgarishini ko'ra bilish va Shulardan kelib chiqqan holda biznesning samarasini oshirish uchun barcha chora-tadbirlarni ko'rish zarur.


Korxonalar faoliyatiga ta'sir qiluvchi tashqi va ichki muhitni ko'rib chiqamiz.

5-chizmadan ko'rinib turibdiki, korxonaning ichki muhiti, ya'ni resurslarni topish bilan ularni birlashtirish, ishlab chiqarishni tashkil qilish, boshqarish, tayyor mahsulotni (xizmatni) ayirboshlash, iste'molchilarni aniqlash, ularning talabini o'rganish kabi omillar bilan bog'liqdir. Bu omillar o'z o'rnida boshqa bir qator omillar bilan bog'liq bo'lib, har biri butun korxonalar faoliyatiga u yoki bu darajada ta'sir ko'rsatadi.

Korxonalar faoliyatini, umuman tasavvur qilsak bir tomondan moddiy, mehnat, moliyaviy resurslar tursa, markazda ishlab chiqarish jarayoni turadi va ikkinchi tomonda tayyor mahsulot va ularni ayirboshlash jarayoni turadi.

Bu jarayon 5-chizmada tasvirlangan.





5-chizma: Korxonaning faoliyatining umumiy ko'rinishi

Korxonaning faoliyati ichki muhitdagi omillarga nisbatan ko'proq tashqi muhitdagi omillarga ham bog'liqdir.

Korxonaning tashqi muhit bilan aloqalaridan kelib chiqib, unga tashqaridan ta'sir qiluvchi omillarni quyidagi guruhlariga bo'lishi mumkin:

- davlat boshqaruv muassasalari;
- umumiy iqtisodiy omillar;
- ijtimoiy-iqtisodiy omillar;
- mahalliy (regional) omillar;
- milliy omillar;
- geografik omillar;
- demografik omillar;
- huquqiy omillar;
- raqobatchilar;
- ilmiy-texnik progress;
- mafkuraviy omillar;
- professional bilim bilan bog'liq omillar;
- iste'molchilar;


- raqobat muhiti;
- moddiy resurslar bilan ta'minlovchilar;
- texnologiya va jihozlar bilan ta'minlovchilar;
- kadrlar;
- moliya bilan ta'minlovchilar;
- siyosiy omillar;
- xalkaro aloqalar va nihoyat, yashirin (tenovoy) bozor elementlari kabilardir.

Korxonada faoliyati ko'p qirralik bo'lib, uni rivojlantirish rejasi bir qancha bo'limlardan, bo'limlar esa ko'rsatkichlar tizimidan iborat bo'ladi

Uzoq muddatli (strategik) rejada korxonada yangi bo'lim, yacheyka tseh filiallar kabilarni tashkil qilish; ishlab chiqarish quvvatini oshirish, kapital mablag'lar; moliyaviy vositalarga bo'lgan talab, ilmiy tadqiqot ishlari; bozor segmenti, korxonani bozordagi hissasini kengaytirish; mahsulotni raqobatbardoshligi; korxonada byudjeti, balansi kabi moslamalar echimi va ularga mos reja bo'limlari aks topadi.

“Ana shu maqsadlarga erishish uchun **“2011-2015 yillarda O'zbekiston sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida”gi dastur** tasdiqlandi. Ushbu dastur sanoat sohasida umumiy qiymati qariyb 50 milliard dollarni tashkil etadigan 500 dan ortiq yirik investitsiya loyihasini amalga oshirishni ko'zda tutadi.”⁴⁶

Amaliyotni ko'rsatishicha, ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirishda xar bir korxonada o'zining bugungi kundagi va kelajak uchun strategiyasini belgilab oladi. Shu sababli rejalashtirish korxonaning rivojlantirish strategiyasidan ajralmas bo'lib, bu 6-chizma yordamida aks ettirish mumkin:



6-chizma. Strategik rejalashtirish jarayoni

⁴⁶ И. Каримов. “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараккиётини юксалтириш, халкимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади” // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

Mazkur xolatda strategiya kelajak uchun umumiy g'oyani shakllantirishga imkon berdi. Rejalashtirish jarayonining o'zi va bevosita strategik reja esa korxonaga aniqlik, individuallik hadya etib, bu unga ma'lum turdagi xodimlarni jalb qilish va boshqa turdagi xodimlarning jalb kilmasslikka imkon beradi. Bu reja korxonaga uchun istikbollar ochib berib, yangi xodimlarni jalb qiladi, mahsulot ishlab chiqarishdan tashkari uni sotishga kumaklashadi.

Qisqa muddatli (joriy) rejalar ishlab chiqarish va sotish hajmi; zahiralarni siljishi; xom ashyo va qo'shimcha materiallar; mehnat va kadrlar; amortizatsiya; reklama; xarajatlar (tannarx) va ajratmalar; daromad; foyda va rentabellik; kredit; kapital mablag'lar; ilmiy tadqiqot ishlari; korxonaga byudjeti (moliyaviy reja), tabiatni muhofaza qilish (ekologiya) kabi bo'limlardan iborat bo'ladi.

Har bir bo'lim mohiyati, statistik o'lchov birligiga mos ko'rsatkichlar orqali o'z ifodasini topadi. Ular sonli va sifat, hajmi va solishtirma kabi ko'rsatkichlardan iborat bo'ladi.

Sonli ko'rsatkichlar absolyut miqdorda ifodalanib, ishlab chiqarish hajmini (dona, tonna, t.k.m., kl.vt., shartli banka): ishchilar soni; ish haki fondi; daromad hajmi; foyda summasi kabilarni ifodalaydi.

Barcha ko'rsatkichlar natural va qiymat miqdorlarda hisobga olinadi.

Ayrim turdaga korxonalar faoliyatining ko'rsatkichlarini keltiramiz.

Ishlab chiqarish korxonalarida ishlab chiqarish hajmi - yalpi mahsulot, tovar mahsuloti va sotiluvchi mahsulot, ularning assortimenti kabi ko'rsatkichlarda o'z aksini topadi. Bu ko'rsatkichlar natural va qiymat miqdorlarda hisobga olinadi.

Ishlab chiqarish korxonalarining ishlab chiqarish quvvati, ya'ni korxonaning sutkada, oyda, kvartalda, yilda mavjud jihozlarni maksimal ishlatgan holda ishlab chiqarishi mumkin bo'lgan mahsulotning miqdori, natural ko'rsatkichlarda ishchi-xizmatchilarning umumiy soni, tarkibi, ish haqi fondi.

Xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, elektr energiya, jihozlarga ehtiyoj hajmi, soni natural va qiymat ko'rsatkichlarda.

Tannarx hamda tseh umum ishlab chiqarish xarajatlarning summasi, har xil atamalar va to'lovlar. Daromad, foyda va rentabellik ko'rsatkichlari.

Aylanma mablag'larni normativlari va ishlatilish ko'rsatkichlari.

Asosiy fondlar va amortizatsiya ko'rsatkichlari.

Kapital mablag'lar va uning tarkibi.

Avtotransport korxonalarida: yuk tashish (tonnada); shu jumladan, yuk bilan (km); avtomobillarni hisob soni; avtomobillarni umumiy yuk ko'tarish quvvati (ti); narYadda bo'lgan umumiy vaqti (soat), Shu jumladan, yuk bilan (soat); marshrutda yurib kelganlik soni (marotaba); texnik tezligi (km/soat), ekspluatatsion tezligi (km/'soat); mehnat. moddiy va moliyaviy resurslarni ishlatish bilan bog'liq ko'rsatkichlari ishlab chiqarish korxonalarida ko'rsatkichlariga o'xshaydi.

Savdo korxonalarida tovar aylanishi hajmi assortimenti (so'm); tovar zaxiralari hajmi va assortimenti (so'm); tovarlarni kelishi hajmi va assortimenti (so'm). Bu uchchala ko'rsatkichlarni assortiment bo'yicha miqdori natural ko'rsatkichlarda (dona, metr, tonna va hk.) hisobga olinadi, tahlil qilinadi va rejalashtiriladi.

Muomala harajatlari summasi, tarkibi moddalar bo'yicha (so'm,%).

Mehnat va ish haqi ko'rsatkichlari.

Daromad, foyda va rentabellik ko'rsatkichlari.

Asosiy va aylanma fondlarni ishlatish bilan bog'liq ko'rsatkichlar.

Kapital mablag'lar, kredit, soliq va to'lovlar bilan bog'liq ko'rsatkichlar kabilar.

Rejalash shunday tuzilishi kerakki, ular o'zok vakt davomida bo'zulmasligi, Shu bilan bir paytda zarur xollarda yunalishini o'zgartirishga moslashgan bo'lishi lozim. Amalda rejalashtirish jarayonida ikkita muhim savollarga javob topish zarur:

1) korxonada uchun bozordagi vaziyat bilan bog'liq joriy vazifalarini bajarishda tusiklar Yaratmaydigan strategik maqsadni qanday tanlash;

2) strategik maqsadlarga tayangan holda eng murakkab va kutilmagan xodisa va tashqi tendentsiyalarga munosib va samarali javob kaytarish uchun moddiy, moliyaviy va kadrlar resurslarini qanday shakllantirish lozim.

Avalgi buyruqbozlik tizimidagidan farkli ularok ko'plab korxonalarda, ayniksa, kichik va urta korxonalarda rejalar mustakil ravishda ishlab chikladi va tasdiklanadi.

5.4. Biznes-reja tushunchasi, turlari va tarkibi. Kichik biznes, xususiy tadbirkorlik sub'ektlari uchun biznes- reja ishlab chiqish

Hukumatimiz tomonidan kichik biznes subektlarini qullab quvvatlab kelinmoqda ko'plab imtiyozlar berilmoqda. Jumladan prezidentimiz I.A. Karimov Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasida quyidagilarni bayon

etgan edilar “O‘zbekiston banklar assotsiatsiyasi tijorat banklari bilan hamkorlikda Investitsiya loyihalari bo‘yicha loyiha hujjatlari tayyorlashni moliyalashtirish jamg‘armasini tashkil qilishi zarur. Bu esa kichik biznes subektlarining biznes rejalarini tayyorlash sarf-xarajatlarini kamaytirish, ularning sifatini oshirish va kreditlar berish muddatlarini qisqartirish imkonini Yaratadi.”⁴⁷

Rejalashtirish korxonani boshqarish jarayoni sifatida o‘z texnologiyasiga ega bo‘lib, bu texnologiya korxonaning rejalashtirilayotgan davrdagi maqsad va vazifalarini aniqlash, bajaruvchilarga muayyan vazifalarni belgilash, vazifalarni turi, kattaligi va muddatiga ko‘ra, aniqlashtirish, Shuningdek, ishlab chiqarish faoliyati natijasi - daromad yoki foyda olishni o‘z ichiga oladi. Kichik korxonalarda bu vazifalarni bajarish katta korxonalariga nisbatan engilroq bo‘lsada, barcha hollarda quyidagi omillarni hisobga olish talab qilinadi:


- *59 ishlab chiqarish quvvatining mavjudligi va tuzilmasi;
- *60 xodimlar soni, ixtisos tarkibi va malakasi;
- *61 moliyaviy resurslar;
- *62 aylanma mablag‘lar mavjudligi va unga bo‘lgan ehtiyojlar, jumladan, moddiy-tovar boyliklari zahiralari;
- *63 ilmiy-texnik tadqiqotlar tuzilmasi va tayyorlik darajasi;
- *64 mahsulotni sotish kanallari.

Rejalashtirish tizimi quyidagi talablarga javob bergan taqdirdagina samarali va ishonchli hisoblanadi:

1. Rejalashtirishning har bir elementi va bosqichi qat‘iy ravishda asoslab berilishi.
2. Rejadagi vazifalarning aniq va o‘z vaqtida bajarilishi, Ya‘ni rejaning adresliligi.
3. Reja bajarilishini doimiy va uzluksiz ravishda hisobga olish, nazorat qilish va unga zarur hollarda o‘zgartirishlar kiritish.
4. Ichki va tashqi muhitdagi o‘zgarishlarni ijobiy qabul qilish, Shuningdek, korxonada faoliyatini ro‘y bergan o‘zgarishlarga mos ravishda, o‘z vaqtida qayta tashkil qilish (rejalashtirishning moslashuvchanligi).

⁴⁷ И. Каримов. “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараккиётини юксалтириш, халкимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади” // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

5. Fan-texnika taraqqiyoti va xo'jalik yuritishning ilg'or tajribalariga tayanish.



Rejalashtirish davomida bugungi kundan tashqari, kelajakni, ertangi kuni ham inobatga olish zarur. Korxonaja istiqboli va bozordagi holatining barqarorligi, ko'p jihatdan uning ilg'or texnika va fan yordamida yaratilgan eng yaxshi mahsulotlar namunasini tezlik bilan o'zlashtirib olish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Shu sababli korxonalarda axborot tizimini yaxshi yo'lga qo'yish hamda reklama faoliyatini rivojlantirish lozim.

Reklama iste'molchilarni (xaridorlarni) mavjud mahsulot bilan tanishtirishdan tashqari, xuddi xorijdagi kabi, ularni aynan Shu mahsulotni sotib olishga undashi kerak.


Rejalashtirishning har bir turi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu xususiyatlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

*65 belgilangan rejalashtirish oralig'ining aniqligi;

*66 integratsiya va differentsiatsiya darajasi, Shuningdek, rejalashtirilayotgan ko'rsatkichlar miqdori;

*67 ishlab chiqarish xarajatlari va natijalarini hisob-kitob qilish darajasining aniqligi;

*68 rejani tayyorlovchilar va amalga oshiruvchilar o'rtasida majburiyatlarni taqsimlash tartibi.



2-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAIMdagi ulushi, foizda.

Manba: O'zR Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Rejalashtirishda **“korxonamuhit-holat” munosabatlari** asosiy o'ringa egadir. Bunda ishlab chiqarish shunday rejalashtiriladiki, natijada korxonaning bozordagi barqarorligini saqlab qolish, yuzaga keladigan holat va tashqi muhitni hisobga olishdan tashqari, mahsulotni tezda sotish va ishlab chiqarish rentabelligining o'sishiga imkon yaratiladi. Buning uchun korxonam anchadan beri ishlab chiqarilayotgan an'anaviy mahsulotlardan tashqari, yangi mahsulot turlarini, jumladan, o'xshashi bo'lmagan mahsulotlarni ishlab chiqarishi, mahsulotlar turini


ko'paytirishiKo'pgina investorlar mazmuni bir yoki ikki betda bayon etilgan loyihaning muhim xususiyatlarini va afzalliklarini bilib olishga imkon beradigan biznes-rejani o'qib chiqishni yoqtiradilar.

“Ushbu takliflarni tayyorlashda mavjud **normativ bazani**, investorlarni jalb etish va xorijiy investitsiyalar ishtirokida tashkil qilingan korxonalarni **ro'yxatga olishning tartib-qoidalarini, eng muhimi, ularni himoya qilish bo'yicha ishonchli kafolatlarni yanada takomillashtirish masalalariga** alohida e'tibor qaratish lozim.”⁴⁸

Bu ishni rejada alohida urg'u beriladigan va qisqacha mazmun bayoniga kiritiladigan asosiy tadbirlar (bir yoki ikkita taklif) ravshan bo'lib qolgan holdagina moxirona uddalash mumkin. Qisqacha bayon etilgan mazmun dastlabki xomaki material bo'lib, bo'lg'usi investorning shunga qarab fikr yuritishini nazarda tutish kerak.

Barcha xodimlar, ayniqsa, rahbarlar, bugungi kunda kelajakdagi faoliyat uchun qulay istiqbol yaratish nisbatan oson bo'lsada, xuddi shu ishni 3-5 yildan so'ng, ya'ni istiqboldagi kunga aylangan paytda bajarish qiyinlashadi yoki bunga umuman imkon bo'lmaydi. Shu sababli rejalashtirish joriy holatdan tashqari iqtisodiyot va fan-texnika taraqqiyoti sohalaridagi ro'y berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni qanchalik ko'p hisobga olsa, uning natijalari shunchalik yuqori bo'ladi. Bu erda korxonaning yo'lga qo'yilgan marketing xizmati, xodimlar malakasi hamda mamlakatimizda va chet elda ishlab chiqarilayotgan turli mahsulotlar haqidagi ilmiy-texnik ma'lumotlar muhim o'rin egallaydi.

Umuman olganda korxonada rejalashtirish tuzilmasi va mazmunini quyidagi model ko'rinishida aks ettirish mumkin (8- chizma):



Uzoq muddatli rejalashtirish	Joriy rejalashtirish	Kalendar rejalashtirish	Dispetcherlashtirish va kuzatuv
<p>Uzoq muddatli rejalar Sotish hajmi bashorati, Ishlab chiqarish vositalariga ehtiyojlar, Aylanma vositalar(mablag'lar)ning moddiy-tovar boyliklari zahiralari kiritilishi,</p> <p>qisqa muddatli rejalar, Sotish hajmi bashorati, Ishlab chiqarish quvvati, Moddiy-tovar boyliklari zahiralari miqdori, Ishlab chiqarish darajasi,</p> <p>yagi mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, Realizatsiya hajmini baholash, Ishlab chiqarish vositalariga ehtiyoj, Aylanma vositalar(mablag'lar)ning moddiy-tovar boyliklari</p>	<p>Joriy rejalar Mahsulotlar nomi va turlari bo'yicha, Sotish bashorati, Zavodning ishlab chiqarish quvvati, Zahiralar darajasi. Ishlab chiqarish darajasi, Bandlik darajasi,</p> <p>Iste'molchi buyurtmasi bilan ishlash, Joriy buyurtmalar hajmini solishtirish, Bashorat, O'tgan yillar uchun buyurtmalar hajmi, Tayyor mahsulot zahiralari boshqarish, Mahsulotni taqsimlash yuklash muddati bo'yicha majburiyatlar, Buyurtma qabul qilinganini tasdiqlash, yuklashga sanksiya berish,</p> <p>Ishlab chiqarishga buyurtma berish,</p>	<p>Harakatlar yo'nalishi Detallar ro'yxati (tasnifi), Moddiy tasniflar, Texnik nazorat uchun ma'lumotlar, Operatsiyalar ketma-ketligi, Sozlashga ajratiluvchi vaqt, Operatsiyalarni bajarish va harakatlanish,</p> <p>Ishlab chiqarish buyurtmalari bilan ishlash. Detal va qismlarga ehtiyoj, Yig'uv detallari va qismlari, Xom ashyo va materiallar,</p> <p>Rejali boshqarish. Tugallanmagan ishlab chiqarish, Tayyor mahsulot zahiralari,</p> <p>Bosh (asosiy) kalendar dasturi. Detallar bo'yicha kalendar dasturlar, Asbob-uskunalarni ish bilan ta'minlash.</p>	<p>Kalendar dasturlarini muvofiqlashtirish. Materiallarga bo'lgan talab, Uskunalar bo'lgan talab, Ishni bajarish bo'yicha yo'riqnoma, Nazorat hujjatlari,</p> <p>Axborot etkazish. Foydalangan materiallar, Foydalangan uskunalar, Ishlab chiqarish: ishlab chiqarishning borishi va to'xtab qolishlar, Mehnat xarajatlari, Tayyorlangan mahsulotlar soni, (dona) Vaqt, uskunalar va stanoklardan foydalanish,</p> <p>Mahsulot tayyorlash ustidan bevosita nazorat. Tayyorlanayotgan mahsulotlar hisobi va yaroqliligi, Operatsiyalar oralig'ida materiallarning detallar dastgohiga,</p>

zahiralariga kiritilishi, Koordinatsiya va vaqt muddatini tanlash.	Buyurtma hajmi, Buyurtmani bajarish vaqtini tanlash.		Jismoniy harakatlanish: Ko'zda tutilmagan to'xtab qolishlarni bartaraf etish, To'xtab qolish va zaif joylarni yo'qotish, To'xtab qolishlarning oldini olish.
--	--	--	--

8-chizma: Korxonani rejalashtirish tizimi modeli

Hozirgi paytda korxonalarning aksari qismi asosan joriy rejalar (biznes-rejalar) tayyorlash bilan shug'ullanmoqda. Biznes-rejalarda eng muhim rejalashtirish ko'rsatkichlari quyida keltirilgan:

*69 ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat) nomenklaturasi va hajmi (natural ko'rinishda);

*70 mahsulot sotish hajmi (pul ko'rinishida);

*71 mahsulot birligining tannarxi;

*72 foyda (daromad);

*73 kategoriyalar bo'yicha xodimlar soni;

*74 mehnatga haq to'lash fondi va o'rtacha ish haqi darajasi;

*75 omborlardagi xom ashyo va materiallar, tugallanmagan ishlab chiqarish va tayyor mahsulot zahirolari;

*76 aylanma vositalar hajmi - umumiy va guruhlar bo'yicha;

*77 kapital qo'yilmalar hajmi, jumladan, qo'yilma ob'ektlari va yo'nalishlari bo'yicha;

*78 Yangi texnika va texnologiyaga oid chora-tadbirlar;

*79 boshqa ko'rsatkichlar (zarurligi va aniqlanishiga ko'ra).

YANGI mahsulotlar va texnologiyalarni qo'llash loyihalari, Shuningdek, investitsiyalar va qurilish bilan bog'liq bo'lgan chora-tadbirlarning bir qismi alohida rejalarga kiritiladi. Ular chora-tadbirlarni amalga oshirishning butun davriga tuziladi.

Rejalashtirish tizimi maqbul yo'lga qo'yilganda rejada belgilangan ko'rsatkichlarning raqamlarda belgilanishi kiritilgan mutlaq kattalik sifatida ko'rib chiqilishi lozim. Rejalarning bajarilishi ustidan nazorat qilish ko'p hollarda chetga og'ishlarga nisbatan yuritilib, ular tahlil qilinadi, chetga og'ishning sabablari aniqlanadi hamda chetga og'ishlar salbiy xarakterli bo'lsa, ularga nisbatan zaruriy choralar qo'llanadi.

Rejalashtirishda mohiyatiga ko'ra, korxonada turgan ishlab chiqarish vazifalari va korxonaning iste'molchilar talabiga munosabatiga tavsiflovchi buyurtmalar "portfeli"ni shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

"Ayni paytda biz mamlakatimizdagi o'z ichki resurslarimizning ko'lamini kengaytirish bo'yicha ham doimiy ish olib borishimiz darkor. Bu borada tiklanish va taraqqiyot fondining rolini kuchaytirish g'oyalart muhim o'rin tutadi. Hozirgi vaqtda 6 milliard dollardan ortiq mablag' jamlangan ushbu fond, avvalo, strategik muhim investitsiya loyihalarini xorijiy investorlar bilan birgalikda moliyalashtirishda etakchi sheriklardan biri sifatida faoliyat olib borishi kerak."⁴⁹

Biznes-rejani tayyorlash natijasida «*Ishni nimadan boshlash kerak?*»; «*Samarali ishlab chiqarishni qanday tashkil qilish lozim?*» «*Birinchi foyda yoki daromad qachon olinadi?*», «*Investorlar va kreditorlar bilan qachon hisob-kitob qilish mumkin?*», «*Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarni qanday kamaytirish mumkin?*», «*Raqobatchilar bilan kurashda qanday choralardan foydalanish mumkin?*» kabi savollarga javob olinadi.

Biznes-rejani tuzishda quyidagi shartlarga alohida e'tibor qaratish zarur:

*80 biznes-reja professional va shu bilan bir paytda sodda, bajarish uchun tushunarli va oson bo'lishi lozim;

*81 biznes-reja investor yoki boshqa manfaatdor shaxs o'ziga kerakli ma'lumotlarni qidirib topishi uchun bo'limlarga (boblarga) bo'linishi lozim;

*82 biznes-rejani tayyorlashda korxonaning bosh rahbari albatta qatnashishi shart, chunki investor, bank yoki boshqa moliya idorasi korxonada rahbari qatnashmaganligi yoki boshqa shaxsga topshirilganligi haqida xabar topsa, biznes-rejaning ishonchliligiga shubha uyg'onishi mumkin;

*83 biznes-rejaning ob'ektiv baholanishiga erishish kerak, ya'ni unda xatolar va noto'g'ri hisob-kitoblar bo'lmasligi lozim;

*84 biznes-rejaning tarqatib yuborilmasligini nazorat qilish zarur, chunki unda biznes to'g'risidagi maxfiy ma'lumotlar joy olgan bo'ladi.

Biznes-rejaning biron bir qat'iy shakldagi tarkibiy tuzilishi talab etilmaydi, u har xil shaklda hamda tarkibiy tuzilishda bo'lishi mumkin.

⁴⁹ И. Каримов. "Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараккиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади" // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

Ammo unda **quyidagi masalalar albatta yoritilgan bo'lishi shart.**
Xususan:

- biznesning maqsadi va asosiy g'oyalari;
- ishlab chiqaradigan mahsulotning o'ziga xos xususiyati va ular bilan bozor ehtiyojini qondirish;
- ayrim bozor o'zgarishlarida firmaning xulq-atvori strategiyasi;
- ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishi;
- ishning moliyaviy loyihasi (Shu jumladan moliyalashtirish strategiyasi va investitsiyalash bo'yicha takliflar);
- firmani rivojlantirish istiqbollari.

Taklif etilayotgan loyiha (qanday mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat turi)ga qarab biznes rejaning bo'limlari turlicha bo'lishi mumkin. Ammo uning tarkibiy tuzilishi ozmi-ko'pmi muayyan andozaga tushishi kerak.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning bu qadar jadal rivojlanishida eng avvalo mazkur soha uchun belgilanayotgan soliq imtiyozlari etarli darajadagi rag'batlantiruvchi rol o'ynayotgani muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, 2010 yilda yuridik shaxslar uchun daromad solig'i 9 foizga, mikrofirmalar va kichik biznes uchun yagona to'lov 7 foizga tuShurildi.

2-jadval

O'zbekistonda kichik biznesning iqtisodiyot asosiy tarmoqlarida ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat)lar hajmidagi ulushi, foizda

Ko'rsatkichlar	2008 y	2009 y	2010 y
Sanoat	13,9	16,9	19,6
Qishloq xo'jaligi	97,8	97,9	97,9
Qurilish	48,3	41,6	52,3
Savdo	48,1	46,5	50,5
Pullik xizmat	48,5	48,7	47,7
Eksport	12,4	14,6	13,6
Import	35,7	42,5	36,6

Manba: O'zR Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Xususan, quyidagi bo'limlarsiz biznes-reja oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishib bo'lmaydi:

1. **Rezyume (Xulosa).** Bu biznes rejaning boshlanuvchi va eng qisqa bo'limi bo'lib, u o'zidan keyin keladigan barcha bo'limlarning umumiy

xulosasini mujassamlashtiradi. Sarmoyadorlar (ularning aksariyati tadbirkorlardir) biznes rejaning qisqacha mazmunini aks ettiruvchi 1-2 varaqli ushbu bo'limni o'qishni ma'qul ko'radilar. Chunki ular bu orqali loyihaning eng kerakli xususiyatlarini va afzal tomonlarini ko'radilar. Qisqa mazmunli bu bo'limni tayyorlash juda mushkul ishdir va u biznes rejani tayyorlovchi xodimlardan katta maxorat hamda bilimlarni talab qiladi.

Bu bo'lim biznes rejaning barcha bo'limlari ishlab chiqilgandan so'ng, ulardan olingan xulosalarga tayanib, tayyorlanadi.

Tadbirkor Shu narsani yodda tutishi lozimki, mazkur bo'limning mazmuni va yozilish sifatiga qarab sarmoyador (investor) loyiha haqida hukm chiqaradi.

Xulosada juda qisqa tarzda quyidagilar yoritiladi:

1. Loyihaning mazmuni, uning maqsadi va samaradorligi;

-muayyan bozor sharoitlaridan kelib chiqib, loyihani amalga oshirish mumkinligi;

-loyihani kim va qanday amalga oshirishi;

-loyihani moliyalashtirish manbalari;

-loyihani investitsiyalash (mablag' sarf qilish)dan keladigan potentsial foydalar: sotuv hajmi, ishlab chiqarish va sotish harajatlari, foyda normasi, investitsiya mablag'larini qaytarish va harajatlarni qoplash muddatlari.

2. Korxonaga haqida ma'lumot. Bu bo'lim doimo biznes rejaning rezyume (xulosa) qismidan so'ng keltiriladi va unda quyidagilar yoritiladi:

- korxonaga (firma)ning tashkil etilgan vaqti;

- ro'yxatdan o'tganligi;

- firma kapitalining strukturasi;

- firmaga xizmat ko'rsatadigan bank;

- firma rahbariyati haqida ma'lumot;

- firmaning tashkiliy-boshqaruv tuzilishi;

- haridorlarning firma haqidagi fikri, firmaning boshqa xuddi

Shunday firmalardan afzallik tomonlari, kimlar uning tovaridan yoki xizmatidan foydalanishi, firmaning savdo belgisi, asosiy haridorlari va x.k.

3. Tovar, mahsulot (yoki xizmat) turlari. Bu bo'limda quyidagilarga to'xtalib o'tiladi:

-taklif etilayotgan mahsulot yoki xizmat qanday ehtiyojlarni qondiradi;

-bozorda hozirgi kunda mavjud bo'lgan xuddi Shunday mahsulot yoki xizmatdan mazkur mahsulot (yoki xizmat)ning afzalliklari;

-taklif etilayotgan mahsulot yoki xizmat qanday mualliflik huquqlari bilan himoya qilinadi. Taklif etilayotgan mahsulot va xizmatning narxlari qanday bo'lishi mumkin va raqobatga qanchalik bardosh beradi.

-mahsulot va xizmatni sotish natijasida qanchalik foyda normasiga erishish mumkin.

4. Sotuv bozori. Bunda quyidagilar yoritiladi:

-mahsulotlar yoki xizmatlarning haridorlari kimlar;

-hozirgi paytda hamda kelajakda sotuv xajmi qanday bo'lishi mumkin;

-asosiy raqobatchilar kimlar, ularning sotuv xajmi qancha, marketing strategiyasi va daromadlari qanday;

-raqobatchilar mahsulotining asosiy tavsifnomasi hamda sifat darajasi qanday;

-raqobatchilar mahsulotlari yoki xizmatlarini qaysi narxlarda sotmoqdalar, ularning narx siyosatlari qanday.

5. Marketing strategiyasi. Bunda quyidagilarga to'xtalib o'tiladi:

-ichki va tashqi bozorlarda xuddi Shunday mahsulot yoki xizmatni taklif etayotgan korxonalar (firma)lar;

-sotuv narxi va narxni tashkil etish tizimi;

-reklama bo'yicha kerakli chora-tadbirlar, taklif etilayotgan reklama vositalari hamda ularga ketadigan harajatlarning tuzilishi;

-sotishga ko'maklashadigan chora-tadbirlar, haridorlar uchun qo'shimcha imtiyozlar, sotuvdan so'ngi xizmat ko'rsatish va h.k.

6. Ishlab chiqarish dasturi. Bu bo'limda quyidagilarga yoritiladi:

-mahsulot (yoki xizmat)ning ishlab chiqarishni qaerda tashkil etilishi;

-yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish lozimmi yoki korxonaning ishlab turgan quvvatlaridan (qayta qurollantirib) foydalanish mumkinmi;

-rejalashtirilayotgan korxonada ishlab chiqarishni eng maqbul xajmi qanday bo'lishi kerak;

-optimal quvvatlarga erishish uchun qanday investitsiyalar zarur;

-korxonalar xom-ashyo, butlovchi mahsulotlar hamda boshqa ishlab chiqarish resurslari bilan qanday ta'minlanadi.

-qanday texnologiya va vositalardan foydalaniladi;

-korxonalar boshqa korxonalar bilan kooperatsiya usulida ishlaydimi yoki hamma narsani o'zi ishlab chiqaradimi va x.k.

7. Ishlab chiqarishni tashkil etish. Bu bo'limda quyidagilar yoritilishi kerak:

-rejalashtirilayotgan korxonaning tashkiliy tuzilishi;

-korxonani kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasi, zarur mutaxassislar ruyhati, ularning malakasi, ish tajribasi;

-turli kategoriyada ishlovchilarning ijtimoiy imtiyozlarini qo'shgan holda ish haqi shakllari va darajasi qanday bo'ladi;

-korxonaning texnologik chizmasi.

8. Korxonaning tashkiliy reja shakli.

-rejalashtirilayotgan korxonaning mulk shakli hamda huquqiy maqomi (xususiy korxonasi, hissadorlik jamiyati, ijara korxonasi, qo'shma korxonasi va x.k.);

-korxonada potentsial investor qanday huquqlarga ega bo'ladi (boshqarishda qatnashishi, aktsiyalar paketidagi hissasi va x.k.);

-rejalashtirilayotgan korxonaning xomiylari (sponsorlari) yoki investorlari kimlar (davlat tashkiloti, bank, xususiy korxonasi va boshqalar);

-mavjud xomiyalar yoki investorlar uchun qanday huquqlar berilgan (boshqarish, moliyaviy nazorat va boshqa masalalar bo'yicha);

-ushbu mulk shaklidagi korxonasi qanday yuridik huquqlarga ega (korxonaning huquqiy statusini tartibga soladigan normalarini qisqacha yoritiladi), potentsial investor, unga beriladigan huquqlarga ega bo'lish uchun qanday yuridik holatlarni amalga oshirish kerak (birgalikda egalik qilish, xomiylik, aktsioner) va bu joydagi milliy qonunlar bo'yicha qanday huquqiy javobgarlikka ega va h.k.

9. **Moliyaviy reja** bu bo'limda qo'yidagilar yoritilishi kerak.

-korxonani tashkil qilish uchun qancha miqdorda umumiy investitsiya (sarmoya) kerak;

-moliyalashtirish manbalari qanday (aktsiyalar sotish, qimmatbaho qog'ozlar chiqarish, bank kreditini olish, korxonani tashkil etayotganlarning o'z mablag'i va x.k.);

-uzoq muddatli investitsiyalarga va aylanma kapitalga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish uchun qanday shartlar asosida moliya mablag'lari jalb etiladi.

10. **Loyihaning rentabelligi (foydaliligi)**. Bu bo'limda quyidagilar yoritiladi:

-korxonani tashkil etish bo'yicha investitsiya harajatlarining umumiy xajmi (asosiy va aylanma kapitallar, infratuzilmalar va boshqalar uchun investitsiyalar) hamda ularning mahsulot birligiga to'g'ri kelishi;

-rejalashtirilayotgan korxonani ishlatish, mahsulotini sotish yoki xizmatni tashkil etish qanchaga tushadi;

-mahsulotni sotishdan yoki xizmatdan keladigan umumiy daromadlar xajmi qancha bo'ladi;

-rejalashtirilayotgan korxonona (firma) qanday turdagi soliqlarni to'laydi;

-qarzga olingan mablag'larni qaysi muddatlarda va qanday xajmda qaytariladi;

-rejalashtirilayotgan korxonona (firma)ning umumiy foyda xajmi va normasi.

11. Iqtisodiy tahdidlar (risk):

- Loyihani bajarish davomidagi kutilmagan tabiiy sharoitlar;
- Ishlab chiqarish jarayoni va i/ch quvvatlarini chegaralanganganlig (kutilmagan holatlarda joriy remont ishlari va ish jarayoni davomida i/ch quvvatlarini pasayish holatlari);

- Tahdidlarini yuzaga kelish holatlarini to'liq hisobga olishlik darajasi, va ularni bartaraf etish tadbirlarini ishlab chiqilganligi.

“Bu muhim ustuvor vazifani izchil amalga oshirish uchun 2015 yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan maxsus dastur ishlab chiqilgan bo'lib, u **iqtisodiyot tarmoqlari va mamlakatimiz hududlarini istiqbolli** rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan dastur bilan uzviy bog'liqdir.”⁵⁰

Biznes rejaning Yuqoridagi bo'limlaridan tashqari Yana qo'shimcha ravishda quyidagi axborotlarni keltirish mumkin, Ya'ni moliyaviy mablag'lar va majburiyatlar, foyda va zararlar hisoboti, moddalar bo'yicha harajatlar va x.k lar.

Qisqacha xulosalar

Tadbirkorlik faoliyatining muvaffaqiyatga erishishi ko'p jihatdan *ishlab chiqarishni ichki rejalashtirishning* sifatiga bog'liq bo'ladi. U har bir korxonani boshqarishda eng muhim vazifa hisoblanadi. Bozor sharoitlarida korxonalar rejalashtirishning ustunliklaridan raqobatchilik kurashida foydalanadilar. Rejalashtirishning turli tarzda belgilanishi orasidan reja, biznes-reja, loyiha, texnik-iqtisodiy asoslash va umumiy rejalashtirishni ajratib ko'rsatish mumkin.

Rejalashtirish yordamida boshqaruv qarorlarini amalga oshirishning maqsad, vazifa va usullari aniqlanadi.

Rejalashtirish **ilmiylik, moslashuvchanlik, uzluksizlik, optimallik** kabi tamoyillarga asoslanadi. O'z mazmuniga ko'ra, rejalashtirish texnik-

⁵⁰ И. Каримов. “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараккиётини юксалтириш, халкимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади” // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

iqtisodiy va tezkor-ishlab chiqarish, reja hisob-kitoblarini aniqlashtirish darajasi va muddatiga ko'ra esa, strategik va taktik turlarga bo'linadi.

Bozor sharoitlarida korxonalar hamda investorlar va hamkorlar uchun biznes-rejani tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda bozorni tadqiq etishdan tortib to xaridorlarga sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatishgacha bo'lgan ko'plab savollarga javob topiladi.

Biznes-reja korxonaning turli tuzilmaviy bo'linmalari oldiga qo'yiluvchi bir qator vazifalarni kompleks ravishda hal qilish imkoniyatini yaratuvchi ko'rsatkichlar va bo'limlardan iborat bo'ladi.

Iqtisodiyotni reja asosida boshqarishni mukammallashtirishning muhim vazifalari qatorida norma va normativlarni tayyorlash, zaruriy ko'rsatkichlar tizimi hamda ularning rejadagi darajasini tanlash va yaratishni ko'rsatib o'tish mumkin.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Korxonalar faoliyatining samaradorligini qanday sabab va omillar belgilaydi?
2. Reja, rejalashtirish kabi tushunchalar nimani anglatadi?
3. Bozor va reja o'zaro qanday kelishuvga keladi?
4. Bozor sharoitlarida rejalashtirish vazifalari va ahamiyati.
5. Rejalashtirishdan talab qilinuvchi asosiy talablarni sanab o'ting.
6. Rejalashtirishning qaysi tarkibiy elementlari sizga ma'lum?
7. Reja bilan bashoratning farqi nimada?
8. Loyiha bilan texnik-iqtisodiy asoslashning farqi nimada?
9. Biznes-reja nima va uning tuzilmasi qanday?
10. Biznes-rejani tayyorlashning maqsad va vazifalarini aytib o'ting.
11. Biznes-reja bo'lim va ko'rsatkichlariga qisqacha tavsif bering.
12. Rejalashtirish usullari va ularning mohiyati.
13. "Norma", "normativ", "normalashtirish" tushunchalarining mohiyatini ochib bering.
14. Normalashtirishning usul va tamoyillari.

6- bob. Ishlab chiqarishning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi

6.1. Samaradorlikning iqtisodiy va ijtimoiy tushunchasi, korxonada ishlab chiqarish faoliyatida mohiyati va ahamiyati

6.2. Korxonada ishlab chiqarish samaradorligining tarkibiy qismlari va mezonlari

6.3. Ishlab chiqarish xarajatlarining umumiy (absolyut) va qiyosiy-iqtisodiy samaradorligi

6.4. Mamlakatni modernizatsiyalashtirish sharoitida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari

Tayanch iboralar: Samaradorligi, samara, rentabellik yoki kapitalning daromadliligi, korxonada nochorligi, to'lov qobiliyati koeffitsienti, xususiy va qarzga olingan mablag'lar nisbati koeffitsienti, moliyaviy mustaqillik koeffitsienti, xususiy aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik koeffitsienti, fan-texnika taraqqiyoti, tashkiliy-iqtisodiy omillar.

6.1. Samaradorlikning iqtisodiy va ijtimoiy tushunchasi, korxonada ishlab chiqarish faoliyatida mohiyati va ahamiyati

Hozirgi jahon iqtisodiyotining globallasuvi sharoitida har qanday jamiyatda ham ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish iqtisodiy taraqqiyotning asosini yaratadi.

«Biz islohotlarni inqilobiy usulda, ya'ni “**shok terapiyasi**” yo'li bilan amalga oshirishdan ongli ravishda voz kechib, tadrijiy taraqqiyot yo'lini tanlab olganimiz tufayli xalqimizni qanday ogir oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy to'fonlardan asrab qolishga muvaffaq bo'lganimizni bugun hayotning o'zi tasdiqlab bermoqda.»⁵¹

Shu sababli ham, iqtisodiyotning erkinlashtirilishi sharoitida ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish jiddiy masalalardan biri hisoblanadi. Hozirgi paytda ko'pgina resurslar chegaralangan, ularning aksariyati (metall, qurilish materiallari va boshqalar) xorijdan keltiriladi. Shuning uchun mavjud resurslardan oqilona foydalanish, mehnat unumdorligini oshirish, milliy va xorijiy sarmoyalarni ustuvor sohalarga

⁵¹ И. А. Каримов. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” маърузаси// Халқ сўзи газетаси, 12.11.2010.

joylashtirish kabi samaradorlikni oshirish vositalariga etarli darajada e'tibor berish talab qilinadi.

“Samara”, “samaradorlik”, “ ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik” kabi tushunchalarning orasidagi farqni anglab olish zarur.

Samara – bu, ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat), foyda va daromad hajmini oshirish, mahsulot tannarxini kamaytirish, sifatsiz mahsulot ishlab chiqarishni kamaytirish yoki umuman, yo'q qilish bilan bog'liq bo'lgan korxonada faoliyatining ijobiy natijalaridir. Bu yutuqlar natural shaklda *ishlab chiqarish samarasini*, pul shaklida esa *iqtisodiy samarani* tavsiflaydi.

"Samaradorlik" so'zi natija degan ma'noni beradi. Korxonalar iqtisodiyotiga bag'kshlangan aksariyat adabiyotlarda ishlab chiqarishning faqatgina iqtisodiy samaradorligi haqida so'z ketadi. Holbuki, mamlakatda ro'y berayotgan ijtkmoi o'zgarishlar kishilarning e'tiborini jalb g'dYalmoqda va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'rganish va ularga baho berish zaruriyatini tug'dirmoqda. Bugungi kunda ishlab chiqarishning qam iqtisodiy, ham ijtimoiy samaradorligini o'rganish o'ga muhimdir. Ular o'zaro uzviy bog'liq va bir-birini taqozo etadigan kategoriyalardir.

Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizda har tomonlama munosib yoshlarni vatanimiz kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan, jismoniy va ma'naviy sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalash uchun zarur barcha shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha aniq maqsadga qaratilgan keng ko'lamlı chora-tadbirlarni amalga oshirish imkonini tug'dirdi.

Islom Karimov

Samaradorlikning umumiy holati, jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Samaradorlik, avvalo, korxonada faoliyatining sifat jihatlarini tavsiflovchi tushunchadir. U “samara” toifasidan kelib chiqadi hamda unga qaraganda murakkab va kompleks tavsifga ega.

Samaradorlik chora sifatida ko'plab texnik, iqtisodiy, loyiha va xo'jalik qarorlarini avvaldan belgilab beradi. Korxonada o'zining xo'jalik, ilmiy-texnik va investitsion siyosatini belgilashda samaradorlikdan kelib chiqadi.


Iqtisodiy samaradorlik samaradorlikka qaraganda bir muncha tor ma'noni anglatadi. U qabul qilinayotgan qarorlarning xo'jalik yuritishda maqsadga muvofiqligini tavsiflaydi hamda barcha hollarda samaraning unga erishish uchun ketgan xarajatlar(ishlab chiqarish resurslari)ga nisbati sifatida aniqlanadi. Xarajatlar qanchalik kam bo'lsa (mahsulot sifatiga

ta'sir qilmagan holda), samara Shunchalik ortadi, demak, iqtisodiy samaradorlik ham ortadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik - chegaralangan resurslardan oqilona foydalangan holda erishilgan,- ahrlining ijtimoiy- iqtisodiy iste'mol darajasini yuksaltirishdir.

Ijtimoiy-iqtisodiy eqtiyojlarning qondirilishi - inson kamolotining yuksalishi, moddiy va ijtimoiy farovonligining o'sishi, madaniy va ma'naviy jihaxdan rivojlanishida ko'rinadi. Ilson farovonligi hamda kamoloti naqadar yuksalsa Shu qadar yuqori ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikka erishgan bo'ladi.

Ishlab chiqarish samaradorligi har bir korxonaga faoliyatining eng asosiy vazifasi hisoblanadi. U xo'jalik yuritishning sifat va miqdor ko'rsatkichlarini, Shuningdek, buyumlashgan va jonli mehnat xarajatlari hamda olingan natijalar o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi.



1-rasm. Respublikada 2010 yilda yaratilgan yangi ish o'rinlari tarkibi, foizda.

Manba. Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlari

Afsuski, bozor sharoitlarida "samaradorlik" tushunchasi, garchi, daromad olish, xarajatlarni kamaytirish, mehnat samaradorligining o'sishi, fond qaytimi, rentabellik va hokazolar samaradorlik tabiatiga mos kelib, bozor iqtisodiyoti talablariga zid kelmasada, baho, foyda, daromad, xarajat kabi tushunchalarga qaraganda kam qo'llanilmoqda. Samarali ishlash degani o'z mohiyatiga ko'ra, mo'ljallangan (rejalashtirilgan) foydani olish, noishlab chiqarish xarajatlari va yo'qotishlarni kamaytirish, ishlab

chiqarish quvvatlari va ishchi kuchidan yaxshiroq foydalanish, mehnat samaradorligini oshirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatini yaxshilashni anglatadi.

Ishlab chiqarishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi ushng pirovard maqsad natijasida o'z ifodasini topadi. Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik tarkibida iqtisodiy samaradorlik alohdtsa e'tiborga ega.

Iqtisodiy samara ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan iqtisodiy ne'matlar hajmi bilan ifodalanadi. Iqtisodiy samaradorlikning mezoni; xarajatlar bilan erishilgan iqtisodiy ne'matlar munosabatidir. Ishlab chiqarish jarayonida omillar (er, kapital, mehnat, tadbirkorlik) xarajat qilinadi va uning natijasida ma'lum miqdordagi ne'matlar yaratiladi. Xarajat bilan natijani taqqoslash orqali iqtisodiy samaradorlik ifodalanadi.

Ishlab chiqarishning natijasi ijtimoiy samaradorlik orqali ham ifodalanadi. Korxonaning ijtimoiy samaradorlik mezoni iste'molchilar ehtiyojlarini qondirish darajasi bilan belgilanadi. Ijtimoiy samaradorlikning ko'rsatkichlari ahlining daromadlar miqdori, ish bilan bandligi, salomatligini sakdash, mexrat malakasini yuksaltirish, madaniy va ma'naviy eqtiyojlarini qondirish, bo'sh vaqtlari kabilarni aniqlash bilan belgilanadi.

Biroq samaradorlik va uning asosiy ko'rsatkichi - foyda (daromad) o'z-o'zidan, avtomatik ravishda yuzaga kelmaydi. Turli korxonalarda samaradorlikka erishish uchun mavjud ishlab chiqarish quvvatlari va boshqa xususiyatlardan kelib chiqqan holda, turli vosita va yo'llardan foydalaniladi. Bunda vaqt omili, ya'ni samaradorlikka qisqa yoki uzoq muddatlarda erishishni mo'ljallash, asosiy rollardan birini o'ynaydi. Masalan, korxonada olayotgan foydasini qisqa vaqt mobaynida mahsulot sifatini yaxshilashni mablag' bilan ta'minlash, ishlab chiqarishni qayta qurollantirish va modernizatsiya qilish, xodimlar malakasini oshirishga ajratilayotgan mablag'larni kamaytirish yo'li bilan ko'paytirishi mumkin. Uzoq muddatli rejalarda esa bu, foydaning kamayishiga va hattoki korxonaning bozordagi o'rnini yo'qotishi natijasida bankrotga uchrashiga olib kelishi mumkin.

Ma'lumki, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi boshlanishi bilan unga qarshi birgalikda kurashish maqsadida "Katta yigirmalik" deb nom olgan davlatlar guruhi tashkil etilgan edi. Ushbu guruh tarkibiga yalpi ichki mahsuloti hajmi jahon yalpi ichki mahsulotning 90 foizini tashkil etuvchi 20 ta rivojlangan va rivojlanayotgan yirik davlatlar, jumladan, Argentina, Avstraliya, Braziliya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Hindiston, Indoneziya, Italiya, Kanada, Meksika, Xitoy, Rossiya, Saudiya Arabistoni, AQSH,

Turkiya, Frantsiya, JAR, Janubiy Koreya, Yaponiya, Evropa Ittifoqi davlatlari kiradi.

«Biz bugun 2010 yil yakunlarini baholar ekanmiz, avvalo, mamlakatimiz iqtisodiyotining yuqori barqaror o'sish sur'atlari va makroiqtisodiy mutanosibligi saqlanib qolayotganini qayd etishimiz zarur. Shuni yana bir bor eslatib o'tmoqchimanki, yurtimizda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari 2008 yilda 9 foiz, 2009 yilda 8,1 foiz, 2010 yilda esa 8,5 foizni tashkil etdi.»⁵²

Bugun dunyo iqtisodiyotidagi ahvolni tahlil qilar ekanmiz, jahon moliyaviy va iqtisodiy inqirozi hali-beri nihoyasiga etgani yo'q, deb aytishga barcha asoslarimiz bor.

Islom Karimov

Xorijiy firma va korxonalar o'z faoliyatlarida samaradorlikka erishish uchun ishlab chiqarish texnika va texnologiyalariga e'tiborni kuchaytirishdan tashqari, mahsulot sifatini oshirish va uni reklama qilishga alohida e'tibor qaratmoqdalar. Masalan, Yaponiyaning "Omron" firmasi o'ziga "Barchaning yaxshi hayoti, yaxshi dunyo uchun" degan iborani shior qilib olgan. Amerikaning "Katerpillar" kompaniyasining shiori "Dunyoning har bir burchagida 48 soat xizmat ko'rsatish" bo'lsa, "Ribok" firmasi "yaxshi bahodagi narx" iborasini shior qilib olgan. Bunday misollardan yana bir nechtasini keltirib o'tish mumkin.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqadiki, samara va samaradorlik qotib qolgan kategoriyalar qatoriga kirmaydi hamda faqatgina pul ko'rinishida o'lchanmaydi. Samaradorlik va sifatli mehnat tufayli korxonalar *birinchidan*, o'zining iqtisodiy barqarorligi va bozordagi raqobatchilikka bardosh berishini ta'minlaydi, *ikkinchidan*, o'z imidjini yaxshilaydi va hamkorlar bilan aloqalarini mustahkamlaydi, *uchinchidan*, xodimlarning iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini yaxshilaydi. Demak, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'llarini qidirish, xarajat va natijalarni to'g'ri solishtirish, mulkchilik shakli, qaysi tarmoqqa tegishliligi, hududiy joylashishi va faoliyat Buridan qat'i nazar, har bir korxonalar uchun muhim vazifa hisoblanadi.

Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi murakkab kategoriyadir. Unda ishlab chiqarish natijalariga hamda xarajatlarga ta'sir ko'rsatuvchi

⁵² И. Каримов. "Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади" – 2010 йилнинг асосий якунлари ва 2011 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

omillar mujassamlangandar. Unda ishlab chiqarish natijalarining o'sishi, mahsulot sifatining yaxshilanishi hamda mahsulot assortimenti tuzilishining ijtimoiy ehtiyojlar tuzilishiga to'g'ri kelida o'zining aksini topadi.

6.2.Korxonada ishlab chiqarish samaradorligining tarkibiy qismlari va mezonlari

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish – korxonada rahbariyatining doimiy vazifasidir. Bu vazifani echish amaliyotida quyidagi omillar bilan bog'liq bo'ladi:

*85 bozor talablariga javob beruvchi yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishda eng kam xarajatlar bilan ishlab chiqarishning maksimal hajmini ta'minlovchi, optimal ishlab chiqarish jarayonini tanlash;

*86 iste'molchilar talabini qondirishga yo'naltirilgan mahsulotni sotish va yuqori daromad (foyda) olish;

*87 aylanma vositalarni tejash imkoniyatini yaratuvchi optimal ishlab chiqarish zahiralari yaratish.

Xo'jalik samaradorligini oshirish omillarining yuqorida sanab o'tilgan har biri, faoliyat yuritishning turli shakl va ko'rinishlari yordamida, ishlab chiqarish samaradorligi asosida yotuvchi xarajatlar va resurslarning o'zaro aloqasini inobatga olgan holda amalga oshiriladi (1.-jadval).

1 - jadval

Mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishdagi xarajatlar va resurlarning o'zaro aloqasi

Moddiy va buyumlashgan shaklda		Pul shaklida	
<i>Resurslar</i>	<i>Xarajatlar</i>	<i>Resurslar</i>	<i>Xarajatlar</i>
Ishchi kuchi soni	Mehnat (sifat va miqdor)	Mehnat haqi fondi	To'langan oylik miqdori, jumladan, mukofot va qo'shimchalar
Bino, inshoot, mashina va uskunalar (mehnat qurollari)	Mehnat qurollarining eskirishi	Asosiy kapital	Amortizatsiya ajratmalar
Mehnat	Iste'mol, talab, materiallar,	Aylanma	Sarflangan xom ashyo, material va

predmetlari	yoqilg'i, energiya va hokazo	kapital	hokazolar qiymati
Tayyor mahsulot	Dizayn, reklama, qadoqlash, tovar yo'qotishlari	Muomala fondlari	qo'shimcha xarajatlar (qiymat)
-	-	Pul mablag'lari	Kredit uchun foiz

Xo'jalik samaradorligini baholash, korxonada foydalaniladigan resurs turlari bo'yicha amalga oshirilishi va miqdor jihatidan o'lchanishi mumkin.

Ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligi o'sishining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- Mahsulot sifati va tarkibining yaxshilanishi;
- Jonli mehnat unumdorligining o'sishi;
- Material sarfining kamayishi;
- Fond samarasining oshishi.

Yuqoridagilardan shuni anglash lozimki, ishlab chiqarish samardorligini o'lchash uchui ko'rsatkichlar tizimi zarur.

Bu ko'rsatkichlardan eng muhimi ijtimoiy mehnat unumdorligidir. U vaqtni tejash qonunining amal qilishini ifodalaydi. Bu ko'rsatkichni quyidagi usulda aniqlash mumkin:

$$IMU = MD : JM$$

Bunda: **IMU** - ijtimoiy mehnat unumdorligi;

MD - milliy daromad;

JM - moddiy ishlab chiqarish sohasida band bo'lgan ishchilarning o'rtacha soni.

Milliy daromad iqtisodiyotning eng ko'rsatkichi, samaradorlik mezoni, jamiyat boyligini to'laroq tavsiflovchi iqtisodiy vositadir. U mamlakat xalqining farovonligi va barqaror rivojlanishining moddiy manbaidir. Shuning uchun ham uni oshirishning barcha vositalari va yo'llari ishga solinadi.

Milliy daromad - bu moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida yaratilgai kiymatdir. U yalpi ijtimoiy mahsulotning bir qismidir. Aniqroq aytganda, u yalpi ijtimoiy mahsulot qiymatidan ishlab chiqarish jarayonida sarflangan xom ashyo, yonilg'i, energiya va boshqa ishlab chiqarish vositalari qiymatini chiqarishdai keyin qolgan qiymatdir. O'z navbatida, moddiy ishlab chiqarishning alohida-alohida tarmoqlarida Yalpi mahsulot qiymatidan moddiy ishlab chiqarish xarajatlarini ayirib tashlash yo'li bilan

sof mahsulot anikdanadi.

«Keyingi o'n yilda, ya'ni 2000 yilga nisbatan taqqoslaganda, 2010 yilda mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot qariyb 2 barobar, aholi jon boshiga hisoblaganda esa 1,7 barobar oshdi. Xarid imkoniyatlari mutanosibligini hisobga olgan holda sanaganda, yalpi ichki mahsulotning 2010 yilda 2000 yilga nisbatan o'sishi 2,6 karrani tashkil qildi.»⁵³

Milliy daromad moddiy ishlab chiqarishning sof mahsuloti hisoblanadi. U baholarning o'zgarib turishidan tozalangan, o'zgarmas baholarda hisoblangan taqdiridagina iqtisodiyotning haqiqiy ko'zgusi bo'la oladi.


Milliy daromadning o'sishi asosan, **ikkita omilga** - ishlab chiqarishda **band bo'lgan kishilarning soniga** va ular **mehnat unumdorligining** oshishiga bog'liq, Bu ikki omil jamiyat taraqqiyotiniig turli davrlarida turlicha ahamiyatga ega. Fan-texnikaning shiddatli taraqqiyoti ro'y berayotgan hozirgi sharoitda ikkinchi omilning roli oshmoqda.

Bu xulosaning to'g'riligini rivojlangan mamlakatlarda hamon ishsizlik yuqori darajasida saqlanib qolayotgani ham yana bir bor tasdiqlaydi (2-rasm).

Rasmdan ko'rinadiki, rivojlangan mamlakatlarda ishsizlik darajasi keskin ravishda ortib bormoqda. Xususan, inqirozning dastlabki pallasidagi iqtisodiyotga keskin ta'siri pasayganiga qaramay, ishsizlik darajasi AQSH va Germaniyada 10,6 foizni, Buyuk Britaniyada 9,3 foizni, Yaponiya 6,2 foizni tashkil etmoqda.

Moddiy ishlab chiqarishning- ayrim tarmog'larida unumdorlik yalpi mahsulot nisbati orqaly aniklanadi. Ijtimoiy mehnat unumdorligining o'sish tempini aniqlash uchun ko'rsatkichlarni taqqoslash xamda taqqoslama narxlarda ko'rish zarur ekanligini hisobga olish shart.

⁵³ И. Каримов. “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади” – 2010 йилнинг асосий яқунлари ва 2011 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.



*Izoh: 2010 yilda tezkor holda oldindan olingan ma'lumotlar keltirilgan.

2-rasm. Rivojlangan mamlakatlarda ishsizlik darajasi.

Mehnat unumdorligining oshishi xodimlar malakasiga, ularning tajribasiga, ishlab chiqarishning tashkil etish darajasiga bog'liq. Mehnatning fond bilan qurollanish miqdori (ayniqsa sifati) unumdorlikka sezilarli ta'sir etadi. Fond bilan kurollanish, (FQ) fondlar qiymatining ishchilar soniga nisbati ko'rinishida o'lchanadi va quyidagi formulada ifodalanadi:

$$F = FQ : Is$$

F - Fond bilan kurollanish,

FQ - asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymati;

Is - ishchilar soni.

Misol: Korxonaning asosiy ishlab chiqarish fondlarini o'rtacha yillik kiymati 40.0 mln. so'mni tashkil etadi. Korxonada 120 kishi ishlaydi. Korxonada ishchilarining fondlar bilan kurollanganligi $40.0:120=333.3$ ming so'mga teng.

Xalq xo'jaligi nuqtai nazaridan qaraganda mehnat unumdorligining har qanday oshishi emas, balki jonli mehnatni tejash, uning texnika bilan qurollanish darajasining o'sishiga ketgan ko'shimcha xarajatlarni mumkin qadar qdsqa muddatlarda qoplaydigan darajada oshishigina samaralidir.

Mehnat unumdorligining yana bir ko'rsatkichi **mehnat sig'imidir** (MS). Bu ko'rsatkich yaratilgan mahsulot kiymatiga to'g'ri keladigan mehnat xarajatlari tusida bo'ladi. Uni kuyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

$$M_s = M_h : M_s, \text{ bu erda}$$

M_h - mahsulot hajmi, m
iqdori.

M_s - mehnat sarfi;

Bu ko'rsatkich mehnat unumdorligining teskarisi bo'lib, uning hajmi qancha yuqori bo'lsa, natijaning yomonlashganligi va aksi bo'lsa, (ya'ni past bo'lsa) natijaning yaxshilanganligidan dalolat beradi, u asosan korxonada darajasida aniklanadi.

Misol. Korxonada bir smenada - 8 soatda 800 ta engil mashina detali ishlab chiqarildi: bu 1 soatda 100 dona "detal" ishlab chiqarilganligini ko'rsatayapti (800:8).

Ishlab chiqarish korxonalarida aniklanishi mumkin bo'lgan texnologik mehnat sig'imini, ishlab chiqarish mehnat sig'iminin to'liq, mehnat sig'imini farqlash va anglash lozim.

Ijtimoiy mahsulot sig'imi - bu ko'rsatkich xom ashyo materiallar, yonilg'i, energiya va boshqa mehnat tsredmetlari xarajatlarining yangi ijtimoiy mahsulotga bo'lgan nisbati bilan aniqlanadi.

Korxonalarining mahsulot sig'imi shu mahsulotni yaratilishi uchun ketgan moddiy xarajatlarning jami ishlab chiqarilgan mahsulotga bo'lgan nisbati orqali aniqlanadi. ya'ni:

$$M_dS = M_x : I_m$$

M_dS - mahsulot sig'imi turli shaklda;

M_x - moddiy xarajatlarning umumiy hajmi;

I_m - ishlab chiqarilgan mahsulot umumiy hajmi.

Korxonada faoliyati samaradorligi ko'rsatkichlaridan yana biri mahsulotning kapital sig'imidir. Ma'lum, bir darajada kapital sig'imi hamda fondlar sig'imi bir-biriga zid ko'rsatkichlardir.

Mahsulotning kapital sig'imi odatda ishlab chiqarilgan mahsulotni ko'paygan (o'sgan) qismining kapital qo'yilmalar nisbati bilan belgilanadi.

Bu ko'rsatkichni quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

$$K_o = A_o : K$$

Bu erda: K_o - mahsulotning kapital sig'imi;

A_o - yaratilgan umumiy mahsulotning o'sgan qismi.

K - kapital qoyilmalarni umumiy hajmi;

Xalq xo'jaligi darajasida bu ko'rsatkich kapital xarajatlarning milliy daromadga nisbati ko'rinishida hisoblanadi.

Korxonada darajasida fondlarni samaradorligini hisoblaganda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$F_s = F : O$$

Bu erda: Fs - fondlar sig'imi;

F - asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha qiymati;

O - yaratilgan mahsulotning umumiy hajmi (odatda yalpi mahsulot).

Fondlar sig'imini xuddi kapital sig'imi singari milliy daromadga nisbatida ham hisoblash mumkin.

Xalq xo'jaligida, uning ayrim tarmoqlarida, Shu jumladan sanoatda fondlar qaytimi ko'rsatkichi hisoblanadi. Bu fondlar sig'imi ko'rsatkichining aksidir.

Fond unumi (FU) asosiy ishlab chiqarish fondlardan foydalanish samaradorligini tavsiflaydi. U asosiy fondlar muayyan miqdoriga to'g'ri keladigan mahsulot miqdori bilan o'lchanadi.

$$FU = MM : AF$$

Bu erda: MM - mahsulot miqdori

AF- asosiy fondlar miqdori.

Fond unumi, mehnat unumdorligi va uning fond bilan qurollanishi o'rtasida aloqa mavjud. U quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$FU = MU : FQ$$

Bu erda: FU - fond unumi;

MU - mehnat unumdorligi.

FQ - mehnatning fond bilan qurollanishi.

Bu bog'liqlikdan Shu narsa kelib chiqadiki, mehnat unumdorligi mehnatning fond bilan qurollanishiga qaraganda tezroq o'sib borgan taqdirdagina fond unumi oshadi. Va aksincha, agar mehnat unumdorligi o'sishi fond bilan qurollanishining o'sishidan orqada qolsa, fond unumi pasayadi.

Samaradorlikni tashkil etuvchi omillar va uni ifodalovchi konkret ko'rsatkichlar bilan bir qatorda "Korxonalar iqtisodiyoti" fanida va xo'jalik tajribasida hozirgi vaqtda samaradorlikning mavjud ko'rsatkichlari bilan bir qatorda murakkab, umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarni ham qullash borasidagi masala ko'yilmoqda.

Fan va texnikaning shiddatli rivojlanayotgan hozirgi sharoitida zamonaviy ishlab chiqarish vositalarini amaliyotga kiritish iqtisodiy samara bilan bir qatorda og'ir jismoniy mehnatni mashinalar mehnati bilan almashtiriga, ishlab chiqarishda shikastlanish va kasb kasalliklarini bartaraf etish, fondlar va energiya bilan ta'minlanish darajasini rshirish, yuqori malaka talab qiladigan va manfaatdorlikni oshiradigan jozibali kasblarga talabni paydo qilish hamda mavjud kasblarga yoshlarda rag'bat uyg'otish va boshqa ijtimoiy muammolarni ham hal etishi lozim.

Insoniyat xar tomonlama etuk (barkamol) qilish uchun zamin

yaratishni maqsad qilib qo'yish - jamiyatning pirovard ijtimoiy samaradorlik mezonidir.

Darhaqiqat, jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa barcha muammolarni hal qilishning asosiy yo'li – bu milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va yuksalishga erishishdir. Aholi farovonligining oshib borishi ham pirovard natijada iqtisodiy o'sish darajasi va sur'atlariga bog'liq.

Iqtisodiy o'sish bevosita yalpi ichki mahsulot hajmining mutlaq va aholi jon boshiga ko'payishi hamda iqtisodiy resurslar xarajatlarning har qaysi birligi hisobidan o'sishi, sifatining yaxshilanishi va tarkibining takomillaShuvida o'z ifodasini topadi. Iqtisodiy o'sishni YAIM mutlaq hajmi yoki

Shuni yana bir bor eslatib o'tmoqchimanki, yurtimizda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari 2008 yilda 9 foiz, 2009 yilda 8,1 foiz, 2010 yilda esa 8,5 foizni tashkil etdi. Jahon moliya institutlarining xulosasiga ko'ra, bu dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biri ekani albatta barchamizga mamnuniyat bag'ishlaydi.

I.A. Karimov

aholi jon boshiga real YAIM miqdorining ortishi asosida o'lchash uning qanday maqsadda amalga oshirilayotganiga bog'liq bo'ladi. Odatda biron-bir mamlakatning iqtisodiy o'sishini YAIM mutlaq hajmining ortishi asosida o'lchash, uning iqtisodiy salohiyatini baholashda, aholi jon boshiga real YAIM miqdorining ortishi orqali o'lchash esa mamlakatdagi turmush darajasini taqqoslashda qo'llanadi.

Ishlab chiqarishning ijtimoiy samaradorligini ifodalovchi bir kancha ko'rsatkichlar mavjud, jumladan, mahsulot (ish, xizmat)larga talabning qondirilishini tavsiflovchi qo'rsatkichlar, myohnat sharoiti vatabiatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar.

Mahsulot- (ish, xizmat)larga iste'molchilar talabining qondirilishini tavsiflovchi ko'rsatkichlarga quyidagilarni keltirish mumkin:

- mahsulot (ish, xizmat)lar tarkibining iste'molchilar talabiga mos kelish koeffitsienti. Bu ko'rsatkich tovar zaxiralarida turib qolgan (o'tmas) tovarlarning hissasi ko'rinishida tavsiflanadi. Bu ko'rsatkichning o'sishi ijtimoiy samaraning pasayayotganidan darak beradi, erkin iqtisodiyot sharoitida mahsulot (ish, xizmat)ning sifati va uning iste'molchi talabiga mos kelishi uchun kurash korxonalar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi;

- reklama vositasida mahsulot (ish, xizmat)larning mavjud turlari bilan iste'molchilarni tanishtirish darajasi. Hozirga paytda xaridorni

tovarlarning xususiyatlari, sifati va boshqa afzalliklari ko'proq kiziqtiradi. Bu masalalarda esa unga reklama yordam beradi. Uning mahsulot (ish, xizmat)larni iste'molchilarga tanishtirish darajasini o'rganishda turli shakldagi reklamalardan (televidenie, radio va gazetalardan, sportchilardan) foydalanuvchi korxonalar hissasini aniqlash kerak bo'ladi;

- iste'mol savatchasi doirasida iste'molni ta'minlash koeffitsienti va boshqalar.

Ishlab chiqarishning ijtimoiy samaradorligini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlar tarkibida mehnat sharoiti va tabiatini tazsiflovchi ko'rsatkichlar alohida o'rin egallaydi. Ular asosan, quyidagilardan iborat:

- mehnatni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish darajasi;
- mehnat jarayonlarini robotlashtirish darajasi;
- ishlab chiqarishda ko'llanilayotgan texnologiyalar, asbob uskunalar va mexanizmlarning ilg'orlik (zamonaviylik) darajasi;
- mehnatni elektrlashtirish darajasi;
- isitish, sovutish, yuklash-tushirish, ko'tarish-yuklash uskunalar va boshqa asboblardan haqdqiy ta'minlanishning me'yorlarga mosligi darajasi;

- bino va inshootlarning davr talablariga javob berish darajasi (ularning zamonaviy loyiha asosida qurilishi, ularda ishlash va dam olish, tibbiy yordam ko'rsatish uchun shart-sharoitlarning mavjudligi);

- o'ralgan, qadoqlangan va idishlarga solingan mahsulotlarning ishlab chiqarilgan jami mahsulotlardagi hissasi;

- korxonalarining sog'lomlashtirish, sport va maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalari va boshqalar bilan ta'minlanganlik darajasi;

- korxonalarda xodimlar va mutaxassislar safining to'ldirilishi koeffitsienti. Bu haqiqiy ishlovchi xodimlar sonini belgilangan me'yor bilan qiyoslash asosida aniqlanadi;

- korxonalar xodimlarining davolanish va sayoxat uchun yo'llanmalar bilan ta'minlanish darajasi;

- xodimlar va mutaxassislar tayyorlash, qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishni tashkil etish darajasi;

- ishlab chiqarish jarayonida aqliy mehnat hissasiningning va ijodkorlikning oshib borishi, mehnat intizomi buzilishi holatlarining kamayishi, xodimlar qo'nimsizligini pasaytirish va boshqalar.

“Ayni paytda barchamiz bir haqiqatni o’zimizga aniq tasavvur etishimizni istardim. Ya’ni, erishilgan bunday marralar – barqaror rivojlanib borayotgan iqtisodiyotga asoslangan, ochiq demokratik huquqiy davlat qurish, inson, uning manfaatlari, huquq va erkinliklari so’zda emas, amalda oliy qadriyatlar darajasiga ko’tarilgan, jahon miqyosida obro’-e’tibor qozongan jamiyat barpo etish borasida biz o’z oldimizga qo’ygan yuksak maqsadga qaratilgan uzoq va murakkab yo’lning bir qismi, xolos.”⁵⁴

Qayd etilgan ko’rsatkichlar ijtimoiy samaradorlikning aloxdtsa yo’nalishlarini tavsiflaydi. Ular birgalikda hqsoblansa va ijtimoiy samaradorlikni baholashda birgalikda qo’llanilsa, ishlab chiqarishning ijtimoiy samaradorligiga to’liq bahr berish imkoniyatani tug’diradi.

Ishlab chiqarishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik ko’rsatkichlari uzviy bog’liq. Ijtimoiy samarani oshirmasdan turib iqtisodiy samarani o’stirib bo’lmaydi va aksincha.

6.3. Ishlab chikarish xarajatlarining umumiy (absolyut) va qiyosiy, iqtisodiy samaradorligi

Mahsulot (ish, xizmat) birligi uchun sarflangan mablag’ ishlab chiqarish xarajatlari deyiladi. Xarajatsiz hech qanday iqtisodiy faoliyat yuz bermaydi, uni qilmasdan turib foyda topish mumkin emas.

Iqtisodiyotda xarajatlarning umumiy miqdori emas, ularning samarasi muhdm. Xarajatlar samaradorligini to’liqroq ifodalash uchun kiymat va natural ko’rsatkichlarga umumlashgan tavsif berish kerak bo’ladi, Bu maqsadga erimishda xarajatlarning **umumiy (absolyut) va qiyosiy, iqtisodiy samaradorligi** xizmat kushadi.

Rejalashtirishda va loyihalashtirishda umumiy iqtisodiy samaradorlik olinaditan natija (samara)ni kapital xarajatlarga nisbati, qiyosiy iqtisodiy samaradorlik esa turli variantlar o’rtasidagi joriy xarajatlar farqining kapital xarajatlar farqiga nisbati ko’rinishida aniqlanadi.

Umumiy va qiyosiy iqtisodiy samaradorlik bir-birini to’ldiradi, ular asosida xarajat va natijani solishtirish yotadi. Ulardan quyidagilarni hal etishda foydalaniladi:

- kapital xarajatlarni talab etuvchi masalarni hal etishda eng yaxshi

⁵⁴ И. А. Каримов. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” маърузаси// Халқ сўзи газетаси, 12.11.2010.

variantni tanlashda;

- ko'rib chiqilayotgan variantlardan eng yaxshisini amalga oshirgap sharoitida solishtirilib ko'rilayotgan variantning mavjud bo'lgan boshqa variantvardan haqiqatda eng yaxshisi ekanligiga ishonch hosil qilishda, kapital xarajatning samaradorligini baholashda.

Kapital xarajatlar samaradorligi xalq xo'jaligi miqyosida milliy daromadning, tarmoqdar va korxonalar miqyosida esa foydaning o'sishini, bu o'sishga imkoniyat yaratuvchi kapital xarajatlarga munosabatini ko'rsatuvchi umumiy (absolyut) samaradorlik koeffitsienti bilan tavsiflanadi.

Umumiy samaradorlik koeffitsienti rejalashtirish darajasiga bog'liq turli formulalar bilan ifodalanadi.

Butun bir xalq xo'jaligi xarajatlarning umumiy iqtisodiy samaradorligi aniqlanganda milliy daromadning (uning o'sishiga sabab bo'lgan) kapital xarajatlarga bo'lgan nisbati orqali aniqlanadi. Ya'ni:

$$S_{xx} = DMD : AK$$

Bu erda: S_{xx} – xalq xo'jaligi bo'yicha umumiy iqtisodiy samaradorlik;

DMD - milliy daromadning yillik o'sishi;

AK - ishlab chiqarishga sarflangan kapital xarajatlarning o'sgan qismi.

Alohida tarmoqlar hamda korxonalarda asosiy fondlarni takror ishlab chiqarishning shakllari (texnikaviy kurollash va qayta qurollash, rekonstruksiyalash, korxonalar va tashkilotlarni kengaytirish) bo'yicha umumiy iqtisodiy samaradorlik ko'paygan foydaning (ishlab chiqarish xarajatlarning kamayishi) (AF), kapital xarajatlarning (K) o'sgan qismi nisbati ko'rinishida bo'ladi, Ya'ni,

$$S_{ich} = AF : AK$$

Bu erda: AF - foydaning o'sgan qismi.

AK - ishlab chiqarishga sarflangan kapital xarajatlarning o'sgan qismi.

YAngitdan qo'rilayotgan tsexlar, korxonalar va Shu kabi ob'ektlar va ayrim chora-tadbirlar bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarning umumiy iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichi (Sich) aniqlaganda foydani kapital xarajatlarning (smeta qiymati)ga bo'lgan nisbati olinadi, Ya'ni

$$S_{i.ch} = F : (M - X_{i.ch});$$

Bu erda: F - foyda;

M - loyiha bo'yicha yil davomida hisoblab chiqilgan mahsulot korxonalar ulgurji narxi bo'yicha;

X_{i.ch} - loyiha bo'yicha yillik mahsulotni ishlab chiqishga ketgan ishlab

chiqarish xarajatlari (tannarx).

Shuni qayd etish lozimki, alohida ayrim holatlarda xarajatlarning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini normativlar (me'yorlar) o'tgan davrdagi ko'rsatkichlar hamda boshqa Shu kabi korxonalar ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichlari bilan taqqoslash maqsadga muvofiqdir.

1990 yillarda xalq xo'jaligi bo'yicha xarajatlarning umumiy-mutloq iqtisodiy samaradorligi normativi (Sich.). 0.12 darajasida belgilangan. Iqtisodiyotning alohida tarmoqlari bo'yicha bu normativ tabaqalashtirilgan. Shuni ta'kidlash lozimki, xalk, xo'jaligining ayrim tarmoqlariga mo'ljallangan xarajatlarning umumiy iqtisodiy samaradorligi normativi 0.12 dan nast bo'lishi mumkin. Masalan, xalq xo'jaligi bo'yicha ishlab chiqarish xarajatlarini qoplash muddati (iqtisodiy samaradorlik normasi 0.12 bo'lganda) 8.33 yilga (1:0.12)ga teng. Ma'lumki, ishlab chiqarish korxonalaridagi ayrim mashinalar, jihozlar, asbob uskunalar 6-7 yildan keyin ma'naviy eskira boshlaydi, Shu davrgacha ularni to'liq tiklashga to'plangan amortizatsiya summasi etarli bo'lmaydi, natijada korxonalaridagi ishlab chiqarish jarayonlarida to'sqinliklar paydo bo'ladi.

Erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi talabini to'laroq qondirgan, raqobatbardosh mahsulotlarni ko'proq ishlab chiqarish xar bir korxonaning kundalik vazifasiga aylangan.

“Agar o'n yil oldin, ya'ni 2000 yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida sanoatning hissasi atigi 14,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda bu ko'rsatkich 24 foizni, transport va aloqaning ulushi tegishli ravishda 7,7 va 12,4 foizni tashkil etdi, xizmatlar bo'yicha bu raqam 37 foizdan 49 foizga o'sdi.”⁵⁵

Bu esa ishlab chiqarish korxonalarini to'g'ri joylashtirish, tsexlarni texnik jihatidan yangitdan jihozlashtirish, amaldagi korxonalarni rekonstruktsiya qilish, eksportga mo'ljallangan raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish, bir-birining o'rnini bosa oladigan mahsulotlarni yaratish, yangi texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq xo'jalik yoki texnik masalalarni xalq etishda ularning turli variantlarvdan foydalanshpni talab kdpadi. Bunday sharoitda xarajatlarning siyosiy iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichini hisoblash tavsiya etiladi.

⁵⁵ И. Каримов. “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади” – 2010 йилнинг асосий яқунлари ва 2011 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

Korxonalarda kapital xarajatlarni amalga oshirishdan oldin investitsion loyihalarning bir nechta varianti tuziladi va ular bir-biri bilan qiyoslanadi. Shu asosida optimal ko'rsatkich - eng kam (minimum) keltirilgan xarajatlar aniqlanadi.

Har bir variantlar bo'yicha keltirilgan xarajatlar deyilganda joriy xarajatlar (tannarx) va kapital xarajatlarning bir xil o'lchamga keltirilgan ko'rsatkichlar ($N_{sx}-K_1$)ni nazarda tutiladi. U quyidagi formula yordamida hisoblanadi.

$$KX = X_j + N_{sk}$$

Bu erda: KX - Shu variant bo'yicha keltirilgan xarajatlar;

X_j - Shu vaqt bo'yicha joriy xarajatlar (tannarx);

N_{sk} - kapital xarajatlarning normativ koeffitsienti;

Yuqorida qayd etilganidek, xalq xo'jaligi bo'yicha koeffitsient 0.12 hisoblanib, bu ko'rsatkich tarmoqpar bo'yicha tabaqalashtiriladi.

Tabakashtirish fan-texnika taraqqiyoti, mintaqalar hamda tarmoqdar xususiyatlari, qurilish davri va hokazolar hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

Korxonalarning xo'jalik yuritish natijalarini yaxshilashda va iqtisodiy samaradorligini oshirishda ishlab chiqarish infratuzilmalarining o'rni beqiyosdir.

Ishlab chiqarish infratuzilmasiga xilma-xil turdagi ob'ektlar, aloqa, elektr, neft, gaz, suv ta'minoti tizimi, moddiy-texnikaviy ta'minot (omborxonalar, xolodil'niklar, mahsulotni saqlash joylari va h.k.), ma'lumotlarni qayta ishlash va hisoblash texnikalari - kompyuterlar, internet tarmoqlar kiradi.


Ishlab chiqarish infratuzilmalari samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkich sifatida ishlab chiqarish samaradorligi hisoblanadi, Ya'ni bularga transport vositalaridan to'g'ri va to'la foydalanish, elektr energiya, gaz, suv hamda yonilg'ini har bir so'mlik ishlab chiqishgan mahsulotga sarfini kamaytirib borish, omborxonalardan, xolodil'niklardan samarali foydalanish, kompyuter texnologiyasini ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishda keng qo'llash va hokazo hisoblanadi.

Korxonada faoliyatini tahlil qilganda, uning istiqbolini belgilaganda, faoliyatiga baho berganda faqatgina xarajatlarning umumiy iqtisodiy samaradorligi hakida hamda qiyosiy samaradorlik ko'rsatkichlarini o'rganish bilan chegaralanmaslik kerak. Korxonada faoliyati samaradorligini qushimcha ko'rsatkichlar - mehnat unumdorligi, fondlar sig'imi, fondlar qaytimi, kapital ko'yilmalar, xom ashyo materiallarini, yonilg'i, energiya, ishlab chiqarish xarajatlari darajasining pasayishi hamda ijtimoiy natijalari

ko'rsatkichlari orqali o'rganish zarurdir.

Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi sharoitida korxonalar faoliyatiga baho berish mezonlari sifatida foyda za rentabellik ko'rsatkichlari hisoblanadi. Shu sababli, korxonaning ishlab chiqarish faoliyati, asosan foydani ko'paytirishga va rentabellik darajasini oshirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Bu, albatta mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish, maqsadsiz xarajatlarni kamaytirish, mehnat unumdorligini oshirish, Yangi texnologiyani joriy etish va hokazolar hisobiga erishiladi.

Mamlakatimizda qabul qilingan Inqirozga qarshi choralar dasturi doirasida iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha belgilangan vazifalarning izchillik bilan amalga oshirilishi, jumladan, mahsulot eksport qiluvchi korxonalarining byudjet oldidagi va bank kreditlari bo'yicha qarzlarni to'lash muddatlarining uzaytirilishi, sanoat korxonalarida mahsulot tannarxini kamaytirish bo'yicha ko'rilgan choralar, ichki talabni ko'paytirish orqali sanoat korxonalarini mahsuloti bozorini kengaytirish, zarar ko'rib ishlayotgan sanoat korxonalarini banklar balansiga o'tkazish orqali ularni moliyaviy sog'lomlashtirish ishlari yirik investitsiya dasturlarini muvaffaqiyat bilan amalga oshirish va sanoat ishlab chiqarishining 2010 yilda ham ijobiy dinamikasi ta'minlanishiga olib keldi.



3-rasm. O'zbekiston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishining o'sish sur'ati (o'tgan yilga nisbatan foizda)

Korxonalar foyda olishi uchun eng avvalo, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni realizatsiya qilishdan tushgan pul tushumi hisobidan qilingan xarajatlarni qoplashi zarur. Xarajatlarni hajmi qancha past bo'lsa,

foйда Shuncha ko'p bo'lishi hammaga ayondir. Shunday ekan, xar bir korxonada faoliyatida yangilikni joriy etish va investitsiyalarni jalb vdlsh zaruriy jarayonga aylanib borishi kerak. Zero, yangilikni joriy etish va investitsiya kiritish hozirgi iqtisodiy sharoitda korxonalariga yangi sanoat texnologiyalarini kiritishning eng qulay va ma'qul bo'lgan shakllari hisoblanadi.

Erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishga investitsiyalarni jalb etish korxonada faoliyatiga yangilikni kiritishga asos bo'lib hisoblanadi. Korxonada faoliyatining bozor talabi bilan bog'liqdagi sababli yangilikni joriy etishga iqtisodiy tabiati bozor talabi orqali belgilanadi: bozor yangiliklarining fan-texnika yangiliklaridan ustunligi sababli u asosiy omilga aylanadi. Korxonada, investitsiya va yangilikni joriy etishdagi bosh maqsad -bozor talabini qondirish asosida yuqori foyda olishdir.

Xarajatlarni koplash muddati - xarajatlar samaradorligining muhim ko'rsatkichlaridan biri **kapital xarajatlarni samaradorligini** hisoblashdan iborat.

2010 yilda davlat byudjetidan iqtisodiyotga qilingan xarajatlar 2009 yilga nisbatan 300 milliarddan ortib ketdi. Ushbu mablag'lar asosan

Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tasarrufidagi suv xo'jaligi tashkilotlari tomonidan iste'mol qilinadigan elektr energiyasi to'lovlari, Moliya vazirligi huzuridagi sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash fondi xarajatlarini moliyaviy ta'minlashga, hosildorligi past erlarda davlat

Aholi daromadi va farovonligini oshirish borasida ham sifat jihatdan chuqur o'zgarishlar yuz bermoqda. Aholining ish haqi va umuman, pul daromadlari barqaror oshib bormoqda, uning xarid qobiliyati muttasil o'smoqda, fuqarolarimiz iste'mol qiladigan mahsulotlar tarkibining sifati ortmoqda.

I.A. Karimov

extiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga yo'naltirildi va bularning barchasi agrar tarmoqda tarkibiy o'zgartirishlarni kengaytirishga, mahsulot tannarxini kamaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. 2011 yilda ham iqtisodiyotga qilinadigan xarajatlar 2010 yildagiga qaraganda 400 milliard so'mdan ko'p, ya'ni, 1952 milliard so'm bo'lishi ko'zda tutilmoqda.

Madaniyatli bozor munosabatlarining shakllanib borishi mobaynida tovar taqchilligining va ayrim monopol korxonalarining yo'qolishi sababli korxonalarda foydani o'stirishning asosiy yo'li -ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish va mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish xarajatlarini

kamaytirish bo'lib qoladi. Albatta, buning uchun korxonalar ishlab chiqarishga yangi texnika va texnologiyalarni joriy etishga, ishlab chiqarish ob'ektlarini kengaytirishga, qayta qurishga va yangitdan texnik jihozlariga ehtiyoj sezishadi. Bu esa, tabiiyki, qo'shimcha kapital xarajatlarni talab qiladi. Har bir tadbirkor kapital xarajatlarni sarf qilishdan oldin ular qaysi muddat ichida o'zini qoplashini ham hisoblab chiqadi.

Kapital xarajatlarning samaradorligi nuqgai nazaridan ularni qoplash muddati yil hisobida bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, kapital xarajat qoplash natijasida mahsulot (ish, xizmat) tannarxining pasayishi yoki mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan foyda kapital xarajatlarni necha yilda qoplashi tadbirkorni idiziqgiradi.

Kapital xarajatlarni amalga oshirish uchun ikkita variant mavjud bo'lsa, ularning birontasini tanlashda, ikkala variantlardagi kapital xarajatlarni summalari o'rtasidagi farqni variantlarning biron-biri bo'yicha ishlab chiqariladigan mahsulot (ish, xizmat) tannarxidan tejaladigan sumмага bo'lish yo'li bilan qo'shimcha kapital xarajatlarni qoplash muddati aniqlanadi.

Variantlarning qaysi biri ko'proq foyda berib o'zini tezroq qoplasa shu variant tanlanadi. Bunda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$M = (K_1 - K_2) : (T_1 - T_2)$$

Bu erda: M - kapital xarajatlarning qoplanish muddati;

K_1 va K_2 - birinchi va ikkinchi variantlar quyidagi kapital xarajatlari;

T_1 va T_2 - yillik mahsulotlarning birinchi va ikkinchi variantlar bo'yicha tannarxi.

Kapital xarajatlarni amalga oshirishda faqat bitta variant mavjud bo'lsa, kapital xarajatlarni summasi, mahsulot (ish, xizmat) tannarxidan tejaladigan summa yoki qo'shimcha olinadigan foydaga bo'lish orqali qo'shimcha kapital xarajatning qoplanish muddatini aniqlash mumkin:

$$M = (T_1 - T_0) : F$$

Bu erda: T_0 - qo'shimcha kapital xarajat qilingunga qadar ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxi;

T_1 - qo'shimcha kapital xarajat qilingandan keyin ishlab chiqariladigan mahsulot tannarxi;

F - foyda.

Xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish juda ham murakkab jarayon bo'lib, buning hamma uchun to'g'ri keluvchi yagona yo'li mavjud emas. Har bir korxonada bu masalani echishda o'z imkoniyatlari va yuzaga kelgan iqtisodiy shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda harakat qiladi. Biroq

barcha hollarda ham samaradorlikning asosida **foydani maksimallashtirish** yoki **xarajatlarni minimallashtirish** yotadi.

SHartli misol keltirib o'tamiz. Aytaylik, korxonaning 10 mln. so'm miqdorida mablag'i bo'lib, bu mablag'larni ishlab chiqarishni kengaytirishga sarflash mo'ljallangan. Hisob-kitoblar Shuni ko'rsatadiki, korxonaga 10 mln. so'm sarf qilganda qo'shimcha 11 mln. so'mlik mahsulot ishlab chiqaradi, ya'ni foyda 1 mln so'mni yoki qo'shilgan kapitalning 10 % qismini tashkil qiladi.

Agarda korxonaga ushbu mablag'ni bankka yiliga 12 %li depozit hisobiga qo'yganida, foizlar uchun 1,2 mln. so'm foyda olgan bo'lar edi. Demak, muqobil xarajatlarni hisoblaganda korxonaga 0,2 mln. so'm miqdoridagi qo'ldan chiqarib yuborilgan foydani ham hisobga olishi lozim.

Biroq ishga bunday yondashishning, bugungi bozor munosabatlari sharoitlarida keng tarqalgan bunday usulida, ya'ni eng ko'p foydaga ega bo'lish tamoyili asosidagi usulda, korxonaga foydani maksimal darajaga chiqarsada, ishlab chiqarishni kengaytirishga erisha olmaydi. Ishlab chiqarishni kengaytirish esa, barchaga ma'lum bo'lganidek, iqtisodiyotning rivojlanishi uchun eng muhim talablardan biri hisoblanadi.

6.4. Mamlakatni modernizatsiyalashtirish sharoitida ishlab chikarish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari

Hozirgi mamlakatni modernizatsiyalashtirish sharoitida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xo'jalik yuritishning bozor tizimi hamda har qanday davrning muhim talabidir. Samaradorlik istalgan korxonaning iqtisodiy barqarorligi va faoliyat yuritish qobiliyatini aks ettiradi. Har qanday ishda, jumladan, korxonalar faoliyatida samaradorlikning, ijobiy natijalarning mavjud bo'lmasligini, obrazli qilib aytganda, ovoragarchilik, vaqt, kuch va resurslarni yo'qotish bilan izohlash mumkin.

Fan-texnika taraqqiyoti korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib kelgan va hozirda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Mazkur omildan quyidagi yo'llar bilan foydalanish mumkin:

*88 ishlab chiqarish va mehnatni mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish hamda kompleks ravishdagi mexanizatsiyalashtirish;

*89 asosiy texnologik jarayonlarni robotlashtirish;

*90 progressiv, mehnat hamda resurslarni tejashga yo'naltirilgan texnologik jarayonlarni amaliyotga kiritish va ulardan keng foydalanish;

*91 xom ashyo va materiallar (mehnat predmetlari) zamonaviy turlarini Yaratish va ulardan foydalanish;

*92 ishlab chiqarishni tashkil qilish, rejalashtirish va boshqarish jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan, hisoblash texnikasidan foydalanish;

*93 ishlab chiqarish va mehnatni ilmiy tashkil qilish.

Amaliyotda fan-texnika taraqqiyotining, jumladan, uning tarkibiy qismlarining ahamiyati va rolini inkor qiluvchi yoki tushunmovchi korxonani topish amrimahol. Biroq ushbu omilni amalga oshirish uchun faqatgina hohish va istaklarning o'zigina etarli emas. Buning uchun **birinchidan**, fan-texnika taraqqiyotining ayni paytda zarur bo'lgan yo'nalishlarini izlash va aniqlash, **ikkinchidan**, pul mablag'larini va boshqa zarur bo'lgan resurslar (investitsiyalar) izlab topish, **uchinchidan**, zamonaviy ilmiy-texnikaviy ishlamalarga ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot institutlari, konstruktorlik, texnologik va boshqa ilmiy muassasalar bilan kerakli aloqalarni "bog'lash", **to'rtinchidan**, o'z ilmiy-texnikaviy maqsadlarining samaraliligini hisoblab chiqish talab qilinadi.

Ushbu xarajatlarning tarkibida ta'lim, sog'liqni saqlash, oilalarga ijtimoiy nafaqalar asosiy salmoqqa ega bo'lmoqda. Aholining turmush darajasi va daromadlarini izchil oshirib borish, ya'ni ish haqi, stipendiya, ijtimoiy nafaqa va pensiya miqdorini ko'paytirish yo'li bilan fuqarolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi kuchaytirildi.

Davlat byudjeti - davlat pul mablag'larining (shu jumladan, davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larining) markazlashtirilgan jamg'armasi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'larning sarf-xarajatlar yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Moliya tizimi barqarorligini ta'minlashdagi muhim qadamlardan biri bu 2010 yildan boshlab bir nafar o'quvchiga (tarbiyalanuvchiga) xarajatlarning bazaviy me'yorlaridan kelib chiqqan holda, maktabgacha tarbiya muassasalari, umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning byudjetini rejalashtirish va xarajatlarini moliyalashtirish tartibi mamlakatimizning barcha hududlaridagi mazkur muassasalarga tatbiq etildi. Natijada maqsadli yo'naltirilgan byudjetlashtirishning bunday usuli elementi byudjet muassasalari

moliyaviy mustaqilligining oshirilishini ta'minladi va xarajatlarning manzilli va maqsadli sarflanishi uchun sharoit yaratilishiga olib keldi.

Mahalliy byudjet - Davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'larning sarf-xarajatlar yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Byudjet dotatsiyasi - o'z daromadlari va byudjetni tartibga soluvchi boshqa mablag'lar etishmagan taqdirda quyi byudjetning xarajatlari bilan daromadlari o'rtasidaqi farqni qoplash uchun

Erkin bozor iqtisodiyotiga o'tish chuqur islohatlarni amalga oshirishni talab qiladi. Barcha korxonalar ishlab chiqarishni intensivlashtiruvchi tadbirlarni amalga oshirish zarur. Samarali tashkil etilgan iqtisodiyotga o'tish har tomonlama rivojlangan ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari bilan ta'minlangan bo'lishi lozim.

Ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi eng muhim omil - bu fan va texnika taraqqiyoti bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoldi. Oxirgi vaqtlargacha fan-texnika taraqqiyoti evolyutsion tarzda rivojlanib keldi. Natijada amaldagi texnologiyalar takomillashib, mashina va uskunalarning zamonaviylashdi. Bunday natija sezilarli, lekin kutilganidek emas edi.

“Mamlakatimizda 2010 yilda 2009 yilga nisbatan 13,6 foizga ko'p, ya'ni 9 milliard 700 million AQSH dollariga teng miqdordagi investitsiyalar o'zlashtirildi, bu yalpi ichki mahsulotning qariyb 25 foizini tashkil etadi.

Ushbu investitsiyalarning salkam 72 foizi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etishga, jumladan, 38 foizga yaqini asbob-uskuna va ilg'or texnologiyalar sotib olishga yo'naltirildi.”⁵⁶

Yangi texnikalar bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish etarli darajada emas edi. Erkin bozor munosabatlarini shakllantirishning hozirgi sharoitida fan va texnikaning oxirgi yutuqlari asosida xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida yangi texnika va texnologiyalarni joriy qilishga qaratilgan revolyutsion va sifatli o'zgarishlarni amalga oshirish lozim.

Fan-texnika taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari kuyidagilar:

⁵⁶ И. Каримов. “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади” – 2010 йилнинг асосий яқунлари ва 2011 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

- **ilg'or texnologiyalarni keng o'zlashtirish:** yuqori bosim va ta'sirchan kuchlar ko'llaniladigan membranali, lazerli, plazmali texnologiyalar va boshqalar;

- **ishlab chiqarishni avtomatlashtirish** - yuqori mehnat unumdorligini ta'minlovchi robot texnikalar, rotorli va rotor -konveyer liniyalar, moslanuvchan avtomatlashtirilgan ipshab chiqarishni rivojlantirish;

- metall mahsulotlar, plastik qorishma, kompozitlar, metall kukunlar, keramik va boshqa progressiv tuzilishshsh materiallarning yangi shakllarini yaratish va undan foydalanish.

Bozor munosabatlari rivojlanib borishi bilan korxonalar kelajakdagi ishlab chiqarishni rivojlantirishga etarli e'tibor bera boshlaydilar. Yangi texnikalarga, ishlab chiqarishni yangilashga, yangi mahsulotlarni o'zlapggarish va ishlab chiqarishga zaruriy vositalarni yo'llaydilar. Undan tashqari, tashkiliy shart-sharoitlar. va omillar, konstruktorlar, injenerlar, ishchilar ijodiy mehnat qilishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy motivlar yaratish zarur. Texnik va texnologik yangilanishlar, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar mehnat unumdorligining oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Buning uchun yangi texnika va texnologiyalarni - joriy qilishni ta'minlash, shnlab chiqarishga mehnatni ilmiy tashkil etishning progressiv shakllarini joriy qilish. uni me'yorlashni takomillashtirish, mehnat madaniyatini oshirish, tartib-intizomga krishish, mehnat jamoasining barqarorligini ta'minlash lozim.

Korxonalar ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligini oshirishning muhim omillaridan yana biri sifatida ***mavjud ishlab chiqarish salohiyati*** - asosiy va aylanma fondlar, ishchi kuchidan tejamkorlik asosida, iloji boricha unumliroq foydalanishni ko'rsatish mumkin. Bundan tashqari ularga buyumlashgan mehnat sarflanganligi, ya'ni korxonaning bugungi egalaridan tashqari avvalgi avlod vakillarining ham mehnati mavjudligi bilan izohlash mumkin.

Bozor sharoitlarida ishlab chiqarish salohiyatidan unumli foydalanish zaruriyati haqida qayta ta'kidlashga ehtiyoj yo'q: birinchidan, bozor "vakuumini", harakatsizlikni, xo'jasizlikni va yo'qotishlarni kechirmaydi, ikkinchidan, o'z imkoniyatlari va resurslaridan etarlicha foydalanmaydigan korxonalar istiqbolga ega bo'lmaydi hamda bankrotga uchrashga asos yaratadi. Shu sababli barcha turdagi resurslardan samarali foydalanish va ayniqsa ishlab chiqarishning barcha bo'g'inlarida tejamkorlikka rioya qilish har bir korxonalar faoliyatining muvaffaqiyat qozonishining garovi hisoblanadi.

Erkin bozor munosabatlarning shakllanishi sharoitida ishlab chiqarish samaradorligi oshiruvchi barcha omillarning ta'sir qilish imkoniyati sezilarli o'zgaradi. Xalq xo'jaligida tarkibiy o'zgarishlar amalga oshiriladi.

- u iste'molchilar talabidan kelib chiqib, unga moslashtiriladi;
- xalq xo'jaligining muhim tarmoqlari -sanoat, qurilish, transport va aloqa yuqori texnologiyalar asosida zamonaviylashtiriladi;
- jahon fan-texnika taraqqiyoti darajasiga tenglashtiriladi;
- harbiy ishlab chiqarish konversiyalanadi;
- turli mulk shakllariga (davlat, xususiy, aktsionerlik va jamoa mulkchiligiga) asoslangan ko'p ukladli iqtisodiyotga o'tiladi;
- xo'jalik yuritishning barcha shakllari erkin rivojlantiriladi;
- iqtisodiyot moliyaviy sog'lomlashtiriladi;
- mamlakat xalqaro aloqalarga uzviy bog'lanadi.

Korxonalar ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligini oshirishda **tashkiliy-iqtisodiy omillar**, jumladan, boshqaruv ham muhim o'ringa ega. Ularning ahamiyati ishlab chiqarish miqyosining o'sishi va xo'jalik aloqalarining murakkablashishi bilan ortib boradi. Bu omillar qatoriga birinchi o'rinda, oqilona ishlab chiqarish shakllarini yaratish va mavjudlarini takomillashtirish - kontsentratsiya, ixtisoslashtirish, kooperatsiya va kombinatsiya qilishni kiritish mumkin.

Boshqaruvda esa, boshqarish, rejalashtirish, iqtisodiy rag'batlantirishning usul va shakllarini, ya'ni korxonada faoliyatining butun xo'jalik mexanizmini takomillashtirishda ifodalanadi. Korxonada rahbarining ish stili va usullari fan-texnika taraqqiyoti va bozor iqtisodiyotiga mos kelishi zarur. Masalan, korxonada direktori bilimi, tajribasi va professional malakasiga ko'ra, oddiy xodimlar va bo'linma (xizmat) rahbarlaridan yuqori turishi lozim. Aks holda u jamoani kerakli tarzda boshqara olishi hamda muvaffaqiyatga erishishi va imidjga ega bo'lishi qiyin.

Rejalashtirishda rejalarning balanslashtirilishi, ko'rsatkichlar tizimini optimal shakllantirish, rejalashtirilayotgan maqsadlar resurslar bilan ta'minlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'z navbatida korxonadagi iqtisodiy faoliyatni kuchaytirishni, rejalashtirish va iqtisodiy hisob-kitoblarni hamda zamonaviy kompyuter texnikasi va uning reja iqtisodiy hisob-kitoblarini amalga oshirishdagi imkoniyatlarini yaxshi biluvchi, savodli va malakali iqtisodchilarni tanlashni talab qiladi.

Korxonada faoliyatining samarali bo'lishida *ishlab chiqarishni intensivlashtirish*, ishlab chiqarilayotgan *mahsulotlarning turi va sifatini oshirish* hamda jahon standartlari darajasiga etkazish, *korxonaning ishlab chiqarish tuzilmasini yaxshilash* kabi omillar ham muhim o'rinni

egallaydi. Bunga esa zamonaviy mashina va asbob-uskunalar, zamonaviy texnologiyalar, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishning ilg'or usullaridan foydalanish orqali erishiladi.

Natijada davlat byudjeti o'rtacha YAIMga nisbatan 1 foiz taqchillik bilan rejalashtirilayotgan bo'lsa-da, davlat byudjetining samarali ijrosi natijasida u profitsit bilan yakunlanmoqda. Bu o'z navbatida iqtisodiyotda va xususan, davlat moliya tizimini isloh qilishda olib borilgan islohotlar natijasidir. Buni quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin.

1-jadval

Ayrim mamlakatlarda byudjet taqchilligi, tashqi qarzlarning holati to'g'risida ma'lumot

Mamlakatlar	Byudjet taqchilligi	YAIMga nisbatan Tashqi qarz
ItaliYa	5,3 foiz	115,8 foiz
Frantsiya	7,5 foiz	78,0 foiz
PortugaliYa	9,3 foiz	76,0 foiz
IspaniYa	11,1 foiz	91,0 foiz
Buyuk BritaniYa	11,4 foiz	68,0 foiz
GretsiYa	15,4 foiz	115,1 foiz
IrlandiYa	32,0 foiz	116,0 foiz
O'zbekiston	0,3 foiz profitsit	10,0 foizdan kamroq

Manba: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida Evropaning ayrim mamlakatlarida byudjet taqchilligi yalpi ichki mahsulotga nisbatan yuqori miqdorni tashkil qilayotgan bir sharoitda O'zbekiston Respublikasida 2007 yildan boshlab davlat byudjeti profitsit bilan bajarilmoqda.

2010 yilda davlat byudjeti 0,3 foiz profitsit bilan bajarildi. Davlat byudjetining profitsit bilan bajarilishida

...Davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan oshirib, ya'ni 0,3 foiz profitsit bilan bajarilganligini ta'kidlash zarur.

Islom Karimov.

davlat byudjeti ijrosining g'aznachilik tizimining ham ahamiyati ulkandir. Xususan, g'aznachilik tizimining joriy qilinishi byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligining oshirilishiga olib kelmoqda. Davlat moliyaviy resurslarini g'azna hisob varaqlarida jamlanishi, davlat moliyaviy resurslarini operativ boshqarish imkoniyatlarini, ularni

sarflanishi bo'yicha nazorat tizimining takomillaShuviga olib kelmoqda. Natijada byudjet intizomi mustahkamlandi va byudjet mablag'larini

Byudjet profitsiti - muayyan davrda byudjet daromadlarining byudjet xarajatlaridan ortiq bo'lgan miqdori.

Byudjet taqchilligi - muayyan davrda byudjet xarajatlarining byudjet daromadlaridan ortiq bo'lgan miqdori.

Davlat ichki qarzlari - davlat tomonidan ichki mablag'ni jalb qilish natijasida vujudga kelgan O'zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig'indisi.

Davlat tashqi qarzi - davlat tomonidan xorijdan mablag' jalb qilish natijasida vujudga kelgan O'zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig'indisi.

maksimal darajada iqtisod qilish imkoniyatlari yuzaga keltirilmoqda.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi yana bir muhim omil bu - **tejamkorlik rejimi** hisoblanadi. Resurslarni tejash yonilg'i, energiya, xom ashyo va materiallarga bo'lgan o'sib boruvchi talabni qondirishning asosiy manbaiga aylanishi lozim. Bu muammolarni echishda sanoat asosiy -o'rinni egallaydi. Bu tarmokda xom ashyo va yoqilg'i-energetika resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydigan mashina va uskunalarni joriy qilish lozim.

Bugunga kunda mamlakatimizda milliy daromad birligiga hisoblaganda bopif- rivojlangan mamlakatlarga qaraganda yonilg'i, elektroenergiya, metallar sezilarli darajada ko'p sarflanayapti. Bu esa katta hajmdagi ishlab chiqaripshi tashkil etishda resurslarning taqchilligiga olib keladi. Shuning-uchun, mamlakat-mashinasozligini tubdan zamonaviylashtirish zarur, Bu esa fan-texnik taraqqiyoti negizida butun xalq xo'jaligini rekonstruktsiya qshshshshshg muxdm shartidir. Bunga erishishga qaratilgan uzoq muddatli, strategik maqeadlar aholining zaruriy ehtiyojlarini to'laroq qondirish bilan uyg'unlashmog'i lozim.

Ijtimoiy ishlab chiqarish saxmaradorligining oshishi ko'p xollarda asosiy fondlardan yaxshiroq foydalanishga bog'liq bo'ladi. Mavjud ishlab chiqarish imkoniyatlaridan to'laroq foydalanish, uskunalarni maksimal darajada ish bilan ta'minlash, uning smenaligini keskin oshirish va Shu asosda xar bir uskuna birligiga va har-bir metr kvadrat ishlab chiqarish maydoniga to'g'ri keladigan mahsulot miqdorini oshirish zarur.

Ishlab chiqarishni intensivlashtiruvchi va uning samaradorligini oshiruvchi omillardan biri - iqtisodiyotning strukturasi takomillashtirish. Fan-texnika taraqqiyotini ta'minlaydigan va ijtimoiy muammolarni samarali qal qiladigan tarmoqparni nisbatan yuqori darajada rivojlantirish zarur.

Investitsion siyosat kapital qo'yilmalar samaradorligini oshirishni ta'minlashga qaratilgan. Mablag'larni fan-texnika taraqqiyotini tezlashtirishni ta'minlovchi tarmoqlar foydasiga qayta taqsimlash lozim. Mablag'larning katta qismi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarini texnik

2010 yilning 15 dekabrda mamlakatimiz Prezidentining sanoatni barqaror, jadal va mutanosib ravishda rivojlantirish, asosiy sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya qilish va eksport salohiyatini o'stirishga yo'naltirilgan tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, sanoat tarmoqlari, komplekslari va korxonalarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash asosida ularning samaradorligi hamda raqobatdoshligini yanada oshirish maqsadida "2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PQ-1442-sonli qarori qabul qilindi.

qayta jihozlashga va rekonstruktsiya qilishga yo'naltirilishi kerak.

"Shu boradagi umumiy qo'yilmalar hajmida xorijiy investitsiyalar va kreditlar ulushi 28,8 foizni, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar miqdori esa 2 milliard 400 million dollardan ziyodni tashkil etdi.

Barcha moliyaviy manbalar hisobidan texnik va texnologik qayta jihozlash uchun yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmi 3 milliard 600 million dollardan oshgani yoki 2010 yildagi barcha kapital qo'yilmalarning 37,5 foizini tashkil etgani printsipial muhim ahamiyatga egadir."⁵⁷

Yonilg'i-energetika balansi strukturasi yaxshilash, xavfsizligi maksimum darajada ta'minlangan atom energetikasini rivojlantirish bilan birgalikda olib boriladi. Buning uchun esa xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida yonilg'i-energetika resurslarini tejash bo'yicha muayyan tadbirlar amalga oshirilib borishi lozim.

Ijtimoiy ishlab chiqarishni tarkibiy qayta qurish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- xalq iste'moli tovarlari va barcha turdagi xizmatlar ishlab chiqarishni tezkor oshirishni ta'minlash;
- kichik korxonalarini rivojlantirish;
- harbiy ishlab chiqarishni konversiyalash;
- ishlab chiqarish korxonalarini texnik qayta jihozlash;

⁵⁷ И. Каримов. "Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади" – 2010 йилнинг асосий яқунлари ва 2011 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

- transport, elektr, neft va gaz ta'minoti tizimini hamda aloqa va axborot ta'minotini yaxshilash.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda asosiy o'rinlardan biri (boshqaruvni o'z ichiga oluvchi) tashkiliy-iqtisodiy omillar egallaydi. Ijtimoiy ishlab chiqarish masshtabining o'sishi va xo'jalik aloqalarining murakkablashishi bilan uning roli ortib boradi. Eng avvalo, bu ishlab chiqarishyushg ratsional shakllarini rivojlantirish va takomillashtirish demakdir.

Ijtimoiy ishlab chiqarish infrastrukturasi ham ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi muxim omillardan hisoblanadi. Uni rivojlantirish talab qdpinadi. Bu boshqarish, rejalashtirish, barcha xo'jalik mexanyumlarini iqtisodiy rag'batlantiripshing usullari va shakllarini takomillashtirish; rejalashtirishda-rejalarning balanslashganligi va haqqoniyligi, xalq xo'jaligining kuyi bo'g'inlariga to'sqinlik qilmasdan, faoliyati uchun imkoniyatlar yaratadigan rejali ko'rsatkichlarning optimal tuzilgan tizimini yaratishni taqozo qiladi. Ushbu omillar tizimiga quyidagilar ham kiradi: tijorat hisobi va moddiy rag'batlantirish dastaklari, moddiy javobgarlik va boshqa iqtisodiy rag'batlarning keng ko'llanilishi.

Albatta, yuqorida keltirib o'tilgan omillarni amalga oshirish ma'lum bir resurslar va vaqt sarflashni talab qiladi. Biroq bu muammolarning mohiyati va ahamiyatini o'zgartirmaydi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, zamon bilan hamnafas holda harakat qiluvchi, barcha faoliyat turlarida tejamkorlikka rioya etuvchi, o'z salohiyatidan unumliroq foydalanuvchi, zamonaviy fan va texnika yutuqlariga tayanuvchi korxonalar o'zining bugungi kundagi muvaffaqiyatlaridan tashqari, kelajakda ham muvaffaqiyatlarga erishishini, jumladan, bozordagi o'z o'rnini va raqobatchilik muhitida qulay ahvolda bo'lishini ta'minlaydi.

Qisqacha xulosalar

Ishlab chiqarish va korxonalar faoliyatining samaradorligi «moda»ga ergashish yoki avvalgi rejali iqtisodiyotning aks-sadosi emas. Korxonaning muvaffaqiyati va iqtisodiy jihatdan barqarorligi samarali xo'jalik yuritishga asoslanadi.

Samaradorlik - xo'jasizlik, isrofgarchilik va boshqa talofatlarning antipodidir. Biroq samaradorlik o'z-o'zidan avtomatik ravishda kelmaydi. Fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish quvvatlari va resurslardan oqilona foydalanish, tejamkorlikka rioya qilish, ishlab chiqarishni intensivlashtirish, boshqaruv tizimini takomillashtirish va oqilona

investitsion siyosat samaradorlikni oshirishning muhim omili va yo'nalishi bo'lib xizmat qiladi.

Samaradorlikning asosi xarajatlarni minimallashtirish va foydani maksimallashtirishdadir. Korxonada xo'jalik yuritishining samaradorligini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar sifatida mehnat mahsuldorligi, fond qaytimi va fond sig'imi, material sig'imi, mehnat sig'imi, rentabellik va hokazolarni ko'rsatish mumkin.

Korxonaning barqarorligi yoki nochorligi uning samarali yoki samarasiz faoliyat yuritishini mos ravishda aks ettiradi. Bu jihatdan bugungi xo'jalik yuritish amaliyoti to'lov qobiliyati koeffitsienti, xususiy va qarzga olingan aylanma mablag'lar nisbati koeffitsienti, moliyaviy mustaqillik koeffitsienti va xususiy aylanma vositalar bilan ta'minlanganlik koeffitsienti kabi ko'rsatkichlar tizimidan foydalanadi.

Turli korxonalarda xo'jalik yuritish samaradorligiga o'z imkoniyatlari va yuzaga keluvchi iqtisodiy imkoniyatlardan kelib chiqqan holda turli usullar yordamida erishiladi. Samaradorlikka erishishning hamma uchun to'g'ri keluvchi Yagona yo'li mavjud emas. Korxonaning vazifasi barcha faoliyat turlarida samaradorlikka erishish yo'llarini qidirishdir.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Ishlab chiqarish samaradorligining mohiyati nimada va u korxonada umumiy faoliyati samaradorligidan qanday farq qiladi?
2. Samaradorlikning qanday turlarini bilasiz? Samaradorlikning samaradorlikdan farqi nimada?
3. Korxonada ishlab chiqarish faoliyati samaradorligining muhim ko'rsatkichlari mazmunini ochib bering. Bu ko'rsatkichlarni hisoblash usuli qanday?
4. Sizing fikringizcha, qaysi ko'rsatkich korxonada faoliyati samaradorligini ko'proq aks ettiradi?
5. Korxonada faoliyati samaradorligini oshirishning asosiy yo'llari va omillarini sanab bering.
6. Bozor sharoitlarida samaradorlikni iqtisodiy ko'rsatkich hamda tushuncha sifatida qabul qilish mumkinmi?
7. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda asosiy o'rin kimga tegishli: insonlarga, resurslarga yoki fan-texnika taraqqiyotiga?
8. Ijtimoiy ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi mohiyati nimada, uni umumlashtiruvchi mezon bo'lib nima xizmat qiladi?
9. Xarajatlarning umumiy (absolyut) va qiyosiy samaradorligi qanday hisoblanadi?

10. Ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini oshiruvchi asosiy omillar va yo'nalishlarni sanab bering.

7 - bob. Korxonaning asosiy fondlari va ishlab chiqarish quvvati

7.1 Asosiy fondlar va ularning korxonada faoliyatidagi o'rnini

7.2 Asosiy fondlarning turlari, tarkibi va ko'rsat- kichlari

7.3 Korxonaning ishlab chiqarish quvvatini va uni hisoblash usullari

7.4. Asosiy fondlardan foydalanishni yaxshilash yo'llari va ko'rsatkichlari

Tayanch iboralar: Asosiy fondlar, ishlab chiqarish apparati, noishlab chiqarish asosiy fondlari, aktiv va passiv, lizing, asosiy fondlari tarkibi, ekspluatatsiya qilinayotgan asosiy fondlarning yoshi, natural baholash, qiymat bo'yicha baholash, boshlang'ich qiymat, tiklanish qiymati, qoldiq qiymati, balans qiymati, ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati, jismoniy (moddiy) eskirish, ma'naviy eskirish, amortizatsiya ajratmalari, amortizatsiya normalari, kapital ta'mirlash, o'rtacha ta'mirlash, joriy ta'mirlash, ishlab chiqarish quvvati.

7.1. Asosiy fondlar va ularni korxonada faoliyatidagi o'rnini

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy islohotlar, ijtimoiy hayotning turli jabhalaridagi keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari, iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, tub tarkibiy o'zgarishlar jarayoni naqadar salmoqli natijalar berayotgani 2010 yildagi rivojlanish yakunlari misolida yana bir bor o'z isbotini topdi. Bu o'z navbatida, mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan turli mulk formasidagi korxonalar va firmalarning asosiy mablag'larining shakllanishiga va foydalanish darajasiga uzviy bog'liqdir.

Korxonalar asosiy fondlarining belgilari - ularning o'zlariga tegishli mulkning mavjudligidir. Aynan shu narsa korxonalarining moddiy-texnik imkoniyatlarini belgilab beradi xamda ularning iqtisodiy erkinligi va kelajagini taminlaydi.

Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, "...izchil yuqori o'sish sur'atlari, yurtimizda barpo etilgan bank-moliya tizimining barqaror va ishonchli faoliyat yuritishi, iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan yangilanish va o'zgarishlar, umuman, mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lidagi dadil qadamlarimiz dunyo jamoatchiligi, Shuningdek, xalqaro valyuta

jamgarmasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki singari nufuzli xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan e'tirof etilmoqda.”⁵⁸

Zamonaviy iqtisodiyot fani **asosiy fondlarni** ma'lum bir iste'mol qiymati ko'rinishida ijtimoiy mehnat asosida yaratiluvchi, ishlab chiqarishning moddiy-buyumlashgan material omillari qatoriga kiritadi. Hozirgi bozor sharoitlarida korxonalar kuchi va vositalari yordamida yaratilgan asosiy fondlar ishlab chiqarish quvvatlarini shakllantirish va ulardan foydalanishga faol ravishda ta'sir ko'rsatuvchi mulk hisoblanadi. Butun xalq xo'jaligi miqyosida asosiy fondlar mamlakatning milliy boyligini tashkil qiladi.

Asosiy fondlar - korxonalar ishlab chiqarish vositalarining bir qismi bo'lib, ishlab chiqarish jarayonida uzoq vaqt ishtirok etadi va o'zining natural-moddiy holatini yo'qotmaydi hamda o'z qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotlarga qismlab o'tkazib beradi. Asosiy fondlar qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga o'tkazish jarayoni amortizatsiya deb, ushbu jarayonda to'plangan mablag'lar esa **amortizatsiya ajratmalari** deb ataladi.

Iqtisodiy maqsadlariga ko'ra, asosiy fondlar ishlab chiqarish va noishlab chiqarish fondlariga taqsimlanadi. Ishlab chiqarish asosiy fondlari o'z mohiyatiga ko'ra, korxonaning ishlab chiqarish potentsialini tashkil qilib, ularning tarkibiga quyidagilar kiradi:

*94 ishlab chiqarish binolari va inshootlari;

*95 uzatish qurilmalari;

*96 quvvat mashinalari va uskunalari;

*97 ishchi mashinalar va uskunalari;

*98 transport vositalari;

*99 o'lchov va tartibga solish asboblari va qurilmalari;

*100 foydalanish muddati bir yildan kam bo'lmagan va qonunchilikda belgilab qo'yilgan qiymatlardagi asboblalar va ishlab chiqarish inventari.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari ishlab chiqarishda band bo'lgan barcha mutaxassis va xodimlar soni bilan birgalikda, **korxonaning ishlab chiqarish apparati** deb ataladi.

Noishlab chiqarish asosiy fondlari korxonalar asosiy fondlarining ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etmaydigan qismi bo'lib, Shu sababli

⁵⁸ И. А. Каримов. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” маърузаси// Халқ сўзи газетаси, 12.11.2010.

o'z qiymatini tayyor mahsulotga o'tkazmaydi. Bular qatoriga asosan korxonalar balansida turuvchi turarjoy (uy-joy fondi), oshxonalar, profilaktoriya, klub, bolalar bog'chasi va yasllilar, sport-sog'lomlashtirish va boshqa ob'ektlar kiritiladi. Madaniy-maishiy va sog'lomlashtirish yo'nalishidagi noishlab chiqarish asosiy fondlari ishlab chiqarish asosiy fondlari bilan foydalanish muddati, natural shaklning saqlanishi, o'z qiymatini sekin-asta yo'qotishi kabi ko'p jihatlari bilan o'xshashdir.

Ishlab chiqarish miqyosining o'sishi va boshqa ijobiy o'zgarishlar sharoitlarida, ba'zan korxonaning asosiy fondlari, jumladan, ishchi mashinalar va uskunalari, ishlab chiqarish binolari, qurilmalar va hokazolar etmay qoladi. Bunday hollar ro'y berganda korxonalar shartnoma asosida o'ziga kerakli bo'lgan asosiy fondlarni yollaydi va ular ijaraga olingan hisoblanadi. Ijaraga beruvchi va ijaraga oluvchi o'rtasida yuzaga keluvchi mulk munosabatlari **lizing** deb ataladi (ingl. Lease - ijaralar).

Korxonalar egalik qiladigan **mulk ko'chmas** uchun **ko'chirib bo'ladigan** mulklarga ajraladi.

Ko'chmas mulkka er uchastkalari, er osti boyliklari, maxsus suv ob'ektlari va umuman er bilan bog'liq bo'lgan buzilmas narsalar, Shu jumladan o'rmonlar, ko'p yillik daraxtlar, inshootlar, binolar kiradi.

Ko'chirib bo'ladigan mulkka ko'chmas mulkka kirmaydigan narsalar hamda pul mablag'lari va qimmatli kog'ozlar kiradi.


Mehnat predmetiga o'tkazuvchi ta'siriga ko'ra, asosiy ishlab chiqarish fondlari **aktiv** va **passiv** turlarga bo'linadi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlarining **passiv turiga** bino va inshootlar, aktiv turiga esa quvvat mashinalari va uskunalari, ishchi mashinalari va uskunalari, transport vositalari, texnologik liniyalari, ya'ni biron-bir turdagi mahsulot yaratishda foydalaniluvchi mehnat qurollari kiritiladi.

Korxonaning **aktiv asosiy ishlab chiqarish fondlari** eng harakatchan va ahamiyatli hisoblanadi. Fan-texnika taraqqiyoti davomida ko'plab korxonalarda aktiv ishlab chiqarish fondlarining salmog'i ortadi, ularning tarkibi va ko'rinishi o'zgaradi, asosiy fondlar guruh va turlarining ma'naviy eskirish tufayli almashinish sur'ati tezlashadi.

Korxonalar mulkini aylantirish aktivlari va uzoq muddatli aktivlarga ham ajratish mumkin. Bunda korxonalar mulkining nafaqat ijtimoiy ko'rinishi bilan ishlab chiqarish jarayonidagi roli, ahamiyati va korxonalar iqtisodiyotiga ta'siri ham hisobga olinadi.

Korxonalar asosiy fondlari tarkibini quyidagi 1 - chizma ko'rinishida aks ettirish mumkin.



1- chizma. Korxonona asosiy fondlarining tarkibi.

Uzoq muddatli aktivlar yirik va o'rta korxonalar mulkining 65-85 foizini tashkil qiladi. Uning tuzilishi 2-chizmada keltirilgan.

Uzoq muddatli aktivlar			
Asosiy fondlar	Nomoddiy aktivlar	Kapital ko'yilmalar	Uzoq muddatli moliyaviy ko'yilmalar

2-chizma. Uzoq muddatli aktivlarning tuzilishi

Uzoq muddatli aktivlar korxonona xo'jalik faoliyatida uzoq muddat mobaynida qatnashadi. Bu amortizatsiya jarayonining davomiyligi va aylanma tezligining sekinligi bilan bog'liq. Shuning uchun ular uzoq

muddatli yoki sekin aylanadigan aktivlar deb ataladi. Shuningdek, ular immobilizatsiya fondlari ham deb ataladi.

“Bugun dunyo iqtisodiyotidagi ahvolni tahlil qilar ekanmiz, jahon moliyaviy va iqtisodiy inqirozi hali-beri nihoyasiga etgani yo‘q, deb aytishga barcha asoslarimiz bor.

Dunyodagi taraqqiy topgan 20 ta davlat ishtirokida tashkil etilgan, “Katta yigirmalik” deb nom olgan guruh doirasida qabul qilinayotgan barcha chora-tadbirlarga qaramasdan, jahon iqtisodiyotida barqaror o‘shish sur‘atlariga erishish yulida hozircha biron-bir jiddiy siljish ko‘zga tashlanayotgani yo‘q.”⁵⁹

Asosiy ishlab chiqarish fondlari umumiy ishlab chiqarishning moddiy-texnika bazasi hisoblanadi. Korxonaning ishlab chiqarish quvvati, mehnatga qurollanganlik darajasi asosiy ishlab chiqarish fondlarining hajmiga bog‘liq. Asosiy fondlar shug‘ul va mehnatning qurollanganlik darajasiyushg oshishi mexratga ijodiy xarakter bag‘ishlaydi va jamoaning madaniy - texnik darajasini oshiradi.

Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi sharoitida asosiy fondlar ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi, iqtisodiy o‘shishni ta‘minlovchi barcha omillar ichida asosiy o‘rinni egalaydi.

Asosiy fondlar jamiyat moddiy resurslarining asosiy qismini tashkil etadi. Ularning 65 foizdan ko‘prog‘i asosiy ishlab chiqarish fondlariga to‘g‘ri keladi.

7.2. Asosiy fondlarning turlari, tarkibi va ko‘rsatkichlari

Xo‘jalik amaliyotida asosiy fondlar natural va qiymat ko‘rinishida hisobga olinadi. Agar asosiy fondlarni **natural baholash**-ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta qurollantirish va zamonaviylashtirish masalalarini hal qilish, asbob-uskunalarni ta‘mirlash uchun ularning guruh va turlari bo‘yicha grafiklar tuzish, Shuningdek, ta‘mirlash vositalariga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash imkonini bersa, **qiymat bo‘yicha baholash** esa, asosiy fondlarni qayta ishlab chiqarishni rejalashtirish, ularning mavjud hajmini aniqlash, amortizatsiya hajmini belgilash, asosiy fondlar va ishlab

⁵⁹ И. Каримов. “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади” – 2010 йилнинг асосий якунлари ва 2011 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini tahlil qilish va hokazolarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy fondlarning umumiy hajmida alohida guruhlarining qiymat bo'yicha o'zaro nisbati **asosiy fondlarning turlar bo'yicha tuzilmasini** aks ettiradi hamda amaliyotda foizlarda o'lchanadi. Korxonalar asosiy ishlab chiqarish fondlari tuzilmasining, birinchi o'rinda uning aktiv qismini -

Inqiroz yillarida ko'plab davlatlar o'z iqtisodiyotiga, ayniqsa, moliya-bank sohasini saqlab qolish maqsadida aynan shu sohaga ulkan mablag'larni yo'naltirishga majbur bo'ldi. Bu, o'z navbatida, bir qator davlatlarda, avvalo, rivojlangan mamlakatlarda katta miqdordagi davlat byudjeti taqchilligi va davlat qarzlarini keltirib chiqardi, moliyaviy nomutanosiblikning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Islom Karimov

mashina va asbob-uskunalarini ko'paytirishga yo'naltirilgan takomillashtirishdan manfaatdor bo'lishi lozim. Ularning ulushi qanchalik yuqori bo'lsa, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar miqdori Shunchalik katta bo'ladi va aksincha.

Korxonalar asosiy fondlarning turlar

bo'yicha tuzilmasi, ko'p jihatdan kapital qo'yilmalarning texnologik tuzilmasi orqali, jumladan, ularning yangi qurilish va qayta ta'mirlash, amaldagi ishlab chiqarishni kengaytirish va qayta qurollantirish bilan avvaldan belgilab qo'yilgan bo'ladi. Asosiy fondlarning turlar bo'yicha tuzilmasiga ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va konsentratsiya qilish darajasi ham katta ta'sir o'tkazadi.

Yirik korxonalar, ishlab chiqarishni fondlar bilan ta'minlashda va fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan keng foydalanishda kichik va o'rta korxonalar qaranganda ko'proq imkoniyatga ega. Biroq kichik korxonalar harakatchanroq, ularning boshqaruvi moslashuvchanroq bo'lib, natijada ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta qurollantirish osonroq kechadi.

«Korxonalar iqtisodiyoti»ga **ekspluatatsiya qilinayotgan asosiy fondlarning yoshi**, birinchi o'rinda mashina va asbob-uskunalarining yoshi katta ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi paytda mashina va sanoat uskunalarini yosh bo'yicha guruhlashda taxminan quyidagi muddatlardan kelib chiqiladi: 5 yilgacha, 5 yildan 10 yilgacha, 10 yildan 15 yilgacha, 15 yildan 20 yilgacha, 20 yildan 25 yilgacha va hokazo. Mashina va uskunalarining ekspluatatsiya muddati qanchalik yuqori bo'lsa, korxonaning ishlab chiqarish quvvatlari Shunchalik past bo'ladi, mahsulotlar sifati pasayadi, bekor turib qolish va talofatlar ko'payadi hamda aksincha. Bundan

tashqari, korxonada asbob-uskunalaridan uzoq vaqt mobaynida foydalanilganida ta'mirlash uchun ham ko'p xarajatlar sarflanadi.

Asosiy fondlar kengaytirilgan takror ishlab chiqarishdagi ishtirokiga ko'ra **ishlab chiqarish va noishlab chiqarish** asosiy fondlariga bo'linadi.

Ishlab chiqarish asosiy fondlari moddiy ishlab chiqarish sohasida qatnashadi. U o'zining jadal qilish tsikli davomida ishlab chiqarish jarayonida bir necha marta ishlatiladi. Ishlab chiqarish asosiy fondlari bosqichma - bosqich eskirib, o'z qiymatini ishlab chiqarilayotgan mahsulotga qismlab o'tkazib boradi. Ular amortizatsiya ajratmalari hisobiga qoplanadi.

Noishlab chiqarish asosiy fondlariga korxonada balansida turgan, xodimlarga xizmat qiladigan turar joylar, bog'cha, sport muassasalari va boshqa madaniy-maishiy xizmat ko'rsatuvchi ob'ektlar kiradi. Ishlab chiqarish fondlaridan farqi o'laroq ular ishlab chiqarish jarayonida qatnashmaydi va o'zining qiymatini mahsulotga o'tkazmaydi. Ularning qiymati iste'molda yo'q bo'lib ketadi. Ularni to'ldirilmaydi. Ular korxonada foydasi hisobiga takror ishlab chiqariladi.

Noishlab chiqarish asosiy fondlari ishlab chiqarish hajmi va mehnat unumdorligiga bevosita ta'sir o'tkazmasada, ishchilar turmush sharoiti bilan bog'liq holda, albatta korxonaning xo'jalik faoliyati natijasiga ta'sir qiladi.

Korxonalar asosiy ishlab chiqarish fondlari iqtisodiy o'xshashligiga qaramasdan, umumiy maqsadi va xizmat qilish muddati bilan farqlanuvchi mehnat vositalarining asosiy qismini tashkil etadi. Shuning uchun ularni alohida xususiyatlari bo'yicha muayyan guruxlarga ajratish zarurati tug'iladi.

Korxonada asosiy ishlab chiqarish fondlari quyidagi guruxlarga bo'linadi:

- er uchastkalari, egalik qilish hukukiga ega korxonaga tegishli bo'lgan tabiatdan foydalangan ob'ektlari (suv er osti boyliklari; boshqa tabiiy resurslar)
- binolar (ishlab chiqarim - texnik, yordamchi binolar va boshqalar);
- inshootlar (injenerlik qurilish ob'ektlari, ishlab chiqarishga yordamlaShuvchi inshootlar);
- uzatish qurilmalari (elektr uzatish shaxobchalari);
- mashina va jihozlar;
- o'lcham va nazorat qilish asboblari, qurilmalari va laboratoriya jihozlari;
- hisoblash texnikasi;

- transport vositalari (ichki va tashqi ishlab chiqarish)
- qiymati eng kam oylik ish haqining 50 barobaridan ko'p bo'lgan asbob va moslamalar;
- Ishlab chikarish va xo'jalik inventarlari;
- Xo'jalik ichidagi yo'llar.

Asosiy fondlar alohida guruhlari o'rtasidagi nisbat asosiy fondlarning qaysi guruhi uchun mablag' sarflanishi jamiyat uchun ahamiyatsiz emas. Chunki korxonalarini ishlab - chiqarishda asosiy o'rin egalaydigan va ularning ishlab chiqarish imkoniyatlarini xarakterlaydigan asosiy fondlarning **aktiv qismi** - mashina va jihozlarning ko'payishi qiziqtiradi.

Asosiy fondlar aktiv qismining normal ishlashini ta'minlaydigan binolar, inshootlar, inventarlar asosiy fondlarning **passiv qismiga** kiradi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymatida jihozlar xissasining oshishi boshqa teng sharoitlarda ishlab chiqarishning o'sishiga va fondlar qaytimining oshishiga olib keladi.

Shuning uchun asosiy fondlar strukturasi to'g'ri tashkil etish ishlab chiqarishning o'sishiga, tannarxning pasayishiga va korxonalar pul mablag'larining ortishiga olib keluvchi shart sifatida qaraladi.

Sanoatning turli tarmoqlariga tegishli korxonalarda asosiy ishlab chiqarish fondlari strukturasi bir xil bo'lmaydi. Masalan, engil va oziq-ovqat sanoatida binolar asosiy o'rin egalaydi (44-46%), yonilg'i sanoatida inshootlar (17-19%), elektro energetika sanoati korxonalarida uzatish qurilmalari (30-33%), mashinasozlik korxonalarida mashina va jihozlar asosiy o'rin egallaydi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari strukturasi asosiy ta'sir qiluvchi omillar bo'lib, ishlab chikarilayotgan mahsulot -xarakteri, mahsulot ishlab chiqarish xajmi, mexanizatsiya va avtomatlashtirilganlik darajasi hamda korxonaning iqlim va geografik joylashishi va xususiyatlari hisoblanadi.

Birinchi omil binolarning qiymati va o'lchamiga, transport vositalari va o'tkazish qurilmalarini x hissasiga ta'sir qiladi .

Mahsulot ishlab chiqarish hajmining oshishi -maxsus ishchi mashina va jihozlari hissasining oshishiga olib keladi. Xuddi shunday uchinchi va to'rtinchi omillar ham asosiy fondlar tuzulishiga ta'sir ko'rsatadi. Asosiy fondlar tarkibidagi bino va inshootlar hissasi iqlim sharoiti bilan ham bog'liq.

Quyidagilar asosiy ishlab chiqarish fondlari tuzilishining yaxshilanishiga olib keladi:

- uskunalarni yaxshilash va zamonaviylashtirish;
- uskunalar, xususan hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan

stanoklar, avtomatlashtirilgan va yarim avtomatlashtirilgan stanoklar, universal va murakkab stanoklar, avtomatik liniyalar xmda hisoblash-dasturlash stanoklari tuzilishyush takomillashtirish;

- bino va inshootlardan optimal foydalanish, bo'sh turgan joylarga qo'shimcha uskunalar o'rnatish;

- korxonaning qurilish loyihalarini to'g'ri tuzish va qurilish rejasini sifatli qilib amalga oshirish;

- ortiqcha va kam foydalaniladigan uskunalarni tugatish.

Asosiy fondlarni hisobga olish va rejalashtirish **natural va pul shaklida** olib boriladi. Asosiy fondlarni baholashdan oldin mashinalar soni, ularning unumdorligi, quvvati, ishlab chiqarish maydonining o'lchami va boshqa natural shakldagi miqdoriy ko'rsatkichlar aniqlanadi. Bu ma'lumotlar tarmoq va korxonada ishlab chiqarish quvvatini hisoblashda, ishlab chiqarish dasturini rejalashtirishda, uskunalar balansini tuzishda foydalaniladi. Ushbu ko'rsatkichlar asosida uskunalar inventarizatsiya qilinadi va ularni hisobdan chiqarish, hisobga kiritish amalga oshiriladi,

Asosiy fondlarni pul (qaymat) shaklida baholash asosiy fondlarning takror ishlab chiqarishini rejalashtirish, eskirish me'yori va amortizatsiya ajratmalari miqdorini hamda xususiylashtirish hajmini aniqlash uchun zarur hisoblanadi.

Asosiy fondlarni baholashning boshlang'ich, qayta tiklanish va qoldiq qiymat ko'rilishlari foydalaniladi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlarining boshlang'ich qiymati asosiy fondni yaratish yoki sotib olish uchun ketgan hamda uni o'rnatish, montaj uchun ketgan jami xarajatlar summasidan iborat. Bundan amortizatsiya me'yori va amortizatsiya ajratmalari ko'lamini aniqlashda, korxonada foydasi va rentabelligini hisoblashda foydalaniladi.

Fan-texnik taraqqiyoti natijasida asosiy fondlarni ishlab chiqarish shartlari va omillari xam o'zgarib bormoqda, binobarin, joriy bozor baholari va tariflari bilan bog'liq ravishda ularni ishlab chiqarish xarajatlari qam o'zgarib bormoqda. Hozirgi kunda asosiy fondlar joriy baxrlari va tariflariga birinchi darajali ta'sir qiluvchi omil bo'lyb Inflyatsiya hisoblanadi.

“O'z-o'zidan ravshanki, bularning barchasi iqtisodiyotimizning yuqori sur'atlar bilan barqaror o'sib borayotgani va mamlakatimizda ro'y berayotgan ulkan ijobiy o'zgarishlardan dalolat beradi.

Iqtisodiyotimizda 2010 yili yuqori o'sish sur'atlari ta'minlanib, aholining real daromadlari 123,5 foizga oshdi, o'tgan yilda inflyatsiya darajasi 2009 yildagi 7,4 foiz o'rniga 7,3 foizni tashkil qildi. Bu

avvalambor qat'iy, shu bilan birga, puxta o'ylangan pul-kredit siyosati va inqirozga qarshi ko'rilgan samarali chora-tadbirlarimizning natijasidir.”⁶⁰

Korxonada balansida asosiy fondlar vaqt o'tishi bilan turli xil qiymatda aks etib qoladi. Ya'ni, xo'jalik yuritishshshg hozirgi sharoitida asosiy fondlarni faqat ularning boshlang'ich kiymati bo'yicha xaqiqiy baholab bo'lmaydi va shuning uchun ularni qayta baholash va bir xil qiymatga o'tkazish zarurati tug'iladi.

Asosiy fondlarni baholashning quyidagi usullari mavjud:

Boshlang'ich qiymat bo'yicha - asosiy vositalarni Yaratish yoki sotib olish uchun sarflangan xarajatlar majmuidan iborat bo'lib, asosiy fondlar yoki ularning alohida qismlarini foydalanishga topshirish uchun Yaroqli holga keltirish bilan bog'liq bo'lgan-ularni keltirish, o'rnatish kabi xarajatlarni hisobga olgan holda yuzaga keluvchi qiymat.

Masalan, bitta mashina yoki uskunaning boshlang'ich qiymati – bu, korxonaning mazkur mashina yoki uskunani ma'lum bir sanada sotib olgan va bu haqda buxgalteriya hujjatlarida qayd qilingan sotib olish narxidir.

Tiklanish qiymati - bu asosiy fondlarning takror ishlab chiqarish uchun hozirgi, ya'ni qayta baholash o'tkazilganidan keyingi qiymati.


Asosiy fondlar ishlatilishi jarayonida eskirib boradi va o'zining boshlang'ich qiymatini boskichma-boskich yo'qotib boradi. Ularning real qiymatini aniqlash uchun eskirgan qismiiint kiymatini aniqlash zarurati tug'iladi. Ularning boshlang'ich yoki tiklanish kiymatidan eskirish summasi ayrilib, asosiy fondlarning qoldik qiymati aniqlanadi.

Eskirishning jismoniy va ma'naviy ko'rinishlari farqlanadi.

Jismoniy eskirish deganda asosiy fondlarning boshlang'ich iste'mol kiymatining boskichma-boskich yo'qolib borishi tushuniladi. Bunda nafaqat ularning ishlash jarayonidagi eskirishi, balki bekor turiish natijasida ham eskirganlkgi kiradi. Asosiy fondlarning fizik eskirishi asosiy fondlar sifatiga, ularning texnik takomillashganligiga, texnologik jarayonning xususiyatlariga, ularning ishlash vaqtiga, tashki ta'sirlardan himoyalanganligiga hamda asosiy fondlarni parvarish qilish va ularga xizmat ko'rsatish darajasiga bog'liq.

⁶⁰ И. Каримов. “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади” – 2010 йилнинг асосий яқунлари ва 2011 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

Jismoniy (moddiy) eskirish asosiy fondlarning birlamchi xislatlarini ishlab chiqarishda foydalanish va tabiiy eskirish natijasida yo'qotishdan yuzaga keladi. U asosan bir xilda kechmaydi hamda ko'p jihatdan iqlimning ta'siri, asosiy fondlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish, jumladan, xodimlarning malakasiga ham bog'liq bo'ladi.



3 -chizma. Asosiy fondlarning eskirish turlari

Jismoniy eskirishni (IF) quyidagi formula asosida hisoblab topish mumkin:

$$IF = \frac{T_{\phi}}{T_n} \times 100; \quad \text{yoki} \quad IF = \frac{I}{\Pi_c} \times 100$$

Bu erda:

T_{ϕ} - asosiy fondlarning haqiqiy xizmat qiluvchi muddati;

T_n - asosiy fondlar xizmat qilishi kerak bo'lgan normativ muddat;

I - hisoblangan amortizatsiya summasi (eskirish summasi);

P_s – asosiy fondlarning boshlang'ich(qayta tashkil qilish)

Asosiy fondlarning jismoniy eskirishni hatto ularning bir xil elementlarida ham har xil bo'ladi. Asosiy fondlarning to'liq va qisman eskirishi farqlanadi. To'liq eskirganda ishlab turgan, asosiy fondlar yo'qotiladi va joyiga yangisi (kapital qurilish yoki eskirgan asosiy fondlarni joriy almashtirish vositasida) keltiradi. Qisman eskirish ta'mirlash yo'li bilan qoplanadi.

Asosiy fondlarning jismoniy eskirishi haqiqiy xizmat qilgan davrni normativdagi davrga bo'lish va 100 ga ko'paytirish yo'li bilan hisoblanishi mumkin. Nisbatan to'g'ri usul bu ob'ektning tabiiy holatini tekshirishdir.

Ma'naviy eskirish - asosiy fondlarning qadrsizlanishi yoki texnik jihatdan muddatidan avval ish qobiliyatini yo'qotilishidir. U ikki shaklda yuzaga keladi: **birinchi shaklda** asosiy fondlar ularning ishlab chiqarish qiymatlari pasayishi natijasida qadrsizlansa, **ikkinchi shaklda** asosiy fondlarning qadrsizlanishi yangi, fan-texnika taraqqiyoti ta'siri ostida, yanada samaraliroq fondlarning paydo bo'lishi natijasida ro'y beradi. Asosiy fondlar ma'naviy eskirishining Yuqorida keltirilgan shakllarini quyidagi tarzda aniqlash mumkin:

$$ИМ_1 = \frac{\Pi - B}{\Pi} \times 100$$

$$ИМ_2 = \frac{\Pi_H - \Pi_C}{\Pi_H} \times 100$$

Bu erda:

P - asosiy fondlarning to'liq boshlang'ich qiymati;

V - asosiy fondlarning tiklanish qiymati;

P_n - Yangi texnikaning unumdorligi.

Ma'naviy eskirish- bu - mashina va uskunalarning qiymatining ularni takror ishlab chiqarish uchun ketadigan umumiy, zaruriy xarajatlarining qisqarishi, yangi va unumdor mashina va uskunalarning joriy qidinishi ta'sirida pasayishidir. Ushbu omillar ta'sirida asosiy fondlar o'zining texnik tavsifi va iqtisodiy samaradorligi jihatidan qoloq bo'lib qoladi, ya'ni ma'naviy eskiradi.


7.3 Korxonaning ishlab chiqarish quvvatini va uni hisoblash usullari

Asosiy ishlab chiqarish fondlari hajmi va ulardan foydalanish darajasi korxonaning ishlab chiqarish quvvati kattaligini belgilaydi. U ishlab

chiqarish dasturini asoslashda katta rol o'ynaydi hamda korxonaning belgilangan nomenklatura va sifatli mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha potentsial imkoniyatlarini tavsiflaydi.

Bundan kelib chiqadiki, **ishlab chiqarish quvvati** – bu, ma'lum bir vaqt davomida ilg'or texnologiyalardan foydalanish, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishning ilg'or sharoitlarida ishlab chiqarish mumkin bo'lgan mahsulotlarning maksimal darajasidir. U qoidaga ko'ra, ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining natural ko'rinishda, ushbu korxonaning ixtisoslashganligi va mahsulotning alohida turlari o'rtasidagi o'zaro nisbatiga ko'ra aniqlanadi.

“Agar o'n yil oldin, ya'ni 2000 yilda mamlakatimiz **yalpi ichki mahsulotida** sanoatning hissasi atigi 14,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda bu ko'rsatkich 24 foizni, transport va aloqaning ulushi tegishli ravishda 7,7 va 12,4 foizni tashkil etdi, xizmatlar bo'yicha bu raqam 37 foizdan 49 foizga o'sdi.”⁶¹



1-rasm. O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning yillar davomida o'sish dinamikasi, foizda

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Korxonaning ishlab chiqarish quvvati ilg'or (asosiy) tsexlar quvvati bilan, tsexlar quvvati bosh uchastkalar quvvati bilan, uchastkalar quvvati esa bosh uskunalar quvvatiga asosan aniqlanadi. Korxonada ishlab chiqarish quvvati kattaligini belgilab beruvchi ko'rsatkichlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

⁶¹ И. Каримов. “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади” – 2010 йилнинг асосий якунлари ва 2011 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

- *101 uskunalar tarkibi va turlar bo'yicha soni;
- *102 uskuna, agregat va dastgohlardan foydalanishning texnik-iqtisodiy norma (normativ) lari;
- *103 uskunalarining ishlash vaqti fondi;
- *104 ishchilar soni;
- *105 ishlab chiqarilayotgan mahsulot nomenklaturasi va assortimenti (turlari va xilma-xilligi).

Hozirgi kunda amaliyotda asosiy vositalarning korxonada balans va hisobotlarida aks ettiriluvchi (ya'ni, boshlang'ich, belgilangan tartibda o'tkaziluvchi qayta baholashdan keyin esa tiklanish), hisobga olish qiymati **balans qiymati** deb ataladi. Bundan asosiy vositalarning qoldiq qiymatini asosiy vositalarning balans qiymatidan eskirish summasini ayirib tashlash yordamida topish mumkinligi anglashaladi.

Qabul qilingan baholash usuli va korxonada balansida aks ettiriluvchi buxgalteriya hisoboti ma'lumotlari asosida, **korxonada asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati** ($F_{o'r.yil.qiymati}$) belgilanib, u quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$\hat{O}_{\text{dav.éèè.éèèiàdè}} = \hat{O}_{\text{éèè áîø}} + \frac{\hat{O}_{\text{éèè äââ}} \cdot \hat{O}_1 - \hat{O}_{\text{éèè äââ.éçê}} \cdot \hat{O}_2}{12}$$

Bu erda:

$F_{yil\ bosh}$ – asosiy ishlab chiqarish fondlarining yil boshidagi qiymati;

$F_{yil\ dav}$ – yil davomida kelib tushgan (foydalanishga topshirilgan) asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymati;

$F_{yil\ dav.yo'q}$ – yil davomida ishlab chiqarishdan chiqarilgan (yo'q qilingan) asosiy fondlar qiymati;

T_1 – foydalanishga topshiriluvchi asosiy ishlab chiqarish fondlari amalda bo'luvchi o'rtacha muddati (oylarda), qabul qilingandan keyingi oydan boshlab;


T_2 – ishlab chiqarishdan chiqarilgan (yo'q qilingan) asosiy ishlab chiqarish fondlari foydalanilmaydigan o'rtacha muddat (oylar) chiqarilgan oydan to yil oxirigacha).

Asosiy fondlarni boshlang'ich yoki tiklanish qiymati bo'yicha baholashdan tashqari eskirish summasi ham hisobga olinadi. Asosiy fondlar jismoniy va ma'naviy jihatdan eskirishi mumkin.

Qoldiq qiymati bo'yicha - asosiy fondlarning eskirishini inobatga olgan holda, birlamchi va qayta tiklash qiymatlari o'rtasidagi farq ko'rinishidagi baholashdir. Boshqacha qilib aytganda, bu asosiy

fondlarning ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga hali o'tkazilmagan qismidir. Korxonalar tomonidan foydalanilmaydigan hamda hisobdan chiqarish yoki sotib yuborish mo'ljallangan asosiy fondlar ham, ko'pincha qoldiq qiymati bo'yicha, mazkur xo'jalik yilidagi narxlarda baholanadi.

Korxonalar asosiy fondlarini baholashning turlarini quyidagi chizma ko'rishda aks ettirish mumkin: (3-chizma).



3 -chizma. Korxonalar asosiy fondlarini baholashning turlari

Amaliyotda ishlab chiqarish quvvati va uskunalarning yuklanishini hisoblashda ba'zida xatolar, ular o'rtasidagi farqni sezmaslik hollari ham uchrab turadi. Korxonalar quvvati asosiy ishlab chiqarish fondlari, yangi texnika va aniqlangan zahiralardan foydalangan holda mahsulot ishlab

chiqarish mumkin bo'lgan maksimal darajani tavsiflaydi, uskunalarning yuklanishni hisoblash natijalari esa, ushbu quvvatlardan rejadagi davrda foydalanishning darajasini aniqlaydi.

Demak, ular o'rtasidagi printsiptial farq Shundaki, birinchi holatda korxonada ishlab chiqarishi mumkin bo'lgan mahsulotlarning maksimal darajasi aniqlansa, ikkinchi holda mazkur davr mobaynida uskunalardan qanchalik foydalanilishi aniqlanadi.

Ishlab chiqarish dasturining korxonada mavjud bo'lgan quvvatlarga mos kelishini aniqlash uchun, ***o'rtacha yillik ishlab chiqarish quvvati*** hisoblab topiladi. Uni hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$M_{\text{ўр.йил}} = M_H + \frac{M_B \times n_1}{12} - \frac{M_L \times n_2}{12}$$

Bu erda:

$M_{\text{o'rt.yil}}$ – korxonaning o'rtacha yillik quvvati;

M_n – korxonaning yil boshidagi quvvati;

M_v – yil mobaynida kiritiluvchi quvvati;

M_l – yil davomida ishlab chiqarishdan chiqariluvchi (yo'q qilinuvchi) quvvat;

n_1, n_2 – ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirishdan yoki tugatilgan ishlab chiqarish quvvatlari yo'q qilingandan to yil oxirigacha o'tgan to'liq oylar soni.

Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni yaxshilash bilan bog'liq bo'lgan mazkur chora-tadbirlar, ko'pincha ishlab chiqarish quvvatlari balansini tuzish yo'li bilan amalga oshirilib, korxonaning ishlab chiqarish quvvatlari va ularni ta'minlash manbalariga bo'lgan ehtiyoji aniqlanadi.

Mamlakatimiz bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 2000 yilda 29,7 foizi, 2005 yilda 32,6 foizi, 2008 yilda 34,5 foizi, 2009 yilda 28,4 foizi sanoat tarmoqlariga yo'naltirilgan. Mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb qilingan xorijiy investitsiyalarning katta qismi (2000 yilda 62,4 foizi, 2005 yilda 46,4 foizi, 2008 yilda 47,2 foizi, 2009 yilda 21,5 foizi) sanoat tarmoqlariga yo'naltirilgani ham Yuqoridagi fikrni yana bir bor tasdiqlaydi.

Yangi quvvatlarning ishga tushirilishi, mahsulot turlarini diversifikatsiya qilish, yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish nafaqat tarmoqning YaIMdagi ulushi o'zgarishiga, balki ichki tarmoq tarkibining o'zgarishiga ham olib keldi.

**Sanoat ishlab chiqarishining tarmoq tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)**

	Yillar				
	2000	2005	2008	2009	2010
Sanoat	100	100	100	100	100
Elektroenergetika	8,5	11,3	8,6	8,9	8,4
YOqilg'i	15,3	16,2	20,1	21,5	19,7
Metallurgiya	11,4	19,4	15,5	14,1	14,7
Mashinasozlik va metallni qayta ishlash	9,9	13,0	16,2	16,2	16,2
Qurilish materiallari	5,4	3,6	4,9	4,7	5,0
Engil sanoat	19,1	16,6	12,9	12,2	12,2
Oziq -ovqat sanoati	13,3	8,2	10,6	11,2	12,6
Boshqalar	17,1	11,7	11,2	11,2	11,2

Manba: Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

2000-2010 yillar davomida sanoat ishlab chiqarish tarkibida yoqilg'i sanoati, metallurgiya, mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati tarmoqlarining ulushi ortdi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning umumiy hajmida mashinasozlik va metallni qayta ishlash tarmog'ining ulushi 2000 yilda 9,9 foizdan iborat bo'lgan bo'lsa, 2008-2010 yillar davomida 16,2 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiyotning globallashuvi hamda hisob va hisobotlarning mukammallashuvi, jumladan, milliy hisob standartlarining jahon standartlari talablari darajasiga keltirilishi tufayli, garchi asosiy vositalar, asosiy fondlarning pul ko'rinishidagi ifodasi sifatida avvaldan qo'llanib kelgan bo'lsada, hayotimizga "asosiy kapital", "asosiy vositalar" kabi atamalar endilikda keng ravishda kirib kelmoqda.

Hozirgi sharoitda ma'naviy eskirishni hisobga olishning ahamiyati ortib boradi. Ishlab chiqarishni takomilga olib chiqarish uchun xali to'liq jismoniy eskirmagan, lekin ma'naviy eskirgan asosiy fondlarni yangisi bilan almashtirish kerak bo'ladi. Ma'naviy eskirgan texnikani o'z vaqtida zamonaviylari bilan almashtirmaslik mahsulot tannarxini pasaytirishga, sifatini yaxshilashga imkoniyat bermaydi. Bunday mahsulotlar bilan raqobatga kirishib bo'lmaydi.

Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi sharoitida tijorat korxonlarkda asosiy fondlarni yangilashga ketadigan xarajatlarni qoplashning asosiy manbai

ularning o'z mablag'lari hisoblanadi. Bu mablag' asosiy fondan foydalanish mobaynida amortizatsiya ajratmasi shaklida jamg'ariladi,

Amortizatsiya - asosiy fondlar eskirishni mahsulotning ishlab chikdrish tannarxiga qismlab o'tkazish yo'li bilan ying'ilib boriladigan pul mablag'laridir.

Amortizatsiya hisoblanadigan mulk tarkibiga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra qiymati eng kam oylik ish haqining 50 barobaridan ortiq bo'lgan va foydalanish muddagi 1 yildan oshadigan mulklar kiradi. Er uchastkalari, qazilma boyliklar, o'rmonlar va moliyaviy aktivlar bunga kirmaydi. Amortizatsiya ajratmasi summasi asosiy fondning qiymatiga, undan foydalanish muddatiga va modernizatsiya xarajatlariga bog'liq.

Amortizatsiyaning yillik summasini asosiy fondlar qymatiga nisbatan foizlarda ifodalash orqali uning normasi aniqlanadi. Amortizatsiya normasi asosiy fondlar yiliga o'zining balans qiymatining qancha mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga qo'shayotganini bildiradi.

Amortizatsiya ajratmalari quyidagi formula asosida aniqlanuvchi amortizatsiya normalari (N_a) asosida amalga oshiriladi:

$$H_a = \frac{A}{\Pi} \times 100$$

Bu erda:

A - amortizatsiya ajratmalari;

P - asosiy fondlarning to'liq boshlang'ich qiymati.

Yillik amortizatsiya ajratmalari (AO) miqdori quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$A = \frac{\Pi + P_k + M - O}{T}$$

Bu erda:

R_k - asosiy fondlar xizmat qilgan muddat davomida kapital ta'mirlashga sarflangan xarajatlar;

M - uskuna, mashina va qurilmalarni, ular xizmat qilgan davr mobaynida modernizatsiya qilishga sarflangan xarajatlar;

O - asosiy fondlarning qoldiq (likvidatsion) qiymati;

T - asosiy fondlarning xizmat qilish muddati, yil.

Amalda amortizatsiya mablag'lari asosiy fondlarni to'liq qayta tiklash (renovatsiya), kapital ta'mirlash va uskunalarni modernizatsiya qilish uchun alohida ravishda yo'naltiriladi. Bundan kelib chiqqan holda amortizatsiya normasi ikki qismdan - fondlarni renovatsiya qilish (N_v)

hamda kapital ta'mirlash va modernizatsiya qilish (N_r) uchun ajratiluvchi mablag'dan iborat bo'ladi.

Birinchi holda amortizatsiya normasi quyidagi formula:

$$H_B = \frac{\Pi - O}{T\Pi} \times 100$$

ikkinchi holda esa:

$$H_P = \frac{P_\kappa + M}{T\Pi}$$

asosida aniqlanadi

Ishlab chiqarish jarayonida asosiy fondlar asta-sekinlik bilan eskirishi sababli, ularning ish qobiliyatini ta'mirlash orqali tiklash zaruriyati tug'iladi. O'z vaqtida ta'mirlash asosiy fondlar muddatidan oldin ishdan chiqishining oldini oladi hamda ularning xizmat qilish muddati va unumdorligini oshiradi. Asosiy fondlarni ta'mirlash kapital, o'rta va joriy turlarga bo'linadi. Bino va inshootlarni ta'mirlash o'z mazmuni, talab qilinuvchi muddat va mablag'larga ko'ra, mashina va uskunalarni ta'mirlashdan farq qiladi.

Masalan, mashina va asbob-uskunalarni **kapital ta'mirlashda** ular to'liq qismlarga bo'linadi va eskirgan qismlar almashtiriladi. Uskunalarni ikki marta kapital ta'mirlash orasidagi muddat **ta'mirlash tsikli** deb ataladi. Mashina va uskunalarni, qoidaga ko'ra, maxsus zavodlarda ta'mirlanadi.

Amortizatsiya normasi darajasi asosiy fondlarning eskirgan qismini qayta tiklash uchun zarur bo'lgan resurslar hajmini ifodalaydi. Amortizatsiya normasi yordamida asosiy fondlarning aylanma tezligi va ularni takror ishlab chiqarish jarayonini modellashtirish nazorat qilinadi.

Amortizatsiya ajratmalari miqdori uch usulda hisoblanadi: bir maromli; bajarilgan ish hajmiga nisbatan sonlar summasi bo'yicha va qiymatni hisoblab chiqarish (kumulyativ) tezlashtirilgan usullar.

Amortizatsiya ajratmalari miqdorini bir maromli usulda hisoblash asosiy fondlarning bir maromda jismoniy va ma'naviy eskirishiga mo'ljallangan 2-jadvalga qaralsin.

Asosiy fondlarning ma'naviy eskirishi ko'p hollarda jadal kechadi. Shuning uchun boshqaruvchi amortizatsiya ajratmasini tez ma'naviy eskirayotgan asosiy fondlarnish- o'rnini qoplab oladigan darajada belgilashi lozim. Bu muammoni tezlashtirilgan amortizatsiya usuli yordamida hal qilish mumkin.

2-jadval

**Amortizatsiya ajratmalari miqdorini bir maromli
usulda hisoblash**

Asosiy fondlar ko'rinishdari	O'rtacha balans qiymati, mln. Sum	Amortizatsiya ajratmalarining yillik normasi, %	Amortizatsiya ajratmalarining yillik miqdori, mln.sum(gr.2xgr.Z)
1	2	3	4
Uskunalar		12	7,2
Binolar	350	5 -1	17,5
Transport	7	20	1,4
Jami:			26,1

Hozirgi kunda uskunalar qiymatining katta qismini dastlabki yillardayoq ishlab chiqarish xarajatlariga o'tkazishni ta'minlaydigan notekis amortizatsiya keng ko'llanilmoqda. Masalan, birinchi yil - 50%, ikkinchi yil - 30%, uchinchi yil - 20% o'tkaziladi. Bu korxonalariga Inflyatsiya sharoitda qilingan xarajatlarni tezroq qoplash va uskunalarni Yangilash imkonini beradi.

Sanoat korxonalarida amortizatsiya ajratmalari summasi mustakml ravishda korxonaning asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish va takomillashtirish sarflanadi.

Asosiy fondlarni takror ishlab chiqarganing turli shakllari mavjud. Oddiy takror ishlab chiqarish shakli - bu eskirgan mehnat vositalarini kapital ta'mirlash. Bunda ta'mirlash xarajatlari bevosita mahsulot tannarxiga qo'shiladi. Noishlab chiqarish fondlarini ta'mirlash uchun xarajatlar foyda hisobiga qoplanadi.

Asosiy fondlarni kengaytirilgan shaklda takror ishlab chiqarish deganda Yangi qurilishni amalga oshirish, korxonalar faoliyatini kengaytirish, uni rekonstruktsiya qilish, texnik qayta qurollanish xamda uskunalarni modernizatsiya qilish tushuniladi.

Bu shakllarning har biri aniq vazifani bajaradi, o'ziga yarasha ustunlik va kamchiliklari bor. Yangi qurilish hisobiga asosiy fondlarinish barcha elementlari zamon talabiga javob bera oladign korxonalar yuzaga keladi. Biroq hozirgi sharoitda ishlab chiqarishning susayishi bunda - ko'pchilik korxonalar mablag' etishmasligi sababli faoliyatini to'xtatadilar. Rekonstruktsiya qilishda kapital xarajatlarning asosiy qismi eski ishlab chiqarish binolari va inshootlaridan foydalanish davrida fondlarning aktiv qismini takomillashtirishga yo'naltiriladi: Uskunalar qilinayotgan

xarajatlar hissasining ortishi mehnat unumdorligining ortshiga, ishlab chiqarishning kengayishiga va mahsulot tannarxining pasayipshga olib keladi.

Uskunalarni modernizatsiyalash deganda uskunalardag'i ma'naviy eskirishni to'liq yoki qisman bartaraf qilish va ishlab chiqarishga nisbatan zamonaviy konstruktsiyalarni joriy qilish tushuniladi.

Uskunalarni modernizatsiyalash bir necha yo'nalishlarda olib borilishi mumkin:

- ishlayotgan mashinalarning konstruktsiyasini ularning texnik imkoniyatlarini oshiradigan qilib takomillashtirish;
- stanok va mexanizmlarni avtomatlashtirish va mexanizatsiyalash;
- uskunalarni dasturiy boshqarishga o'tkazishi.

“Jahon miqyosida globallashtirish va raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi zamonda biz dunyoda yuz berayotgan tub o'zgarishlar jarayonida egallab turgan o'rnimizni xolisona va tanqidiy baholashimiz, tobora oshib borayotgan hayot talablariga javob berishimiz, kechayotgan davr bilan hamqadam bo'lishimiz shart.”⁶²

Uskunalarni modernizatsiya qilish iqtisodiy jihatdan samarali bo'lib, mehnat unumdorligi va yillik ishlab chiqarish hajmini oshiradi, mahsulot tannarxini kamayishiga olib keladi. Agar foydaning o'sishi modernizatsiya xarajatlari tufayli asosiy fondlar qiymatining o'sishidan yuqori bo'lsa rentabillik oshgan bo'ladi.

7.4. Asosiy fondlardan foydalanishni yaxshilash yo'llari va ko'rsatkichlari

Asosiy fondlar tuzilishi, texnik darajasi mahsulot ishlab chiqarishning oshishiga, mahsulot tannarxining kamayishiga ta'siri ulardan foydalanish darajasiga bog'liq.

Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning turli xil ko'rsatkichlari mavjud bo'lib, ularni shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin:

birinchi guruh - umumlashtiruvchi va qiymat ko'rsatkichlari bo'lib, ular asosiy fondlarning turli guruhlarini dinamika va statikada baholash, tahlil qilish, zahiralarini aniqlash va bashorat qilish imkonini

⁶² И. А. Каримов. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” маърузаси// Халқ сўзи газетаси, 12.11.2010.

Yaratadi. Bunday ko'rsatkichlarga fond qaytimi, fond sig'imi, fond rentabelligi va boshqalarni kiritish mumkin.

ikkinchi guruh - xususiy va natural ko'rsatkichlar bo'lib, ko'proq asosiy ishlab chiqarish fondlarining faol qismi - ishchilar, mashina va asbob-uskunalaridan foydalanish bilan bog'liq.

Ko'rsatkichlarning bu guruhi tarkibiga quyidagilar kiradi:

-asosiy ishlab chiqarish fondlari (mashina va asbob-uskunalar)dan **ekstensiv foydalanish koeffitsienti**, ulardan vaqt bo'yicha foydalanganlik darajasini aks ettiradi;

- asosiy ishlab chiqarish fondlari (mashina va asbob-uskunalar)dan **intensiv foydalanish koeffitsienti**, ulardan quvvat bo'yicha foydalanganlik (unumdorlik) darajasini aks ettiradi;

- asosiy ishlab chiqarish fondlaridan **integral foydalanish koeffitsienti**, barcha ekstensiv va intensiv omillardan birgalikda foydalanishni hisobga oladi.

Birinchi guruh ko'rsatkichlariga uskunalardan ekstensiv foydalanish koeffitsienti, uskunalardan foydalanishning smenalilik koeffitsienti, uskunalarning ish bilan ta'minlanganlik koeffitsienti, uskuna ishlash vaqti rejimining smenali koeffitsienti.

Uskunalaridan ekstensiv foydalanish koeffitsienti uskunalardan hakikatda foydalanilgan soatlar miqdorini rejadagi soatlar miqdoriga bo'lish yo'li bilan topiladi:

$$K_{ekst} = \frac{thaq.f}{t \text{ meyor.f}}$$

bunda: $thaq.f$ - uskunalardan haqiqiy foydalanilgan vaqt, soat;

$t_{meyor.f}$ - uskunalarning norma bo'yicha ishlash muddati, soat.

Misol. Agar 8 soatlik smena mobaynida ta'mirlash uchun 1 soat rejalashtirilib, amalda 5 soat sarflangan bo'lsa, u holda ekstensiv foydalanish koeffitsienti 0,71 ($5/(8-1)$) ni tashkil qiladi. Bu esa asbob-uskunalaridan smena davomida faqat 71 % foydalanilganligini anglatadi.

Korxonalarda bunday uskunalarning bir emas, bir nechta – o'nta yoki yuztasidan foydalaniladi. Shu munosabat bilan uskunalarning smenalilik koeffitsienti - sutka davomida mashina-smenalarning o'rnatilgan uskunalarning umumiy soni yoki ishchi o'rinlariga nisbatini aniqlash zaruriyati tug'iladi. Bu holda smenalilik koeffitsienti quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$K_{CM} = \frac{MC}{KO}$$

Bu erda:

MS - sutka davomida haqiqiy ishlangan mashina-smenalar yig'indisi;

Ko - o'rnatilgan asbob-uskunalarining umumiy soni.

Misol. Korxonada 200 dona metall qirquvchi stanok sutka mobaynida 360 mashina-smena, 60 ta temir presslovchi stanok 50 mashina-smena, 40 ta quyuv stanoklari esa 30 mashina-smena ishlagan. Ushbu holda barcha stanoklardan foydalanishning smenalilik koeffitsienti quyidagicha topiladi:

$$K_{CM} = \frac{360 + 50 + 30}{200 + 60 + 40} = 1,47$$

Uskunalarining smenalilik koeffitsientini aniqlashning yana bir yo'li bo'lib, unga ko'ra korxonalarining bir emas, ikki yoki uch smenada ishlashi va bunda uskunalarining barchasidan ham to'liq foydalanilmasligi ko'zda tutiladi. Masalan, tsexda 270 dona uskuna o'rnatilgan bo'lib, birinchi smenada ulardan 200 tasi, ikkinchi smenada esa 190 tasi ishlagan. Bu holda uskunalarining smenalilik koeffitsienti 1,44 (200+190)/270) ni tashkil qiladi.

Korxonalarda smenalilik koeffitsienti oshirishga intilish kerak, Chunki u qanchalik yuqori bo'lsa, mahsulot ishlab chiqarish ham ortadi.

O'skunalar gapining smenaliligini oshirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

- ishchi o'rinlarining ixtisoslashganlik darajasini oshirish. Bu ishlab chiqarishning seriyaliligini va uskunalarining ish bilan ta'minlanganligini oshiradi;

- ishlarning ritmligini oshirish;

- bekor turib qolishlarni kamaytirish.;

- ta'mirlash ishlarini samarali yo'lga ko'yish;

- asosiy va maxsus yordamchi ishchilar mehnatini mexanizatsiyalash.

Bu qo'shimcha ishi kuchini ozod qilish va ularni og'ir yordamchi ishlarga yoki uchinchi smenaga o'tkazish imkonini beradi.

Uskunalarining ish bilan ta'minlanganlik koeffitsienti ham

Mamlakatimizda 2010 yilda 2009 yilga nisbatan 13,6 foizga ko'p, ya'ni 9 milliard 700 million AQSh dollariga teng miqdordagi investitsiyalar o'zlashtirildi, bu yalpi ichki mahsulotning qariyb 25 foizini tashkil etadi.

Islom Karimov

uskunalardan vaqt bo'yicha foydalanishni xarakterlaydi. Bu ko'rsatkich asosiy ishlab chiqarishdan jami mashina parklari uchun hisoblanadi. Bu ko'rsatkich mavjud uskunalar bilan barcha mahsulotlarni tayyorlash mehnat sig'imini ulishini ishlash vaqti fondiga nisbati sifatida anikdanadi. Amaliyotda uskunalarning ish bilan ta'minlanganlik koeffitsienti smenalik koeffitsietidan ikki barobar (agar 2 smenali rejim bo'lsa) yoki uch barobar (agar 3 smenali rejim bo'lsa) kam qiymatda qabul qilinadi

Biroq uskunalardan foydalanish jarayonining boshqa tomonlari ham bor. Smena orasida vaqgincha kun mobaynida bekor turib qolishlarni bilishdan tashqari uskunalardan haqiqatdan ish bilan ta'minlangan vaqtlarida qaichalik darajada samarali foydalanilayotganligini ham aniqlash kerak. Uskunalar to'liq ish bilan ta'minlanmagan paytda umuman mahsulot chiqarmasligi mumkin. Bunday hollarda biz uskunalardan ekstensiv foydalanish ko'rsatkichlarini hisoblash bilan cheklansa, yuqori natija olganday bo'lamiz. Lekin yuqorida ko'rganimiz, uskunalardan foydalanish samaradorligi haqida to'liq xulosa chiqarishga kifoya qilmaydi.

Olingan natijalarni ikkinchi guruhga taalluqli bo'lgan, asosiy fondlar unumdorligi aks ettiruvchi asosiy fondlardan intensiv foydalanish ko'rsatkichlari bilan boyitish kerak.

Uskunalarni yuklanish koeffitsienti ham uskunalardan vaqt bo'yicha foydalanishni tavsiflaydi. Smenalilik koeffitsientidan farqli ravishda, u mahsulotning mehnat sig'imini hisobga oladi. U mazkur uskunada tayyorlangan barcha mahsulotlar mehnat sig'imini uning ishlash vaqti fondiga nisbati orqali aniqlanadi. Mazkur misolda ushbu koeffitsient quyidagicha bo'ladi:

$$K_{\text{yok}} = \frac{1,44}{2} = 0,72$$

Korxonada asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni to'liq baholash uchun ekstensiv ko'rsatkichlardan tashqari, ularning quvvat bo'yicha yuklanish tabiatini o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu erda Yuqorida aytib o'tilganidek, texnologik uskunalar amaldagi unumdorligining, Ya'ni texnik asoslangan progressiv unumdorlikning normativ unumdorlikka nisbati asosida, ya'ni **uskunalardan intensiv foydalanish koeffitsientidan** foydalanish, uni quyidagi formula bo'yicha hisoblash mumkin:

$$K_{\text{int.}} = V_f : V_p$$

Bu erda: V_F – vaqt birligida uskunada ishlab chiqarilgan haqiqiy mahsulot miqdori;

V_P – vaqt birligida uskunada texnik jihatdan asoslangan mahsulot ishlab chiqarish normasi.

Misol. Pasport ma'lumotlari bo'yicha dastgohda bir soatda 100 ta detalъ Yasash mumkin, amalda esa Shu vaqt ichida faqat 80 ta detalъ tayyorlandi. U holda $K_{int.}=0,8$ (80:100), ya'ni dastgohdan quvvat bo'yicha foydalanish 80 foizni tashkil qildi.

Asosiy fondlardan foydalanish ko'rsatkichlarining uchunchi guruhiga:

- uskunalardan integral foydalanish koeffitsienti;
- ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsienti;
- mahsulotlarning fondlar qaytimi va fondlar sig'imi ko'rsatkichlari kiradi.

Uskunadan integral foydalanish koeffitsienti uskunadan ekstensiv va intensiv foydalanish koeffitsientlarining ko'paytmasi orqali aniqlanib, uning vaqt va quvvat bo'yicha band bo'lishini (foydalanilishini) kompleks xarakterlaydi.

Bizning misolimizda $K_{eks}=0,71$ va $K_{int} = 0,8$ bo'lganligi tufayli, uskunadan integral foydalanish koeffitsienti quyidagiga teng bo'ladi:

$$K_{интегр.} = K_{экс} \times K_{инт} = 0,71 \times 0,8 = 0,57$$

Bu ko'rsatkich uskunalardan ham ekstensiv ham intensiv foydalanishdagi kamchiliklarni birgalikda aniqlaydi. Ushbu ikki omil ta'siri natijasida stanoklar soatiga 0,57 % ishlatilgan.

Asosiy fondlardan samarali foydalanish ishlab chikarish hajmining oshishiga olib keladi. Shuning uchun asosiy fondlar samaradorligi ko'rsatkichini aniklashda mahsulot ishlab chiqarilishida qatnashgan barcha asosiy fondlar qiymatini hisobga olish lozim. Bu ko'rsatkich asosiy fondlarning 1 so'miga qancha ishlab chiqarilgan mahsulot to'g'ri kelishini, Ya'ni fondlar qaytimini ifodalaydi. Uni hisoblash quyidagi formula yordamida amalga oshiriladi:

$$F_{qay.tim} = T/F$$

Bunda: T - tovar yoki Yalpi, yoki sotilgan mahsulot hajmi, so'm;

F - korxonaning yillik o'rtacha asosiy ishlab chiqarish fondlarining qiymati, so'm.

Asosiy ishlab chiqarish fondlarining yillik o'rtacha qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$F = F_1 + \frac{F_{\text{ishga tush.}} \times I_1}{12}; \quad \frac{F_{\text{ishdan chiqish}} \times I_2}{12}$$

Bunda: F₁- asosiy ishlab chiqarish fondlarining yil boshidagi qiymati, so'm;

Fishga tush.; Fishdan chiqish.- yil mobaynida ishga tushirilgan (hisobdan chiqarilgan) asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymati, so'm;

I₁, I₂- ishga tushirilgan (hisobdan chiqarilgan) vaqtdan keyingi to'liq oylar soni.

Fondlar qaytimi asosiy fondlardan foydalanishpni ifodalovchi muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Mamlakat bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida fondlar qaytimini oshirish xalq xo'jaligining muhim vazifasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 19 noyabrdagi "Iqtisodiy nochor korxonalarini tijorat banklariga sotish to'g'risidagi tartibni tasdiqlash to'g'risida"gi F-4010-sonli Farmoyishi bilan iqtisodiy nochor korxonalarining moliyaviy qobiliyatini tiklash bo'yicha bir qator imtiyozlar(ko'maklar) berilgan.

Jumladan:

ushbu farmoyishning 2-bandi asosida berilgan imtiyozlar bo'yicha mol-mulk solig'i summasini korxonalar xarajatlariga kiritmaslik;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 noyabrdagi PF-4058-son Farmoniga muvofiq, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo'yicha amortizatsiya ajratmalarini o'rnatilgan me'yordan kamroq hisoblash.

Ishlab chiqarish jarayonida asosiy fondlar asta-sekinlik bilan eskirishi sababli, ularning ish qobiliyatini ta'mirlash orqali tiklash zaruriyati tug'iladi. O'z vaqtida ta'mirlash asosiy fondlar muddatidan oldin ishdan chiqishining oldini oladi hamda ularning xizmat qilish muddati va unumdorligini oshiradi. Asosiy fondlarni ta'mirlash kapital, o'rta va joriy turlarga bo'linadi. Bino va inshootlarni ta'mirlash o'z mazmuni, talab qilinuvchi muddat va mablag'larga ko'ra, mashina va uskunalarni ta'mirlashdan farq qiladi.


Masalan, mashina va asbob-uskunalarni **kapital ta'mirlashda** ular to'liq qismlarga bo'linadi va eskirgan qismlar almashtiriladi. Uskunalarni ikki marta kapital ta'mirlash orasidagi muddat **ta'mirlash tsikli** deb ataladi. Mashina va uskunalarni, qoidaga ko'ra, maxsus zavodlarda ta'mirlanadi.

O'rtacha ta'mirlash texnik mazmuni, murakkabligi, bajariladigan ish hajmi va davriyligiga ko'ra, kapital ta'mirlashdan farq qiladi hamda sarflanuvchi mablag', vaqt va kuchni nisbatan kamroq talab etadi. Joriy ta'mirlash kabi u ham mashina yoki uskunadan foydalanuvchi korxonaning o'zida amalga oshirilishi mumkin.

Joriy ta'mirlashda asosan asbob-uskunalar tozalanadi, moylanadi, tekshiriladi, mayda kamchiliklari bartaraf qilinadi, Ya'ni uskunalarining foydalanishga doimiy tayyorligi ta'minlanadi.

Asosiy fondlarni ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatish majmuasi *rejali-oldini oluvchi ta'mirlash tizimiga* (ROOT) birlashtiriladi va korxonada bosh mexanigi tomonidan boshqariladi. Deyarli har bir korxonada ROOT o'tkazilishini qayd qilish jurnallari mavjud bo'lib, ularda profilaktika va ta'mirlash tadbirlarini o'tkazish tartibi va grafigi belgilab qo'yiladi.

Ta'mirlash ishlari tufayli korxonada asosiy fondlarning joriy ekspluatatsiyaga tayyorligini ta'minlaydi. Biroq Shu bilan bir qatorda korxonada asosiy fondlarni Yaratish, foydalanish, amortizatsiya, qayta tiklash kabi bosqichlarni o'z ichiga oluvchi takror ishlab chiqarish amallarini doimiy ravishda bajarishga intilishi lozim. Bu bosqichlarni quyidagi chizma yordamida aks ettirish mumkin (4 - chizma)*.



4-chizma. Korxonada asosiy fondlarini qayta ishlab chiqarish bosqichlari.

* - Ушбу расми матнинг электрон версияси ор=али слайд шаклида диапроектор ор=али намоийиш этиш мумкин. 2-илова

Takror ishlab chiqarish tsiklida asosiy fondlarni yaratish jarayoni korxonadan tashqarida amalga oshiriladi hamda asosan qurilish sohasi, mashinasozlik, asbobsozlik hamda asosiy fondlarni yaratish bilan Shug'ullanuvchi boshqa sohalar bilan bog'liq bo'ladi. Asosiy vositalarni takror ishlab chiqarishning qolgan bosqichlari korxonada hududida amalga oshiriladi. Biroq barcha hollarda ham asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish tufayli korxonalar ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish hamda rivojlanib borayotgan bozor munosabatlari sharoitlarida iqtisodiy va texnik barqarorlikka erishishlarini ta'minlaydi.


“Mamlakatimizda 2010 yilda 2009 yilga nisbatan 13,6 foizga ko'p, Ya'ni 9 milliard 700 million AQSH dollariga teng miqdordagi investitsiyalar o'zlashtirildi, bu yalpi ichki mahsulotning qariyb 25 foizini tashkil etadi.

Ushbu investitsiyalarning salkam 72 foizi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etishga, jumladan, 38 foizga yaqini asbob-uskuna va ilgg'or texnologiyalar sotib olishga yunaltirildi. Shu boradagi umumiy qo'yilmalar hajmida xorijiy investitsiyalar va kreditlar ulushi 28,8 foizni, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar miqdori esa 2 milliard 400 million dollardan ziyodni tashkil etdi.

Barcha moliyaviy manbalar hisobidan texnik va texnologik qayta jihozlash uchun yunaltiriladigan investitsiyalar hajmi 3 milliard 600 million dollardan oshgani yoki 2010 yildagi barcha kapital qo'yilmalarning 37,5 foizini tashkil etgani prinsipial muhim ahamiyatga egadir.”⁶³

Mahsulotlarning fondlar sig'imi ko'rsatkichi fondlar qiymatiga teskari ko'rsatkich hisoblanadi. Bu ishlab chiqarilgan mahsulotning har bir so'miga qancha asosiy fondlar to'g'ri kelishini ifodalaydi. Agar fondlar qaytimi o'sish tendentsiyasiga ega bo'lsa, unda fondlar sig'imi kamayib boradi.

⁶³ И. Каримов. “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади” – 2010 йилнинг асосий яқунлари ва 2011 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.



5- chizma Fondlar qaytimini oshiruvchi omillar

Korxonada asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni yaxshilashning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- smena davomida uskunalar bekor turib qolishini qisqartirish va uning oldini olish;
- uskunalarning smenalilik koeffitsientini oshirish;
- bekor turuvchi uskunalarni qisqartirish va tugatish;
- ta'mirlash va profilaktika tadbirlarini o'z vaqtida va sifatli ravishda amalga oshirish;
- uskunalarni ekspluatatsiya qiluvchi xodimlarning malakasini oshirish;
- ishlab chiqarishni tashkil etishni va resurslar bilan ta'minlashni yaxshilash.

Qisqacha xulosalar

Bino, inshoot, mashina, qurilma, asbob-uskuna va boshqa mehnat vositalaridan iborat bo'lgan asosiy ishlab chiqarish fondlari ishlab

chiqarish jarayonida uzoq vaqt mobaynida ishtirok etib, natural shaklini saqlab qoladi hamda ularning qiymati ishlab chiqarilayotgan mahsulotga asta-sekinlik bilan qismlarga bo'lib o'tkaziladi.

Asosiy fondlar ishlab chiqarish moddiy-texnika bazasining asosi hisoblanadi. Korxonaning ishlab chiqarish quvvati va mehnatning texnik jihatdan qurollanish darajasi asosiy fondlarga bog'liq bo'ladi.

Korxonaning ishlab chiqarish quvvati – bu, ishlab chiqarishning barcha zahiralardan foydalangan holda ishlab chiqarish mumkin bo'lgan mahsulotning maksimal hajmidir.

Ekspluatatsiya jarayonida asosiy fondlar jismoniy va ma'naviy eskirishga uchrab, bu korxonaga uchun ma'lum bir yo'qotishlarni keltirib chiqaradi.

Asosiy fondlarning eskirishi bilan bog'liq bo'lgan yo'qotishlarni, ulardan foydalanishini yaxshilash, fond qaytimi, smenalik koeffitsienti, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsienti kabi asosiy ko'rsatkichlar darajasini oshirish yordamida kamaytirish mumkin.

Bu ko'rsatkichlarni fan-texnika taraqqiyoti hisobiga, asosiy fondlar tuzilmasini mukammallashtirish, uskunalar bekor turib qolishini kamaytirish, mehnat va ishlab chiqarishni takomillashtirish, xo'jalik yuritishning yangi shakllarini rivojlantirish yordamida yaxshilash mumkin.

Foyda bilan bir qatorda amortizatsiya ajratmalar ham korxonaga asosiy fondlarini takomillashtirish manbai bo'lib xizmat qiladi.

Takrorlash uchun savollar

1. Asosiy fondlar nima va ularning kengaytirilgan ishlab chiqarishdagi roli qanday?

2. Asosiy ishlab chiqarish fondlari tuzilmasi deganda nima tushuniladi hamda ularning sanoat tarmoqlari bo'yicha farqlanishiga nima sabab bo'ladi?

3. Zamonaviy amortizatsiya siyosatining mohiyati va ahamiyati nimada?

4. Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning ekstensiv va intensiv ko'rsatkichlari qanday?

5. Korxonaga va sanoat tarmog'ining ishlab chiqarish quvvatlarini hisoblash usuli, turi va tushunchalari qanday?

6. Zamonaviy sharoitlarda asosiy fondlar va korxonaga ishlab chiqarish quvvatidan foydalanishni yaxshilashning qanday yo'nalishlari mavjud?

7. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining jismoniy va ma'naviy eskirishi mazmunini va ularga ta'sir etuvchi omillarni yoriting.

8. Asosiy ishlab chiqarish fonddalarini takror ishlab chiqarish manbalarini ayting.

9. Korxonada ishlab chiqarish quvvati haqida tushuncha bering.

10. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining samarali ishlatilishi qaysi ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi?

8-bob. Korxonalar aylanma fondlari va aylanma mablag'lar

8.1. Aylanma fondlar va aylanma mablag'lar tushunchasi, iqtisodiy tabiati va ularning korxonalar faoliyatidagi ahamiyati

8.2. Aylanma fondlarning tarkibi, shakllanish manbalari va ularning korxonalar iqtisodiyotiga ta'siri

8.3. Aylanma mablag'lardan foydalanish ko'rsatkichlari va aylanma mablag'larni normalashtirish

8.4. Aylanma mablag'lar tejamkorligi va ularning samaradorligini oshirish yo'llari

Tayanch iboralar: Aylanma mablag'lar, aylanma kapital, aylanma ishlab chiqarish fondlari, muomala fondlari, zahira, ichki ishlab chiqarish zahiralar, ishlab chiqarish zahiralar, xususiy aylanma mablag'lar, qarzga olingan aylanma mablag'lar, aylanma mablag'larni va ishlab chiqarish zahiralarini normalashtirish, joriy zahira, sug'urta (kafolat) zahirasi, tayyorlov (texnologik) zahirasi, mavsumiy zahiralar, aylanma mablag'larni yuklanish koeffitsienti.

8.1. Aylanma fondlar va aylanma mablag'lar tushunchasi, iqtisodiy tabiati va ularning korxonalar faoliyatidagi ahamiyati

Korxonalar ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilishda mehnat qurollari (asosiy fondlar) va ishchi kuchidan tashqari, **aylanma mablag'larga** ham ega bo'lishlari zarur. Aylanma mablag'lar ishlab chiqarishning aylanma fondlari va muomala fondlarini tashkil qilishga mo'ljallangan pul mablag'laridan iborat. Aylanma mablag'lar, qoidaga ko'ra, korxonaning hisob raqamida naqd pul ko'rinishida jamg'ariladi. Har bir korxonaning aylanma mablag'lari asosiy fondlarning texnik holati va mahsulot ishlab chiqarish dasturi bilan bog'liq. Korxonalar qanchalik katta va uning ishlab chiqarayotgan mahsulotlari turlari ko'p bo'lsa, aylanma mablag'lar Shunchalik ko'p talab qilinadi. Aylanma mablag'lar ishlab chiqarish va uning uzluksizligini ta'minlashning moddiy asosi hisoblanadi.

“Aylanma mablag'lar ” atamasidan tashqari “aylanma kapital” iborasi ham ko'p qo'llanilib, asosan iqtisodiy nazariya va xo'jalik yuritishning xorijiy tajribasidan olinadi. Mohiyatiga ko'ra, **aylanma kapital** korxonalar ishlab chiqarish kapitalining bir qismi bo'lib, uning qiymati ishlab

chiqarishning har bir tsiklida ishlab chiqarilgan mahsulotga o'tkaziladi hamda ushbu tovarni sotgandan so'ng korxonaga qaytariladi. Aylanma kapital ko'pincha korxonaning pul mablag'lari hisoblanuvchi yoki ishlab chiqarish jarayonida pul mablag'lariga aylantiriluvchi harakatchan aktivlari qatoriga kiritiladi.

Iqtisodiy tabiati, bajaruvchi vazifalari va ishlab chiqarish jarayonidagi o'rniga ko'ra, "aylanma mablag'lar" va "aylanma kapital" o'rtasida sezilarli farq yo'q. Korxonada doimiy kapitalning tarkibiy qismi sifatida ular xom ashyo, yoqilg'i, energiya resurslari, yordamchi va boshqa materiallarda yuzaga keladi, Shuningdek, ishchi kuchlarini yollash va ularning mehnatiga haq to'lashga bo'nak (avans) tariqasida beriladi. Aylanma mablag'larga bo'lgan qo'shimcha talab banklardan olinadigan kreditlar hisobiga qoplanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida korxonalarning aylanma mablag'larga etarli tarzda ega bo'lishi ularning normal faoliyat yuritishi garovi hisoblanadi. Shuni ham unutmaslik zarurki, ishlab chiqarayotgan mahsulot birligiga sarflanuvchi xom ashyo, material, yoqilg'i va energiya miqdori mahsulot sifatiga ta'sir ko'rsatmagan holda qanchalik kam bo'lsa, mahsulot Shunchalik arzonlashadi hamda aylanma mablag'lar kamroq sarflanib, ulardan foydalanish samaradorligi yuqori bo'ladi.

"Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini jadal yangilash biz uchun eng muhim ustuvor vazifa sifatida izchil davom ettiriladi."⁶⁴

Korxonalarning aylanma mablag'lari **aylanma fondlari va muomala fondlariga** taqsimlanadi. Bunday taqsimlash ularning moddiy-buyumlashgan tuzilishidan tashqari, ishlab chiqarish jarayoni va umuman, korxonaning iqtisodiy faoliyatidagi ishtiroki asosida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, taqsimlash rejalashtirishni tashkil qilishda hamda korxonaning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarida aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojini aniqlashda katta rol o'ynaydi.

Aylanma ishlab chiqarish fondlari—korxonada ishlab chiqarish fondlarining bir qismi bo'lib, bitta ishlab chiqarish tsikli davomida sarflanadi hamda natural shaklini o'zgartirib, o'z qiymatini to'lig'icha tayyor mahsulot tannarxiga o'tkazadi. Shu sababli aylanma ishlab

⁶⁴ И. Каримов. "Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади" – 2010 йилнинг асосий яқунлари ва 2011 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

chiqarish fondlari ishlab chiqarish jarayonining majburiy elementi va ishlab chiqarish xarajatlarining asosiy qismi hisoblanadi.

Korxonada aylanma ishlab chiqarish fondlari qatoriga xom ashyo va materiallar zahirasi, yarim tayyor mahsulotlar, yoqilg'i va energetika resurslari, qadoqlash va o'rov materiallari, ehtiyot qismlar, tugallanmagan ishlab chiqarish va kelajakdagi xarajatlarni kiritish mumkin. Rejalashtirish, sistemali hisob va hisobotni tashkil qilish uchun qulaylik yaratish maqsadida aylanma ishlab chiqarish fondlari uch guruhga bo'linadi:


*106 ishlab chiqarish zahiralar;

*107 tugallanmagan ishlab chiqarish va korxonada tayyorlangan yarim tayyor mahsulotlar;

*108 kelgusi davr xarajatlari.

Muomala fondlari korxonaning tayyor mahsulot zahirasini yaratish uchun mo'ljallangan pul mablag'lari, Shuningdek, chek va veksellar, aksiyadorlarning qarzlari, turli xil debitorlik qarzlari, bank va kassalarning hisob raqamlaridagi mablag'lardan iborat bo'ladi. Muomala fondlari va aylanma ishlab chiqarish fondlari majmuasi, korxonaning aylanma mablag'lari(kapitali)ni tashkil qiladi.

Ishlab chiqarishda band bo'lgan aylanma mablag'lar kattaligini belgilovchi asosiy omillar – bu, mahsulot tayyorlashning ishlab chiqarish tsikli uzunligi, mehnatni tashkil qilish, texnika va texnologiyaning rivojlanish darajasi, mehnat predmetlari va qurollaridan foydalanish normalaridir. Aylanma mablag'lar kattaligi, Shuningdek, mahsulotlarni sotish sharoitlari, ta'minot va mahsulotni sotish tizimini tashkil qilish darajasi bilan ham bog'liq bo'ladi.



1-chizma: Aylanma mablag'lar tarkibi va strukturasini

Yuqorida keltirilgan holatlardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, aylanma mablag'lardan quyidagi hollarda foydalaniladi:

– xom ashyo, material, ehtiyot qismlar hamda ishlab chiqarishni tashkil qilishda zarur bo'lgan boshqa mehnat predmetlari;

–ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilinuvchi elektr energiyasi, yoqilg'i kabi resurslar uchun haq to'lash;

–korxonani tashkil etish va faoliyat yuritish davrida oylik ish haqi to'lanishi;

–soliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash.

Aylanma mablag'lar to'liq aylanadigan, ya'ni ishlab chiqarish va muomala davrini o'tadigan vaqt aylanma mablag'larning aylanish davri deyiladi. Bu ko'rsatkich korxonada (yoki tarmoqda) mablag'lar harakatining o'rtacha tezligini tavsiflaydi. U maxfiy turdagi mahsulotni ishlab chiqarish va sotish muddatiga mos kelmaydi.

Aylanma mablag'larni boshqarish eng kam miqdordagi aylanma mablag'lar bilan mahsulotni ishlab chiqarish va sotish jarayonining uzluksizligini ta'minlashdan iborat. Bu korxonada aylanma mablag'lari doiraviy aylanishning barcha bosqichlari bo'yicha mos shaklda va minimal, lekin etarli miqdorda taqsimlanishi lozimligini bildiradi. (Aylanma mablag'lar har doim bir vaqtning o'zida doiraviy aylanishning uchala bosqichida mavjud bo'ladi va pul mablag'lari, materiallar, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulotlar ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Korxonalar o'z-o'zini moliyalashtiradigan hozirgi sharoitda aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojni to'g'ri aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Bozor munosabatlari va deyarli barcha resurslar taqchilligi sharoitlarida aylanma mablag'lar, birinchi o'rinda moddiy resurslardan ratsional foydalanish va ularni shakllantirish zahiralari izlab topish har bir korxonada oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi. Bunda **zahira** deganda, moddiy va pul resurslarini yaxshilashning yuzaga kelgan yoki yuzaga kelayotgan, lekin hali foydalanilmagan (to'liq yoki qisman) imkoniyatlarini tushunish lozim.

Bu zahiralarning kelib chiqishi va foydalanilishiga ko'ra xalq xo'jaligiga va tarmoqlarga tegishli yoki tarmoqlararo, ishlab chiqarish ichidagi (zavod, tsex va hokazo) turlariga bo'linadi. «Korxonada iqtisodiyoti»da **ichki ishlab chiqarish zahiralari** - ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil qilish hamda texnika va texnologiyani takomillashtirish, mahsulotlarning yangi va yanada mukammal turlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan moddiy resurslardan foydalanishni yaxshilash imkoniyatlari, katta ahamiyat kasb etadi. Zahiralarning Shuningdek, moddiy resurslarni sarflashni normallashtirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning mehnat sig'imini kamaytirish, mehnatni tashkil qilishning ratsional usullarini qo'llash

natijasida ham aniqlanadi. qisqacha aytganda har bir korxonalar, ayniqsa, yirik va mashinasozlik korxonalar hamda ularga yaqin bo'lgan korxonalar, moddiy va pul resurslaridan, ya'ni xususiy kapital va boshqa aktivlardan ratsional foydalanish bo'yicha puxta ishlab chiqilgan chora-tadbirlar majmuasiga ega bo'lishi zarur.

Resurslardan samarali foydalanishning texnik-ishlab chiqarish yo'nalishlari qatoriga, birlamchi xom ashyoni ishlab chiqarishda foydalanishga sifatli ravishda tayyorlash, mashina va uskunalarni konstruksiyasini takomillashtirish, xom ashyo, material, yoqilg'ilarning tejamkor turlaridan foydalanish, ishlab chiqarish chiqitlarini kamaytiruvchi hamda ikkilamchi resurslardan maksimal darajada foydalanish va barcha turdagi yo'qotishlarning oldini olishni ta'minlovchi yangi texnika va texnologiyalarni joriy qilishni kiritish mumkin.

Resurslardan oqilona foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy yo'nalishlari qatoriga, mahsulotlar material sig'imini rejalashtirish va normalashtirishning ilmiy darajasini oshirish, resurslarni sarflashning texnik jihatdan asoslab berilgan norma va normativlarini ishlab chiqish, "eski" va "yangi" mahsulot ishlab chiqarish o'rtasida progressiv proportsiyalarni belgilash, mehnatni tashkil qilishning samarali usullarini

rag'batlantirish bilan bog'liq bo'lgan chora-tadbirlar kiritiladi.

Mamlakatimizni rivojlantirish, yangilash va modernizatsiya qilish bo'yicha tanlagan strategiyamizni va inqirozga qarshi qabul qilgan dasturimizni amalga oshirish natijasida yurtimiz dunyodagi sanoqli davlatlar qatorida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning barqaror sur'atlarini ta'minlash, aholimizning moddiy farovonligini yuksaltirishga erishgani barchamizga katta mamnuniyat va iftixor bag'ishlaydi, albatta.

I. Karimov (ma'ruzadan)

Aylanma mablag'lar va ularning tarkibiy qismlaridan samarali foydalanishning asosiy yo'nalishlari ish joylarida (brigada, tsex va ishlab chiqarish uchastkalarida) bitta miqdordagi xom ashyo va materiallardan tayyorlanuvchi

yakuniy mahsulotlarni ko'paytirishdadir. U ishlab chiqarishni texnik jihatdan ta'minlash, xodimlarning malakasi, moddiy-texnika ta'minoti, moddiy resurslar zahiralarini sarflash normalariga bog'liq bo'ladi.

Aylanma aktivlar ham xorxonalar mulki hisoblanib, ular aylanma fondlar va muomala fondlarining pul shaklidagi yig'indisini ifodalaydi.

Uzluksiz ishlab chiqarish jarayonini ta'minlash uchun asosiy ishlab chiqarish fondlari bilan bir qatorda mehnat predmetlari (moddiy resurslar) zarur bo'ladi. Mehnat predmetlari mehnat vositalari bilan birgalikda

mehnat mahsulotini, uning iste'mol qiymatini yaratishda va qiymatning shakllanishida qatnashadi.

Mehnat predmetlari ishlab chiqarishning bir tsiklidagina qatnashadi va o'zining natural shaklini o'zgartiradi, qiymatini to'liq yangidan yaratilgan mahsulotga o'tkazadi.

Ishlab chiqarilgan mahsulotlar sotilganidan keyin ularni ishlab chiqarish uchun sarflangan mablag'lar korxonaga qaytadi va doimo oborotda qatnashadi. Korxonaning mablag'lari doiraviy aylanishning turli bosqichlarida: pul, ishlab chiqarish vositasi va tayyor mahsulot (tovar) shaklida bo'ladi.

Ishlab chiqarish vositalari (ya'ni mehnat predmetlari va mehnat vositalari) takror ishlab chiqarish jarayonida tutgan o'rniga va ayrim xususiyatlariga qarab asosiy va aylanma fondlarga ajratiladi.

Mehnat predmetlari to'liq, mehnat vositalarining ayrimlari (xizmat muddati va qiymatiga ko'ra) aylanma fond tarkibiga kiradi.

Ishlab chiqarish korxonalarining aylanma fondlari ishlab chiqarish va muomala doirasiga ajratilgan bo'lib, shunga muvofiq ular muomala va aylanma ishlab chiqarish fondlarini hosil qiladi. Birinchisiga sotish uchun mo'ljallangan tayyor mahsulotlar, korxonada kassasidagi va uning tijorat bankidagi shchotida saqlanayotgan pul mablag'i hamda hisob-kitoblardagi mablag'lar kiradi. Ikkinchisiga esa ishlab chiqarish zahiralarini, tugallanmagan ishlab chiqarish va korxonada o'zi tayyorlagan yarim tayyor mahsulotlar, kelgusi davr xarajatlari va boshqalar kiradi.

Aylanma ishlab chiqarish va muomala fondlari takror ishlab chiqarishning uzluksiz bo'lishligini ta'minlaydi. Ularning miqdori va tarkibi nafaqat ishlab chiqarishning ehtiyoji, shu bilan birgalikda muomala ehtiyojidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Ishlab chiqarish va muomala fondlari zahiralarini shakllantirish uchun mo'ljallangan pul mablag'lari korxonaning aylanma mablag'i deyiladi.

8.2. Aylanma fondlarning tarkibi, shakllanish manbalari va ularning korxonada iqtisodiyotiga ta'siri

Aylanma fondlar tuzilmalarini rejalashtirish va boshqarishning hozirgi davr amaliyotida ushbu mablag'larning tarkibi va tuzilmasini baholash va tahlil qilishga, Shuningdek, ularning funktsional roli va harakatiga katta e'tibor qaratiladi. Aylanma ishlab chiqarish fondlari korxonada aylanma mablag'larining eng faol qismi bo'lsa, muomala fondlari ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etmaydi hamda yangi iste'mol qiymatini

yaratmaydi. Bu erda umumiy qoida shundayki, aylanma mablag'lar doimo aylanishda bo'lishi zarur - ularning samaradorligi va korxonada iqtisodiyotiga ta'siri aynan shunda ko'zga tashlanadi.

Aylanma ishlab chiqarish fondlari korxonada aylanma mablag'larining asosiy va salmoqli qismi sifatida o'z tarkibi quyidagi uch qismdan iborat:

- ishlab chiqarish zahiralari;

- tugallangan ishlab chiqarish va o'zi tayyorlagan yarim tayyor mahsulotlar;


- kelgusi davr xarajatlari.

Ishlab chiqarish zahiralari - bu ishlab chiqarish jarayoniga kiritish uchun tayyorlangan mehnat predmetlaridir. Ular xom ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yonilg'i, sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi qismlar, idish va idish materiallari, asosiy fondlarni joriy ta'mirlash uchun ehtiyot qismlardan iborat. Tugallanmagan ishlab chiqarish va o'zi tayyorlagan yarim tayyor mahsulotlar - bu ishlab chiqarish jarayoniga kirgan mehnat predmetlari: materiallar, detallar, ishlov yoki yig'ish jarayonidagi buyumlar, shuningdek korxonaning bir tsexida oxirgacha ishlab chiqarilmagan va keyinchalik shu korxonaning boshqa tsexlarida ishlatishi lozim bo'lgan yarim tayyor mahsulotlar.

***109 tugallanmagan ishlab chiqarish va korxonada tayyorlangan Yarim tayyor mahsulotlar** - bu, ishlab chiqarish jarayonida foydalanishga topshirilgan hamda ishlov berish va yig'uv jarayonida bo'lgan, lekin ishlab chiqarish jarayoni to'liq tugallanmagan hamda ushbu korxonada keyinchalik ishlov berilishi lozim bo'lgan mehnat predmetlari;

***110 kelgusi davr xarajatlari** - bu aylanma fondlarning nomoddiy elementlari bo'lib, ular joriy davrda amalga oshirilgan, ayni paytda ishlab chiqarilayotgan, lekin kelajakdagi mahsulotlarga mansub bo'lgan Yangi turdagi mahsulotlarni tayyorlash va o'zlashtirish xarajatlari (masalan, asbob-uskunalarni qayta rejalashtirish, mahsulotlarning yangi turlarini tayyorlash va loyihalashtirishga sarflanuvchi xarajatlar va boshqalar).

Aylanma ishlab chiqarish fondlari alohida tarkibiy qismlari yoki elementlari o'rtasidagi foizlarda ifodalanuvchi o'zaro munosabatlar **aylanma ishlab chiqarish fondlarining tuzilmasini** tashkil qiladi. Aylanma ishlab chiqarish fondlari va muomala fondlari o'rtasidagi xuddi Shunday foizlardagi munosabatlar korxonada aylanma mablag'larining tuzilmasi deb ataladi. 2 - chizmada korxonada aylanma mablag'larining taxminiy (namunaviy) tuzilmasi ko'rsatilgan.



2 -chizma. Korxonada aylanma mablag'larining namunaviy tuzilmasi

Aylanma fondlar tuzilmasi nafaqat sanoatning turli tarmoqlarida, hattoki bir tarmoq va bir korxonaning o'zida ham farqlanadi. Bunday farqlanishga turli xildagi xom ashyo va materiallar, ishlab chiqarish texnologiyasi va texnikasidagi farqlar, korxonalarining geografik joylashuvi, ishlab chiqarishning tashkil etilishi va mehnat taqsimoti, moddiy-texnika ta'minoti sabab bo'lishi mumkin.

Korxonalar aylanma mablag'lari tarkibi va tuzilmasiga xo'jalik yuritish qobiliyati va uning samaradorligiga rioya qilish qoidalari katta ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni korxonada ishlab chiqarish zahiralari va aylanma mablag'larning ta'minlanganligini haddan tashqari oshirishga intilmasligi zarur. Amaliyotning guvohlik berishicha, bu, resurslarning halok bo'lishiga va sun'iy tanqislikning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Shu

sababli xom ashyo va materiallarni sarflashning texnologik normalariga rioya qilish, ularni saqlashni to'g'ri yo'lga qo'yish, chiqitlar va yo'qotishlarni kamaytirish, zamonaviy va arzon materiallardan foydalanish katta ahamiyat kasb etmoqda. Biroq arzon materiallardan foydalanish doim ham korxonalar imkoniyatlari va xohishidan kelib chiqavermaydi va tashqi muhit, birinchi o'rinda ishlab chiqarishdagi hamkorlar, bahoni shakllantirish, umumiy iqtisodiy barqarorlik va boshqa omillar bilan ham bog'liq bo'ladi.

Korxonalar iqtisodiyotiga aylanma mablag'larning tarkibi va tuzilmasidan tashqari, ularni ishlab chiqarish, takror ishlab chiqarish va muomalaning turli bosqichlarida izlab topish katta ta'sir ko'rsatadi. Aylanma mablag'larning to'liq aylanishi uch bosqichdan iborat bo'lib, bu jarayonda mahsulot ishlab chiqariladi va sotiladi.

Iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi korxonalarining aylanma mablag'lari ishlab chiqarishning texnologik tashkil etish xususiyatlariga ko'ra, bir-biridan farq qiladi. Bu xususiyatlarning xarakteri ishlab chiqarilayotgan mahsulot turi va murakkabligi, ixtisoslashtirish darealizatsiya qilish sharoitlari va Shu kabilar bilan izohlanadi. Aylanma mablag'lar tuzilmasining tarmoqlar bo'yicha farqlanishini quyidagi jadval orqali bilib olish mumkin (1-jadval).

1-jadval.

Aylanma mablag'larning tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi.

Aylanma fondlarning guruh va elementlari	Butun sanoat	Qora metal lurgiya	Mashinasozlik	Energetika	Engil sanoat	Oziq-ovqat sanoati
1. Ishlab chiqarish zahiralari - jami	70,2	65,0	55,3	98,3	90,0	78,8
jumladan: xom ashyo va asosiy materiallar, yarim tayyor mahsulotlar	46,2	23,8	37,5	-	76,7	52,2
Yordamchi materiallar	6,6	11,0	2,3	24,1	5,7	6,1
Yoqilg'i	1,7	2,0	0,7	37,4	0,5	1,6
Ta'mirlash uchun ehtiyot qismlar	3,9	11,0	2,0	23,0	1,7	2,0
qadoqlash va o'rov materiallari	3,0	0,5	0,6	0,3	1,2	11,3
Instrumentlar,						

xo'jalik asboblari va qimmat bo'lmagan, tez eskiruvchi boshqa predmetlar	9,8	16,7	12,2	19,5	3,2	5,6
2. Tugallanmagan ishlab chiqarish va korxonada tayyorlangan Yarim tayyor mahsulotlari	24,0	18,3	42,2	0,5	9,8	19,5
3. Kelgusi davr xarajatlari va boshqa mehnat predmetlari	5,8	16,7	2,5	1,2	0,2	1,7
Jami aylanma ishlab chiqarish fondlari	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

Manba: Davlat Statistika qo'mitasining ma'lumotlari.

Birinchi bosqichda aylanma mablag'lar pul shaklidan moddiy boyliklarning ishlab chiqarish zahiralari aylanadi, ya'ni pul - tovar (D-T).

Ikkinchi bosqich ishlab chiqarish, yani mahsulotni tayyorlash jarayonini o'z ichiga oladi. Bu bosqichda aylanma mablag'lar va birinchi o'rinda aylanma foddar tugallanmagan ishlab chiqarish va yarim tayyor mahsulotlar holiga keltirilib, tovar shaklini oladi (T).

Uchinchi bosqichda aylanma mablag'lar tovar mahsuloti shaklida muomalaga kiritilib, sotiladi va yana pul shaklini oladi (T-P).

Shu tariqa aylanma mablag'lar barcha bosqichlardan o'tib, to'liq aylanishni amalga oshirishini quyidagi tarzda aks ettirish mumkin:

- 1-bosqich - pul-tovar (P-T);
- 2-bosqich - ishlab chiqarish (I.CH);
- 3-bosqich - tovar-pul (T-P).

Shuni qayd qilib o'tish muhimki, korxonaning aylanma mablag'lari bir vaqtning o'zida uchala bosqichda ham pul mablag'lari, ishlab chiqarish zahiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, yarim tayyor va tayyor mahsulotlar ko'rinishida mavjud bo'lishi mumkin.

Hozirgi sharoitda aylanma fondlarni tejashning iqtisodiy ahamiyati quyidagicha ifodalanadi:

- xom ashyo, material, yoqilg'i xarajatlarining kamayishi ishlab

chiqarish uchun katta iqtisodiy foydani ta'minlaydi. Bu avvalom bor, mavjud moddiy resurslar miqdoridan ko'proq tayyor mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi;

- moddiy resurslarni tejash, ishlab chiqarishga yangi, tejamliroq materiallarni kiritish takror ishlab chiqarish jarayonida alohida tarmoqlar o'rtasida taraqqiy etgan nisbatlarni belgilashga, sanoat ishlab chiqarishning mukammal tarmoq strukturasi erishishga imkon beradi;

- moddiy resurslarni tejashga intilish yangi texnikani joriy etish va texnologik jarayonlarni mukammallashtirishga turtki beradi;

- moddiy resurslar iste'molidagi tejamkorlik ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni yaxshilashga va jonli mehnat xarajatlarining tejalishiga ham olib keladi (materiallarni tashish; saqlashga sarflanadigan ish kuchi kamayadi);

- moddiy resurslar tejalishi sanoat mahsuloti tannarxining kamayishiga yordam beradi. Hozirgi vaqgda moddiy xarajatlar hisobiga barcha ishlab chiqarish xarajatlarining 3/4 qismi to'g'ri keladi. Keyinchalik, ishlab chiqarishning texnik darajasi o'sishi bilan mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha umumiy xarajatlarda buyumlashgan mehnat ulushi oshib boradi va demak, mehnat predmatlari va mehnat vositalaridan foydalanshshsh yaxshilash ijtimoiy ishlab chiqarish xarajatlarini tejashning asosiy yo'nalishi bo'lib hisoblanadi;

- mahsulot tannarxining kamayishiga ta'sir qiladigan moddiy resurslar tejamkorligi korxonaning moliyaviy holatiga ham ijobiy ta'sir qiladi.

Shunday qilib, aylanma fondlardan foydalanishni yaxshilash va tejamkorligining iqtisodiy samaradorligi korxonaning barcha ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ishlab chikarishda aylanma fondlardan foydalanishni baholash.

Aylanma fondlardan foydalanishni har tomonlama yaxshilash -sanoat korxonalarining muhim vazifalaridan biridir. Xom ashyo, yonilg'i, yordamchi materiallardan qanchalik yaxshi foydalanilsa, mahsulotning ma'lum miqdorini ishlab chiqarish uchun ular Shunchalik kam sarflanadi. Bu orqali sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmini oshirish imkoni Yagi vujudga keladi.

Moddiy resurslar sarfi ko'rsatkichlari va moddiy resurslardan foydalanish darajasi ko'rsatkichlari farqlanadi.

Moddiy resurslar sarfi ularga ishlab chiqarish iste'molini ifodalaydi. Ishlab chiqarish xarajatlari korxonadan bevosita mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha dasturni bajarishga sarflangan barcha moddiy resurslar miqdorini qamrab oladi. Moddiy resurslar ta'mirlash ehtiyojlariga,

yordamchi xo'jalikni ta'minlashga, korxonada ichida transport xizmatiga, madaniy-maishiy ehtiyojlarga ham sarflanadi. Moddiy resurslar iste'moli ularning umumiy salmoqli ulushi bilan tavsiflanadi.

Moddiy resurslar umumiy sarfi - bu hisobot davrida butun ishlab chiqarish dasturini bajarish uchun jami moddiy resurslar yoki uning alohida turlari iste'molidir. Moddiy resurslar umumiy sarfi - natural shaklda; turli xil moddiy resurslarning jami sarfi qiymat shaklida hisobga olinadi.

Muayyan "m" turdagi resurslarning salmoqli ulushi deganda ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot birligi sarflangan moddiy resurslar miqdori tushuniladi. U hisobot davrida mazkur mahsulotni ishlab chiqarishga sarflangan barcha moddiy resurslari miqdorini (MRM) ushbu mahsulotning yaroqli birliklari miqdoriga (N) bo'lish yo'li bilan aniqlanadi:

$$m = \text{MRm} : N$$

Quyidagi formula bo'yicha bir turdagi "m₁" mahsulot iste'mol xususiyatining bir birligiga moddiy resurslar salmoqli sarfini ham hisoblash mumkin:

$$m = (\sum MP \times M_{bm}) : M_{iuo}$$

Bu erda: MRS - mahsulotning bir jismoniy birligiga moddiy resurslarning salmoqli sarfi;

M_{bm} - hisobot davrida ishlab chiqarilgan mahsulot birliklari miqdori;

M_{iuo} - hisobot davrida ishlab chiqarilgan mahsulot iste'mol xususiyatining umumiy hajmi.

Mahsulot ishlab chiqarishga moddiy resurslar sarfining umumiy tavsifi bo'dib material sig'imi ko'rsatkichi (M) xizmat qiladi. U mahsulot birligiga (yokk iste'mol xususiyati birlygaga) natural yoki qiymat shaklida moddiy resurslar haqiqiy sarfini baholaydi. Bu ko'rsatkich alohida turdagi moddiy resurslar (metall sig'imi, energiya sig'imi, yonilg'i sig'imi) sarfini tavsiflaydigan ko'rsatkichlar bilan bevosita bog'liq. Bu ko'rsatkichlar natural, natural-qiymat va qiymat shakllarida o'lchanadi.

Mahsulotning material sig'imi turli ko'rsatkichlar bilan o'lchanishi mumkin:

1) ishlab chiqarilgan mahsulot bir birligiga moddiy resurslarning jamida sarfi (salmqli material sig'imi):

$$M = m = MRm : N$$

2) ishlab chiqarilgan mahsulot bir birligiga bir necha turdagi moddiy resurslarning qiymat shakldagi sarfi miqdori (1t, 1m³, 1m² hisobiga so'm).

$$M = (\sum MPM \times P) : N$$

Bu erda; R - moddiy resurslarga ulgurji narx.

Bu formulalardan oddiy turdagi mahsulotlarning material sig'imini hisoblash uchun foydalaniladi (elektr energiyasi, cho'yan, po'lat va hokazo). Murakkab turdagi mahsulotlar uchun material sig'ining asosiy iste'mol xususiyati birligiga muayyan modtsiy resurslar sarfi kabi ko'rsatkichidan foydalaniladi. Masalan, elektromotorning material sig'imi 1 kvv to'rt quvvatga nisbatan material sarfi bilan hisoblanadi. Yuk tashuvchi avtomobil uchun material sig'ining tavsifi 1t-km/s yuklar tashish hisobiga material xarajatini baholash hisoblanadi va hokazo.

Mahsulotning fizik hajmi, iste'mol xususiyati qajmi hisobga olinmaydigan mashinasozlik (kimyo, to'qimachilik mashinasozligi va hokazo) mahsulotlari uchun material sig'imi darajasi taqqoslama narxlarda sof yoki yalpi mahsulot bir so'miga muayyan turdagi moddiy resurslarning fizik birligidagi sarfi bilan tavsiflanishi mumkin:

$$M = \sum N : \sum Mb.mP$$

Bu erda: $\sum Mb.mR$ - taqqoslama narxlarda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi.

Ishlab chiqarish dasturini ishlab chiqish va sanoat korxonalarini ishini taxlil qilish uchun har bir sanoat tarmog'ida mo'adidiy resurslardan samarali foydalanish darajasining turli xil ko'rsatkichlari ishlatiladi. Ular ishlab chiqarishda moddiy resurslardan foydalanish shart-sharoitlarini to'liq aks ettiradi va ishlab chiqarish iste'molining barcha bosqichlarini qamrab oladi. Xom ashyoga birlamchi ishlov beradigan tarmoqlarda quyidagi ko'rsatkichlar qo'llaniladi:

- boshlang'ich xom ashyoda foydali modda miqdori (rudada temir, lavlagida shakar miqdori va hokazo);

- boshlang'ich xom ashyodagi foydali moddadan foydalanish darajasi va xom ashyoga ishlov berish jarayonida vujudga keladigan yo'qotishlar foizi;

- Yaroqli mahsulotni yakuniy ishlab chiqarish. U yaroqli mahsulot hajmini boshlang'ich xom ashyo xajmiga bo'lish bilan, Shuningdek foizlarda (natijani 100 ga ko'paytirish kerak) hisoblanadi.

Yaroqli mahsulot ishlab chiqarish ko'rsatichi uning yakuniy miqdorini baholashda xizmat qiladi. Masalan, rudadan 20% mis olindi, lekin bu rejadagi ishlab chiqarish 100% ekanligini bildirmaydi. Misni rejadagi ishlab chiqarish 23% bo'lishi mumkin, bu rudada misning haqiqiy miqdorini ifodalaydi.

Qora metallurgiyada po'lat eritishda temirdan foydalanish balans usuli bilan hisoblanadi. Temir balansining kirim qismida xom ashyo xarajatining elementlari va miqdorlari ko'rsatiladi (turli xil ruda, lam, strujka). Xarajat qismida olingan mahsulot, yo'qotishlar va chiqindilarning turlari va miqdorlari aniqlanadi (turli xil cho'Yan, shlak, ugar va hokazo). Po'lat eritish bo'yicha temir balanslari va prokat ishlab chiqarish bo'yicha metall balanslari ham Shunday hisoblanadi. Bu balanslar sarf-xarajat koeffitsientlarini aniqlash imkonini beradi. Bu koeffitsientlar sarflangan materiallar og'irligining Yaroqli mahsulot tonnasiga nisbatini ifodalaydi.

Korxonalarni texnik qayta qurollantirish - alohida ishlab chiqarish turlarini zamonaviy talablarga asosan yangi texnika va texnologiyalarni kiritish, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, eskirgan qurilma va uskunlarni yangilash va almashtirish, ishlab chiqarish tuzilmasi va tashkil etilishini yaxshilash yo'li bilan, korxonaning texnik darajasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasi. U ishlab chiqarish intensivligini kuchaytirish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini Yaxshilashga yo'naltirilgan bo'ladi.

Mashinasozlik tarmoqlarida aylanma fondlarning asosiy elementi - metallardan foydalanish darajasini aniqlashda tegishli ko'rsatkichlari qo'llaniladi.

Mashina va mexanizmlarni yasash bosqichida mashinaning nisbiy metall sig'imi ko'rsatkichi (mashinaning nisbiy og'irligi) On hisoblanadi.

$$O_m = R_{c.o} : M_{quv}.$$

Bu erda: $R_{c.o}$ - sof og'irlik, u metall detallar va mashina qismlari og'irligining yig'indisiga teng, t, kg;

Mquv. - mashina asosiy ekspluatatsion xarakteristika birligining miqdori (traktor quvvati - ot kuchi; avtomobilning yuk ko'taruvchanligi - t).

Mashinasozlikda metallardan foydalanish koeffitsienti ($K_{i.m.}$) keng qo'llaniladi:

$$M = (\sum RS.O \times MX_i) : X_{met}$$

Bu erda: $RS.O$ - mahsulot birligida gavdalangan metallning sof og'irligi, t, kg;

MX_i - har bir nomenklatura qismi bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish hajmi;

X_{met} - mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan mazkur turdagi metallning Yalpi xarajati:

i - ishlab chiqarish nomenklaturasini tashkil qd-ladigan turli xil mahsulotlarning 1,2,3,...,n ta miqdori.

Metallardan samarali foydalanishning boshqa ko'rsatkichi chiqindilar darajasi hisoblanadi. U samarali foydalanish koeffitsienti bilan bevosita bog'liq: chikindilar darajasi qanchalik kam bo'lsa, metallardan samarali foydalanish koeffitsienti Shunchalik yuqori bo'ladi. Shu sababli metall chiqindilarini qisqartirish va undai samarali foydalanish omillari bir xil bo'ladi.

Metallga ishlov berishda chiqindilar darajasi metallga sovuq ishlov berish jarayonida vujudga kelgan chiqindilar miqdorining iste'mol qilinadigan metall miqdoriga nisbati sifatida aniqlanadi. Natija barcha iste'mol qilinadigan metallning qancha ulushi chiqindiga ketganligini ko'rsatadi (%).

$$D_{ch} = (CH_m : M_{im}) \times 100,$$

Bu erda: D_{ch} - chikindilar darajasi, %;

M_{im} - iste'mol qilingan metall miqdori, kg;

CH_m - chiqindilar miqdori.

Kimyo sanoatida aylanma fondlardan foydalanish ko'rsatkichlarini hisoblaganda o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Kimyo sanoati taqrimoqlarida, (Shuningdek, moddalarga kimyoviy yo'l bilan ishlov beradigan ishlab chiqarishlarda) ko'p hollarda "mahsulot sof og'irligi" tushunchasi yo'q. Bu tarmoqlarda kimyoviy texnologiya xususiyatlari sababli ko'shimcha boshlang'ich xom ashyolardan hech biri tayyor mahsulot tarkibiga o'zining asl ko'rinishida kirmaydi. Shu sababli kimyoviy jarayonga yosh ishlab chiqariladigan mahsulot birligiga

materiallar xarajati tasdiklangan texnologiyaga (retsepturaga) muvofiq belgilanadi va nazariy deb ataladi. Materiallarning nazariy xarajatiga chiqindilar va qaytarilmaydigan yo'qotishlar kirmaydi.

“Yaqin besh yil ichida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini kamida 60 foizga oshirish, yalpi ichki mahsulotda uning ulushini 2010 yildagi 24 foizdan 2015 yilda 28 foizga ko'paytirishni ta'minlash vazifasi qo'yilmoqda. Bu borada mashinasozlik, avtomobilsozlik, kimyo, oziq-ovqat, farmatsevtika, qurilish materiallari sanoati va boshqa sohalarni jadal rivojlantirish hisobidan ushbu tarmoqlarda ikki barobardan ziyod o'sishga erishiladi.”⁶⁵

Kimyo sanoatida materiallardan foydalanish ko'rsatkichi bo'lib muayyan kimyo mahsuloti birligini ishlab chiqarishga yoki kimyoviy jarayonga materiallar nazariy xarajatining iste'mol qilinadigan materiallarning haqiqiy sarfiga nisbati hisoblanadi. Haqiqiy xarajat nazariy xarajattan kimyoviy jarayonlarda vujudga keladigan yo'qotishlar kattaligiga ko'pdir. Haqiqiy va nazariy xarajatlarning o'rtasidagi farq qanchalik kam bo'lsa, u shunchalik taraqqiy bo'ladi.

8.3. Aylanma mablag'lardan foydalanish ko'rsatkichlari va aylanma mablag'larni normalashtirish

Aylanma mablag'lar aylanishini tezlashtirish nafaqat korxonaga uchun, balki butun xalq xo'jaligi uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. U resurslarning nisbiy ozod qilinishi, ijtimoiy xarajatlarning kamaytirilishiga ko'maklashadi va iqtisodiy rejalashtirish sur'atini oshiradi.

Korxonaga aylanma mablag'laridan samarali foydalanish uchta asosiy ko'rsatkichni tavsiflaydi:

- 1) aylanish koeffitsienti;**
- 2) aylanma mablag'larning yuklanish koeffitsienti;
- 3) vositalarning bir marta aylanishi davomiyligi.

Aylanish koeffitsienti korxonaga aylanma mablag'larining ma'lum bir vaqt (yil, chorak) davomida amalga oshiruvchi aylanishini tavsiflaydi yoki aylanma mablag'larning har 1 so'miga to'g'ri keluvchi sotilgan mahsulotlarni ko'rsatadi. U quyidagi formula asosida hisoblab topiladi:

⁶⁵ И. Каримов. “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади” – 2010 йилнинг асосий яқунлари ва 2011 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

$$K_a = R_m : S_a$$

Bu erda:

R_m –sotilgan mahsulot hajmi, pul o'lchovida;

S_a – aylanma mablag'larning o'rtacha qoldiq hajmi, pul o'lchovida (aylanma mablag'lar normativi).

Misol. Korxonaning bir yil mobaynida sotilgan mahsulotlari hajmi 800 mln. so'mni tashkil qiladi. Bu holda aylanma mablag'lar normasi 200 mln. so'mni tashkil qiladi. Demak $K_a = 4,4$ (880:200).

Aylanma mablag'larni yuklanish koeffitsienti aylanish koeffitsientiga teskari bo'lgan qiymatdir. U sotilgan har 1 so'm mahsulotga sarflangan aylanma mablag'larni tavsiflaydi hamda quyidagi formula asosida hisoblab topiladi:

$$K_{yu} = S_a : R_m$$

Bir marta aylanish davomiyligi kunlarda o'lchanadi hamda Shu davrdagi kunlar sonini aylanish koeffitsientiga nisbati orqali quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$T = D : K_a$$

Bu erda:

D - Shu davrdagi kunlar soni (360, 90).

Aylanma mablag'larning to'liq aylanish muddati qanchalik kichik yoki bu aylanishlar soni qanchalik ko'p bo'lsa, aylanma mablag'lar shunchalik kam talab qilinadi va aksincha, aylanma mablag'lar qanchalik tez aylanishda bo'lsa, shunchalik samarali ishlatiladi.

Bugungi kunda aylanma mablag'larda, ayniqsa, korxonalarining moddiy-tovar boyliklarida band bo'lgan yirik miqdordagi pul mablag'lari ularning to'liq saqlanishiga e'tibor qaratish, ulardan maqsadlarga muvofiq va samarali foydalanish, shuningdek, ularning aylanishini tezlashtirishni talab qiladi. Korxonalar oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish quyidagilarni amalga oshirishni talab qiladi:

*111 fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini keng qo'llash;

*112 ishlab chiqarishning barcha jarayonlarida ilmiy jihatdan asoslangan norma va normativlar tizimini yaratish;

*113 korxonalarni uzoq muddatli xo'jalik aloqalari yuritishga o'tkazish va kooperatsiya qilishni rivojlantirish;

*114 mahsulotlar, moliyaviy, moddiy va kuch-quvvat resurslarining sifat balansini tuzish;

*115 boshqarish tizimini tashkil etishning va rag'batlantirishning optimal shakllarini qo'llash.

“Bu xususda gapirganda, 2011 yilda iqtisodiyotga jalb etiladigan barcha investitsiyalarning 36,4 foizdan ortig’ini sanoatni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash dasturlarini amalga oshirishga yo’naltirish ko’zda tutilayotgani, zamonaviy asbob-uskunalar xarid qilish xarajatlari umumiy kapital qo’yilmalar hajmining kamida 46 foizini tashkil etayotganini qayd etish darkor.»⁶⁶

Aylanma mablag’larning aylanishini tezlashtirish uchun kurashda har bir korxonada ularning ishlab chiqarish va muomalada bo’lish muddatini qisqartirishga erishishi zarur. Gap shundaki, aylanma mablag’larning muomala sohasida sekin harakatlanishi korxonaning bu vositalardan ishlab chiqarishda foydalanishda erishgan yutuqlarini yo’qqa chiqarishdan tashqari, ularning umumiy aylanishini ham sekinlashtirishi mumkin. Shu sababli, tayyor mahsulotni iste’molchiga etkazib berishni tezlashtirish yoki mahsulotni realizatsiya qilish muddatini qisqartirish ham aylanma mablag’larning aylanishini tezlashtirishning muhim yo’li hisoblanadi.

Aylanma mablag’larning aylanishini tezlashtirish samarasi, ulardan foydalanishni yaxshilash tufayli kamroq iste’mol qilinishi yoki qisman ozod qilinishida aks etadi. Aylanma mablag’lar mutlaq yoki nisbiy ozod qilinishi mumkin.

Mutlaq ozod qilish korxonaning aylanma mablag’larga bo’lgan ehtiyojini kamaytirishni tavsiflaydi hamda mavjud resurslardan ratsional foydalanishga oid turli tashkiliy-texnik chora-tadbirlar hisobiga amalga oshiriladi.

Misol. Korxonada aylanma mablag’larining o’rtacha miqdori 2009 yilda 100 mln. so’mni tashkil qiladi. 2010 yilda ishlab chiqarish hajmini o’zgartirmagan holda 90 mln so’m. miqdorida ehtiyoj rejalashtirilmoqda. Bu holda asosiy vositalarning mutlaq ozod qilinishi 10 mln. so’mni tashkil qiladi.

Nisbiy ozod qilish aylanma mablag’lari hajmining o’zgarishi hamda sotilgan mahsulot hajmining o’zgarishini aks ettiradi. Uni aniqlash uchun hisobot yilida aylanma mablag’larga ehtiyojni, mahsulotni mazkur davr mobaynida sotish bo’yicha haqiqiy aylanish hamda o’tgan davrdagi aylanishni (kunlarda) inobatga olgan holda hisoblash zarur. Ular o’rtasidagi farq ozod qilingan vositalar miqdorini beradi.

⁶⁶ И. Каримов. “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади” – 2010 йилнинг асосий яқунлари ва 2011 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

Misol. Korxonada 2009 yilda sotilgan mahsulot qiymati 360 mln. so'mni, 2010 yilda esa 400 mln. so'mni tashkil qilgan. Aylanma mablag'larning o'rtacha qoldig'i 2009 yilda 100 mln. so'm, 2010 yilda esa 95 mln. so'mni tashkil qilgan. Aylanish muddati 2009 yilda 100 kun ($100 \times 360 : 360$). 2010 yilda aylanma mablag'larga ehtiyoj 111 mln. so'm ($400 \times 100 : 360$). 2009 yilda aylanma mablag'larning o'rtacha qoldig'i 95 mln so'mni tashkil qilganini hisobga oladigan bo'lsak, vositalarning nisbiy ozod qilinishi 16 mln so'mni ($111 - 95$) tashkil etadi.

Shakllanish manbaiga ko'ra, aylanma mablag'lar xususiy va qarzga olingan turlarga bo'linadi.

Xususiy aylanma mablag'lar doimo korxonada ixtiyorida bo'lib, xususiy resurslar, asosan foyda hisobiga shakllanadi. Korxonaning xususiy aylanma mablag'lari qatoriga ish haqi bo'yicha qarzlari, ta'minotchilar yoki hamkorlar qarzlari, buyurtmachilarning tayyorlangan mahsulot uchun to'lagan pullari kabilarni kiritish mumkin. Bu mablag'lar xususiy mablag'larga tenglashtirilgan mablag'lar yoki korxonaning barqaror passivlari deb ataladi.

Qarzga olingan aylanma mablag'lar doimo harakatda bo'lmaydi hamda korxonaning mahsulotlarni sotishdagi qiyinchiliklar, moddiy-tovar boyliklar bilan ta'minlash, mahsulot ishlab chiqarish dasturini oshirib bajarish va boshqa vaqtinchalik ehtiyojlarni qoplash uchun foydalaniladi. Ular qatoriga bank kreditlari, kreditorlik qarzlari (tijorat kreditlari) va boshqa passivlarni kiritish mumkin.

Aylanma mablag'larni boshqarish mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonining uzluksizligini ta'minlashda aylanma mablag'lardan iloji boricha kamroq foydalanishda ifodalanadi. Bu esa korxonada aylanma mablag'lari aylanishining barcha bosqichlarida mos ravishda minimal, lekin etarli tarzda ratsional taqsimlanishi zarurligini anglatadi. Bu vazifa o'z navbatida moddiy resurslar zahiralari va xarajatlarini normalashtirish tufayli muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Aylanma mablag'larni normalashtirish korxonaning uzluksiz ishlashi ta'minlaydigan moddiy boylik va boshqa resurslarning minimal, lekin etarli zahiralarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan pul mablag'larini aniqlashda ifodalanadi. U ichki zahiralarni aniqlash, ishlab chiqarish tsikli davomiyligini qisqartirish va tayyor mahsulotni tezroq sotish imkon yaratadi.

Biroq amaliyotda korxonalarining barcha aylanma mablag'lari ham normalashtirilmaydi. Shu sababli aylanma mablag'lar normalashtiriluvchi

va normalashtirilmaydigan turlarga taqsimlanadi va ular hozirgi bozor munosabatlari sharoitlarida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Normalashtiriluvchi aylanma mablag'lar qatoriga korxonalar omborlaridagi ishlab chiqarish zahiralari (xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, unchalik qimmat bo'lmagan predmetlar va jihozlar), tugallanmagan ishlab chiqarish, kelgusi davr xarajatlari va ombordagi tayyor mahsulotlar kiritiladi.

Normalashtirilmaydigan aylanma mablag'lar, bu – xaridorlarga berib yuborilgan tayyor mahsulot yoki tovarlar, hisob raqamidagi pul mablag'laridir.

Korxonalar faoliyatida barcha aylanma mablag'lar salmog'ida 70-80%ni tashkil qiluvchi normalashtiriluvchi aylanma mablag'lar asosiy o'rin tutadi. Aylanma mablag'larni normalashtirish tejamkorlik rejimiga rioya qilish va resurslardan oqilona foydalanish imkonini yaratadi.

Resurslarni normalashtirish jarayonida aylanma mablag'larning norma va normativlari belgilanadi.

Aylanma mablag'larning normasi, korxonalar moddiy-tovar boyliklarining minimal zahiralari tavsiflaydi hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulot birligiga to'g'ri keluvchi pul o'lchovida, zahira kunlari va zahira normalarida hisoblanadi.

Aylanma mablag'larning normativi aylanma mablag'lar normasini, normasi aniqlangan ko'rsatkichga ko'paytirishni ifodalaydi hamda qoidaga ko'ra, pul ko'rinishida o'lchanadi. U quyidagi formula asosida hisoblanishi mumkin:

$$N_{ay.m} = N_{ich.z} + N_{t.ich} + N_{t.m}$$

Bu erda:

$N_{ich.z}$ - ishlab chiqarilgan zahiralarning normasi;

$N_{t.ich}$ – tugallanmagan ishlab chiqarish normasi;

$N_{t.m}$ - tayyor mahsulot normasi.

Aylanma mablag'larni normalashtirish va ayniqsa, moddiy resurslarni sarflash normalarini belgilashda quyidagi tamoyillarga amal qilish lozim:

*116 normalarning progressivligi va dinamikligi;

*117 normalarning iqtisodiy va ishlab chiqarish-texnikaviy jihatdan asoslanganligi;

*118 xom ashyo, material, yoqilg'i, elektr energiyasi va boshqa resurslar o'lchamini to'g'ri tanlash;

*119 chiqit va yo'qotishlarning oldini olish;

*120 eskirgan normalarni qayta ko'rib chiqish hamda ularni fan-texnika taraqqiyoti yutuqlariga mos holga keltirish.

Moddiy va boshqa resurslarni normalashtirishda bir nechta usullar qo'llaniladi. Amaliyotda quyidagi usullar ko'proq uchraydi:

1. O'tgan yillar davomida amalda sarflangan resurslar to'g'risidagi hisobot ma'lumotlarini o'rganish hamda bir necha yillar davomida ro'y bergan pasayishlarni hisoblashga asoslanuvchi statistika-tajriba usuli.

2. Laboratoriya tajribalariga asosan yaratilgan hamda instrumentlar va yordamchi materiallar sarflanishi normasini aniqlashda qo'llaniluvchi -laboratoriya-texnikaviy usuli.

3. Yuzaga kelgan ishlab chiqarish sharoitlaridan tashqari boshqa korxonalarining ilg'or tajribalari va yutuqlarini ham hisobga olish imkonini beruvchi, moddiy resurslardan foydalanishni normalashtirishning mukammalroq usuli hisoblanuvchi – hisob-tahliliy usuli.

Korxonada aylanma mablag'larini normalashtirish tadbirlari ishlab chiqarish zahiralari normalashtirish, shuningdek, tugallanmagan ishlab chiqarishning optimal kattaligi, tayyor mahsulot qoldiqlari va kelgusi davr xarajatlarini aniqlash bilan bog'liq vazifalarni echishga olib keladi.

Ishlab chiqarish zahiralari normalashtirish, korxonaning uzluksiz faoliyat yuritishini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi. Agar ishlab chiqarish zahiralari normativlardan past bo'lsa, ishlab chiqarish jarayonining izdan chiqishi, ishchi kuchi va uskunalarning bekor turib qolishi, korxonaning ishlab chiqarish va iqtisodiy ko'rsatkichlari pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan bir paytda, ishlab chiqarish zahiralari belgilangan norma va normativlardan oshib ketishiga ham yo'l qo'ymaslik kerak, chunki bu mablag'larning "muzlab" qolishiga va natijada korxonada va davlatning zarar ko'rishiga olib keladi.

Ishlab chiqarish zahiralari joriy, sug'urta (kafolatli), tayyorlov (texnologik) va mavsumiy turlarga bo'linadi.

Joriy zahira – bu, materiallar etkazib berish oralig'ida ishlab chiqarishni moddiy resurslar bilan ta'minlash uchun zarur bo'lgan zahiradir. Joriy zahiralari material etkazib berish davri, oralig'i hamda xom ashyo va boshqa materiallarning sutkalik sarflanishiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi.

Misol. Non kombinati bir sutkada 10 tonna un sarflaydi, tegirmondan esa bir oyda bir marta un qabul qiladi. Ya'ni etkazib berish oralig'i 30 kuni tashkil qiladi. Demak, unning maksimal darajadagi joriy zahirasi 300 (10x30) tonnani, o'rtacha joriy zahirasi 150 (10x30:2) tonnani, un har o'n kunda etkazib berilgandagi minimal joriy zahirasi esa 50 (10x10:2) tonnani tashkil qiladi.

Shu tariqa joriy zahiralarning hajmi ko'p jihatdan etkazib berish oraliq'iga bog'liq bo'ladi: oraliq qanchalik kichik bo'lsa, zahira shunchalik kam bo'ladi. Bundan kelib chiqqan holda joriy zahira miqdorini quyidagi formula asosida topish mumkin:

$$Z_{\max} = M_{o'r} \times T_{t.ts}$$

Bu erda:

$M_{o'r}$ – ushbu materialdan o'rtacha sutkalik foydalanish miqdori (T., dona);

$T_{t.ts}$ – etkazib berish oraliq'i yoki ta'minot tsikli, kunlar.

Sug'urta (kafolat) zahirasidan ta'minotda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan uzilishlar yoki ko'zda tutilmagan holatlarda foydalanish mo'ljallanadi. Ko'pincha sug'urta zahirasi miqdori joriy zahira normasining 50% miqdorida belgilanadi hamda quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$Z_{str} = M_{o'r} \times (T_1 + T_2 + T_3 + T_4)$$

Bu erda:

T_1 – materialni yuklash uchun ketadigan vaqt;

T_2 – materiallar yo'lda bo'ladigan vaqt;

T_3 – materiallarni omborga qabul qilish vaqti;

T_4 – materiallarni foydalanishga tayyorlash vaqti.

Sug'urta zahirasi omborda joriy zahira bilan birgalikda saqlanadi hamda undan umuman farq qilmasada, alohida hisobga olinadi va faqat korxonaning rahbariyatining ruxsati bilan sarflanadi.

Tayyorlov (texnologik) zahirasidan xom ashyo va materiallarni ishlab chiqarishga kiritish uchun tayyor holga keltirishda foydalaniladi. Bunday zahiralarning ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlari va texnologiyalariga ega bo'lgan korxonalarida yaratiladi. Bunday korxonalar qatoriga yog'-moy kombinati, yog'ochni qayta ishlash korxonasi kabilarni kiritish mumkin. Mazkur hollarda tayyorlov zahirasi miqdori tayyorlov texnologiyasi va operatsiyalariga mos holda normaga solinadi.

Mavsumiy zahiralarning asosan uchta sababga ko'ra yuzaga keladi: birinchidan, xom ashyo tayyorlashning mavsumiyliigi; ikkinchidan, uni iste'mol qilishning mavsumiyliigi; uchinchidan, materiallarni etkazib berishning mavsumiyliigi. Mavsumiy zahiralarning hajmi xuddi joriy zahiralarning hajmi kabi, o'rtacha bir sutkada iste'mol qilish va mavsumiy zahiralarning yaratilishi lozim bo'lgan vaqtga asosan aniqlanadi.

Ishlab chiqarish zahiralarni normalashtirish, ishlab chiqarishda qo'llaniluvchi har bir mehnat predmeti (xom ashyo va materiallar,

yordamchi materiallar va boshqalar) uchun alohida amalga oshiriladi hamda bu o'z navbatida ishlab chiqarish zahiralari yaratishda aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojni aniqlashga asos bo'lib xizmat qiladi.

Tugallanmagan ishlab chiqarishni normalashtirish. Tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha aylanma mablag'lar normativini aniqlash korxonada faoliyatidagi eng murakkab va ko'p mehnat talab qiluvchi jarayon hisoblanadi. Tugallanmagan ishlab chiqarish sifatida ishlab chiqarishning turli bosqichlarida - xom ashyoni texnik nazorat bo'limi (TNB) tomonidan qabul qilishdan to tayyor mahsulot omboriga topshirgunga qadar ishlov berilayotgan mahsulotlarni ko'rsatishi mumkin.

Misol. Poyabzal ishlab chiqaruvchi korxonada (xarajatlar smetasiga ko'ra) 1 chorak uchun 180 ming so'm miqdordagi xom ashyo va asosiy materiallarni 30 kunlik zahira normasida; 54 ming so'm miqdordagi yordamchi materiallarni 40 kun zahira normasida; 27 ming so'm miqdordagi qadoqlash va o'rov materiallaridan 20 kun zahira normasida sarflash ko'zda tutilgan. Bunday sharoitlarda asosiy vositalar normativi (ehtiyoji) quyidagicha bo'ladi:

Xom ashyo va asosiy materiallar bo'yicha	$\frac{180}{90} \times 30 = 60$ ming so'm
Qo'shimcha materiallar bo'yicha	$\frac{54}{90} \times 40 = 24$ ming so'm
Qadoqlash va o'rov materiallari bo'yicha	$\frac{27}{90} \times 20 = 6$ ming so'm

Tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha aylanma mablag'lar normativi miqdori quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

1. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi.
2. Mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanuvchi joriy xarajatlar, ya'ni tannarx.
3. Xom ashyo va materiallarni ishlab chiqarishga kiritish vaqtidan to tayyor mahsulot chiqishigacha bo'lgan ishlab chiqarish tsiklining

davomiyligi. Ishlab chiqarish tsiklining davomiyligini topishda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$T_{ичц} = t_{техн} + t_{контр} + t_{транс} + t_{тан}$$

Bu erda:

$t_{техн}$ - mahsulot ishlab chiqarishdagi barcha operatsiyalarga sarflanuvchi vaqti;

$t_{тан}$ - operatsiyalar oralig'idagi vaqt (tanaffuslar);

$t_{транс}$ - transportda tashish vaqti;

$t_{контр}$ - mahsulotni yig'ish, qabul qilish va TNBga topshirish vaqti.

Tugallanmagan ishlab chiqarishga jalb qilingan aylanma mablag'larning o'sishi xom ashyo va materiallarni ishlab chiqarishga kiritish bilan boshlanadi hamda ishlab chiqarish tsikli yakunida (tayyor mahsulot omborga topshirilganda) eng yuqori nuqtasiga chiqadi. Tugallanmagan ishlab chiqarish normativini hisoblashda ishlab chiqarish tsikli kunlarda belgilanadi hamda bunda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$N_{t.ich} = M_k \times T_{ich.ts} \times K_{x.o'}$$

Bu erda:

M_k - o'rtacha bir kunlik xarajatlar, so'mlarda;

$T_{ich.ts}$ - ishlab chiqarish tsikli davomiyligi, kunlarda;

$K_{x.o'}$ - xarajatlarning o'sish koeffitsienti.

Xarajatlarning o'sish koeffitsienti asosiy materiallar (M_a) to'liq qiymatda olinuvchi kattalik sifatida hisoblanadi. Ishlab chiqarish xarajatlari (M_{ich}) butun ishlab chiqarish tsikli mobaynida bir xil suratda o'sib boradi hamda 50% qiymatda hisobga olinadi:

$$K_{nz} = (M_a + 0,5M_{ich}) : S$$

Bu erda:

S - mahsulot birligining rejadagi tannarxi.

Agar keyingi xarajatlar (M_{ich}) bir xil surat bilan o'zgarmasa, u holda o'sish koeffitsienti quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$K_{x.o'} = (M_a \cdot k \times S_{Yaf} \cdot k \times S_{but} + 0,5M_{ich}) : S$$

Bu erda:

k, k - Yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi qismlarni mos ravishda pasaytiruvchi koeffitsientlari;

S_{Yaf} - Yarim tayyor mahsulotlar qiymati;

S_{but} - butlovchi qismlar qiymati.

Pasaytiruvchi koeffitsientlar yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi qismlarga ishlov berilgan kunlarning ishlab chiqarish tsikli davomiyligiga

nisbatini ifodalaydi. Masalan, agar ishlab chiqarish tsikli 20 kun bo'lib, butlovchi qismlar 8 kun davomida ishlab chiqarishda bo'lgan bo'lsa, pasaytiruvchi koeffitsient 0,4 (8:20) ga teng bo'ladi.

Tayyor mahsulot qoldiqlarini normalashtirish. Ishlab chiqarish jarayoni tugallangandan so'ng mehnat predmetlari tayyor mahsulot ko'rinishida muomalaga kiritiladi.

Aylanma mablag'larning tayyor mahsulotga aylanish normativi miqdori, o'rtacha bir sutkalik ishlab chiqarilgan mahsulotning (tannarxi bo'yicha) aylanma mablag'larning kunlardagi tayyor mahsulot normasiga sifatida, Ya'ni tayyor mahsulotning korxonada saqlanish muddati sifatida aniqlanadi:

$$G_n = V : (T \times N_{t,m})$$

Bu erda:

G_n – tayyor mahsulot normativi;

V - rejalashtirilgan davrda rejadagi tannarx bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulot;

$N_{t,m}$ – tayyor mahsulotlardagi aylanma mablag'lar zahiralari normasi, kunlarda;

T - rejadagi davrda kalendar kunlar miqdori.

Tayyor mahsulotning omborda saqlanish muddati tayyor mahsulotni transportirovka qilish va sotishga bog'liq bo'ladi. Aylanma mablag'larning ushbu normasidagi kunlar soni mahsulotni tayyorlash, yuklash, hujjatlarni tayyorlash va ularni bankka topshirish uchun zarur bo'lgan kunlardan iborat bo'ladi.

Kelgusi davr xarajatlarni normalashtirish. O'sib borayotgan fan-texnika taraqqiyoti sur'atlari aylanma mablag'larning kelgusi davr xarajatlari ahamiyatini oshirmoqda. Bu xarajatlar korxonaning maxsus buxgalteriya hisobida uchta manba: Yangi texnikani o'zlashtirish fondi (agar korxonada Shunday fond mavjud bo'lsa), bank krediti va foyda (xarajatlarni mahsulot tannarxiga kiritish yo'li bilan) hisobiga yig'iladi. Aylanma mablag'larning kelgusi davr xarajatlari (N_{kd}) normasini hisoblashda quyidagi formulaga amal qilinadi:

$$N_{kd} = R + R_{ich} + R_t$$

Bu erda:

R - yil boshida kelgusi davr xarajatlari uchun sarflanishi mo'ljallangan mablag'lar miqdori (buxgalteriya hisoboti bo'yicha);

R_{ich} – rejadagi yilda loyiha-smetalarda ko'zda tutilgan ishlab chiqarish xarajatlari;

R_t - o'zlashtirilayotgan mahsulot tannarxiga kiritiluvchi hamda smetalarda ko'zda tutiluvchi yoki maxsus manbalar hisobiga qoplanuvchi xarajatlar.

2-jadval

Aylanma mablag'larning kelgusi davr xarajatlari normativini hisoblash bo'yicha misol

Xarajatlar turi yoki guruhi	Yil boshiga qoldiq, ming so'm	Bir yillik xarajatlar, ming so'm	Bo'lishi kerak	Yil oxiriga qoldiq, ming so'm
Yangi turdagi mahsulotlarni o'zlashtirish bo'yicha xarajatlar, jami	180	348	448	80
Jumladan:				
A mahsulot	90	148	238	-
B mahsulot	90	200	210	80

Alohida elementlar bo'yicha aylanma mablag'lar xarajatlari normalari aniqlangandan so'ng, aylanma mablag'larga bo'lgan umumiy ehtiyojlar (normativ) miqdori hisoblanadi. Korxonada aylanma mablag'lariga bo'lgan umumiy ehtiyoj, ishlab chiqarish zahiralari (xom ashyo va asosiy materiallar, yordamchi materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, xarid qilinuvchi mahsulotlar, qadoqlash va o'rov materiallari, yoqilg'i va hokozolar), tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot va kelgusi davr xarajatlaridan iborat bo'ladi.

8.4. Aylanma mablag'lari tejamkorligi va ularning samaradorligini oshirish yo'llari

Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi sharoitida har bir korxonaning muhim vazifalaridan biri - moddiy resurslarni tejash hisoblanadi. Chunki moddiy xarajatlar foydaga bevosita bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish xarajatlarinshg katta qismini tashkil etadi. Foyda esa bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonada hayot ta'minotining asosiy manbalaridan biridir. Moddiy resurslarini tejash manbalari va yo'llari farqlanadi. Tejash manbalari nima hisobidan tejamga erishish mumkinligini ko'rsatadi. Tejash yo'llari (yoki yo'nalishlari) qanday qilib yoki qaysi chora-tadbirlar yordamida tejashga erishish mumkinligini ko'rsatadi. Har bir korxonada

moddiy resurslarni tejash zahiralari mavjud. Zahiralalar deyilganda moddiy resurslardan foydalanishni yaxshilash bo'yicha vujudga keladigan yoki vujudga kelgan, lekin jami ishlatilmagan imkoniyatlar tushuniladi.

Moddiy resurslarni tejash zahiralarning vujudga kelishi va ishlatilgani sohasi nuqtai nazaridan ular uch guruhga bo'linishi mumkin:

- xalq xo'jaligi zahiralari;
- umumsanoat - tarmoqlararo:
- ichki ishlab chiqarish zahiralari (tsex zavod, tarmoq zahiralari).

Xalq xo'jaligi zahiralarga xalq xo'jaligi va uning barcha tarmoqlari uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan zahiralalar kiradi. Chunki ular sanoat,- qazib olish va tejamkor sun'iy va sintetik xom ashyo va materiallar ishlab chiqarishda taraqqiy etgan xalq xo'jaligi nisbatlarini belgilash, yonilg'i-energetika majmuasi strukturasi mustahkamlash bozor munosabatlari sharoitida butun xo'jalik mexanizmini mukammallashtirishni ta'minlaydi.

Umumsanoat - tarmoqlararo zaxiralar bu Shunday zahiralarki, ularning to'planishi etakchi sanoat tarmoqlari o'rtasida ratsional ishlab chiqarish - iqtisodiy aloqalarni o'rnatishga bog'liq (qora metallurgiya, mashinasozlik, kimyo sanoati). Bu zahiralalar alohida sanoat tarmoqlari va iqtisodiy hududlarning rivojlanish xususiyatlari bilan asoslanadi. Ulardan eng muhimlari xalq xo'jaligi ahamiyatiga ega. Bu bilan birgalikda ularni amaliy to'plash miqyoslari cheklangan va asosan o'zaro bog'liq, sanoat tarmoqlariga yoki yirik sanoat yoki ishlab chiqarish - hududiy majmualariga tarqaladi.

Umumsanoat tarmoqlararo zahiralarga quyidagilar kiradi: foydali qazalmalar konlari, ularni qazib chiqarish, boyitish va qayta ishlash Yangi samarali usullarini va ishlab chiqarish tizimlarini joriy etishga; sanoatda ixtisoslashuvni rivojlantirish; turli mulk shaklidagi

2010 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim maqsadi va asosiy ustuvor vazifasi – bu islohotlarni davom ettirish va chuqurlashtirish, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, 2009-2012 yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturini so'zsiz bajarish va shu asosda iqtisodiy rivojlanishning yuqori va barqaror sur'atlarini, samaradorligini hamda makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashdan iboratdir.

I.Karimov (ma'ruzadan)

korxonalarini tuzish va rivojlantirish; xalq xo'jaligida va iste'molni tarmoqlarda moddiy resurslarni tejash bo'yicha vazifalarni bajarish maqsadida boshlang'ich mahsulot va qurilish materiallar sifatini oshirish; eng samarali xom ashyo va materiallar turlarining ishlab chiqarilishini

tezkor rivojlantirish.

Ichki ishlab chiqarish zaxiralariga bevosita texnika, texnologiyani va ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishni mukammallashtirish, mukammalroq mahsulot turlarini o'rganish, muayyan sanoat tarmoqlarida mahsulot sifatini oshirish bilan bog'liq bo'lgan moddiy resurslardan foydalanishni yaxshilash imkoniyatlari kiradi.

Fan-texnik taraqqiyot xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida jamiyatning ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantiruvchi asosiy kuch hisoblanadi.

Chora-tadbirlar xarakteriga bog'liq holda sanoatda va ishlab chiqarishda resurslarni tejash zahiralarini amalga oshirish asosiy yo'nalishlari ishlab chiqarish-texnik va tashkiliy-iqtisodiyga bo'linadi.

Ishlab chiqarish-texnik yo'nalishlarga xom-ashyoni ishlab chiqarish iste'moliga sifatli tayyorlash, mashinalar tuzilishini, uskunalar va buyumlarni mukammallashtirish, tejamkor xom ashyo, yonilg'ini qo'llash, yangi texnika va texnologiyani joriy etish bilan bog'liq chora-tadbirlar kiradi. Ular ishlab chiqarish jarayonida moddiy resurslarning texnologik chiqindilari va yo'qotishlarini kamaytirish va ikkilamchi moddiy resurslardan maksimal foydalanish imkonini beradi.

Xom ashyoga birlamchi ishlov beradigan tarmoqlarda xom ashyoni tejash uchun ishlov berishga u sifatli tayyorlanadi. Xom ashyoni tayyorlash usullari - koks sanoati uchun ko'mirlarni boyitish; to'qimachilik sanoatida jun va paxtani tozlash va standartlashtirish, yog'ochsozlik sanoatida yog'ochlarni quritish. Ko'mir va rudalar boyitilganda yuqori iqtisodiy samara olinadi. Masalan, shaxtada temir miqdorining 1% ga oshishi pech unumdorligini 2% ga oshiradi va 20% koksni tejash imkonini beradi.

Xalq xo'jaligining asosiy tarmog'i - mashinasozlikda material sig'imini kamaytirishda qora metallurgiya katta rol' o'ynaydi. Shu sababli qora metallurgiyani rivojlantirishning asosiy yo'nalishi sifatli va samarali metall mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish bo'lishi lozim.

Mashinasozlik tarmog'ida moddiy resurslarni tejashning barcha ishlab chiqarish - texnik yo'nalishlarini quyidagilarga bo'lish lozim:

1. Ilmiy-texnik tarakqiyotni tezlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar. Bu mashina, mexanizmlar va agregatlar nisbiy metall sig'imining kamayishi bilan birgalikda ro'y beradi. Ma'lumki, zamonaviy mashinasozlikda ilmiy-texnik tarakqiyotining asosiy yo'nalishi - mashina va uskunalar quvvati va unumdorligini oshirish bo'lib, uning natijasida ularning sof va nisbiy og'irligi kamayadi, tashqi

ko'inishi- yaxshilanadi, sifati oshadi, ekspluatatsiya xarajatlari kamayadi, asosiysi - mehnat unumdorligi oshadi.

2. Prokatlarning tejamliligi tur va shakllarini joriy etishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar. Ularning ishlatilishi natijasida metall 10-20% tejalishi mumkin. Egilgan prokatlar ko'pgina mashinasozlik tarmoklarida samarali ko'llanilmoqda.

3. An'anaviy qurulish materiallari o'rnini bosadigan (o'rinbosar) materiallar bilan almashtirish chora-tadbirlari. Mashinasozlikda qora - metallar sintetik materiallar - plastik massalar, sintetik tolalar, rangli, engil metallar bilan almashtirilmoqda. Buning asosiy maqsadi mahsulot metall sig'imi va mehnat sig'imini kamaytirish, pirovard mahsulot sifatini oshirish hisoblanadi:

Plastik massalar avtomobilsozlik, aviatsiya sanoatida, elektr va radio-sanoatida, uskunalar yasashda va boshqalarda samarali ko'llanilmoqda. Qora va rangli metallarga iisbatan engil bo'lgan plastmassa mashina va uskunalarining nisbiy og'irligini kamaytiradi, demak metall tejalishini ta'minlaydi. Plastmassalardan buyumlar yasalganda texnologik jarayonlar miqdori 3-8 marta kamayadi.

4. Mashinasozlikning tayyorlov bazasida ishlab chiqarishning texnik darajasini oshirish, avtomatlashtirilgan uskunalarni joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar.


Sanoatning ishlov beradigan tarmoklarida va material list shakliga ega bo'lgan ishlab chiqarishlarda (to'kimachilik, oyoq kiyimini tikish, list prokati ishlatiladigan mashinasozlik) bichishning ratsional yo'llarini qo'llash orqali materiallar tejiladi. Bu vazifani echishda iqtisodiy-matematik usullar va elektron-hisoblash mashinalari muvaffaqiyatli ko'llanilib, ular yordamida bichishning optimal yo'llari aniklanadi.

“Mamlakatimizni iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan uzoq muddatli strategik maqsadni amalga oshirishning mantig'i mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlangan va O'zbekistonning jahon bozoridagi raqobatdoshligini oshirish va mavqeyini mustahkamlashga yo'naltirilgan tarkibiy o'zgarishlar va yuksak texnologiyalarga asoslangan zamonaviy tarmoqlar va ishlab chiqarish sohalarini jadal rivojlantirish siyosatini 2011 yildagi asosiy ustuvor yo'nalish sifatida davom ettirishni taqozo etmoqda.”⁶⁷

⁶⁷ И. Каримов. “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз таракқиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади” – 2010 йилнинг асосий яқунлари ва 2011 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи,

Mahalliy xom ashyo va yonilg'i ikkilamchi xom ashyo, moddiy va yonilg'i resurslardan foydalanish, ilgari foydalanilgan xom ashyolar, asosiy va yordamchi materiallarni tiklash muhim ahamiyatga ega.

Mahalliyashtirish dasturi doirasida mahsulot turlari ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilga nisbatan 2,3 barobar o'sib, import o'rnini bosish samarasi 1,9 mlrd. doll. tashkil etdi.



3-rasm. Mahalliyashtirish bo'yicha amalga oshirilgan loyihalar va ularda ishtirok

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi ma'lumotlari

Bundan ko'rinadiki, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mamlakatimizda iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash choralarning izchil amalga oshirilishi barqaror va mutanosib o'sish sur'atlarini ta'minlash uchun etarli shart-sharoitlarni yaratdi.

Ilmiy texnik taraqqiyot sharoitida barcha tarmoqlarda mahalliy va ikkilamchi xom ashyo yonilg'i energetika resurslarining ishlatilishi yuqori iqtisodiy samara beradi, Bu muammo xrizgi sharoitlarda yanada dolzarblashadi. Shu sababli kichik metallurgiya zavodlarishsh qurish xalq xo'jaligi ahamiyatiga ega.

Moddiy resurslarni tejashning tashkiliy-iqtisodiy yo'nalishlariga quyidagilar kiradi sanoat mahsuloti material sig'imini normallashtirish va

2011 йил 22 январь.

rejalashtirishning ilmiy darajasini oshirish va moddiy resurslar sarflashning texnik asoslangan norma va normativlarini joriy etish bilan bog'liq chora-tadbirlar; yangi, samarali xom-ashyo va materiallar yonilg'i-energetik resurslar ishlab chiqarishni rivojlantirish, mamlakat yonilg'i balansini mukammallashtirish bilan iborat bo'lgan taraqqiy etgan proportsiyalarni belgilash bilan bog'liq bo'lgan chora-tadbirlar majmuasi.

Har bir korxonada moddiy resurslarni tejashning asosiy yo'nalishi - ish joylarda bir miqdordagi xom ashyo va materiallardan yakuniy mahsulot ishlab chiqarishni oshirish. U ishlab chiqarishning texnik jihozlanishiga, xodimlar malakasiga, moddiy-texnik ta'minotni to'g'ri tashkil etishga va hokazolarga bog'liq.

Ishlab chiqarish jarayonida yo'qotishlarni qisqartirish muhim ahamiyatga ega. Uning hisobiga moddiy resurslarni tejash mumkin. Buning uchun mahsulotni saklash va tashish qoidalariga qat'iy rioya qilish, ishlab chiqarish jarayonida qayta ishlash uchun yonilg'i, xom ashyo, materiallarni maqsadga muvofiq tayyorlash, mehnat jamoasini ish va ishlab chiqaradigan mahsulotlar sifati masalalariga e'tiborini kuchaytirish lozim. Bu vazifaning echilishiga aksionerlik xo'jalik yuritish shakllari va korxonalarni xususiylashtirishda yordam beradi.

Aylanma mablag'larning alohida elementlari o'rtasidagi nisbat **aylanma mablag'lar strukturasi deyiladi**. Sanoat tarmoqlari aylanma mablag'lar strukturasi farq, ko'pgina omillar bilan asoslanadi. Masalan ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish xususiyatlari, ta'minot va sotish sharoitlari, ta'minotchi va iste'molchilar joylashishi, ishlab chiqarish xarajatlari strukturasi.

Sanoat korxonalarida aylanma mablag'lari ko'p qismini tovar-moddiy boyliklar tashkil etadi. Ularning ulushi - 75-87%. Turli tarmoqlar bo'yicha tovar-moddiy boyliklar ko'rinishidagi aylanma mablag'lar strukturasi ham turlichadir. Ishlab chiqarish zahiralari eng salmoqli ulushi engil sanoat korxonalarida (xom ashyo va yarim tayyor mahsulotlar ustunlik qiladi - 70%). Kimyo sanoatida kelgusi davr xarajatlari ulushi yuqori - 9%. Mashinasozlik sanoatiga nisbatan ishlab chiqarish zahiralari ulushi kam, o'zi ishlab chiqargan yarim tayyor mahsulot va tugallanmagan ishlab chiqarish ulushi esa - yuqori. Bunga sabab mashinasozlikda sanoatga nisbatan ishlab chiqarish tsikli uzunroqdir. Shu sababli og'ir, energetika va transport mashinasozligida avtomobily va traktor sanoatidagiga nisbatan tugallangan ishlab chiqarish ulushi yuqori.

Turli tarmoqlarda xom ashyo va material ishlab chiqarish zahiralariidagi aylanma mablag'lar summasi xam farqlanadi. Bunga ishlab

chiqariladigan mahsulotlarning texnik-iqtisodiy xususiyatlari sabab bo'ladi.

Korxonaning samarali ishi - bu minimal xarajatlar qilib maksimal natijalarga erishishdir.

Xarajatlarni kamaytirish - bu avvalombor, korxonada aylanma mablag'larini shakllantirish manbalari strukturasi optimallashtirish, Ya'ni o'z kredit resurslarini oqilona uyg'unlashtirish.

Korxonada aylanma mablag'lari doimo harakatda bo'ladi. Muomala sohasidan ular ishlab chiqarish sohasiga o'tadi va hokazo. Aylanma mablag'lar aylanish korxonada tomonidan moddiy resurslar va ishlab chiqarish uchun zarur boshqa elementlar to'langan vaqtdan boshlanadi va bu mahsulotni sotishdan olingan tushum ko'rinishida xarajatlar qoplanishi bilan tugaydi. Keyinchalik pul mablag'lari yana korxonada tomonidan moddiy resurslar olish va ularni ishlab chiqarishga kiritish uchun ishlatiladi.

Korxonaning normal faoliyatini tashkil etish uchun zarur bo'lgan aylanma mablag'larning iqtisodiy asoslangan miqdorlarini ishlab chiqarish jarayoni aylanma mablag'larni normalashtirish deyiladi. Shunday qilib, aylanma mablag'larni normalashtirish doimiy minimal va Shu bilan birgalikta etarli bo'lgan moddiy boyliklar zahiralari, kamaymaydigan tugallanmagan ishlab chiqarish zahiralari va boshqa aylanma mablag'larni shakllantirish uchun zarur bo'lgan aylanma mablag'lar

Korxonalar o'rtasida barqaror kooperatsiya aloqalarini o'rnatish va ularni kengaytirish bo'yicha boshlangan ishlarni davom ettirish, bu jarayonga kichik biznes va xususiy tadirkorlik sub'ektlarini keng jalb etish zarur. Respublika sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasi ishini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish lozim.

I.Karimov (ma'ruzadan)

summasini aniqlashdan iborat. Aylanma mablag'larni normalashtirish ichki zahiralarni aniqlash, ishlab chiqarish davomlilikini qisqartirish, tayyor mahsulotning tezroq sotilishi imkonini beradi.

Aylanma mablag'lardan-samarali foydalanish korxonada faoliyatini normal ta'minlashda,

ishlab chiqarish rentabelligini oshirishda katga rol o'ynaydi. Afsuski, korxonalar hozirda ega bo'lgan o'zining moliyaviy resurslari nafaqat kengaytirishga, hatto oddiy takror ishlab chiqarish jarayonini to'liq miqdorda ta'minlashga etmaydi. Korxonada zarur moliyaviy resurslarning yo'qligi, to'lovlar intizomi darajasining pastligi o'zaro to'lamasliklarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Korxonalarining o'zaro qarzdorligi – bozor sharoiti davridagi

iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyati. Ko'pchilik korxonalar shakllanayotgan bozor munosabatlariga tez moslasha olmaydi, mavjud aylanma mablag'lardan oqilona foydalanmayapti, moliyaviy zahiralarni tuzmaydi. Shunisi muhimki, Inflyatsiya, xo'jalik qonunchiligining nobarqarorligi sharoitida to'lovlarni amalga oshirmaslik bir qator korxonalarining tijorat manfaatlari doirasiga kiradi. Ular ataylab ta'minotchilar bilan hisob-kitoblarni kechiktiradilar va bu orqali so'm xarid qobiliyatining pasayishi hisobiga o'z to'lov majburiyatlarini kamaytiradilar.

Aylanma mablag'lar aylanuvchanligining tezlashishi hozirgi sharoitda korxonalarining birlamchi vazifasi hisoblanadi va quyidagi yo'llar bilan erishiladi:

1. Ishlab chiqarish zahiralarni tuzish bosqichida iqtisodiy asoslangan zahira normalarini joriy etish; xom ashyo, yarim tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar ta'minotchilarning iste'molchilarga yaqinlashuvi; moddiy-texnik ta'minotning ombor tizimini, shuningdek materiallar va uskunalarni ulgurji savdosini kengaytirish; ombordardagi ishlarining kompleks mexanizatsiyasi va avtomatizatsiyasi.

2. Tugallanmagan ishlab chiqarish bosqichida - ilmiy-texnik taraqqiyotni tezlashtirish; standartizatsiya; unifikatsiya; tipizatsiyani rivojlantirish; sanoat ishlab chiqarishni tashkil etish shakllarini mukammallashtirish; xom-ashyo va yoqilg'i-energetika resurslaridan tejimli; foydalanishni iqtisodiy rag'batlantirish tizimini mukammallashtirish; yuqori talabga ega bo'lgan mahsulot ulushini ko'paytirish.

3. Muomala bosqichida - mahsulot iste'molchilarini uni ishlab chiqaruvchilarga yaqinlashtirish; hisob-kitob tizimini mukammallashtirish; bevosita aloqalar bo'yicha buyurtmalarni bajarish, tejalgan materiallardan mahsulot tayyorlash natijasida sotilgan mahsulot hajmini oshirish; tuzilgan bitimlarga muvofiq jo'natilgan mahsulotlarni partiyalar, assortimentlar, tranzit normasi bo'yicha tanlash.

Shuni qayd qilib o'tish joizki, korxonaning aylanma mablag'lari harakati ma'lum bir iqtisodiy qonunlar asosida ishlashi hamda ulardan ishlab chiqarish va takror ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida oqilona foydalanishni ko'zda tutishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu qonunlardan va aylanma mablag'lardan foydalanish qoidalaridan chetga chiqish aylanma mablag'larning etishmasligiga yoki samaradorlikning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida»gi (2008 yil 28 noyabr) 4058-sonli Farmonida muhim chora-tadbirlar qatorida mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalarining barcha resurslardan samarali foydalanishi hisobiga mahsulot tannarxini 20 foizdan kam bo'lmagan miqdorda pasaytirish orqali ularning raqobatdoshligini ta'minlash vazifasi ham belgilab berilgan edi.⁶⁸

Tejamkorlik rejimini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar tizimida asosiy o'rinni mehnat predmetlarini tejash egallaydi. Bu mahsulot sifati, ishonchliligi va uzoq muddat xizmat qilishiga zarar etkazmagan holda unga sarflanadigan xom ashyo, materiallar, yonilg'i xarajatlarini kamaytirishni bildiradi.

Qisqacha xulosalar

Hech bir korxonada aylanma mablag'larsiz faoliyat ko'rsata olmaydi. Ularning mavjud bo'lishi har bir ishlab chiqarish jarayoni uchun majburiy element hisoblanadi.

Korxonaning moliyaviy ahvoli ko'p jihatdan aylanma mablag'lardan foydalanish darajasi va tuzilmasiga bog'liq bo'ladi. Mazkur daraja mahsulotning material sig'imi, elektr sig'imi, energiya sig'imi, moddiy resurs xarajatlari va undan foydalanish koeffitsienti kabi ko'rsatkichlarni tavsiflaydi. Aylanma mablag'lardan foydalanish ko'rsatkichlari quyidagilar: aylanish koeffitsienti, bir marta aylanish davomiyligi va yuklanish koeffitsienti.

Korxonada mahsulotning material sig'imini pasaytirish iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi, Chunki u quyidagilarga imkon yaratadi:

- ishlab chiqarish xarajatlarini sezilarli ravishda kamaytirish;
- korxonada ixtiyorida qoluvchi foyda miqdorini oshirish;
- mahsulotning raqobatbardoshligini oshirish;
- korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilash.

Korxonada mahsulotning material sig'imini quyidagilar hisobiga amalga oshirish mumkin:

*121 mashina va asbob-uskunalarining yanada mukammal konstruktsiyalarini yaratish;

⁶⁸ Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Иқтисодийотнинг реал сектори корхоналарини қўллаб-қувватлаш, уларни барқарор ишлашини таъминлаш ва экспорт салоҳиятини ошириш чора-тадбирлари дастури тўғрисида»ги (2008 йил 28 ноябрь) 4058-сонли Фармони

- *122 sun'iy va sintetik materiallardan keng ravishda foydalanish;
- *123 kam chiqitli va umuman chiqitsiz texnologiyalardan keng ravishda foydalanish;
- *124 korxonada mukammal normativ bazani tashkil qilish;
- *125 ishlab chiqarish chiqitlaridan qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarishda foydalanish;
- *126 ishlab chiqarishni kobinatsiyalash;
- *127 mahsulot sifatini yaxshilash.

Korxonada moddiy resurslardan oqilona foydalanishga faqat doimiy amal qiluvchi tizim sifatidagi resurslarni saqlashning chuqur o'ylangan siyosati asosida erishish mumkin.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Aylanma mablag'lar ishlab chiqarish aylanma fondlaridan qanday farq qiladi?
2. Aylanma mablag'larni tashkil qiluvchi asosiy elementlar qaysilar?
3. Aylanma mablag'lar tuzilmasi deganda nima tushuniladi? qaysi omillar uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi?
4. qaysi ko'rsatkichlar ishlab chiqarish aylanma fondlari va aylanma mablag'lardan foydalanish darajasini tavsiflaydi?
5. Qaysi omillar aylanma mablag'larning aylanish darajasiga ta'sir ko'rsatadi?
6. Korxonaning normativ bazasi deganda nima tushuniladi?
7. Korxonaning normativ bazasini mukammallashtirish qanday ahamiyatga ega?
8. Korxonada mahsulotning material sig'imini kamaytirish qanday ahamiyat kasb etadi?
9. Aylanma mablag'larni normalashtirishning mohiyati va ahamiyati qanday?
10. Korxonada mahsulot material sig'imini kamaytirishning asosiy yo'llari va yo'nalishlari qanday?

9-bob. Xodimlar va ularning korxonada faoliyatidagi o'рни

9.1. Globallashuv va bozor munosabatlari sharoitida mehnat munosabatlari, mehnat resurslari, ularning tarkibi va tavsifi

9.2. Korxonada xodimlar siyosati, kadrlar barqarorligi va qo'nimsizligi. Mehnat shartnomasi va pudrat shartnomasi

9.3. Mehnat me'yori, xronometraj va ish kunining fotografiyalash usullari. Mehnat unumdorligi konsepsiyasi va uni oshirishning tamoyillari

9.4. Mehnatga haq to'lashning qoidalari, shartlari va korxonada ish xaqini tartibga solish. Yagona tarif setkasi mohiyat

Tayanch iboralar: Kadrlar salohiyati, kadrlar, mehnat resurslari, korxonada personalni, ishchi kuchi, mehnat yuklamasi, sanoat-ishlab chiqarish personalni (S.ICH.P), noishlab chiqarish personalni, kasb, malaka, kadrlar siyosati, ish haqi, nominal ish haqi, real ish haqi, mehnatga ishbay haq to'lash, mehnatga ishbay-mukofotli haq to'lash, mehnatga vaqtbay haq to'lash, vaqtbay-mukofotli haq to'lash, mehnatga akkord haq to'lash tizimi, tarif stavkasi.

9.1. Globallashuv va bozor munosabatlari sharoitida mehnat munosabatlari, mehnat resurslari, ularning tarkibi va tavsifi

Korxonalarda mehnat resurslari korxonada uchun muhim ahamiyatga ega. Mehnat resurslarining ahamiyati bozor munosabatlariga o'tish bilan yanada oshadi. Ishlab chiqarishning investitsion xarakteri, yuqori darajada ilmiyligi va mahsulot sifatini oshirish muommalari, xodimlarga qo'yiladigan talablarni o'zgartiradi va ulardan professionallikni talab qiladi. Bu korxonalarda personalni boshqarishning printslarini, metodlarini va ijtimoiy-psixologik masalalarining tubdan o'zgarishiga olib keldi.

Mehnat jamoasini yaxshi tanlash boshqaruvning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Mehnat jamoasi bir yoqadan bosh chiqaradigan, bir-birini qo'llaydigan, qobiliyatli va korxonada rahbariyatining maqsadlarini tushunadigan hamda uni amalga oshiradigan qilib tuzilishi lozim. Bunday mehnat jamoasi xo'jalik faoliyati samaradorligining oshishiga,

korxonaning gullab-yashnashi va rivojlanishiga olib keladi.

Mehnat munosabatlari - korxonada ishining murakkab aspekti hisoblanadi. Texnik va texnologik vaziyatlarni hal qilish, mehnat jamoasi o'rtasida vujudga keladigan konflikt holatlarni hal qilishga nisbatan juda oson. Chunki jamoani boshqarishda uning qar bir a'zosining individual xususiyatlari va duiyoqarashini hisobga olish lozim.

Korxonaning texnik imkoniyatlari qanchalik yuqori bo'lmasin, baribir kerakli darajadagi inson resurslarisiz samarali ishlay olmaydi. Bularning hammasi odamlarga, ulardagi bilim darajasiga va ishlashga bo'lgan xohishiga bog'liq bo'lib chiqadi. Bugungi kunda g'arb mutaxassislari bekorga korxonani asosiy strukturasi inson omili asosida tashkil topgan deb hisoblashmayapti. Chunki, ishlab chiqarish tizimi nafaqat bexato ishlaydigan mashina va mexanimlardan tashkil topgan, balki, ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatadigan, yangi g'oyalarlarni yaratadigan va ularni amalga oshiradigan odamlarni ham o'z ichiga oladi. Hozirda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasidan "...ijtimoiy-gumanitar sohada erishilgan marralar – aholini ijtimoiy himoya qilish uchun yo'naltirilgan davlat xarajatlarning 5 barobar ko'paygani, turmush darajasining sezilarli ravishda yaxshilangani va buning natijasida onalar o'limi 2 barobardan ko'proq, bolalar o'limi 3 barobar kamaygani, odamlarning o'rtacha umr ko'rishi 67 yoshdan 73 yoshga, jumladan, ayollarning o'rtacha umr ko'rishi 75 yoshga etganini"⁶⁹ - aloxida ta'kidlash lozim.

Murakkab texnik va ishlab chiqarish muommalarini echish yo'lida odamlar orasida yaqindan o'zaro ta'sirni taxminlash uchun, ularning har birida oxirgi natijaga bo'lgan qiziqishni uyg'otish hamda mehnatga bo'lgan ongli munosabatni shakllantirish lozim. Insoniy kapital asbob-uskunalar, ishlab chiqarish zahiralari raqobatbardoshlikni ta'minlaydigan, ishlab chiqarish samaradorligi va xajmini oshiradigan vositadir.

Yuqorida aytib o'tilganidek, ishchi kuchi va umuman, kadrlar, ishlab chiqarishning muhim elementi hisoblanadi. Shu sababli korxonada ishlab chiqarish faoliyatining joriy va istiqboldagi strategiyasi **kadrlar siyosati** bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- *128 ishchi kuchini yollash, joylashtirish va rejalashtirish;
- *129 xodimlarni o'qitish, tayyorlash va malakasini oshirish;

⁶⁹ И. А. Каримов. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” маърузаси// Халқ сўзи газетаси, 12.11.2010.

*130 kadrlarni xizmat lavozimlari bo'yicha yuqori pog'onaga ko'tarish;

*131 yollash shartlari, mehnat va unga haq to'lash sharoitlari;

*132 mehnat jamoasida qulay ruhiy (psixologik) muhitni yaratish.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, bugungi kunda xodimlarni tanlash va ularning ish joyini o'zgartirishda ikkita asosiy kriteriyasidan kelib chiqish kerak: birinchidan, yuqori professionallik darajasi va o'rganishga layoqatli; ikkinchidan, tajribasi va mehnatga faolligi.

Agar insoniy kapital xarajat sifatida emas, balki korxonaga aktiv sifatida baholansa, xodimlarni ishga jalb etish katta xarajat turadi. Agar korxonaga xuddi shunday katta xarajatga mashinalar sotib olinsa, bu masalaga chuqur yondashilib uning to'la quvvat bilan ishlashga va ishchi holatining saqlab turilishiga katta e'tibor bilan qaralgan bo'lar edi. Afsuski, yangi xodimlar ishga olinayotganda uncha e'tibor berilmaydi. Xodimlarni tanlashda, odatda asosiy e'tibor uning ixtisoslashtirilgan bilimiga qaratiladi. Bu esa tez eskiradi. Shuningdek, xodimlar va ishga kirmoqchi bo'lganlarning qaysilari o'z bilimini doimo oshirib borish qobiliyatiga ega ekanligiga e'tibor berilmaydi.

Gorvard universitetining prezidenti D.Bok ushbu holatga ishora bilan qayd etadiki: Agar siz bilim olishni qimmat deb hisoblasangiz, unda bilimsizlikdan keladigan zararni hisoblang. Savodsizlik va insoniy kapitalning etarli darajada sifatli emasligi uchun biz qiladigan xarajatingiz juda yuqori. Shuning uchun kadrlarni o'qitish bu xarajat emas, balki noishlab chiqarish xarajatlari kamaytirish uchun, korxonaga ishini doimiy takomillashtirib borish uchun zarur bo'lgan yo'nalish omili hisoblanadi.

Sobiq sotsialistik jamiyatda mehnat qilish va dam olish xuquqi davlat tomonidan kafolatlanar edi. Hozir esa bozor bu jarayonning natijalarini tan olsa ham, u susaytirilgan. Jamoa ham, alohida ishchi xam shaxsiy iste'mol uchun ular yaratgan va bozorda sotadigan ijtimoiy mahsulotning bir qismini olish imkoniyatiga ega. "Davlat qurilishi va konstitutsiyaviy tuzumni

Qishloqda uy-joy qurish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishni jadallashtirish dasturi zamirida juda ulkan hajmdagi ishlar mujassam ekanini, u o'n minglab yangi ish o'rinlarini yaratish, ana shu keng ko'lamlı bunyodkorlik ishlarida mamlakatimiz aholisining faol ishtirokini taminlash imkonini berishini unutmashimiz kerak.

I.Karimov (ma'ruzadan)

tubdan o'zgartirish va yangilash, iqtisodiyotni mafkuradan xoli etish, uning siyosatdan ustunligini ta'minlash, davlatning bosh islohotchi vazifasini bajarishi, ya'ni islohotlar tashabbuskori bo'lishi va ularni

muvoftlashtirib borishi, qonun ustuvorligini ta'minlash, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, islohotlarni bosqichma-bosqich va izchil olib borish tamoyillariga asoslanadigan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishdan iboratdir.”⁷⁰

Demak, iste'molchi tomonidan tan olinishi va bozor kon'yunkturasi holati - jamoa va alohida ishchining daromad darajasini aniqlaydigan ikki omil hisoblanadi. Bunday vaziyatda ishlab chiqaruvchilarning keng aholi qatlamlariga bog'liqligini oshiradi, bu bilan birgalikda yaratilgan mahsulot natijalari uchun mas'uliyatni, sifat va narx darajasini oshiradi.

Mehnat bo'yicha taqsimlashga yondashuv o'zgaradi. Teng ish uchun teng ish haqi asosida xarajatlar, ya'ni ish vaqti soatlari soni va malaka darajasi emas, balki mehnat natijalari - bozorda mehnat mahsulotining tovar sifatida tan olinishi yotadi. Tovar sotishdan olingan mablag'lar tovar ishlab chiqaruvchilar mehnatining miqdori va sifatini baholash uchun yuqori mezonga va shaxsiy daromadlarning asosiy manbaiga aylanadi.

Bozor sharoitida ish kuchi harakati kuchayadi. U bir qator omillarga bog'liq. Bozorda tovar nomenklaturasi va sifatiga yangi talablar paydo bo'lishi sababli korxonalar faoliyati o'zgaradi; bir xillari yo'qoladi, boshqalari paydo bo'ladi. Muhim omil - migratsiya jarayonlaridir. Xodimning bitta jamoada va bitta ish joyida barqarorligi o'tmishda qolmokda: bozor sharoitida ishchi o'z qobliyatlarini tuliqroq namoyon qilish imkoniyati mavjud ish joyini izlaydi. Ammo salbiy jihatlar ham paydo bo'ladi, ya'ni ishonchsizlik va xavotirlanish hissi va nihoyat, eng muhimi ishsizlik imkoniyati.

9.2. Korxonada xodimlar siyosati, kadrlar barqarorligi va qo'nimsizligi. Mehnat shartnomasi va pudrat shartnomasi

Korxonalarning kadrlar siyosatini, garchi yagona javobgar shaxs sifatida ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatining barcha jabhalari, jumladan, kadrlarni tanlash va joylashtirishda asosiy javobgarlikni korxonada derektori o'z bo'yniga olsada, faqatgina uning o'zi amalga oshirmaydi. Bunda direktordan tashqari bo'lim va xizmat boshliqlari, kadrlar bo'limi, iqtisodiy va ishlab chiqarish bo'limi, mehnat va haq to'lash bo'limi, texnik bo'lim va boshqalar ham ishtirok etadi.

⁷⁰ И. А. Каримов. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” маърузаси// Халқ сўзи газетаси, 12.11.2010.

Korxonada kadrlar siyosati sog'lom va mehnat qobiliyatiga ega bo'lgan jamoani shakllantirish, kadrlarning jinsi va yoshiga ko'ra tarkibi va malakasi hamda ularning ishlab chiqarishda to'g'ri joylashtirilishini hisobga olishdan tashqari, ishlab chiqarish va mehnat sharoitlarining o'zgarib borishiga o'z vaqtida e'tibor qaratishi, fan va texnikaning yangi, ilg'or yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy qilish, xodimlarning mehnat unumdorligini oshirishni rag'batlantirishi lozim.

“Aholi daromadi va farovonligini oshirish borasida ham sifat jihatidan chuqur o'zgarishlar yuz bermoqda. Aholining ish haqi va umuman, pul daromadlari barqaror oshib bormoqda, uning xarid qobiliyati muttasil o'smoqda, fuqarolarimiz iste'mol qiladigan mahsulotlar tarkibining sifati ortmoqda.”⁷¹ Boshqacha qilib aytganda, kadrlar siyosati birinchi o'rinda, insonning ishlab chiqarish va turmushdagi yangi axloqini shakllantirish, ikkinchidan, novatorlik va yuqori mehnat unumdorligiga mafaatdorligini rivojlantirishi lozim.

Korxonaning kadrlar siyosati amaliyotda faqat ichki vazifa va muammolarni hal qilishdan tashqari, bandlik sohasida davlat siyosatiga tayanadi va quyidagilarni ko'zda tutadi:

*133 fuqarolarning mehnat huquqi va kasb tanlash erkinliklarini amalga oshirishda bir xil imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlash;

*134 fuqarolarning mehnat va tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularning ishlab chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga bandlik sohasidagi faoliyatni iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatning boshqa yo'nalishlari bilan uyg'unlashtirish orqali ko'maklashish ;

*135 mehnat faoliyati davrida va nafaqaga chiqqandan so'ng ham xodimlarning ijtimoiy muhofazasini ta'minlash;


*136 aholi bandligi muammolarni echishda, qo'shma korxonalar tuzish va ishlab chiqarish bilan bog'liq loyihalarni amalga oshirish yo'li bilan xalqaro hamkorlik yuritish va boshqalar.

Eng muhimi, jahonda ro'y berayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz ta'sirida dunyo bo'yicha 56 mln. kishidan ortiq ishsizlar armiyasi vujudga kelgan bir sharoitda O'zbekistonda yuz minglab yangidan-yangi ish o'rinlari tashkil etilmoqda. Buning yana bir ahamiyatli tomoni, yangi ish

⁷¹ И. Каримов. “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади” – 2010 йилнинг асосий яқунлари ва 2011 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

o'rinlarini Yaratishning o'ziga xos mexanizmlarining tarkib topgani va uning bir qator yo'nalishlar bo'yicha izchil amal qilib kelayotganligidir

Mamlakatimizda 2010 yilda ko'rilgan amaliy choralar natijasida 950 mingdan ziyod yangi ish o'rinlari yaratildi, ularning 500 mingga Yaqini qishloq joylarda tashkil etildi (1-rasm).



1-рasm. O'zbekiston Respublikasida 2010 yilda yangi ish o'rinlarining yaratilishi.

Kadrlar siyosati quyidagilarga yo'naltirilgan bo'ladi:

- sog'lom va ishlash qobiliyatiga ega jamoani shakllantirishga;
- korxonalar ishchilarining malaka darajalarini oshirishga;
- jinsi va yoshiga hamda malaka darajasiga ko'ra optimal tuzilgan mehnat jamoasini shakllantirishda;
- o'zgarib borayotgan holatlarni anglaydigan, yangi va ilg'or ishlab chiqarishni sezadigan va uzoqdan ko'ra oladigan yuqori mahoratga ega rahbarlarni tanlashga.

Xodimlar siyosati o'z ichiga:

- xodimlar tanlash va yuqori lavozimlarga ko'tarish;
- kadrlar tayyorlash va uzluksiz ularning bilimini oshirish;
- to'liq bandlik sharoitida xodimlarni yollash;
- shakllangan ishlab chiqarish tizimiga muvofiq ishchilarni joylashtirish;
- mehnatni rag'batlantirish;
- mehnatni tashkil etishni takomillashtirish;
- korxonalar ishchilari uchun qulay mehnat sharoitlarini yaratish va

boshqalar.

Iqtisodiyotni boshqarishning turli darajasida, jumladan, korxonalarda ham kadrlar siyosati ko'p qirrali, murakkab va uzoq muddatli jarayon bo'lib, bir qancha resurs va vaqt sarflanishini talab qiladi. Ishchilar yoki oliy ma'lumotli mutaxassislar, ya'ni turli kadrlar bilan turli darajadagi xarajatlar ko'zda tutiladi. Agar ishchilar zamonaviy korxonalar personalini tuzilmasida 70-80 % va undan ortiqni tashkil qilsa, oliy ma'lumotli mutaxassislar 15-20 % ni tashkil etadi. Shunga mos ravishda ularni tayyorlash ham turlicha bo'ladi: ishchilar korxonasi, ixtisoslashtirilgan maktab va kasb-hunar bilim yurtlarida tayyorlansa, oliy ma'lumotli mutaxassislar bir necha yil davomida oliy o'quv yurtlarida tahsil oladilar.

Afsuski, ba'zi korxonalarining rahbarlari, bugungi kunda tahlillarning ko'rsatishicha, ko'proq buyurtmalar "portfeli"ni shakllantirish, resurs va investitsiyalar izlash, mahsulotlarni sotish kanallarini aniqlash, debitorlik va kreditorlik qarzlarni qisqartirish, turli xo'jalik muammolarini hal qilish bilan band bo'lib, bularning barchasi bozor munosabatlari sharoitlarida muhim ahamiyat kasb etsada, ularning ahamiyati kadrlar siyosatini to'g'ri olib borishning ahamiyatidan kamdir. Bu masalada yirik korxonalar unchalik yutuqlarga ega bo'lmasada, mazkur holatlar asosan shaxsiy tarkibi 100 kishigacha bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun xosdir.

Shunday bo'lsada, kadrlar siyosatiga, jumladan zarur bo'lgan kadrlar salohiyatini shakllantirish va uning tarkibiga ijobiy o'zgarishlar kiritish, xodimlar malakasini oshirishga e'tiborni qaratmasdan, ishlab chiqarishni rivojlantirish vazifalarini muvaffaqiyatli hal qilish, korxonalar hayotiga fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini joriy qilish, eng asosiysi, korxonaning barqaror va daromad keltiruvchi faoliyat yuritishini ta'minlash qiyin.

Masalan, Yaponiya korxonasi va firmalarning kadrlar siyosati birinchi o'rinda universitetlar va ilmiy markazlar bilan aloqalarni kuchaytirishga, ikkinchidan, sanoatni robotlashtirish sohasida mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan bo'lib, bu ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirishning o'sishidan tashqari, ishchi va mutaxassislar o'rtasida raqobatchilik muhiti yaratilishiga ham xizmat qiladi.

Germaniyada iqtisodiyot va ishlab chiqarish sohasidagi deyarli barcha o'zgarishlar kadrlar siyosati bilan bog'liqdir. Korxonalarining kadrlar salohiyatini shakllantirishda xodimlar malakasi va ma'lumot darajasi asosiy omil hisoblanadi. Germaniya korxonasi va firmalari har yili xodimlarning ma'lumot olishi va malakasini oshirishi uchun 10 mlrd. markadan ortiq mablag' sarflaydi. Bundan tashqari, ular mutaxassislarga

ishdan bo'sh vaqtlarda qatnab kerakli bilimlarni olishlari mumkin bo'lgan o'quv markazlari va kurslar haqida ma'lumot beradilar.

“Hozirgi kunda 2011-2015 yillarda Oliy o'quv yurtlarini rivojlantirish datsuri tayyorlanmoqda va ushbu hujjat yaqin vaqt ichida qabul qilinadi. Dasturdan ko'zlangan asosiy maqsad – oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash, ularni zamonaviy o'quv, laboratoriya va ilmiy uskunalar bilan jihozlash, pirovardida o'quv datsurlarini takomillashtirish, tobora kuchayib borayotgan zamon talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlashda sifat jihatidan yangicha yondashuvlarni hayotga tatbiq etishdan iboratdir.”⁷²

Kadrlar siyosati Frantsiya va Italiya korxonalarida ham etakchi o'rinni egallaydi. Gretsiyada raqobatchilik tufayli kompaniya va firmalar ishlab chiqarishni doimiy ravishda modernizatsiya qilishlari, yangi texnologiyalarni qo'llashga yirik miqdordagi mablag'larni sarflashlariga to'g'ri keladi. Biroq modernizatsiyalashning yakuniy maqsadlariga xodimlar malakasi ishlab chiqarishning texnik darajasiga mos kelgan holdagina erishish mumkin. Shu sababli ko'plab sanoat korxonalari ishchi va mutaxassislarining malakasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasini keng ravishda amalda qo'llaydilar.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqadiki, kadrlar siyosati barcha mamlakatlarda korxonalarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, mamlakatimizdagi korxonalar ham bundan mustasno emas. Ular chet elning ilg'or korxonalari yutuqlarini o'zlashtirishdan tashqari, o'z kadrlar siyosatini yaxshilashi, xodimlar malakasining o'sishi va hayotning mehnat bilan bog'liq davri sifatini oshirishga e'tibor berishlari zarur. Bu vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishiga, korxonalarining mustaqilligidan tashqari korxonalar va ishlab chiqarishni boshqarishning aktsiyadorlik shakllari, Shuningdek, iqtisodiyotda rivojlanib borayotgan bozor munosabatlari o'z hissasini qo'shmoqda.

Kadrlar ko'nimsizligini kamaytirish va bandligini kafolatlash iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi va xodimlarda ishlash samaradorligini oshirishga bo'lgan ishtiyoqni shakllantiradi. Shu bilan birga mehnatga haq to'lash tizimi egiluvchan bo'lishi kerak. Shundagina u

⁷² И. Каримов. “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади” – 2010 йилнинг асосий яқунлари ва 2011 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

mehnat unumdorligining oshishiga olib keladi. Ish haqining ortishi unumdorlik va samaradorlikning o'sish darajasidan yuqori bo'lmasligi kerak. Mehnatga haq to'lash tizimi, shuningdek, ish haqining muayyan qismi korxonada ishining umumiy samaradorligiga bog'liq holda belgilanadi.

Hozirgi sharoitda samaradorlik va unumdorlikni oshirish uchun nafaqat mehnatga haq to'lash tizimini o'zgartirish zarur, balki xodimlarga bo'lgan ijtimoiy-psixologik yondashuvni ham o'zgartirish kerak.

Tadbirkor hal qilishi lozim bo'lgan muhim jihat-mehnat motivatsiyasidir. Unga mehnat jamoasi ishi texnologiyasi sohasidagi bilimlar zarur. Har kun ishga keladigan va ma'lum vazifalarni bajaradigan ishchi ko'p qirrali shaxs hisoblanadi. Uni faqat ish kuchi sifatida ko'rish mumkin emas. Tadbirkorning maqsadi - ishlab chiqarish unumdorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdan iborat. Shu bilan bir qatorda shaxs sifatida ishchining maqsadi bir-biriga mos kelmasligi mumkin va ko'p hollarda mos kelmaydi, Shuning uchun tadbirkor bu bir-biriga mos kelmaydigan maqsadlarning bir-biriga to'g'ri kelishini ta'minlashi zarur. U nafaqat ishchini rag'batlantirishi, balki avvalom bor uni shaxs sifatida tan olishi lozim.

Tadbirkorlar ishchilarga quyidagilarni ta'minlashi lozim:

- korxonada qoniqish hissini sezish;
- korxonada ishonchliligida kafolatga ega bo'lishlari;
- ularning nafaqat moddiy, balki ma'naviy jihatdan zarurligi to'g'risida tasdiq olishlari.

Ishlab chiqarish jarayonining strukturasi mehnatni ilmiy tashkil etish printsiplariga asoslanishi kerak:

- mehnat taqsimotini to'g'ri tashkil etish va har tomonlama mehnat jarayonidagi hamkorlikni oshirish;
- ishchilarning professional-malakali tarkibini tashkil etish;
- mehnat jarayonlarini, mehnatning ratsional usullarini ishlab chiqarish va uni tadbiq etish asosida takomillashtirish;
- ish o'rinlariga xizmat ko'rsatishni yaxshilash;
- jamoaviy ishlashning samarali shakllarini joriy qilish, ko'p agregatli xizmatni rivojlantirish;
- mehnatni me'yorlashni mehnat sarfini pasaytarish va uskunalar ishini nisbatan ratsionallashtirish, rezervlaridan foydalanish asosida takomillashtirish,
- sistematik ishlab chiqarish infrastrukturalarini yo'lga qo'yish, mehnatning ilg'or usullarini joriy qilish;

- ishlab chiqarishni sanitariya-gigiena, psixo-fiziologik talablar asosida, mehnat xavfsizligi qoidalari asosida tashkil etish, ishlashning ratsional grafigini qo'llash.

Ushbu printsiplarning amalda qo'llanilishi quyidagilarga olib keladi:

- mehnat unumdorligi oshadi;
- mehnat sharoitining sanitariya-gigiena va psixo fiziologik holatlari Yaxshilanadi;
- mehnatga qiziqish ortadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishchilarni jalb qilish o'quv yurtlari bilan doimo aloqada bo'lishni, ishga qabul kilishda test va suhbatlashish tizimini qo'llashni, ularga nisbatan sinov muddati belgilashni talab qiladi. Korxonaga kadrlarni jalb qilishning asosiy manbai turli yo'nalishdagi o'kuv yurtlari, mehnat birjalari hisoblanadi. Ishchilarni joylashtirish va ular o'rtasida vazifalarni taqsimlash mehnat taqsimoti sistemasiga asoslanadi.

Mehnat taqsimotining quyidagi shakllari nisbatan keng tarqalgan:

- texnologik-jarayon bo'yicha, kasbi va ixtisosligi bo'yicha;
- operatsiya bo'yicha;
- texnologik jarayonlarning alohida ko'rinishdagi operatsiyalari bo'yicha;
- bajarilayotgan ishning funksiyasi bo'yicha - asosiy, yordamchi, maxsus;
- malakasi bo'yicha.

Korxonadagi ishchilarning makon va zamondagi harakati O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot Vazirligining 1998 yilgi 26 oktyabrdagi 33 raqamli qarori bilan tasdiqlangan "Ishchilar soni va ish haqi statistikasi bo'yicha instruktsiya" bilan tirtibga solinadi va hisobi olib boriladi.

Kadrlarni ishga olishda mehnat kelishuvi yoki shartnoma asosiy o'rin egallaydi. Bu ish beruvchi va ishga yollanuvni o'rtasidagi rozilikni bildiradi. Mehnat shartnomasida mehnat vazifasi, ish o'rni, majburiyatlar, malakasi, mutaxassiligi, vazifaning nomi, ish haqi miqdori va ishning boshlanish vaqti kabilar kelishib olinadi.

Mehnat shartnomasidan farqli ravishda, pudrat shartnomasi korxonada topshirig'iga ko'ra ishni bajarilishini bildiradi.

Korxonalarda ishlovchilar ikki kategoriyaga bo'linadilar:

- ishlab chiqarish va unga xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi sanoat-ishlab chiqarish personallari;

• nosanoat tashkilotlari personallari. Bunga kommunal xo'jaliklari xodimlari, bolalar va vrachlik-sanitariya muassasalari ishchi xodimlari kiradi.

Ishchilar asosiy va yordamchi ishchilarga bo'linadi. Ularning nisbati korxonada ishining tahlili ko'rsatkichi hisoblanadi.

Asosiy ishchilarning miqdoriy koeffitsienti (**Ka.i.**) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Ka.i. = 1 - Pp.i. / Pi$$

Bu erda: Pp.i - korxonada tseklari, uchastkalarida ishlaydi yordamchi ishchilarning ro'yxat bo'yicha o'rtacha soni, kishi;

Pi - korxonada tseklari va uchastkalarida ishlaydigan jami ishchilarning o'rtacha ro'yxatdagi soni, kishi.

Mutaxassislar va boshqaruvchilar ishlab chiqarish jarayonini tashkil etadilar va uni boshqaradilar.

Xizmatchilarga moliya-hisob ishlarini amalga oshiruvchi va boshqa vazifalarni bajaruvchilar kiradi.

Korxonaning kadrlar salohiyati.

“Hamma narsani kadrlar hal qiladi” qoidasi iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan hozirgi kunlarda ham o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Prezident I.Karimov aytganidek: “Bugungi kunda biz oldimizga qanday vazifalarni qo'ymaylik, bizning oldimizda qanday muammolar mavjud bo'lmasin, ularning barchasi pirovardida kadrlar va faqat kadrlarga borib taqaladi.”⁷³

Zamonaviy korxonalar faoliyatida mehnat qurollari va mehnat predmetlaridan tashqari kadrlar ham katta ahamiyatiga ega. Aynan kadrlar ishlab chiqarishni boshqarib, joriy va istiqboldagi rejalashtirishni amalga oshiradilar hamda ishlab chiqarish vositalarini foydalanishga kiritadilar. Kadrlarning kasbiy malakasi qanchalik yuqori bo'lsa, korxonalarining iqtisodiy va ishlab chiqarish ko'rsatkichlari shunchalik yaxshi bo'ladi.

Korxonaning “mehnat resurslari”, “kadrlar”, “personal” tushunchalarini, garchi ular o'rtasida ma'juziy ma'noda

⁷³ И. Каримов. “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади” – 2010 йилнинг асосий яқунлари ва 2011 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.


aytganda “Xitoy devori” yo’q bo’lsa va ular kadrlar salohiyatini shakllantirish va ulardan foydalanishda bir xilda qo’llansada, bir-biridan farqlash lozim.

Salohiyat (potentsial) tushunchasining o’zi lotin tilidan olingan bo’lib (potentia), imkoniyat, kuch-quvvat, yashirish imkoniyat ma’nosini anglatadi. Lug’at va qo’llanmalarda u mavjud va harakatga keltirilishi, ma’lum bir maqsadlarga erishish uchun foydalanish mumkin bo’lgan vosita, zahira, manba deb ko’rsatilgan.

Kadrlar salohiyati - mehnat resurslarining umumiy soni va jinsi, yoshi, ma’lumoti, kasbiy ko’nikmalari, korxonaning u yoki bu bo’g’inlarida va jamoatchilik ishlab chiqarishida qatnashishi bilan ifodalanuvchi mehnat resurslari yoki imkoniyatlarini ifodalaydi. Kadrlar salohiyati jamiyat mehnat salohiyatining tarkibiy qismidir.

Kadrlar korxonada mehnat bilan band bo’lgan hamda korxonaga shaxsiy tarkibiga kiruvchi turli kasbiy-malakaviy guruhlardagi xodimlar majmuasidir. Korxonaning **mehnat resurslari** uning ishchi kuchini tavsiflaydi. **Korxonaga personal** doimiy va yollanib ishlovchi, malakali va malakasiz barcha xodimlardan iborat bo’lgan shaxsiy tarkibni izohlaydi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, respublikamizda Yangi ish o’rinlari bir necha asosiy manbalar bo’yicha tashkil topmoqda (3-rasm).




Rasmdan ko'rinadiki, yangi ish o'rinlarining 390 mingdan ko'proq qismi kichik biznes sohasida ochilgan. Shuni ham ta'kidlash lozimki, buning 270 mingdan ko'prog'i xizmat ko'rsatish sohasiga to'g'ri keladi.

Sanoat korxonalari bilan kooperatsiya asosidagi kasanachilikni hamda pudrat shartnomasi asosidagi uy mehnatini rag'batlantirish aholi bandligini ta'minlashning muhim yo'nalishlaridan biridir. Ana Shunday mehnat faoliyatini rivojlantirish natijasida 130 mingga yaqin ish o'rni yaratildi.

Ishlab chiqarishdagi asosiy «shaxs», iqtisodiyot nazariyasida talqin qilinishicha, **ishchi kuchi** - insonning mehnat qilishga jismoniy va aqliy qobiliyatlari hisoblanadi. Bozor munosabatlari sharoitlarida mehnat qobiliyati, ishchi kuchini tovar holiga keltiradi. Biroq bu oddiy tovar emas. Uning boshqa tovarlardan farqi Shundaki, birinchidan, u o'z qiymatidan ortiq bo'lgan qiymat yaratadi, ikkinchidan, uni jalb qilmasdan biron-bir ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish mumkin emas, uchinchidan, asoiy fondlar va aylanma mablag'lardan samarali foydalanish darajasi, xo'jalik yuritish iqtisodiyoti ko'p jihatdan unga bog'liq bo'ladi.

Korxonalarda ishchi kuchi va umuman kadrlar salohiyatidan samarali foydalanishga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi: xodimlarning moddiy manfaatdorligi, atrof-muhit, aqliy, jismoniy va asablar kuchlanishi, boshqarish usullari va hokazolar. Ayniqsa mehnat uchun ijtimoiy sharoitlar Yaratish muhim ahamiyat kasb etadi (3-rasm).





3 - rasm. Mehnat yuklamasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar

Korxonada personalni yoki kadrlar tarkibi va uning o'zgarishi ma'lum bir sifat, miqdor va tuzilmaviy tavsiflarga ega bo'lib, ulardan faoliyatni rejalashtirish va hisobga olishda foydalaniladi. Korxonada xodimlarining ro'yxat bo'yicha tarkibi zamonaviy tasnifi bo'yicha quyidagilarni o'z ichiga oladi:

*137 **sanoat-ishlab chiqarish personali** (S.ICH.P) - asosiy va yordamchi tsexlar, zavod boshqaruvi, laboratoriya, ilmiy-tadqiqot va tajriba-loyihalashtirish bo'limlari (IT va TL.I), hisoblash markazi xodimlari;

*138 **noishlab chiqarish personali** - uy-joy, kommunal va yordamchi xo'jaliklarda, sog'liqni saqlash, profilaktika va ta'lim muassasalarida faoliyat yurituvchi xodimlar;

*139 **rahbarlar** - direktor, direktor o'rinbosarlari, bosh mutaxassislar, bo'lim va xizmat boshliqlari, ya'ni muhandis-texnik personal (MTP);

*140 **xizmatchilar** - hujjatlarni tayyorlash, hisob-kitob va nazorat qilish, xo'jalik xizmati xodimlari (agentlar, g'aznachilar, ish yurituvchilar, kotiblar, statistlar va hokazo).

Korxonada S.ICH.Pning asosiy va ko'p sonli qismini **ishchilar** tashkil qilib, ular mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish, ish bajarish), ta'mirlash va uskunalarga xizmat ko'rsatishda (*ta'mirlovchi ishchilar*) qatnashadilar, mehnat predmetlarini tashish va mahsulot tayyorlashni amalga oshiradilar (*transport ishchilari*), qurilish-ta'mirlash ishlarini bajaradilar (*quruvchi-ishchilar*).

Korxonada faoliyatini rejalashtirish va tahlil qilishda, ayniqsa, mehnat unumdorligi, o'rtacha ish haqi, kadrlar aylanishi va oqimini hisoblashda **o'rtacha ro'yxat soni** ko'rsatkichi qo'llaniladi. Bu ko'rsatkich yil yoki chorak uchun korxonada faoliyat ko'rsatgan barcha oylar uchun ishchilarning o'rtacha ro'yxatdagi sonini qo'shish va hosil bo'lgan yig'indisini mos ravishda 3 (12) ga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Bu ko'rsatkichni to'g'ri aniqlash uchun xodimlarni ishga qabul qilish, boshqa ishga o'tkazish va mehnat shartnomasini bekor qilishni inobatga olgan holda har kuni hisobga olib borishni yo'lga qo'yish zarur.

Kadrlarning korxonada harakatlanishini tavsiflash uchun quyidagi ko'rsatkichlar hisoblanadi va tahlil qilinadi:

Ishchilarni qabul qilish bo'yicha aylanish koeffitsienti (K_{pr}):

$$K_{pr} = \frac{\text{Ishga qabul qilingan personal soni}}{\text{Personalning o'rtacha ro'yxat soni}}$$

Ishdan ketish bo'yicha aylanish koeffitsient (K_v)

$$K_v = \frac{\text{Ishdan bo'shagan xodimlar soni}}{\text{Personalning o'rtacha ro'yxat soni}}$$

Kadrlar oqimi koeffitsienti (K_t)

$$K_t = \frac{\text{O'z xohishiga ko'ra va mehnat intizomini buzganlik uchun ishdan bo'shagan xodimlar soni}}{\text{Personalning o'rtacha ro'yxat soni}}$$

Korxonada personalni tarkibining doimiylik koeffitsienti ($K_{p.s.}$)

$$K_{p.s.} = \frac{\text{Butun yil davomida ishlagan xodimlar soni}}{\text{Personalning o'rtacha ro'yxat soni}}$$

Kadrlar salohiyati miqdoriy tavsif berishdan tashqari ***korxonaning personalining sifat tavsifi*** ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, u korxonaning xodimlarining mazkur ishlab chiqarishga kasbiy va malakaviy jihatdan Yaroqlilik darajasi bilan aniqlanadi. Bu erda birinchi o'ringa "mutaxassislik", "kasb", "malaka" kabi tushunchalar chiqadi.

"Dunyodagi etakchi mamlakatlar tajribasiga tayangan holda, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash milliy tizimining takomillashtirilishi axborot sohasidagi faoliyatning sifati va saviyasini oshirishga qaratilgan choratadbirlar tizimida ko'p jihatdan hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi."

(I.Karimov)

Mutaxassislik insonda ma'lum bir turdagi ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar majmuasining mavjudligi bilan tavsiflanadi. Masalan, iqtisodchi, buxgalter, moliyachi yoki texnik tilda - mexanik, quruvchi, energetik, geolog va boshqalar. Ishchilarning bilim va qobiliyatlariga bo'lgan talab yagona tarif-malakaviy ma'lumotnomasida (YATMM), (MTP) va xizmatchilarga esa lavozimlar malakasi ma'lumotnomada aks ettirilgan. Bu hujjatlar asosida korxonalar ishchi va xizmatchilar tariflariga o'zgartirishlar kiritadilar.

Kasb - faoliyatning maxsus va tor ko'rinishdagi turi bo'lib, mutaxassislik kabi nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talab qilsada, mutaxassislikdan farqli ravishda ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib qo'shimcha ko'nikmalarni ham talab qiladi.

Malaka deganda biron-bir kasb yoki mutaxassislik bo'yicha murakkab ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan mehnat ko'nikmalari va bilimlar darajasi tushuniladi. Ishchilar malakasi darajasini baholashda o'rtacha tarif koeffitsienti va o'rtacha tarif razryadi bajarilayotgan ishlar murakkabligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar hisoblanadi.

Inqirozga qarshi choralar dasturi doirasida amalga oshirilgan choratadbirlar samaradorligi yangi ish o'rinlarini yaratish va aholimizning turmush darajasini yanada oshirish natijalari orqali ham yaqqol namoyon bo'ladi (1-jadval).

1-jadval.

O'zbekistonda 2010 yilda aholi bandligini ta'minlash va yangi ish o'rinlarini yaratishning ijrosi.

Ko'rsatkichlar	Soni, birlik
Dastur bo'yicha yaratilishi ko'zda tutilgan jami ish	932554

o'rinlari soni	
Amalda yaratilgan jami ish o'rinlari	950532
Yillik prognozga nisbatan bajarilishi, foizda	100,9
Jumladan:	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga	391825
Uy mehnatining barcha shakllarini tashkil etish hisobiga	196727
Korxonalar bilan mehnat shartnomasi asosida kasanachilikni rivojlantirish hisobiga	77466
Yirik ob'ektlarni ishga tushirish, rekonstruktsiya qilish va kengaytirish hisobiga	70535
Qo'shimcha chora-tadbirlar hisobiga (inqirozga qarshi dastur va boshqa chora-tadbirlarga muvofiq)	281445

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot Vazirligi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2010 yilda ko'rilgan amaliy choralar natijasida mamlakatimizda 950 mingdan ziyod yangi ish o'rinlari yaratildi, ularning 500 mingga yaqini qishloq joylarda tashkil etildi. Kichik biznes sohasida 390 mingdan ziyod, Shu jumladan, xizmat ko'rsatish sohasida 270 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari ochildi.

Kadrlar salohiyatining yuqorida sanab o'tilgan va boshqa tushuncha va ko'rsatkichlari korxonalar personalining miqdoriy, sifat va tuzilmaviy holatlari haqida va ularni personalni va umuman ishlab chiqarishni boshqarish, jumladan, korxonalar mehnat resurslari samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish, tahlil qilish va rejalashtirish maqsadlari uchun o'zgartirishlar kiritish yo'nalishlari haqida ma'lumot beradi.

9.3. Mehnat me'yorlari, xronometraj va ish kunining fotografiyalash usullari. Mehnat unumdorligi konsepsiyasi va uni oshirishning tamoyillari

Qorxonada mehnatni to'g'ri tashkil etish uchun u yoki bu ishni bajarishga qancha mehnat talab etilishini bilish zarur, boshqacha aytganda har bir xodim uchun mehnat me'yorini aniqlash kerak.

Mehnatni me'yorlash, deganda hozirgi ishdab chiqarish sharoitida aniq ishni yoki operatsiyani bajarish uchun maksimum qancha vaqt ketishini aniqlash (vakt birligida minimum qancha mahsulot ishlab

chiqarish mumkinligini aniqlash) tushuniladi.

Korxonada mehnatni me'yorlash, mehnat va ish xaqini to'g'ri tashkil etishning garovidir. Mehnat me'yori mavjud sharoitlarni to'liq hisobga olgan holda hisoblanishi lozim.

Mehnatni me'yorlashning tajriba-statistik va tahliliy usullari mavjud. Tahdiliy usuli nisbatan samaraliroq, ya'ni maqsadliroq hisoblanadi. Bu usulda mehnatni me'yorlashga ilmiy nuqtai nazardan yondashiladi. Tajriba-statistik usulda esa murakkab holatlari me'yorlash oldingi omil natijalari bilan solishtirish asosida amalga oshiriladi.

Tahlil usulda quyidagi qator operatsiyalar amalga oshiriladi:

- mehnat jarayonini tadqiqot qilish;
- mehnat xarajatlariga ta'sir qiladigan barcha omillarni o'rganish;
- operatsiya va usullar bajarilishi loyihasini takomil-lashtirish;
- ishni bajarishga ketadigan vaqtni aniqlash;
- me'yornlarni ishlab chiqarishga tadbii qilish.

Me'yorlashning tahlili usuli o'z navbatida tahdili-hisob va tahlili-tadqiqot turlariga ajraladi. Analitik-hisob turida vaqtning. tayyor normativlari qo'llaniladi. Me'yorlashning aniqlash-tadqiqot usulida bevosita ish vaqtini o'rganish - xronometrajdan va ish kuni fotografiyasidan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Xronometraj bu tezkor vaqt sarfini o'rganish usulidir. Uning asosiy bosqichlari quyidagilar:

- kuzatishga tayyorlanish;
- kuzatish;
- kuzatish natijalarini tahdil qilish va qayta ishlash;

operatsiyalarning ratsional tarkibini hamda uning alohida elementlarining davomiyligini aniqlashi bildiradi.

Ish kunining fotografiyasi - bu ish vaqqini o'rganish usuli bo'lib, bu butun ish kuni mobaynida yoki ish kunining ma'lum qismi mobaynida ish vaqtining davomiyligini kuzatish va o'rganish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunda asosiy e'tibor ish o'rinlariga xizmat ko'rsatish vaqtiga va ishdagi tanaffus vaqtiga qaratiladi.

Shu bilan birga ish kuni fotografiyasi kishilar soniga bog'liq holda individual, guruhiy va ommaviy turlarga bo'linadi.

Ular quyidagi fotografiyalash bosqichlaridan iborat:

- « kuzatishga tayyorlash - xodimlar, ularning ish o'rinlari va ishlarning bajarilish shartlari hamda tavsifi bilan tanilishi; ishlarning elementlarini aniqlash;

- ish vaqti sarflarini barchasini kuzatish ishning har bir elementining

tugash vaqtini sonli va grafik usullarda qayd qilish; ishlarning bajarilgan elementlarini belgilab qo'yish;

- kuzatish natijalarini tahlil qilish - vakt va indeksatsiyani alohida sarflarining davomiyligini aniqlash; ish vaqti sarfini guruhlash; ish vaqtining haqiqiy balansni tuzish; xodimlarni toifalar bo'yicha ish vaqti sarfini tahlil qilish;

- tadbir va xulosalar - ish vaqtidan foydalanishni oshirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish; ish vaqtining me'yoriy balansini loyihasini ishlab chiqish; mehnat unumdorligini oshirishga imkoniyatlarini aniqlash.

Xronometraj ish kuni fotografiyasi - mahsulot birligini ishlab chiqarishga yoki bir operatsiyani bajarishga ketadigan vaqt me'yorini aniqlashda foydalaniladi, vaqt me'yori kishi-soat yoki kishi-minutda belgilanadi.

Mahsulot birligi yoki ishni qo'lda, ko'l va mashinada, to'liq mashinada bajarish uchun ketgan vaqt me'yori tarkibi quyidagi sarflarni o'z ichiga oladi:

$$tn=ta+ty.o'+td.tt.v+tn.t,$$

Bu erda: ta - asosiy vaqt;

ta - ish o'rniga xizmat qilish vaqti;

tt.v - tayyorgarlik vaqti;

td.o - dam olishga va shaxsiy maqsadlarga sarflangan vaqt;

t n.t - nazarda tutilmagan tanaffuslar.

Mehnat unumdorligi iqtisodiyot taraqqiyotining asosiy omillaridan bo'lib uni oshirishga butun fan-texnika-boshqaruv yutuqlari xizmat qiladi.

Mehnat unumdorligini oshirishda boshqarish tamoyil-larini ishlab chiqilishi o'ta dolzrab hisoblanadi. Bu masalada ayrim iqtisodchilarning fikrlari mavjud. Jumladan, amerikalik iqtisodchi olim Garrington Emirsonni (1853-1931) 1912 yili chop etgan "**Unumdorligining o'n ikki tamoyili**" asarida mehnat unumdorligini oshirishning bir qator tamoyillari keltirilgan:

1. Boshqaruvning birlamchi vazifasi - aniq va ravshan maqsadni belgilash.

2. Sog'lom fikr yuritish, shu jumladan ko'yilgan xatolarni tan olish va uning kelib chiqish sabablarini aniqlash.

3. Professionallarning kompetentli islohatlari va takliflari asosida boshqarish jarayonini takomillashtirish.

4. Kishilar faoliyatini aniq tartibga soladigan intizom, uni nazorat qilish va o'z vaqtida rag'batlantirish.

5. Xodimlarga nisbatan adolatli bo'lish.
6. Tezkor, ishonchli, hakqoniy, to'la va doimiy hisob,
7. "Rejalashtirilgan ishni dispetcherlashtirish, dispetcherlashtirilmagan ishni rejalashtirishga qaraganda yaxshirokdir" degan qoidaga asosan ishni dispetcherlashtirish.
8. Mavjud imkoniyatlarni ishlatishga, topishga qaratilgan norma va jadvallar.
9. Mehnat sharoitini normallashtirish.
10. Vaqtni reglamentlashtirish va operatsiyalarni bajarilish usullarini standartlashtirish asosida operatsiyalarni normalashtirish.
11. Yozma standart instruktsiyalarning mavjudligi.
12. Mehnatni unumdorligi uchun rag'batlantirish.

Emirsonning fikricha, xodimlarni tanlash asosiy omillardan biri hisoblanadi. U Shunday deydi: - "Bir tamondan, intuitsiya, kuzatuvchanlik, tushunuvchanlik qobiliyatiga ega bo'lgan, ikkinchi tamondan, fiziologik, psixologik va antropologik ilmiy bilimga ega bo'lgan mutaxassislardan hech bo'lmasa bir-nechtasiga ega bo'lish kerak. Faqat Shunday mutaxassis rahbariyatga qaysi nomzodning ko'zda tutilgan ishni bajara olishi yoki bajara olmasligi to'g'risida kompetentli maslahat berishi mumkin".⁷⁴

Har handay korxonada maqsadini belgilashda, uning faoliyatini rivojlantirishda asosiy omil bo'lgan mehnat unumdorligini oshirish konsepsiyasini ishlab chiqish zarur. U uzoq muddatga (5, 10, 20 yilga) mo'ljallangan bo'lishi kerak.

Kontsepsiya lotincha "sonsertio" so'zidan olingan bo'lib, hodisalar va jarayonlar tug'risidagi qarashlar, tushunchalar hamda asosiy maqsad degan ma'noni beradi.

Mehnat unumdorligi konsepsiyasi deyilganda, uni amalga oshirish maqsadga ko'zlangan vazifalar va yo'nalishlar majmuasini, kelajakka mo'ljallangan gipoteziya, prognozni yoki strategik rejani tushunish mumkin.

Mehnat unumdorligi konsepsiyasi jamiyat, hudud va korxonada darajasida, u erdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarni, fan-texnika yutuqlari, Shuningdek, mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi boshqa tashqi va ichki omillarni hisobga olgan holda jamiyat har bir hudud va korxonada uchun alohida ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

Mehnat unumdorligiga bir qator omillar ta'sir etadi. Shu sababli, uning

⁷⁴ Эмирсон Г. Двенадцать принципов производительности: Управленис - это и иекуство-М.: Экономика, 1992. С 87.

kontseppiYasini ishlab chiqishda bu omillarni e'tiborga olish lozim.

Hisob-kitoblarni qilishda qulaylik bo'lishi uchun, ularni bir nechta guruhlariga ajratish zarur bo'ladi. Ular quyidagi ko'rinishlarda:

- ishlab chiqarishdagi tarkibiy o'zgarishlar. Bunga ayrim turdagi mahsulotlar hissasining umumiy mahsulot ishlab chikarishning hajmidagi o'zgarishlar kiradi;

- ishlab chiqarish texnik darajasining o'sishi. Bunga ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, uskunalarni modernizatsiya qilish, buyumlarning texnologik tavsifini o'zgartirish; mahsulotlar sifatini yaxshilash, xom-ashyolarni tejash, yangi turdagi materiallarni va energiyani joriy etish taalluqli;

- ishlab chiqarishni, mehnatni, boshqaruvni tashkil etishni yaxshilash. Bu guruhga ishlab chiqarishni (yangi texnikani joriy etish bilan bog'liq bo'lmagani holda), ixtisoslashtirish, mehnat predmetlarini kooperatsiyalashgan holda etkazish, ishlab chiqarish boshqaruvini takomillashtirish, mehnatni ilmiy asosda tashkil etish, ish vaqtining yo'qotishni qisqartirish, yaroqsiz mahsulot ishlab chiqishga yo'l ko'yimaslik, mavsumiy ishlab chiqarishda ish davrini o'zgartirish tadbirlari va boshqalar kiradi;

- mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi. Bunda shartli-o'zgarmas xodimlar sonining mahsulot ishlab chiqarish hajmining ko'payishi yoki pasayishi sababli o'zgarishi hisobga olinadi;

- tabiiy sharoitning va foydali qazilmalarni olish usulining o'zgarishi. Bunga neft, ko'mir va boshqa xom-ashyolarning geologik joylashishi, ularni qazib olish usullarining o'zgarishi kabi omillar kiradi;

- tarmoq va boshqa omillar. Bu guruhga ishlab chiqarishning hududiy o'zgarishi sababli yangi mahsulotlarni o'zlashtirish hisobiga bo'ladigan o'zgarishlar taalluqlidir.

Mehnat samaradorligi va uni oshirish tamoyillari.

Korxonada mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi mehnat unumdorligi bilan ifodalanadi. Mehnat unumdorligi korxonada faoliyatining natijaviy ko'rsatkichlaridan bo'lib, ular faoliyatning salbiy va ijobiy tomonlarini ifodalaydi.

Mehnat unumdorligi moddiy ishlab chiqarishda mehnat sarfi samaradorligini ifodalaydi va vaqt birligi ichida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori sifatida yoki mahsulot birligini ishlab chiqarishga sarflangan mehnat sarfi sifatida aniqlanadi.

Jonli mehnat unumdorligi muayyan korxonadagi muayyan ishlab

chiqarishdagi ish vaqti sarfi sifatida aniqlanadi. Ijtimoiy mehnat unumdorligi esa moddiy va jonli mehnat sarfi bilan aniqlanadi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti va ishlab chiqarish takomillashi bilan ijtimoiy mehnat xarajatlarining hissasi ham ortib boradi. Biroq, mahsulot birligini ishlab chiqarishga ketadigan jonli mehnat, Shuningdek moddiy mehnat xarajatlari miqdori pasayib borishi qonuniyatga aylangan. Shuning uchun ijtimoiy mehnat unumdorligi ortib boradi.

Mehnat unumdorligi darajasi ikkita ko'rsatkich bilan xarakterlanadi:

- vaqt birligida mahsulot ishlab chiqarish (bevosita ko'rsatkich);
- mahsulot yaratishning mehnat sig'imi (teskari ko'rsatkich).

Bu ko'rsatkichlar quyidagi formulalar bilan ifodalanadi:

$$V = v / T; \quad T = t / V,$$

Bunda: V - vaqt birligi ichida mahsulot ishlab chiqarish;

T - mahsulot yaratishshshg mehnat sig'imi;

v - ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, so'm.;

t - mahsulot ishlab chiqarishga ketgan jonli mehnat, so'm.

Mahsulot ishlab chiqarish - mehnat unumdorligining nisbatan keng tarqalgan va universal ko'rsatkichidir. Mahsulot hajmi qanday birlikda o'lchanayottaniga bog'liq holda mahsulot ishlab chiqarishni aniqlashning natural va me'yorlangan ish vaqti shakllari bilan farqlanadi.

Ko'pincha mehnat unumdorligi mahsulot ishlab chiqarishning natural o'lchov birliklari yordamida ifodalanadi. Bularga tonna, metr, dona kabi birliklar kiradi. Odatda, bunday birliklarda mahsulot ishlab chiqarishni o'lchami bir xil turdagi mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalarda bo'ladi.

Korxonadagi mehnat unumdorligi, ya'ni korxonada faoliyati bilan bog'liqlik xarajatlari bilan bog'liq holda aniqlanishi mumkin, bu erda baho berilganda eng avvalo qamrab olingan mehnat xarajatlarining tarkibiga bog'liq holda quyidagilar farqlanadi:

- asosiy ishchilarning mehnat sarflarini o'z ichiga oladigan texnologik mehnat sig'imi, t_{tex} ;

- yordamchi ishchilarning mehnat sarfini o'z ichiga- oladigan ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi mehnat sig'imi, t_{yord} ;

- ham asosiy, ham yordamchi ishchilarning mehnat sarflarini o'z ichiga oluvchi ishlab chiqarish mehnat sig'imi;

- ma'muriyat xodimlarining, xizmatchilarning va nazoratchilarning mehnat sarfini o'z ichiga oluvchi ishlab chiqarishni boshqarshn mehnat sig'imi, t_{bosh} ;

• barcha kategoriyadagi sanoat-ishlab chiqarish korxonalarining mehnat sarfini o'z ichiga oluvchi jami mehnat sig'imi, t_{jam} ;

$$t_{jam} = t_{tex} + t_{yordam} + t_{bosh}$$

Mehnat unumdorligi manbalarini izlash, - bu manbalarni amalga oshirish bo'yicha tashkiliy-texnik tadbirlarni ishlab chiqish va bu tadbirlarni bevosita qo'llash korxonadagi taxliliy ishlarning asosiy bosqichi hisoblanadi. Mehnat unumdorligini oshirish manbalari deganda, jonli va moddiylashgan mehnat sarfini iqtisod qilishning hali foydadanilmagan imkoniyatlari tushuniladi. Ichki ishlab chiqarish manbalari texnika va ishchi kuchidan nisbatan samaraliroq foydalanish, ish vaqtini qisqartirish, xom-ashyo va materiallarni iqtisod qilish, uskunalardan oqilona foydalanish bilan bog'liq. Ichki ishlab chiqarish manbalariga mehnat sig'imini kamaytirish, ish vaqtdan foydalanishni oshirish, kadrlar strukturasi takomillashtirish, mehnat predmetlarini iqtisod qilish va mehnat vositalarini iqtisod qilishlar kiradi.

Mehnat unumdorligini oshirish manbalarini quyidagi yo'nalishlarini keltirish mumkin:

1. Ishlab chiqarishning texnik darajasini oshirish:

- ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish;
- Yangi uskunalarni tadbiq etish;
- Yangi texnologik jarayonlarni tadbiq etish;
- mahsulotlarning konstruktiv xususiyatlarini oshirish;
- xom-ashyo va yangi konstruktiv materiallarning sifatini oshirish;

2. Ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishni yaxshilash:

- xizmat ko'rsatish me'yori va hududini oshirish;
- me'yorlarni bajarmaydigan xodimlar sonini kamaytirish;
- boshqaruv strukturasi soddalashtirish;
- hisob-kitob ishlarini mexanizatsiyalash;
- ish vaqtini o'zgartirish;
- ishlab chiqarishning ixtisoslashganlik darajasini oshirish;

3. Tashqi tabiiy sharoitlarni o'zgartirish:

- xom ashyolarni yaratish, er osti boyliklarini qazib olish shart-sharoitlari;
- foydali qazilmalarni saklashni o'zgartirish;

4. Ishlab chiqarishdagi struktura o'zgarishlari:

- mahsulotlar alohida turlarining hissasini o'zgartirish;
- ishlab chiqarish dasturining mehnat sig'imini o'zgartirish eng qulay darajasini aniqlash;

- sotib olingan yarim fabrikatlar va komplektlaydigan mahsulotlar hissasini o'zgartirish;

- Yangi mahsulotlar hissasini o'zgartirish. Korxonalaridagi mehnat unumdorligining o'zgarishi, xususan uning o'sishi muhim ahamiyatga ega.

Mehnat unumdorligining o'sishi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\Delta P = \frac{100 \Delta AV + \Delta Rp}{100 - Rp}$$

Bunda: ΔAV - korxonada joriy davrda ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmining o'sishi, %;

ΔRp - korxonada xodimlarining foizlardagi o'zgarishi, %.

Ish vaqti fondidan samarali foydalanish hisobiga mehnat unumdorligining oshishi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$\Delta P = \frac{Fs_1 - Fs_0}{Fs_0} \times 100$$

Bu erda: Fs_1 , Fs_0 - mos ravishda bazis va rejalashtirilayotgan davrdagi bir ishchining samarali yillik ish vaqti fondi, kishi - soat.

Raqobat sharoitida ortiqcha ishchi kuchi ishsizlik muammosi yuzaga keladi. Bunday holatda ishchi kuchidan ratsional foydalanish korxonaga uchun qanday ahamiyatli bo'lsa, davlat boshqaruv organlari uchun ham shunday ahamiyat kasb etadi.

Misol. Bazis davrida korxonada tovar-mahsulotining tannarxi 400,0 mln. so'mni tashkil etdi. Hisobot davrida mehnat unumdorligini 7% ga va o'rtacha ish haqini 5% ga oshirish ko'zda tutilgan. Doimiy xarajatlar miqdori o'zgarish sharoitida ishlab chiqarish hajmi 9%ga oshadi. Mahsulot tannarxida ish haqi - 23%ni, doimiy xarajatlar - 20% ni tashkil etadi.

Tannarxning necha foizga pasayganligini va keltirilgan omillar ta'sirida qilingan tejam hajmini aniqlash kerak.

Echim:

1. Mehnat unumdorligining oshishi va ish haqining oshishi hisobiga mahsulot tannarxining pasayishi:

$$S_{rej} = \left(1 - \frac{U_{ish\ haq\ rej.}}{U_{rej}}\right) \times D_{rej} = \left(1 - \frac{1,05}{1,07}\right) \times 23\% = 0,46\%$$

2. Doimiy xarajatlar o'zgarmagan holda ishlab chiqarish hajmining oshishi natijasida mahsulot tannarxining pasayishi:

$$\text{So.t} = \left(1 - \frac{U \text{ i/ch.r.}}{U \text{ i/ch.x.}}\right) \times D \text{Rej} = \left(1 - \frac{1}{1.09}\right) \times 20\% = 1.6\%$$

3. Ikkala omil ta'siri natijasida mahsulot tannarxining pasayishi:
 $0.46\% + 1.6\% = 2.06\%$

4. Mahsulot tannarxining pasayishi natijasida erishilgan tejam:

$$E = \frac{400,0 \times 2,06}{100} = 8,24 \text{ mln.so'm}$$

9.4. Mehnatga haq to'lashning qoidalari, shartlari va korxonada ish haqini tartibga solish. Yagona tarif setkasi mohiyati

Korxonalarda mehnatga haq to'lashni oqilona tashkil qilish xodimlar faoliyatini rag'batlantirish, tayyor mahsulot va mehnat bozorida raqobatchilikni, rentabellikni va mahsulotlarning daromadlilikini ta'minlashi lozim. Mehnatga haq to'lashni oqilona tashkil etishdan maqsad-uning hajmi va xodimning korxonaga xo'jalik faoliyatiga mehnat faoliyatida qo'shgan hissasiga mos kelishini ta'minlash, ya'ni mehnat o'lchami va iste'mol o'lchami o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashdir.

Ishchilarga ish haqi to'lash - bu ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadigan mehnat resurslarining narxidir. U sarflangan mehnat miqdori va sifati bilan belgilanadi, lekin unga talab va taklif, mavjud kon'yuktura, xududiy jihatlar, qonuniy xujjatlar kabi sof bozor omillari ham ta'sir qiladi. Masalan, AQSHda minimal ish haqi hamda vaqtbay stavkalar qonun bilan tartibga solinadi.

“Birgina 2010 yilda budget sohasi muassasalari xodimlarining ish haqi, pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar, tsipendiyalar miqdori 32 foizga, aholining umumiy pul daromadlari esa jon boshiga 1,3 barobar oshdi.”⁷⁵

Bozor sharoitida ish kuchi harakati kuchayadi. U bir qator omillarga bog'liq. Bozorda tovar nomenklaturasi va sifatiga yangi talablar paydo

⁷⁵ И. Каримов. “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз таракқиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади” – Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

bo'lishi sababli korxonalar faoliyati o'zgaradi; bir xillari yo'qoladi, boshqalari paydo bo'ladi. Muhim omil - migratsiya jarayonlaridir. Xodimning bitta jamoada va bitta ish joyida barqarorligi o'tmishda qolmokda: bozor sharoitida ishchi o'z qobliyatlarini tuliqroq namoyon qilish imkoniyati mavjud ish joyini izlaydi. Ammo salbiy jihatlar ham paydo bo'ladi, ya'ni ishonchsizlik va xavotirlanish hissi va nihoyat, eng muhimi ishsizlik imkoniyati.

Tadbirkor o'z faoliyatida ishlab chiqarshiga jalb etiladigan har bir xodimning haqqini to'laydi. U asbob, mashina, uskunalar, xom ashyoni xarid qiladi va ishlab chiqarishni boshlash uchun, ish kuchini yollaydi. Mehnat uchun to'lov - ish haqi hisoblanadi. Bir tomondan, ish haqi ishchining jismoniy va aqliy kuchlarini qoplashi lozim, boshqa tomondan - ishchi o'z ish haqini boshqa shunga o'xshash korxonada Shunday mehnat to'lovi bilan solishtirganda o'zini zarar ko'rgan deb his qolmasligi lozim. Lekin tadbirkorni tashqi xususiyatini bir qator omillar cheklaydi, ya'ni;

- davlat tomonidan belgilangan minimal ish haqi darajasi;
- tadbirkor va ishchilar jamoasi o'rtasidagi shartnoma shartlari;
- kasaba uyushmalari talablari.

Mamlakatimizni rivojlantirish, yangilash va modernizatsiya qilish bo'yicha tanlagan strategiyamizni va inqirozga qarshi qabul qilgan dasturimizni amalga oshirish natijasida yurtimiz dunyodagi sanoqli davlatlar qatorida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning barqaror sur'atlarini ta'minlash, aholimizning moddiy farovonligini yuksaltirishga erishgani barchamizga katta mamnuniyat va iftixor bag'ishlaydi, albatta.

I.Karimov (ma'ruzadan)

Ish haqi to'lovini tashkil etishda tadbirkor quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

- ishchilarga ish xaqi to'lash shakli va tizimini aniqlash;
- ishchilar, mutaxassislar, boshqaruvi xodimlari uchun lavozim okladlari tizimini ishlab chiqish;
- ishchilar va boshqaruv xodimlari uchun ko'shimcha to'lovlar miqdorlarini aniqlash va mezonlarni ishlab chiqish.

Tadbirkorlar u yoki bu ish xaqi shakli yoki tizimini tanlash borasida keng imkoniyatlarga ega, mukofot va rag'batlarni aniqlashda esa ular yanada kengayadi. Lekin rahbar san'ati mavjud vositalardan muayyan korxonada, bu korxonada ishlaydigan xodimlarga mos keladiganlarini tanlab olishdan iborat.

Ish haqi to'lash shakllari va tizimlari turli mulk shaklidagi korxonalarda ish haqi to'lovining ikki shakli keng tarqalgan: ishbay -har bir mahsulot birligi yoki bajarilgan ish xajmi uchun to'lov; va vaqtbay -

ishlagan vaqti uchun to'lov, bu vaqt tarif setkasida ko'zda tutilgan normativ bo'yicha aniqlanadi.

Ish haqi - har bir xodimning sarflagan mehnati miqdori va sifatiga mos ravishda taqsimlanuvchi va xodim tasarrufiga pul shaklida kelib tushuvchi milliy daromadning bir qismidir. Ish haqi-bu mehnat uchun mukofotdir.

Xodimlar mehnatiga haq to'lash ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilingan mehnat resurslarining bahosidir. Boshqacha qilib aytganda, ish haqi – bu, mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining korxonada xodimlari mehnatiga haq to'lash uchun sarflanuvchi qismidir.

Ish haqining *nominal* va *real* turlari mavjud.

Nominal ish haqi-bu xodimning ma'lum bir vaqt mobaynida bajargan mehnati uchun hisoblangan va to'langan ish haqidir.

Real ish haqi-nominal ish haqiga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdori; real ish haqi – bu, nominal ish haqining “iste'mol qobiliyati”dir.

Korxonalarda ish haqi sohasidagi siyosatni ishlab chiqish va uni tashkil etishda quyidagi tamoyillarni inobatga olish zarur:

*141 adolatlilik, ya'ni bir xil mehnat uchun bir xil haq to'lash;

*142 bajarilayotgan ishning murakkabligi va mehnat malakasi darajasini hisobga olish;

*143 mehnatning zararli sharoitlari va og'ir jismoniy mehnatni hisobga olish;

*144 sifatli, sidiqidildan mehnat qilishni rag'batlantirish, yo'l qo'yilgan yo'qotishlar yoki o'z majburiyatlariga mas'uliyatsiz yondashishni moddiy jazolash;

*145 mehnat unumdorligi sur'atini o'rtacha ish haqining o'sish sur'atlariga nisbatan tezroq o'stirish;

*146 ish haqi miqdorini Inflyatsiya sur'atlariga mos ravishda muvofiqlashtirish;

*147 mehnatga haq to'lashning korxonada ehtiyojlariga to'liq javob beruvchi ilg'or shakl va tizimlarini qo'llash.

“O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o'sishi 3,5 barobarni, aholi jon boshiga hisoblaganda esa 2,5 barobarni, aholining real daromadlari 3,8 barobarni tashkil etgani”⁷⁶ - e'tiborga sazovordir.

⁷⁶ И. А. Каримов. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” маърузаси// Халқ сўзи газетаси, 12.11.2010.

Zamonaviy sharoitlarda korxonalarda mehnatga haq to'lashning turli tizim va shakllari qo'llanilib, ulardan eng ko'p tarqalganlari sifatida ishbay va vaqtbay usulni ko'rsatish mumkin.

Mehnatga ishbay haq to'lash ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat) uchun to'lanadigan haqni anglatadi.

Korxonalarda ko'pincha faqat ishbay emas, balki ishbay-mukofotli haq to'lashdan foydalaniladi.

Mehnatga ishbay-mukofotli haq to'lashda ishchi bajargan ishiga haq olishdan tashqari, mukofotga ham ega bo'ladi. Mukofot asosan ma'lum bir ko'rsatkichlarga erishish - mahsulot ishlab chiqarish rejasini bajarish, mahsulot sifatini oshirish, xom ashyo va materiallarni tejash va Shu kabilar uchun beriladi.

Mehnatga vaqtbay haq to'lash tarif tizimida ko'zda tutiluvchi ishlab berilgan vaqt - kalendar vaqt emas, balki normativ vaqt uchun to'lanadigan haqni anglatadi.

Vaqtbay-mukofotli haq to'lashda ishchi ishlab bergan vaqtiga haq olishdan tashqari, ushbu ish haqiga ma'lum bir foiz hisobida mukofot ham oladi.

Mehnatga akkord haq to'lash tizimi mehnatga ishbay haq to'lashning bir turi bo'lib, uning mohiyatiga ko'ra, bunda bajarilishi kerak bo'lgan ishlarni muddatini ko'rsatgan holda baholash amalga oshiriladi.

Korxonada quyidagi hollarda akkord haq to'lash tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

*148 korxonada biron-bir buyurtmani o'z vaqtida bajara olmasa va buning uchun shartnomaga asosan yirik miqdorda jarima to'laydigan bo'lsa;

*149 korxonaning to'xtab qolishiga sabab bo'luvchi favqulodda vaziyatlar (yong'in, sel, zilzila, suv toshqini yoki jiddiy sabablarga ko'ra asosiy texnologik liniyalarning ishdan chiqish hollari) ro'y berganda;

*150 alohida ishlarni bajarishga o'ta zarurat tug'ilganda yoki korxonada yangi asbob-uskunalar ishga tushirilganda.

Ko'pchilik korxonalarda ish haqini hisoblash tarif tizimi, ayniqsa uning tarif stavkasi va tarif setkalari kabi elementlari asosida amalga oshiriladi.

Ishbay ish haqini qo'llash quyidagilarga olib kelsa, uni qo'llash tavsiya etilmaydi: ..

- mahsulot sifatining yomonlashishiga;
- texnologik rejim buzilishiga;
- uskunalarga xizmat ko'rsatishning yomonlashishiga;

- texnika xavfsizligi talablarining buzilishiga;
- xom-ashyo va materiallarning haddan tashqari ko'p sarflanishiga.

Vaqtbay ish haqini qo'llash shart-sharoitlari:

- mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish imkoniyatining yo'qligi;
- ishlab chiqarish jarayoni qat'iy reglamentlashtirilgan;
- ishchining vazifasi texnologik jarayonni nazorat qilishdan iborat;
- ishlab chiqarishni ko'paytirish mahsulot snfatining buzilishiga olib kelishi mumkin.

Har bir korxonada ishlab chiqariladigan mahsulot xususiyati u yoki bu texnologik jarayonlar mavjudligiga, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etish darajasiga bog'liq bo'lib, unda u yoki bu ish haqi shakli qo'llaniladi. Masalan, agar faqat ishbay mukofotlash yoki ishbay-progressiv bo'lishi mumkin, lekin agar akkordli tizimni ko'llasa, samaradorlik oshadi. Bitta korxonada tsexlar bo'yicha muayyan mahsulot turini ishlab chiqarishga bog'liq holda qo'llaniladigan ish qaqd variantlari turlicha bo'lishi mumkin.

Bevosita shdbay yoki oddiy ishbay tizimda mehnat ishlab chiqarayotgan mahsulot birligi uchun hisoblar bo'yicha to'lanadi. Mahsulot yoki ish birligi uchun individual ishbay rastsenka quyidagicha **Ii.h** - aniqlanadi:

$$\mathbf{Ii.h = Ic / Ms, yoki Is / tm}$$

Bu erda: **Is** - bajariladigan ish razryadiga muvofiq belgilanadigan soatbay tarif stavkasi, so'm/soat;

Ms - bu mahsulotni ishlab chiqarishning soatbay normasi;

tm - mahsulot (ish) birligi uchun vaqt me'yori, soat.

Ishchining umumiy ish haqi miqdori ishbay rastsenkani hisob davrida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

Bilvosita ishbay tizimda ishchining ish haqi u xizmat kursatadigan ishchilarga bevosita bog'liq. Bu tizim asosiy ishchilar uchun emas, balki yordamchi ishchilar uchun ko'llaniladi.

Bilvosita ishbay rastsenka **Ib** quyidagicha aniqlanadi:

$$\mathbf{Ib.b = Ic / MsxI}$$

bu erda:

Is - bilvosita ishbay tizim bo'yicha ish haqi oladigan ishchining tarifi soatbay stavkasi, so'm;

Ms - mahsulot birligida xizmat ko'rsatayotgan bitta ishchining soatbay ishlab chiqarish normasi;

I - xizmat ko'rsatilayotgan ishchilar soni xizmat ko'rsatish normasi.

Ishbay-progressiv tizimda ishchining mehnati bezosita ishbay rastsenkalar bo'yicha me'yorlarni bajarish doirasida, me'yordan ortiq ishlab chiqarishda esa oshirilgan rastsenkalar bo'yicha to'landi.

Ishbay progressiv ish haqida ishchining ish haqi, qabul qilingan progressiv to'lov tizimiga bog'liq holda, quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$I_{pi.h} = I_{a.s} + (I_{a.s}(J_n - J_{baz.daraja})] \Delta K / J_m$$

Bu erda: $I_{pi.h}$ - bevosita ishbay rastsenkalar bo'yicha hisoblangan asosiy ish haqi summasi, so'm;

$I_{a.s}$ - progressiv tizim bo'yicha to'lanadigan ish (mahsulot) qismi uchun bevosita ishbay rastsenkalar bo'yicha hisoblangan ishbay ish haqi summasi, so'm;

J_m - ishchi tomonidan ishlab chiqarish me'yorlarning bajarilishi, %;

$J_{baz.daraja}$ - oshirilgan rastsenkalar bo'yicha to'lovlar qo'llaniladigan ishlab chiqarish me'yorlarini asos darajasi, %;

ΔK - mahsulot ishlab chiqarish uchun ishbay rastsenka belgilangan me'yorga nisbatan qanchalik oshishni ko'rsatadigan koeffitsient;

Ishbay progressiv ish haqi to'lovi qo'llanilganda me'yoriy boshlang'ich asosga, rastsenkalarini oshirish shkalalar samaradorligini oshirishga, mahsulotni ishlab chiqarish va haqiqiy ishlangan vaqtning hisobini olishga katta e'tibor berish kerak.

Tarif stavkasi—turli guruh va kategoriyadagi ishchilarning vaqt birligidagi mehnati uchun to'lanuvchi haqning mutlaq (absolyut) o'lchamidir. Minimal tarif stavkasi yoki birinchi razryadli stavka boshlang'ich hisoblanadi. U eng oddiy mehnat turiga to'lanuvchi haq darajasini belgilab beradi.

Tarif setkalari mehnatga haq to'lashdagi mutanosibliklarni malaka darajasini hisobga olgan holda, belgilash uchun xizmat qiladi. U tarif razryadlari va ularga mos keluvchi tarif koeffitsientlari yig'indisini ifodalaydi. Tarif koeffitsientining eng past razryadi birga teng deb olinadi. Undan keyingi tarif razryadlari mos keluvchi tarif stavkalari birinchi razryadli tarif stavkasidan necha marta katta bo'lishini ko'rsatadi.

Kadrlar, mehnat unumdorligi va ish haqi o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan tushunchalar hisoblanadi. Har bir korxonada mehnat va ish haqi bo'yicha reja tuzilib, uning maqsadlari ishchi kuchidan foydalanishni yaxshilash zahiralarni topish va bu asosda mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Bu rejalarga ko'ra mehnat unumdorligining o'sish sur'ati o'rtacha ish haqi suratlaridan tezroq o'sishi lozim.

Tarif setkalari malaka darajasiga bog'liq holda ish haqidagi nisbatlarni belgilash uchun xizmat qiladi. Bu tarif razryadlari va ularga mos tarif koeffitsientlari yig'indisidir. Quyi razryadli tarif koeffitsienti birga teng qilib qabul qilinadi. Keyingi razryadlarning tarif koeffitsientlari mos tarif stavkalari birinchi razryadli tarif stavkasidan nisbatan necha marta ko'pligini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va ijtimoiy nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida" 2009 yil 8 iyuldagi PF-4119-son Farmonini bajarish yuzasidan hamda ish haqining rag'batlantiruvchi ahamiyatini Yanada kuchaytirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi, boshlang'ich razryadning eng kam oylik ish haqi miqdorida belgilangan tarif stavkasi Mehnatga haq to'lashning yagona tarif setkasini asos qilib olish va yangi tarif koeffitsientlarini quyidagi jadvalga binoan tasdiqladi:

**Mehnatga haq to'lashning yagona tarif
SETKASI**

Mehnatga haq to'lash razryadlari	Tarif koeffitsientlari
0	1,000
1	2,476
2	2,725
3	2,998
4	3,297
5	3,612
6	3,941
7	4,284
8	4,640
9	4,997
10	5,362
11	5,733
12	6,115
13	6,503
14	6,893
15	7,292
16	7,697
17	8,106
18	8,522
19	8,943

20	9,371
21	9,804
22	10,240

Yuqorida keltirilgan mehnatga haq to'lashning yagona tarif setkasi nodavlat sektoridagi korxonalar uchun tavsiyaviy xarakterga ega. Amalda nodavlat korxonalaridagi ishchi-xizmatchilarni mehnatiga haq to'lashni asoslash, to'g'ry yo'lga ko'yish, ish hakrni rag'batlantiruvchi omilga aylantirish maqsadida o'zlari mustaqdl ravishda mavjud imkoniyaglardan kelib chiqib mehnatga haq to'lashning yagona tarif setkasini ishlab chiqadilar.

Biz mazkur dasturni amalga oshirish vazifasini o'z oldimizga qo'yar ekanmiz, bu bilan mamlakatimiz uchun dolzarb bo'lgan aholi bandligini ta'minlash, shu tariqa odamlarning daromadini yanada oshirish va hayot sifatini yuksaltirish masalalarini hal etishni ko'zda tutamiz.

I.Karimov (ma'ruzadan)

Tarif va okladlar bo'yicha ish qaqd to'lash sharoitida tenglavlirishdan voz kechish, aloxida ishchi va barcha jamoa manfaatlari o'rtasidagi ziddiyatni bartaraf etish murakkabdir. Mehnatni rag'batlantirish va tashkil etishni

mukammallashtirishning varianti hisoblangan tarifsiz ish haqi tizimini ko'rib chiqamiz. Bozor iqtisodiga o'tish sharoitida bu tizim ko'pgina korxonalarda qo'llaniladi. Mazkur tizim bo'yicha direktordan ishchiga barcha xodimlar ish haqi ish haqi fondi (IXF)da ishchi ulushini ifodalaydi.

“Bizning Yaqin istiqboldagi eng muhim vazifamiz boshlagan ishlarimizni izchil davom ettirish – iste'mol talabini kengaytirish maqsadida sostial sohani rivojlantirish, mehnatga haq to'lashni yanada oshirish, xizmat ko'rsatish sektorini, infratuzilma obektlarini rivojlantirishga, transport va kommunikastiya loyihalari amalga oshirilishiga alohida e'tibor berishdir.”⁷⁷

Bu sharoitlarda har bir ishchining haqiqiy ish haqi bir qator omillarga bog'liq;

- ishchining malaka darajasi;
- mehnatda ishtirok etish koeffitsienti (MIK);
- haqiqiy ishlangan vaqt.

⁷⁷ И. А. Каримов. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” маърузаси// Халқ сўзи газетаси, 12.11.2010.

Mehnatga ishtirok etish darajasi korxonadagi barcha ishchilarga, Shu jumladan direktorga qam belgilaydi. Raxbariyat va mehnat jamoasi ko'mitasi tamonidan tasdiqlanadi.

Qisqacha xulosalar

Kadrlar siyosatiga ko'p narsa, birinchi o'rinda ishchi kuchidan qanchalik unumli foydalanish va korxonada faoliyatining samaradorligini ta'minlash bog'liq bo'ladi.

Korxonada kadrlar ishchi, xizmatchi, mutaxassis va rahbarlarga bo'linadi. Rahbarlarga afzallikni berish lozim. Tadqiqotlar va amaliyot tajribalari shuni ko'rsatadiki, korxonada faoliyatining samaradorligi 70-80 % ga korxonada rahbariga bog'liq bo'ladi.

Bozor munosabatlariga o'tish bilan korxonalar mehnatga haq to'lash sohasida katta mustaqillikka erishdilar. Tahlillar natijasida shu narsa ma'lumki, bu davrga kelib korxonalar ko'proq vaqtbay-mukofotli va tarifsiz haq to'lash, shuningdek, shartnoma asosida haq to'lashdan foydalana boshladilar.

Kadrlar, mehnat unumdorligi va ish haqi o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan tushunchalar hisoblanadi. Har bir korxonada mehnat va ish haqi bo'yicha reja tuzilib, uning maqsadlari ishchi kuchidan foydalanishni yaxshilash zahiralarini topish va shu asosda mehnat mahsulдорligini oshirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Bu rejalarga ko'ra, mehnat unumdorligining o'sish sur'ati o'rtacha ish haqi sur'atlaridan tezroq o'sishi lozim.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Bozor munosabatlari sharoitlarida korxonaning kadrlar siyosatini qay tarzda tasavvur qilasiz?
2. Kadrlar tuzilmasi deganda nima tushuniladi va uni belgilab beruvchi omillar qanday?
3. Real ish haqi nominal ish haqidan nimasi bilan farq qiladi?
4. Mehnatga haq to'lashning qanday tizim va shakllarini bilasiz?
5. qaysi hollarda vaqtbay va ishbay haq to'lashdan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi?
6. Nima sababli korxonada mehnat unumdorligi sur'atlari o'rtacha ish haqi sur'atlaridan ortiq bo'lishi lozim?
7. Mehnat unumdorligi nima? Korxonada mehnat unumdorligining o'sish qanday ahamiyati kasb etadi?

8. Korxonada mehnat unumdorligini aniqlashning qanday usularini bilasiz?
9. Mehnat unumdorligi va ish haqini rejalashtirish mohiyati nimada?

10-bob. Korxonaning ishlab chiqarish faoliyati, xarajatlari, foydasi rentabelligi

10.1. Xarajatlar tug'risida tushuncha, tarkibi va ularning tasnifi

10.2. Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar. Foyda va uni shakllantirish manbalari, taksimlash tartibi

10.3. Korxonada sof foydasi, taqsimlash tartibi va uni oshirish yo'llari

10.4. Rentabellikning iqtisodiy mazmuni va ko'rsatkichlari. yalpi foyda o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar hisob-kitobi

Tayanch iboralar. Moddiy xarajatlar, mehnat xarajatlari, moliyaviy xarajatlar, ishlab chiqarish tannarxi, ijtimoiy sug'urta ajratmalari, asosiy fondlar amortizatsiyasi, ijtimoiy ehtiyojlarga mo'ljallangan xarajatlar, xorijiy valyutadagi xarajatlar, foyda, foydaning manbalari, foydani taqsimlash tamoyillari, rentabellik, aktivlar rentabelligi, sotish rentabelligi, xususiy kapital rentabelligi.

10.1. Xarajatlar tushunchasi va uning tasniflanishi

Ishlab chiqarish korxonalarining faoliyati moddiy va mehnat xarajatlari bilan bog'liq. Xarajatlarning asosiy hissasi mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'ladi. Ishlab chiqarishning jami xarajatlari mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini tashkil etadi va unga qarab ishlab chiqarilayotgan mahsulot korxonaga qanchaga tushayotganini aniqlash mumkin.

Ishlab chiqarish korxonalarining mahsulotlarni sotish bilan bog'liq xarajatlarni ham amalga oshirishadi. Bunday xarajatlar ishlab chiqarishdan tashqari yoki tijorat xarajatlari ham deyiladi.

Korxonalar faoliyat yuritish jarayonida moddiy va pul xarajatlarni sarflaydilar. Korxonaning umumiy xarajatlari ichida ishlab chiqarish xarajatlari eng katta salmoqqa ega. Ishlab chiqarish xarajatlari majmuasi korxonaga mahsulot ishlab chiqarish qanchaga tushishini ko'rsatadi, ya'ni mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini tashkil qiladi.

Korxonalar, Shuningdek, mahsulotni sotish bo'yicha xarajatlarni, ya'ni ishlab chiqarishdan tashqari yoki tijorat (tashish, qadoqlash, saqlash, reklama qilish va hokazo) xarajatlarni ham amalga oshiradilar

Prezidentimizning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari» nomli asarida mazkur dasturda belgilangan quyidagi kompleks chora-tadbirlar ko'rsatib o'tilgan edi:

1) korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish;

2) joriy kon'yunktura keskin yomonlashib borayotgan hozirgi sharoitda eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarining tashqi bozorlarda raqobatdosh bo'lishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha konkret chora-tadbirlarni amalga oshirish va eksportni rag'batlantirish uchun qo'shimcha omillar yaratish;

3) elektroenergetika tizimini modernizatsiya qilish, energiya iste'molini kamaytirish va energiya tejashning samarali tizimini joriy etish choralarini amalga oshirish;

4) jahon bozorida talab pasayib borayotgan bir sharoitda, ichki bozorda talabni rag'batlantirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash⁷⁸.

Mahsulot (ish, xizmat) tannarxini tashkil qiluvchi xarajatlar iqtisodiy mazmuniga ko'ra, quyidagi elementlarga asosan guruhlariga taqsimlanadi:

*151 moddiy xarajatlar;

*152 asosiy fondlar amortizatsiyasi;

*153 mehnatga haq to'lash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar;

*154 ijtimoiy ehtiyojlarga mo'ljallangan xarajatlar;

*155 boshqa xarajatlar.

Moddiy xarajatlar ishlab chiqarish xarajatlarning eng katta qismi bo'lib, umumiy xarajatlarning 60 - 80 foizini tashkil qilishi mumkin.

Moddiy xarajatlar o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

*156 xom ashyo va materiallar xarajatlari;

*157 texnologik maqsadlar va xo'jalik ehtiyojlari uchun sarflanuvchi yoqilg'i va energiya;

• xarid qilinuvchi butlovchi qismlar va yarim tayyor mahsulotlar;

• sotib olingan qadoqlash va o'rov materiallari xarajatlari;

*158 mashina va asbob-uskunalarni ta'mirlash uchun ehtiyot qismlar;

• boshqa korxonalar va tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan ishlab chiqarish xizmatlari;

⁷⁸ И.Каримов. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқироzi, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишининг йўллари ва чоралари. – Т.: Ўзбекистон, 2009. 31-34-б.

• xizmat davri bir yilgacha bo'lgan kichik qiymatli va tez eskiruvchi predmetlarning eskirishi yoki har bir instrument, inventar, laboratoriya uskunalari va maxsus kiyim-bosh uchun eng kam oylik ish haqining 50 baravar miqdorigacha qiymati;

*159 tabiiy xom ashyodan foydalanish bilan bog'liq soliq, yig'im va boshqa to'lovlar;

*160 ishlab chiqarishda bekor turib qolish va sifatsizlik (brak) tufayli yuzaga keladigan yo'qotishlar;

*161 tabiiy yo'qotishlar bilan bog'liq bo'lgan yoki aybdor shaxslar mavjud bo'lmagan holda yuzaga keladigan yo'qotishlar.

Amortizatsiya ajratmalari miqdoriga teng bo'lgan asosiy ishlab chiqarish fondlarining eskirishi xarajatlarning yirik elementlaridan biri hisoblanadi. Bular qatoriga asosiy fondlarning tezlashgan amortizatsiyasi va uning indeksatsiyasini kiritish mumkin.

Mehnatga haq to'lash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar-korxonaning asosiy ishlab chiqarish personalini mehnatiga haq to'lashga sarflanadigan xarajatlar bo'lib, ishlab chiqarishdagi yuqori natijalar uchun mukofotlar, rag'batlantiruvchi va kompensatsiya to'lovlari, jumladan, qonunchilikda belgilangan normativlar chegarasida narxlarning o'sishi va indeksatsiya uchun to'lovlar, shuningdek, korxonada xodimlari shtatida bo'lmagan, lekin asosiy ishlab chiqarishda band bo'lgan ishchilar uchun to'lanuvchi haqni o'z ichiga oladi.

Mazkur xarajatlar elementlari qatoriga quyidagilar kiritilgan:

*162 amalda bajarilgan ish uchun tarif stavkalari, lavozim maoshlari va Shu kabilar asosida to'lanuvchi ish haqi;

*163 xodimlarga natural to'lov shaklida beriluvchi mahsulotlar qiymati;

*164 ishlab chiqarishdagi yuqori natijalar uchun beriluvchi mukofot va boshqa to'lovlar;

*165 qonunchilikka asosan ba'zi tarmoqlardagi xodimlarga bepul beriluvchi kiyim-kechak, oziq-ovqat, uy-joy, kommunal xizmat va hokazolar qiymati;

*166 har yillik mehnat va o'quv ta'tili uchun amalga oshiriluvchi to'lovlar;

*167 korxonani qayta tashkil qilish, shtatlar qisqarishi tufayli ishdan bo'shatilgan xodimlarga to'lanuvchi mablag'lar.

“Mamlakatimiz iqtisodiyotidagi ijobiy ko'rsatkichlar va noxush tendentsiyalarni nafaqat qayd etish, balki iqtisodiyotimizning rivojini

belgilab beradigan sabab va omillarni chuqur va xolisona tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.”⁷⁹

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq korxonalarining xarajatlari quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar;
- ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan, biroq asosiy faoliyatda olingan foydada hisobga olinadigan hamda davr xarajatlariga kiritiladigan xarajatlar;
- korxonada umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda yoki zararlarni hisoblab chiqishda hisobga olinadigan korxonaning moliyaviy faoliyati bo'yicha xarajatlari;
- favqulodda zararlar.

Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar.

Mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar ularning iqtisodiy mazmuniga ko'ra quyidagi elementlar bilan guruhlariga ajratiladi:

- ishlab chiqarish moddiy xarajatlari (qaytariladigan chiqitlar qiymati chiqarib tashlangan holda);
- ishlab chiqarish xususiyatlari ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari;
- ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urta ajratmalari;
- asosiy fondlar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
- ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar. Mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish xarajatlarining eng yirik elementi - moddiy xarajatlardir. Mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish tannarxi

Qat'iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag'batlantirish hisobidan korxonalarining raqobatdoshligini oshirishga erishish lozim.

I.Karimov (ma'ruzadan)

⁷⁹ И. Каримов. “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади” – 2010 йилнинг асосий яқунлари ва 2011 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

tarkibida ularning hissasi 60-90 foizni tashkil etishi mumkin.

Ishlab chiqarish bilan bog'liq moddiy xarajatlarga quyidagilar tegishli bo'ladi:

- mahsulot tayyorlashda (ishlarni bajarishda, xizmatlar ko'rsatishda) zarur tarkibiy qism hisoblangan chetdan sotib olinadigan xom ashyo va materiallar;

- normal texnologiya jarayoniga ta'minlash va mahsulotlarni o'rash, mahsulot (ish, xizmat)lar yoki boshqa ishlab chiqarish ehtiyojlariga sarflanadigan (asbob-uskunalar, binolar, inshootlar va boshqa asosiy vositalar sinovini o'tkazish, nazorat qilish, saqlash, tuzatish Shulardan foydalanish uchun) materiallar, shuningdek asbob-uskunalarni tuzatish uchun ehtiyot qismlar, instrumentlar, moslamalar, inventar, priborlar, laboratoriya asbob-uskunalari va asosiy fondlarga kirmaydigan boshqa mehnat vositalarining eskirishi, maxsus kiyim - bosh va boshqa arzon baho ashyolarning eskirishi;

- sotib olinadigan, kelgusida ushbu korxonada montaj qilinadigan yoki qushimcha ishlov beriladigan butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar;

- tashqi yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek korxonaning ichki tarkibiy bo'linmalari tomonidan bajariladigan faoliyatning asosiy turiga tegishli bo'lmagan ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan ishlar va xizmatlar;

- tabiiy xom ashyo (er rekultivatsiyasiga ajratmalar, ixtisoslashtirilgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan-erni rekultivatsiya qilish ishlariga haq to'lash), ildizi bilan beriladigan daraxtga haq to'lash, sanoat korxonalarini tomonidan suv xo'jaligi tizimida belgilangan limitlar doirasida va undan ortiq olinadigan suv uchun haq to'lash. Sanoatning xom ashyo tarmoqlari uchun yog'och taxta materiallardan yoki foydali qazilmalardan (rudadan) foydalanishga huquqlarning amortizatsiya qilinadigan qiymati yoki atrof-muhitni tiklash xarajatlari;

- texnologik maqsadlarga, energiyani barcha turlarini ishlab chiqarishga. binolarni isitishga sarflanadigan yonilg'ining chetdan sotib olinadigan barcha turlari, korxonaning transporti tomonidan bajariladigan ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish bo'yicha transport ishlari;

- korxonaning texnologik, transport va boshqa ishlab chiqarish va xo'jalik ehtiyojlariga sarflanadigan barcha turdagi xarid qilinadigan energiya;

- ishlab chiqarish sohasida moddiy boyliklarning tabiiy yo'qolish

normalari doirasida va ulardan ortiqcha yo'qotilishi, Yaroqsizlanishi va kam chiqishi;

- korxonaning transporti va xodimlari tomonidan moddiy resurslarni etkazish bilan bog'liq xarajatlar (yuklash va tushirish ishlari ham shu jumlagi kiradi) ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli elementlariga kirishi kerak (mehnatga haq to'lash xarajatlari, asosiy fondlar amortizatsiyasi, moddiy xarajatlar va boshqalar).

Korxonalar tomonidan moddiy resurslari etkazib beruvchilardan olinadigan idishlar ham moddiy resurslar qiymatiga kiritiladi.

Mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy resurslar xarajatlaridan qaytariladigan chiqitlar qiymati hamda idish va o'rash-joylash materiallari qiymati, ularning amalda sotilishi, foydalanishi yoki omborga kiritilishi narxi bo'yicha chiqarib tashlanadi.

"Moddiy xarajatlar" elementlari bo'yicha aks ettiriladigan moddiy resurslar qiymati sotib olish narxidan, shu jumladan barter bitishuvlarida, ko'shimcha narx (ustama)dan, ta'minot, tashqi iqtisodiy tashkilotlar tomonidan to'lanadigan vositachilik taqdirlashlaridan, tovar birjalari xizmatlari qiymatidan, shu jumladan brokerlik xizmatlaridan, bojlar -va yig'implardan, transportda tashishga haq to'lashdan, tashqi yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan saqlash va etkazib berishga haq to'lashdan kelib chiqib shakllanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlariniyag yirik elementlariga asosiy ishlab chiqarish fondlarining eskirishidir. Qaysikim, u amortizatsiya ajratmalari summasiga tengdir. Unga asosiy fondlarning tezlashtirilgan amortizatsiyasi va uning indeksatsiyasi ham kiradi.

Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari - bu korxonaning asosiy ishlab chiqarish xodimlariga mehnat haqi to'lash bilan bog'liq xarajatlardir. Ularga quyidagilar kiradi:

- korxonada qabul qilingan mehnatga haq to'lash shakllari va tizimlariga muvofiq ishbay rastsenkalar, tarif stavkalari va lavozim maoshlaridan kelib chiqib, amalda bajarilgan ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan ish uchun hisoblangan ish haqi, Shu jumladan bajarilgan ishni hisobga olish bo'yicha dastlabki hujjatlarda nazarda tutilgan rag'batlangiruvchi tusdagi to'lovlar;

- kasb mahorati va murabbiylik uchun tarif stavkalariga va okladlariga ustamalar;

- ish rejimi va mehnat sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan kompensatsiya tusidagi to'lovlar (texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan tungi vaqtda, ishdan tashqari vaqtda, dam olish va bayram kunlari

ishlaganlik uchun tarif stavkalari va okladlariga ustamalar va qo'shimcha haq, ko'p smenali rejimda ishlaganlik, kasblarni birga ko'shib olib borganlik va xizmat ko'rsatish zonalarini kengaytirganlik uchun ustamalar, hukumat tomonidan tasdiqlangan kasblar va ishlar ro'yxati bo'yicha og'ir, zararli, alohida zararli mehnat va tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, Shu jumladan ushbu sharoitlardagi uzluksiz ish staji uchun ustamalar va h.k.);

- ishlanmagan vaqt uchun to'lov (foydalanilmagan va qo'shimcha ta'tillar uchun kompensatsiyalar, o'smirlarning imtiyozli soatlari, bolani ovqatlantirish uchun onalar ishida tanaffuslar, shuningdek tibbiy ko'riklardan o'tish bilan bog'liq vaqt uchun haq to'lash, harbiy yig'inlar, favqulodda vaziyatlar bo'yicha yig'inlar va boshqalar uchun mehnat haqi to'lash va h.k.);

- korxonada shtatida turmaydigan xodimlar mehnatiga, ular tomonidan fuqarolik-huquqiy tusdagi tuzilgan shartnomalar bo'yicha ishlar bajarilganligi uchun haq to'lash, agar bajarilgan ish uchun xodimlar bilan hisob-kitob korxonaning o'zi tomonidan amalga oshirilsa, pudrat shartnomasi ham shu jumlagi kiradi;

- belgilangan tartibga muvofiq ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi xodimlar mehnatiga haq to'lash fondiga kiritiladigan to'lovlarning boshqa turlari.

Korxonlarning ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalari - bu ijtimoiy fondlarga (Pensiya fondiga, aholini ish bilan ta'minlashga ko'maklashish fondiga, Kasaba uyushmalari Federatsiyasi kengashiga) majburiy ajratmalardir.

Korxonalarining ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatdariga quyidagilar tegishli:

- ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatish xarajatlari (ishlab chiqarishni xom ashyo, materiallar, yonilg'i, energiya instrument, moslamalar va boshqa mehnat vositalari va buyumlari bilan ta'minlash xarajatlari; asosiy ishlab chiqarish fondlarini ish holatida saqlash xarajatlari; yong'indan saqlash va qo'riqlashni hamda korxonaning texnikaviy foydalanish qoidalari bilan nazarda tutilgan boshqa maxsus talablarni ta'minlash, ular faoliyatini nazorat qilish xarajatlari; ishlab chiqarish faoliyatiga tegishli bo'lgan asosiy vositalarni joriy ijaraga olish bilan bog'liq xarajatlar; tekin ko'rsatiladigai kommunal xizmatlar, oziq-ovqat, ayrim tarmoqlar xodimlariga oziq-ovhatlar qiymati, korxonada xodimlariga beriladigan tekin uy-joy haqini to'lash xarajatlari; amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tekin beriladigan va shaxsiy

foydalanishda qoladigan buyumlar qiymati va boshqalar);

- ishlab chiqarish xodimlarining belgilangan ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo'lgan xizmat safarlariga yuborish bo'yicha normalar doirasida va ulardan ortiqcha xarajatlar;

- ishlab chiqarish ishchilarini va ishlab chiqarish aktivlarini majburiy sug'urta qilish xarajatlari;

- brak tufayli kelib chiqadigan yo'qotishlar;

- ishlab chiqarishning ichki sabablariga ko'ra bekor turishlar tufayli yo'qotishlar;

- kafolatli xizmat muddati belgilangan buyumlarni kafolatli tuzatish va ularga kafolatli xizmat ko'rsatish xarajatlari;

- mahsulot (xizmat)larning majburiy sertifikatsiya qilish xarajatlari;

- ishlab chiqarish jarohatlari tufayli mehnat qobiliyati yo'qolishi munosabati bilan tegishli vakolatli organlarning qarorlari asosida va qarorlarsiz to'lanadigan nafaqalar;

- umumiy foydalaniladigan yo'lovchilar transporti xizmat ko'rsatmaydigan yo'nalishlarda xodimlarni ish joyiga olib borish va olib kelish bilan bog'liq xarajatlar.

Davr xarajatlari

Davr xarajatlari deganda bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar va sarflar tushniladi: boshqaruv xarajatlari, mahsulotni sotish xarajatlari va umumxo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar.

Korxonalarining sotish xarajatlariga kuyidagilar kiradi:

- tovarlarni temir yo'l, havo, avtomobil, dengiz, daryo transportida va ot-ulovda tashish xarajatlari hamda transport vositalari bekor to'rib qolganligi uchun to'langan jarimalar;

- savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari ishlari xarajatlari (mehnatga haq to'lash xarajatlari; ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar; savdo reklamasi xarajatlari; tovarlarni saklash, ularga ishlov berish va ularni navlarga ajratish xarajatlari; tashish saqlash va sotish chog'ida tovarlarning norma doirasida va undan ortiqcha yo'qotilishi; o'rash-joylash materiallari xarajatlari; mol-mulkni majburiy sug'urta qilish xarajatlari va boshqalar);

- sotish bozorlarini o'rganish bo'yicha belgilangan normativlar doirasida va undan ortiqcha xarajatlar (marketinga, reklamaga sarflangan xarajatlar);

- Yuqorida sanab o'tilmagan sotish bo'yicha boshqa xarajatlar.

Boshqaruv (ma'muriy) xarajatlar

Korxonalarda boshqaruv xarajatlariga quyidagilar kiradi:

- boshqaruv xodimlariga tegishli bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari;
- boshqaruv xodimlariga tegishli bo'lgai ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;
- xizmat engil avtotransportiga va xizmat mikroavbustini saqlash, yollash va ijaraga olish xarajatlari;
- korxonani va uning tarkibiy bo'linmalarini tashkil etish va ularni boshqarish xarajatlari;
- boshqaruvning texnik vositalari, aloqa uzellari, signalizatsiya vositalari, hisoblash markazlarini va ishlab chiqarishga tegishli bo'lmagan boshqaruvning boshqa texnik vositalarini saqlash va ularga xizmat ko'rsatish xarajatlari;
- ijara, xizmatlar ko'rsatilganligi uchun aloqa uzellariga haq to'lash (ATS, uyali, yo'ldosh, peyjing aloqa);
- shaharlararo va xalqaro telefon so'zlashuvlari uchun belgilangan normativlar doirasida va ulardan ortiqcha haq to'lash;
- ma'muriy - boshqaruv ehgiyojlari uchun binolar va xonalar ijarasi uchun haq to'lash;
- ma'muriy faoliyatga ega bo'lgan asosiy fondlarni saqlash va ularni tuzatish, Shuningdek eskirish (amortizatsiya) xarajatlari;
- yuqori tashkilotlar va yuridik shaxs maqomiga ega birlashmalar, vazirliklar, idoralar, uyushmalar, kontsernlar va boshqalar xarajatlariga ajratmalar;
- xodimlarni va ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan mol-mulknini majburiy sug'urta qilish;
- boshqaruv xodimlarini xizmat safarlariga yuborish bo'yicha belgilangan normalar doirasida va undan ortiqcha xarajatlari;
- belgilangan normalar doirasida va undan ortiqcha miqdordagi xarajatlari;
- umumiy ovqatlanish korxonalarini va boshqalarga binolarni tekin berish va kommunal xizmatlar qiymatiga haq to'lash xarajatlari;
- bevosita ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo'lmagan, tabiatni muhofaza qilish ahamiyatiga ega bo'lgan jamg'armalarni saqlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq joriy xarajatlari, Shu jumladan yo'l qo'yiladigan normalar doirasida va ulardan ortiqcha ifloslantiruvchi moddalarning atrof-muhitga chiqarilganligi (tashlanganligi) uchun to'lovlar.

Umumxo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa operatsiya

xarajatlari

Korxonalarining boshqa operatsiya xarajatlari quyidagilardan iborat:

- kadrlar tayyorlash va ularni qayta tayyorlash xarajatlari (yangi tashkil etilayotgan korxonada ishlash uchun normalar doirasida va ulardan ortiqcha kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash bundan mustasno);

- loyiha va qurilish-montaj ishlarida chala ishlarni bartaraf etish xarajatlarini qoplash, shuningdek ob'ekt qoshidagi omborgacha transportda tashish chog'idagi shikastlanishlar va buzilishlar, korroziyaga qarshi himoya nuqsonlari tufayli kelib chiqqan taftish xarajatlari (asbob-uskunalarni qismlarga ajratish) va shunga o'xshash boshqa xarajatlar etkazib beruvchi va ishlarni bajarish shartlarini buzgan yuridik shaxslar hisobiga mazkur xarajatlar chala ishlar shikastlanish yoki zarar ko'rish uchun javobgar bo'lgan etkazib beruvchi yoki boshqa korxonalar hisobiga undirilishi mumkin bo'lmagan darajada amalga oshiriladi;

- maslahat va axborot xizmatlariga haq to'lash, shu jumladan korxonalar mulkdorlaridan birining tashabbusi bo'yicha o'tkaziladigan auditorlik xizmatlariga haq to'lash;

- o'zining xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarishlari va xo'jaliklarni saqlashdan ko'rilgan zararlar;

- salomatlikni muhofaza qilish va xodimlarning ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashuvi bilan bog'liq bo'lmagan dam olishlarni tashkil etish tadbirlari;

- korxonalar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan ishlar va xizmatlarni (shahar va shaharchalarni obodonlashtirish ishlari, qishloq xo'jaligiga yordam berish va boshqa xil shplarni) bajarish xarajatlari;

- kompensatsiya va rag'batlantirish tusidaga to'lovlar (vaqtincha mehnat layoqatini yo'qotgan takdirda qonun hujjatlari bilan belgilangan, haqiqiy ish haqi miqdorigacha qo'shimcha haq va boshqalar);

- ish haqini hisoblashda hisobga olinmaydigan to'lovlar va xarajatlar (qonunchilikka muvofiq bolani ikki yoshga to'lgungacha parvarish qilish bo'yicha har oylik nafaqani to'lash bo'yicha xarajatlar; pensiyaga ustamalar; pensiyaga chiqayotgan mehnat faxriylariga bir yo'la to'lanadigan nafaqalar; xodimlarga to'lanadigan moddiy yordam);

- sog'liqni saqlash ob'ektlari, qariyalar va nogironlar uylari, bolalar maktabgacha tarbiya muassasalari, sog'lomlashtirish lagerlari, madaniyat va sport ob'ektlari, xalq ta'limi muassasalari, shuningdek uy-joy fondi ob'ektlari ta'minotiga (shu jumladan barcha turdagi ta'mirlash ishlarini

o'tkazishga amortizatsiya ajratmalari va xarajatlarni ham qo'shgan holda) joylardagi davlat hokimiyati organlari tomonidan belgilangan normativlar doirasidagi va ulardan ko'proq xarajatlar;

- vaqtincha to'xtatib ko'yilgan ishlab chiqarish quvvatlari va ob'ektlarning saqlash xarajatlari (boshqa manbalardan qoplanadigan xarajatlardan tashqari);

- bank va depozitariy xizmatlariga to'lovlar;

- ekologiya, sog'lomlashtirish va boshqa xayriya jamg'armalariga, madaniyat, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, jismoniy tarbiya va sport korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga badallar;

- byudjetga majburiy to'lovlar, soliqlar, yig'imlar, amaldagi qonunchilikka muvofiq to'lanadigan va korxonalar xarajatlariga ko'shiladigan maxsus byudjetdan tashqari jamg'armalarga ajratmalar;

- zararlar, jarimalar, penyalari (bekor qilingan ishlab chiqarish buyurtmalari bo'yicha yo'qotishlar; moddiy boyliklarning tabiiy yo'qolishi normalari doirasidagi va normalardan ko'proq, bevosita ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo'lmagan yo'qotishlar hamda kamomadlar; sud xarajatlari; to'lanishi shubhali qarzlari bo'yicha zahiraga ajratmalar va boshqalar);

- boshqa operatsiya xarajatlari.

10.2. Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar. Foyda va uni shakllantirish manbalari, taksimlash tartibi

“Jahon miqyosida globallashtirish va raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi zamonda biz dunyoda yuz berayotgan tub o'zgarishlar jarayonida egallab turgan o'rnimizni xolisona va tanqidiy baholashimiz, tobora oshib borayotgan hayot talablariga javob berishimiz, kechayotgan davr bilan hamqadam bo'lishimiz shart.”⁸⁰

Korxonalarining moliyaviy faoliyati bilan bog'liq xarajatlarga quyidagilar kiradi:

- Respublika Markaziy banki tomonidan belgilangan hisob stavkalari doirasida va ulardan yuqori doirada qisqa muddatli hamda uzoq muddatli kreditlar bo'yicha, shu jumladan to'lov muddati o'tgan va uzaytirilgan

⁸⁰ И. А. Каримов. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” маърузаси// Халқ сўзи газетаси, 12.11.2010.

ssudalar bo'yicha to'lovlar;

- mol-mulkni uzoq muddatli ijaraga olish (lizing) bo'yicha foizlarni to'lash xarajatlari;

- chet el valyutasi bilan operatsiyalar bo'yicha salbiy kurs tafovutlari va zararlar;

- sarflangan (qimmatli qog'ozlarga, sho'ba korxonalariga va hokazolarga) mablag'larni qayta baholashdan ko'rilgan zararlar;

- o'z qimmatli qog'ozlarini chiqarish va tarqatish bilan bog'liq xarajatlar;

- moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar, Shu jumladan salbiy diskont.

Favqulodda zararlar

Favkulodda zararlar - bu korxonalarining odatdagi faoliyatidan chetga chiquvchi hodisalar yoki operatsiyalar natijasida paydo bo'ladigan va ro'y berishi kutilmagan odatdan tashqari xarajatlar moddalardir. Bunga davr xarajatlari tarkibida aks ettirilishi kerak bo'lgan o'tgan davr moddalari kirmaydi.

U yoki bu moddaning favqulodda zararlar moddasi sifatida aks ettirilishi uchun quyidagi mezonlarga javob berishi shart:

- korxonaning odatdagi xo'jalik faoliyatiga xos bo'lmasligi kerak;

- bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi lozim;


- boshqaruv xodimi tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga bog'liq bo'lmasligi kerak.

Tegishli moddalarni favqulodda zararlarga kiritish yoki kiritilmaslik to'g'risida qarorlar qabul qilishda korxonalar faoliyat yuritayotgan sharoit ham hisobga olinadi. Masalan, korxonalar alohida iqlim sharoitlarida joylashgan bo'lsa va uning Shu iqlim sharoitiga bog'liq holda ishlamay turib qolishlari favqulodda holat deb baholanmaydi. Chunki ushbu holat "bir necha yil mobanida takrorlanmasligi kerak" degan mezonga javob bermaydi.

Shuni ta'kidlash lozimki, hozirgi sharoitda korxonalarining mahsulot ishlab chiqarishi va uni sotishi bilan bog'liq xarajatlari o'sish tendentsiyasiga ega. Bunga xom ashyo, materiallar, yonilg'i, energiya va uskunalarning qimmatlashishi, kreditdan foydalanish uchun foizlar stavkasining o'sishi, transport xizmatlari tariflarining ko'tarilishi, reklama xarajatlarning ko'payishi sabab bo'lmoqda.

Ijtimoiy ehtiyojlar uchun xarajatlar nobyudjet ijtimoiy fondlariga (nafaqa fondi, ijtimoiy sug'urta fondi, bandlik fondi va hokazo) ajratiluvchi mablag'larni anglatadi.

Tannarxni pasaytirishning asosiy yo'nalishlari



Keyingi vaqtda jahon bozorida narxi keskin tushib ketgan xom ashyo resurslarini eksport qilish amaliyotidan imkon qadar tezroq qutilib, tayyor raqobatbardosh mahsulotlar eksportini faol oshirish va bu mahsulotlar etkazib beriladigan mamlakatlar geografiyasini yanada kengaytirishimiz kerak.

I.Karimov (ma'ruzadan)

Mahsulot (ish, xizmat) tannarxidagi boshqa xarajatlar – bu, qonunchilikda belgilangan tartibda maxsus nobyudjet fondlariga o'tkaziluvchi to'lovlar va soliqlar; yo'l qo'yish mumkin bo'lgan miqdordagi chiqindilar uchun to'lovlar; korxonada mulkini majburiy sug'urtalash;

ratsionalizatorlik takliflari uchun mukofotlar; qonunchilikda belgilangan stavkalarda kreditlar bo'yicha to'lovlar; mahsulotni sertifikatlash uchun bajarilgan ishlarga haq to'lash; qonunchilikda belgilangan normalar bo'yicha xizmat safarlariga haq to'lash; yong'inga qarshi kurash va qo'riqlash muassasalariga haq to'lash; kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish, xodimlar tanlashni tashkil qilish, aloqa xizmati, hisoblash markazlari, banklar xizmatiga haq to'lash; asosiy ishlab chiqarish fondlarini ijaraga olganlik uchun haq to'lash; nomoddiy aktivlarning eskirishi va hokazolar.

Ishlab chiqarish xarajatlariga, asosiy ishlab chiqarish fondlarini ishga tayyor holatda saqlab turish - kapital, o'rta va joriy ta'mirlash, mashina va asbob-uskunalarga qarash va ekspluatatsiya qilish uchun sarflanuvchi barcha xarajatlar kiradi. Asosiy ishlab chiqarish fondlarini ta'mirlash bo'yicha murakkab ishlar amalga oshirilib, xarajatlar bir xilda taqsimlanmaganda korxonalar (Moliya Vazirligi ruxsati bilan) mahsulot tannarxi hisobiga asosiy fondlarni ta'mirlash uchun zahira(rezerv) fondlari tashkil qilishi mumkin.


Xorijiy valyutadagi xarajatlar Markaziy bankning operatsiyalar amalga oshirilgan kundagi kursiga asosan so'mlarda belgilanadi. Mahsulot ishlab chiqarish va sotishga qilinadigan xarajatlarni o'sishiga, xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya, asbob-uskunalar narxining o'sishi, transport xizmati tariflarining yuqoriligi, reklama va vakillik xarajatlarining o'sishi kabilar ta'sir qiladi. Amortizatsiya ajratmalari miqdori ham o'sib bormoqda. Narxlar erkinligi va ijtimoiy ziddiyatlar kuchaygan sharoitlarda xarajatlar tuzilmasida ish haqining salmog'ini oshirish katta ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir vaqtning o'zida ijtimoiy va tibbiy sug'urtalash, nafaqa ta'minoti, aholi bandlik fondlari, turli xil kompensatsion to'lovlarga ajratiluvchi mablag'lar miqdori ham ortib bormoqda.

10.3. Korxonalar sof foydasi, taqsimlash tartibi va uni oshirish yo'llari

Foyda muhim iqtisodiy kategoriya (toifa) bo'lib, har bir tijorat tashkilotining asosiy maqsadi hisoblanadi. Iqtisodiy kategoriya sifatida foyda-moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratilgan sof daromadni aks ettiradi.

Foydaning asosiy qismiga korxonalar ishlab chiqarilayotgan mahsulotni sotish orqali ega bo'ladilar. Zamonaviy xo'jalik yuritish sharoitlarida foydaning asosiy vazifasi korxonalar faoliyati samaradorligini aks ettirishda deb belgilanadi. Bunga foyda miqdori, korxonaning mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq bo'lgan mahsulot tannarxi shaklidagi individual xarajatlar, mahsulot bahosi shaklidagi ijtimoiy zaruriy xarajatlarni o'z ichiga olishi lozimligini sabab qilib ko'rsatish mumkin.

Respublikamizda olib borilgan izchil tarkibiy siyosat natijasida iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishida sifat siljishlari ro'y berdi. Jumladan, sanoat ishlab chiqarishining YAIMdagi ulushi 2000 yilda 14 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda bu ulush 24 foizga etdi.



Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Shuningdek, transport va aloqa tarmoqlarining YAIMdagi ulushi Shu davrda 8 foizdan 12 foizgacha ko'tarildi. Sanoat, transport va aloqa tarmoqlarining YAIMdagi ulushi ortishi soliq yukining kamaytirilishi, bu tarmoqlarga investitsiyalar ustuvor tarzda jalb qilinishi, yirik investitsiya loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi natijasida ro'y berdi.

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitlarida korxonalar faoliyati foydaning rag'batlantiruvchi ahamiyatining ortishi bilan bog'liq. Foydadan baholashning asosiy ko'rsatkichi sifatida foydalanish, mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmining ortishi, sifatning yaxshilanishi, mavjud ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish unumining ortishi bilan asoslanadi. Shu bilan birga foydaning ahamiyati ortishiga amaldagi foydani taqsimlash tizimi ham sabab bo'ladi va unga ko'ra esa, korxonalarining ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlanishni ta'minlash uchun hamda xodimlarni bajargan mehnati sifati va miqdoriga asosan moddiy rag'batlantirishga sarflanuvchi foydani oshirishga bo'lgan qiziqishning ortishi kuzatiladi.

Shu tariqa foyda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xodimlarning o'z korxonasi erishadigan yuqori natijalardan moddiy manfaatdorligini kuchaytirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

“Iqtisodiyotimizda 2010 yili yuqori o’sish sur’atlari ta’minlanib, aholining real daromadlari 123,5 foizga oshdi, o’tgan yilda inflyatsiya darajasi 2009 yildagi 7,4 foiz o’rniga 7,3 foizni tashkil qildi.”⁸¹

Korxonada foyda turli xil faoliyat natijasida olinishi mumkin. Barcha foydalar yig’indisi korxonaning yalpi foydasini tashkil qiladi. Yalpi foydaning tarkibiy elementlari quyidagilardan iborat:

- bajarilgan ish, ko’rsatilgan xizmat va mahsulot sotishdan olingan foyda;

- asosiy fondlar, shuningdek, korxonaning boshqa mulki sotishdan olingan foyda;

- korxonaning moliyaviy faoliyati orqali olinuvchi foyda.

Korxonada foydasining shakllanish manbalari - ular xo’jalik faoliyati natijasida olinadigan daromadlardir:

- sotishdan olingan sof tushum:

- asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar (operatsiya daromadlari);

- moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;

- favqulodda foyda.

Sotishdan olingan sof tushum mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan pul tushumidan ko’shilgan qiymat va aktsiz solig’i hamda eksport boj poshlinasini chiqarish yo’li bilan aniqlanadi. Unga tovarlarning qaytarilishi, xaridorlar uchun berilgan chegirmalar va boshqalar kiritilmaydi.

Korxonalarining asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan olinadigan boshqa daromadlarga quyidagilar kiradi:

- undirilgan yoki qarzdor tomonidan e’tirof etilgan jarimalar, penYalar, vaqtida to’lanmagan qarzlari va xo’jalik shartnomalari shartlarini buzganlik uchun boshqa xil jazo jarimalari, Shuningdek etkazilgan zaralarni undirish bo’yicha daromadlar;

- hisobot yilida aniqlangan o’tgan yillardagi foyda;

- ishlab chiqarish va mahsulot (ish, xizmat)larni sotish bilan bevosita bog’liq bo’lmagan operatsiyalardan renta daromadi, korxonada huzuridagi oshxonalaridan tushumlar, yordamchi xizmatlardan daromadlar sifatidagi boshqa daromadlar;

⁸¹ И. Каримов. “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади” – 2010 йилнинг асосий яқунлари ва 2011 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

- korxonaning- asosiy fondlarini va boshqa mol-mulklarini sotishdan olingan daromadlar;

- da'vo bildirish muddati o'tgan kreditorlik va deponent qarzlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar;

- tovar - moddiy boyliklarni qayta baholash;

- davlat subsidiyalarlaridan daromadlar;

- xolisona moliyaviy yordam;

- boshqa operatsion daromadlar.

Korxonalar moliyaviy faoliyatidan olinadigan daromadlarga quyidagilar kiradi:

- olingan royaltlar va sarmoya transferti;

- Respublika hududida va uning tashqarisida boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatiga ulush qo'shgan holda qatnashishdan olingan daromad, aktsiyalar bo'yicha dividendlar va obligatsiyalar hamda korxonaga tegishli qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlar;

- mol-mulknii uzoq muddatdi ijaraga berishdan olingan daromadlar (lizing to'lovini olish);

- valyuta schyotlari, shuningdek chet el valyutlaridagi operatsiyalar bo'yicha ijobiy kurs tafovutlari;

- sarflangan (qimmatli qog'ozlarga, shu'ba korxonalarga va hokazolarga) mablag'larni qayta baholashdan olingan daromadlar;

- moliyaviy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar.

Korxonalarining favqulodda foydasi - bu ko'zda tutilmagan tasodifiy tusga ega bo'lgan hodisa yoki korxonaning odatdagi faoliyati doirasidan chetga chiqadigan tusdagi operatsiyalar natijasida paydo bo'ladigan va olinishi kutilmagan foydadir. Bunga daromadlarning kamdan-kam bo'ladigan moddalari yoki asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar bo'limida aks ettirilishi kerak bo'lgan o'tgan davrlardagi foyda kirmaydi.

Korxonalarining innovatsion faoliyatidan olinadigan foyda- undan foydalanish doimiy ravishda texnologiyalarni takomillashtirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni yangilash, uning raqobatbardoshligini ta'minlash, mahsulot sotish hajmi va foyda miqdorini oshirishni anglatadi.

Korxonada sof foydaning - shakllanish jarayoni butun moliyaviy-xo'jalik faoliyatini qamrab oladi. Bu erda mahsulotni ishlab chiqarish va sotish va ma'muriy xarajatlarni tejash, moliyaviy faoliyat natijasida ijobiy saldogga erishish, tasodifiy foydaga muyassar bo'lish. soliq stavkasi o'zgarmagan holda soliq summasini kamaytirish kabi bir qancha bosqichlar mujassam. Ularning ketma-ketligini quyidagicha ifodalash mumkin.

	Mahsulotni (ish, xizmatni) sotishdan tushgan sof tushum
	Shu sotilgan mahsulot (ish, xizmat)ning ishlab chiqarish tannarxi
=	Sotishdan tushgan yalpi foyda moliyaviy natija
-	Davr xarajatlari ()
=	Asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan daromadlar va xarajatlar
(±)	Moliyaviy faoliyat natijasi (olingan dividendlar, foizlar, valyuta kursi farqi foyda(Q), zarar(-))
=	Umumxo'jalik faoliyatining moliyaviy natijasi
±	Favqulotda (tasodifiy) foyda (Q) yoki zarar (-)
=	Soliq to'lagunga qadar umumiy moliyaviy: I natija - foyda (Q), zarar (-)
-	Soliqlar va majburiy ajratmalar
=	Sof foyda
-	To'langan dividend

=

Balansda ko'rsatiladigan taqsimlanmagan

Ushbu chizma moliyaviy natijalarni, ya'ni sof foydaning shakllanishini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlashning mumtoz chizmasi bo'lib hisoblanadi. Hozirgi paytda amaldagi me'yoriy hujjatlar moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarning shakllanishini aynan shu tarzda ifodalashni taqozo qiladi. Ushbu holat moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarni taxlil qilish uchun ham uslubiy jihatdan yondoshishga asosdir.

Korxonalarining, yuqorida keltirilgan, xo'jalik faoliyatidan olingan daromadlari va qilingan xarajatlari asosida foydaning quyidagi beshta ko'rsatkichlari aniqlanadi:

1. Mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda - bu sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o'rtasidagi tafovut ko'rinishda bo'ladi:

$$YAF=SST - IT$$

Bu erda: YAF - yalpi foyda;

SST - sotishdan olingan sof tushum;

IT - sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi.

2. Asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda - bu mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o'rtasidagi tafovut va plyus asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa daromadlar yoki minus boshqa zararlar ko'rinishida bo'ladi:

$$AFF=YAF-DX+BD-BZ$$

Bu erda: AFF - asosiy faoliyatdan olingan foyda;

DX - davr xarajatlari;

BD - asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar;

BZ - asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa zararlar.

3. Umum xo'jalik faoliyatidan olingan foyda - bu asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi plyus moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan daromadlar va minus xarajatlar ko'rinishida bo'ladi:

$$UF=AFF+MD-MX$$

Bu erda: UF - umumxo'jalik faoliyatdan olingan foyda;

MD - moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;

MX - moliyaviy faoliyat xarajatlari.

4. Soliq to'languncha olingan foyda - bu umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda plyus favqulodda (ko'zda tutilmagan)

vaziyatlardan ko'rilgan foyda va minus zarar ko'rinishida bo'ladi:

$$STF = UF + FF - FZ$$

Bu erda: STF – soliq to'languncha olingan foyda;

FF - favqulodda vaziyatlardan olingan foyda;

FZ - favqulodda vaziyatlardan ko'rilgan zarar.

5. Yilning sof foydasi - bu soliq to'langandan keyin korxonada ixtiyorida qoladigan foyda. U soliq to'languncha olingan foyda (daromad) dan to'lanadigan soliqni va qonun xujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliqlar va to'lovlarni chiqarib tashlagan holda aniqlanadi:

$$SF = STF - DS - BS$$

Bu erda: SF - sof foyda;

DS - foyda (daromad)dan to'lanadigan soliq;

BS - boshqa soliqlar va to'lovlar.

Demak, foyda korxonada xo'jalik faoliyatidan olingan daromadlarning xarajatlardan ortiq bo'lganligidan, ya'ni ijobiy moliyaviy natijaga erishilganidan darak beradi. Uning miqdori, asosan, ikkita ko'rsatkichga - mahsulot narxi va uni ishlab chiqarish xarajatlariga bog'liq.

Erkin raqobat sharoitida mahsulotga narxni ishlab chiqaruvchi yoki uni xarid qiluvchining hohishiga qarab past, yuqori ko'yilmaydi. Mahsulot narxi erkin bozorning narxlashtirish qonuniyatlari ta'siri ostida, avtomatik ravishda belgilanadi.

Ushbu ketma-ketlikka asoslanib, korxonada sof foydasining shakllanish va ularning bir-biri bilan bog'liqligini ko'rib chiqish mumkin. Bu tadbirni amalga oshirish uchun quyidagi jadvalni tuzish tavsiya qilinadi (1-jadval).

1-jadval.

Korxonada sof foydasining shakllanish hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot Yilida	Farqi (+,-)	O'sish sur'ati, %
1. Mahsulotni sotishdan kelgan sof tushum (qiymatga qo'shilgan soliq va aktsizlarsiz)	4583,3	1 5694,5	+1111,2	124,3
2. Sotilgan mahsulot tannarxi (ish, xizmat)	3951,2	4841,7	+890,5	122,5
3. Sotilgan mahsulot (ish p, xizmat) dan olingan moliyaviy	632,1	852,8	+220,7	134,9

natija (1q-2q)				
4. Davr xarajatlari (mahsulotni sotish, boshqaruv va boshqa ma'muriy xarajatlar)	152,4	178,3	+25,9	1117,0
5 Boshqa operatsion daromadlar	31,3	37,2	+5,9	118,3
6. Asosiy faoliyatdan olinadigan daromadlar natijasi (foyda(+), zarar(-)) (Zq-4q+5q)	+511,0	+731,7	+200,7	140,6
7. Moliyaviy faoliyat natijasi (+,-)	+71,2	+80,4	+9,2	112,9
8. Tasodifiy (favъulotda) faoliyat natijasi (foyda(+) ⁵ zarar(-))	+11,4	+8,3	-3,1	72,8
9. Soliq to'langunga qadar foyda (6q(7q(8q)	593,6	800,4	+206,8	134,8
10. Soliqpar va ajratmalar summasi	225,6	304,2	+78,6	134,8
11.Sof foyda(9q-10q)	368,0	496,2	+128,2	134,8

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxonaning sof foydasi hisobot yilida 128,2 ming so'mga yoki 134,8%ga o'sgan. Bu o'zgarish juda ko'p omillar evaziga sodir bo'lgan. Ushbu omillar ta'sirini Shu jadval ma'lumotlari asosida aniqlash mumkin.

Ushbu omillarning ta'sirini jadval ma'lumotlari va Yuqoridagi hisob-kitoblar asosida ko'rib chiqish mumkin.

1. Sotilgan mahsulot hajmining ko'payishi	+ 1111,2
2. Tannarxning oshganligi	- 1839,6
3. Bahoning oshganligi	+ 949,1
4. Davr xarajatlarining ko'payganligi (178,3-152,4)	- 25,9
5. Boshqa operatsion daromadlarning Oshganligi (37,2-31,3)	+ 5,9
6. Asosiy faoliyatdan olinadigan daromadning oshganligi (711,7-511,0)	+ 200,7
7. Moliyaviy faoliyatdan olingan	

foydaning ko'payishi (80,4-71,2)	+ 9,2
8. Tasodifiy foydaning kamayganligi (8,3-11,4)	3,1
9. Soliq va turli ajratmalar summasining oshganligi (304,2-295,6)	- 78,6
10. Barcha omillar ta'siri sof foydaning umumiy o'zgarishiga teng (496,2-368,0)	+ 128,2

Sof foydaning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarning umumiy miqdori quyidagicha hisoblanadi:

$$\Delta F = \sum_{i=1}^n \Delta F_i$$

Ushbu formulaga tegishli ma'lumotlarni qo'llab barcha omillar ta'sirida natijaning umumiy o'zgarishini aniqlash mumkin.

$$1111.2-1839.6+949.1-25.9+5.9+9.2-Z.1-78.6=+128.2 \text{ mingso'm.}$$

Ko'rinib turibdiki, sof foydaning o'zgarishiga sakkizta omil ta'sir qdpgan. Ularning yig'indisi natija ko'rsatkichining umumiy o'zgarishiga (+128.2 ming so'm) teng.

Ushbu taxdil natijasida foydani ko'paytirish imkoniyatlarini (rezervlarini) aniqlash mumkin. Bizning hisob-kitob ko'rsatmokedaki, agarda mahsulotning tannarxi oshmaganda edi foyda yana 1839.6 ming so'mga, davr xarajatlari ko'paymaganda 25.9 ming so'mga, tasodifiy foyda kamaymaganda 3.1 ming so'mga, soliq va turli ajratmalar summasi ko'paymagavda 78.b ming so'mga, jami 1947.2 ming so'mga oshgan bo'lar edi. U holda haqiqiy foyda miqdori 852.8 ming so'm emas, balki 2800.0 ming so'mni (852.8+1947.2) tashkil qilgan bo'lar edi. Kelajakda korxonah rahbariyati aniqlangan imkoniyatlardan oqilona foydalanish chora-tadbirlarini ishlab chiqishi lozim.

Korxonaning balans foydasi foydani taqsimlash ob'ektidir.

Foydani taqsimlash deganda uning bir qismini byudjetga jo'natish tushuniladi. qonunchilikka asosan foydaning soliq va boshqa majburiy to'lovlar shaklida byudjetga kelib tuShuvchi qismi tartibgi solinadi. Korxonah ixtiyorida qoluvchi daromad qismi, undan foydalanish yo'nalishlari korxonah zimmasida bo'ladi.

Foydani taqsimlash tamoyillari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- korxonaning ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyat natijasida oladigan foydasi davlat va korxonah o'rtasida xo'jalik sub'ekti sifatida taqsimlanadi;

• foydaning davlatga to'lanuvchi bir qismi soliq va yig'implar ko'inishida byudjetga kelib tushadi. Soliqlar tarkibi va foizi, ularni hisoblash tartibi va byudjetga to'lanuvchi boshqa to'lovlar qonunchilik tomonidan belgilanadi;

• soliqlar to'langandan so'ng korxonada tasarrufida qoluvchi foyda miqdori, uning ishlab chiqarish hajmini oshirish hamda ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyat natijalarini yaxshilashdan manfaatdorligini kamaytirmasligi lozim.

Korxonada foydani taqsimlash va undan foydalanish tartibi uning Nizomida belgilab qo'yiladi hamda vakolatli iqtisodiy xizmat xodimlari tomonidan tayyorlanib, korxonada rahbariyati tomonidan tasdiqlanuvchi qoidalar yordamida aniqlanadi.

Mahsulotni sotishdan olinadigan foyda miqdori ichki va tashqi omillarga bog'liq bo'ladi. Ichki omillar, bu - korxonada zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy qilish, xo'jalik yuritish darajasi, rahbariyat va menedjmentning mas'uliyati, mahsulotning raqobatbardoshligi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etish darajasidir. Korxonada faoliyatiga bog'liq bo'lmagan tashqi omillar qatoriga esa, bozor kon'yunkturasi, iste'mol qilinuvchi modiy-texnik resurslarning bahosi, amortizatsiya normasi, soliq tizimi kabilar kiradi.

Sof foyda taqsimoti quyidagi ko'inishlarda bo'ladi:

- aksionerlik jamiyatida dividendlar to'lashga va rezerv kapitaliga ajratma qilinadi. Uning qolgan qismi taqsimlanmagan foyda ko'inishida jamiyat ixtiyorida qoladi va korxonada faoliyatini rivojlantirishda (asosiy fondlarni kengaytirishda va aylanma mablag'larni shakllantirishda) qatnashadi;

- qo'shma korxonada rezerv kapitaliga ajratma qilinadi, uning ustaviga muvofiq ta'sischi o'rtasida taqsimlanadi yoki ta'sischi qaroriga binoan korxonada faoliyatini rivojlantirishga ishlatiladi;

- xususiy korxonalarda rezerv kapitaliga ajratma qilinadi va uning qolgan qismi taqsimlanmagan foyda ko'inishida korxonada faoliyatini rivojlantirishda ishtirok etadi;

Tijorat banklarini zarar ko'rib ishlayotgan va iqtisodiy nochor korxonalarni sog'lomlashtirish jarayoniga jalb qilish tajribasi amalda o'zini to'la oqladi.

Hali ham eski texnika va texnologiyalar asosida ishlayotgan, hech qanday iqtisodiy istiqboli bo'lmagan korxonalarni tugatish va ularning negizida yangi zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish darkor.

I.Karimov (ma'ruzadan)

- davlat korxonalarida rezerv fondiga ajratma qilinadi, qolgan qismi esa ustav fondiga qo'shiladi. Ma'lumki, korxonada ustav fondi uning asosiy va aylanma fondlarini shakllantirishda muhamd manba hisoblanadi.

Korxonaning ishlab chiqarish faoliyatidan oladigan foydaning miqdori ichki va tashqi omillarga bog'liq. Ichki omillarga yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, xo'jalik yuritish darajasi, rahbariyat va menejerlarning bilimdonligi (omilkorliga), mahsulotning raqobatbardoshligi, ishlab chiqarishni va mehnatni tashkil etish darajasi kiradi. Korxonada faoliyatiga bog'liq bo'lmagan tashqi omillarga bozor konyunkturasi, ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik resurslarning narxi, amortizatsiya normalari, soliq solish tizimi va boshqalar kiradi.

“2010 yilda sanoat ishlab chiqarish tarkibida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor mahsulotning ulushi 50 foizdan ziyodni tashkil etdi.”⁸²

Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi sharoitida har bir korxonada foydani ko'paytirish tadbirlarini rejalashtirish va amalga oshirish lozim. Umuman olganda bunday tadbirlar kuyidagi ko'rinishlarda- bo'lishi mumkin:

- u yoki bu mahsulotni ishlab chiqarish bo'yicha monopol o'rinni egallashga (noyob mahsulotlar ishlab chiqarishga) erishish;

- doimo o'zgaruvchan konyunkturaga qarab ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni yangilab turish;

- raqobatbardoshlik sharoitida tovarlarning sotila olishini ta'minlash maqsadida xaridorlarga turli xil xizmatlar ko'rsatish (jumladan, tovarlar sotilgandan keyingi xizmatlar);

- mahsulot ishlab chiqarishni o'stirish;

- mahsulot sifatini yaxshilash;

- ortiqcha uskunalarni va boshqalarni sotish yoki ijaraga berish;

- mavjud moddiy resurslardan, ishlab chiqarish quvvatlaridan va ish maydonlaridan, ishchi kuchi va ish vaqtidan oqilona foydalanish asosida mahsulotlarning tannarxini pasaytirish;

- ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash;

- mahsulotlarni sotish bozorini kengaytirish va boshqalar.

Korxonada faoliyati samaradorligini aniqlash uchun yakuniy natijani

⁸² И. Каримов. “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади” – 2010 йилнинг асосий якунлари ва 2011 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

(foydani) ishlab chiqarish xarajatlari yoki shunday natijaga erishishni ta'minlagan resurslar bilan taqqoslash lozim.

Korxonada foydani oshirishning asosiy yo'llari. Har bir korxonada foydani oshirish bo'yicha rejali chora-tadbirlar ko'zda tutilishi kerak. Umuman olganda, bunday chora-tadbirlar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

*168 ishlab chiqarilayotgan mahsulot miqdorini oshirish;

*169 ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirish;

*170 ortiqcha asbob-uskunalar yoki boshqa mulkni sotib yuborish yoki ijaraga berish;

*171 moddiy resurslar, ishlab chiqarish quvvatlari va maydonlari, ishchi kuchi va ish vaqtidan unumliroq foydalanish hisobiga mahsulot tannarxini pasaytirish;

*172 ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish;

*173 mahsulot bozorini kengaytirish va hokazolar.

Foyda korxonada faoliyatining muhim iqtisodiy ko'rsatkichi bo'lsada, uning samaradorligini to'la tavsiflab bermaydi. Korxonada faoliyati samaradorligini aniqlash uchun natijalarni (foydani) xarajatlar yoki bu natijalarga erishish uchun sarflangan resurslar bilan solishtirish lozim.

10.4. Rentabellikning iqtisodiy mazmuni va ko'rsatkichlari. Yalpi foyda o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar hisob-kitobi

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitlarida rentabellikning ahamiyati va o'rni o'sib bormoqda. U korxonada faoliyati va kapital qo'yilmalar iqtisodiy samaradorligining asosiy mezonini, korxonada va xo'jalik yurituvchi tashkilotlarni baholashning sintetik ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.

Yangi sharoitlarda korxonalarning faoliyatlarida yuqori moliyaviy natijalarga erishishga intilishi sezilarli darajada ortib bormoqda.

Har qanday xo'jalik mexanizmi uchun asos bo'lib korxonada faoliyatini rejalashtirish va unga ob'ektiv baho berish, ta'lim olish, mehnatga haq to'lash va iqtisodiy rag'batlantirish fondlaridan foydalanish, ishlab chiqarish jarayonining turli bosqichlarida xarajat va natijalarni solishtirish ko'rsatkichlari xizmat qiladi.

Foyda korxonada samaradorligining yagona va universal ko'rsatkichi emas.

Ishlab chiqarish rivojlanishining samaradorligi va intensivligini baholashda amaliyotda rentabellik ko'rsatkichlari tizimi keng qo'llanib, unga ko'ra foydaning miqdori belgilangan hisoblanadi. Boshqacha qilib

aytganda, rentabellik daromadlilik, foydalilikni anglatadi. Biroq rentabellikni faqat daromadlilik deb qabul qilish uning iqtisodiy mazmunini keng ochib bermaydi. Ular o'rtasida tenglikning yo'qligidan daromad miqdori va rentabellik darajasi turli nisbatlarda, ko'pincha turli yo'nalishlarda o'lchanishi dalolat beradi.

Istalgan muddat uchun iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash ko'plab turli xil omillar ta'siri ostida amalga oshiriladi.

Bunday tarmoqlar tashqi konyunkturaga ham, ob-havo sharoitiga ham bog'liq emas, ya'ni tashqi omillarning o'zgarishi ularga ta'sir ko'rsata olmaydi. Ayni paytda bu xizmatlar o'zimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ko'plab turlariga ichki talabni oshiradi, shuningdek, iste'mol bozorida mutanosiblikni saqlashda muhim rol o'ynaydi.

I.Karimov (ma'ruzadan)

Hozirgi paytda foydaga ta'sir qiluvchi omillarning ta'sirini bir qancha usullarni qo'llab, aniqlash mumkin. Eng avvalo, korxonaning yalpi foydasiga ta'sir qiluvchi omillar aniqlanadi.

Sotishdan olingan sof tushumni korxonaning yalpi foydasi (F_{sm}) deb ham atash

mumkin. Bu, odatda, sotilgan mahsulotning umumiy qiymatidan (S_m) uning tannarxini (T_n) ayirish yo'li bilan aniqlanadi. Ammo Shu ikki ko'rsatkich zamirida mahsulotning qiymati, miqdori, baho o'zgarishi, tannarxdagi tebranishlar mujassam etilgan. Shu tufayli yalpi foydaning vujudga kelishida bevosita shu omillar ta'sirini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Buni amalga oshirish uchun quyidagi jadvalni tuzish tavsiya qilinadi.

2-jadval ma'lumotlari ko'rsatadiki, yalpi foyda shu davr mobaynida 220,7 ming (852,8-632,1) so'mga oshgan. Uning o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sir qilgan:

*Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)dan olingan yalpi foyda

**Viloyat statistika va istiqbolni belgilash boshqarmasining hisobotiga asosan baho indeksi 1,2 ga teng.

1. Sotilgan mahsulot hajmining ko'payishi

$$(\Delta F_{sm} = (S_{m1} - T_{n0}) - (S_{m0} - T_{n0}) = 1743,3 - 632,1 = +1111,2$$

2. Tannarxning oshganligi

$$(\Delta F_{tk} = [(S_{m1}/ir) - T_{n1}] - (S_{m1} - T_{n0}) = -96,3 - 1743,3 = -1839,6$$

3. Bahoning oshganligi

$$(\Delta F_b = (S_{m1} - T_{n1}) - [(S_{m1}/ir) - T_{n1}] = 852,8 + 96,3 = +949,1$$

Barcha omillar ta'siri

($\Delta F = 1111,2 - 1839,6 + 949,1 = +220,7$ ming so'm (2-jadval)).

2-jadval.

Yalpi foyda o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	Asos yilida	Hisobot yilidagi Shu davr tannarxi va asos yilidagi bahosi bilan	Hisobot yilidagi mahsulot asos yilidagi tannarxi va hisobot yilidagi baho bilan	Hisobot yilida	Farqi (+,-)
1.Sotilgan mahsulot (ish, xizmat) qiymati	4583,3	5694,5	4745,4**	5694,5	+1111,2
2.Sotilgan mahsulot (ish, xizmat) ning to'la tannarxi	3951,2	3951,2	4841,7	4841,7	+890,5
Yalpi foyda* (1q-2q)	632,1	1743,3	-96,3	852,8	+220,7

Korxonada yalpi foyda ma'lum ahamiyatga ega, Chunki u barcha moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar negizini tashkil qiladi. Ammo xo'jalik faoliyatining pirovad natijasi sof foydaga erishish bilan belgilanadi. Shu tufayli iqtisodiy tahlilda sof foydani o'rganish va tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Rentabellik va foyda ko'rsatkichlarini tahlil qilishda ularga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan barcha omillarni bilish, bu umumlashiruvchi ko'rsatkichlariga egallash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatning raqobatdoshligini oshirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish jarayonlarini chuqurlashtirish siyosatini davom ettirish 2010 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturni amalga oshirishning muhim ustuvor yo'nalishiga aylanishi lozim.

I.Karimov (ma'ruzadan)

omillarning samaradorlikning ta'sirini hisoblash uslubiyatini Bu omillarni boshqarish orqali

korxonada daromadni oshirish zahiralari izlab topish va rentabellikning talab qilinuvchi darajasiga erishish mexanizmini yaratish mumkin.

Rentabellik va foydaga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni turli xil belgilariga ko'ra tasniflash mumkin. Masalan, **bu omillar ichki va tashqi bo'lishi** mumkin. **Ichki omillarga** korxonaga faoliyatiga bog'liq bo'lgan hamda korxonaga faoliyatining turli yo'nalishlarini tavsiflovchi omillar mansub bo'ladi. **Tashqi omillarga** korxonaga faoliyatiga bog'liq bo'lmagan, biroq ishlab chiqarish rentabelligi va daromadning o'sish sur'atiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillar kiradi. Tahlil jarayonida ichki va tashqi omillarni aniqlash samaradorlik ko'rsatkichlarini tashqi ta'sirlardan "tozalash" imkonini beradi hamda korxonaga yutuqlarini ob'ektiv baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'z navbatida ichki omillar ham ishlab chiqarish va noishlab chiqarish omillariga bo'linadi. Noishlab chiqarish omillari asosan mehnat va sotish sharoitlari, korxonaning tijorat, tabiatni saqlash va shu kabi faoliyat turlari bilan bog'liq bo'ladi. Ishlab chiqarish omillari esa foydaning shakllanishida ishtirok etuvchi ishlab chiqarish jarayonining asosiy elementlari - mehnat predmetlari va vositalari hamda mehnatning o'zi - mavjudligi va ulardan foydalanishni aks ettiradi.

Xo'jalik faoliyatini amalga oshirish jarayonida mahsulot ishlab chiqarish, sotish va foyda olish bilan bog'liq bo'lgan korxonalarda bu omillar o'zaro aloqada va bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

Rentabellikning mohiyatini faqat foyda shakllanishini tahlil qilish asosida ochib berish mumkin. Korxonaga mahsulotni sotish natijasida o'z xarajatlarini qoplashdan tashqari foyda ham olgan taqdirda rentabelli hisoblanadi.

Rentabellik ko'rsatkichlari korxonaga faoliyati qanchalik foyda keltirishini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkichlar moliyaviy hisobotning ichki va tashqi foydalanuvchilarda qiziqish uyg'otib, korxonaga resurslaridan foydalanish samaradorligi hamda uning investitsiyalarni jalb qilish qobiliyatini aniqlaydi. Xususiylar yoki qarzga olinuvchi kapitalning rentabelligi korxonaga mablag'lar kiritishning rentabelligini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlardir. Bu ko'rsatkichlarning iqtisodiy turlanishi (interpretatsiyasi) yaqqol ko'zga tashlanadi: sarflangan har bir so'm qarzga olingan (xususiylar) kapitalga necha so'm foyda to'g'ri keladi (hisob-kitoblarda korxonaning balans yoki sof foydasidan foydalanish mumkin).

Rentabellikni zamon va makon qoidalariga ko'ra tahlil qilishda asosli xulosalarga kelish uchun zarur bo'ladigan uchta xususiylarni inobatga olish zarur.

Birinchi xususiyat, korxonada faoliyatining vaqt jihati bilan bog'liq. Masalan, mahsulotni sotish rentabelligi koeffitsienti hisobot davridagi faoliyat natijalari orqali aniqlanadi; uzoq muddatli investitsiyalarning yuzaga kelishi mumkin bo'lgan va rejalashtirilayotgan samarasi inkor qilinmaydi. Agar korxonada katta miqdordagi investitsiyalar talab qiluvchi yangi texnologiyalar va yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarishga o'tadigan bo'lsa, u holda rentabellik ko'rsatkichlari vaqtinchalik pasayishi mumkin.

Ikkinchi xususiyat, tavakkalchilik muammosi bilan bog'liq bo'lib, tavakkalchilik darajasi yuqori bo'lgan loyihalar ba'zida katta foyda keltirishi ham mumkin.

Uchinchi xususiyat baholash muammosi bilan bog'liq. Masalan, xususiy kapitalning rentabellik ko'rsatkichi sur'ati va maxraji turli xil xarid qobiliyatiga ega bo'lgan pul birligida keltiriladi.

Ko'rsatkichning sur'ati, ya'ni foyda o'zgaruvchan (dinamik) bo'lib, faoliyat natijalarini hamda tovar va xizmatlarning asosan o'tgan yilda yuzaga kelgan bahosini aks ettiradi. Ko'rsatkichning maxraji, ya'ni xususiy kapital bir qator yillar davomida shakllanadi. U joriy bahodan ancha farq qilishi mumkin bo'lgan, hisobga olish bahosida aks ettiriladi.

Amaliyotda tadbirkor va investorni qiziqtiradigan rentabellikning quyidagi ko'rsatkichlari hisoblanadi:

- xo'jalik faoliyatini yuritishga solingan aktivlar rentabelligi;
- mahsulotni sotish rentabelligi;
- o'z kapitali (mablag'i) rentabelligi;
- karajatlar rentabelligi;
- bir dona aktsiya rentabelligi.

1. Korxonada faoliyatini yuritishga solingan aktivlar rentabelligi (Arent) - bu sof foydanish qo'yilgan barcha mablag'lar, ya'ni aktivlarning 1 so'miga to'g'ri keladigan ulushidir. U sof foydatsing (SF) umumiy aktiv (A)ning. o'rtacha yillik summasiga nisbati ko'rinishida aniqlanadi:

$$Arent = CF : A$$

2. Mahsulotni sotish rentabelligi (Srent) - bu sotilgan mahsulot birligiga to'g'ri keladigan foyda ulushini, ya'ni sotilgan mahsulotning samaradorlik darajasini tavsiflaydi. U yalpi foyda samarasining (YAF) mahsulot sotishdan tushgan sof pul tushumiga (ST) nisbati ko'rinishida hisoblanadi:

$$Srent = YAF : CT$$

3. Korxonaning o'z kapitali rentabelligi (O'KreNt) - bu sof

foydaning korxonaga o'z kapitali (mablag'i) 1 so'miga to'g'ri keladigan ulushidir. U sof foydaning (SF) korxonaga o'z kapitalining o'rtacha yillik summasiga nisbati ko'rinishida aniqlanadi:

$$O'K = SF : O'K$$

4. Xarajatlar rentabelligi (X_{rent}) - bu korxonaga asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan olingan foydaning asosiy ishlab chiqarish xarajatlari (sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi, sotish xarajatlari, ma'muriy xarajatlar, asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan xarajatlar)dagi (A_{ICHX}) ulushini tavsiflaydi.

$$X_{rent} = AFF : A_{ICHX}$$

5. Aksionerlik jamiyatining bir dona aksiyasi rentabelligi (AK) - sof foydaning korxonaga aksiyalari (AK) soniga nisbati ko'rinishida hisoblanadi. Bu ko'rsatkich korxonaning bozordagi faolligini tavsiflaydi.

$$AK_{rent} = SF : AK$$

Rentabellikning barcha ko'rsatkichlari korxonaning barqarorligini aniqlashga, uning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga va bozordagi raqobatbardoshligini ko'tarish bo'yicha tadbirlarni belgilashga xizmat qiladi.

Ushbu formulalarga aniq ma'lumotlarni qo'llab, korxonaga aktivlari rentabelligiga ta'sir etuvchi omillarni hisoblash uchun quyidagi jadvalni tuzish tavsiya qilinadi (3-jadval).

3-jadval.

Korxonaga rentabelligini aniqlash va uning hisobot yildagi o'zgarishining tahlili

(ming so'm)

Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilida	O'zgarishi (-,+)	O'sish sur'ati, %
Mutlaq ko'rsatkichlar				
1.Sof foyda(S_f)	368,0	496,2	+128,2	134,8
2.Asosiy vositalarning o'rtacha qiymati(A_v)	2956,5	3497,5	+541,0	118,3
3. Aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymati (A_{ym})	7269,0	8810,0	+1541,0	121,2
4. Nomoddiy aktivlarning o'rtacha qiymati (N_f)	73,2	195,0	+121,8	266,4
5. Barcha aktivlar (B)	10298,7	12502,5	+2203,8	121,4

(2q+3q+4q+)				
Nisbiy ko'rsatkichlar				
6. Rentabellik darajasi, (Ra) $\{(1q \times 100) / (2q + 3q + 4q)\}$ yoki $\{(1q \times 100) / 5q\}$	3,57	3,97	+0,40	111,2

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxonada aktivlar rentabelligi hisobot yilida 0.40%ga oshgan. Bu bir qancha omillar ta'sirida ro'y bergan. Ularni aniqlash uchun quyidagi jadvalni tuzish tavsiya qilinadi (4-jadval).

4-jadval.

Rentabellik darajasiga ta'sir etuvchi omillarni zanjirli almashtirish yo'li bilan aniqlash hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	O'tgan yilida	Hisobot yilida	Farqi (+,-)	Zanjirli almashtirishlar			
				I	P	SH	IV
1.Sof foyda	368.0	496,2	+ 128.2	496.2	496.2	496.2	496.2
2.Asosiy vositalar	2956.5	3497.5	+541.0	2956.5	3497.5	3497.5	3497.5
3.Aylanma mablag'lar	7269.0	8810.0	+1541.0	7269.0	7269.0	8310.0	8810.0
4.Nomoddiy aktivlar	73.2	195.0	+121.8	73.2	73.2	73.2	195.0
5.Barcha aktivlarning rentabellik darajasi, %	3.57	3.97	+0.40	4.82	4.58	4.01	3.97

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, barcha aktivlarning rentabellik darajasi hisobot yilida 0.40% bandga oshgan. Bu quyidagi omillar evaziga sodir bo'lgan:

1. Foyda summasining 128.2 ming so'mga ko'payganligi barcha aktivlar rentabellik darajasini 1,25% bandga oshirgan:

(4.82-3.57).

2. Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatining 541.0 ming so'mga ko'payganligi tahlil qilinayotgan ko'rsatkich darajasini 0.24% bandga kamayishiga olib kelgan:

(4.58-4.82),

3. Aylanma mablag'lar o'rtacha qiymatining 1541.0 ming so'mga ko'payganligi barcha aktivlar rentabellik darajasini 0.57% bandga kamaytirgan:

(4.01-4.58).


4. Hisobot yilida nomoddiy aktivlarning 121.8 ming so'mga ko'payganligi ushbu kategoriyaning rentabellik darajasini 0.04% bandga kamaytirib yuborgan:

(3.97-4.01).

Barcha omillar ta'siri natijasida barcha aktivlar rentabellik darajasining umumiy o'zgarishi hosil bo'lgan:

$$1.25 - 0.24 - 0.57 - 0.04 = +0.40\%$$

Demak, xususiy kapital rentabellik koeffitsientining katta bo'lishi, doim ham korxonaga kiritilayotgan kapital qaytimiga mos kelavermaydi; moliyaviy qarorlarni qabul qilishda bu ko'rsatkichni e'tiborga olishdan tashqari, korxonaning bozordagi bahosini (bozor kapitalizatsiyasi) ham inobatga olish zarur.



2-chizma. Korxonada umumiy rentabelligiga ta'sir qiluvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlik.

Yuqoridagi ko'rsatkichlarni moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari asosida aniklab, omilli tahlil uchun quyidagi jadvalni tuzish tavsiya qilinadi (5-jadval).

Moliyaviy natijalar umumlashgan ko'rsatkichiga ta'sir qiluvchi omillar hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilida	Zanjirli almashtirishlar	
			I	II
1. Sof foydaning yalpi foydadagi ulushi, %	61.995	61.994	61.994	61.994
2. Yalpi foydaning sotilgan mahsulotdan olingan yalpi moliyaviy natijalaridagi Hissasi	0.939	0.938	0.939	0.938
3. Yalpi moliyaviy natijaning sotilgan sof mahsulotdagi hissasi	0.138	0.150	0.138	0.138
4. Mahsulot rentabelligi, % (1q x 2q x Zq)	8.03	8.72	8.03	8.02

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mahsulot rentabelligi ko'rsatkichining 0.69% (8.72-8.03) oshganligiga quyidagi omillar ta'sir qilgan:

1. Sof foydaning yalpi foydadagi ulushi juda kam miqdorda, ya'ni 0.001% o'zgaragan. Bu natija o'zgarishiga ta'sir qilmagan:

$$8.03 - 8.03 = 0$$

2. Yalpi foydaning sotilgan mahsulotdan olingan yalpi moliyaviy natijalaridagi hissasi 0.001ga (0.938-0.939) kamayganligi natijani 0.01% kamayishiga olib kelgan:

$$0.938 - 0.939 = -0.001$$

3. Yalpi moliyaviy natijaning sotilgan sof mahsulotdagi hissasi 0.012ga ko'payganligi mahsulot rentabelligini 0.7% oshirgan:

$$8.72 - 8.03 = +0.69$$

Barcha omillar ta'siri natijaning umumiy farqiga teng:

$$0 - 0.001 + 0.69 = +0.689$$

Bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyot sharoitida ko'p korxonalar barcha aktivlardan samarali foydalanish masalasini ustuvor

vazifa qilib qo'yishmoqda. Chunki korxonaning aktivlari ularning mulki. Bu mulk foyda keltirish uchun mo'ljallangan mulkdir. Shu tufayli mazkur ko'rsatkichning tahlili iqtisodiy tahlilning tarkibiy qismiga asoslangan. Buni inobatga olib, ushbu ko'rsatkich tahliliga to'xtalishni maqsadga muvofiqdir.

“2000 yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida sanoatning hissasi atigi 14,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda bu ko'rsatkich 24 foizni, transport va aloqaning ulushi tegishli ravishda 7,7 va 12,4 foizni tashkil etdi, xizmatlar bo'yicha bu raqam 37 foizdan 49 foizga o'sdi. Qishloq xo'jaligining ulushi esa 30,1 foizdan 17,5 foizga tushdi.”⁸³

Shu tariqa, tavsiya qilinuvchi ko'rsatkichlar tahlil jarayonida korxonaning moliyaviy barqarorligini aniqlash, ishlab chiqarish samaradorligi va korxonaning bozordagi raqobatbardoshligini oshirishga oid chora-tadbirlar belgilashga imkoniyat yaratadi.

Qisqacha xulosalar

Har bir xo'jalik yurituvchi sub'ektning tadbirkorlik faoliyatidan asosiy maqsad foyda olishdir. Foyda olish degani korxonada daromadlari uning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlardan ortishini anglatadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini doimiy ravishda pasaytirib borish foyda olishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Xarajatlar majmuasi korxonaga mahsulot ishlab chiqarish qanchaga tushishini ko'rsatadi.

Foyda korxonada turli xil faoliyat orqali olinishi mumkin bo'lib, uning miqdori ishlab chiqarish omillari bahosi o'zgarishi (tashqi omillar) yoki ishlab chiqarish xarajatlarini ulardan noratsional foydalanish sababli oshirish (ichki omillar) tufayli o'zgarib turadi.

Biroq foyda mutlaq (absolyut) kattalik sifatida ishlab chiqarish samaradorligini to'liq tavsiflamaydi. Ishlab chiqarishning barcha omillaridan foydalanish samaradorligini baholashda, rentabellik ko'rsatkichlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Rentabellik ko'rsatkichlari korxonada faoliyati qanchalik foyda keltirishini ko'rsatadi. Rentabellik ko'rsatkichlarining tahlili yuzaga

⁸³ И. Каримов. “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади” – 2010 йилнинг асосий яқунлари ва 2011 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

kelgan holatga baho berish hamda moliyaviy barqarorlikni kuchaytirish chora-tadbirlarini belgilashga imkon yaratadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi qaysi elementlardan tarkib topgan?
2. Davr xarajatlari tarkibini yoriting.
3. Moliyaviy xarajatlar tarkibini yoriting.
4. Moliyaviy natijalarning qanaqa ko'rsatkichlarini bilasiz?
5. Foyda iqtisodiy kategoriya sifatida hamda uning korxonaning tijorat va ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilishdagi ahamiyati.
6. Foydani shakllantirish manbalari.
7. Foydani taqsimlash va uni ko'paytirish yo'llari.
8. Rentabellikning iqtisodiy mohiyati.
9. Rentabellik ko'rsatkichlari va ularni aniqlash uslubiyati.

11-bob. Korxonaning investitsiyaviy faoliyati

11.1. Investitsiya tushunchalari mazmuni, mohiyati va investitsiyalarning turlari

11.2. Investitsiya manbalarini shakllantirish. Moliya bozorlari tasnifi

11.3. Investitsiyaviy loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash

11.4. Korxonaning investitsiya strategiyasi. Investitsion loyixa, uning samaradorligini hisoblash. Investitsiya oqimini diskontlashtirish

Tayanch iboralar: Investitsiyalar, kapital qo'yilmalar, moliyaviy investitsiyalar, real investitsiyalar, investitsiya loyihasi, investitsiyalarning ichki manbalari, investitsiyalarning tashqi manbalari, lizing, yangi qurilish, korxonani kengaytirish, qayta tiklash, texnik qayta qurollantirish, kapital qo'yilmalarning mulk shakliga ko'ra tuzilmasi, investitsion loyihalarning samaradorligini baholash, investitsiyalarning qoplanish muddati.

11.1. Investitsiya tushunchalari mazmuni, mohiyati va investitsiyalarning turlari

Xo'jalik faoliyatining elementlaridan biri - investitsiya hisoblanadi.

Investitsiya lotincha "**investire**" (kiyintirish, yasantirish), nemischa "**investment**" so'zidan kelib chiqib, uzoq muddatga qandaydir ishga yoki korxonaga kapital mablag' qo'yishni bildiradi. Investitsiya so'zidan investor - omonatchi so'zi kelib chiqib, u omonat beruvchi shaxs, tashkilot yoki davlatni anglatadi. Investorlar qatoriga qimmatli qog'ozlarni sotib oladigan va bu bilan o'zlarining bo'sh mablag'ini joylashtiradigan yuridik hamda jismoniy shaxslar ham kiradi.

“Mamlakatimizda 2010 yilda 2009 yilga nisbatan 13,6 foizga ko'p, ya'ni 9 milliard 700 million AQSH dollariga teng miqdordagi investitsiyalar o'zlashtirildi, bu yalpi ichki mahsulotning qariyb 25 foizini tashkil etadi.”⁸⁴

⁸⁴ И. Каримов. “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади” – 2010 йилнинг асосий яқунлари ва 2011 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

Korxonalar xo'jalik yuritish va ishlab chiqarish faoliyatining muhim jihatlaridan biri ishlab chiqarish va iqtisodiy salohiyatni rivojlantirish va saqlab qolishdir. Korxonalarining bu yo'nalishdagi faoliyati investitsion faoliyat deb ataladi hamda "Investitsion faoliyat to'g'risida" gi qonun va boshqa huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Investitsiya - bu moliyaviy (pul) yoki real kapitalga mablag' ko'yish. U pul mablag'lari, kredit, qimmatbaho qog'oz shaklda olib boriladi va ko'chma, ko'chma bo'lmagan mol-mulkka, intellektual mulkga, ne'matlarga bo'lgan huquqga va boshqa qiymatliklarga quyiladi, ya'ni korxonaning barcha aktivlarga ishlatiladi.

Investitsiyalar –korxonalar va xalq xo'jaligi miqyosida yangi ishlab chiqarish korxonalari yaratish yoki mavjud korxonalarni zamonaviylashtirish, ilg'or texnika va texnologiyalarni o'zlashtirish, mahsulot ishlab chiqarish va foyda (daromad) olishni ko'paytirish maqsadida uzoq muddatli mablag'lar kiritilishidir. Investitsiyalar ijtimoiy ishlab chiqarish tuzilmasini yaxshilash, ishlab chiqarishdagi nomutanosibliklarini bartaraf qilish va iste'mol bozorini ta'minlashda

Uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan, mamlakatimizning salohiyati, qudrati va iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan navbatdagi muhim ustuvor yo'nalish – bu asosiy etakchi sohalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, transport va infratuzilma kommunikatsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan strategik ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun faol investitsiya siyosatini olib borishdan iborat.

I.Karimov (ma'ruzadan)

alohida e'tiborga ega. Investitsiyalarni shakllantirish va ulardan foydalanish, mamlakat va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning investitsion siyosati asosida amalga oshiriladi. Bu siyosat birinchidan, kapital qo'yilmalarning ustuvor yo'nalishlarini, ikkinchidan, ishlab chiqarish kuchlarini to'g'ri joylashtirish va rivojlantirish, uchinchidan, fan-texnik taraqqiyoti va butun

iqtisodiyotning rivojlanishini belgilab beradi. Investitsiyalarning "xo'jayini" sifatida korxonalarining o'zidan tashqari, davlatni, mahalliy hokimiyat idoralari va xususiy tadbirkorlarni ko'rsatish mumkin.

Ko'pincha investitsiya deganda kapital qo'yilmalar ko'zda tutiladi, bu narsa investitsiyalar tabiatini inkor qilmaydi va ularning mohiyatini noto'g'ri aks ettirmaydi. Investitsiyalar, bozor iqtisodiyotidagi boshqa, jumladan, biznes, raqobatchilik, ishbilarmonlik tushunchalari kabi, ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tilayotgan

bugungi kunlarda xo'jalik yuritish nazariyasi va amaliyotida o'z o'rnini topmoqda. Shu bilan birga, "kapital qo'yilmalar" atamasining o'z izohlari ham mavjud.

Kapital qo'yilmalar asosiy fondlarni qayta tiklash va o'stirish uchun sarflanuvchi moddiy, mehnat va pul resurslaridir. Ular asosan bir vaqtning o'zida amalga oshiriladigan xarakterga ega bo'lib, ishlab chiqarish xarajatlari yoki mahsulot tannarxi shaklidagi, joriy xarajatlardan farq qiladi. Kapital qo'yilmalar maqsadli xarakterga ega bo'ladi hamda xodimlarga mukofot to'lash, xizmat safari (komandirovka) xarajatlari va hokazolarga sarflanishi mumkin emas.

Nomoliyaviy aktivlarga, ya'ni real kapitalga qo'yilgan investitsiya asosiy kapitalni yangilash va takror ishlab chiqarishga xizmat qiladi.

Moliyaviy investitsiyalar qimmatbaho qog'ozlar, aktsiya va obligatsiyalar sotib olish, pul mablag'larini banklarga foiz olish maqsadida depozit hisob raqamlariga qo'yish bilan ifodalanadi.

Real investitsiyalar pul mablag'larini kapital qurilish, ishlab chiqarishni rivojlantirish va kengaytirishga kiritishni ifodalaydi. Real investitsiyalar korxonalar, tarmoq va butun xalq xo'jaligining kuch-quvvatini belgilab beradi.

Investitsiyalar avvaldan o'ylab ko'rilgan maqsad va birinchi o'rinda investitsion loyiha asosida korxonalar ishlab chiqarish potentsialini mustahqamlash va rivojlantirish vazifasini bajaradi.

"...tadbirkorlar o'z biznesiga bexavotir investitsiya kiritishi, ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirishi, mahsulot hajmi va olayotgan daromadini ko'aytirishi, o'z mulkiga o'zi egalik qilishi, foydalanishi, tasarruf etishi lozim."⁸⁵

Moliyaviy (pul) kapitaliga (moliyaviy mablag'larga kredit sifatida, qimmatbaho qog'ozlarga) ko'yilgan investitsiyani bir qismi tezlik bilan real kapitalga aylanishi mumkin, ikkinchisi - kengroq, ya'ni qandaydir vaqt o'tgandan keyin, uchinchisi esa - umuman real kapitalga aylanmasligi mumkin (Masalan: chiqarilgan yoki sotib olingan qimmatbaho qog'oz o'z qiymatini yo'qotsa, oddiy so'z bilan aytganda sinsa). Shu sababli moliyaviy investitsiyada investorga moliyaviy xatar ko'proq bo'ladi.

Investitsiya - moliya bozorining elementi hisoblanadi. Moliya bozori muayyan moliya muassasalari orqali o'zaro aloqada bo'ladigan mulk

⁸⁵ И. А. Каримов. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги "Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси" маърузаси// Халқ сўзи газетаси, 12.11.2010.

egalari bilan sarmoya, qarz oluvchilari o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi.

Aksiya va obligatsiyalar investitsiya qimmatbaho qog'ozlari, deb yuritiladi. **Moliya bozorida qimmatbaho qog'ozlarning** boshqa turlari -xazina majburiyatlar; depozit sertifikatlar; veksellar; varrantlar va hokazolar muomalada yuradi.

Investitsiya jamiyatdagi iqtisodiy rivojlanishiga va har bir jamiyat a'zosini moddiy farovonligini oshirishga ta'sir qiluvchi omil hisoblanadi.

Investitsiya korxonalariga, yangi mahsulot ishlab chiqish, ularni sifatini oshirish, mahsulotni sotishni va foydani ko'paytirish uchun qo'yiladigan mablag'. Shu sababli investitsiya ishlab chiqarishni

kengaytirishni, kapitalni oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni, yangi ish joylarini tashkil qilishni, ish haqini va aholini sotib olish quvvatini oshirishni, davlat va mahalliy byudjetga tushumlarni ko'paytirishni ta'minlaydi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan investitsiya asosiy va aylanma mablag'larni jamg'arishni anglatadi. Moliyaviy nuqtai nazardan moliyaviy resurslarni daromad (foyda) olish uchun to'plashni ko'rsatadi. Buxgalteriya hisobi nuqtai nazardan hisobotning aktiv va passivining bir necha moddalariga ishlatilgan kapital xarajatlarni birlashishini ifodalaydi.

Investitsiyalarning amal qilinishi bo'yicha quyidaga turlarga tasniflanadi:

1. Maqsadi bo'yicha - foyda olish uchun, ijtimoiy va ekologik ehtiyojlar uchun.

2. Ob'ekti bo'yicha - ishlab chiqarish va noishlab chiqarish.

3. Natural-moddiy ko'rinish bo'yicha - moddiy, nomoddiy va moliyaviy.

4. Hududiy kelib chiqishi buyicha - milliy va chet elli.

5. Moliyalashtirish manbalari bo'yicha - xususiy (amortizatsiya, foyda, sotilgan narsalardan tushum) va omonatga olingan (kredit, lizing va boshqalar).

6. Ishlab chiqarish investitsiyasini yo'nalishlari bo'yicha asosiy kapitalni yangilashga, ko'zg'almas mulkni, aylanma mablag'ni ko'paytirish uchun, yangi mahsulot yaratish uchun, mahsulotning sifatini

2010 yilda Investitsiya dasturiga muvofiq kapital qo'yilmalar o'tgan yilga nisbatan 22,1 foizga ortib, yalpi ichki mahsulotning 30 foizini tashkil qiladi. Bunda birgina ishlab chiqarish sohasiga mo'ljallangan investitsiya loyihalarini amalga oshirish barcha kapital qo'yilmalarning 75 foizidan ziyodi yo'naltiriladi.

I.Karimov (ma'ruzadan)

oshirish uchun.

7. Korxonani boshqarish huquqiga ega bo'lish omili bo'yicha: to'g'ridan-to'g'ri yoki bevosita; portfel.

To'g'ridan-to'g'ri yoki bevosita investitsiyalar - chet el kapitalini to'g'ridan-to'g'ri kiritilishiga bildirib, investorga ushbu korxonadan nazorat qilish huquqini beradi. Investitsiyani ushbu turi transkontinental (boshqa qit'a kontinentga sarmoya kiritish), kapital qo'yilmalari hamda transmilliy (qo'shni davlatlarga kapital chiqarish sifatida amalga oshiriladi) kapital quyilmalar sifatida namoyon bo'ladi.

Portfel investitsiyalar litsenzion va franchayzing kelishuvlari, marketing xizmati haqidagi kontraktlar asosida tashkil qilinsa, korxonalarni boshqarish huquqini beradi.

8. Amal qilish muddati bo'yicha - qisqa va uzoq muddatli investitsiyalar mavjud.

9. Kelib chiqish hududi bo'yicha - milliy va xorijiy investitsiyalar.

10. Tavakkalchilik darajasi bo'yicha - tavakkalchiligi past, ishonchli va tavakkalchiligi yuqori, spekulyativ investitsiyalar.

Investitsiyani bir turi bu - **annuitet**. **Annuitet** aholining shaxsiy investitsiyasi bo'lib, omonatchiga qandaydir bir davr ichida yoki doirasida daromad beradi. Annuitet, asosan sug'urta va pensiya jamg'armalariga mablag' qo'yishni anglatadi.

Investitsiya muassasalariga moliya brokerlari, investitsiya kompaniyalari (dillerlar), investitsiya sohasi bo'yicha maslahatchilar, investitsiya fondlardan iborat bo'lib, ular investitsiya bo'yicha vositachilik, qimmatli qog'ozlarni chiqarishni yo'lga qo'yish, ularni uchinchi shaxslar foydasiga joylashtirishi bo'yicha kafolatlar berish, aksiyalar chiqarish kabi ishlar bilan Shug'ullanadi.

Investitsiya loyihasi kapitalni korxonani uning ishlab chiqarish quvvati va boshqa sifat ko'rsatkichlarini kuchaytirish maqsadida rivojlantirish va kengaytirishga kiritishni rejalashtirish va amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasidir. Investitsiya loyihasini tayyorlash va amalga oshirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

*174 investitsiyaviy g'oyalar(fikr)ni shakllantirish;

*175 g'oyalarning dastlabki asoslanishi;

*176 loyihada ko'zda tutilgan texnik qarorning tahlili;

*177 sertifikat talablarining bajarilishini tekshirish;

*178 investitsiya loyihasi bo'yicha davlat boshqaruv idoralari bilan kelishuv yuzaga keltirish;

*179 axborot memorandumini tayyorlash.

Yuqorida ko'rsatilganlarni amalga oshirgandan so'ng loyihani ishlab chiqish va texnik-iqtisodiy asoslab berish (tushuntirish xatidan to investitsion mo'ljallarning maqsad va vazifalari hamda kutilayotgan natijalar aks ettiriluvchi loyiha-smeta hujjatlarigacha) zarurati tug'iladi.

“Shuni yana bir bor eslatib o'tmoqchimanki, yurtimizda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari 2008 yilda 9 foiz, 2009 yilda 8,1 foiz, 2010 yilda esa 8,5 foizni tashkil etdi. Jahon moliya insitutlarining xulosasiga ko'ra, bu dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biri ekani albatta barchamizga mamnuniyat bag'ishlaydi.»⁸⁶

Investitsiyalar, ayniqsa gap yangi qurilish, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni kengaytirish yoki qayta tiklash haqida ketganda, investitsion jarayonlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu jarayonlar investitsion maqsadlarni zamon va makonda bog'laydi. Investitsion jarayonlarning quyidagicha tarkibiy qismlari mavjud: loyihalashtirishdan avvalgi asoslash, loyihalashtirish, bevosita ob'ekt qurilishi (korxonani kengaytirish yoki qayta tiklash) va ishga tushirilishi. Korxonalar uchun investitsiya jarayonining so'nggi bosqichi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu bosqichda amalga oshirilgan yangiliklar ekspluatatsion sinovlardan o'tkazilib, amaldagi va loyiha ko'rsatkichlari baholanadi hamda investitsiya jarayonining xuddi shu jarayonida hal qilinishi lozim bo'lgan chetga og'ish va kamchiliklar aniqlanadi.

Investitsiyalar – asosiy va aylanma kapitalni qayta tiklash va ko'paytirishga, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qilingan sarflarning pul shaklidagi ko'rinishi. U pul mablag'lari, bank kreditlari, aktsiya va boshqa qimmatli qog'ozlar ko'rinishida amalga oshiriladi. Pul mablag'lari ko'rinishidagi investitsiya **nominal investitsiya**, ana Shu pul

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim maqsadi va asosiy ustuvor vazifasi – bu islohotlarni davom ettirish va chuqurlashtirish, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, 2009-2012 yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturini so'zsiz bajarish va shu asosda iqtisodiy rivojlanishning yuqori va barqaror sur'atlarini, samaradorligini hamda makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashdan iboratdir.

I.Karimov (ma'ruzadan)

⁸⁶ И. Каримов. “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз таракқиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади” – 2010 йилнинг асосий якунлари ва 2011 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь

mablag'lariga sotib olish mumkin bo'lgan investitsion resurslar **real investitsiya** deyiladi.

Investitsiyalarni ro'yobga chiqarish bo'yicha amaliy harakatlar **investitsion faoliyat** deb atalib, u quyidagi manbalar hisobiga amalga oshirilishi mumkin:

- investorlarning o'z moliyaviy resurslari (foyda, amortizatsiya ajratmalari, pul jamg'armalari va h.k.);


- qarz olingan moliyaviy mablag'lar (obligatsiya zayomlari, bank kreditlari);

- jalb qilingan moliyaviy mablag'lar (aktsiyalarni sotishdan olingan mablag'lar, jismoniy va huquqiy shaxslarning pay va boshqa to'lovlari);

- davlat byudjeti mablag'lari;

- chet elliklar mablag'lari.

Mamlakatimizda Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirishda investitsiyalarni jalb etish, avvalo, ichki manbalarni safarbar etish hisobidan iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, transport kommunikatsiyalarini yanada rivojlantirish va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini barpo etish hal qiluvchi ustuvor yo'nalishga aylandi (1-rasm).



1-rasm. Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, mamlakatimizda investitsiyalarni jalb etishda avvalo ichki manbalarni safarbar etishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Bu yangi ishlab chiqarishni tashkil etish yoki mavjud ishlab

chiqarish quvvatlarini yanada kengaytirishda investorlarning o'z moliyaviy resurslari – korxonada foydasi, amortizatsiya ajratmalari, pul jamg'armalari va boshqalardan kengroq foydalanish zarurligini anglatadi. Chunki, ichki manbalarning to'liq safarbar etilishi, bir tomondan, mavjud iqtisodiy resurslardan tejamli va oqilona foydalanishni ta'minlasa, boshqa tomondan, investitsiyalarning samaradorligini oshiradi.

Mamlakat miqyosidagi investitsiya faoliyatini samarali amalga oshirish maqsadida **investitsiya dasturi** ishlab chiqiladi.

Investitsiya dasturi - respublika iqtisodiyotini barqaror va tadrijiy rivojlantirishga erishishga, tabiiy, mineral-xom ashyo, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish yo'li bilan respublika ayrim tarmoqlari va mintaqalarini tarkibiy o'zgartirishning asosiy ustuvorliklarini va strategik vazifalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan bir-biri bilan o'zaro bog'langan chora-tadbirlar kompleksi.

Investitsiya muhiti – investitsiyalar jozibadorligi hamda xavf-xatar darajasini belgilab beruvchi ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy va siyosiy omillar majmui.

Investorlar – xususiy va qarzga olingan mulkiy va intellektual qiymatlarni sarflash haqida qaror qabul qiluvchi investitsiya faoliyati sub'ektlari. Investorlar ob'ektlar va investitsiya natijalariga egalik qilish, foydalanish va tasarruf qilish huquqiga ega bo'ladi. Investorlar kreditorlar va haridorlar rolini bajarishlari, shuningdek investitsiya faoliyatining boshqa ishtirokchilari funktsiyalarini bajarishlari mumkin. Odatda investorlar kapital qo'yilmalar sarflanadigan sohalarni aniqlaydilar, kontrakt va shartnomalarning shartlarini ishlab chiqadilar va investitsiya aktining boshqa tomonlari bilan – kontraktor, hukumat organlari, pirovard mahsulot ishlab chiqaruvchilar va shu mahsulotning iste'molchilari bilan hisob-kitoblarni amalga oshiradilar.

Shuningdek, mamlakatimizda texnik modernizatsiyalash bo'yicha **tarmoq dasturlari** ham ishlab chiqilib, ularda iqtisodiyotimizning etakchi tarmoqlarini texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, ishlab chiqarishning zamonaviy andozalariga o'tish, tejamkor va samarali texnologiyalarni qo'llash kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutiladi.

Jumladan, mamlakatimizda 2009-2014 yillarga mo'ljallangan ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta qurollantirish bo'yicha muhim loyihalarni amalga oshirish choralari dasturi umumiy


qiymati 42,51 mlrd. doll.dan iborat 852 ta investitsiya loyihasini o'z ichiga oladi. 2009 yilda tasdiqlangan ayrim tarmoq dasturlari to'g'risidagi ma'lumotni quyidagi jadval orqali ko'rish mumkin (1-jadval).

1-jadval.

Modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta qurollantirishning tasdiqlangan tarmoq dasturlari

Tarmoqlar	Loyihalar soni, dona	Loyihalar qiymati, mln. doll.
Paxta tozalash sanoati	41	129,7
To'qimachilik sanoati	65	477,7
Yog'-moy sanoati	63	31,7
Kimyo sanoati	30	291,7
Avtomobil sanoati	26	255,1
Qurilish materiallari sanoati	36	343,1
«O'zmetkombinat» aktsiyadorlik ishlab chiqarish birlashmasi	9	49,0
Farmatsevtika tarmog'i	45	26,5
Navoiy tog'-kon metallurgiya kombinati	26	892,1
Olmaliq tog'-kon metallurgiya kombinati	13	405,3
Qishloq xo'jalik mashinasozligi	13	28,0
Temir yo'l tarmog'i	18	1734,2

Respublikamizda 2009-2010 yillar mobaynida qayd etib o'tilgan investitsiya dasturi va texnik modernizatsiyalash bo'yicha tarmoq dasturlari doirasida 690 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilib, ularning 303 tasi muvaffaqiyatli yakunlandi. Buning natijasida 22 ta yirik ishlab chiqarish ob'ekti, jumladan, neft-gaz, kimyo, metallurgiya sanoatida 8 ta, mashinasozlik sanoatida 9 ta va qurilish industriyasida 5 ta ob'ekt foydalanishga topshirildi.



Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan

2009-2014 yillarda amalga oshirish ko'zda tutilgan investitsion loyihalar Dasturini to'liq amalga oshirish uchun barcha moliyaviy manbalar hisobidan jami 42,5 mlrd. dollar miqdorida mablag' ajratilishi ko'zda tutilgan.

Shuningdek, ma'ruzada 2010 yilda mamlakatimizda muhim strategik loyihalarni amalga oshirish uchun 3 milliard AQSH dollaridan ziyod yoki o'tgan yilga nisbatan 30 foiz ko'p xorijiy investitsiyalar jalb qilinishini va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 46 foizga oshishi rejalashtirilayotganligi alohida e'tirof etildi.

Investitsiya dasturlarida muayyan davrda amalga oshirilishi mo'ljallangan loyihalar, ularning bajarilish bosqichlari va sarflanishi ko'zda tutilgan mablag'lar qiymati hududlar va tarmoqlar bo'yicha aks ettiriladi. Investitsiya dasturlari uzoq muddatga mo'ljallangan bo'lib, unda har bir yil uchun mo'ljallangan chora-tadbirlar alohida ifodalangan bo'ladi.

Bunday yirik loyihalarni, birinchi navbatda, infratuzilma loyihalarini amalga oshirish uchun ichki resurslarni jalb qilishda mamlakatimizda 2007 yili tashkil etilgan Tiklanish va taraqqiyot fondi juda katta hissa qo'shdi. Bugungi kunda bu fondning jamg'armasi 3,7 milliard dollarni tashkil etmoqda.

I.Karimov (ma'ruzadan)

“Iqtisodiyotning eng muhim etakchi tarmoqlariga xususiy investorlarni jalb qilish va ularda nodavlat sektor ulushini yanada kengaytirish zarur. Bunda bo’lajak investorlarning barcha toifalariga xususiylashtirish jarayonlarida teng sharoit yaratishni ta’minlash, ularda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish, xususiylashtirish bitimlarining ochiqligi va oshkoraligini ko’zda tutish lozim.”⁸⁷

Prezidentimiz O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo’shma majlisidagi (2010 yil 27 Yanvar) ma’ruzasida Oliy Majlisning qonun ijodkorligi faoliyatida mamlakatimizda iqtisodiy sohada amalga oshirilayotgan tarkibiy o’zgarishlarni, qulay investitsion muhitni shakllantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlash, bank-moliya tizimini rivojlantirishni normativ-huquqiy jihatdan ta’minlash masalalari alohida o’rin egallaganligini ta’kidlab o’tdi.

11.2. Investitsiya manbalarini shakllantirish. Moliya bozorlari tasnifi

Investitsiya resurslari iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlanishini boshqarishning iqtisodiy omili vazifasini bajaradi. Investitsiya mablag’lari ishlab chiqarish, xizmat ko’rsatish jarayonlarida hamda aholining foydalanilmayotgan mablag’larini to’planish natijasida, ularni boshqa jarayonlarda ishlatishini ta’minlaydi.


Deyarli barcha faoliyat ko’rsatuvchi korxonalar davlatga tegishli bo’lgan sobiq ma’muriy-buyruqbozlik tizimi sharoitlarida investitsiyalarning asosiy manbai davlat (byudjet) mablag’laridan tashkil topar edi. Garchi o’sha sharoitlarda ham jamg’arma fondlar - asosiy investitsion manbalar korxonalar foydasi (daromadi) hisobiga amalga oshirilgan bo’lsada, korxonalarining mablag’larni qaerdan olish va qaerga joylashtirish to’g’risida “boshi” og’rimas edi. qo’shimcha manba sifatida korxonalarining amortizatsiya fondi xizmat qilardi.

Respublikamizga xorijiy investitsiya va kreditlarni jalb qilish sxemasi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 24 iyuldagi 927-sonli Qaroriga muvofiq amalga oshiriladi (3-rasm).

⁸⁷ И. А. Каримов. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” маърузаси// Халқ сўзи газетаси, 12.11.2010.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 6 fevraldagi 578-sonli Qaroriga muvofiq xorijiy investitsiyalarni axborot bilan ta'minlash va ko'maklashish «O'zinfoinvest» agentligi xorijiy investorlarga axborot bilan qo'llab-quvvatlash hamda har taraflama ko'maklashish maqsadida tashkil etilgan. Agentlik Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi huzuridagi yuridik shaxs quqlariga ega bo'lgan mustaqil muassasadir.

3-pacm. Respublikaga xorijiy investitsiya va kreditlarni jalb qilish sxemasi.



«O'zinfoinvest» agentligi 3 ta yo'nalish bo'yicha xorijiy investitsiyalarni jalb etadi:

1) to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar:

- davlat investitsiya dasturi yig'ma ro'yxati loyihalari;

- hududiy investitsiya dasturi loyihalari;

- davlat kafolati ostida imtiyozli kredit mablag'larini jalb etish yig'ma ro'yxati;

- grant mablag'lari.

2) korxonalarining aksiyalar paketini istiqbolli xorijiy investorlarga taklif etish;

3) kimoshdi savdolariga mulkiy majmua sifatida qo'yilgan korxonalarni istiqbolli xorijiy investorlarga taklif etish.

Shuning bilan birga «O'zinfoinvest» agentligi mahalliy tadbirkorlik sub'ektlariga xorijiy investorlarni topish, ularni O'zbekistonga taklif qilib muzokaralar tashkil etishga ko'maklashish, investorlarga respublika investitsion salohiyati, shuningdek soliq va qonunchilikdagi boshqa imtiyozlar to'g'risida ma'lumot beradi.

Mazkur tushunchalar (jamg'arma fondi, amortizatsiya fondi, foyda) hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, investitsiyalarning asosiy manbai hisoblanadi. Masalan, davlat korxonalari uchun asosiy investitsiya manbai quyidagilar: foyda, amortizatsiya fondi va byudjet mablag'lari, qo'shma korxonalar uchun - foyda, amortizatsiya fondi va kredit resurslari.

Korxonalar nuqtai nazaridan investitsiya manbalari - ularning o'z mablag'lari (foйда, amortizatsiya, boshqa pul jamg'armalari); qarzga olingan mablag'lar (bank krediti va boshqa tashkilotlarning omonatlari); boshqa jalb qilingan mablag'lar (aktsiya va boshqa qimmatbaho qog'ozlarni sotishdan kelgan daromadlar); byudjet va byudjetdan tashqi mablag'larni tashkil qiladi.

Rejalashtirish va boshqaruv tizimida shuningdek, investitsiya manbalarini aniqlashning ichki va tashqi turlaridan ham foydalaniladi.

Investitsiyalarning **ichki manbalari** quyidagilar:

- ishlab turgan asosiy kapitalga hisoblanuvchi amortizatsiya ajratmalari natijasida shakllanuvchi, korxonaning o'z moliyaviy vositalari;
- foydaning investitsiya ehtiyojlariga ajratiluvchi qismi;
- sug'urta kompaniyalari va muassasalari tomonidan tabiiy ofat va boshqa hodisalarda to'lanuvchi mablag'lar;
- korxonaning aktsiyalar chiqarishi va sotishi natijasida olinuvchi mablag'lar;
- yuqori turuvchi va boshqa organlar tomonidan qaytarib bermaslik asosida ajratiluvchi mablag'lar;
- xayriya va Shu kabi boshqa mablag'lar.

Investitsiyalarning **tashqi manbalari** quyidagilar:

- markaziy va mahalliy byudjetdan, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi turli xil fondlar tomonidan ajratiluvchi qaytarib bermaslik asosidagi mablag'lar;
- korxonalar nizom jamg'armasida moliyaviy yoki boshqa moddiy va nomoddiy ishtirok shaklida, shuningdek, xalqaro moliya institutlari va

alohida shaxslarning to'g'ridan-to'g'ri qo'yilmalari shaklida kiritiluvchi xorijiy investitsiyalar;

- davlat va turli xil fondlar tomonidan qaytarib berish sharti bilan beriluvchi kreditlar, jumladan imtiyozli kreditlar.

Korxonalarining mustaqil xo'jalik faoliyati sharoitlarida ichki mablag'lar tarkibida amortizatsiya ajratmalari asosiy o'rinni egallaydi. Uning korxonaga investitsion resurslaridagi ulushi 50% va undan ko'proqni tashkil etadi.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarining investitsion faoliyatini yanada jonlantirish, xorijiy investitsiyalarni, avvalo to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish va ulardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta qurollantirish, yangi ish o'rinlarini shakllantirish va bular asosida milliy iqtisodiyotimizni barqaror va dinamik rivojlanishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1213-sonli «O'zbekiston Respublikasining 2010 yilga investitsion dasturi haqida»gi Qarori⁸⁸ tasdiqlangan bo'lib, ushbu dastur asosidagi kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish manbalari tarkibida bank tizimi investitsion kreditlarning ahamiyati yuqori bo'lmoqda. Buni quyidagi jadval ma'lumotlari orqali ko'rishimiz mumkin.

Investitsiya manbalarini uning tarkibidan kelib chiqib moliyaviy va moddiy resurslarga ajratish mumkin.

Moliyaviy manbalarga - nakd pul; chet el valyutasi; xalqaro to'lov pullari; aksiyalar; zayomlar; korxonalar mablag'lari; amortizatsiya fondi kiradi.

Moddiy resurslarga - xom-ashyo resurslari; ko'chmas mulk; jamoa-shirkat xo'jalik mulki; fermerlar mulki; dehqon xo'jalik mulki; tadbirkorlar mulki kiradi.

Investitsiya manbalarini shakllantirishda moliya bozori va uning infratuzilmasi muhim ahamiyatga ega. Moliya bozorining asosiy maqsadi muomoladagi ortiqcha bo'lgan pul resurslarini aktiv kapital sifatida ishlab chiqarishga jalb qilishdan iborat.

Moliya bozori juda keng ma'nodagi tushuncha bo'lib, u doimo paydo bo'ladigan jamg'armalardan samarali foydalanish jarayonini o'zida ifodalaydi.

2-jadval.

⁸⁸ Қараг:www.lex.uz

O'zbekiston Respublikasida 2010 yilgi investitsion dasturi kapital qo'yilmalarining asosiy parametrlari


№	Moliyalashtirish manbalarining nomlari	2010 yilgi prognoz, mlrd. so'm	Jamiga nisbatan foizda
	Kapital qo'yilmalar, jami	18220,3	100
1.	<i>Markazlashtirilgan investitsiyalar</i>	3819,8	20,9
2.	<i>Nomarkazlashtirilgan investitsiyalar</i>	14400,5	79,1
2.1.	Korxonalar mablag'lari	7777,7	42,7
2.2.	Tijorat banklari kreditlari	1530,0	8,4
2.2.1	Shu jumladan, ATB «Qishloq qurilish bank»ining imtiyozli kreditlari	256,3	1,4
2.3.	To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar v kreditlar	3876,8	21,2
2.4.	Aholi mablag'lari	1216,0	6,6

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1213-sonli «O'zbekiston Respublikasining 2010 yilga investitsion dasturi haqida»gi Qarori.

Moliya bozori hayotda vujudga kelgan jamg'armalarni (oilada, korxonada) bir turdan (jamg'armalanishi) ikkinchi turga (real kapitalga aylanishi) o'tishni ta'minlovchi mexanizmdir.

Hozirgi zamon moliya bozorining asosini moliya muassasalari va vositachilar tashkil qiladi. Ular sotuvchilar va xaridorlar hamda sotiladigan va sotib olinadigan tovar, pul va boshqa moliya aktivlari mavjud bo'lgan bozordir.

Moliya bozorining tasnifi quyidagi 1-chizmada tasvirlangan.




2-chizma. Moliya bozorlarini tasnifi

Investidoyalarni ob'ektlarga qo'yish sohalariga qarab quyidagilarga ajratish mumkin:

- kam ko'llaniladigan investitsion mablag'lar, ya'ni qo'riq (bo'sh yotgan) erlarni o'zlashtirish, mehnat resurslaridan vaqtincha foydalanish (mutaxassislar va rahbarlardan) va h.k.;

- ma'lum xajmda talab qilinadigan investitsiya mablag'lari;
- rejalashtirilgan investitsiyadan olinadigan daromadga ta'sir etuvchi boshqa investitsion sharoitlar, ya'ni rejalashtirilgan asosiy investitsiya mablag'lariga qo'shimcha investitsiya mablag'larini jalb etish yo'li bilan investitsiyadan keladigan foydani oshirish;
- faoliyatga ko'yilgan shakliga qarab, investitsiya o'z harakatida daromadlarni oshirish yoki kamaytirish, xavf-xatarni kamaytirish, mehnat jamoasining manfaatdorligini oshirish, ish sharoitini yaxshilash, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni muvofiqlashtirishga yo'naltirilishini ta'minlash zarur;
- qo'shimcha investitsiyalar xarajatlarni kamaytirish, samaradorlikni oshirish, mahsulot ishlab chiqishni va sotishni oshirish, qo'shimcha daromad olishni ta'minlashga yo'naltirilishi kerak;
- ma'lum ishlab chiqarishga yo'naltirilgan investitsiyalar tarkibi ishlab chiqarishni ixtisoslashuviga qarab taqsimlanishi darkor;
- investitsiyalar resurslarni tejash, yangi mahsulot ishlab chiqish, korxonalar imidjini oshirish, tabiatni muhofaza qilish va hokazolarni ta'minlashi ham zarur.

Investitsion maqsadlarga yo'naltiriluvchi mablag'lar tanqisligi sharoitida lizing investitsion faoliyatni faollashtiruvchi muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.



3-рasm. О'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturining 2010 yilga belgilangan asosiy ko'rsatkichlari, mln.sum

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot Vazirligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Bu borada to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etadigan iqtisodiyot tarmoqlari korxonalarini asosiy faoliyati bo'yicha daromad solig'i, mulk solig'i, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va hududlarni obodonlashtirish solig'i, mikrofirma va kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliq to'lashdan, Shuningdek Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashdan xorijiy investitsiyalar hajmi quyidagicha bo'lganda ozod qilinadi:

- 300 ming AQSH dollaridan 3 million AQSH dollarigacha - 3 yil muddatga;

- 3 milliondan ortiq AQSH dollaridan 10 million AQSH dollarigacha - 5 yil muddatga;

- 10 million AQSH dollaridan ortiq bo'lganda - 7 yil muddatga.

Bu yo'nalishda aniq maqsadli ish olib borish nafaqat investitsiyalarni, balki eng avvalo, ilg'or texnologiya va nou-xaularni jalb etishni ko'zda tutadi. Ular esa O'zbekistonga jahon bozorida o'z mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Aytish kerakki, jiddiy xorijiy investorlar uchun yaratilayotgan keng istiqbollar va imkoniyatlar hamda aniq bayon etilgan taraqqiyot ustuvorliklari etakchi transmilliy kompaniyalar va korporatsiyalarning mamlakatimizga o'z investitsiyalarini olib kirishiga yuqori darajada intilishini ta'minlaydi. So'nggi yillarda jalb etilgan hamda izchil va yanada iqtisodiy o'sish, yangi yuqori texnologiyali ish o'rinlarini yaratish hamda aholi daromadi darajasini ko'tarishning ishonchli manbaiga aylangan uzoq muddatli investitsiyalar hajmi 35 milliard dollardan oshdi.

Hozirgi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining etakchi tarmoqlari bo'lgan neft-gaz va neft-kimyohoh sohalarida «Xitoy milliy neft korporatsiyasi», Janubiy Afrikaning «Sasol», Malayziyaning «Petronas», Koreyaning «Lotte», «LG international», «SK» korporatsiyalari, Koreya milliy neft korporatsiyasi, Koreya milliy gaz korporatsiyasi, Rossiyaning «Gazprom» va «Lukoil», Amerikaning «Texaco», Yaponiyaning «Mitsui» va «Marubeni» korporatsiyalari, mashinasozlik sohasida – Amerikaning

Dunyodagi mashhur va nufuzli kompaniyalar, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki, Janubiy Koreya, Yaponiya taraqqiyot banklari singari moliya institutlari, qator arab davlatlarining investitsiya fondlari va boshqa xorijiy tashkilotlar yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan, yuksak texnologiyalarga asoslangan mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirishda bizning yirik hamkorlarimiz bo'lmoqda.

I.Karimov (ma'ruzadan)

«Jeneral Motors», Germaniyaning «MAN», Yaponiyaning «Isuzu»; aviatsiya infratuzilmasi va multimodal logistika sohasida – Koreyaning «Koreyan Eyr» va Yaponiyaning «Mitsubisi»; oziq-ovqat va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish sohaslarida – Shveysariyaning «Nestle», Angliya-Amerikaning «VAT», kimyo sohasida – Ispaniyaning «Maksam»; to'qimachilik va engil sanoat sohaslarida – Koreyaning «DEU interneyshnl», Hindistonning «Spenteks», Yaponiyaning «Mitsubisi» va boshqa o'nlab xorijiy kompaniyalar, bank-moliya sektorida «Royal Bank of Scotland», «Koreya Taraqqiyot banki» va hokazolar yaqin sheriklar hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida xorijiy investorlar bilan birgalikda faoliyat olib borayotgan **qo'shma korxonalarining soni 4 mingdan oshdi.**

Lizing - moliyaviy-kredit munosabatlarining shakllaridan biri bo'lib, korxonalarining qurilma va asbob-uskunalarini ishlab chiqaruvchi korxonalar yoki maxsus tashkil qilingan lizing kompaniyalaridan uzoq muddatga ijaraga olishini anglatadi. Lizing bitimida ko'rsatilgan tomonlardan tashqari investitsion loyihalarni moliyalashtirish hamda ularni buning uchun zarur bo'lgan mablag'lar bilan ta'minlash imkoniyatiga ega bo'lgan tijorat yoki investitsion banklar ham ishtirok etishi mumkin.

Investitsiyalardan (kapital qo'yilmalardan) foydalanishning asosiy yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

- Yangi qurilish;
- korxonani kengaytirish va qayta tiklash;
- ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish va texnik jihatdan qayta qurollantirish;
- harakatdagi quvvatlarni takomillashtirish.

Yangi qurilishga yangi maydonlarda maxsus ishlab chiqilgan loyihalar asosida quriluvchi korxonalar, bino, inshoot va qurilmalar mansubdir.

Faoliyat yuritayotgan **korxonani kengaytirish** qo'shimcha ishlab chiqarish majmualarining navbatdagi qismlarini yangi loyiha asosida qurish yoki asosiy, qo'shimcha, yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarishning amaldagi tsexlarini kengaytirish yoki qurishni anglatadi. U asosan, faoliyat yuritayotgan korxonalar hududida yoki unga tutash maydonlarda amalga oshiriladi.

Qayta tiklash – bu, faoliyat yuritayotgan korxonani ma'naviy va jismoniy eskirgan qurilma va asbob-uskunalarini ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, texnologik bo'g'inlar va yordamchi xizmatdagi nomutanosibliklarni yo'qotish yo'li bilan

almashtirish yordamida to'liq yoki qisman o'zgartirishni anglatadi. qayta tiklashda eski tsexlar o'rniga yangi tsexlarni qurishga ruxsat beriladi.

Texnik qayta qurollantirish alohida ishlab chiqarish turlarini zamonaviy talablarga asosan yangi texnika va texnologiyalarni kiritish, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, eskirgan qurilma va uskunlarni yangilash va almashtirish, ishlab chiqarish tuzilmasi va tashkil etilishini yaxshilash yo'li bilan, korxonaning texnik darajasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasidir. U ishlab chiqarish intensivligini kuchaytirish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan.

Moliyaviy resurslar va er tanqisligi sharoitlarida, ikkinchi tomondan esa, mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan unumliroq foydalanish uchun yangi qurilishni nisbatan cheklangan holatda, asosan juda zarur hollardagina amalga oshiriladi. Shu sababli bugungi kunda investitsiyalarning eng ko'p tarqalgan yo'nalishlari sifatida, umuman olganda yangi turdagi mahsulot ishlab chiqarishni ham ko'zda tutuvchi mavjud ishlab chiqarishni kengaytirish, qayta tiklash va texnik jihatdan qayta qurollantirishni ko'rsatish mumkin.

Yangi qurilish hamda mavjud ishlab chiqarishni kengaytirish va qayta tiklashga yo'naltiriluvchi kapital qo'yilmalar asosan quyidagi elementlardan iborat bo'ladi:

*180 qurilish-montaj ishlari xarajatlari;

*181 mashina va uskunalar sotib olishga sarflanuvchi xarajatlar;

*182 loyiha-qidiruv va boshqa ilmiy ishlanmalarga sarflanuvchi xarajatlar.

Kapital qo'yilmalarning yuqoridagi turlari *investitsiyalarning texnologik tuzilmasini* tavsiflaydi. Hozirgi paytda iqtisodiyot rivojlanishiga kiritiluvchi kapital qo'yilmalarning umumiy hajmida quyidagi tuzilma vujudga keldi: qurilish-montaj ishlari xarajatlari - 55-60%, mashina va uskunalar sotib olishga sarflanuvchi xarajatlar - 35-30%, loyiha-qidiruv va boshqa ilmiy ishlanmalarga sarflanuvchi xarajatlar - 10%.

Kapital qo'yilmalarning mulk shakliga ko'ra tuzilmasi – bu, investitsiyalarning davlat, aktsiyadorlik, qo'shma, ijara va boshqa turdagi jamoa korxonalari o'rtasida taqsimlanishidir. U kapital qo'yilmalardan foydalanish, Shuningdek, ularning shakllanish tartibi va manbalari nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. Amaliyot Shuni ko'rsatadiki, kapital qo'yilmalarning samarali tuzilmasi ularni tejash, eng kam xarajatlar bilan eng ko'p foyda olishga tengdir.

Investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tuzilmasi yangi qurilish hamda mavjud ishlab chiqarishni kengaytirish, qayta tiklash va texnik jihatdan qayta qurollantirishga sarflanuvchi xarajatlari o'rtasidagi o'zaro nisbatni ifodalaydi.

11.3. Investitsiyaviy loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash

Umuman olganda samaradorlik muayyan natijalarga erishishni anglatadi. U sarflangan xarajatlar va olingan natijalar nisbati asosida aniqlanadi. Xarajatlar qanchalik kam va natijalar qanchalik ko'p bo'lsa, samaradorlik ham shunchalik yuqori bo'ladi. Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi butun ishlab chiqarish samaradorligining tarkibiy qismidir. Turli darajadagi xo'jalik faoliyatida investitsiyalarning iloji boricha ko'proq foyda, qaytim keltirishi asosiy vazifa qilib belgilanadi.

“Bizning yaqin istiqboldagi eng muhim vazifamiz boshlagan ishlarimizni izchil davom ettirish – **iste'mol talabini kengaytirish** maqsadida sotsial sohani rivojlantirish, mehnatga haq to'lashni yanada oshirish, xizmat ko'rsatish sektorini, infratuzilma obektlarini rivojlantirishga, transport va kommunikatsiya loyihalari amalga oshirilishiga alohida e'tibor berishdir.”⁸⁹

Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash zarurati, qo'shimcha kapital qo'yilmalar kiritilishini talab qiluvchi yangi qurilish, mavjud ishlab chiqarishni kengaytirish, qayta tiklash va texnik jihatdan qayta qurollantirish, ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish va tashkiliy-texnik chora-tadbirlarni ishlab chiqish kabi barcha hollarda yuzaga keladi. Ba'zan mahsulotlarning yangi turini ishlab chiqarish ham investitsiya va boshqa mablag'lar kiritilishini, demak, xarajat va natijalar nisbatini avvaldan baholashni talab qiladi.

Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholashda korxonalar ikkita vazifani hal qilishlari lozim:

birinchisi - kapital qo'yilmalarning qoplanish muddati va daromadliligi nuqtai nazaridan, eng maqbul variant tanlash imkoniyatini yaratuvchi investitsion loyiha samaradorligini baholash;

⁸⁹ И. А. Каримов. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” маърузаси// Халқ сўзи газетаси, 12.11.2010.

ikkinchisi - mavjud ishlab chiqarishga ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini yaxshilash maqsadida kiritiluvchi investitsiyalar samaradorligini baholash (qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish, tannarxni kamaytirish, foydani oshirish va hokazo).

Birinchi vazifaning echimi mos keluvchi marketing tadqiqotlarini amalga oshirishni ko'zda tutib, bu tadqiqot davomida talab va undan kelib chiquvchi taklif, bozor segmentatsiyasi, bahoni shakllantirish strategiyasi, moliyalashtirish manbalari va boshqalar aniqlanishi lozim. Investitsion loyihani muqobillik asosida tanlagandan so'ng birlamchi-ruxsat beruvchi hujjatlarni, texnik va boshqa qarorlarni, jumladan, muhandislik ta'minoti, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlar tayyorlashlari amalga oshiriladi.

Bugungi kunda ichki investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha:

- tijorat tuzilmalarini kafolatga bo'lgan talabini ta'minlash maqsadida kafolat-garov jamg'armalari tizimini shakllantirish;

- aholi bo'sh pul mablag'larini investitsion jarayonlarga jalb qilish maqsadida qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish, turli qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish (uy-joy sertifikatlari va uy-joy obligatsiyalari);

- ishlab chiqarishni tuzilmaviy-texnologik qayta qurishni jadallashtirish maqsadida markazlashgan kredit resurslarning bir qismini tez qoplaydigan investitsion loyihalarni moliyalashtirishga qaratish, Shu jumladan kichik biznes ob'ektlariga yo'naltirish;

- investitsion loyihalarni moliyalashtirishning nokredit usullaridan bo'lgan lizing, franchayzing, faktoring kabilardan foydalanishni kengaytirish;

- investitsion loyihalarni sifatini oshirish, loyihalarni kapital qo'yilmalar samaradorligi talablariga mos kelishi maqsadida tijorat asosida doimiy ravishda faoliyat yuritadigan investitsion loyihalar ko'rgazmasini tashkil qilish ishlari amalga oshirilib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb etish sohasidagi asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatlar:

a) O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi Qonuni, 4.12.1998 y.

b) O'zbekiston Respublikasining «CHet el investitsiyalari to'g'risida»gi Qonuni, 30.04.1998 y.

c) O'zbekiston Respublikasining «CHet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va himoya choralari to'g'risida»gi Qonuni,

30.04.1998 y.

d) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining 2010 yilgi Investitsiya dasturi to'g'risida»gi Qarori, 28.10.2009 y.

e) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni, 11.04.2005 y.

Investitsiya faoliyati alohida tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, investitsiya strategiyasini aniqlash, strategik rejalashtirish, investitsiyaviy loyihalashtirish, loyihalarni tahlil qilish hamda investitsiya samarasini aniqlash kabilardan iborat bo'ladi.

Korxonada misolida investitsiya strategiyasini aniqlash - bu kelajak davrga korxonalarining asosiy faoliyatlarini rivojlantirish yo'llarini aniqlash, Shu jumladan o'z mablag'lari hisobidan va boshqa investorlar hisobidan xarajatlarni qoplanish miqdorini aniqlash. Korxonada aktivlari hajmini va rentabelligini bashorat qilish.

Iqtisodiy samardorlikni baholash jarayonida kiritiluvchi investitsiyalarning qoplanish muddatini aniqlashning o'ziga xos o'rni bo'lib, u quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$T_{ok} = K / (F_{r1} - F_{r0})$$

Bu erda:

K - asosiy ishlab chiqarish fondlariga kiritiluvchi kapital qo'yilmalar ajmi;

F_{r1} - rejalashtirilayotgan davrning so'nggi yilidagi foyda;

F_{r0} - bazis yildagi foyda (rejadan oldingi davrning so'nggi yili).

Kapital qo'yilmalarning samardorlik koeffitsienti qoplanish mudatiga teskari bo'lgan kattalikdir. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$E = (F_{r1} - F_{r0}) / K$$

Vaqt omili, ayniqsa, investor (buyurtmachi) nuqtai nazaridan kiritilayotgan resurslarning haqiqiy samardorligini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababli qurilish, qayta tiklash va kengaytirish, Shuningdek, mavjud ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish ishlari qanchalik tez bajarilsa, investor va pudratchi uchun Shunchalik foydali bo'ladi.

Jamiyat miqyosida kapital qo'yilmalar samardorligi koeffitsienti (K_s) milliy daromadning o'sish miqdorini (ΔMD) kapital qo'yilmalar summasiga (K_k) nisbatidan aniqlanadi. Ya'ni:

$$K_s = \Delta MD : K_k$$

Korxonada miqyosida investitsiya samaradorligi (kapital ko'yilma) koeffitsienti (Kk.s) quyidagicha hisoblanadi:

$$Kk.s = \frac{Mk - t}{K} \text{ yoki } \frac{F}{K}$$

Bu erda: Mk - yillik ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati;

T - yillik ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxi;

F - yillik foydaning miqdori.

Investitsiya samaradorligini aniqlashda uning o'zini qoplash muddati, xavf darajasi, Inflyatsiyaning oshish tempi, kelajakda soliqlar miqdori o'zgarishi kabilar hisobga olinishi shart. Chunki investitsiyani qulay va samarali sohaga qo'yish investorlar uchun muhim ahamiyatga ega. Jahon amaliyotidan Shu ma'lumki, pulni banklarda saqlash eng qulay hisoblanadi, Chunki omonatchi undan foiz oladi.

Pulni investitsiya qilish (ishlab chiqarishga quyma yoki qimmatbaho qog'ozlar sotib olish) investorga faqatgina unga bank tamonidan beriladigan foizdan ko'proq daromad keltirsagana foydaliroq bo'ladi. Bu investorlar uchun birinchi qoida bo'lib hisoblanadi.

Investorlarning ikkinchi qoidasi - investitsiya rentabelligi Inflyatsiya darajasidan yuqori bo'lishi kerak.

Shunday qilib, investitsiya samaradorligini hisoblaganda yuqorida keltirilgan qoidalarda keltirilgan ko'rsatkichlarning solishtirma tahlili katta ahamiyatga ega.

Investitsiya loyihasini baholashda xarajatlar va daromadlarni har xil davrga solishtirma tahlili katta ahamiyatga ega.

Chunki xarajatlar biron davrda ishlatiladi, daromad esa nafaqat biron davrdan keyin, u asosan xarajatlar amalga oshirgandan keyin ham kela boshlaydi. Shu sababli davriy pul qiymati degan tushuncha ishlatiladi. Ushbu ko'rsatkich oldin olingan 1 so'm keyin olingan 1 so'mdan qimmatroq turishini anglatadi.

Shu sababli iqtisodiy va moliyaviy tahlilda so'mning joriy va kelajakdagi qiymati hisoblanib, tahlil qiladi. Bunday hisob-kitoblar diskontirlashtirish, deb yuritiladi. Investitsiya loyihalarini diskontlashtirish asosida baholashni keyingi bo'limda ko'rib chiqamiz.

11.4. Korxonaning investitsiya strategiyasi. Investitsion loyixa, uning samaradorligini hisoblash. Investitsiya oqimini diskontlashtirish

Strategik rejada aktivlarga bo'lgan ehtiyoj va uni ta'minlash resurslari

uzoq muddatga aniqlanadi.

Investitsion loyiha - bu investitsiyani texnik-iqtisodiy asoslash bo'lib, u investitsion faoliyat ishtirokchilarini (mulkdor, tadbirkor, bankir, davlat va xalqaro tashkilotlar kabilar) iqtisodiy axborotnomasi, ularni o'zaro aloqalarini bog'laydi hamda tushuntiradi. Qisqa qilib aytganda investitsiya loyihasi investitsiyadan foydalanish rejasini anglatadi.

Investitsiya loyihasining samaradorligini hisoblash - bu investitsiyadan keladigan samara ko'rsatkichlarini aniklashni anglatadi.

Investitsiya loyihasining asosi - bu kapital qo'yilmalarga bo'lgan ehtiyojni aniqlashdan iborat. Shu sababli Investitsiya loyihasi samaradorligi kapital ko'yilmalar samaradorligi orqali aniqlanadi.

Investitsion loyihani tayyorlash va shunga mos ravishda investitsiyalar samaradorligini baholash zarurati ko'p holarda yangi korxonalar, tseklar qurish yoki mavjud ishlab chiqarishni qayta tiklash va kengaytirish bilan bog'liq bo'ladi. Bularning barchasi nafaqat makonda, ya'ni ma'lum bir hududda, er maydonida, balki vaqtda amalga oshirilishi sababli, vaqt muddati loyihani amalga oshirish, jumladan, korxonani tashkil qilish (qayta tiklash, kengaytirish) hamda ekspluatatsiya qilish va tugatish muddatidan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

Investitsion loyihalarning samaradorligini baholashda quyidagilar asosiy ko'rsatkich hisoblanadi:

1) Sof diskontlangan daromad (SDD) - butun hisobot davri uchun joriy samaralar yig'indisining boshlang'ich qadamga keltirilgan miqdori yoki integral natijalarning integral xarajatlardan oshib ketishi. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$CDD = \sum_{t=0}^T (H_t - X_t) \frac{1}{(1+E)^t}$$

Bu erda:

N_t - hisob-kitoblarning t-qadamida erishiluvchi natijalar;

X_t - xuddi Shu qadamda amalga oshiriluvchi xarajatlar;

T - hisob-kitoblarning vaqt muddati;

E - diskont normasi.

Agar investitsion loyihaning SDD miqdori ijobiy bo'lsa, u holda loyiha samarali, ya'ni investitsiya mablag'lari darajasining qabul qilingan diskont normasini ta'minlovchi hisoblanadi.

Xarajatlar va ularning natijalari miqdorini keltirish ularni *diskontlash koeffitsienti* (d_t) ga ko'paytirish asosida amalga oshirilib, bunda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$d_t = \frac{1}{(1+E)^t}$$

Bu erda:

t - natijalarni olish (xarajatlarni amalga oshirish) davridan taqqoslash davrigacha bo'lgan muddat bo'lib, yillarda o'lchanadi.

Diskont normasi (E) - boshqa investorlar o'z mablag'larini xuddi Shu turdagi loyihalarni amalga oshirish uchun kiritishga rozi bo'luvchi, kapitalning daromadlilik koeffitsienti (daromad miqdorining kapital qo'yilmalarga nisbati).

Agar diskont normasi vaqt davomida o'zgaradigan bo'lsa, diskont koeffitsienti (d_t) quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$d_t = \frac{1}{\prod_{k=1}^t (1+E_k)}$$

Bu erda:

E_k – k-yildagi diskont normasi;

t- hisobga olinuvchi vaqt muddati, yil.

Investitsion loyihalarning samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlashda mahsulot va iste'mol qilinuvchi resurslarning bazis, bashorat qilinuvchi, jahon va hisobiy baholaridan foydalaniladi.

Masalan: bank foizi 10% bo'lgan holda 20 yildan keyingi 1 so'mning joriy qiymati $=1:(1+0.10)^{20}=1:1.10^{20}=1:6.7=0.15$ so'mni tashkil qiladi.

Shunday qilib diskontlashtirish yilma-yil ketma-ketlikda daromadlar, xarajatlar oqimlarini diskont stavkasiga asosli bir-biriga keltirish yo'li orqali kelajakdagi daromad va xarajatlarning joriy qiymatini belgilab olish uchun investitsiyani iqtisodiy va moliyaviy tahlil qilishda ishlatiladi.

2) **Investitsiyalarning daromadlilik indeksi (ID)** - keltirilgan samaraning investitsiyalar miqdoriga (K) nisbati bo'lib, quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$ID = \frac{1}{K} \sum_{t=0}^T (H_t - X_t) \frac{1}{(1+E)^t}$$

Agar daromadlilik indeksi birga teng yoki undan katta bo'lsa, investitsion loyiha samarali, aks holda esa samarasiz hisoblanadi.

3) **Ichki daromadlilik normasi (IDN)** - keltirilgan samara miqdori keltirilgan investitsiya miqdoriga teng bo'lgan holdagi diskont normasi (E_{ich}), Ya'ni E_{ich} (IDN) quyidagi tenglik orqali aniqlanadi:

$$\sum_{t=0}^T (H_t - X_t) \frac{1}{(1 + E_{\text{ИЧ}})^t} = \sum_{t=0}^T \frac{K_t}{(1 + E_{\text{ИЧ}})^t}$$

Ushbu formula asosida aniqlangan daromadlilik normasi miqdori investorning kapitalga talab qiluvchi daromad miqdori bilan taqqoslanadi. Agar IDN talab qiluvchi daromad normasiga teng yoki undan katta bo'lsa, u holda loyiha samarali hisoblanadi.

4) Investitsiyalarning qoplanish muddati (T_i) - investitsion loyihani amalga oshirishni boshlashdan to natijalarga erishishgacha bo'lgan minimal vaqt muddati. U quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$T_{\text{И}} = \frac{I_{\text{с}}}{\Pi_{\text{м}}}$$

Bu erda:

$I_{\text{с}}$ – sof investitsiyalar;

$\Pi_{\text{м}}$ – loyiha keltiruvchi o'rtacha yillik pul mablag'lari oqimi, so'm.

Shu bilan birga qoplanish muddati loyihaning daromadliliği ko'rsatkichi hisoblanmaydi. Shu sababli amaliyotda investitsiyalar birlamchi kapital (qo'yilma)ga nisbatan daromadlilik ko'rsatkichi orqali ko'rib chiqiladi hamda quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$D_{\text{и}} = \frac{M_{\text{н}}}{K} \times 100$$

Bu erda:

$D_{\text{и}}$ – investitsiyalar daromadi, % da;

$M_{\text{н}}$ – soliqlar to'langandan so'ng qolgan foyda, so'm;

K - investitsiyalar (boshlang'ich).

U yoki bu investitsion loyihani tanlash to'g'risida qaror qabul qilishda korxonalar quyidagi savollarga javob berishi lozim:

*183 ishlab chiqarishdagi bugungi holat qancha davom etishi mumkin va bozorda mahsulotga (ish, xizmatga) bo'lgan talab qanday;

*184 kapital kiritish uchun imkoniyatlar qanday;

*185 raqobatchilik faoliyati qanday;

*186 qanday muvaffaqiyat omillari mavjud;

*187 Yangi bozorga kirish uchun qanday imkoniyatlar mavjud.

Iqtisodiy samaradorlikni baholashning **ikkinchi holatida**, ya'ni mablag'larni mavjud ishlab chiqarishga kiritishda quyidagi ko'rsatkichlar qo'llaniladi:

a) investitsiyalarning har bir so'miga to'g'ri keluvchi qo'shimcha mahsulot quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$\mathcal{E} = \frac{(\mathcal{Y}M_1 - \mathcal{Y}M_0)}{I_k}$$

Bu erda:

E – investitsiyalar samaradorligi;

$\mathcal{Y}M_0$, $\mathcal{Y}M_1$ – yalpi mahsulot, mos ravishda birlamchi va qo'shimcha investitsiyalarda;

I_k – qo'shimcha investitsiyalar miqdori.

b) investitsiyalarning har bir so'miga tannarxning pasayishi:

$$\mathcal{E} = \frac{Q(TH_0 - TH_1)}{I_k}$$

Bu erda:

TN_0 , TN_1 - mahsulot birligi tannarxi, mos ravishda, birlamchi va qo'shimcha investitsiyalarda;

Q – qo'shimcha investitsiyalar kiritilgandan keyingi yillik mahsulot hajmi, natural o'lchov birl.

v) investitsiyalarning har bir so'miga mahsulot ishlab chiqarishdagi mehnat xarajatlarini qisqartirish:

$$\mathcal{E} = \frac{Q(M_0 - M_1)}{I_d}$$

Bu erda:

M_0 , M_1 – mahsulot birligiga ishlab chiqarishda sarflanuvchi mehnat xarajatlari, mos ravishda qo'shimcha investitsiyalar kiritilguncha va undan so'ng

g) investitsiyalarning har bir so'miga foydani oshirish:

$$\mathcal{E} = \frac{Q(\Phi_1 - \Phi_0)}{I_d}$$

Bu erda:

F_0 , F_1 – mahsulot birligiga to'g'ri keluvchi foyda, mos ravishda qo'shimcha investitsiyalar kiritilguncha va undan so'ng.

e) investitsiyalarning qoplanish muddati.

Investitsiyalar samaradorligini keltirilgan formulalar asosida (boshqaruv darajasini inobatga olgan holda) aniqlash ishlab chiqarishni rivojlantirishga qancha miqdorda investitsiya kiritilgan va uning natijasi qanday degan savolga javob beradi, ya'ni u investitsiyalarning mutlaq (absolyut) samaradorligini tavsiflaydi.

Shunday qilib diskontlashtirish yilma-yil ketma-ketlikda daromadlar, xarajatlar oqimlarini diskont stavkasiga asosli bir-biriga keltirish yo'li orqali kelajakdagi daromad va xarajatlarning joriy qiymatini belgilab olish uchun investitsiyani iqtisodiy va moliyaviy tahlil qilishda ishlatiladi.

Qisqacha xulosalar

Investitsiyalar davlat va korxonalarining asosiy fondlarni zamonaviylashtirish hamda mamlakatning iqtisodiy va ishlab chiqarish potentsialini mustahkamlash yo'lidagi faoliyatidagi muhim vositadir.

Investitsiyalar qoidaga ko'ra, amaliyotda mamlakat miqyosida davlat tomonidan, mikroiqtisodiyotda esa korxonalar va ularga tenglashtirilgan boshqa xo'jalik sub'ektlari tomonidan amalga oshiriluvchi investitsion siyosat asosida moddiylashtiriladi.

Investitsiyalar real, yalpi, moliyaviy va portfel turlariga taqsimlanadi. Real investitsiyalar korxonaning iqtisodiy potentsialini yaxshilashda muhim vosita hisoblanadi.

Investitsiyalashning to'g'ri tanlangan taktika va strategiyasi korxonalariga ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish vazifalarini muvaffaqiyatli hal qilish hamda ishlab chiqarish jarayonlari va mahsulot chiqarishni fan-texnika taraqqiyoti va bozor talablariga javob beruvchi ko'rinishga olib kelishga imkon beradi.

Korxonaning investitsion siyosati investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash hamda investitsiyalashning eng samarali variantlarini tanlash bilan bog'liq bo'ladi.

Minimum xarajatlar va maksimum natijalar - investitsiyalar va investitsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholashda uslubiy asos hisoblanadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

Investitsion siyosat nima va u davlat va korxonalar miqyosida qanday maqsadlarni ko'zda tutadi?

1. "Investitsiyalar" va "kapital qo'yilmalar" tushunchalari o'rtasidagi farqlarni tavsiflab bering.
2. Investitsion jarayonlarni qaysi asosiy bosqichlar tavsiflaydi?
3. Investitsiyalar tarkibi va strukturasi nima va ularning korxonaga iqtisodiyotiga ta'siri qanday?

4. Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlashning qaysi usullari sizga ma'lum?
5. Korxonalar investitsion siyosatining mohiyati nimada?
6. Investitsiyalarning eng samarali variantini tanlashda qaysi usuldan foydalanish maqsadga muvofiq?
7. Investitsiyalar samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlaridan qaysilarini bilasiz?
8. Investitsiyalarning qoplanish muddati nima va u qanday aniqlanadi?
9. Respublikada amalga oshirilayotgan eng mashhur investitsion loyihalarni aytib bera olasizmi?

12-bob. Korxonaning xavfsizligi va tijorat siri

12.1. Korxonada xavfsizligini ta'minlashning maqsadi, vazifalari va tamoyillari

12.2. Korxonada xavfsizlik xizmati, uning funksiyalari va tarkibi

12.3. Korxonaning tijorat siri mohiyati va uni himoya qilish mexanizmlari

12.4. Raqobatchilar to'g'risida axborot olish uslublari, turlari va ularni himoya qilish sub'ektlari

Tayanch iboralar: Xavfsizlik, xavfsizlik tamoyillari, korxonada xavfsizligi funksiyalari, xavfsizlik konsepsiyasi, xavfsizlik xizmati, xavfsizlik xizmatining tashkiliy tuzilmasi, korxonaning tijorat sirlari, bankrotlik, bankrotlik xavfi, sir, tijorat siri, xizmat siri, oshkor etilmagan axborot, raqobatchilar to'g'risida axborot, maxfiy axborot, ochiq axborot, davlat siri, raqobatchi korxonalar, tabiiy monopoliyaga ega korxonalar, tijorat sirini muhofaza qilish mexanizmi.

12.1. Korxonada xavfsizligini ta'minlashning maqsadi, vazifalari va tamoyillari

Xavfsizlik bu murakkab va serqirra kategoriyadir. U asosan va ko'pincha ishlab chiqarishda foydalanilayotgan vositalarning xavfsizligi nuqtai nazaridan baholanadi va ko'rib chiqiladi. Shu sababli hozirgacha biz texnika xavfsizligi, piyoda xavfsizligi, oziq-ovqat xavfsizligi yoki zararsizligi kabi tushunchalarni uchratsak-da, korxonada xavfsizligiga hali duch kelganimiz yo'q.

Xavfsizlikni ta'minlash hamisha, hamma joyda, hamma narsalar uchun muhim bo'lib kelgan. Insoniyat paydo bo'libdi-ki, xavfsizlik masalasi uning oldida hamisha dolzarb bo'lib hisoblangan.

Bugungi bozor munosabatlari sharoitida hamma korxonalariga erkinlik va mustaqillik joriy qilinayotgan bir paytda, uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash ham o'ta dolzarb va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga molik bo'lgan usulda muhim jarayondir. Bu jarayonni to'g'ri va to'liq anglash uchun uning tushunchasi, maqsad va vazifalarini aniq belgilab olishni taqozo qiladi.


“Mustaqil rivojlanish yillarida – tarixan qisqa bir davrda yurtimiz yangi va ulkan marralarni qo'lga kiritdi, buning natijasida

mamlakatimizning qiyofasi butunlay o'zgarib, jahon hamjamiyatidagi o'rni va nufuzi yuksalib bormoqda.”⁹⁰

Mahsulotlarning zamonaviy namunalari, ishlab chiqarish texnologiyasi, investitsiya rejalari va boshqalar sanoat ayg'oqchiligining diqqat markazida turib, korxonalar va mamlakat uchun ma'lum bir xavf tug'diradi. Shu sababli xavfsizlik va tijorat sirlari muammolari hozirgi bozor va raqobatchilik sharoitlarida iqtisodiyot fanining, jumladan, zamonaviy korxonalar iqtisodiyotining muhim bo'limlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini mutanosib rivojlantirish, uning samarali tarkibiy tuzilmasiga ega bo'lish va Shu orqali barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishish Vatanimiz taraqqiyoti va xalq farovonligini ta'minlashning muhim shartlaridan hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun esa eng avvalo iqtisodiyotning real sektorini jadal rivojlantirish zarur bo'ladi.

Shunga ko'ra, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash dolzarb ahamiyat kasb etib, respublikamizda ushbu jarayon bir qator asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirildi (1-rasm).



1-rasm. Iqtisodiyot real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari

Ayniqsa, real sektor korxonalarini qo'llab-quvvatlashda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, kooperatsiya aloqalarini kengaytirish,

⁹⁰ И. А. Каримов. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” маърузаси// Халқ сўзи газетаси, 12.11.2010.

mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ichki talabni rag'batlantirish masalalari alohida o'rin tutdi.

Shu boisdan korxonaning iqtisodiy xavfsizligini doimiy ravishda ta'minlab turish uning rahbariyatidan katta e'tiborni, tashkiliy ishlarni amalga oshirishni va uni oqilona boshqarib borishni talab qiladi. Bu jarayonni to'g'ri tashkil qilish uchun umuman xavflilik va xavfsizlik tushunchalarining nima ekanligini aniqlashni taqozo qiladi.

Mazkur ishda korxonaning umumiy xavfsizligi emas, balki iqtisodiy jihatdan xavfsizligi xususida gap boradi. Uni ta'minlash uchun esa korxonada rahbariyatidan juda katta tashkilotchilikni talab qiladi.

Korxonada iqtisodiy xavfsizligi tushunchasi. Erkin raqobat hukm surib turgan bozor munosabatlari sharoitida har bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt o'zlarining yashovchanligini ta'minlashga lozim. Bu esa o'ta murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Shu tufayli korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun bir qancha tadbirlarni amalga oshirish lozim bo'ladi.

Korxonada xavfsizligini ta'minlashning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- korxonada va uning barcha bo'linmalari, mehnat jamoasining davlat tuzilmasi, xorijiy hamkorlar va raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda qonuniy huquqlarini himoya qilish;

- *188 korxonada mulkini saqlash, undan oqilona va unumli foydalanish;

- *189 ishlab chiqarilayotgan mahsulotning ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshligini oshirish;

- *190 tashkiliy va ishlab chiqarish barqarorligiga erishish, butlovchi qismlar etkazib beruvchilarga yordamchi va hamkorlarga bir tomonlama qaram bo'lishga yo'l qo'ymaslik;

- *191 barcha tuzilmaviy bo'g'inlardagi xodimlar orasida mehnat intizomini mustahkamlash;

- *192 mehnat unumdorligini oshirish uchun moddiy va ma'naviy manfaatdorligini ta'minlash;

- *193 jamoada axloqiy-ruhiy muhitning barqarorligi, mehnat va ijro intizomiga qattiq rioya qilish har bir xodim va bo'linmalarning hayot tarziga aylanganligi, ularning ishni bajarishdagi jipsligini ta'minlash tadbirlarini amalga oshirish;

- *194 korxonada xodimlarini moddiy va ma'naviy rag'batlantirishning ob'ektivligini ta'minlash, uni bevosita

korxonaning istiqboliga yo'naltirishga erishish orqali uning nufuzini ko'tarish.

*195 tashkiliy, ilmiy-texnikaviy sohani takomillashtirish orqali ishlab chiqarishga (faoliyatiga) zamonaviy texnologiyalarni joriy qilishga doimiy ravishda erishib, ularni ichki imkoniyati hisobidan rivojlantirib borish.

Ana shunday tadbirlar amalga oshirilsagina korxonaning iqtisodiy xavfsizligi ta'minlanish mumkin. Bulardan kelib chiqib, o'ta murakkab jarayon bo'lgan korxonada xavfsizligiga quyidagicha ta'rif berildi.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi deganda, uning mustaqilligini, mustahkamligini, barqarorligi va ichki imkoniyatlar evaziga takomillashib, tarakkiy etib borishini doimiy ravishda ta'minlab turuvchi sharoitlar va omillar majmuasining mavjudligi tushuniladi.

Ko'rinib turibdiki, korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash o'ta murakkab bo'lishi bilan birga juda ko'p qirrali sohadir. Shu tufayli unga shunchaki kundalik tadbirlar bilan, yoki ozgina e'tibor bilan erishib bo'lmaydi. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun undagi band bo'lgan kadrlar yuqori malakali, saviyali va tashabbuskor bo'lmog'i lozim. Eng muhimi, hozirga paytda har bir korxonada ishlovchi xodim uni "umumiy mulkimiz" emas, balki "mening mulkim" deb his qilishi, shu ruhiyat bilan yashaydigan, ishlaydigan bo'lishi darkor.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi tamoyillari. Xavfsizlikni ta'minlash uchun uni amalga oshirishda ma'lum tamoyillarga tayaniladi. Bu tamoyillar korxonada ishining taktikasi va strategiyasini, aniq maqsad va vazifalar bilan faoliyat ko'rsatishini belgilab olishida namoyon bo'ladi.

“Bu borada avvalambor mamlakatimiz iqtisodiyotidagi ijobiy ko'rsatkichlar va noxush tendentsiyalarni nafaqat qayd etish, balki iqtisodiyotimizning rivojini belgilab beradigan sabab va omillarni chuqur va xolisona tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.”⁹¹

Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsa, korxonaning iqtisodiy xavfsizligi quyidagi tamoyillarga tayanadi.

1. Uzoq istiqbolga mo'ljallangan dastur va maqsadli rejaning mavjudligi. Hozirgi bozor munosabatlari sharoitida har bir korxonada o'z mulkiy javobgarligiga asoslanar ekan, u uzoqdi ko'zlab aniq

⁹¹ И. Каримов. “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади” – 2010 йилнинг асосий яқунлари ва 2011 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

strategik maqsad bilan va Shu maqsadga erishish uchun uzoq muddatga mo'ljallangan dastur asosida faoliyat ko'rsatishi lozim.

2. Qonuniylikni ta'minlash tamoyili. Hozirgi paytda juda ko'p korxonalar qonunni chetlab ma'lum vaqt noqonuniy foyda olish evaziga faoliyat ko'rsatmoqda. Ular faoliyatidagi qonunbuzarlik fosh bo'lgach (albatta shunday bo'ladi), juda ko'p jarimalar to'lashi evaziga birdaniga sinib inqirozga uchramoqda. Oqibatda korxonalar bankrot bo'lmoqda. Bu holat jamiyat uchun ham, davlat uchun ham, Shu erda ishlagan mehnat jamoasi uchun ham, pirovardida korxonaning iqtisodiy xavfsizligi uchun ham katta zarar keltirishi to'g'risida izohning hojati bo'lmasa kerak.

3. Mustaqillik va mas'uliyatlilik tamoyili. Korxonalar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun, eng avvalo, o'z faoliyatini mustaqil boshqarishi lozim. Ammo mustaqillik - bu o'zboshimchalik emas. Mustaqil faoliyat o'ta mas'uliyatni ham talab qiladi. Zero, korxonaning foydasi o'ziniki bo'lganidek, zarar ham o'zlari hisobidan qoplanadi. Ko'p zarar ko'rish korxonaga iqtisodiy jihatdan xavf tug'dirishi tabiiy.

4. Mehnat va ijro intizomi. Barcha muvaffaqiyatlar kaliti intizomda. Agar mehnat jamoasi korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash maqsadi bilan ishlasa, albatta u qattiq mehnat va ijro intizomiga rioya qilishi lozim. Intizom orqali qonuniylik, mustaqillik, mas'uliyat, maqsadlilik kabi tamoyillarga ham amal qilishni ta'minlaydi.

5. Kasbiy va texnologik takomillaShuv. Bozor munosabatlari sharoitida erkin raqobat muhiti korxonaning kundalik o'zgarishlar va Yangilashlarga, bozor kon'nyunkurasiga moslashib borishni talab qiladi. Bu esa, o'z navbatida korxonaning tez o'zgarishlarga moslashuvchanligini ta'minlashni, bozor talabiga moslashish kabi holatlarni talab qiladi.

6. Mahsulot (ish, xizmat) sifatining doimo oshib borishini, tannarxning nisbiy kamayishini ta'minlash. Korxonaning nufuzi va iqtisodiy kudratini oshirib borishi uchun, eng avvalo, har bir korxonalar o'z mahsulotining (ish, xizmatining) sifatini oshirish uchun kurashib yashashi kerak. Sifat ko'rsatkichining yaxshilanishi korxonaning nafaqat iqtisodiy xavfsizligini, balki uning raqobatbardoshligini ham ta'minlaydi.

Mahsulotning (ish, xizmatning) sifatini oshirish ko'p hollarda tannarxni oshirish evaziga amalga oshiriladi. Ammo korxonalar hozirgi erkin iqtisodiyot sharoitida shunday natijaga erishish lozimki, qaysiki sifatning yaxshilanish tannarxning oshishiga nisbatan ustuvor bo'lishi ta'minlansin. Bunda mahsulot (ish, xizmat) sifatining oshishi

evaziga olinadigan daromad 100 ming so'mni tashkil qilsa shunga bog'liq tannarx 50-60 ming so'mga ko'payishini ta'mindash lozim bo'ladi.

Respublikamizda iqtisodiyot komplekslari bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxini pasaytirish bo'yicha erishilgan natijalarni quyidagi jadval orqali ko'rishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval.

O'zbekistonda iqtisodiyot komplekslari bo'yicha 2010 yilda ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxini pasaytirish bo'yicha erishilgan natijalar

Komplekslar nomi	Mahsulot tannarxining pasayishi	
	mlrd. so'mda	foizda
Geologiya, yoqilg'i-energetika, kimyo, neft-kimyo va metallurgiya sanoati kompleksi	1156,3	21,9
Mashinosozlik, elektrotexnika va aviatsiya sanoati hamda mahsulotlarni standartizatsiyalashtirish kompleksi	156,2	18,5
Kommunal soha, transport, kapital qurilish va qurilish industriyasi kompleksi	458,8	21,3
Qishloq va suv xo'jaligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash hamda iste'mol tovarlari kompleksi	295,1	20,0
Ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy muhofaza kompleksi	13,1	20,2
Respublika bo'yicha jami	2079,5	20,38

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Jadvaldan ko'rinadiki, respublikamiz bo'yicha mahsulotlar tannarxini 2079,5 mlrd. so'mga yoki 20,38 foizga qisqartirishga erishilgan.

Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlashdagi

Mamlakatimizni rivojlantirish, yangilash va modernizatsiya qilish bo'yicha tanlagan strategiyamizni va inqirozga qarshi qabul qilgan dasturimizni amalga oshirish natijasida yurtimiz dunyodagi sanoqli davlatlar qatorida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning barqaror sur'atlarini ta'minlash, aholimizning moddiy farovonligini yuksaltirishga erishgani barchamizga katta mamnuniyat va iftixor bag'ishlaydi, albatta.

I.Karimov (ma'ruzadan)

muhim tadbirlardan yana biri – turli sabablarga ko'ra vujudga kelgan hamda korxonaning sog'lom moliya-xo'jalik faoliyati yuritishiga jiddiy ta'sir ko'rsatib kelayotgan qarzlarni qayta ko'rib chiqish (restrukturizatsiya qilish) hisoblanadi. Mazkur tadbir orqali korxonalarining mavjud qarzlarning vujudga kelish sabablari va ularni to'lash imkoniyatlari o'rganiladi. Har bir

korxonaning ahamiyati, yaxlit xo'jalik tizimida tutgan o'rni, boshqa korxonalar bilan ishlab chiqarish va xo'jalik aloqalarini hisobga olgan holda mazkur qarzlarni to'lash muddatlarini kechiktirish, ular bo'yicha qo'llanishi mumkin bo'lgan turli sanktsiyalarni bekor qilish, zarur hollarda, ushbu qarzlarni umuman ro'yxatdan chiqarish kabi choralar belgilanishi mumkin.

7. Foydalilikni ta'minlash. Har bir korxonada iqtisodiy jihatdan qudratli bo'lishiga, o'z xavfsizligini ta'minlashga erishmoqchi bo'lsa, barcha faoliyatini shunday tashkil qilish kerakki, uning har bir harakatidan foyda olish ta'minlansin. Bozor munosabatlari tadbirkorlik va foyda bir-biri bilan ajralmas tushunchalardir. Bu degani, bozor munosabatlari sharoitida har bir korxonada tadbirkorlik bilan ish ko'rib, faoliyati natijasida etarli darajada sof foydaga erishishni ta'minlashdan iboratdir.

Ushbu holatlardan kelib chiqib korxonada iqtisodiy xavfsizligi tamoyillariga kuyidagicha ta'rif berish mumkin.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi tamoyili deganda uni ta'minlashga qaratilgan maqsadli strategik va taktik dasturlarni bajarishga qaratilgan iqtisodiy dastaklar majmuasi tushuniladi.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash vazifalari. Bozor munosabatlari sharoitida har bir korxonaning vazifasi o'zining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashdan iboratdir. Bu ishda boqimandalik ketmaydi. Har bir korxonada o'zining xavfsizligini o'zi ta'minlamasa, boshqa joydan kelib uni ta'minlab bermaydi. Bu jarayon ancha tadbirlarni o'z ichiga oladi.

1. Korxonada faoliyatiga tashqi sub'ektlar aralaShuvlarining

kuchayishiga yo'l qo'ymaslik.

2. Korxonada ichida samarali mehnat qilish muhitini buzishning oldini olish, har bir xodimning mehnatini xolisona baholay olish.

3. Xodimlar o'rtasida axloqiy-ruhiy muhitning barqarorligini ta'minlash, korxonaning muvaffaqiyati ularning xar birining muvaffaqiyati ekanligini siigdirish va shunga amal qilish.

4. Bozordagi o'z raqobatchilaridan mahsulotning (ish, xizmatning) sifati, narxi bo'yicha orqada qolib ketmaslik choralarini ko'rish.

5. Bozor konyunkturasining tez o'zgarishidan hamisha voqif bo'lish va unga moslashgan holda taraqqiyotni ta'minlash.

6. Ishlab chiqarish, texnologik, tijorat kabi sirlarini saqlash Nodir mutaxassislar qo'nimsizligining oldini olish.

7. Korxonada xududi, mulki va boshqa moddiy resurslarning sakdanishiini ta'minlash, ularning o'g'irlanishi va yo'qolishining oldini olish choralarini ko'rish.

8. Hamkorlarini tanlashda ularning moliyaviy ahvolini o'rganish va o'zining moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun tegishli tashkiliy ishlarni doimiy ravishda e'tibordan qoldirmaslik.

“Xususiy mulkning huquq va himoyasini mustahkamlashimiz, har qaysi xususiy mulkdor qonuniy yo'l bilan qo'lga kiritgan yoki yaratgan o'z mulkning daxlsizligiga aslo shubha qilmasligini ta'minlaydigan ishonchli kafolatlar tizimini yaratishimiz zarur.”⁹²

Shu kabi vazifalarning bajarilishi korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning asosiy tadbirlaridir. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi, albatta, o'z-o'zidan ta'minlanib qolmaydi. Shu tufayli bu masala korxonaga daxldor bo'lgan mutasaddilarning (mulkdor, rahbar, menejer, mutaxassislar va barcha xodimlar hamda soliq, moliya, bank kabi manfaatdor tashkilotlar) hamisha diqqat e'tiborida bo'lmog'i lozim.

12.2. Korxonada xavfsizlik xizmati, uning funktsiyalari va tarkibi


Bozor munosabatlari sharoitida korxonaning umumiy xavfsizligini, ayniqsa uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash o'ta muhim ahamiyatga ega. Zero, korxonada bankrotlikga uchramasligi, barqaror faoliyat

⁹² И. А. Каримов. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” маърузаси// Халқ сўзи газетаси, 12.11.2010.

ko'rsatishi, muntazam ravishda iqtisodiy o'sishni ta'minlab borishi uchun, eng avvalo, uning xavfsizligi ta'minlashi lozim. Ammo hozirgi paytda turli mulk shaklida faoliyat ko'rsatuvchi juda ko'p korxonalar tarkibida xavfsizlik xizmati tashkil qilinmagan. Bu bilan, asosan korxonalar rahbariyati shug'ullanadi. Ammo bu erkin raqobat sharoitida etarli emas. Xavfsizlik xizmati juda ko'p funktsiyalar bilan shug'ullanadi va bir qancha muhim vazifalarni bajaradi. Shu tufayli har bir korxonalar tarkibida maxsus xavfsizlik xizmati bo'limi faoliyat ko'rsatishi lozim.

Xavfsizlik hodisalarning oldini olish va ogohlantirish chorasi sifatida, har bir alohida holatdagi aniq harakat bo'lib, korxonalar xarakteri, uning joylashuvi, ahamiyati va hokazolarga bog'liq bo'ladi. Mazkur jarayonda xavfsizlik tizimining o'zini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Uning rahbari xavfsizlik konsepsiyasini ishlab chiqarishning muayyan sharoitlariga nisbatan ishlab chiqishda shaxsan ishtirok etishi zarur.

Xavfsizlik konsepsiyasi birinchidan, korxonalar maqsad va vazifalariga zid kelmasligi, **ikkinchidan**, korxonalar xavfsizligiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tashqi muhit ta'sirini inobatga olishi zarur. Bu ta'sirni quyidagi chizma ko'rinishida aks ettirish mumkin (1-chizma):



1-chizma. Korxonalar xavfsizligiga tashqi muhitning ta'siri.

Shu bilan bir vaqtda korxonalar o'z faoliyatining muhim yo'nalishlari xavfsizligini ta'minlash uchun muayyan chora-tadbirlarni amalga oshirishi kerak va buning uchun avvalo, mos keluvchi qo'riqlash tartibini yaratish lozim.

Mamlakatimiz va xorij amaliyoti tajribasi bunda quyidagi faoliyat turlarini ajratib ko'rsatadi:

1. Bino va inshootlar, aloqa tarmog'i qurilma va uskunalari qo'riqlash tartibini ta'minlash.

2. Tezkor xavfsizlik – maxfiy axborotlarga bo'lgan vakolatni boshqarish, kelib-ketuvchilar, transport va yuk tashishni nazorat qilish, qoidabuzarlik holatlarini tekshirish, axborot xavfsizligini ta'minlash.

3. Xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha ma'muriy faoliyat - personalni tayyorlash va o'qitish, inspektsiya, taftish va nazorat, muammoli vaziyatlarning oldini olish, istiqbolli chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

4. Moddiy boyliklarni himoya qilish va tabiiy ofatlar bilan kurash - yong'inlarning oldini olish, yong'in xavfsizligi va ogohlantirish qurilmalari holatini kuzatib borish va hokazolar.

Korxonalar rahbarlari mehnat jamoalarini doimiy ravishda xavfsizlikni ta'minlash natijalari to'g'risida xabardor etishlari lozim. Faqat zarur hollardagina xavfsizlik chora-tadbirlari maxfiy bo'lishi mumkin. Xavfsizlik chora-tadbirlarining maxfiyligi korxonalar bo'limlarini zaruriy qoidalarni qo'llash va ularga amal qilishni nazorat qilishni maxsus tashkil etishni ko'zda tutadi.

Hozirgi jamiyatning axborotlashtirish va elektronlashtirish sharoitlarida korxonalar xavfsizligini ta'minlash uchun doimiy ravishda faoliyat ko'rsatuvchi, tijorat faoliyatining xavfsizligini ta'minlashning barcha shakl va usullarini qamrab oluvchi tizim amal qilishi lozim. Shu sababli xavfsizlik xizmati marketing va menedjment xizmati, valyuta, kredit va huquqiy bo'limlar kabi iqtisodiy bo'linmalar

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim maqsadi va asosiy ustuvor vazifasi – bu islohotlarni davom ettirish va chuqurlashtirish, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, 2009-2012 yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturini so'zsiz bajarish va shu asosda iqtisodiy rivojlanishning yuqori va barqaror sur'atlarini, samaradorligini hamda makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashdan iboratdir.

I.Karimov (ma'ruzadan)

bilan chambarchas bog'liqlikda ishlab, iqtisodiy xavfsizlikka ko'proq yondashgan holda ularning faoliyatini to'ldirishi zarur.

“Agar o'n yil oldin, ya'ni 2000 yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida sanoatning hissasi atigi 14,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda bu ko'rsatkich 24 foizni, transport va aloqaning ulushi tegishli ravishda 7,7 va 12,4 foizni tashkil etdi, xizmatlar bo'yicha bu raqam 37 foizdan 49 foizga o'sdi.”⁹³

Xavfsizlik xizmati o'z faoliyati davomida juda ko'i me'yoriy hujjatlarga tayanadi. Bu hujjatlar davlat miqyosida ishlab chiqilib tasdiqlangan bo'lsa, Shu me'yoriy hujjatga tayaniladi, agar bunday hujjat bo'lmasa tashkilotning (korxonaning) o'zida xavfsizlik xizmati bo'yicha Nizom ishlab chiqilib, Shunga amal qilinadi. Umuman olganda, **korxonaxavfsizligi bilan bog'liq me'yoriy hujjatlar** quyidagilardan iborat bo'lmog'i lozim:


- korxonaning xavfsizlik xizmati to'g'risida umumiy Nizom;
- xavfsizlik xizmati xodimlarining funktsional majburiyatlari;
- tartib (rejim) va soqchilikni tashkil etish bo'yicha Iizom;
- mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'riqnoma;
- rahbarlar, mutaxassislar va texnik xodimlarning maxfiy axborotlar bilan ishlashlari bo'yicha mansabdorlik ko'llanmalari;
- yong'in xavfsizligi to'g'risida Nizom;
- maxfiy axborotlar mavjud bo'lgan ish hujjatlarining arxivda saqlanishini tashkil etish bo'yicha mansabdorlik ko'llanmalari;
- texnik xavfsizlik to'g'risida Nizom;
- axborotlarni muxandislik-tehnika jihatdan himoya qilishni tashkil etish bo'yicha mansabdorlik qo'llanmalari;
- xorijiy vakillar va vakolatxonalar bilan ishlash tartibi bo'yicha mansabdorlik qo'llanmalari.

Korxonaning xavfsizlik xizmati tarkibida uni turli xavf-xatarlardan saqlab qolish maqsadida axborot-tahlil bo'linmasi, xavfsizlikni ta'minlash yo'nalishi bo'yicha aniq vazifalarni echish uchun tajribali mutaxassislardan iborat vaqtincha tuzilmalar tashkil etilishi mumkin.

Korxonaning xavfsizlik xizmati o'z faoliyati davomida juda ko'plab vazifalarni bajaradi. Ushbu vazifalarni bajarish uchun bir kancha

⁹³ И. Каримов. “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади” – 2010 йилнинг асосий яқунлари ва 2011 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

funktsiyalarni ham ijro etadi. Bularga quyidagilar kiradi (2-chizma).






2-chizma: Korxonada xavfsizligi xizmatining funksiyalari

Qayd etilgan funktsiyalarni bajarish bevosita korxonaning xavfsizlik xizmati orqali amalga oshiriladi. Mazkur xizmatning tarkibiga quyidagilar kiradi: xavfsizlik xizmati boshlig'i, tartib (rejim) va soqchilik bo'limi, maxsus bo'lim, muhandislik-texnik himoya bo'limi, tashqi faoliyat xavfsizligini ta'minlash bo'limi, ichki nazorat-taftish bo'limi kabi bo'linmalar.

Yuqorida keltirilgan funktsiyalar korxonada xavfsizlik xizmatining zarur tashkiliy tuzilmasini shakllantirishga imkon beradi. Uning namunaviy tuzilmasi quyida keltirilgan (3 - chizma):



3-chizma. Xavfsizlik xizmati tuzilmasi.

Korxonada xavfsizlik xizmati Nizomida uning maqsad va vazifalari, huquq va majburiyatlari, nazorat-taftish faoliyati belgilab beriladi. Xavfsizlik xizmati o'z faoliyatini korxonada xavfsizligini yuqori darajada ta'minlash va qo'llab-quvvatlash asosida olib borib, quyidagilarni qamrab oladi:

- maxfiy tartibdagi faoliyatni tashkil etish;
- axborot xavfsizligini ta'minlash;
- muhandislik-texnik muhofaza;

• mehnat jamoalaridagi salbiy yo'nalishlarning oldini olishga oid faoliyat.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun xavf-xatarlarni bartaraf qilishga erishish lozim. Iqtisodiy xavf-xatarlardan biri bankrotlik xavfidir. Chunki bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot tasodiflardan xoli emas. Bozorda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yoki firma har xil vaziyatga tushib qolishi mumkin. Bu holat har qanday korxonani hushyorlikka chorlaydi.

Bankrotlik deganda, odatda korxonaning sinishi tushuniladi, ya'ni u mablag'i yo'qligidan o'z majburiyatlari bo'yicha qarzlarni to'lashga qurbi etmay qoladi. Tabiiyki, bunday holatda korxonalar yopiladi. Erkin iqtisodiyot sharoitida, oldingidek, barcha zararlar davlat hisobidan qoplab berilmaydi, Chunki korxonalar mulkida davlatning ulushi umuman bo'lmasligi mumkin. Shu tufayli korxonaning qarzlarni qoplashi uchun bor mol-mulkini sotishdan boshqa chorasi qolmaydi. Bu esa korxonalar ham, mulkdorga ham, Shu erda ishlayotgan xodimlarga ham, davlat va jamiyatga ham katga zarardir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18 noyabrdagi 4053-sonli «Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonida ko'zda tutilgan iqtisodiy nochor korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish, modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash jarayoniga tijorat banklarining mablag'larini kengroq jalb qilishni yo'lga qo'yish tadbirlari muhim hisoblanadi.

Qarorda Respublika Komissiyasining qarori asosida bankrot korxonalarini tijorat banklariga sotish yoki to'g'ridan-to'g'ri balansiga berishning 3 ta mexanizmi ko'zda tutilgan:

1) bankrot korxonalar kreditlik qarzi tarkibining 70% va undan ortiq qismini bank kreditlari tashkil etsa, u holda korxonalar tijorat banklari balansiga berish;

2) bankrot korxonalarini auksion savdolari orqali eng yuqori narxni taklif qilgan va tegishli majburiyatni o'z zimmasiga olgan tijorat banklariga sotish;

3) bankrot korxonalarini tanlov savdolari orqali tijorat banklariga «nol» qiymatda investitsion majburiyat sharti bilan sotish.

Iqtisodiy nochor korxonalar – muayyan miqdorda kapital yo'qotish, ishlab chiqarish maydonlarini qisqarishi, ishsizlar sonining ortishi, raqobatbardosh bo'lmagan mahsulot ishlab chiqaradigan va buning uchun katta miqdorda materiallar, xom ashyo, yonilg'i, mehnat resurslari sarflaydigan qoloq, samarasiz korxonalar.

Korxonaning bankrotligi – korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatining nochorlikka yuz tutishi natijasida o'z qarz majburiyatlari bajara olmasligi. Korxonaning xo'jalik sudining qaroriga ko'ra rasmiy holda bankrot deb e'lon qilinadi.

Moliyaviy sog'lomlashtirish – korxonaning bankrotligini bartaraf etish yoki raqobatbardoshligini oshirish maqsadida chora-tadbirlar tizimini qo'llash orqali uning moliyaviy holatini sog'lomlashtirish.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 19 noyabrdagi 4010-sonli «Iqtisodiy nochor korxonalarini tijorat banklariga sotish tartibini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoyishi bilan iqtisodiy nochor korxonalarining moliyaviy qobiliyatini tiklash bo'yicha bir qator imtiyozlar (ko'maklar) berilgan edi. Jumladan, ushbu Farmoyishga ko'ra bankrot korxonalar negizida yangi tashkil etilgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar:

- qo'shimcha qiymat solig'idan ozod qilindi;

- uch yil davomida foyda solig'i, yagona soliq to'lovi, mulk solig'i va er solig'larini to'lashdan ozod qilindi;

- boshqaruv kompaniyalarga berilganda foyda solig'i va yagona soliq to'lovidan ikki yil davomida ozod qilindi. Buning natijasida sobiq bankrot hisoblangan, endilikda tarkibiy qayta tuzish orqali faoliyatini yangilagan korxonalarining faoliyat ko'rsatkichlarida sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi.

Shuningdek, yuqorida qayd etilgan me'yoriy hujjatlar orqali tijorat banklariga ham muayyan imkoniyatlar berilgan edi. Jumladan:

- bankrot korxonaning negizida ustav jamg'armasi 100% gacha bo'lgan yangi korxonaning tashkil etish;

- bankrot korxonaning tugatilishi munosabati bilan unga avval berilgan, qoplanmagan kreditini, Shu jumladan hukumat kafolati bilan berilgan kredit summasini bank kengashining qarori bilan hisobdan chiqarish;

- bankrot korxonaning uchun malakali boshqaruv kompaniyasini tuzish va jalb qilish;

- bankrot korxonani tugatish bahosida sotib olib, uning faoliyatini tiklab, qaytadan bozor bahosida sotish va h.k.

“Biz joriy etgan bunday mexanizm **bankrot korxonalarida** ishlab chiqarish faoliyatini qayta tiklash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash uchun banklar tomonidan qo'shimcha investitsiya kiritish, ana shunday korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish, yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni yulga

qo'yish va zamonaviy boshqaruv usullarini tatbiq etish, shuningdek, ish o'rinlarini qayta tiklash va yangi ish o'rinlarini yaratishni ko'zda tutadi.”⁹⁴

Shu tufayli, faoliyat ko'rsatib yaxshigina daromad qilib ishlayotgan korxonalariga bankrotlik xavfini bartaraf qilish imkoniyati yaratilgan bo'lishi lozim. Albatta, bu imkoniyatlar davlat tomonidan tartibga solinadi. Ammo korxonaning o'zlari esa tegishli chora-tadbirlar asosida bunday sharoitni o'zlariga yaratib olishlari lozim.

Bankrotlik xavfini bartaraf qilish uning turlarini bilishni taqozo qiladi. Hozirgi paytda bankrotlik xavfining uchta turi mavjud.

1. Ishlab chiqarish bankrotligi xavfi. Bu xavf korxonaning mo'ljaldagi mahsulotini tegishli hajmda va narxda ishlab chiqarish imkoniyatining cheklanganligi tufayli sodir bo'ladi. Uni bartaraf qilish uchun korxonada doimiy ravishda bozor konyunkturasini o'rganish, marketing xizmatini yaxshi yo'lga ko'yish, texnologik jarayonlarni tezlikda boshqa mahsulotni ishlab chiqarish uchun o'zgartira olish kabi imkoniyatlarga ega bo'lishi lozim.

2. Moliyaviy bankrotligi xavfi. Bu korxonaning moliyaviy bozorda, soliq va boshqa majburiy to'lovlarini amalga oshira olmay qolish xavfidir. Bu korxonaning o'ziga kerak bo'lgan kreditni uning foizi oshganligi tufayli olish imkoniyatining cheklanganligi, korxonada aksiyasining narxi tushganligi, nufuzining pasayib ketganini, kreditor qarzlarning oshganligi evaziga sodir bo'lishi mumkin.

Bunday xavflarning oldini olish, albatta, juda murakkab. Chunki ushbu jarayonlarning ko'p qismi korxonaning faoliyatiga bevosita bog'liq emas.

3. Tijorat bankrotligi xavfi. Bu xavf ishlab chiqaruvchi, savdo va xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda ham sodir bo'lishi mumkin. Ishlab chiqaruvchilar, o'z faoliyatini amalga oshirish uchun eng avvalo, xom ashyo va materiallarni bozordan sotib oladi va ishlab chiqarilgan mahsulotni bozorda sotadi. Savdo korxonasi esa, ma'lumki, tovarlarni sotib olib, sotadi. Bu jarayonda bozordagi talab va taklifning o'zgirishi oqibatda uning baxrsi ham tez o'zgarib ketgan bo'lishi mumkin. Natijada, bir tomondan xom ashyo va materiallar taqchilligi ro'y bersa, ikkinchi tomondan, ishlab chiqarilgan (agar savdo korxonasi bo'lsa, oldin sotib olingan) tovarini bozorda ortiqchaligi ro'y berib, tegishli narxda sotish

⁹⁴ И. Каримов. “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади” – 2010 йилнинг асосий яқунлари ва 2011 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

imkoniyati cheklangan bo'lishi mumkin. Bu holatdan ham chiqish, ushbu xavflarning ham oldini olish o'ta murakkab bo'lib korxonalar rahbariyatidan tajriba, bilim va tadbirkorlikni talab qiladi.

Bu xavf-xatarlarni bartaraf qilishdan davlat ham manfaatdordir. Chunki korxonalarining sinishi ishsizlikning ko'payishiga, byudjetga tushumlarning keskin kamayishiga, boz ustiga ishsizlik nafaqasini to'lash uchun sarflarning oshib ketishiga olib keladi.

“Bugungi kunda tijorat banklari balansiga berilgan 147 ta bankrot korxonaning 140 tasida ishlab chiqarish qayta tiklangani, ularning 64 tasi yangi investorlarga sotilgani bu fikrning yorqin dalilidir. Qayd etish kerakki, banklar tomonidan bu korxonalarini modernizatsiya qilish va texnologik qayta jihozlash uchun 156 milliard so'm miqdorida investitsiya yunaltilindi, 21 mingdan ko'proq ish o'rni tashkil qilindi.”⁹⁵

Korxonaning xavfsizligini ta'minlash o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Bu uchun juda mukammal ishlangan chora-tadbirlar dasturi bo'lishi lozim. Bu dastur, o'z navbatida, bir qancha faoliyatlarni qamrab olishi mumkin.

1. Moddiy va intellektual mulkni saqlash va ulardan samarali foydalanish dasturi.

2. Axborot xavfsizligini ta'minlash dasturi.

3. Korxonaning maxfiy-tartib faoliyatini tashkil qilish dasturi.

4. Mehnat jamoasida axloqiy-ruhiy muhitni saqlash, salbiy holatlarga yo'l qo'ymaslik dasturi.

5. Alohida muhandis-texnik vositalarning maxfiyligini himoya qilish dasturi.

6. Korxonaning tijorat sirini saqlash dasturi kabilar. Ushbu dasturlarni amalga oshirishda, albatta, eng avvalo, asosiy mas'uliyat korxonaning xavfsizlik xizmati zimmasiga tushadi.

Ammo undan hamma manfaatdor bo'lganligi uchun korxonada ishlaydigan barcha xodimlar, rahbardan tortib to oddiy xizmatchilarga qadar uning xavfsizligini ta'minlashga xizmat qilmog'i lozim,

12.3. Korxonaning tijorat siri mohiyati va uni himoya qilish mexanizmlari

⁹⁵ И. Каримов. “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади” – 2010 йилнинг асосий яқунлари ва 2011 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

Bozor munosabatlari sharoitida korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda uning faoliyatiga doir ayrim hujjatlar, texnologik jarayonlar, boshqaruv usullari boshqa raqobatchilardan sir saqlanishini taqozo qiladi. Bu esa uning mazmun-mohiyatini, himoya kdlida qilish mexanizmi, axborot olish yo'llarini ochib berilishi lozimligini keltirib chiqaradi.

Korxonaning tijorat sirining mazmuni va mohiyatini berish uchun uning lug'aviy ma'nosiga e'tiborni qaratish lozim. Hozirgi paytda sir so'ziga iqtisodiy lug'atlarda beradilar:

1. Hali topilmagan, aniqlanmagan narsa;
2. Boshqalarga oshkora qilinmasdan maxfiy saqlanadigan, hammaga ma'lum bo'lmagan narsa;
3. Biror hodisa yoki jarayon sabablarining maxfiy tutilishi. Ushbu tushunchalarni hamma sohaga, xususan tijorat sohasiga ham tadbiiq qilish mumkin.

Korxonaning tijorat sirlari ishlab chiqarish, texnologik ma'lumotlar, boshqaruv, moliya va shu kabilar bilan bog'liq bo'lib, ularni oshkor qilish korxonaga manfaatlariga zarar etkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlardir. Korxonaga "tijorat sirlari" toifasining qonunchilikda belgilab berilgan tavsifnomasi Shunday.

Tijorat - siri deganda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tijorat, ishlab chiqarish, moliyaviy operatsiyalari, reja, marketing, ilmiy ishlanmalar va boshqa jarayonlar ifoda etilgan oshkor qilinishi mumkin bo'lmagan ma'lumotlarning maxfiy saqlanishi tushuniladi.

Mavjud nuqtai nazarlarga ko'ra, korxonaning tijorat sirlari umumiy holda o'z ichiga quyidagi ma'lumotlarni qamrab oladi:

- *196 korxonaning savdo aloqalari haqida;
- *197 kapital hajmi va tuzilmasi, investitsiya rejalari haqida;
- *198 ta'minotchi va iste'molchilar, tuzilgan shartnomalar haqida;
- *199 ishlab chiqarish hajmi, aylanma mablag'lar va foyda hajmi haqida;
- *200 bahoni shakllantirish siyosati va tovarlar bahosining shakllanishi haqida;
- *201 bank opretsiYalar haqida va hokazolar.

Mamlakatimizda tijorat sirining himoyasi Fuqarolik kodeksida (FK) (98-modda) kafolatlangan. FKning mazkur moddasida "Fuqarolik qonun hujjatlari xizmat yoki tijorga siri. bo'lgan axborotni, basharti bu axborot uchinchi shaxslarga noma'lumligi sababli haqiqiy yoki nisbiy tijorat qiymatiga ega bo'lgan, qonun yo'li bilan undan erkin bahramand bo'lish mumkin bo'lmagan hamda axborot egasi uning maxfiyligini saqlashga doir

choralar ko'rgan hollarda himoya etiladi", deb ko'rsatilgan.

Korxonaning xavfsizligini ta'minlashning yana bir yo'li, xizmat sirini saqlashda ham namoyon bo'ladi. Korxonani boshqarishda, uning samarali faoliyatini ta'minlashda turli vosita va variantlardan foydalanish mumkin. Bu ham ma'lum shaxsning (rahbarning) ixtirosi sifatida baholanadi. Bu usulni ham himoya qilish, uni maxfiy tutish lozim. Ammo bu jarayonni muallif qonun hujjatlari bilan rasmiylashtirib, uning egasi ekanligini tasdiqlab olishi lozim. Shundagina u mazkur huquqni to'liq qo'lga kiritadi va nomoddiy mulk egasi sifatida namoyon bo'ladi.

Bu holatda muallif uchinchi shaxsga ma'lum bo'lmagan texnikaviy, tashkiliy yoki tijorat axborotiga, shu jumladan ishlab chiqarish sirlariga (nou-xau) qonunan ega bo'lib turgan shaxs oshkor etilmagan axborotni noqonuniy foydalanishdan muhofaza qilish huquqiga ega.

Mutaxassislarining fikriga ko'ra, tijorat sirlariga mansub ma'lumotlarning to'rtidan bir qismi yo'qotilishi ham raqiblar uchun katta imkoniyat yaratadi hamda bir necha oy ichida ma'lumotlar chetga chiqib ketishiga yo'l qo'ygan firmalarning yarmi bankrotga uchrashiga olib keladi. Shu sababli hozirgi paytda tijorat sirlarining huquqiy maqomi va toifasini aniq belgilash, ularni oshkor qilish uchun javobgarlik mexanizmini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha vazifalarni samarali bajarish boshqaruv apparatida tijorat sirlarini muhofaza qilish bilan shug'ullanuvchi maxsus xizmatlarni yaratishni ko'zda tutadi. Xorij mamlakatlarida mazkur faoliyat bilan firmalarning maxsus bo'linmalari shug'ullanadi. Ular raqobatchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni izlash va to'plash bilan ham shug'ullanadi. Shu bilan bir vaqtning o'zida ular savdo hamkorlarining tijorat sirlarini birgalikda himoya qilish imkoniyatini ham rad qilmaydilar. Masalan, ba'zi firmalar faoliyatida tadbirkorlik aloqalari davomida hamkorlarga berilgan ma'lumotlarni birgalikda himoya qilish bo'yicha maxsus shartnomalar tuzish tartibi ko'zda tutilgan.


Korxonalar o'rtasida barqaror kooperatsiya aloqalarini o'rnatish va ularni kengaytirish bo'yicha boshlangan ishlarni davom ettirish, bu jarayonga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini keng jalb etish zarur. Respublika sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasi ishini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish lozim.

I.Karimov (ma'ruzadan)

Sanoati rivojlangan mamlakatlarning (masalan, AQSHning) davlat organlarida maxsus vositachilik xizmatlari mavjud bo'lib, u mijozlarni ularni qiziqtirayotgan korxonalar va tashkilotlar haqidagi ma'lumotlar bilan ta'minlaydi. Mamlakatimizda korxonalar

davlatga soliqqa tortish va iqtisodiy ma'lumotlarni yig'ish va ular bilan ishlash tizimi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etishi qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan. Shuningdek, korxonalar o'z faoliyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni, jumladan, yillik balansni nashr qiladilar. Shu bilan bir paytda korxonalar tijorat sirlariga oid ma'lumotlarni bermaslik huquqiga ega.

Quyidagi 4-chizmada korxonalar tijorat sirlarini muhofaza qilish mexanizmining asosiy elementlari keltirilgan.



4-chizma. Korxonalar tijorat sirlarini muhofaza qilish mexanizmi.

Tijorat sirlari davlat boshqaruv va nazorat idoralari xodimlari orqali chetga chiqib ketishining oldini olish maqsadida korxonalar rahbari ularning vakolatlarini bilishi hamda ular talab qilgan istalgan ma'lumotni emas, balki faqat xizmat vakolatiga doir ma'lumotlarni taqdim etishi zarur. Birinchi o'rinda bu statistika xizmati, monopoliyaga qarshi kurash qo'mitasi, militsiya, moliya, soliq, sanitariya, yong'inga qarshi kurash va boshqa xizmat vakillariga tegishli. Korxonalar rahbari shuningdek, davlat idoralari xodimlarining noqonuniy xatti-harakatlari ustidan arz qilish tartibi, ular tufayli korxonaga etkazilgan moddiy va ma'naviy zararni qoplash mexanizmini bilishi va unga amal qilishi zarur.

Ilmiy-texnik, ishlab chiqarish, iqtisodiy va boshqa xizmatlar mutaxassislari o'zi ishlayotgan korxonaning tijorat sirlariga oid ma'lumotlar chetga chiqib ketishi oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan va real yo'qotishlarni to'g'ri va aniq (qiymat shaklida) baholashni o'rganib olishlari zarur.

O'zbekiston Respublikasi FKda ta'kidlanishicha oshkor etilmagan axborotni noqonuniy foydalanishdan muhofaza qilish xuquqi bu axborotga nisbatan biron-bir rasmiyatchilikni bajarishdan (uni ro'yxatdan o'tkazish, guvohnoma olish va hkazodan) qat'iy nazar vujudga keladi.

Oshkor etilmagan axborotni muhofaza qilish qoidasi qonunga muvofiq xizmat yoki tijorat siri bo'la olmaydigan ma'lumotlarga nisbatan tadbiq etilmaydi. Bularga yuridik shaxslar to'g'risidagi, mol-mulkka bo'lgan xuquqlar va mol-mulk xususida tuzilib, davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan kelishuvlar to'g'risidagi ma'lumotlar, davlat statistika hisoboti tariqasida takdim etiladigan ko'rsatkich kabi axborotlar kiradi.

Oshkor etilmaydigan axborotlarning ayrimlari vaqtincha bo'lishi mumkin. Bunday holda vaqt tugagach, u oshkor bo'lishi mumkin va u qonun bilan muhofaza qilinmaydi. Vaqt tugagach, u ham oddiy axborotlar singari hammaga foydalanish huquqini cheklamaydi.

Oshkor etilmagan axborotni qonuniy asosi bo'lmay turib olgan yoki tarqatgan yoxud undan foydalanayotgan shaxs bu axborotga qonunan ega bo'lib turgan shaxsga axborotdan noqonuniy foydalanganlik natijasida etkazilgan zararni to'lashi shart.

Oshkor etilmagan axborotdan noqonuniy foydalanayotgan shaxs bu axborotni uni tarqatishga xuquqi bo'lmagan shaxsdan olgan bo'lsa, axborotni qo'lga kirituvchi shaxs bundan bexabar bo'lsa ham, axborot egasi bunday shaxsga davo qilishi mumkin. Oshkor etilmagan axborotdan foydalanganlik natijasida axborot muallifiga etkazilgan zararlarni, axborotni ko'lga kiritgan shaxs bundan bexabar bo'lsa ham, qoplashga

majbur.


Oshkor etilmagan axborotga qonunan ega bo'lib turgan shaxs bu axborotdan noqonuniy foydalanayotgan shaxsdan axborotdan foydalanishni darhol to'xtatishni talab qilishga haqlidir. Agar oshkor etilmagan axborotni boshqa bir kishi mustaqil tarzda tadqiqot yo'li bilan aniqlagan bo'lsa, bunday axborotdan tadqiqotchi bemalol foydalanishi mumkin. Bu uchun u oldinga muallif oldida javobgar bo'lmaydi.

Oshkor etilmagan axborotni noqonuniy foydalanishdan muhofaza qilish huquqining boshqa shaxsga o'tish ham mumkin. Bu oshkor etilmagan axborotga ega bo'lgan shaxsning ushbu axborotning hammasini yoki bir qismini boshqa shaxsga litsenziya shartnomasi asosida berishi mumkinligida namoyon bo'ladi. Ammo litsenziat ushbu axborotdan faqat o'zi foydalanishga haqli. U **shartnoma bo'yicha olgan axborotlarning maxfiyligini** muhofaza qilishga doir kerakli choralarni ko'rish shart. Agar litsenziyaning vaqti tugab, litsenziat bu axborotdan foydalanishni to'xtatsa ham, ushbu axborot hali maxfiy bo'lib, uni oshkora qilish mumkin bo'lmasa, litsenziatning uni oshkora qilishga haqi bo'lmaydi.

Korxonaning xavfsizligini ta'minlash uchun uning sirini, ayniqsa tijorat sirini saqlashni taqozo qiladi. Bu sirni saqlash esa mamlakatimizda tegishli qonunlar bilan kafolatlangan.

Tijorat sirini himoya qilish mexanizmi

Mamlakatimizda ochiq demokratik jamiyat qurilmokda. Bu hamma narsa "ochiq" bo'ladi degani emas. Bozor munosabatlari sharoitida erkin raqobat mavjud ekan, tijorat sirining ham saqlanib qolishi muqarrar. Shu tufayli korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun uning tijorat sirini saqlay bilishi lozim. Bu o'z-o'zidan amalga oshmaydi. Buning bir qancha mexanizmlari mavjud (5-chizma).



5-chizma. Korxonalar tijorat sirini saqlash mexanizmlari

1. Tashkiliy tadbirlar. Bunda korxonaning xavfsizligini ta'minlash uchun alohida xavfsizlik xizmati tashkil qilindi. Bu xizmat korxonaning tegishli axborotlarining maxfiylikini saqlash chora-tadbirlarini ko'radi.

2. "Ochiq testlar" o'tkazish tadbirlari. Korxonaga xodimlarni ishga qabul qilishda ishlayotganlarini esa vaqti-vaqti bilan test orqali sinab turiladi. Bu test orqali xodimning mazkur korxonaga sodiqligi, axborotlarga, ayniqsa maxfiy axborotlarga e'tibori aniqlanadi. Chunki nufuzli korxonalar raqobatchi korxonalar ayg'oqchilari, maxfiy xufiya iqtisodiyot vakillari kirib olishga harakat qiladilar. Bu vakillarning xodimlar tarkibiga kirib qolishi ushbu jamoada axloqiy, ruhiy muhitni buzishga, tegishli axborotlarni o'g'rilab olishga harakat qiladi. Tabiiyki, bunday holat korxonaning ishini orqaga ketkizadi, ko'zda tutilgan foydani olish imkoni bo'lmaydi. Xullas, bankrotga uchraydi. Shu tufayli "Ochiq testlar" ushbu xavfning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

3. Texnik tadbirlar. Hozirgi paytda raqobatchilar, turli uyushgan jinoiy guruhlar, reketchilar korxonalar haqidagi maxfiy axborotlarni texnika orqali olishga harakat qiladilar. Bunga korxonaning saytiga kirib, tegishli axborotni kompyuter orqali olishi mumkinligini, telefonda gaplashgan gaplarni eshitish, orqali muhim shartnomalarga oid axborotlarni olish kabilarni kiritish mumkin. Bu holatlarga qarshi tegishli texnik tadbirlarni qo'llash lozimki, toki bunday yo'llar bilan maxfiy axborotlarning chetga chiqib ketishiga yo'l qo'yilmasin.

4. Rag'batlantiruvchi tadbirlar. Korxonalar xavfsizligi bilan shug'ullanadigan o'z xodimlarini doimiy ravishda rag'batlantirib borishi lozim. Odamlarga korxonalar qanchalik g'amxo'rlik qilsa, odamlar ham shunga javoban korxonani asrab-avaylashga harakat qiladi. Bunda korxonaning xavfsizligi bilan bog'liq jarayonlarga faqat korxonalar sodiq kishilarni jalb etish lozim bo'ladi. Zero, xodimlar sodiqlik bo'lmasa, korxonaning tashqi raqobatchilari, eng avvalo, shu korxonaning xodimlarini qo'lga olishga harakat qiladilar, shu tufayli maxfiy axborotlarga har kimni ham yaqinlashtirib bo'lmaydi.

5. Tekshiruv tadbirlari. Korxonalar o'z faoliyati davomida yuzlab hamkor tashkilotlar, korxonalar bilan munosabatda bo'ladi. Ammo ularga

mol jo'natishda, pul o'tkazishda qaytishiga ishonch hosil qilingan bo'lishi lozim.

Ammo hammaga ishonish mumkinmi. Albatta, yo'q. Bunga mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan yakka tartibdagi jismoniy va yuridik shaxslar hayotida sodir bo'layotgan ko'plab hodisalarni misol keltirish mumkin. Shu tufayli boshqa korxonalar bilan hamkorlik qilingan paytda, albatta, ularga ishonch hosil qilish uchun ularning aholini, o'zini tutishini tekshirib ko'rish lozim. Biz kim bilan, qanchagacha va qaysi muddatga shartnoma tuzilishi lozimligini oldindan bilsak, bunday operatsiyalarni amalga oshirish, har holda, ma'lum ma'noda, ishonchli bo'ladi.

“Bu tizimning yanada mustahkamlanishi xususiy banklar va xususiy mulkka asoslangan lizing, sug'urta kompaniyalari, kredit uyushmalari, mikromoliyaviy tashkilotlar kabi moliyaviy institutlarni tashkil etishning qonunchilik asoslarini shakllantirish hisobidan bank-moliya sohasiga xususiy kapitalni jalb qilish bilan ham bog'liq.”⁹⁶

Albatta, bozor munosabatlari har bir korxonani hushyor bo'lish bilan birga ko'p hollarda risk (tavakkal) qilishga ham majbur qiladi. Chunki bozor munosabatlarining tabiati shunday. Ammo tavakkal qilish bilan birga korxonaning xavfsizligini ta'minlash uchun tegishli himoya mexanizmlaridan ham foydalanish zarur.

Korxonalarining maxfiylik shartlariga rioya qilmaslik natijasida yuzaga keluvchi yo'qotishlari umumiy ko'rinishda quyidagilarga olib keladi:

*202 ilmiy tadqiqotlarga litsenziya sotish imkoniyatlari pasayadi, fan-texnika taraqqiyoti sohasida erishilgan ustunliklar yo'qotiladi, ilmiy-tadqiqot bo'linmalarining yo'nalishni o'zgartirishlari uchun xarajatlari o'sadi;

*203 ishlab chiqarish faoliyatida zarur bo'lga xom ashyo, texnologiya va hokazolarni sotib olishda qiyinchiliklar yuzaga keladi (yoki raqobatchilar tomonidan sun'iy ravishda yaratiladi);

*204 korxonaning tadbirkorlikdagi sheriklar bilan hamkorligi cheklanadi, foydali shartnomlarni imzolash imkoniyatlari kamayadi, shartnoma majburiyatlarini bajarishda muammolar vujudga keladi;

⁹⁶ И. А. Каримов. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” маърузаси// Халқ сўзи газетаси, 12.11.2010.

*205 korxonaning yangi bozor strategiyasini yaratish, marketing tadqiqotlari tuzilmasini o'zgartirish va hokazolarga sarflanuvchi xarajatlari o'sadi;

*206 tijorat sirlarini oshkor qilganlarga nisbatan iqtisodiy jazo choralari qo'llash xavfi kuchayadi.

Barcha yo'qotishlarning umumiy miqori qiymatini aniq hisoblash juda murakkab va ko'p mehnat talab qiluvchi jarayon bo'lib, ba'zida ishonchi ma'lumotlar yo'qligi sababli ularni hisoblashning imkoni ham bo'lmaydi. Shu sababli ko'p hollarda korxonalarining ma'lumotlarni himoya qilishga rioya etmaslik bilan bog'liq bo'lgan yo'qotishlarini yiriklashtirilgan ekspert baholash kifoya qiladi.

Yuqorida keltirilgan yo'qotishlarning o'rnini qoplash ko'pincha korxonalardan qo'shimcha xarajatlarni talab qilib, ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatchilik kurashida erishish mumkin bo'lgan muvaffaqiyatlar imkoniyatini pasaytiradi. Xuddi Shuning uchun ham hozirgi paytda tijorat sirlarini muhofaza qilishga katta e'tibor qaratilmoqda.

12.4. Raqobatchilar to'g'risida axborot olish uslublari, turlari va ularni himoya qilish sub'ektlari

Bozor munosabatlari sharoitida biznes to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'lish bu muvaffaqiyatning yarmi. Bozor sharoitida bozor haqidagi axborotlar o'ta qimmatli tovar hisoblanadi. Raqobatchilar ichidan muvaffaqiyatli chiqish, biznesga jiddiy tus berish, tadbirkor o'z taktikasi va strategiyasini belgilashi uchun eng qimmatli va zarur narsa bozor haqidagi, bozor sub'ektlari, Ya'ni raqobatchilar haqidagi axborotlardir.

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi iqtisodiy faoliyat jarayonlari va uning natijalarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlarda kichik biznes ulushining yuqori bo'lishiga ham bog'liq ekanligi shubhasizdir.

Kam xarajat hisobiga yangi ish o'rinlari yaratish imkoniyati, yirik biznes kirib bora olmaydigan bozor segmentlarini egallay olish qobiliyati, ayniqsa, xizmat ko'rsatish sohasida va uncha katta bo'lmagan mahalliy

Nisbatan barqaror va bozor kon'yunkturasi o'zgarishlariga tez moslashuvchan, yangi ish o'rinlari yaratish imkonini beradigan kichik biznesni jadal rivojlantirish masalasini hal etish bizning sharoitimizda hamon muhim ahamiyatga molik masala bo'lib qolmoqda.

I.Karimov (ma'ruzadan)

resurs bazalarini o'zlashtirishda juda qulay tashkiliy shakl ekanligi kichik biznesni rivojlantirishning ahamiyati beqiyosligini ko'rsatadi. Shu sababli ham kichik biznesni jadal rivojlantirish masalasi mahsulot ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va Shuningdek, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish masalalari bilan chambarchas bog'langan. Ammo axborot o'z-o'zidan ko'lga kiritilib qolinmaydi. U ma'lum miqdorda xarajatni, vaqtni talab qiladi. Lekin axborotga sarf qilingan xarajat o'n marotaba ko'p foyda keltirishi mumkin.

“Mamlakatimizda fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta'minlash borasida amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlarni tanqidiy baholar ekanmiz, muhim bir masalaga alohida e'tibor qaratishimiz zarur, deb o'ylayman.”⁹⁷

Tovarga qilingan xarajat 1.5-2.0 barobar foyda keltirsa, axborotga qilingan xarajatning qanchalik samarali ekanligini baholash qiyin emas. Shu tufayli axborotdan tejalgan mablag' o'ziga nisbatan qimmatga tushadi, deyishadi tadbirkorlar.

Zamonaviy tadbirkor o'z ishini axborot to'plashdan boshlashi lozim. Agar unda aniq axborot bo'lmasa, ko'r-ko'rona ish boshlash bilan biznesda muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi.

Tadbirkor, eng avvalo, o'zi ishlab chiqarmoqchi bo'lgan tovarining Shu hududda bir qancha xaridori borligini aniqlashi, Shu tovarga bozorning to'yinganlik darajasini, mazkur tovarni kimlar ishlab chiqayotganligini, o'zi qancha shlab chiqarish mumkinligini, raqobatchilar qanchadan sotayotganligi, bu esa undan arzonroq sotib, qancha foyda qilish mumkinligi kabilarni obdon o'rganib, aniq hisob-katoblarga ega bo'lishi lozim.

Axborotlar qo'lga kiritilishi nuqtai nazaridan uch guruxga bo'linadi:

- erkin oladigan axborotlar;
- sotib olinadigan axborotlar;
- o'ta zarur, ammo olish qiyin bo'lgan tijorat siriga mansub maxfiy axborotlar.

Rejali iqtisodiyot sharoitida maxfiy axborotlar faqat davlatniki bo'lgan. Uni fosh qilmasligi uchun ayrim axborotlar maxfiy hisoblangan.

O'zbekiston Respublikasining "Axborotlar erkinligi printsiplari va holatlari to'g'risida"gi 12 dekabr 2003 yilgi Qonunida axborot erkinligi,

⁹⁷ И. А. Каримов. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” маърузаси// Халқ сўзи газетаси, 12.11.2010.

uning printsiplari, ochikligi, oshkoraligi, olish va berishni rad etish tartiblari, muhofaza etish kabilarning huquqiy asoslari o'z ifodasini topgan.

Ushbu qonunning 6 moddasiga binoan quyidagi axborotlar maxfiy hisoblanadi:

- fuqarolarning huquq va erkinliklari, ularni ro'yobga chiqarish tartibi to'g'risidagi, shuningdek, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy maqomini belgilovchi qonun hujjatlari;

- ekologik, meteorologik, demografik, sanitariya-epidemiologik, favqulotda vaziyatlar to'g'risida ma'lumotlar hamda aholining, aholi punktlarining, ishlab chiqarish ob'ektlari va kommunikatsiyalarning xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan boshqa axborotlar;

- kutubxonalarning, arxivlarning va O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslarga tegishli axborot tizimlarining ochiq fondlaridagi mavjud ma'lumotlar.

Maxfiy axborotlarni berishni rad etish qonunning 10 moddasida belgilab qo'yilgan.

Erkin bozor munosabatlari sharoitida **maxfiy axborotlar** nafaqat davlatga, balki barcha tadbirkorlarga, korxonalariga, birlashma kabi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga ham daxldordir. Oldin maxfiy axborotlarni faqat davlat himoya qilgan bo'lsa, endi axborotlarni himoya qilish ham quyidagi sub'ektlar o'rtasida taqsimlanadi:

- davlat himoya qiladigan axborotlar;
- tijorat tizimi himoya qiladigan axborotlar;
- ikkalasi birgalikda hamoya qiladigan axborotlar.

Hozirgi paytda davlat sirini saqlash bo'yicha maxsus "Davlat siri to'g'risida"gi qonun mavjud. Mazkur qonunda davlat siri, uni saqlash, oshkor qilmaslik, oshkor qilinganda javobgarlik kabi tartiblari aniq o'rnatilgan. Ammo korxonalar, tashkilot tadbirkorlar kabi xo'jalik yurituvchi tijorat sub'ektlari sirlariga nimalarning kirishi, ularni himoya qilish yo'llari bo'yicha aniq qonuniy normalar etarli emas. Bu bo'yicha maxsus qonun qabul qilinmagan. Yuqorida ko'rganimizdek faqat mamlakatimizda amal qilib turgan fuqarolik Kodeksida uning ayrim normalari yozilgan.

"Bu o'rinda gap ommaviy axborot vositalari va davlat hokimiyati organlari o'rtasidagi munosabatlarning ustuvor jihatlarini to'g'ri belgilash, jumladan, ommaviy axborot vositalari faoliyati ustidan nazorat qilishning iqtisodiy mexanizmlarini, axborot manbalarining yopiqligini, shuningdek,

tahririyatlarga hokimiyat organlari va ma'muriy tuzilmalar tomonidan bo'layotgan ma'lum darajadagi bosimlarni bartaraf qilish bilan bog'liq muammoli masalalarni hal etish haqida bormoqda.”⁹⁸

Taraqqiy etgan mamlakatlarda ularni tajribasidan kelib chiqib bizda ham, tadbirkorlar, bozor sub'ektlari to'g'risidagi axborotlarni to'plab sotadigan maxsus kompaniyalar, firmalar bor. Ular o'zlari to'plagan axborotlarni sotadilar. Bularga quyidagi axborotlarni kiritish mumkin:

- korxonaning moliyaviy ahvoli;
- boshqa hamkorlari bilan hisob-kitob olib borishdagi intizomi;
- debitor va kreditor qarzlari;
- qanday biznes bilan shug'ullanishi;
- sheriklari bilan sudlanish darajasi;
- rahbarning nufuzi;
- jamoadagi axloqiy-ruhiy muhit kabilar.

Shuni unutmaslik kerakki, hayotda mayda-chuyda bo'lganidek, biznesda bu o'ta muhim. Ba'zan bizning tasavvurimizda hech narsaga arzimaydigan, mayda-chuydadedek tuyulgan narsa biznesda juda katta muvaffaqiyat olib kelishi mumkin, yoki biznesmenni sindirib, inqirozga yuz tutishiga sabab bo'lishi ham mumkin. Shu tufayli raqobatchilar to'g'risidagi barcha katta-kichik axborotlar mazkur korxonaga uchun o'ta muhim va qimmatli hisoblanadi.

“2011 yilda iqtisodiyotga jalb etiladigan barcha investitsiyalarning 36,4 foizdan ortig'ini sanoatni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash dasturlarini amalga oshirishga yo'naltirish ko'zda tutilayotgani, zamonaviy asbob-uskunalar xarid qilish xarajatlari umumiy kapital qo'yilmalar hajmining kamida 46 foizini tashkil etayotganini qayd etish darkor.”⁹⁹

Korxonaga o'z raqobatchilari to'g'risida axborot to'plashi uchun qanday ishlarni amalga oshiradi? Eng avvalo, u raqobatchilari to'g'risida umumiy ma'lumotlarni oladi. Bu axborotlar umumiy xulosa qilish uchun asos

⁹⁸ И. А. Каримов. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” маърузаси // Халқ сўзи газетаси, 12.11.2010.

⁹⁹ И. Каримов. “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади” – 2010 йилнинг асосий яқунлари ва 2011 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

bo'ladi.

Ikkinchidan, korxonaga kerak bo'lgan to'liqroq axborotlarni axtara boshlaydi. Bularga:

- korxonaning faoliyatining samaradorligi;
- ularning istiqboli;
- moliyaviy ahvoli;
- tavakkal qilish qobiliyati kabilar kiradi.

Uchinchidan, mazkur korxonaning qaysi biri bilan aloqa qilish mumkinligini aniqlab olgandan so'ng, o'sha korxonaning uning rahbari haqida batafsil ma'lumotlarni to'plashga - kirishadi. Chunki korxonaning rahbaridagi insoniy va tadbirkorlik sifatлари biznes borasida aloqa qilish uchun juda muhim.

To'plangan ma'lumotlar ekspertlar tomonidan o'rganib chiqiladi va ular yana qanday axborotlarni olish mumkin yoki qanday harakat qilish lozimligi xususida o'z xulosalarini beradi.

Korxonalar o'z sheriklari to'g'risida, ularning bozordagi mavqei haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lishi lozim.

Korxonalar bozordagi mavqeiga qarab 3 guruhga bo'linadi:

1. Raqobatchi korxonalar. Ularning mazkur bozordagi ulushi 25%gacha bo'lishi mumkin.

2. Hukumron korxonalar. Ularning bozordagi ulushi 25 dan 70 foizgacha bo'lishi mumkin.

3. Monopol korxonalar. Ularning mazkur bozordagi ulushi 70% dan ortiq bo'ladi.

Agar mazkur korxonaning bozordagi ulushi juda kam bo'lsa, erkin raqobatga chiqishda juda ehtiyot bo'lishlari lozim. Hamisha "kitlar" "mayda baliklar" ni yutib kelganlar.

Korxonalar to'g'risida axborot to'plab, ularning raqobatbardoshligi va raqobat maydonidagi o'rniga qarab to'rt guruhga bo'linishini ham inobatga olish lozim:

1. Xalqaro bozorda raqobat qiladigan korxonalar. Bu korxonalarining bozori nafaqat mamlakatda, balki uzoq va yaqin xorijiy mamlakatlarda ham bo'lishi mumkin. Bular hamisha o'z mahsulotini xalqaro andozalar darajasida ishlab chiqarishga erishishi lozim. Oddiy korxonalar bunday korxonaning bilan raqobatga kirishmaydi. Demak, "kim kim bilan o'ynashi mumkinligi" to'g'risida har bir korxonaning rahbariyati aniq xulosaga ega bo'lishi lozim.

2. Xalqaro bozorda raqobat qilish qobiliyatiga ega bo'lmagan korxonalar. Bular ham yuqoridagi korxonalar singari mahsulot ishlab

chiqishi mumkin. Ammo u xalqaro standartlar talabiga to'liq javob bermaydi. Bu yuqori bosqichga o'tish uchun bajarishlari lozim. Ya'ni ilg'or texnologiyalarni, fan yutuqlarini joriy qilishi kabi.

3. Tabiiy monopoliyaga ega bo'lgan korxonalar. Bunday korxonalar faqat o'zlariga o'xshash korxonalar bilan raqobat qilishi mumkin. Bu turdagi korxonalar uchun alohida "Tabiiy monopoliyalar to'g'risida" qonun qabul qilingan.

4. Xorijiy raqobatchilarga bog'liq bo'lmagan korxonalar. Bularga mamlakat xom ashyosiga tayanib, mamlakat bozori uchun mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar kiradi. Masalan, non, sut, go'sht sanoati zavodlari kabilar. Ular o'rtasidaga raqobat ichki raqobat bo'lib hisoblanadi. Bu haqidagi ma'lumotlar ham xulosa qilish uchun o'ta muhimdir.

Bozor munosabatlari sharoitida

Keyingi vaqtda jahon bozorida narxi keskin tushib ketgan xom ashyo resurslarini eksport qilish amaliyotidan imkon qadar tezroq qutilib, tayyor raqobatbardosh mahsulotlar eksportini faol oshirish va bu mahsulotlar etkazib beriladigan mamlakatlar geografiyasini yanada kengaytirishimiz kerak.

raqobat muhiti ham, bozor kon'yunkturasi ham, raqobatchilarning soni, mavqei ham tez o'zgarib turadi. Bunday o'zgarishlarga har qanday korxonalar tayyor turishi lozim.

Prezidentimiz tomonidan ma'ruzada ilgari surilgan tayyor raqobatbardosh mahsulotlar eksportini faol oshirish va bu mahsulotlar etkazib beriladigan mamlakatlar geografiyasini

yanada kengaytirish vazifasini amalga oshirish eksport hajmini barqaror o'stirish, tashqi bozordagi o'zgarishlar ta'sirida uning hajmi keskin kamayishi xavfini bartaraf etish imkonini beradi.

Eksport qilinayotgan tovarlarni diversifikatsiya qilish, ularni import qiluvchi mamlakatlar geografiyasini kengaytirish bu mamlakatlardan biri yoki bir guruhining iqtisodiyotida muammolar ro'y berganda ham eksport hajmining keskin pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik imkonini beradi.

O'tgan yillar mobaynida eksport qiluvchi korxonalarini qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar iqtisodiyotimizning eksport salohiyatini yuksaltirish, tashqi savdo tarkibida ijobiy siljishlarga erishish, uning hajmini barqaror o'stirish imkonini bermoqda (2-rasm).



**2-rasm. O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi, mln.
AQSH doll.**

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Ma'lumotlardan ko'rinadiki, respublikamiz tashqi savdo aylanmasi muttasil o'sib bormoqda. Xususan, bu ko'rsatkich 2009 yilda 21209,6 mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2005 yilga nisbatan 2,23 marta, 2008 yilga nisbatan 0,06 foizga o'sdi. Bu eksport hajmi 2,4 foizga o'sgani holda import hajmining 2,74 foizga kamayishi natijasida ro'y berdi.

Ayni chog'da, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining ta'sirida ko'pchilik mamlakatlarda eksport hajmining keskin qisqarishi kuzatilmoqda. Jumladan, 2009 yilda eksport hajmlarining qisqarishi Rossiya Federatsiyasida 44,2 foizni, Ukrainada 48,7 foizni, Qozog'istonda 47,7 foizni tashkil etdi.

Shu tufayli, har bir korxonaga bir qancha vazifalarni bajarishi lozim.

1. Har bir korxonaga o'zining ishlab chiqarish quvvatidan to'liq foydalangan holda bozor bop, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarib, bozordagi mavqeini doimiy ravishda mustahkamlab borishga harakat qilmog'i lozim,

2. Mahsulotning hajmini ko'paytirish bilan birga, sifatini oshirish, narxini pasaytirish choralarini ko'rish doimiy ravishda diqqat-e'tiboridan chetda bo'lmasligi kerak.

3. Raqobatchilariga nisbatan foydani ko'proq olish choralarini ko'rish lozim, chunki erkin raqobat korxonani modernizatsiya va rekonstruktsiya qilish uchun hamisha imkoniyat bo'lishini ta'minlashni talab qiladi.

4. Korxonalar ijtimoiy yacheyka sifatida xodimlarni rag'batlantirishning noan'anaviy usullaridan foydalanish ustida tinimsiz ishlashi lozim. Chunki bunda korxonaga yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilish imkoni tug'uladi. Ishlayotgan kishilar o'z kasbiy mahoratini oshirishga ichki tuyg'u hosil bo'ladi. Bu xam juda katta muvaffaqiyatlarning kaliti hisoblanadi.

Bozor munosabatlari sharoitida korxonalar erkinligi bosqichma-bosqich ta'minlanib boriladi. Ammo erkinlikni hech mahal o'zboshimchalik deb tushunmaslik kerak. Har qanday korxonaning faoliyatini davlat o'zining dastaklari bilan tartibga solib turadi. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- soliqlar, ularning turlari va tabaqalangan stavkalari; amortizatsiyaning namunaviy normalari;
- valyuta kursi;
- davlat byudjetiga soliqsiz turli majburiy to'lovlar;
- bojxona tarifi;
- ekologik me'yorlar, tashqi muhitni ifloslantirilganlik bo'yicha to'lovlar;
- bank krediti foizlari;
- standartlar, texnik shartlar va h,k.

Korxonalar to'g'risida axborot olganda, uning davlat bilan bo'lgan munosabatini albatta tekshirib ko'rish kerak. Chunki har qanday korxonalar davlatga xiyonat qilsa, hamkorini aldamaslikning iloji yo'q. Shu tufayli korxonaning xavfsizligini ta'minlash uchun sheriklarga juda ehtiyotkorlik bilan yondoshish lozim.

Bozor munosabatlari sharoitida etti o'lchab emas etmish o'lchab, keyin esa ekspertlar xulosasiga asoslangan holda "kesish" kerak. Shundagina u o'zining yashovchanligini saqlab qoladi va ma'lum ma'noda umumiy xavfsizligini, ayniqsa iqtisodiy xavfsizligini ta'minlaydi.

Qisqacha xulosalar

Korxonalar sirlari va xavfsizligi bir qarashda oddiy tushunchalar bo'lib, ularning mazmuni mutaxassis bo'lmaganlarga ham tushunarlidir. Biroq amaliyotda korxonalar, shuningdek, turli xo'jalik sub'ektlarining tijorat sirlari va xavfsizligini ta'minlash etarlicha murakkab faoliyat sohasi hisoblanadi.

Korxonaning, shundan kelib chiqqan holda ishlab chiqarishning xavfsizligi nafaqat butunlik va barqarorlik, balki atrof-muhit uchun

iqtisodiy, texnik, texnologik, tashkiliy va umuman, funktsional jihatdan zararsizligidadir.

Korxonada xavfsizligi amalda maxsus xizmat va boshqaruv organlari tomonidan, shuningdek, mos keluvchi Nizom normalari, qoidalar va yo'riqnomalar asosida ta'minlanadi.

Korxonada xavfsizligiga ichki ishlab chiqarish muhitidan tashqari tashqi muhit ham ba'zida bevosita, ba'zida esa bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Ichki va tashqi muhitlarning ishlab chiqarish faoliyatiga salbiy ta'sirini bartaraf qilish har bir korxonada oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi.

Tijorat sirlari korxonada faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lib, ularning chetga chiqib ketishi yoki begona shaxslarga tarqatilishi korxonada manfaatlariga zarar etkazishi mumkin. Shu sababli tijorat sirlariga korxonada tomonidan amal qilinibgina qolmay, unga rioya etish shartlari qonunchilik tomonidan belgilab ham qo'yilgan.

Korxonaning tijorat sirlarini muhofaza qilish mexanizmi, maxfiy xarakterga ega va oshkor qilinishi mumkin bo'lmagan, Shuningdek, manfaatdor idora va shaxslarga xavf-xatar tug'dirmagan holda taqdim etish mumkin bo'lgan ma'lumot va ko'rsatkichlarni tanlab olishni ko'zda tutuvchi tizimga ega bo'lishi zarur.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Korxonada xavfsizligi deganda nimani tushunasiz?
2. Korxonaning "tijorat sirlari" tushunchasi nimani anglatadi?
3. Korxonada xavfsizligi va tijorat sirlari o'rtasida qanday aloqa mavjud?
4. Korxonada xavfsizligining asosiy tamoyillarini aytib bering.
5. Korxonaning xavfsizlik xizmati qanday vazifani bajaradi?
6. Bozor sharoitlarida tijorat sirlari korxonaning reklama faoliyatiga zid kelmaydimi?
7. Korxonaning tijorat va boshqa sirlarini oshkor qilish qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?
8. Korxonaning tijorat sirlarini muhofaza qilish mexanizmi o'z ichiga nimani qamrab oladi?
9. Bankrotlik tushunchasi.
10. Bankrotlik xavfini turlari.
11. Axborotlarning qo'lga kiritilishi bo'yicha turlari.
12. Axborotlarni himoya qilish sub'ektlari.
13. Korxonalarining raqobatbardoshligi bo'yicha tasnifi.

14. Korxonalarining raqobatbardoshlikni ta'minlash bo'yicha vazifalari.
15. Davlatning korxonalarni tartibga solib turadigan dastaklari.
16. Davlatning nazorat-funksiyalarini cheklashi.

GLOSSARIY

Aktsiya – aktsiyadorlik jamiyati tomonidan chiqariluvchi xamda uning egasi, aktsiyadorlik jamiyatining a'zosiga jamiyatni boshqarish va foydadan dividend olish xuquqini beruvchi qimmatbaxo qog'oz.

Aktsiyadorlik kapitali – aktsiyadorlik jamiyatining asosiy kapitali, uning xajmi Nizomda belgilab beriladi. Qarzga olingan mablag'lar va aktsiya chiqarish hisobiga shakllantiriladi.

Amortizatsiya - asosiy fondlar qiymatini asta-sekinlik bilan ular yordamida ishlab chiqariluvchi mahsulot yoki xizmatlarga o'tkazilishi; mablag'larning maqsadli ravishda jamg'arilishi va keyinchalik eskirgan asosiy fondlarning o'rnini qoplashga ishlatilishi.

Amortizatsiya vositalari - korxonada asosiy fondlarini saqlash va yangilash uchun maxsus ajratiluvchi moliyaviy vositalar.

Amortizatsiya fondi - asosiy fondlarni oddiy va kengaytirilgan tarzda takror ishlab chiqarishga mo'ljallangan pul mablag'lari.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari – mahsulot ishlab chiqarishda foydalaniluvchi mehnat vositalari (binolar, inshootlar, qurilma va asbob-uskunalar, transport vositalari va xokazo). Ular uzoq muddat xizmat ko'rsatib, ishlab chiqarish jarayonida o'zining natural shaklini saqlab qoladi xamda o'z qiymatini eskirish mobaynida asta-sekinlik bilan tayyor mahsulotga o'tkazadi. Kapital qo'yilmalar hisobiga to'ldiriladi.

Asosiy fondlarning eskirishi – asosiy fondlarning (binolar, qurilmalar va boshqa mehnat vositalarining) asta-sekinlik bilan foydali xususiyatlarini yo'qotishi. Asosiy ishlab chiqarish fondlari eskirishining jismoniy va ma'naviy turlari mavjud.

Biznes-reja - korxonada faoliyati dasturi, kutilayotgan xarajat va daromadlar hisobini o'z ichiga oluvchi kompaniya faoliyatining muayyan maqsadlariga erishish uchun muayyan chora-tadbirlar rejasi. Marketing tadqiqotlari asosida ishlab chiqiladi.

Balans - biron-bir xolatning aloxida tomonlarini taqqoslash va solishtirish yo'li bilan tavsiflanuvchi ko'rsatkichlar tizimi.

Balans foydasi - korxonaning balansida aks ettiriluvchi faoliyatning barcha turlaridan olinuvchi umumiy foyda miqdori.

Bankrotlik - kasodga uchrash, korxonaning (tashkilot, bank) o'z majburiyatlari bo'yicha to'lovlarni mablag'lar yo'qligi tufayli amalga

Injiniring - tijorat asosida (shartnoma shaklida) turli xil muxandislik-maslahat xizmatlari ko'rsatilishi.

Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish – yirik korxonalarda texnologiya va tuzilmasi bir xil bo'lgan mahsulotlarni ommaviy ravishda ishlab chiqarish.

Ishlab chiqarishni yiriklashtirish – mahsulotni yirik korxonalarda chiqarishni tashkil qilish.

Ishlab chiqarishni kimyolashtirish – mahsulot ishlab chiqarishda kimyoviy mahsulot va sun'iy materiallar, Shuningdek, kimyoviy usullardan keng foydalanish.

KonversiYa - korxonaning umuman boshqa turdagi mahsulot ishlab chiqarishga o'tishi.

Kontsern - turli tarmoqlardagi mustaqil korxonalarining ishtirok etish tizimi, qo'shma tadqiqotlar, patent-litsenziya kelishuvlari, moliyalashtirish, ishlab chiqarish xamkorligi vositasida birlashuvi.

Kooperatsiya qilish - yakuniy mahsulotni birgalikda tayyorlash bo'yicha uzoq muddatli to'g'ridan-to'g'ri xo'jalik aloqalarini o'rnatish.

Korxonaning optimal xajmi – mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish) bo'yicha imzolangan shartnoma va majburiyatlarni o'z muddatida, eng kam xarajatlar bilan eng yuqori samaradorlikka erishgan holda bajarish imkonini beruvchi korxonada xajmi.

Ishlab chiqarishning diversifikatsiyasi – bir tomonlama, ko'pincha bitta mahsulotga asoslanuvchi ishlab chiqarishni keng nomenklaturada tayyorlanuvchi mahsulotlarga asoslangan ishlab chiqarishga o'tkazish.

Kapital qurilish - asosiy fondlarni yangi korxonalar qurish, mavjud korxonalarni qayta tiklash, kengaytirish, texnik jixatdan qayta qurollantirish va zamonaviylashtirish yo'li bilan yaratish va mukammallashtirish jarayoni.

Kapital qo'yilmalar - asosiy fondlarni qayta tiklash va o'stirishga sarflanuvchi moddiy, mehnat va pul resurslari xarajatlari.

Kapital sig'imi - asosiy kapitalning mos keluvchi davr mobaynida ishlab chiqarilgan mahsulot yoki uning biron-bir qismini - milliy daromad, sof daromad, foydaga nisbatini tavsiflovchi ko'rsatkich.

Kombinatsiyalash – bitta korxonalar - kombinat doirasida sanoatning bitta yoki bir nechta tarmoqlaridagi turli xil ishlab chiqarishlarni texnologik jixatdan birlashtirishda ifodalanuvchi, ishlab chiqarishni umumlashtirish shakllaridan biri.

Kompaniya - tadbirkorlarning hususiy shaxs maqomiga ega bo'lgan, pay kapitali asosida tashkil qilinuvchi birlashmasi.

Ishlab chiqarish quvvati – asosiy ishlab chiqarish va aylanma fondlar, Shuningdek, moliyaviy resurslardan iloji boricha to'liq va oqilona foydalangan holda ishlab chiqarish mumkin bo'lgan mahsulotning maksimal xajmi.

Korxonaning tijorat sirlari– korxonaning ishlab chiqarish, texnologiyalar, boshqaruv va boshqa turdagi faoliyati bilan bog'liq, oshkor qilinishi korxonalar manfaatlariga zarar etkazishi mumkin bo'lgan, davlat sirlariga aloqasi bo'lmagan ma'lumot.

Kadastr - tegishli ob'ektni davriy yoki o'zluksiz ko'za-tishlar orqali to'zilgan ma'lumotlar to'plami.

Kapitallashtirish - kelgusida kutilgan daromadlarni bir vaqtda mazkur pallada olinadigan qiymatga aylantirish

Kapital o'rnini qoplash (qaytarish)ning to'g'ri chiziqli me'yori - ko'chmas mulkda - aktivning hayot muddati davomida uning qiymati davriy tarzda bir tekisda, masalan, 50 yil davomida yiliga 2% ga pasayib borishi kutilgan holdagi kapitallashtirish koeffitsienti qismi.

Aylanma mablag'lar – ishlab chiqarish xarajatlari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot, yangi mahsulotni o'zlashtirish xarajatlari, kelgusi davr xarajatlari sarflanuvchi korxonalar mablag'larining pul shaklida ifodalanishi.

Kondominium (o'zaro egalik qilish) - mulkning huquqiy shakli bo'lib, unga ko'ra ob'ekt shaxsiy mulk va o'zaro mulkning tarkibiy qismlariga bo'linadi.

Kapitallashtirish koeffitsienti - daromadlar oqimini kapital qiymatning yagona yig'indisiga qaytadan hisoblashda foydalaniluvchi qo'yilma. Kapital qiymatning yagona summasi davriy daromadning kapitallashtirish koeffitsientiga nisbati kabi hisoblab chiqiladi. Ko'chmas mulk sohasida kapitallashtirish koeffitsienti foizni va ko'p hollarda - qaytarma investitsiyani o'z ichiga olishi kerak.

Kapital daromadi - pul mablag'lari kirimlari va qayta sotuvdan tushgan pul bilan aniqlanadigan boshlang'ich xususiy kapital daromadining ichki qo'yilmasi. Soliqlar to'langunga qadar va to'langanidan keyingi ikkita qo'yilma mavjuddir.

Kapitallashtirish me'yori - ko'chmas mulkning bozordagi qiymatining o'zi keltirgan sof daromadga munosabati.

Ko'chmas mulk - er va undagi inshootlar hamda faqat er uchun ishlatiladigan atama. Ko'chmas mulk - er maydonlari va u bilan o'zviy bog'liq bo'lgan hamma narsalar, ya'ni: binolar, inshootlar, boshqa mulk majmualari, ko'p yillik daraxtlar hamda er osti boyliklari. Ko'chmas mulk boshqa joyga olib o'tilishi unga ziyon etkazadigan mulk sifatida ta'riflanadi.

Ko'chmas mulkning huquqiy ta'rifi - maydon va ko'chmas mulk ob'ektining ta'rifi bo'lib, unga ko'ra ular sudda ishni ko'rish uchun maqbul holda bir ma'noda tenglashtirilishi mumkin.

Ko'chmas mulk huquqlari - ko'chmas mulkdan foydalanish, egalik qilish va boshqarish bilan bog'liq mulk huquqlari.

Ko'chmas mulk bozori - mulk huquqlarini berishga, narx-larni belgilashga, erdan foydalanish va uni Yaxshilashlar (bi-nolar, inshootlar, daraxtlar)ning raqobat qiluvchi turlari o'rtasida hududlarni qayta taqsimlashga imkon beradigan me xanizmlarning muayyan to'plami.

Likvidatsion qiymat - mulkning iqtisodiy hayot muddat" so'ngida taxmin qilingan qiymati.

Likvidlik — aktiv pulga o'tkazilishi mumkin bo'lgan engillik.

Mablag' qaytishining samarali me'yori - diskontnik umumiy koeffitsienti va qo'yilmasi o'rtasidagi farq. Emirilish oqibatida yo'qoluvchi qiymatning ulushiga ko'ra o'lchanga mablag' qaytarilishining har yilgi me'yori.

Mahalliy sharoitlar uchun to'zatis koeffitsienti -respublikaning turli shaharlarida qurilish bahosidagi farqlarni hisobga olish uchun qo'llanuvchi koeffitsient.

Ma'naviy emirilish - binolar (inshootlar)ning baholash vaqtida ko'rsatilgan me'yoriy, hajmli-rejali, me'moriy-konstruktiv, sanitar-gigienik va texnologik talablarga mos qelmasligi.

Majburiyat - biror bir shaxs mulk sotib olganida va shaxsiy javobgarlikni qabul qilmasdan ipoteka to'lovlari bo'yicha majburiyatni o'z zimmasiga olganida vujudga keluvchi majburiyat. SHaxsiy javobgarlikni birinchi qarz beruvchi o'z zimmasiga oladi.

Muomala xarajatlari - qarz xizmati va daromad soliq-lari ichiga kirmagan daromad keltirayotgan mulkning ekspluatatsiyasiga ketgan xarajatlar.

Mustaqil baholash - malakali, manfaatdor bo'lmagan ta-raf bajaradigan mulk qiymatining baholanishi.

Muvozanatlik tamoyili - baholash tamoyili bo'lib, unga ko'ra erning maksimal qiymatini olishni ta'minlaydigan ish-lab chiqarishdagi turli omillarning optimal birikmasi erdan foydalanishning istalgan turi uchun mavjud bo'ladi. Shuningdek, proportsionallik tamoyili sifatida ham ma'lumdir. .

Muvofiqlik tamoyili - baholash tamoyili, unga ko'ra ob'ektning bahosi uning me'moriy uslubi, qulayliklar va xizmatlar darajaei, bozor ehtiyojlariga qanchalik javob bera olishiga bog'liq bo'ladi.

Mulk huquqi - o'z xohishiga ko'ra biror bir mulkka egalik qilish, foydalanish va boshqarish, o'z vakolatlarini boshqa shaxsga berish, mulkni garov tariqasida ishlatish yoki unga nisbatan boshqa usullarni qo'llash, o'z mulkini boshqa shaxsga xususiy qi-lib yoki boshqarish uchun tavdim etish hamda o'z mulkiga nisbatan qonunga xilof bo'lmagan istalgan ishlarni qilish huquqi.

Qonuniy egalik qilish huquqi - mazkur mulkga shaxsiy ega bo'lish imkoniyati. Foydalanish uchun qonuniy huquq mulkdan foydalanish imkoniyatini taqdim etadi.

Boshqarish uchun qonuniy huquq- bu mulkning huquqiy tavdirini aniqlash imkoniyati (biror shaklda musodara qilish, bo'zib tashlash va h.k.).

Murakkab foiz - asosiy summa kabi xuddi shunday avval ustiga qo'shib hisoblangan istalgan foizlar uchun olinadigan foiz.

Narx - xususiy mulk ob'ekti uchun to'lanadigay summa. Odatda pulda ifodalanadigan istalgan summa.

Negiziy qo'yilma - birinchi toifali xaridorlarga tavdim etiluvchi qisqa muddatli kreditlar bo'yicha bank tomonidan undiriladigan foiz qo'yilmasi.

Negaziy renta - foiz ijarasi yoki muomala xarajatlari o'sishini ko'zda tutgan ijara vaqtida er egasiga tegishli ijara to'lovining eng kam qo'yilmasi.

Oldindan ko'rish tamoyili - baholash tamoyili bo'lib, unga ko'ra daromadlarning joriy qiymati yoki kelgusida mulkga egalik qilishdan kutiladigan boshqa foydalar tomonidan qiymat aniqlanadi.

Omil - boshqa songa ko'paytirilganidan so'ng ma'lum na-tija beradigan istalgan son yoki simvol; koeffitsientga teskari miqdor.

Optson - ko'chmas mulk egasining boshqa tomonga taqdim etadigan belgilangan narx va shartlarga ko'ra muayyan vaqt davomida mulkni sotib olish yoki ijaraga olish huquqi.

Odatdagi annuitet - har bir davrning oxirida olinadigan yoki to'lanadigan teng davriy kirimlar yoki to'lovlar seriyasi.

Pul mablag'lari - respublikaning qonuniy to'lov mablag'larida ifodalangan pul summalari yoki ularning talabga ko'ra to'lanishi kerak bo'lgan ekvivalenti. U absolyut likvid aktividir.

Pul ekvivalenti — joriy qiymatning pul summasiga keltirilgan, moliyaviy shartlar qiymatini hamda mazkur ob'ektga taalluqli istalgan bepul xizmatlarni e'tiborga oluvchi mulk narxi.

Pul birligining oltita amali - (mazkur oltita amaldan har birining izohiga qarang).

Murakkab foiz.

Davr mobaynida birlikning to'planishi.

O'rnini qoplash fondi.

Birlikning joriy qiymati.

Annuitetning joriy qiymati.

Birlikning amortizatsiyasi uchun to'lov.

Pul birligining to'plangan summasi - joriy summaning kelgusi qiymatini hisoblash uchun ishlatiladigan omil. Shunday shart bilanki, joriy qiymat davriy to'planadigan foizni keltirib, ma'lum vaqt davomida ushlanib qolinadi.

Pul qo'iish tamoyili - ishlab chiqarishning biror bir qo'shimcha omilining mavjudligi yoki yo'qligi oqibatida xo'jalik ob'ektidan tushgan qiymatni" yoxud sof daromad ko'payadigan yoinki kamayadigan summani aniqlaydigan baholash tamoyili.

Raqobat tamoyili - baholash tamoyili bo'lib, unga ko'ra ishlab chiqarish omillarini to'lash uchun zarur bo'lgan daromad-dan ko'ra foyda kattaroq bo'lgan hollarda tegishli bozordagi raqobat kuchayadi. Bu esa o'z navbatida o'rtacha sof daromadlar-ning pasayishiga olib keladi.

Reversiya omili - qayta sotishdan tushgan pulni baholash uchun foydalaniladigan pul birligi joriy qiymatining omili.

Reinvestitsiyalar qo'yilmasi - foiz qo'yilmasi bo'lib, unga ko'ra daromad keltirayotgan mulkdan tushgan mablag'lar, aynan ularning mablag'ning qaytishini ta'minlaydigan qismi qayta investitsiyalanadi.

Renta yoki ijara to'lovi - ko'chmas mulkdan foydalanganlik uchun to'lovlar.

Renta mul'tiplikatori - qarang: yalpi renta (daromad) multiplikatori.

Servitut - boshqa shaxsning eridan bir yoki undan ko'p shahslar tomonidan cheklangan foydalanish huquqi.

Soliq qo'yilmasi - soliq ko'rinishida to'lanishi kerak bo'lgan daromad yoki qiymatning qismini aniqlaydigan qo'yilma.

Sotuvlarning to'g'ridan-to'g'ri qiyosiy tahliliga yondashish - taqqoslanuvchi ob'ektlarning yaqinda bo'lgan sotuvlarini baholanayotgan ob'ekt bilan qiyoslash orqali qiymatni baho-lash usuli ularning orasidagi farqlarni hisobga oladigan muvofiq to'zatishlardan so'ng qo'llanadi. Bu usul o'xshash keli-Shuvlarni topish va ular bo'yicha axborot yig'ish mumkin bo'lgan faol bozor uchun samaralidir.

Salohiyatli Yalpi daromad - ijaraga topshiriladigan barcha qo'l ostidagi ob'ekt birliklari ijaraga olinganda va ijarachilar ijara to'lovining butun summasini kiritganda olinadigan yalpi kirimlar.

Samarali soliq qo'yilmasi - mulkka soliq solishda - ustiga qo'shib hisoblangan soliqlar va bozor qiymati o'rtasidagi foiziy munosabat.

Tavakkalsiz qo'yilma - eng kam tavakkalga zga investitsiyalar bo'yicha foiz miqdori.

Tamoyil - fundamental g'oyalar bo'lib, boshqa holatlar unga asoslanadi.

Talab va taklif tamoyili - tamoyilga qo'ra talab va taklifning bir-biriga o'zaro ta'siri natijasida narx belgilanadi.

Taklif - ma'lum narx bo'yicha mavjud bo'lgan tovarlar soni.

Talab - ma'lum narx bo'yicha sotib olinadigan tovarlar va xizmatlar sonini aniqlaydigan asosiy iqtisodiy tushuncha.

Tavakkal - beqarorlik yoki o'zgaruvchanlik; ko'chmas mulk sarmoyadori kutilgan daromadlarni olmasligi ehtimoli; Shu-ningdek - zararlar ehtimoli.

Tavakkal qo'yilmasi - kapitalni jalb etish uchun zarur bo'lgan investitsiyalar uchun daromadlar qo'yilmasi; tavakkal darajasiga muvofiq hisoblanadigan sof daromad qo'yilmasi.

To'g'ridan-to'g'ri umumiy kapitallashtirish - daromadni kapitallashtirish usuli. Bu usulga ko'ra solishtiriluvchi ob'ektlar tahlili va bu ob'ektlardan kelgan daromadlarni ularning sotilish narxlarini bilan qiyoslash natijasida olingan koeffitsient sof muomala daromadiga bo'linadi.

To'g'ri chiziqli kapitallashtirish - kapitalning to'g'ri chiziqli qaytishi me'yorini, foizning qo'yilmasiga qo'shilishi orqali ko'chmas mulk uchun kapitallashtirish koeffitsientini hisoblash usuli.

Tug'ridan-to'g'ri xarajatlar - loyihaning jismoniy amal-ga oshirilishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan xarajatlar.

Teng annuitet - davriy teng kirimlar yoki to'lovlar seriyasi.

Titul - ko'chmas mulk uchun qonuniy huquqni tasdiqlovchi hujjat.

To'plangan emirilish - baholashda - bu mulkning haqiqiy qiymati takror ishlab chiqarishning to'la qiymatidan kamroq bo'lib borishiga olib keluvchi istalgan foydalilikning yo'qolishi.

To'plangan foiz - kelib tushgan, ammo to'lanmagan foiz (daromadlar).

Ulushli baholash - butun mulkdagi faqat bir tarkibiy qismni yoki huquqiy manfaatni baholash. Masalan, fazo bo'shlig'i, er sathi va er osti huquqlarini alohida baholash.

Umuman mulk uchun qoldiq texnikasi — daromadli yonda-shuvning bir turi bo'lib, unga ko'ra bashorat qilingan daromad-larning joriy qiymatini va bashorat qilingan qayta sotish-dan tushgan pulning joriy qiymatini bir-biriga qo'shish orqali mulkning joriy qiymati baholanadi.

Xaridor bozori - xaridorlar juda foydali shartlar va narxlarga erisha oladigan bozor. Odatda bunga umumiy iqtisodiy vaziyat yoki muvofiq mintaqada erdan foydalanish taklif-larining ko'pligi sabab bo'ladi.

Xarajatli usul - asosida o'rindoshlik tamoyili yotadi. Unga ko'ra sarmoyador imorat uchun tegishli maydonni olish va vazifasi hamda sifatiga ko'ra turdosh ob'ektning ortiqcha o'z-luksiz qurilishiga ketadigan summadan ortiqroq mablag'ni ko'chmas mulk ob'ekti uchun to'lamaydi.

Xarid uchun ipoteka - xaridning bir qismini yoki butun bahosini to'lash uchun sotuvchining xaridorga taqdim etadigan krediti.

Xarajatlarni baholash - bir necha usuldan biri yordamida qurilishning taxminiy qiymatini hisoblash jarayoni.

Xizmat (hayot) muddati usuli - to'la qayta tiklash qiymatini ob'ektning haqiqiy yoshini uning foydali iqtisodiy hayotining o'zoqligiga munosabatiga teng koeffitsientga ko'paytirish orqali yig'ilgan emirilishni baholash usuli.

Xizmat muddati - taqvim vaqti bo'lib, bu vaqt davomida turli omillar ta'siri ostida bino (inshoot) dan kelgusida foydalanish mumkin bo'lmay qoladi, qayta tiklash esa - iqtisodiy jihatdan foydasiz bo'ladi.

Xususiy lashtirish - mulk shaklining o'zgarishi, uning davlat mulkidan xususiy (shaxsiy, jamoa) mulkiga (ko'chmas mulk, korxonalar, tashkilotlarga va h.k.) o'tishi.

Har yilgi foiz qo'yilmasi - kreditning har yilgi samarali qiymati.

Haqiqiy Yalpi daromad - ijara to'lovidan etarli daraja da foydalanmaganlikdan va ularning kiritilmaganligida! ko'rilgan zararlar chiqarib tashlangandan keyingi daromad kel tiruvchi mulkdan tushgan Yalpi pul kirimlari.

O'suvchi va kamayuvchi daromadlar tamoyili - baholash t; moyili bo'lib, unga muvofiq ishlab chiqarish omillarini qayd qilingan to'plamiga zahiralarga qo'shilgani sayin sof daromadlar o'suvchi sur'atlarda ma'lum nuqtaga etib borgun¹ ko'payadi. Bu nuqtadan o'tilgandan so'ng qiymatning o'sishi k shilayotgan zahiralarga ketgan xarajatlardan kamroq bo'lguncha umumiy daromadlar pasayuvchi sur'atlarda o'sishda davom etadi.

Urindoshlik tamoyili - tamoyilga ko'ra eng past narx yoki teng foydali bo'lgan boshqa mulkni sotib olishga ketgan xarajatlar orqali mulkning maksimal qiymati aniqlanadi.

O'sib boruvchi annuitet - davriy to'lovning tartibli ko'payishini va'da qiluvchi yoki talab etuvchi daromadlar oqi-mi.

O'rtacha ulushli qo'yilma - turli sarmoyadorlarning sotib olingan mablag'dagi ulushlarini va ularga muvofiq daromadning tavakkalli qo'yilmalarini hisobga oladigan kapitallashtirishning umumiy koeffitsienti.

O'rtacha qo'yilma - daromad qo'yilmasini baholash uchun foydalaniladigan texnika. Mazkur qo'yilma hisoblangan vaqt-da investitsiyalar yig'indisi investitsiyalardan tushgan kirim-lar yig'indisidan chiqarib tashlanadi. Natija esa egalik qi-lish yillari soniga va so'ngra investitsiyalarning umumiy yig'indisiga bo'linadi.

O'rnini qoplash fondining omili - davrlarning ma'lum sonidan so'ng foizning berilgan qo'yilmasi sharoitida jami qoldiq 1 so'mni tashqil etishi uchun davriy tarzda deponlash-tirish zarur bo'lgan pul summasini ko'rsatuvchi hisob raqami.

O'rin qoplash fondi - hisob uchun davriy pul to'lovlari, hisobiy mablag'lar ustiga qo'shib hisoblangan foizlar bilan birga aktivlarni almashtirish yoki qarzlarni o'zish uchun foy-dalaniladi.

Qayta sotilish narxi - egalik qilish davrining oxirida aktiv sotilishidan tushgan Yalpi summa.

Qarz majburiyati - 1. Moliyada - o'zoq muddatli qarz maj-buriYati; qarzdorlik guvohnomasi bo'lib, unga ko'ra foiz to'la-nadi.

Huquqan - olingan majburiyatni ta'minlash uchun kiri-tilgan summa.

Qiyoslash usuli - sotuvlarning to'g'ridan-to'g'ri qiyosiy tahliliga yondashish

Qiyosiy birlik usuli - umumiy olingan asosiy inshoot-ning 1 kv. metri yoki boshqa birlikning to'la qiymatini aniqlash orqali binoni qurishga ketgan xarajatlarni baholash usuli.

Qiyosiy birlik - baholanayotgan mulk va solishtiriluvchi ob'ektlar uchun umumiy o'lchov birligi.

Qiymat - pulda ifodalangan tovar yoki xizmat qiymati.

Qiymatning so'nggi bahosi — baholovchi ma'lumotlarni tahlil etib chiqib, uchta asosiy yondashuv qo'llanib olingan qiymatning ko'rsatkichlarini muvofiqlashtirib, qiymat xaqida so'nggi mulohazani bildirganidan keyin chiqarilgan qiymatning bahosi.

Qiymatni baholash - vakolatli shaxs, ya'ni ko'chmas mulkni tahlil etadigan va baholaydigan mutaxassis tamonidan o'tkaziladigan ko'chmas mulk ob'ektining, undan biror bir shaxsiy manfaatning hisobiy yoki ekspert qiymatlarini aniqlash.

Qoldiqli mahsuldorlik tamoyili - tamoyilga ko'ra ma teriallar, mehnat va tadbirkorlik harakatlari xarajatlar] to'langanidan so'ng sof daromadni erga tegishliligi.

Foiz qo'yilmasi - 1. Bu qo'yilmaga ko'ra qarzga berilga pullar qarz beruvchiga daromad keltiradi.

2. Asosiy summa uchun daromad qo'yilmasi. Asosiy summalarni kelgusi qiymatga keltirish yoki kutilgan kelgusi summalarni joriy qiymatga diskontlash uchun foydalaniladigan qo'yilma. Foiz qo'yilmasi mablag'ning qaytishini hisobga olmaydi. Uni samarali va nominal qo'yilmaga ajratish lozim. Foydalanshp qiymati mulkdan foydalanishning ma'lum variantidagi mulk qiymati. Masalan, aniq bir bino keltiradigan daromadga pul qo'yish qiymati. Foydalanish qiymati zor qiymatidan farq qilishi mumkin.

Ellvud texnikasi - pul kirimlarining joriy qiymatlik daromad soliqlari chiqarib tashlanishidan oldin qayta sotishdan tushgan pul asosida mulk qiymatini ipoteka-investii baholash texnikasi; L.U. Ellvud nomi bilan ataladi.

Eng Yaxshi va samarali foydalanish tamoyili - kapitallashtirishdan so'ng erning eng yuqori joriy qiymatini beradigan daromad oqimini yaratuvchi er maydonidan qonuniy, jismoniy ehtimoli bo'lgan, moliyaviy asoslangan holda foydalanish.

Eskirish — texnologiyaning, odamlarning odatlari va didlari yoki atrof-muhitning o'zgarishlari sabab bo'lgan mulk ob'ekti foydaliligining kamayishi natijasida qiymatning yo'qolishi.

YAroqsizlik holati - ob'ektning shunday holatiki, bunda qo'yilgan vazifalarni bajarish qobiliyatini ta'riflovchi bitta bo'lsa ham parametrlarning miqdori me'yoriy-texnik va (yoki) konstruktorlik hujjatlarida belgilangan talablarga mos kelmasligi.

Yalpi renta (daromad) multiplikatori - mulkning soti-lish narxini salohiyatli yoki haqiqiy Yalpi daromadga bo'lish natijasi.

Yaroqlilik holati - ob'ektning shunday holatiki, bunda qo'yilgan vazifalarni bajarish qobiliyatini ta'riflaydigan barcha parametrlar miqdori me'yoriy-texnik hujjatlarning talablariga mos kelishi.

Yaxshi (soz) holat - ob'ektning me'yoriy-texnik va yoki konstruktiv hujjatlarining barcha talablariga mos keladigan holati.

Yaxshilanishlar - er maydonida inson tomonidan yaratilgan bino va inshootlar, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashti-rish.

Yaxshilanishlar koefitsienti - bino va inshootlar qiymatining butun mulk qiymatiga nisbati.

**“KORXONA IQTISODIYOTI”
FANIDAN TEST SAVOLLARI**

1. Korxonani tashkil etishning ta’ sis xujjalari.

- A) Majlisning bayonnomasi va ta’ sischilarning roziligi
- B) korxonada va bank tomonidan tasdiqlangan ta’ sis shartnomasi
- V) nizom, ta’ sis shartnomasi
- G) nizom, ta’ sis shartnomasi, emissiya prospekti
- D) nizom va korxonada pasporti

2. Korxonani davlat ro’yxatidan o’tkazish kim tomonidan amalga oshiriladi ?

- A) soliq va statistika tashkilotlari orqali
- B) Hokimiyat va qonun chiqaruvchi tashkilotlar tomonidan
- V) soliq tashkilotlari, xokimiyat va moliyaviy tashkilotlar tomonidan
- G) davlat mulkini boshqaruvchi tashkilotlar
- D) vazirliklar va idoralar tomonidan

3. Korxonada faoliyatini qarorga asosan to’xtatish.

- A) soliq idoralari qarori bilan
- B) xo’jalik sudi
- V) litsenziya beruvchi tashkilot
- G) prokuratura
- D) mutasaddi vazirliklar va tashkilotlar

4. Korxonaning bankrotligi aniqlanadi...

- A) moliyaviy koeffitsientlar tizimi bilan
- B) korxonada mavjud pul mablag’lari va yuqori likvidlikka ega bo’lgan aktivlar yo’qligi
- V) qarzlarning mavjudligi bilan
- G) foyda yo’qligi tufayli
- D) kadrlar qo’nimsizligi va ishlab chiqarish pasayishi orqali

5. Korxonada samaraliy faoliyat yuritadi, qachonki:

- A) to’la bandlik
- B) resurslardan to’liq foydalanilganda
- V) majburiyatlar bo’yicha qarzlarni yo’qligi
- G) eksport imkoniyatlari yuqori bo’lganda
- D) ustav kapitalini ko’payishi hisobiga

6. Ta’minotni tranzit formasini afzalliklari?

- A) xarakatdagi material resurslarni ushlab turish vaqtini kamaytirish
- B) kerakli miqdordagi materiallarni keltirish
- V) ishlab chiqarishga ishlatiladigan materiallarni rejaga keltirish xolati

7. Ta’minotni tranzit formasini kamchiliklari?

- A) ombor taShuvchiga qo’shimcha xarajatlar
- B) korxonada zaxiralarni ortiqcha xosil bo’lishi
- V) ikkala javoblar to’g’ri

8. Ombor orqali ta’minotni asosiy afzalliklari

- A) materiallari kelib tushishi ularni tayyorlashi muddatlariga bog’liq emas
- B) ta’minotlar o’rtasida vaqtini kamaytirish
- V) ishlab chiqarish zaxiralarni qisqartirishdagi iqtisod

9. Ta’minot shaklini tanlash

- A) iste’molchi va etkazib beruvchining uzoqlaShuvi
- B) moddiy resurslarni buyurtma qilgan turlari
- V) zaxira va etkazib berishning umumiy xarakatlari

10. Ta’minotning asosiy vazifalari

- A) buyurtma qilgan materiallarni sonini hisoblash
- B) xarid qilish usullarini tanlash

V) to'g'ri javoblar yo'q

11. Xaridni qaysi turlariga muvofiqligi. Xujjatlarni rasmiylashtirishni soddalashtirish, savdo chegirmalarini yuqoriligi?

- A) bir partiya tovarni xarid qilib olish
- B) kichik partiyalar bilan uzluksiz xarid qilish
- V) vedomostlar orqali xarid qilish

12. Vedomostlar orqali xarid qilish quyidagi xolatda qo'llaniladi.

- A) arzon va tez ishlatiladigan tovarlar xarid qilishda
- B) qimmat baho tovarlar xarid qilishda
- V) u va bu xolatda ham

13. Tezlikda topshirish xarid qilish usulini kamchiliklari

- A) xar bir buyurtmani xujjatlarni rasmiylashtirishda xarajatlarni oshishi
- B) buyurtmani sonini ortishi extimoli
- V) kapitalni aylanishini sekinlashishi

14. Extiyojga yarasha tovarni olish afzaliklari

- A) tovarni iste'mol miqdorini hisobini yo'qligi
- B) kapitalni aylanish tezligini oshishi
- V) xujjatlarni rasmiylashtiruvini soddaligi

15. Servis-nima?

- A) extiyojlarni qondirishdagi xizmat ko'rsatish ishi
- B) iste'molchilarga xizmat qilish
- V) tovarlarni sotish protsesida vakolat berish

16. Logistik servisni obe'kti nimada?

- A) moddiy oqimlar
- B) moddiy va shu bilan bog'liq axborot oqimlari
- V) moddiy oqimni iste'molchilari

17. Logistik servis kim tomonidan amalga oshiriladi.

- A) mahsulot tayyorlagan korxonadan tomonidan
- B) broker tomonidan
- V) tarqatish zanjiridagi duch kelgan ishtirokchi tomonidan

18. Logistik servis qanday bo'ladi?

- A) oldindan sotiladigan
- B) keyin sotiladigan
- V) sotish vaqtida

19. Omborxonalarining zarurligini qaysi faktor ko'proq tasdiqlaydi:

- A) xom-ashyo, materiallar va tayyor mahsulotlarni zaxirasini mavjudligi
- B) naqd va iste'mol o'rtasidagi vaqtinchalik, oraliq, miqdoriy va sifat tafovutlari
- V) iste'mol va ishlab chiqarish jarayonida materiallar
- G) ishlab chiqarish mahsulotiga talab yo'qligi

20. Omborxonada xo'jaligining qaysi xossalari asosiy hisoblanadi?

- A) ishlab chiqarish iste'moliga materiallarni tayyorlash
- B) moddiy resuslarni vaqtinchalik joylashtirish
- V) moddiy boyliklarni buzilish va o'g'irlanishini oldini olish

21. Mahsulotni jismoniy kanalini tanlash taqsimlanishi qaysi faktorlariga bog'liq?

- A) omborxonalarini joylanishi, mahsulotlarni jo'natish usullari, mahsulotlarni tashish usullari
- B) bozor kon'yukturasi, ombor qurilishiga xarajatlar, tarnsport chiqimlari
- V) vositachilar soni, tovar xarakati sxemasi, tovar turi

22. Ishlab chiqarish korxonalarining omborlari qaysi xossalari bo'yicha tavsiflanadi:

- A) faoliyat vazifalari, saqlanadigan materiallar turi va xarakteri
- B) instruktsiya turi, joylashgan joyi, o'tga chidamliligi, faoliyat doirasi
- V) ikkala javob to'g'ri

23. Omborxonada umumiy maydoni qanday maydonlardan tashkil topadi?

- A) foydali, qabul qiluvchi, xizmat ko'rsatish va yordamchi maydonlar
- B) jo'natish, qabul qilish, yordamchi, foydali, maydonlari
- V) hamma javoblar to'g'ri

24. Qaysi javobda foydali maydon to'g'ri aniqlangan? Agar o'rnatilgan saqlash zaxirasi 240 tonna, 1m^2 pol maydoniga tushadigan yuklanish 0.6 tonna bo'lsa.

- A) 390 m^2
- B) 410 m^2
- V) 400 m^2
- G) 420 m^2

25. Materiallar zaxirasini saqlash usukunasini uzunligi 3 m, eni 2m, bir turdagi uskunalar 4 ta bo'lganda ombor foydali maydoni qanday bo'lar edi?

- A) 20 m^2
- B) 22 m^2
- V) 26 m^2
- G) o'z variantingizni taklif eting.

26. Moddiy zaxiralarni qabul qilish yuzasini aniqlang?

Moddiy resuslarning yillik iste'mol miqdori 72 m tonna, omborxonaga yuklarni bir tekis tushmasligi ko'rsatgicha 1.2, koeffitsent 159, qabul qilish maydonida materiallarni turish mumkin bo'lgan kunlari soni 2.1 m^2 yuzasiga to'g'ri keladigan yuk miqdori 0.24 tonna.

- A) 1900 m^2
- B) 2100 m^2
- V) 2000 m^2
- G) 2200 m^2

27. Mikrokredit tashkilotlari deb qaysi yuridik shaxslar aytiladi?

A. Mikrokredit, mikroqarz, mikrolizing, berish sohasida faoliyat olib boruvchi va boshqa moliyaviy xizmatlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga aytiladi.

B. Mikrokredit, mikroqarz, sug'urta, savdo, mikromoliyalashtirishning boshqa xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslarga aytiladi;

V. Mikrokredit, mikrolizing, ishlab chiqarish, sug'urta, savdo vositachilik hamda boshqa mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxslarga aytiladi;

G. Mikroqarz, mikrolizing, sug'urta, savdo vositachilik va mikromoliyalashtirishning boshqa xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslarga aytiladi.

28. Mamlakatimizda mehnat resurslari tarkibining quyi va yuqori chegarasi necha yoshni tashkil etadi?

- A. 16 – 60 erkaklar, 16 – 55 ayollar.
- B. 16 – 60 erkaklar va ayollar
- V. 16 – 55 erkaklar, 16 – 60 ayollar
- G. 16 – 50 erkaklar, 16 – 55 ayollar

29. Davlat bandlik siyosatining asosiy maqsadi nima?

- A. Ishsizlikni kamaytirish
- B. Aholini farovonligi va turmush darajasini oshirish.
- V. Tashqi mehnat migratsiyasini tartibga solish
- G. Mehnat qonunchiligini takomillashtirish.

30. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasida kooperatsiyani kengaytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF- 3706 sonli Farmoni qachon qabul qilingan?

- A. 2007 yil 12 Yanvarъ.
- B. 2006 yil 1 mart.
- V. 2005 yil 12 fevralъ.
- G. 2006 yil 5 Yanvarъ.

31. Restrukturizatsiya jarayoni qanday amalga oshiriladi?

- A. Korxonani sotish orqali.
- B. Davlat ko'magi va bankrotlik tamoyillari orqali.
- V. Auktsion orqali.
- G. Davlat ko'magi orqali

32. Past rentabelli, zarar ko'rib ishlayotgan, iqtisodiy nochor davlat korxonalari va past likvidli ob'ektlarni «nol» qiymatda berish yo'li bilan xususiylashtirish mezonlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Korxonaning respublika uchun strategik ahamiyatga ega emasligi.
- B. Ob'ektni ommaviy savdolarga qo'yishda sotish narxi pasaytirilishi hisobga olingan holda taklif etilayotgan sotish narxiga investorlardan talab yo'qligi.
- V. Korxonaning ishlayotganligi, surunkali zarar ko'rib ishlashi, past rentabelliligi (5% yuqori bo'lmagan), iqtisodiy nochorligi va to'lovga qobiliyatli emasligi.
- G. Barcha javoblar to'g'ri.

33. Xududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha yuzaga chiqayotgan moliyaviy muammolarga quyidagilardan qaysi biri kiradi?

- A. Xokimliklar tomonidan er va binolarni ajratish;
- B. Tekshirishlarni kamaytirishni va noqonuniy tekshirishlarni oldini olish;
- V. Kredit olish, milliy valyutani konvertatsiya qilish, naqd pul olish va pul qo'chirish;
- G. Gaz va elektroenergiya ta'minotidagi uzilishlar.

34. 2006 yil 1 fevraldan boshlab kasanachilar qaysi soliqni to'lashdan 5 yilga ozod qilinadi?

- A. Jismoniy shaxslar daromad solig'idan.
- B. Mehnatiga haq to'lash jamg'armasidan yagona ijtimoiy to'lovdan.
- V. Dividend va foizlardan olinadigan soliqdan.
- G. Aktsiz solig'idan.

35. To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar qaysi hajmida ushbu investitsiyalarni jalb etadigan iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari asosiy faoliyati bo'yicha foyda solig'i, mol-mulk solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, mikrofirma va kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliq to'lovi to'lashdan, Shuningdek Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashdan 7 yilga ozod qilinadi?

- A. 300 ming AQSH dollaridan 3 million AQSH dollarigacha.
- B. 5 million AQSH dollaridan 10 million AQSH dollarigacha.
- V. 10 million AQSH dollaridan ortiq bo'lganda.
- G. 3 million AQSH dollaridan 5 million AQSH dollarigacha.

36. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashdan 7 yilga ozod qilinadi?

- A. 300 ming AQSH dollaridan 3 million AQSH dollarigacha.
- B. 5 million AQSH dollaridan 10 million AQSH dollarigacha.
- V. 10 million AQSH dollaridan ortiq bo'lganda.
- G. 3 million AQSH dollaridan 5 million AQSH dollarigacha.

37. Qaysi maqsadlar uchun yangi tashkil etiladigan agrosanoat firmalari yagona soliq to'lovi to'lashdan - 3 yil muddatga ozod qilinadi?

- A. Mehnatga haq to'lashni oshirishga.
- B. Meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlashni rivojlantirishga, bog' va uzumzorlar barpo etish hamda ularni kengaytirishga.
- V. Ishchilarni moddiy rag'batlantirishga.
- G. To'g'ri javob keltirilmagan.

38. Davlat bandlik siyosatining asosiy maqsadi nima?

- A. Ishsizlikni kamaytirish
- B. Aholini farovonligi va turmush darajasini oshirish.
- V. Tashqi mehnat migratsiyasini tartibga solish

G. Mehnat qonunchiligini takomillashtirish.

39. Tuman miqyosida yalpi hududiy mahsulotni ko'paytirishning salohiyat manbasini ko'rsatib bering.

- A. Soliq yukini kamaytirish.
- B. Moliya tizimini takomillashtirish.
- V. Chet el investitsiyalarini jalb qilish.
- G. Kredit tuzimini yaxshilash.

40. Nol" qiymatda berish yo'li bilan xususiylashtirilishi mumkin bo'lgan past rentabelli, zarar ko'rib ishlayotgan, iqtisodiy nochor davlat korxonalari va past likvidli ob'ektlar ro'yxati qanday tasdiqlanadi?

- A. Davlat mulki qo'mitasi yoki uning xududiy boshqarmalari tomonidan.
- B. Monopoliyadan chiqarish davlat qo'mitasining taqdimiga asosan, Davlat tender komissiyasi tomonidan Vazirlar Mahkamasining tegishli komplekslari bilan kelishgan holda.
- V. Davlat mulki qo'mitasi taqdimiga asosan, Davlat tender komissiyasi tomonidan Vazirlar Mahkamasining tegishli komplekslari bilan kelishgan holda.
- G. Davlat mulki qo'mitasi va Monopoliyadan chiqarish davlat qo'mitasining taqdimiga asosan, Davlat tender komissiyasi tomonidan Vazirlar Mahkamasining tegishli komplekslari bilan kelishgan holda.

41. Past rentabelli, zarar ko'rib ishlayotgan, iqtisodiy nochor davlat korxonalari va past likvidli ob'ektlarni «nol» qiymatda berish yo'li bilan xususiylashtirish mezonlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Korxonaning respublika uchun strategik ahamiyatga ega emasligi.
- B. Ob'ektni ommaviy savdolarga qo'yishda sotish narxi pasaytirilishi hisobga olingan holda taklif etilayotgan sotish narxiga investorlardan talab yo'qligi.
- V. Korxonaning ishlamayotganligi, surunkali zarar ko'rib ishlashi, past rentabelliligi (5% yuqori bo'lmagan), iqtisodiy nochorligi va to'lovga qobiliyatli emasligi.
- G. Barcha javoblar to'g'ri.

42. 2006 yil 1 fevraldan boshlab kasanachilar qaysi soliqni to'lashdan 5 yilga ozod qilindilar?

- A. Jismoniy shaxslar daromad solig'idan;
- B. Mehnatiga haq to'lash jamg'armasidan yagona ijtimoiy to'lovdan;
- V. Dividend va foizlardan olinadigan soliqdan;
- G. Mulk solig'idan.

43. Soliq yukini kamaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga ko'ra, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar qaysi soliq turini to'lashdan ozod etildilar?

- A. Resurs solig'i;
- B. Ekologiya solig'i;
- V. Mol-mulk solig'i;
- G. Aktsiz solig'i.

44. Yangi korxonalarni tashkil etish borasida quyidagi shartlardan qaysi biri asosiy hisoblanadi?

- A. Korxonaning joylashuv maskanini aniqlash;
- B. Sheriklarni tanlash;
- V. Aniq biznes-rejaga va boshlang'ich kapitalga ega bo'lish;
- G. Bozor talabini o'rganish.

45. Mamlakatimizda o'rta korxonalar qaysi yildan boshlab kichik korxonalar jumlasiga kiritildi?

- a) 2002 yilning 1 iyulidan
- b) 2003 yilning 1 sentyabrından
- v) 2004 yilning 1 Yanvardan*
- g) 2005 yilning 1 Yanvardan

46. Biznesni qanday turlarini bilasiz?

- a) ishlab chiqarish turi
- b) tijorat va ishlab chiqarish turi
- v) ishlab chiqarish, tijorat, moliyaviy va maslaxat berish turlari.
- g) tijorat, ishlab chiqarish va moliyaviy turlari

47. Korxonada birinchi raqamli omil nimadan iborat?

- a) kapitaldan
- b) puldan
- v) bilimdan
- g) menejment (boshqarish)dan

48. Korxonadagi muvafaqiyat garovi kaliti nimadan iborat?

- a) kapital va bilim
- b) kapital, bilim va tirishqoqlik
- v) bu TOM-omilidir, Ya'ni –tirishqoqlik, optimistlik va malaka
- g) bu pul va menejmentdir

49. Mikroreditbankning mikromoliyalashtirish mablag'lari hisobidan nobank kredit tashkiloti tomonidan qanday maqsadlarni ko'zda tutuvchi tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishga ruxsat beriladi?

A)* dehqon va fermer xo'jaliklarining o'z ishlab chiqarishini rivojlantirish va kengaytirishga, xom-ashyo va materiallarni birlamchi qayta ishlashga, mini-uskunalar, mehnat qurollari, xom ashyo, Yarim fabrikatlar, furnitura sotib olishga, servis sohasini rivojlantirishga, hunarmandchilik va uy mehnatini rivojlantirishga, servis sohasini rivojlantirishga, mahalliy sanoatni rivojlantirishga, xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarish va xizmat kursatish sohasi bilan bog'liq bo'lgan boshqa tadbirkorlik faoliyati turlariga yunaltiriladi.

B) dehqon va fermer xo'jaliklarining o'z ishlab chiqarishini rivojlantirish va kengaytirishga, xom-ashyo va materiallarni birlamchi qayta ishlashga va boshqa tadbirkorlik faoliyati turlariga yunaltiriladi.

V) mahalliy sanoatni rivojlantirishga, xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasi bilan bog'liq bulgan boshqa tadbirkorlik faoliyati turlariga yo'naltiriladi.

G) uy mehnatini rivojlantirishga, servis sohasini rivojlantirishga yo'naltiriladi.

50. Mikroreditbankning mikromoliyalashtirish mablag'lari nobank kredit tashkiloti tomonidan qanday tamoyillar asosida beriladi?

- A. Uzoq muddatlilik;
- B. Muddatlilik, qaytarishlik, to'lovlilik, ta'minlanganlik, maqsadlilik;
- V. Qaytarishlik, to'lovlilik, ta'minlanganlik;
- G. Uzoq muddatlilik, maqsadlilik.

51. 2007 yilda jalb etilgan xorijiy investitsiyalar umumiy miqdorida eng ko'p va eng kam ulushga ega bo'lgan iqtisodiyot tarmoqlarini aniqlang?

- A. Sanoat, qurilish.
- B. Sanoat, savdo va umumiy ovqatlanish.
- V. Qishloq xo'jaligi, transport.
- G. Boshqa tarmoqlar, aloqa.

52. Ishlab chiqarish korxonalari mahsulotining eksport xajmi qaysi darajadan oshsa unga daromad solig'ini Yarmidan ozod qilinish xuquqi beriladi?

- A. 15%
- B. 25%
- V. 30%
- G. 50%

53. Mikroredit tashkilotlari deb qaysi yuridik shaxslar aytiladi?

A. Mikroredit, mikroqarz, mikrolozing, berish sohasida faoliyat olib boruvchi va boshqa moliyaviy xizmatlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga aytiladi.

B. Mikrokredit, mikroqarz, sug'urta, savdo, mikromoliyalashtirishning boshqa xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslarga aytiladi;

V. Mikrokredit, mikrolizing, ishlab chiqarish, sug'urta, savdo vositachilik hamda boshqa mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxslarga aytiladi;

G. Mikroqarz, mikrolizing, sug'urta, savdo vositachilik va mikromoliyalashtirishning boshqa xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslarga aytiladi.

54. Mamlakatimizda mehnat resurslari tarkibining quyi va yuqori chegarasi necha yoshni tashkil etadi?

A. 16 – 60 erkaklar, 16 – 55 ayollar.

B. 16 – 60 erkaklar va ayollar

V. 16 – 55 erkaklar, 16 – 60 ayollar

G. 16 – 50 erkaklar, 16 – 55 ayollar

55. Davlat bandlik siyosatining asosiy maqsadi nima?

A. Ishsizlikni kamaytirish

B. Aholini farovonligi va turmush darajasini oshirish.

V. Tashqi mehnat migratsiyasini tartibga solish

G. Mehnat qonunchiligini takomillashtirish.

56. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasida kooperatsiyani kengaytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF- 3706 sonli Farmoni qachon qabul qilingan?

A. 2007 yil 12 Yanvar.

B. 2006 yil 1 mart.

V. 2005 yil 12 fevral.

G. 2006 yil 5 Yanvar.

57. Korxonalar - bu

A) davlatning mulkiy kompleksi

B) mustaqil xujalik yurituvchi bozor sub'ekti

V) tadbirkorlik va biznes sohasidagi sub'ekti

G) mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish va sotish shakli

D) ma'muriy - xo'jalik birligi

58. O'zbekistonda faoliyat kўrsatayotgan korxonalarining umumiy sonida ularning eng kup tarqalgan qanday tashkiliy-huquqiy shakllari mavjud ?

A) ijara shakli

B) qo'shma korxonalar

V) xususiy

G) aksionerlik

D) davlat

59. Ma'suliyati cheklangan jamiyatlar.

A) paylarga ajratilgan ustav kapitalini miqdori ta'sis xujatlari bilan belgilanuvchi va o'z mulki chegarasida majburiyatlar bo'yicha ma'suliyatga ega bo'lgan jamiyat

B) ta'sis shartnomasi asosida tuzilgan jamiyatni ustav kapitaliga majburiy ravishda pul yoki mulkiy paylar bilan kirgan, ularning miqdori orqali har bir ta'sischini ma'suliyati belgilanadi

V) paylarga ajratilgan mavjud ustav kapitali, ularning miqdori ta'sis xujatlari bilan belgilanadi, ta'sischilar va banklar orqali tan olinadi.

G) ta'sischilar va banklar orqali tan olinib, ustav kapitali paylarga ajratilib, ularning miqdori ta'sis xujatlari bilan belgilanadi.

D) kapitali paylarga ta'sischilardan tuzilib, eksportdan tashqari turli xil faoliyat bilan Shug'ulanuvchilar.

60. Ma'suliyati cheklangan jamiyatni ustav kapitali qo'yidagilarga asoslanib tashkil etiladi:

A) ta'sis xujatlariga asosan ularni miqdori chegaralangan muddatda

B) jamiyat ro'yxatdan o'tish vaktidagi qonunlarda belgilangan 50-minimal ish xaqidan kam bo'lmagan holda

V) jamiyat ro'yxatdan o'tish vaktida 50-minimal ish haqidan ko'p bo'lmagan holda

G) ta'sis xujjatlari qabul qilinganda 100-minimal ish xaqi miqdoridan ko'p bo'lmagan holda.

D) ta'sis xujjatlari qabul qilinganda 100-minimal ish xaqi miqdoridan kam bo'lmagan holda

61. Xo'jalikdagi o'rtoklik uyushmalariga qo'ydagilar kiradi.

A) o'rtoqlikni boshqarishdagi ta'sischilarni shaxsiy ishtirokiga asoslangan uyushmalar

B) ishtirokchilarni mulkiy va pul ulushlariga asoslangan uyushmalar

V) ta'sischilarni mulkiy badallari va shaxsiy faoliyatiga asoslangan uyushmalar

G) foydani taqsimlashda ishtirok etuvchi ta'sischilar

D) ishlab chiqarishdan tashqari boshqa faoliyat bilan Shug'ulanuvchilar

62. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonada qanday afzal belgi bilan ajralib turadi.

A) ishlab chiqaradigan mahsulotni xarakteri bilan

B) foydali bo'lishi

V) ishchilarni to'la ish bilan ta'minlanganligi

G) xususiyashtirish formasi

D) xorijiy firmalar bilan xamkorlikda ishlashi bilan

63. Aktsiyadorlik jamiyati deb tan olinadi...

A) aloxida ajratilgan mulkga ega bo'lgan va ularni narxi aktsiyalarga bo'lingan xo'jalik sub'ektlari.

B) qonun doirasida o'zini aktsiyalarini ishlab chiqarib, ularni sotish bilan Shug'ullanadigan jamiyatlar

V) ustav kapitali ma'lum birliklardagi aktsiyalarga bo'linib, aktsionerlarga nisbatan jamiyat majburiyatlarini tasdiqlovchi xujalik sub'kti

G) aktivlar hisobidan aktsiyalar chiqaruvchilar

D) korxonaning oddiy va imtiyozli aktsiyalariga ega bo'lgan aktsionerlar uyushmasi

64. Aktsiyadorlik jamiyati ta'sischilaritarkibi.

A) cheklangan

B) cheklanmagan

V) aktsionerlik jamiyati turi bilan belgilanadi

G) ta'sis xujjatlari bilan belgilanadi

D) mulk qo'mitasining xududlararo organlari bilan belgilanadi

65. Ochiq turdagi aktsiyadorlik jamiyati deb tan olinadi...

A) qimmatli qog'ozlar bozorida erkin holatda muamolada bo'lgan jamiyatlar

B) ochiq jamiyat aktsiyalari bir shaxsdan ikkinchi shaxsga, boshqa xissadorlarning roziligisiz o'tishi mumkin bo'lgan jamiyatlar

V) aktsiyalarga ochiq holda obuna bo'lish va ularni erkin holda sota oladigan jamiyatlar

G) birgalikda faoliyat yuritish uchun kishilarni va majburiyatlarni birlashtirgan jamiyat

D) chegaralangan miqdordagi pul ulushlari doirasida faoliyat natijalari uchun javob beradigan jamiyat

66. Yopiq turdagi aktsionerlik jamiyatlari deb...

A) aktsiyalari faqat uni ta'sischilari orasida yoki oldindan belgilangan doirasida taqsimlanadigan jamiyat

B) ularni aktsiyalari faqat ularni ta'sischilari orasida taqsimlanadigan jamiyat

V) ularni aktsiyalari faqat yopiq obuna xolida taqsimlanadigan jamiyat

G) mablag'i aktsiyalarga ajratilgan yuridik shaxs

D) ularning ularning mavkei ta'sis xujjatlari bilan belgilanadigan jamiyat

67. Aktsiyadorlik jamiyatning ustav kapitali shaklanadi:

A) kreditorlar manfaatini kafolatlovchi jamiyat mulkining miqdoriga qarab

B) aktsionerlar tomonidan sotib olingan jamiyat aktsiyalarining nominal qiymatidan

V) aktsiyalarga ommaviy obuna bo'lish orqali

G) aktsiyalarga shaxsiy obuna bo'lish orqali

D) to'g'ri javob yo'q

68. Ochiq turdagi aksionerlik jamiyatining ustav kapitali miqdori:

A) jamiyat ro'yxatdan o'tish davridagi qonun bilan belgilangan 150 minimal ish haqi miqdoridan kam bo'lmasligi kerak.

B) jamiyat ro'yxatdan o'tish davridagi qonun bilan belgilangan 200 minimal ish haqi miqdoridan kam bo'lmasligi kerak

V) chegaralanmagan miqdorda

G) qonun asosida belgilangan ta'sis xujjatlariga qo'l qo'yish muddatida 200 minimal ish xaqi miqdoridan ko'p emas

D) to'g'ri javob yo'q

69. Yopiq turdagi aksionerlik jamiyatining ustav kapitali miqdori..

A) chegaralanmagan miqdorda

B) jamiyat ro'yxatdan o'tish vaqtida qonun bilan belgilangan 100 minimal ish haqi miqdoridan kam bulmasligi kerak

V) jamiyat ro'yxatdan o'tish vaqtida qonun bilan belgilangan 100 minimal ish haqi miqdoridan ko'p bo'lmasligi kerak

G) ta'sis xujjalari tasdiklangan vaqtidagi 200 minimal ish xaqi miqdori

D) ta'sis xujjalari bilan chegaralangan vaqtidagi 200 minimal ish haqi miqdori

“Korxonona iqtisodiyoti” fanini o’zlashtirish bo’yicha huquqiy me’yoriy-asoslar.

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ ҚОНУНИ
11.12.2003 й. N 558-II**

ХУСУСИЙ КОРХОНА ТЎҒРИСИДА

Мазкур Қонунга ЎзР 23.03.2006 й. ЎРҚ-26-сон Қонунига мувофиқ ўзгартиришлар киритилган

- I. Умумий қоидалар (1-7-моддалар)
- II. Хусусий корхона тузиш ва уни давлат рўйхатидан ўтказиш (8-13-моддалар)
- III. Хусусий корхонани бошқариш (14-17-моддалар)
- IV. Хусусий корхонада меҳнатга оид муносабатлар (18-20-моддалар)
- V. Хусусий корхона фаолияти эркинлигининг кафолатлари (21-25-моддалар)
- VI. Якунловчи қоидалар (26-30-моддалар)

I. УМУМИЙ ҚОИДАЛАР

- 1-модда. Ушбу Қонуннинг мақсади
- 2-модда. Хусусий корхона тўғрисидаги қонун ҳужжатлари
- 3-модда. Хусусий корхона
- 4-модда. Хусусий корхонанинг фирма номи
- 5-модда. Хусусий корхонанинг банк ҳисобварақлари
- 6-модда. Хусусий корхонанинг муҳри
- 7-модда. Хусусий корхонанинг штамплари ва бланкалари

1-модда. Ушбу Қонуннинг мақсади

Ушбу Қонуннинг мақсади хусусий корхоналарнинг тузилиши, фаолияти, қайта ташкил этилиши ва тугатилиши соҳасидаги муносабатларни тартибга солишдан иборат.

2-модда. Хусусий корхона тўғрисидаги қонун ҳужжатлари

Хусусий корхона тўғрисидаги қонун ҳужжатлари ушбу Қонун ва бошқа қонун ҳужжатларидан иборатдир.

3-модда. Хусусий корхона

Мулкдор ягона жисмоний шахс томонидан тузилган ва бошқариладиган тижоратчи ташкилот хусусий корхона деб

эътироф этилади. Хусусий корхона тадбиркорлик субъектларининг ташкилий-ҳуқуқий шаклидир.

Хусусий корхона ўз мулкида алоҳида мол-мулкка эга бўлади, ўз номидан мулкий ва шахсий номулкий ҳуқуқларга эга бўлиши ҳамда уларни амалга ошириши, мажбуриятларни бажариши, судда даъвогар ва жавобгар бўлиши мумкин.

Хусусий корхона ўз мажбуриятлари бўйича ўзига қарашли бутун мол-мулк билан жавоб беради.

Хусусий корхона мулкдори корхонанинг мол-мулки етарли бўлмаган тақдирда хусусий корхонанинг мажбуриятлари бўйича ўзига қарашли мол-мулк билан қонун ҳужжатларига мувофиқ субсидиар жавобгар бўлади.

4-модда. Хусусий корхонанинг фирма номи

Хусусий корхона тўлиқ фирма номига эга бўлиши лозим ва қисқартирилган фирма номига эга бўлишга ҳақли. Хусусий корхонанинг тўлиқ фирма номи унинг тўлиқ номини ва "xususiy korxonа" деган сўзларни ўз ичига олган бўлиши керак. Хусусий корхонанинг қисқартирилган фирма номи унинг қисқартирилган номини ва "xususiy korxonа" деган сўзларни ёки "ХК" аббревиатурасини ўз ичига олиши керак.

5-модда. Хусусий корхонанинг банк ҳисобварақлари

Хусусий корхона Ўзбекистон Республикаси ҳудудида ва ундан ташқарида қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда банк ҳисобварақлари очади.

6-модда. Хусусий корхонанинг муҳри

Хусусий корхона ўзининг тўлиқ фирма номи давлат тилида ифодаланган ва хусусий корхонанинг жойлашган ери кўрсатилган муҳрга эга бўлиши керак. Муҳрда айти пайтнинг ўзида унинг фирма номи бошқа тилда ҳам кўрсатилиши мумкин.

7-модда. Хусусий корхонанинг штамплари ва бланкалари

Хусусий корхона ўзининг фирма номи ёзилган штампларига ва бланкаларига, ўз эмблемасига, шунингдек белгиланган тартибда рўйхатдан ўтказилган товар белгисига ҳамда кўзга ташланиб турадиган бошқа идентификация воситаларига эга бўлишга ҳақли.

II. ХУСУСИЙ КОРХОНА ТУЗИШ ВА УНИ ДАВЛАТ РЎЙХАТИДАН ЎТКАЗИШ

8-модда. Хусусий корхона тузиш тартиби

9-модда. Бошқа юридик шахсларни таъсис этиш.

Хусусий корхонанинг ваколатхоналари ва филиаллари

10-модда. Хусусий корхонанинг устави

11-модда. Хусусий корхонани давлат рўйхатидан ўтказиш

12-модда. Хусусий корхонанинг устав фонди

13-модда. Хусусий корхонанинг устав фондини

кўпайтириш ва камайтириш

8-модда. Хусусий корхона тузиш тартиби

Хусусий корхона мулкдор томонидан тузилади, мулкдор унга тегишли мол-мулк беради ва унинг уставини тасдиқлайди.

Хусусий корхона, агар унинг уставида бошқача қоида белгиланган бўлмаса, номуайян муддатга тузилади.

9-модда. Бошқа юридик шахсларни таъсис этиш.

Хусусий корхонанинг ваколатхоналари ва филиаллари

Хусусий корхона қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда бошқа юридик шахсларнинг муассиси бўлишга ёки уларнинг устав фондида ўзгача тарзда иштирок этишга, ваколатхоналар очишга ва филиаллар тузишга ҳақли.

10-модда. Хусусий корхонанинг устави

Хусусий корхонанинг таъсис ҳужжати унинг уставидир.

Хусусий корхонанинг уставида қуйидагилар кўрсатилиши керак:

корхонанинг фирма номи;

унинг жойлашган ери ва почта манзили тўғрисидаги маълумотлар;

асосий фаолият турларининг рўйхати;

мулкдорнинг фамилияси, исми, отасининг исми ва яшаш жойи;

устав фондининг миқдори.

Хусусий корхонанинг устави қонун ҳужжатларига зид келмайдиган бошқа қоидаларни ҳам ўз ичига олиши мумкин.

11-модда. Хусусий корхонани давлат рўйхатидан ўтказиш

Хусусий корхона давлат рўйхатидан ўтказилган пайтдан бошлаб юридик шахс мақомига эга бўлади.

Хусусий корхонани давлат рўйхатидан ўтказиш қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда амалга оширилади.

12-модда. Хусусий корхонанинг устав фонди

Хусусий корхонанинг устав фонди бўлинмасдир ва уни мулкдорнинг ўзи белгилайди.

Пул, қимматли қоғозлар, пул билан баҳоланадиган бошқа мол-мулк ёки мулквий ҳуқуқлар ёхуд бошқа шахсга бериладиган ўзга ҳуқуқлар хусусий корхонанинг устав фондига қўшиладиган ҳисса бўлиши мумкин. Мулкдор хусусий корхонанинг устав фондига ўзи киритадиган мол-мулкни мустақил баҳолайди.

Агар хусусий корхонанинг устав фонди шакллантирилади ва мулкдор ўз оила аъзоларининг умумий (улушли ёки биргаликдаги) мулки ҳисобланган мол-мулкни корхонага бераётган бўлса, ушбу мол-мулкнинг барча мулкдорларидан нотариал тасдиқланган розилик олиш талаб этилади.

13-модда. Хусусий корхонанинг устав фондини кўпайтириш ва камайтириш

Хусусий корхонанинг устав фондини кўпайтириш ва камайтириш мулкдорнинг қарорига кўра хусусий корхонанинг уставига ўзгартишлар киритиш йўли билан амалга оширилади.

Агар иккинчи молия йилининг ва шундан кейинги ҳар бир молия йилининг якунида хусусий корхона соф активларининг қиймати унинг устав фондидан кам эканлиги маълум бўлиб қолса, хусусий корхона ўз устав фондини ўзининг соф активлари қийматидан ошмайдиган миқдорда камайтириши шарт.

Хусусий корхона соф активларининг қиймати қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда аниқланади.

III. ХУСУСИЙ КОРХОНАНИ БОШҚАРИШ

14-модда. Хусусий корхонани якка бошқариш

15-модда. Хусусий корхона мулкдорининг ҳуқуқлари ва мажбуриятлари

16-модда. Хусусий корхонани вақтинча бошқариш

17-модда. Мулкдорнинг хусусий корхона раҳбари вазифасини бажара олмаслиги

14-модда. Хусусий корхонани якка бошқариш

Хусусий корхона мулкдори корхонани раҳбар сифатида якка бошқаради, корхона номидан ишончномасиз иш кўради, унинг манфаатларини ифодалайди, хусусий корхонанинг пул

маблағларини ҳамда бошқа мол-мулкни тасарруф этади, шартномалар, шу жумладан меҳнат шартномалари тузади, ишончномалар беради, банкларда ҳисобварақлар очади, штатларни тасдиқлайди, корхонанинг барча ходимлари учун мажбурий бўлган буйруқлар чиқаради ва кўрсатмалар беради.

15-модда. Хусусий корхона мулкдорининг ҳуқуқлари ва мажбуриятлари

Хусусий корхона мулкдори қуйидаги ҳуқуқларга эга:

хусусий корхона уставига қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритиш; хусусий корхонани қайта ташкил этиш ва тугатиш тўғрисида қарор қабул қилиш;

хусусий корхонанинг солиқлар ва бошқа мажбурий тўловлар тўланганидан кейин қолган фойдасидан ўз ихтиёрига кўра фойдаланиш;

хусусий корхонага тегишли мол-мулкни бошқа шахсга бериш, ижарага бериш, гаровга қўйиш, бошқа юридик шахсларнинг устав фондига ҳисса сифатида киритиш ёки ушбу мол-мулкни бошқача усулда тасарруф этиш.

Хусусий корхона мулкдори қонун ҳужжатларига мувофиқ бошқа ҳуқуқларга ҳам эга бўлиши мумкин.

Хусусий корхона мулкдори:

устав фондини шакллантириши;

ўзига қарашли корхонани якка бошқариши шарт.

Хусусий корхона мулкдори зиммасида қонун ҳужжатларига мувофиқ бошқа мажбуриятлар ҳам бўлиши мумкин.

16-модда. Хусусий корхонани вақтинча бошқариш

Хусусий корхона мулкдори ўзи вақтинчалик бўлмаган тақдирда шу муддатда раҳбарлик вазифасини бажариб туришни бошқа жисмоний шахс зиммасига юклаш тўғрисида ёзма қарор қабул қилади. Хусусий корхона мулкдори муваққат раҳбарнинг хусусий корхона мол-мулкни тасарруф этишга оид ҳуқуқини чеклаб қўйиши мумкин.

17-модда. Мулкдорнинг хусусий корхона раҳбари вазифасини бажара олмаслиги

Вафот этганлиги, муомалага лаёқатсизлиги, муомала лаёқати чекланганлиги ёки бедарак йўқолган деб топилганлиги оқибатида мулкдорнинг хусусий корхона раҳбари вазифасини бажариши мумкин бўлмай қолган тақдирда хусусий корхонани бошқариш фуқаролик қонун ҳужжатларига ва хусусий корхонанинг уставига мувофиқ амалга оширилади.

IV. ХУСУСИЙ КОРХОНАДА МЕҲНАТГА ОИД МУНОСАБАТЛАР

18-модда. Хусусий корхонанинг иш берувчиси ва ходими ўртасидаги ўзаро муносабатлар

19-модда. Хусусий корхонада меҳнатга ҳақ тўлаш

20-модда. Хусусий корхона ходимларини ижтимоий муҳофаза қилиш

18-модда. Хусусий корхонанинг иш берувчиси ва ходими ўртасидаги ўзаро муносабатлар

Хусусий корхона (иш берувчи) ва хусусий корхонанинг ходими ўртасидаги ўзаро муносабатлар меҳнат тўғрисидаги қонун ҳужжатларига мувофиқ меҳнат шартномаси (контракт) билан тартибга солинади.

19-модда. Хусусий корхонада меҳнатга ҳақ тўлаш

Хусусий корхона ўз ходимларига меҳнат ҳақи, мукофотлар ва компенсациялар тўлашнинг шакллари, тизими ҳамда миқдорини қонун ҳужжатларига мувофиқ мустақил белгилайди.

Хусусий корхонада меҳнат шартномаси (контракт) бўйича ишлаётган шахсларнинг меҳнатига ҳақ тўлаш тарафларнинг келишувига кўра, бироқ қонун ҳужжатларида белгиланган энг кам иш ҳақидан кам бўлмаган миқдорда белгиланади.

20-модда. Хусусий корхона ходимларини ижтимоий муҳофаза қилиш

Хусусий корхона ўз ходимларига хавфсиз меҳнат шaroитларини, ижтимоий ҳимоя чораларини таъминлаши шарт ва уларнинг ҳаёти ёки соғлиғига етказилган зарар учун қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда жавобгар бўлади.

Хусусий корхона ўз ходимлари учун қонун ҳужжатларида белгиланганига нисбатан имтиёзлироқ меҳнат ва ижтимоий-иқтисодий шaroитларни мустақил белгилашга ҳақли.

V. ХУСУСИЙ КОРХОНА ФАОЛИЯТИ ЭРКИНЛИГИНИНГ КАФОЛАТЛАРИ

21-модда. Хусусий корхона мол-мулкнинг национализация ва реквизиция қилинишига йўл қўйилмаслиги

22-модда. Хусусий корхона фаолиятининг эркинлиги

23-модда. Хусусий корхоналарга татбиқ этиладиган имтиёзлар, преференциялар ва кафолатлар

24-модда. Хусусий корхонага солиқ солишнинг ўзига хос хусусиятлари

25-модда. Хусусий корхона фаолиятини текшириш чекланганлиги

21-модда. Хусусий корхона мол-мулкининг национализация ва реквизиция қилинишига йўл қўйилмаслиги

Хусусий корхонанинг мол-мулки национализация қилинмайди, қонунда назарда тутилган ҳоллар бундан мустасно.

Хусусий корхонанинг мол-мулки реквизиция қилинмайди, хусусий корхонанинг мулкдорига реквизиция қилинаётган мол-мулкнинг бозор қийматига муодил компенсацияси тўланадиган табиий офатлар, авариялар, эпидемиялар, эпизоотиялар ва фавқулодда тусдаги бошқа ҳолатлар бундан мустасно.

22-модда. Хусусий корхона фаолиятининг эркинлиги

Хусусий корхона қонун ҳужжатларига мувофиқ ҳар қандай фаолият турларини амалга оширади.

Хусусий корхона битимлар тузишда эркиндир.

23-модда. Хусусий корхоналарга татбиқ этиладиган имтиёзлар, преференциялар ва кафолатлар

Хусусий корхоналарга тадбиркорлик субъектлари учун қонун ҳужжатларида назарда тутилган имтиёзлар, преференциялар ва кафолатлар татбиқ этилади.

24-модда. Хусусий корхонага солиқ солишнинг ўзига хос хусусиятлари

Қонун ҳужжатлари билан белгиланадиган тартибда хусусий корхоналар учун давлат бюджетига ва давлат мақсадли жамғармаларига солиқлар ҳамда бошқа мажбурий тўловларнинг доимий ставкалари белгиланади.

Хусусий корхонанинг фойдаси солиқлар ва бошқа мажбурий тўловлар тўланганидан сўнг корхона мулкдорининг тасарруфига ўтади ҳамда унга солиқ солинмайди.

25-модда. Хусусий корхона фаолиятини текшириш чекланганлиги

Хусусий корхона фаолиятини текширишлар назорат қилувчи органлар томонидан кўпи билан икки йилда бир марта, белгиланган тартибда амалга оширилиши мумкин, қонун ҳужжатларида назарда тутилган ҳоллар бундан мустасно.

Хусусий корхоналарнинг - кичик тадбиркорлик субъектларининг молия-хўжалик фаолиятини режали текширишлар кўпи билан тўрт йилда бир марта, бошқа хусусий корхоналарнинг молия-хўжалик фаолиятини режали текширишлар эса кўпи билан уч йилда бир марта амалга оширилади.

Янги ташкил қилинган хусусий корхоналарнинг - кичик тадбиркорлик субъектларининг молия-хўжалик фаолияти улар давлат рўйхатидан ўтказилган пайтдан эътиборан икки йил мобайнида режали текширувлардан ўтказилиши мумкин эмас. (ЎзР 23.03.2006 й. ЎРҚ-26-сон Қонуни тахриридаги модда матни), (Олдинги тахририга қаранг)

VI. ЯКУНЛОВЧИ ҚОИДАЛАР

26-модда. Хусусий корхоналарнинг бирлашиши

27-модда. Хусусий корхонани бошқа шахсга ўтказиш

28-модда. Хусусий корхонани қайта ташкил этиш ва тугатиш

29-модда. Низоларни ҳал этиш

30-модда. Хусусий корхона тўғрисидаги қонун ҳужжатларини бузганлик учун жавобгарлик

26-модда. Хусусий корхоналарнинг бирлашиши

Хусусий корхоналар ўз ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш мақсадида қонунга мувофиқ ассоциацияларга (уюшмаларга) ва бошқа бирлашмаларга бирлашишлари мумкин.

27-модда. Хусусий корхонани бошқа шахсга ўтказиш

Хусусий корхона мулкдори хусусий корхонани мол-мулк мажмуаси сифатида сотишга, ҳадя қилишга, васият қилиб қолдиришга ёки уни ўзгача усулда бошқа шахсга ўтказишга ҳақли.

Хусусий корхона бошқа шахсга берилган тақдирда ўзининг фирма номидан, товар белгиларидан, хизмат кўрсатиш белгиларидан ҳамда мазкур хусусий корхона ва унинг маҳсулотини, у бажараётган ишларни ёки кўрсатаётган хизматларни индивидуаллаштирувчи ўзга воситалардан фойдаланиш ҳуқуқлари, агар қонун ҳужжатларида ёхуд шартномада бошқача қоида назарда тутилган бўлмаса, янги мулкдорга ўтади.

28-модда. Хусусий корхонани қайта ташкил этиш ва тугатиш

Хусусий корхона унинг мулкдори ёки суднинг қарорига кўра, қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда қайта ташкил этилиши ёки тугатилиши мумкин.

29-модда. Низоларни ҳал этиш

Хусусий корхоналарнинг тузилиши, фаолияти, қайта ташкил этилиши ва тугатилиши соҳасидаги низолар қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда ҳал этилади.

30-модда. Хусусий корхона тўғрисидаги қонун ҳужжатларини бузганлик учун жавобгарлик

Хусусий корхона тўғрисидаги қонун ҳужжатларини бузганликда айбдор шахслар белгиланган тартибда жавобгар бўладилар.

Ўзбекистон Республикасининг Президенти
Каримов

И.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНING ҚОНУНИ

25.05.2000 й. N 69-II

ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИ ЭРКИНЛИГИНИING КАФОЛАТЛАРИ ТЎҒРИСИДА

Мазкур Қонунга қуйидагиларга мувофиқ ўзгартиришлар киритилган

ЎзР 12.05.2001 й. 220-II-сон Қонуни,
ЎзР 25.04.2003 й. 482-II-сон Қонуни,
ЎзР 12.12.2003 й. 568-II-сон Қонуни,
ЎзР 30.04.2004 й. 621-II-сон Қонуни,
ЎзР 03.12.2004 й. 714-II-сон Қонуни,
ЎзР 23.03.2006 й. ЎРҚ-26-сон Қонуни,
ЎзР 18.09.2006 й. ЎРҚ-52-сон Қонуни,
ЎзР 10.10.2006 й. ЎРҚ-59-сон Қонуни,
ЎзР 28.12.2007 й. ЎРҚ-138-сон Қонуни,
ЎзР 31.12.2008 й. ЎРҚ-197-сон Қонуни,
ЎзР 25.12.2009 й. ЎРҚ-240-сон Қонуни,
ЎзР 15.09.2010 й. ЎРҚ-256-сон Қонуни,
ЎзР 13.12.2010 й. ЎРҚ-265-сон Қонуни

- I. Умумий қоидалар (1-10-моддалар)
- II. Тадбиркорлик фаолиятини амалга ошириш асослари (11-17-моддалар)
- III. Тадбиркорлик фаолияти субъектлари ҳуқуқларининг кафолатлари (18-34-моддалар)
- IV. Тадбиркорлик фаолияти субъектлари ҳуқуқларини ҳимоя қилиш (35-40-1-моддалар)
- V. Тадбиркорлик фаолиятини давлат йўли билан қўллаб-қувватлаш (41-47-моддалар)
- VI. Якуний қоидалар (48-51-моддалар)

I. УМУМИЙ ҚОИДАЛАР

- 1-модда. Қонуннинг асосий вазифалари
- 2-модда. Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисидаги қонун ҳужжатлари
- 3-модда. Тадбиркорлик фаолияти тушунчаси
- 4-модда. Тадбиркорлик фаолияти субъектлари
- 5-модда. Кичик тадбиркорлик субъектлари
- 6-модда. Якка тартибдаги тадбиркорлик
- 7-модда. Жисмоний шахсларнинг юридик шахс ташкил

этмаган ҳолдаги биргаликдаги тадбиркорлик фаолияти
8-модда. Тадбиркорлик фаолияти субъектларининг
ҳуқуқлари

9-модда. Тадбиркорлик фаолияти субъектларининг
мажбуриятлари

10-модда. Тадбиркорлик фаолияти субъектларининг
бирлашмалари

1-модда. Қонуннинг асосий вазифалари

Ушбу Қонуннинг асосий вазифалари фуқароларнинг тадбиркорлик фаолиятида эркин иштирок этиши ва манфаатдорлиги учун кафолатлар ҳамда шароитлар яратишдан, уларнинг ишчанлик фаоллигини оширишдан, шунингдек тадбиркорлик фаолияти субъектларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилишдан иборат.

2-модда. Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисидаги қонун ҳужжатлари

Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисидаги қонун ҳужжатлари ушбу Қонун ва бошқа қонун ҳужжатларидан иборатдир.

Нотижорат ташкилотларга нисбатан ушбу Қонун улар фаолиятининг ўз хусусиятига кўра тадбиркорликдан иборат бўлган қисмига татбиқ этилади.

Қорақалпоғистон Республикасида тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари билан боғлиқ муносабатлар Қорақалпоғистон Республикаси қонун ҳужжатлари билан ҳам тартибга солинади.

Агар Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномасида Ўзбекистон Республикасининг тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисидаги қонун ҳужжатларида назарда тутилганидан бошқача қоидалар белгиланган бўлса, халқаро шартнома қоидалари қўлланилади.

3-модда. Тадбиркорлик фаолияти тушунчаси

Тадбиркорлик фаолияти (тадбиркорлик) - тадбиркорлик фаолияти субъектлари томонидан қонун ҳужжатларига мувофиқ амалга ошириладиган, таваккал қилиб ва ўз мулкий жавобгарлиги остида даромад (фойда) олишга қаратилган ташаббускор фаолият.

4-модда. Тадбиркорлик фаолияти субъектлари

Тадбиркорлик фаолияти субъектлари (тадбиркорлик субъектлари) белгиланган тартибда рўйхатдан ўтган ҳамда

тадбиркорлик фаолиятини амалга ошираётган юридик ва жисмоний шахслардир.

Давлат ҳокимияти ва бошқарув органлари (қонун ҳужжатларида назарда тутилган ҳоллар бундан мустасно), уларнинг мансабдор шахслари, шунингдек тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланиши қонун ҳужжатларида ман этилган бошқа шахслар тадбиркорлик фаолиятининг субъектлари бўлиши мумкин эмас.

5-модда. Кичик тадбиркорлик субъектлари

Кичик тадбиркорлик субъектлари қуйидагилардир:

якка тартибдаги тадбиркорлар;

ишлаб чиқариш тармоқларидаги, банд бўлган ходимларининг ўртача йиллик сони кўпи билан йигирма киши, хизмат кўрсатиш соҳасидаги ва бошқа ноишлаб чиқариш тармоқларидаги, банд бўлган ходимларининг ўртача йиллик сони кўпи билан ўн киши, улгуржи ва чакана савдо ҳамда умумий овқатланиш тармоқларидаги, банд бўлган ходимларининг ўртача йиллик сони кўпи билан беш киши бўлган микрофирмалар;

қуйидаги тармоқлардаги:

енгил ва озиқ-овқат саноатидаги, металлга ишлов бериш ва асбобсозлик, ёғочсозлик, мебель саноати ҳамда қурилиш материаллари саноатидаги, банд бўлган ходимларининг ўртача йиллик сони кўпи билан юз киши;

машинасозлик, металлургия, ёқилғи-энергетика ва кимё саноати, қишлоқ хўжалик маҳсулотларини ишлаб чиқариш ва қайта ишлаш, қурилиш ҳамда бошқа саноат-ишлаб чиқариш соҳаларидаги, банд бўлган ходимларининг ўртача йиллик сони кўпи билан эллик киши;

фан, илмий хизмат кўрсатиш, транспорт, алоқа, хизмат кўрсатиш соҳалари (суғурта компанияларидан ташқари), савдо ва умумий овқатланиш ҳамда бошқа ноишлаб чиқариш соҳаларидаги, банд бўлган ходимларининг ўртача йиллик сони кўпи билан йигирма беш киши бўлган кичик корхоналар.

Кичик тадбиркорлик субъектлари ходимларининг ўртача йиллик сони қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда аниқланади. Бунда унитар (шўъба) корхоналарда, филиалларда ва ваколатхоналарда ишловчиларнинг сони ҳам ҳисобга олинади.

Фаолиятнинг бир неча турини амалга оширувчи (кўп тармоқли) юридик ва жисмоний шахслар йиллик оборот ҳажмида улуши энг кўп бўлган фаолият тури мезонлари бўйича кичик тадбиркорлик субъектларига киради. (ЎЗР 12.12.2003 й.

568-II-сон Қонуни таҳриридаги модда), (Олдинги таҳририга қаранг)

Кичик тадбиркорлик субъектлари учун қонун ҳужжатларида назарда тутилган имтиёзлар, кафолатлар ва ҳуқуқлар юқорида санаб ўтилган тижорат ташкилотларига улар томонидан ваколатли ташкилотларга (давлат солиқ, божхона хизмати органлари, давлат статистика органлари, банклар ва бошқаларга) имтиёзлар, кафолатлар ва ҳуқуқлар хусусиятидан келиб чиқиб, кичик тадбиркорлик субъектлари эканлиги ҳақида хабарнома тақдим этган ҳолда қилинган муурожаатлар асосида берилади. Хабарноманинг тўғрилиги учун жавобгарлик хабарномани тақдим этган субъектлар зиммасига юклатилади. (ЎзР 03.12.2004 й. 714-II-сон Қонуни таҳриридаги қисм)

Микрофирма ва кичик корхона ходимларнинг белгиланган ўртача йиллик сонини ошириб юборган тақдирда, ошириб юборишга йўл қўйилган давр учун ва кейинги уч ойга улар қонун ҳужжатларида назарда тутилган имтиёзлар, кафолатлар ва ҳуқуқлардан маҳрум этилади. Ушбу қоида қуйидаги ҳолларда татбиқ этилмайди:

микрофирма ва кичик корхона Ўзбекистон Республикаси касб-хунар коллежлари, академик лицейларининг ҳамда олий таълим муассасаларининг битирувчилари билан меҳнат шартномалари тузганда, банд бўлган ходимларнинг белгиланган ўртача йиллик сони кўпи билан 20 фоиз оширилганда. Ходимлар сонининг оширилишига Ўзбекистон Республикаси касб-хунар коллежлари, академик лицейлари ва олий таълим муассасалари битирувчиларининг ўқишни тугаллаган кунидан бошлаб уч йилдан ортиқ вақт ўтмаган тақдирда йўл қўйилади;

кичик корхона ўз уйида ишлаётган фуқаролар (касаначилар) билан меҳнат шартномалари тузганда, банд бўлган ходимларнинг белгиланган ўртача йиллик сони кўпи билан 30 фоиз оширилганда. (ЎзР 13.12.2010 й. ЎРҚ-265-сон Қонуни таҳриридаги қисм) (Олдинги таҳририга қаранг)

6-модда. Якка тартибдаги тадбиркорлик

Якка тартибдаги тадбиркорлик - юридик шахс ташкил этмаган ҳолда жисмоний шахс (якка тартибдаги тадбиркор) томонидан тадбиркорлик фаолиятининг амалга оширилиши.

Якка тартибдаги тадбиркорлик якка тартибдаги тадбиркор томонидан ходимларни ёллаш ҳуқуқсиз, мулк ҳуқуқи асосида ўзига тегишли бўлган мол-мулк негизида, шунингдек мол-мулкка эгалик қилиш ва (ёки) ундан фойдаланишга йўл

қўядиган ўзга ашёвий ҳуқуқ тўфайли ўзига тегишли бўлган мол-мулк негизда мустақил равишда амалга оширилади.

Якка тартибдаги тадбиркорликни амалга ошириш учун эр-хотиндан бири эр-хотиннинг умумий биргаликдаги мол-мулкидан фойдаланадиган ҳолларда, агар қонунларда, никоҳ шартномасида ёки эр-хотин ўртасидаги ўзга келишувда бошқача қоида назарда тутилган бўлмаса, эрнинг (хотиннинг) розилиги талаб қилинади.

7-модда. Жисмоний шахсларнинг юридик шахс ташкил этмаган

ҳолдаги биргаликдаги тадбиркорлик фаолияти

Жисмоний шахслар юридик шахс ташкил этмаган ҳолдаги биргаликдаги тадбиркорлик фаолиятини қуйидаги:

эр-хотиннинг умумий мол-мулки негизда улар томонидан амалга ошириладиган оилавий тадбиркорлик;

оддий ширкат;

юридик шахс ташкил этмаган ҳолда деҳқон хўжалиги шаклларида амалга оширишлари мумкин.

Эр-хотинга умумий биргаликдаги мулк ҳуқуқида тегишли бўлган мол-мулк негизда оилавий тадбиркорлик амалга оширилаётганида, иш муомалаларида эр-хотин номидан эрнинг ёки хотиннинг розилиги билан улардан бири иштирок этади, бу розилик якка тартибдаги Тадбиркор рўйхатдан ўтказилаётганда тасдиқланиши лозим.

Тадбиркорлик фаолияти объекти сифатида уй-жойдан фойдаланиш билан боғлиқ оилавий тадбиркорлик амалга оширилаётганида, уй-жой мулкдорларидан бирининг иш муомалаларига киришиши оиланинг вояга етган бошқа аъзоларининг нотариал тасдиқланган розилиги бўлган тақдирда амалга оширилади.

Жисмоний шахслар фақат якка тартибдаги тадбиркорлар тариқасида давлат рўйхатидан ўтганларидан кейин улар биргаликдаги тадбиркорлик фаолиятини амалга ошириш учун тузиладиган оддий ширкат шартномаси тарафлари бўлишлари мумкин.

Деҳқон хўжалиги ва оддий ширкатни тузиш, уларнинг фаолият юритиши ва фаолиятини тугатиш билан боғлиқ, муносабатлар қонун ҳужжатлари билан тартибга солинади.

8-модда. Тадбиркорлик фаолияти субъектларининг ҳуқуқлари

Тадбиркорлик фаолияти субъектлари қуйидагиларга ҳақли:

қонун ҳужжатларига мувофиқ ўзига тегишли мол-мулкка эгаллик қилиш, ундан фойдаланиш ва уни тасарруф этиш;

мустақил равишда ишлаб чиқариш дастурини шакллантириш, маҳсулот етказиб берувчиларни ва ўз маҳсулотининг (ишлари, хизматларининг) истеъмолчиларини танлаш;

тадбиркорликдан чекланмаган миқдорда даромад (фойда) олиш ва уни ўз ихтиёрига кўра тасарруф этиш, товарлар (ишлар, хизматлар) бозорида устун мавқени эгаллаб турган тадбиркорлик фаолияти субъектлари бундан мустасно;

ўз маҳсулотини (ишлари, хизматларини), ишлаб чиқариш чиқиндиларини бозор конъюнктурасидан келиб чиқиб, мустақил равишда белгиланадиган нархлар ва тарифлар бўйича ёки шартнома асосида реализация қилиш, қонун ҳужжатларида назарда тутилган ҳоллар бундан мустасно;

бинолар, иншоотлар, ускуналар ва бошқа мол-мулкни олиш ва (ёки) ижарага олиш, шу жумладан, лизинг йўли билан;

белгиланган тартибда ташқи иқтисодий фаолиятни амалга ошириш.

Тадбиркорлик фаолияти субъектлари қонун ҳужжатларига мувофиқ бошқа ҳуқуқларга ҳам эга бўлиши мумкин.

9-модда. Тадбиркорлик фаолияти субъектларининг мажбуриятлари

Тадбиркорлик фаолияти субъектлари:

ўзлари тузган шартномалардан келиб чиқадиган мажбуриятларни бажаришлари;

ёллаш асосида жалб этилган ходимлар билан ўз вақтида ҳисоб-китоб қилишлари;

хавфсизлик, экология, санитария, гигиена ва меҳнатни муҳофаза қилиш талабларига риоя этишлари;

реализация қилинадиган товарлар учун қонун ҳужжатларига мувофиқ сертификатларга эга бўлишлари;

почта манзили ва бошқа реквизитлари ўзгарганлиги тўғрисида тегишли давлат органларини ўз вақтида хабардор қилишлари;

бухгалтерия, тезкор ва статистика ҳисобини қонун ҳужжатлари талабларига мувофиқ юритишлари;

ўз фаолиятлари тўғрисидаги ҳисоботларни тегишли органларга белгиланган тартибда ва муддатларда тақдим этишлари шарт.

Тадбиркорлик фаолияти субъектларининг зиммасида қонун ҳужжатларига мувофиқ бошқа мажбуриятлар ҳам бўлиши мумкин.

10-модда. Тадбиркорлик фаолияти субъектларининг бирлашмалари

Тадбиркорлик субъектлари ўз ҳуқуқларини ҳамда манфаатларини ҳимоя қилиш мақсадларида қонунга мувофиқ уюшмалар (иттифоқлар) ва бошқа бирлашмаларга бирлашишлари мумкин.

Тадбиркорлик фаолияти субъектларининг бирлашмаларини тузиш, уларнинг фаолият юритиши, қайта ташкил этилиши ва тугатилиши билан боғлиқ муносабатлар қонун ҳужжатлари билан тартибга солинади.

II. ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИНИ АМАЛГА ОШИРИШ АСОСЛАРИ

11-модда. Тадбиркорлик фаолияти субъектларини давлат рўйхатидан ўтказиш

12-модда. Якка тартибдаги тадбиркорни давлат рўйхатидан ўтказиш хусусиятлари

13-модда. Тадбиркорлик фаолиятининг айрим турларини лицензиялаш

14-модда. Тадбиркорлик фаолиятининг мулкӣ асоси

15-модда. Тадбиркорлик фаолияти субъектларини кредитлаш ва суғурта қилиш

16-модда. Тадбиркорлик фаолияти субъектларидан солиқ олиш

17-модда. Ҳисоб ва ҳисобот

11-модда. Тадбиркорлик фаолияти субъектларини давлат рўйхатидан ўтказиш

Тадбиркорлик фаолияти субъектларини давлат рўйхатидан ўтказиш тегишли давлат органи томонидан қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда ва муддатларда амалга оширилади.

ЎЗР 30.04.2004 й. 621-II-сон Қонунига мувофиқ 11-модда биринчи қисмининг иккинчи жумласи чиқариб ташланган

Якка тартибдаги тадбиркорни давлат рўйхатидан ўтказиш ушбу Қонуннинг 12-моддасида назарда тутилган хусусиятларни инобатга олган ҳолда амалга оширилади.

Рўйхатдан ўтказувчи органлар ариза берувчига тадбиркорлик фаолияти субъекти тариқасида давлат рўйхатидан ўтказишни уни ташкил этиш мақсадга мувофиқ эмас деган ваз билан рад этишга ёки қонун ҳужжатларида назарда тутилмаган қўшимча талабларни белгилашга ҳақли эмас.

Ариза берувчини тадбиркорлик фаолияти субъекти тариқасида давлат рўйхатидан ўтказишни рад этганлик, шунингдек рўйхатдан ўтказиш муддатларини бузганлик устидан судга шикоят қилиш мумкин. Рўйхатдан ўтказувчи органнинг қарори, шунингдек мазкур орган мансабдор шахсларининг ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) суд томонидан қонунга хилоф деб топилган тақдирда улар ариза берувчига рўйхатдан ўтказишни рад этганлик ёки рўйхатдан ўтказиш муддатини бузганлик туфайли етказилган зарарнинг ўрнини қоплайдилар ва маънавий зарар учун товон тўлайдилар.

ЎЗР 30.04.2004 й. 621-II-сон Қонунига мувофиқ 12-модда чиқариб ташланган

12-модда. Якка тартибдаги тадбиркорни давлат рўйхатидан ўтказиш хусусиятлари

Якка тартибдаги тадбиркорни давлат рўйхатидан ўтказиш жисмоний шахс ариза берган пайтдан бошлаб уч кунлик муддатдан кечиктирмай амалга оширилиши лозим. Жисмоний шахс рўйхатдан ўтказилганлик йиғимини тўланганлиги тўғрисидаги ҳужжатни тақдим этганидан кейин унга аризасида кўрсатилган муддатга якка тартибдаги тадбиркор давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома берилади. Рўйхатдан ўтказилганлик йиғими банк муассасалари ёки аҳолидан тўловларни қабул қилувчи бошқа кредит ташкилотлари орқали тўланади.

Рўйхатдан ўтказилганлик йиғими ставкасининг энг юқори миқдори Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан белгиланади. Рўйхатдан ўтказилганлик йиғими миқдорлари ва уни тўлаш бўйича имтиёзлар бериш маҳаллий давлат ҳокимияти органлари томонидан белгиланади.

Давлат рўйхатидан ўтказиш рад этилган тақдирда, бундай қарорни қабул қилган орган жисмоний шахсни бу ҳақда уч кун ичида ёзма шаклда хабардор қилиши шарт.

Якка тартибдаги тадбиркор давлат рўйхатидан ўтказилганидан кейин қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда солиқ органларида ҳисобга туриши шарт. Рўйхатдан ўтганлик тўғрисидаги гувоҳноманинг нусхаси ҳисобга қўйиш

учун асосдир. (ЎзР 12.05.2001 й. 220-II-сон Қонуни таҳриридаги қисм)

13-модда. Тадбиркорлик фаолиятининг айрим турларини лицензиялаш

Лицензияланиши лозим бўлган тадбиркорлик фаолиятининг турлари қонунлар билан белгиланади.

Тадбиркорлик фаолиятининг айрим турларини лицензиялаш тартиби Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан белгиланади, қонунда назарда тутилган ҳоллар бундан мустасно.

14-модда. Тадбиркорлик фаолиятининг мулкӣ асоси

Тадбиркорлик фаолияти тадбиркорлик субъектларининг ўз мол-мулки асосида ва (ёки) жалб этилган мол-мулк асосида амалга оширилиши мумкин.

Тадбиркорлик субъектлари тадбиркорлик фаолиятини амалга оширишига асос ва восита бўлган мол-мулк, шу жумладан, мулкӣ ҳуқуқлар қонун ҳужжатларида назарда тутилган тартибда ҳуқуқларнинг белгиланиши, ўзгартирилиши ва бекор бўлиши билан боғлиқ олди-сотди, гаров, ижара ва бошқа битимлар объекти бўлиши мумкин.

15-модда. Тадбиркорлик фаолияти субъектларини кредитлаш ва суғурта қилиш

Тадбиркорлик фаолияти субъектларини кредитлаш қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда амалга оширилади.

Тадбиркорлик фаолияти субъектига кредит берилаётганда банк муассасалари, бошқа кредит ёки суғурта ташкилотлари кафил бўлишлари мумкин. Тўловга қобилиятли юридик ва жисмоний шахслар, шунингдек фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда кафил бўлишлари мумкин.

Тадбиркорлик фаолияти субъекти кредит шартномалари бўйича мажбуриятларни таъминлаш тариқасида ўз мол-мулкидан, шу жумладан, ашёлари ва мулкӣ ҳуқуқларидан, шунингдек ўзи олган кредитни тўлай олмаслик хавфи суғуртаси тўғрисидаги суғурта полисидан фойдаланиши мумкин.

Тадбиркорлик субъектлари қонун ҳужжатларида назарда тутилган ҳолларда имтиёзли кредитланиш ҳуқуқига эга.

Тадбиркорлик фаолияти субъектларини суғурта қилиш суғурта ташкилотлари томонидан қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда амалга оширилади.

ЎзР 28.12.2007 й. ЎРҚ-138-сон Қонунига мувофиқ 16-модда чиқариб ташланган

16-модда. Тадбиркорлик фаолияти субъектларидан солиқ олиш

Тадбиркорлик фаолияти субъектларидан солиқ олиш тартиби қонун ҳужжатлари билан белгилаб қўйилади.

Солиқ тўғрисидаги қонун ҳужжатларига кичик ва хусусий тадбиркорлик субъектлари учун бирмунча ноқулайроқ шароитларни юзага келтирадиган ўзгартишлар киритилган тақдирда, мазкур субъектлардан кейинги икки йил мобайнида бундай ўзгартишлар кучга киргунга қадар амалда бўлган қонун ҳужжатларига мувофиқ солиқ ундирилади. Бунда солиқ солиш ва солиқ ставкалари тизимининг уларни индексация қилиш билан боғлиқ ўзгариши, шунингдек юридик ва жисмоний шахсларнинг айрим фаолият турларини амалга оширишдан олган даромадларига қатъий белгиланган солиқнинг жорий этилиши кичик ва хусусий тадбиркорлик субъектлари учун бирмунча ноқулай фаолият шароитларини юзага келтирувчи ўзгаришлар деб ҳисобланмайди. (ЎзР 25.04.2003 й. 482-II-сон Қонуни таҳриридаги жумла)

ЎзР 25.04.2003 й. 482-II-сон Қонунига мувофиқ учинчи қисм чиқариб ташланган.

Микрофирмалар ва кичик корхоналар учун ягона солиқ тўланишини назарда тутувчи солиқ солиш тизими қўлланилиши мумкин. Акциз солиғи тўланадиган маҳсулот ишлаб чиқараётган микрофирмалар ва кичик корхоналар, Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодексида белгиланган тартибда акциз солиғи тўлаганлари тақдирда, ягона солиқ тўлашга ўтишлари мумкин. Микрофирмалар ва кичик корхоналарга солиқ солиш тизимини танлаш ҳуқуқи ушбу модда талабларини инобатга олган ҳолда берилади. (ЎзР 12.05.2001 й. 220-II-сон Қонуни таҳриридаги қисм)

ЎзР 25.04.2003 й. 482-II-сон Қонунига мувофиқ тўртинчи қисм чиқариб ташланган.

Микрофирмалар ва кичик корхоналар, рўйхати Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан белгиланадиган фаолиятнинг айрим турларини амалга оширганлари тақдирда,

солиқнинг қатъий белгиланган суммасини тўлайдилар. (ЎзР 12.05.2001 й. 220-II-сон Қонуни таҳриридаги қисм)

ЎзР 25.04.2003 й. 482-II-сон Қонунига мувофиқ бешинчи қисм чиқариб ташланган.

Ушбу модданинг тўртинчи қисмида назарда тутилмаган фаолиятнинг турларини амалга оширганлари тақдирда микрофирмалар ва кичик корхоналар ўз хоҳишига кўра ё ягона солиқ, ёки мазкур тоифадаги солиқ тўловчилар учун назарда тутилган барча солиқларни жамлаган ҳолда тўлайдилар. (ЎзР 12.05.2001 й. 220-II-сон Қонуни таҳриридаги қисм)

ЎзР 25.04.2003 й. 482-II-сон Қонунига мувофиқ олтинчи қисм чиқариб ташланган.

Микрофирмалар ва кичик корхоналар солиқ тўлаш мақсадида ушбу модданинг тўртинчи ва бешинчи қисмларида назарда тутилган фаолият турларининг алоҳида бухгалтерия ҳисобини юритишлари шарт. (ЎзР 12.05.2001 й. 220-II-сон Қонуни таҳриридаги қисм)

ЎзР 12.05.2001 й. 220-II-сон Қонунига мувофиқ тўртинчи - олтинчи қисмлари тегишинча еттинчи - тўққизинчи қисмлар деб ҳисоблансин

ЎзР 25.04.2003 й. 482-II-сон Қонунига мувофиқ еттинчи қисм чиқариб ташланган.

Савдо ва умумий овқатланиш корхоналари даромад (фойда) солиғи, қўшилган қиймат солиғи, экология солиғи, сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ, ерости бойликлардан фойдаланганлик учун солиқ, ер солиғи, ижтимоий инфратузилмани ривожлантириш солиғи, бошқа маҳаллий солиқлар ва йиғимлар (мол-мулк солиғи бундан мустасно) ўрнига бюджетга ялпи даромад солиғи тўлайдилар.

ЎзР 25.04.2003 й. 482-II-сон Қонунига мувофиқ саккизинчи қисм чиқариб ташланган.

Қишлоқ хўжалик товари ишлаб чиқарувчилари, алкогольли маҳсулот учун акциз солиғини истисно этганда, амалдаги барча умумдавлат ва маҳаллий солиқлар ҳамда йиғимлар ўрнига ягона ер солиғи тўлайдилар.

ЎзР 25.04.2003 й. 482-II-сон Қонунига мувофиқ тўққизинчи қисм чиқариб ташланган

Ягона солиқни, ялпи даромад солиғини, ягона ер солиғини тўлаш тартиби ва бундай солиқларнинг ставкалари Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан белгиланади.

17-модда. Ҳисоб ва ҳисобот

Тадбиркорлик фаолияти субъектлари ҳисоб ва ҳисоботни қонун ҳужжатларига мувофиқ юритадилар.

Кичик тадбиркорлик субъектлари фақат давлат статистика органлари ҳамда солиқ органларига белгиланган шаклда ҳисобот тақдим этадилар. (ЎзР 12.12.2003 й. 568-II-сон Қонуни таҳриридаги қисм)

Давлат бошқарув органлари ва маҳаллий давлат ҳокимияти органлари томонидан тадбиркорлик субъектлари учун қонун ҳужжатларида назарда тутилмаган қўшимча ҳисобот турларини белгилаш ман этилади.

III. ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИ СУБЪЕКТЛАРИ ҲУҚУҚЛАРИНИНГ КАФОЛАТЛАРИ

18-модда. Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг конституциявий кафолатлари

19-модда. Тадбиркорлик субъектларининг қонун ҳужжатларида ман этилмаган ҳар қандай фаолиятни амалга ошириш эркинлиги кафолатлари

20-модда. Тадбиркорлик субъектларининг ўз маҳсулоти (ишлари, хизматлари) ва даромадларини (фойдани) тасарруф этиш эркинлиги кафолатлари

21-модда. Пул маблағларини тасарруф этиш кафолатлари

22-модда. Тадбиркорлик фаолияти субъектларининг ташқи иқтисодий фаолият эркинлиги кафолатлари

23-модда. Тадбиркорлик фаолияти субъектларининг мулк ҳуқуқи ва бошқа ашёвий ҳуқуқлари кафолатлари

24-модда. Фермер хўжаликларининг ер участкаларидан фойдаланиш ҳуқуқи кафолатлари

25-модда. Деҳқон хўжаликларининг ер участкаларидан фойдаланиш ҳуқуқи кафолатлари

26-модда. Якка тартибдаги тадбиркорликни ўз номидан амалга ошириш ҳуқуқи кафолатлари

27-модда. Тадбиркорлик субъектларининг хом ашё, товарлар ва хизматлар бозорларига эркин кириш кафолатлари

28-модда. Фермер ва деҳқон хўжаликларининг моддий-техника

ресурслари, уруғлик материаллар, кўчатлар ва зотдор чорвадан эркин фойдаланиш кафолатлари

29-модда. Фермер ва деҳқон хўжаликларининг сув истеъмолини амалга ошириш кафолатлари

30-модда. Кредит ресурсларидан эркин фойдаланиш кафолатлари

31-модда. Ахборот олиш эркинлиги кафолатлари

32-модда. Национализация, мусодара ва реквизиция қилинишидан кафолатлари

33-модда. Фирма номи, товар белгисидан (хизмат кўрсатиш белгисидан) фойдаланиш кафолатлари

34-модда. Тадбиркорлик фаолиятига аралашмаслик кафолатлари

18-модда. Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг конституциявий кафолатлари

Давлат иқтисодий фаолият, тадбиркорлик эркинлигини, барча мулк шакллариининг тенг ҳуқуқлилигини ва ҳуқуқий жиҳатдан баб-баравар муҳофаза этилишини кафолатлайди.

Хусусий мулк бошқа мулк шакллари каби дахлсиз ва давлат ҳимоясидадир.

Мулкдор мулкига ўз хоҳишича эгалик қилади, ундан фойдаланади ва уни тасарруф этади.

Тадбиркорларга ўз ҳуқуқ ва эркинликларини суд орқали ҳимоя қилиш, давлат органлари, жамоат бирлашмаларининг ғайриқонуний қарорлари, уларнинг мансабдор шахсларининг ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) устидан судга шикоят қилиш ҳуқуқи кафолатланади.

19-модда. Тадбиркорлик субъектларининг қонун ҳужжатларида ман этилмаган ҳар қандай фаолиятни амалга ошириш эркинлиги кафолатлари

Юридик шахс бўлмиш тадбиркорлик фаолияти субъектларининг муассислари таъсис ҳужжатларида фаолиятнинг асосий турларини санаб ўтиш билан кифояланишга ҳақли. Тадбиркорлик фаолияти субъектлари қонун ҳужжатлари билан тақиқланмаган ва таъсис ҳужжатларида кўрсатилмаган ҳар қандай фаолият тури билан қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда шуғулланишлари мумкин.

20-модда. Тадбиркорлик субъектларининг ўз маҳсулоти (ишлари, хизматлари) ва даромадларини (фойдани) тасарруф этиш эркинлиги кафолатлари

Тадбиркорлик фаолияти субъектлари ўзлари ишлаб чиқарган маҳсулотнинг (бажарган ишлар, кўрсатилган хизматларнинг) ҳамда уларни реализация қилишдан олган даромадларининг (фойданинг) мулкдоридир.

Тадбиркорлик фаолияти субъектларининг барча ишлаб чиқариш харажатлари қопланиб, солиқлар ва бошқа мажбурий

тўловлар тўланганидан кейин қолган даромади (фойдаси) улар томонидан ихтиёрий равишда ишлатилади, суд тартибидаги мажбурий ундирув ҳоллари бундан мустасно. (ЎзР 31.12.2008 й. ЎРҚ-197-сон Қонуни таҳриридаги қисм)

21-модда. Пул маблағарини тасарруф этиш кафолатлари

Тадбиркорлик фаолияти субъектлари ўз пул маблағларини мустақил равишда тасарруф этадилар.

Банк муассасалари тадбиркорлик фаолияти субъектларининг пул маблағларидан фойдаланиш йўналишларини белгилаб бериш ва назорат қилишга ҳамда пул маблағларини ўз ихтиёрига кўра тасарруф этиш борасидаги ҳуқуқларини қонунда ёки банк ҳисобварағи шартномасида назарда тутилмаган бошқа чеклашларни белгилашга ҳақли эмас.

Тадбиркорлик фаолияти субъектларининг уларга хизмат кўрсатувчи банк муассасалари ҳисобварақларидаги маблағлари қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда нақд пул шаклида олиниши мумкин.

22-модда. Тадбиркорлик фаолияти субъектларининг ташқи иқтисодий фаолият эркинлиги кафолатлари

Тадбиркорлик фаолияти субъектлари қонун ҳужжатларига мувофиқ, ташқи иқтисодий фаолиятни мустақил тарзда амалга оширадилар.

Тадбиркорлик фаолияти субъектларининг давлат рўйхатидан ўтказилганлиги валюта ҳисобварақларини очиш ва ташқи иқтисодий фаолиятни амалга ошириш учун асос бўлади. Товарларни импорт қилувчи якка тартибдаги тадбиркорларнинг ташқи иқтисодий алоқалар иштирокчиси сифатида рўйхатдан ўтказилганлиги ҳам бундай тадбиркорларга ташқи иқтисодий фаолиятни амалга ошириш учун асос бўлади. (ЎзР 03.12.2004 й. 714-II-сон Қонуни таҳриридаги қисм), (Олдинги таҳририга қаранг)

23-модда. Тадбиркорлик фаолияти субъектларининг мулк ҳуқуқи ва бошқа ашёвий ҳуқуқлари кафолатлари

Тадбиркорлик фаолияти субъектларининг мулки дахлсиздир ва қонун билан муҳофаза қилинади.

Мол-мулк мулкдори ўз мол-мулкига нисбатан қонунга зид бўлмаган ҳар қандай ҳаракатни қилишга ҳақли.

Тадбиркорлик фаолияти субъектидан мулкни олиб қўйишга, унинг бошқа ашёвий ҳуқуқларини бекор қилишга,

шунингдек бундай ҳуқуқларни чеклашга йўл қўйилмайди, қонунда назарда тутилган ҳоллар бундан мустасно.

Тадбиркорлик фаолияти субъектларининг ашёвий ҳуқуқлари қонунларда назарда тутилган тартибда ҳимоя қилинади.

24-модда. Фермер хўжалиklarининг ер участкаларидан фойдаланиш ҳуқуқи кафолатлари

Фуқароларга фермер хўжалиги юритиш учун ер участкалари эллик йилгача бўлган, лекин ўн йилдан кам бўлмаган муддатга ижарага берилади.

Ер участкаси ёки унинг бир қисмини олиб қўйишга фақат ер тўғрисидаги қонун ҳужжатларида назарда тутилган ҳолларда ва тартибда йўл қўйилади.

Ер участкасининг ижара шартномаси тарафларнинг келишувига биноан, тарафлар ўртасида келишувга эришилмаган тақдирда эса суд томонидан ўзгартирилиши ёки бекор қилиниши мумкин.

Фермер хўжалиги тугатилган тақдирда уни юритиш учун берилган ер участкасининг ижара шартномаси қонунда белгиланган тартибда бекор қилиниши керак.

25-модда. Деҳқон хўжалиklarининг ер участкаларидан фойдаланиш ҳуқуқи кафолатлари

Деҳқон хўжалигининг ерга эгалик қилиш ва ердан фойдаланиш соҳасидаги ҳуқуқлари ва мажбуриятлари қонун ҳужжатлари билан белгилаб қўйилади.

Деҳқон хўжалигига берилган томорқа ер участкаси бўлинмайди.

Томорқа ер участкасининг ўлчамлари ва чегараси фақат деҳқон хўжалиги бошлиғининг розилиги билан ўзгартирилиши мумкин.

Деҳқон хўжалигининг ер участкасини олиб қўйишга қонунда назарда тутилган ҳолларда, қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда шунга тенг бошқа ер участкаси берилиб, бузиб ташланаётган бинолар ва иншоотлар қиймати қопланганидан ёки бошқа жойга кўчирилганидан ёхуд бошқа бино ва иншоотлар қуриб берилганидан кейингина йўл қўйилади.

26-модда. Якка тартибдаги тадбиркорликни ўз номидан амалга ошириш ҳуқуқи кафолатлари

Якка тартибдаги тадбиркор ўз номидан тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланади, ҳуқуқлар ва мажбуриятларга эга бўлади ҳамда уларни амалга оширади.

Жисмоний шахс ўзининг тадбиркорлик фаолияти билан боғлиқ битимларни тузаётганида, агар бунинг моҳияти тузилаётган битимнинг мазмунидан аниқ келиб чиқмаса, якка тартибдаги Тадбиркор тариқасида ҳаракат қилаётганлигини кўрсатиши лозим. Бундай эслатманинг бўлмаслиги якка тартибдаги тадбиркорни ўз мажбуриятлари юзасидан зиммасидаги жавобгарликдан озод этмайди.

Фермер ва деҳқон хўжаликларининг сувдан фойдаланиш ҳуқуқларини давлат бошқаруви органлари ва Маҳаллий давлат ҳокимияти органлари томонидан чеклашга фақат қонунда белгиланган ҳолларда йўл қўйилади.

Якка тартибдаги тадбиркор ўз фаолиятини амалга ошираётганда шахсий иш ҳужжатлари бланкаларидан, муҳр, штамплардан фойдаланишга ҳақли, уларнинг матнлари мазкур шахс якка тартибдаги тадбиркор эканлигидан далолат бериши лозим.

27-модда. Тадбиркорлик субъектларининг хом ашё, товарлар ва хизматлар бозорларига эркин кириш кафолатлари

Тадбиркорлик фаолияти субъектлари, мулк шакли ва хўжалик юритиш шаклларида қатъи назар, хом ашё, товарлар ва хизматлар бозорига эркин киришда, шунингдек давлат эҳтиёжлари учун айрим товар турларини етказиб беришда қатнашишда, ишлар бажариш ва хизматлар кўрсатишда тенг имкониятларга эга. Тадбиркорлик фаолияти субъектларининг хом ашё, товарлар ва хизматлар бозорига кириш эркинлиги давлат бошқарув органлари, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари, шунингдек уларнинг мансабдор шахслари томонидан бирон-бир тарзда чекланишига йўл қўйилмайди.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси тадбиркорлик фаолияти субъектларининг хом ашё, айрим товарлар ва хизматлар бозорига киришнинг алоҳида шартларини белгилаши мумкин.

28-модда. Фермер ва деҳқон хўжаликларининг моддий-техника ресурслари, уруғлик материаллар, кўчатлар ва зотдор чорвадан эркин фойдаланиш кафолатлари

Фермер ва деҳқон хўжаликлари моддий-техника ресурслари, шу жумладан, ёнилғи-мойлаш материаллари,

омихта ем, органик ва минерал ўғитлар бозорларига эркин киришда бошқа хўжалик юритиш субъектлари билан тенг ҳуқуқларга эга.

Давлат бошқарув органлари, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари, қишлоқ хўжалиги кооперативлари (ширкат хўжаликлари) фермер ва деҳқон хўжалиklarининг уруғлик материалларга, кўчатларга, қишлоқ хўжалиги экинларини зараркунанда ва касалликлардан ҳимоя қилиш воситаларига, зотдор чорвага бўлган эҳтиёжларини таъминлаш юзасидан шароит яратиб берадилар.

29-модда. Фермер ва деҳқон хўжалиklarининг сув истеъмолини амалга ошириш кафолатлари
(ЎЗР 25.12.2009 й. ЎРҚ-240-сон Қонуни таҳриридаги модда)
(Олдинги таҳририга қаранг)

Фермер ва деҳқон хўжаликлари сув истеъмолини уларга хизмат кўрсатувчи сув истеъмолчилари уюшмалари томонидан белгиланадиган сув объектларидан ҳар йилги сув олиш лимитлари асосида бошқа қишлоқ хўжалиги корхоналари билан тенг ҳуқуқларда амалга оширади.

Фермер ва деҳқон хўжалиklarининг сув объектларидан сув олиш лимитлари уларнинг розилигисиз ўзгартирилиши мумкин эмас, манбаларнинг суви камайган ҳоллар бундан мустасно.

Фермер ва деҳқон хўжалиklarининг сув истеъмоли ҳуқуқини давлат бошқаруви органлари ва маҳаллий давлат ҳокимияти органлари томонидан чеклашга фақат қонунда белгиланган ҳолларда йўл қўйилади.

30-модда. Кредит ресурсларидан эркин фойдаланиш кафолатлари

Тадбиркорлик фаолияти субъектлари кредит ресурсларидан эркин фойдаланишда қонун ҳужжатларига мувофиқ, тенг ҳуқуқларга эга.

Бюджетдан ташқари фондлар маблағларидан тадбиркорлик фаолиятининг устувор йўналишларини ривожлантиришга ажратиладиган кредитлардан фойдаланганлик учун давлат томонидан имтиёзли фоиз ставкалари белгиланиши мумкин.

Давлат тадбиркорлик фаолияти субъектларини имтиёзли кредитлашни амалга оширувчи тижорат банкларига қулай шароитлар яратиши мумкин.

31-модда. Ахборот олиш эркинлиги кафолатлари

Давлат органлари, уларнинг мансабдор шахслари тадбиркорлик фаолияти субъектларига бу субъектларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларига дахлдор қонун ҳужжатлари, ҳужжатлар, қарорлар ва бошқа материаллар билан танишиш имкониятини таъминлаши шарт. Ахборот олиш эркинлиги қонун ҳужжатларини ва тегишли материалларни эълон қилиш ва тарқатиш йўли билан таъминланади.

Тадбиркорлик субъектларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларига дахлдор ахборот бепул берилади. Бошқа ахборотларни берганлик учун тарафлар келишуви асосида ҳақ ундирилиши мумкин.

Давлат статистика органлари ҳамма эркин фойдаланиши мумкин бўлган статистика ахбороти мунтазам эълон қилиб борилишини таъминлайди.

32-модда. Национализация, мусодара ва реквизиция қилинишидан кафолатлари

Тадбиркорлик фаолияти субъектларининг мол-мулки национализация ва мусодара қилинмайди, қонунда назарда тутилган ҳоллар бундан мустасно.

Тадбиркорлик фаолияти субъектларининг мол-мулки реквизиция қилинмайди, табиий офатлар, авариялар, эпидемиялар, эпизоотиялар ва фавқулодда тусдаги бошқа ҳолатлар бундан мустасно бўлиб, унда мулкдорга реквизиция қилинаётган мол-мулк қиймати тўланади. Реквизиция тўғрисидаги қарор давлат ҳокимияти органлари томонидан қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда ва шартларда қабул қилинади.

Тадбиркорлик фаолияти субъектлари национализация, мусодара ва реквизиция қилиш тўғрисидаги қарор устидан суд тартибида шикоят қилишга ҳақли.

33-модда. Фирма номи, товар белгисидан (хизмат кўрсатиш белгисидан) фойдаланиш кафолатлари

Юридик шахс бўлган тадбиркорлик фаолияти субъекти фирма номига бўлган ҳуқуққа эга бўлиб, бу ном унинг таъсис ҳужжатларида кўрсатилади. Фирма номига бўлган ҳуқуқ тадбиркорлик фаолияти субъекти давлат рўйхатидан ўтказилган вақтдан эътиборан юзага келади. (ЎзР 18.09.2006 й. ЎРҚ-52-сон Қонуни таҳриридаги қисм), (Олдинги таҳририга қаранг)

Тадбиркорлик фаолияти субъектларининг илгари рўйхатдан ўтказилган фирма номига жуда ўхшаш бўлиб, тегишли тадбиркорлик субъектларини айнан бир хил

ҳисоблашга олиб келиши мумкин бўлган фирма номи рўйхатга олинishi мумкин эмас.

Товар белгисидан (хизмат кўрсатиш белгисидан) фойдаланиш ҳуқуқи унинг рўйхатга олинганлиги асосида берилади.

Фирма номидан, товар белгисидан (хизмат кўрсатиш белгисидан) фойдаланиш, уларга ўзгартишлар ва қўшимчалар киритишга бўлган мутлақ ҳуқуқ ана шу ном ва белги эгасига тегишли бўлади.

Фирма номини, товар белгисини (хизмат кўрсатиш белгисини) нашр қилганда, омма орасида ижро этганда ёки улардан бошқа тарзда фойдаланганда фирма номининг, товар белгисининг (хизмат кўрсатиш белгисининг) ўзига, худди шунингдек уларнинг ифодасига бирон-бир ўзгартишлар киритишга фақат уларнинг эгаси розилиги билан йўл қўйилади.

Фирма номи, товар белгиси (хизмат кўрсатиш белгиси) дахлсизлигига бўлган ҳуқуқ фирма номи, товар белгиси (хизмат кўрсатиш белгиси) эгасига тегишлидир.

34-модда. Тадбиркорлик фаолиятига аралашмаслик кафолатлари

Давлат органлари ва уларнинг мансабдор шахслари тадбиркорлик фаолияти субъектларининг қонун ҳужжатларига мувофиқ амалга ошириладиган фаолиятига аралашишга ҳақли эмас.

Давлат органлари ва уларнинг мансабдор шахслари қоидабузарлик мавжудлиги фактидан тадбиркорлик фаолияти субъектларининг қонуний фаолиятига аралашиш ёки уни чеклаш учун асос сифатида фойдаланиши мумкин эмас.

Маҳаллий давлат ҳокимияти органлари ҳамда қишлоқ хўжалиги кооперативлари (ширкат хўжаликлари) деҳқон ва фермер хўжаликларининг тадбиркорлик фаолиятига, шу жумладан, уларнинг агротехника усулларини, етиштириладиган маҳсулот турини танлашига, ана шу маҳсулотнинг баҳосини ҳамда реализация қилиш йўналишини белгилаш ишларига аралашишга ҳақли эмас, давлат эҳтиёжлари учун мўлжалланган харидлар бундан мустасно.

IV. ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИ СУБЪЕКТЛАРИ ҲУҚУҚЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШ

35-модда. Тадбиркорлик фаолияти субъектининг ишчанлик обрўсини ҳимоя қилиш

36-модда. Интеллектуал фаолият натижаларини ҳимоя қилиш

37-модда. Тадбиркорлик фаолияти субъектларининг тижорат сири ва ошкор этилмаган ахборотини ҳимоя қилиш

38-модда. Тадбиркорлик фаолияти субъектига етказилган зарарнинг ўрнини қоплаш

39-модда. Тадбиркорлик субъектлари фаолиятини текширишларнинг чекланганлиги

39-1-модда. Тадбиркорлик субъектларига нисбатан молиявий жазо чоралари қўлланилмаслиги

40-модда. Текширишни амалга ошираётган мансабдор шахсларга доир талаблар

40-1-модда. Тадбиркорлик субъектларига нисбатан уларнинг фаолиятини чекловчи чораларни қўллаш

35-модда. Тадбиркорлик фаолияти субъектининг ишчанлик обрўсини ҳимоя қилиш

Тадбиркорлик фаолияти субъекти ўз ишчанлик обрўсига путур етказадиган маълумотларга раддия берилишини суд орқали талаб қилишга ҳақли.

Агар тадбиркорлик фаолияти субъектининг ишчанлик обрўсига путур етказадиган маълумотлар оммавий ахборот воситаларида тарқатилган бўлса, бу маълумотларга раддия айти шу оммавий ахборот воситаларида берилиши лозим. Агар бундай маълумотлар ташкилотдан олинган ҳужжатда мавжуд бўлса, бундай ҳужжат алмаштирилиши ёки чақириб олиниши керак. Бошқа ҳолларда раддия бериш тартиби суд томонидан белгиланади.

Тадбиркорлик фаолияти субъекти ўзининг ишчанлик обрўсига путур етказадиган маълумотлар тарқатилганда, бундай маълумотларга раддия берилиши билан бир қаторда уларнинг тарқатилиши оқибатида етказилган зарарнинг ўрни қопланишини ва маънавий зарар учун товон тўланишини талаб қилишга ҳақли.

36-модда. Интеллектуал фаолият натижаларини ҳимоя қилиш

Тадбиркорлик фаолияти субъектларининг холисона ифодаланган интеллектуал фаолият натижаларига ҳамда унинг ўзига хос воситаларига (фирма номи, товар белгиси, хизмат кўрсатиш белгиси ва ҳоказоларга) бўлган мутлақ ҳуқуқи қонун билан муҳофаза этилади ва давлат томонидан ҳимоя қилинади.

Мутлақ, ҳуқуқлар объектлари бўлган интеллектуал фаолият натижалари ва ўзига хос воситалардан учинчи шахслар фақат ҳуқуқ. эгасининг розилиги билан фойдаланишлари мумкин.

37-модда. Тадбиркорлик фаолияти субъектларининг тижорат сири ва ошкор этилмаган ахборотини ҳимоя қилиш

Тижорат сири бўлган, учинчи шахсларга маълум бўлмаган ахборот (ошкор этилмаган ахборот) учинчи шахсларга маълум эмаслиги, қонуний асосда ундан эркин фойдалана олиш мумкин эмаслиги ҳамда ахборотнинг эгаси унинг махфийлигини муҳофаза қилиш чораларини кўраётганлиги туфайли ҳақиқий ёки потенциал тижорат қийматига эга бўлган ҳолларда ҳимоя қилинади.

Ошкор этилмаган ахборотни ноқонуний фойдаланишдан ҳимоя қилиш ҳуқуқи бу ахборотга нисбатан бирон-бир расмиятчиликни бажаришдан (уни давлат рўйхатидан ўтказиш, гувоҳнома олиш ва ҳоказодан) қатъи назар вужудга келади.

Ошкор этилмаган ахборотни ҳимоя қилиш қоидалари қонунга мувофиқ, хизмат ёки тижорат сири бўла олмайдиган маълумотларга (давлат рўйхатидан ўтказилиши керак бўлган юридик шахслар тўғрисидаги, мол-мулкка бўлган ҳуқуқлар ҳамда мол-мулк хусусида тузилган битимлар ҳақидаги маълумотларга, давлат статистика ҳисоботи тариқасида тақдим этилиши керак бўлган маълумотларга ва бошқа маълумотларга) нисбатан татбиқ этилмайди.

Ошкор этилмаган ахборотни қонуний асосларсиз олган ёки тарқалган ёхуд ундан фойдаланаётган шахс ахборотдан ноқонуний фойдаланганлик оқибатида бу ахборотнинг қонуний эгасига етказилган зарарнинг ўрнини қоплаши шарт.

Ошкор этилмаган ахборот мазмунини ташкил этувчи маълумотларни мустақил равишда ва қонуний тарзда олган шахс бу маълумотлардан, тегишли ошкор этилмаган ахборот эгасининг ҳуқуқларидан қатъи назар, фойдаланишга ҳақли ва бундай фойдаланганлик учун унинг олдида жавоб бермайди.

38-модда. Тадбиркорлик фаолияти субъектига етказилган зарарнинг ўрнини қоплаш

Тадбиркорлик фаолияти субъектига етказилган зарарнинг ўрни бу зарарни етказган шахс томонидан тўла ҳажмда, шу жумладан, бой берилган фойдани қўшиб қопланиши керак. Зарар етказувчи бўлмаган шахс зиммасига қонун билан зарарнинг ўрнини қоплаш мажбурияти юклатилиши мумкин.

Давлат органларининг, фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг ноқонуний қарорлари натижасида тадбиркорлик фаолияти субъектига етказилган зарарнинг ўрни, уларнинг мансабдор шахслари айбидан қатъи назар, суднинг қарори асосида қопланиши керак.

Давлат органлари, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари мансабдор шахсларининг ноқонуний ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) оқибатида тадбиркорлик фаолияти субъектига етказилган зарарнинг ўрни суднинг қарори асосида қопланиши керак.

**39-модда. Тадбиркорлик субъектлари
фаолиятини текширишларнинг чекланганлиги**
(ЎзР 23.03.2006 й. ЎРҚ-26-сон Қонуни таҳриридаги модда),
(Олдинги таҳририга қаранг)

Тадбиркорлик субъектларининг фаолиятини текширишлар назорат қилувчи органлар фаолиятини мувофиқлаштириш бўйича махсус ваколатли органнинг қарорига биноан назорат қилувчи органлар томонидан режали тартибда кўпи билан йилига бир марта амалга оширилиши мумкин, хусусий корхоналар ва ушбу модданинг иккинчи-бешинчи қисмларида назарда тутилган ҳоллар бундан мустасно.

Белгиланган нормалар ва қоидаларга ўз вақтида ҳамда тўла ҳажмда риоя қилувчи тадбиркорлик субъектларининг фаолиятини текширишлар назорат қилувчи органлар томонидан кўпи билан икки йилда бир марта амалга оширилади, ушбу моддада назарда тутилган ҳоллар бундан мустасно.

Хусусий корхоналар фаолиятини текширишлар назорат қилувчи органлар томонидан кўпи билан икки йилда бир марта, белгиланган тартибда амалга оширилиши мумкин, қонун ҳужжатларида назарда тутилган ҳоллар бундан мустасно.

Микрофирмалар, кичик корхоналар ва фермер хўжаликларининг молия-хўжалик фаолиятини режали текширишлар кўпи билан тўрт йилда бир марта, бошқа тадбиркорлик субъектларининг молия-хўжалик фаолиятини режали текширишлар кўпи билан уч йилда бир марта амалга оширилади.

Янги ташкил этилган микрофирмалар, кичик корхоналар ва фермер хўжаликларининг молия-хўжалик фаолияти улар давлат рўйхатидан ўтказилган пайтдан эътиборан икки йил мобайнида режали текширувлардан ўтказилиши мумкин эмас.

Тадбиркорлик субъектларининг фаолиятини текширувлардан ўтказиш муддатлари ўттиз календарь кундан ошмаслиги лозим. Алоҳида ҳолларда бу муддат назорат қилувчи органлар фаолиятини мувофиқлаштириш бўйича махсус ваколатли органнинг қарорига биноан узайтирилиши мумкин.

Ўтказилаётган текширишлар тадбиркорлик субъектларининг фаолият кўрсатишига тўсқинлик қилмаслиги керак.

Ўзбекистон Республикаси Савдо-саноат палатасига аъзо тадбиркорлик субъектларининг фаолиятини текширишлар мазкур Палата вакиллари иштирокида амалга оширилиши мумкин.

Прокуратура, ички ишлар ва миллий хавфсизлик хизмати органлари томонидан тадбиркорлик фаолияти субъектларининг фаолиятини текширувлардан ўтказиш учун қўзғатилган жиноят ишининг мавжудлиги асос бўлади. Бунда тадбиркорлик фаолияти субъектининг қўзғатилган жиноят иши билан боғлиқ фаолиятигина текширув билан қамраб олиниши мумкин бўлиб, бу ҳақда текширув тайинланганлиги тўғрисидаги қарорда кўрсатилган бўлиши керак.

Тадбиркорлик субъектларининг молия-хўжалик фаолиятини текширишлар белгиланган тартибда фақат давлат солиқ хизмати органлари томонидан, мазкур органлар текширишлар давомида солиқ ва валютага оид жиноятлар аломатларини аниқлаганида эса Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси ҳузуридаги Солиқ ва валютага оид жиноятларга қарши курашиш департаменти томонидан амалга оширилади.

Тадбиркорлик фаолияти субъектлари назорат қилувчи ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларнинг ваколатига кирмайдиган масалалар бўйича уларнинг талабларини бажармаслик ҳамда текшириш предметига тааллуқли бўлмаган материаллар билан уларни таништирмаслик ҳуқуқига эга.

Текширишлар натижалари далолатнома (маълумотнома) билан расмийлаштирилади, унинг бир нусхаси текширилаётган тадбиркорлик фаолияти субъектида қолади.

39-1-модда. Тадбиркорлик субъектларига нисбатан молиявий жазо чоралари қўлланилмаслиги (ЎзР 23.03.2006 й. ЎРҚ-26-сон Қонуни таҳриридаги модда)

Тадбиркорлик субъектлари назорат органларининг текширишлар натижалари бўйича кўрсатмаларини бажарган, шунингдек зарарнинг ўрнини белгиланган муддатларда ва

тўла ҳажмда ихтиёрий равишда қоплаган, шу жумладан, пеня тўлаган тақдирда, уларга нисбатан молиявий жазо чоралари қўлланилмайди.

40-модда. Текширишни амалга ошираётган мансабдор шахсларга доир талаблар

Тадбиркорлик фаолияти субъектларининг фаолиятини текшириш назорат қилувчи ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларнинг мансабдор шахслари томонидан амалга оширилади.

Назорат қилувчи органларнинг мансабдор шахслари тадбиркорлик фаолияти субъектларининг фаолиятини текширишга киришишига мазкур шахсларда назорат қилувчи органлар фаолиятини мувофиқлаштириш бўйича махсус ваколатли орган томонидан тасдиқланган текширишни ўтказиш режасидан кўчирма, назорат қилувчи органнинг текширувчи мансабдор шахслар таркиби ҳамда текширишни ўтказиш муддатлари кўрсатилган буйруғи нусхаси, текширувчи мансабдор шахсларнинг шахсий гувоҳномалари бўлган тақдирда йўл қўйилади.

Тадбиркорлик субъектларининг фаолияти текширилаётганда назорат қилувчи ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларнинг мансабдор шахслари текширишларни рўйхатга олиш китобига қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда тегишли ёзувни киритадилар.

40-1-модда. Тадбиркорлик субъектларига нисбатан уларнинг фаолиятини чекловчи чораларни қўллаш

Қонун ҳужжатларида назарда тутилган ҳолларда тадбиркорлик субъектларига нисбатан уларнинг фаолиятини чекловчи чоралар қўлланилади. Бунда тадбиркорлик субъектларига нисбатан қуйидаги ҳуқуқий таъсир чоралари фақат суд тартибида қўлланилади:

фаолиятни тугатиш;

фаолиятни тўхтатиб қўйиш, бундан фавқулодда вазиятлар, эпидемиялар ҳамда аҳолининг ҳаёти ва саломатлиги учун бошқа реал хавф юзага келишининг олдини олиш билан боғлиқ ҳолда ўн иш кунидан кўп бўлмаган муддатга тўхтатиб қўйиш ҳоллари мустасно;

банклардаги ҳисобварақлар бўйича операцияларни тўхтатиб қўйиш, бундан қонунда назарда тутилган ҳоллар мустасно; (ЎзР 15.09.2010 й. ЎРҚ-256-сон Қонуни таҳриридаги хатбоши) (Олдинги таҳририга қаранг)

молиявий жазо чораларини қўллаш, бундан солиқлар ва бошқа мажбурий тўловларни тўлаш муддатини ўтказиб юборганлик учун пеня ҳисоблаб чиқариш, шунингдек тадбиркорлик субъектининг содир этилган ҳуқуқбузарликдаги айбига иқроп бўлганлиги ва молиявий жазо чоралари суммаларини ихтиёрий равишда тўлаганлиги ҳоллари мустасно; (ЎзР 31.12.2008 й. ЎРҚ-197-сон Қонуни таҳриридаги хат боши)

ҳуқуқбузарлик предметларини давлат даромадига ўтказиш;

тадбиркорлик фаолиятининг айрим турлари билан шуғулланиш учун берилган лицензияни (рухсатномани) ўн иш кунидан кўп бўлган муддатга тўхтатиб қўйиш ёки унинг амал қилишини тугатиш ва лицензияни (рухсатномани) бекор қилиш (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ва Ўзбекистон Республикаси Марказий банки томонидан бериладиган лицензиялар бундан мустасно). (ЎзР 10.10.2006 й. ЎРҚ-59-сон Қонуни таҳриридаги модда)

V. ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИНИ ДАВЛАТ ЙЎЛИ БИЛАН ҚўЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ

41-модда. Давлат бошқарув органларининг тадбиркорлик фаолиятини қўллаб-қувватлаш соҳасидаги ваколатлари

42-модда. Маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг тадбиркорлик фаолиятини қўллаб-қувватлаш соҳасидаги ваколатлари

43-модда. Тадбиркорликни ривожлантиришнинг давлат томонидан рағбатлантирилиши

44-модда. Тадбиркорлик фаолиятини қўллаб-қувватлаш фондлари

45-модда. Тезлаштирилган амортизация

46-модда. Кичик ва хусусий тадбиркорлик субъектларига энергия таъминоти манбаи истеъмолдаги имтиёзлар

47-модда. Тадбиркорлик фаолияти учун Кадрлар тайёрлашни

давлат йўли билан қўллаб-қувватлаш

41-модда. Давлат бошқарув органларининг тадбиркорлик

фаолиятини қўллаб-қувватлаш соҳасидаги ваколатлари

Давлат бошқарув органлари ўз ваколатлари доирасида:

тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисидаги қонун ҳужжатларига риоя этилиши ва тадбиркорлик фаолиятининг ривожлантирилиши устидан

мониторингни, мавжуд муаммоларни ўрганишни ҳамда тадбиркорликнинг ҳуқуқий кафолатларини мустаҳкамлашга қаратилган норматив ҳужжатларни такомиллаштириш юзасидан таклифлар киритишни амалга оширади;

тадбиркорлик фаолияти субъектларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатлари ҳимоя қилинишини таъминлайди;

тадбиркорлик фаолияти субъектларига молиявий, моддий-техник ва ахборот ресурсларидан эркин фойдаланишда кўмаклашади;

тадбиркорлик фаолияти субъектларига ўз маҳсулотларини ташқи ва ички бозорларда реализация қилишда кўмаклашади;

тадбиркорлик фаолияти субъектлари ўртасида ахборот ва тушунтириш ишларини, консалтинг, лизинг, суғурта ва бошқа хил хизматлар тизими ривожлантирилишини ташкил этади;

тадбиркорлик фаолияти субъектларига кадрларни тайёрлашда, қайта тайёрлашда ва уларнинг малакасини оширишда кўмаклашади;

тадбиркорликни қўллаб-қувватлашга қаратилган бошқа фаолиятни амалга оширади.

42-модда. Маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг тадбиркорлик фаолиятини қўллаб-қувватлаш соҳасидаги ваколатлари

Маҳаллий давлат ҳокимияти органлари ўз ваколатлари доирасида:

тадбиркорликни ривожлантириш ҳудудий дастурларини ишлаб чиқади ва амалга оширади;

тадбиркорлик субъектларининг фаолиятини ҳимоя қилишнинг қўшимча кафолатлари ва чораларини белгилайди;

қонун ҳужжатларига мувофиқ маҳаллий солиқлар бўйича имтиёзларни белгилайди; (ЎЗР 31.12.2008 й. ЎРҚ-197-сон Қонуни таҳриридаги хат боши), (Олдинги таҳририга қаранг)

тадбиркорликни қўллаб-қувватлашга қаратилган бошқа фаолиятни амалга оширади.

43-модда. Тадбиркорликни ривожлантиришнинг давлат томонидан рағбатлантирилиши

Тадбиркорлик фаолиятини давлат томонидан рағбатлантириш қуйидаги йўллар билан амалга оширилади:

тадбиркорлик соҳасига инвестицияларни (шу жумладан, чет эл инвестицияларни), замонавий технологиялар ва ускуналарни жалб этиш учун, шунингдек бозор инфратузилмаси институтларини ривожлантириш учун шароитлар яратиш;

экспорт-импорт операциялари, халқаро кўргазмалар ва ярмаркаларда, ташқи иқтисодий фаолият соҳасидаги дастурлар ва лойиҳаларни амалга оширишда тадбиркорлик фаолияти субъектларининг иштирокини кенгайтириш чора-тадбирларини кўриш;

тадбиркорлик фаолияти субъектлари самарали фаолият юритиши учун уларни зарур ҳуқуқий, иқтисодий, статистик, ишлаб чиқариш-технологик, илмий-техник ва бошқа хил ахборотлар билан таъминлаш;

зооветеринария хизмати кўрсатилиши учун зарур шароитлар яратиш;

солиқлар, бошқа мажбурий тўловлар ва тарифлар бўйича имтиёзлар белгилаш. (ЎзР 31.12.2008 й. ЎРҚ-197-сон Қонуни таҳриридаги хат боши)

Тадбиркорлик фаолиятини давлат томонидан рағбатлантириш қонун ҳужжатларига мувофиқ бошқа усуллар билан ҳам амалга оширилиши мумкин.

44-модда. Тадбиркорлик фаолиятини қўллаб-қувватлаш фондлари

Тадбиркорлик фаолиятини қўллаб-қувватлаш ва рағбатлантириш мақсадларида қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда фондлар тузилиши мумкин.

45-модда. Тезлаштирилган амортизация

Кичик ва хусусий тадбиркорлик субъектлари ишлаб чиқариш чиқимларига мўлжалланган харажатларга киритиб, асосий фондларнинг тезлаштирилган амортизациясини тегишли асосий фондлар учун белгиланган нормадан икки мартадан кўпроқ ошиб кетмайдиган миқдорда қўллашга ҳақли.

Кичик ва хусусий тадбиркорлик субъектлари амортизация ажратмалари ажратиб келинган ва уч йилдан кўпроқ муддат давомида ишлатилган асосий фондлар дастлабки қийматининг эллик фоизига қадарини ҳисобдан чиқариш ҳуқуқига эга.

Кичик ёки хусусий корхона ишга тушган пайтдан эътиборан икки йил ўтгунга қадар тугатилган тақдирда, қўшимча равишда ҳисоблаб чиқарилган (тезлаштирилган) амортизация суммаси кичик ёки хусусий корхонанинг баланс фойдаси кўпайиши ҳисобига қайтарилиши керак.

46-модда. Кичик ва хусусий тадбиркорлик субъектларига энергия таъминоти манбаи истеъмолидаги имтиёзлар

Энергия таъминоти манбаи бўйича қишлоқ хўжалик товари ишлаб чиқарувчилари учун белгиланган имтиёзли тарифлар

қишлоқ жойларда жойлашган ҳамда фаолият олиб бораётган кичик ва хусусий тадбиркорлик субъектларига ҳам татбиқ этилади.

47-модда. Тадбиркорлик фаолияти учун кадрлар тайёрлашни давлат йўли билан қўллаб-қувватлаш

Давлат тадбиркорлик фаолияти субъектлари кадрларини тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизими ривожлантирилишини таъминлайди.

Қишлоқ жойлардаги тадбиркорлик фаолияти субъектларининг кадрларини тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини оширишни амалга ошираётган муассасалар ва ташкилотлар қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда имтиёзлардан фойдаланадилар.

VI. ЯКУНИЙ ҚОИДАЛАР

48-модда. Тадбиркорлик фаолияти субъектини тугатиш (фаолиятини тўхтатиш)

49-модда. Давлат органлари ва бошқа органларнинг қарорлари, уларнинг мансабдор шахсларининг ҳаракатлари

(ҳаракатсизлиги) устидан шикоят қилиш

50-модда. Низоларни ҳал этиш

51-модда. Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисидаги қонун ҳужжатларини бузганлик учун жавобгарлик

48-модда. Тадбиркорлик фаолияти субъектини тугатиш (фаолиятини тўхтатиш)

Тадбиркорлик фаолияти субъектини тугатиш унинг мол-мулки мулкдорининг ёки бундай корхоналарни тузишга ваколатли органнинг қарорига мувофиқ ёхуд суднинг қарорига биноан амалга оширилади.

Тадбиркорлик фаолияти субъекти тугатилаётганида бўшаб қолаётган ходимларга қонун ҳужжатларига мувофиқ уларнинг ҳуқуқлари ва манфаатларига риоя этилиши кафолатланади.

Тадбиркорлик фаолияти субъекти у давлат реестридан чиқарилган пайдан эътиборан тугатилган деб ҳисобланади.

Тадбиркорлик субъекти фаолиятининг тўхтатилиши қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда амалга оширилади.

49-модда. Давлат органлари ва бошқа органларнинг қарорлари, уларнинг мансабдор шахсларининг ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) устидан шикоят қилиш

Тадбиркорлик субъектлари давлат органлари ва бошқа органларнинг ноқонуний қарорлари, уларнинг мансабдор шахсларининг ноқонуний ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) устидан ўз хоҳишларига кўра бўйсунув тартиби асосида юқори органлар ёки судга шикоят қилиш ҳуқуқига эга.

Тадбиркорлик субъектлари тадбиркорлик фаолиятини амалга ошириш билан боғлиқ ҳуқуқлари ва қонуний манфаатлари бузилганлиги юзасидан давлат органлари ва бошқа органларнинг қарори, уларнинг мансабдор шахсларининг ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) устидан судга мурожаат қилганда давлат божи тўлашдан озод этилади.

50-модда. Низоларни ҳал этиш

Тадбиркорлик субъектларининг фаолияти билан боғлиқ низолар қонун ҳужжатларида назарда тутилган тартибда ҳал этилади.

51-модда. Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисидаги қонун ҳужжатларини бузганлик учун жавобгарлик

Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисидаги қонун ҳужжатларини бузганликда айбдор шахслар белгиланган тартибда жавобгар бўладилар.

**Ўзбекистон
И. Каримов**

Республикасининг

Президенти

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНING ҚОНУНИ 27.12.1996 й. N 355-I

ТОВАР БОЗОРЛАРИДА МОНОПОЛИСТИК ФАОЛИЯТНИ ЧЕКЛАШ ВА РАҚОБАТ ТЎҒРИСИДА

Ушбу Қонунга қуйидагиларга мувофиқ ўзгартиришлар киритилган

ЎзР 20.08.1999 й 832-I-сон Қонуни,

ЎзР 15.12.2000 й. 175-II-сон Қонуни,

ЎзР 10.10.2006 й. ЎРҚ-59-сон Қонуни

I. Умумий қоидалар (1-4 моддалар)

II. Монополистик фаолият (5-8 моддалар)

III. Монополияга қарши давлат органи (9-13 моддалар)

IV. Рақобат устидан давлат назорати (14-16 моддалар)

V. Монополияга қарши қонун ҳужжатларини бузганлик учун жавобгарлик (17-19 моддалар)

VI. Монополияга қарши давлат органининг қарорлар қабул қилиши, улар устидан шикоят қилиш ва уларни ижро этиш тартиби (20-24 моддалар)

I. УМУМИЙ ҚОИДАЛАР

1-модда. Қонуннинг мақсади

2-модда. Қонунни татбиқ этиш соҳаси

3-модда. Асосий тушунчалар

4-модда. Халқаро шартномалар

1-модда. Қонуннинг мақсади

Ушбу Қонун товар бозорларида монополистик фаолият ва инсофсиз рақобатнинг олдини олиш, уни чеклаш, тўхтатишнинг ташкилий ва ҳуқуқий асосларини белгилаб беради, рақобат муносабатларининг шаклланиши ва самарали амал қилиши учун шароитлар таъминлашга қаратилган.

2-модда. Қонунни татбиқ этиш соҳаси

Ушбу Қонун Ўзбекистон Республикасининг юридик ва жисмоний шахслар, шу жумладан чет эллик шахслар, давлат бошқарув органлари ва маҳаллий давлат ҳокимияти органлари қатнашадиган товар бозорларидаги рақобатга таъсир кўрсатувчи муносабатларга нисбатан татбиқ этилади. Қонун

мазкур шахслар ва органларнинг Ўзбекистон Республикасидан ташқаридаги тегишинча ҳаракатлари ёки тузаётган битимлари Ўзбекистон Республикаси товар бозорларидаги рақобатнинг чекланишига олиб келаётган ёки олиб келиши мумкин бўлган ёхуд бошқа салбий оқибатларга сабаб бўлаётган ҳолларда ҳам қўлланилади.

Ушбу Қонун ихтиролар, саноат намуналари, товар белгилари, селекция ютуқлари ва муаллифлик ҳуқуқларини ҳуқуқий жиҳатдан ҳимоя қилиш нормалари билан тартибга солинадиган муносабатларга нисбатан татбиқ этилмайди, тегишли ҳуқуқлардан қасддан фойдаланиш рақобатнинг чекланишига олиб келадиган ҳоллар бундан мустасно.

Меҳнат, қимматли қоғозлар ва молиявий хизмат бозорларидаги монополистик фаолият ва инсофсиз рақобат билан боғлиқ муносабатлар Ўзбекистон Республикасининг бошқа қонун ҳужжатлари билан тартибга солинади, бу бозорларда вужудга келадиган муносабатлар товар бозорларидаги рақобатга таъсир кўрсатадиган ҳоллар бундан мустасно.

Қонун ҳужжатларида табиий монополиялар субъектлари фаолиятини давлат томонидан қўшимча равишда тартибга солиш назарда тутилиши мумкин. (ЎзР 10.10.2006 й. ЎРҚ-59-сон Қонуни таҳриридаги қисм), (Олдинги таҳририга қаранг)

Ушбу Қонуннинг қоидалари табиий монополиялар субъектларига нисбатан бу қоидаларнинг қўлланилиши ана шу субъектларнинг ўзига хос вазифаларини бажаришини чекламайдиган қисмигина қўлланилади. (ЎзР 10.10.2006 й. ЎРҚ-59-сон Қонуни таҳриридаги қисм), (Олдинги таҳририга қаранг)

3-модда. Асосий тушунчалар

Ушбу Қонунда қуйидаги асосий тушунчалар қўлланилади:

товар - сотиш (алмаштириш) учун мўлжалланган фаолият маҳсули бўлиб, ишлар ва хизматлар ҳам шунга киради;

бир-бирининг ўрнини босадиган товарлар - белгиланган вазифаси, қўлланилиши, сифати ва техникавий тавсифлари, нархи ва бошқа жиҳатларига кўра таққосланиши мумкин бўлган товарлар гуруҳи;

товар бозори - товарнинг Ўзбекистон Республикаси ҳудудидаги ёки унинг бир қисмидаги муомала доираси бўлиб, у республиканинг маъмурий-ҳудудий бўлинишига мос келиши ёки мос келмаслиги мумкин;

ҳўжалик юритувчи субъектлар - товарлар ишлаб чиқариш, сотиш, сотиб олиш ва хизматлар кўрсатиш фаолияти билан шуғулланувчи барча ташкилий-ҳуқуқий шаклдаги

юримдик шахслар, шу жумладан хорижий юримдик шахслар, уларнинг бирлашмалари, шунингдек юримдик шахс ташкил этмаган ҳолда тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланаётган жисмоний шахслар;

рақобат - хўжалик юритувчи субъектларнинг мусобақалашуви бўлиб, бунда уларнинг муस्ताқил ҳаракатлари ҳар бир субъект томонидан тегишли товар бозоридаги товарлар муомаласининг умумий шарт-шароитларига таъсир кўрсатиш имкониятини чеклайди;

инсофсиз рақобат - хўжалик юритувчи субъектларнинг тадбиркорлик фаолиятида устунликни қўлга киритишга қаратилган, қонун ҳужжатларига ва иш муомаласи одатларига зид бўлган, улар ўртасида мусобақалашувни истисно этадиган ва амалга оширилиши натижасида хўжалик юритувчи субъектларга тегишли товар бозорида товарлар муомаласининг умумий шарт-шароитларига таъсир кўрсатиш имконини берадиган ҳаракатлари;

устун мавқе - ўрнини босувчиси бўлмаган товар бозорида ёки бир-бирининг ўрнини босадиган товарлар бозорида хўжалик юритувчи субъектнинг (бир гуруҳ шахсларнинг) ўзига (ўзларига) рақобатни чеклашга ҳал қилувчи таъсир кўрсатиш, бошқа хўжалик юритувчи субъектларнинг бозорга кириш эркинлигини қийинлаштириш ёки уларнинг иқтисодий фаолият эркинлигини бошқача тарзда чеклаш имкониятини берадиган ҳукмрон мавқе. Бозордаги улуши олтмиш беш ва ундан ортиқ фоизни ташкил этадиган хўжалик юритувчи субъектнинг (бир гуруҳ шахсларнинг) мавқеи устун мавқе деб эътироф этилади. (ЎзР 20.08.1999 й. 832-1-сон Қонуни таҳриридаги хат боши)

Шунингдек хўжалик юритувчи субъектнинг бозордаги улуши ўттиз беш фоиздан олтмиш беш фоизгача бўлиб, бу ҳол монополияга қарши давлат органи томонидан:

хўжалик юритувчи субъектнинг бозордаги улуши барқарорлигига;

бозордаги рақобатчиларга тегишли улушларнинг нисбий миқдорига;

ушбу бозорга янги рақобатчиларнинг кириши мумкинлигига;

муайян товар бозорини тавсифловчи бошқа мезонларга қараб аниқланган бўлса, унинг бозордаги мавқеи устун мавқе деб ҳисобланади;

мутлақ монополия - хўжалик юритувчи субъект товар бозорида ягона сотувчи ёки харидор бўлган вазият;

монополистик фаолият - хўжалик юритувчи субъектларнинг, давлат бошқаруви органлари ва маҳаллий

давлат ҳокимияти органларининг монополияга қарши кураш ҳақидаги қонун ҳужжатларига хилоф бўлган, рақобатга йўл қўймасликка, уни чеклаш ёки бартараф этишга қаратилган ҳаракатлари ёки ҳаракатсизлиги;

нарх соҳасида камситиш - маҳсулот етказиб берувчининг бошқа шароитлар тенг бўлгани ҳолда ўз маҳсулотини муайян бир харидорга бошқа харидорларга нисбатан юқорироқ ёки пастроқ нархда сотиши;

камситувчи шартлар - маҳсулот ишлаб чиқарувчи корхонанинг истеъмолчиларга шартнома моҳиятига дахли бўлмаган турли шартларни мажбуран қабул қилдириши;

нотўғри таққослаш - муайян рақобатчини ёки умуман барча рақобатчиларни, шунингдек ишлаб чиқарилаётган ва (ёки) сотилаётган товарларни бошқа хўжалик юритувчи субъектларнинг товарларига нисбатан ёмонлаб таққослаш ёки фикр билдириш;

монополь қиммат нарх - товар бозорида устун мавқега эга бўлган хўжалик юритувчи субъектнинг ишлаб чиқариш қувватларидан тўлалигича фойдаланмаслик туфайли қилган асоссиз харажатларини қоплаш ёки товар сифатини пасайтириш натижасида қўшимча фойда олиш мақсадида товарга белгилаган нархи;

монополь арзон нарх - товар бозорида харидор сифатида устун мавқени эгаллаб турган хўжалик юритувчи субъектнинг сотиб олаётган товарига қўшимча фойда олиш ёки қилинган асоссиз харажатларни сотувчи ҳисобига қоплаш мақсадида белгилайдиган нархи ёхуд товар бозорида сотувчи сифатида устун мавқени эгаллаб турган хўжалик юритувчи субъектнинг сотаётган товарига онгли равишда шу товарни сотишдан зарар кўрадиган даражада белгилайдиган нархи бўлиб, уни белгилаш натижасида бозордан рақобатчиларни сиқиб чиқариш йўли билан рақобат чекланади ёки чекланиши мумкин;

шахслар гуруҳи - шахслар йиғиндиси, уларга татбиқан қўйидаги бир ёки бир неча шартлар бажарилади:

битим ёки келишиб олинган ҳаракатлар натижасида, шу жумладан олди-сотди, мол-мулкни ишончли бошқариш, биргаликдаги фаолият, топшириқнома, ижара шартномалари асосида ёки бошқа битимлар асосида ҳал этувчи таъсир кўрсатиш учун етарли бўлган акциялар назорат пакетини ёки овозлар сонини бевосита ёки билвосита биргаликда тасарруф этиш ҳуқуқига эга бўлган шахс ёки бир неча шахслар. Бунда юридик шахснинг овозларини билвосита тасарруф этиш деганда бу овозларни учинчи шахслар орқали амалда тасарруф

этиш имконияти тушунилади, биринчи шахс учинчи шахсларга нисбатан юқорида санаб ўтилган ҳуқуқ ва ваколатга эга бўлади;

икки ёки ундан ортиқ шахслар ўртасида шартнома тузилиб, унга кўра шартнома қатнашчиларидан бири ёки бир қанчасининг ёхуд бошқа шахсларнинг тадбиркорлик фаолиятини юритиш шартларини белгилаш ёинки улар ижроия органи вазифаларини бажариш ҳуқуқи қўлга киритилади;

шахс юридик шахс ижроия органи ва (ёки) директорлар кенгаши (кузатув кенгаши) таркибининг эллик фоиздан ортиғини тайинлаш ҳуқуқига эга бўлади;

айни бир жисмоний шахсларнинг ўзи икки ва ундан ортиқ юридик шахс ижроия органи ва (ёки) директорлар кенгаши таркибининг эллик фоиздан ортиқроғини ташкил этади.

Ушбу Қонуннинг мақсадларини назарда тутган ҳолда шахслар гуруҳига ягона хўжалик юритувчи субъект деб қаралади.

4-модда. Халқаро шартномалар

Агар Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномаларида товар бозорларидаги рақобат ва уларда монополистик фаолиятни чеклаш тўғрисидаги қонун ҳужжатларида назарда тутилганидан бошқача қоидалар белгиланган бўлса, унда халқаро шартнома қоидалари қўлланилади.

II. МОНОПОЛИСТИК ФАОЛИЯТ

5-модда. Хўжалик юритувчи субъектнинг ўз устун мавқеини суиистеъмол қилиши

6-модда. Хўжалик юритувчи субъектларнинг рақобатни чеклайдиган битимлари (келишиб қилинган ҳаракатлари)

7-модда. Давлат бошқаруви органлари ва маҳаллий ҳокимияти органларининг ҳужжатлари ва ҳаракатлари

8-модда. Инсофсиз рақобатни тақиқлаш

5-модда. Хўжалик юритувчи субъектнинг ўз устун мавқеини суиистеъмол қилиши

Устун мавқени эгаллаб турган хўжалик юритувчи субъектнинг рақобатни чеклайдиган ва (ёки) бошқа хўжалик юритувчи субъектларнинг манфаатларини камситган ёхуд камситиши мумкин бўлган қуйидаги ҳаракатлари тақиқланади:

товарларни муомаладан олиб қўйиш, бундан кўзланган мақсад ёки эришилган натижа бозорда тақчилликни келтириб чиқариш ёки сақлаб туришдан ёхуд нархларни оширишдан иборат бўлса;

монопол қиммат ёки монопол арзон нархларни белгилаш;

контрагентга шартнома моҳиятига тааллуқли бўлмаган шартларни, шу жумладан молиявий маблағлар, бошқа мол-мулк, мулкый ҳуқуқларни ўтказишга доир асоссиз талабларни мажбуран қабул қилдириш;

контрагентни бошқа хўжалик юритувчи субъектларга нисбатан тенг бўлмаган вазиятга солиб қўядиган камситувчи шартларни шартномага киритиш;

контрагент томонидан бошқа товарларни сотиб олиш ёки сотиш ёхуд контрагентнинг бошқа хўжалик юритувчи субъектлардан товарлар сотиб олишдан ёки бошқа хўжалик юритувчи субъектларга товарлар сотишдан ўзини тийиш шарти билангина шартнома тузишга розилик бериш;

тегишли товарни ишлаб чиқариш ёки етказиб бериш имкониятлари мавжуд бўлган тақдирда шартнома тузишдан асоссиз бош тортиш; (ЎзР 20.08.1999 й. 832-1-сон Қонуни таҳриридаги хат боши)

бошқа хўжалик юритувчи субъектларнинг бозорга киришига тўсқинлик қилиш;

Алоҳида ҳолларда хўжалик юритувчи субъектнинг ушбу модданинг биринчи қисмида кўрсатилган ҳаракатлари монополияга қарши давлат органи томонидан тўғри деб топилиши мумкин, башарти хўжалик юритувчи субъект ўз ҳаракатларининг ижобий самараси, шу жумладан ижтимоий-иқтисодий соҳадаги ижобий самараси кўриб чиқиладиган товар бозори учун салбий оқибатлардан ортиқ бўлишини исботлай олса.

6-модда. Хўжалик юритувчи субъектларнинг рақобатни чеклайдиган битимлари (келишиб қилинган ҳаракатлари)

Муайян товар бозорида жами ўттиз беш ва ундан ортиқ фоиз улушга эга бўлган ўзаро рақобатлашаётган ёки рақобатлашиши мумкин бўлган хўжалик юритувчи субъектларнинг рақобатни чеклаб қўйган ёки чеклаб қўйиши мумкин бўлган битимлари (келишиб қилинган ҳаракатлари), шу жумладан:

қатъий нархлар, тарифлар, чегирмалар, устамалар, қўшимча тўловлар ёки ортиқча нархлар белгилаш ёки уларни сақлаб туришга;

эркин бозор нархлари қарор топишига тўсқинлик қилиб, уларни сунъий равишда ўстириш ёки пасайтиришга;

ишлаб чиқариш, маҳсулот сотиш бозорлари ва капитал қўйилмалар устидан назорат ўрнатишга;

таклиф ҳажмини сунъий равишда ўзгартириш мақсадида ишлаб чиқариш ҳажмларини келишиб олишга;

аукционлар, биржалар ва бошқа кимошди савдоларида нархларни ошириш, пасайтириш ёки сақлаб туришга;

нарх соҳасида камситишларни белгилашга;

бозорни ҳудуд бўйича, сотув ёки харид ҳажми, товарлар хиллари бўйича, сотувчилар ва харидорлар, буюртмачилар доираси бўйича бўлиб олишга;

муайян товарларнинг сотувчилари ёки уларнинг харидорлари, буюртмачилари сифатида бошқа хўжалик юритувчи субъектларнинг бозорга киришини чеклаб қўйиш ёки уларни бозордан четлатишга қаратилган битимлари (келишиб қилинган ҳаракатлари) тақиқланади ва белгиланган тартибда тўла ёки қисман ҳақиқий эмас деб топилади.

Агар бири устун мавқени эгаллаб турган, бошқа бири эса унинг маҳсулот етказиб берувчиси ёки харидори бўлган ўзаро рақобатлашмаётган хўжалик юритувчи субъектларнинг битимлари (келишиб қилинган ҳаракатлари) рақобатни чеклаб қўйса ёки чеклаб қўйиши мумкин бўлса, бундай битимлар (келишиб қилинган ҳаракатлар), шу жумладан:

харидорлар ҳудуди ёки доирасини чеклайдиган;

ўзидан харидор сотиб олган товарларни қайта сотиш учун нархга чеклашлар белгилайдиган;

хўжалик юритувчи субъектларга рақобатчилар ишлаб чиқарган товарларни сотишни ман этадиган битимлар (келишиб қилинган ҳаракатлар) тақиқланади ва белгиланган тартибда тўла ёки қисман ҳақиқий эмас деб топилади.

Хўжалик юритувчи субъектларнинг ушбу моддада назарда тутилган битимлари (келишиб қилинган ҳаракатлари) алоҳида ҳолларда монополияга қарши давлат органи томонидан қонуний деб ҳисобланиши мумкин, башарти хўжалик юритувчи субъектлар ўз ҳаракатларининг бозорда савдо қилиш шароитларини яхшилашга, товарнинг рақобатбардошлигини оширишга кўмаклашувчи, харидорларга сезиларли наф келтирувчи ижобий самараси кўриб чиқиладиган товар бозори учун салбий оқибатлардан ортиқ бўлишини исботлаб бера олсалар.

Юридик шахслар бирлашмалари (иттифоқлари, уюшмалари), хўжалик ширкатлари ва жамиятларининг уюшмага кирган хўжалик юритувчи субъектлар хўжалик

фаолиятига рақобатни чеклайдиган ёхуд чеклаши мумкин бўлган тарзда аралашиши тақиқланади. Ушбу талабни бузиш монополияга қарши давлат органи (ўз ваколатлари доирасида ҳудудий орган)нинг даъвосига биноан юридик шахслар бирлашмаси (иттифоқи, уюшмаси)нинг, хўжалик ширкати ёки жамиятининг суд орқали тугатилишига асос бўлиши мумкин.

7-модда. Давлат бошқаруви органлари ва маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг ҳужжатлари ва ҳаракатлари

Давлат бошқаруви органлари ва маҳаллий давлат ҳокимияти органларига қуйидагилар тақиқланади:

бирор-бир фаолият соҳасида янги хўжалик юритувчи субъектларни ташкил қилишга чеклашлар жорий этиш, шунингдек айрим фаолият турларини амалга ошириш ёки муайян бир товарларни ишлаб чиқаришни тақиқлаш, қонун ҳужжатларида белгиланган ҳоллар бундан мустасно;

хўжалик юритувчи субъектга шартномалар тузишда кимгадир устунлик бериш, истеъмолчиларнинг муайян доираларига товарларни биринчи навбатда етказиб бериш тўғрисида кўрсатмалар бериш;

баъзи бир хўжалик юритувчи субъектларга айна бир товар бозорининг ўзида ишлайдиган бошқа хўжалик юритувчи субъектларга нисбатан устунлик берувчи солиқ ёки бошқа имтиёзларни, лицензиялаш бўйича ҳуқуқларни асоссиз равишда бериб қўйиш;

хўжалик юритувчи субъектларнинг акцияларини (улушларини) сотиб олиш, қонун ҳужжатларида назарда тутилган ҳоллар бундан мустасно; (ЎзР 20.08.1999 й. 832-1-сон Қонуни таҳриридаги хат боши)

айрим хўжалик юритувчи субъектларнинг фаолияти учун бошқа камситувчи ёки имтиёзли шарт-шароитларни белгилаш.

Айрим ҳолларда давлат бошқаруви органлари ва маҳаллий давлат ҳокимияти органлари табиий офатлар, фалокатларнинг оқибатларини тугатиш ҳамда касалликлар тарқалиб кетишининг олдини олиш мақсадида ушбу модданинг биринчи қисмида кўрсатиб ўтилган мазмундаги қарорларни қабул қилиши мумкин.

Бошқарув органининг бошқа бир бошқарув органи билан ёхуд хўжалик юритувчи субъект билан бозорнинг меъёрида фаолият кўрсатишига, рақобатни ривожлантиришга тўсқинлик қилувчи ва истеъмолчиларнинг қонуний манфаатларига зарар етказувчи битимларига (келишиб олинган ҳаракатларига), шу жумладан:

нархлар ёки тарифларни ошириш, пасайтириш, сақлаб туришга;

бозорни ҳудудий принцип бўйича, сотувлар ва харидлар ҳажми, товар хиллари ёхуд сотувчилар ёки хариддорларнинг, буюртмачиларнинг доираси бўйича тақсимлаб олишга;

хўжалик юритувчи субъектларнинг бозорга киришини чеклаш ёки уларни бозордан четлатишга қаратилган битимларига (келишиб қилинган ҳаракатларига) йўл қўйилмайди ва улар белгиланган тартибда тўла ёки қисман ҳақиқий эмас деб топилади.

Юридик шахслар ва бошқарув органларининг товарлар ишлаб чиқариш ёки сотишни монополиялаш мақсадида бирлашиши, мавжуд давлат бошқаруви органларига рақобатни чеклаб қўйиши мумкин бўлган ваколатларни бериш, шунингдек бошқарув органларининг вазифаларини хўжалик юритувчи субъектлар вазифалари билан қўшиб юбориш, хўжалик юритувчи субъектларга мазкур органларнинг вазифалари ва ҳуқуқларини, шу жумладан давлат бошқаруви органларининг вазифалари ва ҳуқуқларини бериш тақиқланади.

8-модда. Инсофсиз рақобатни тақиқлаш

Инсофсиз рақобатга, чунончи:

бошқа хўжалик юритувчи субъектга зарар келтирадиган ёки унинг тадбиркорлик обрўсига путур етказадиган ёлғон, ноаниқ ёки бузиб кўрсатилган маълумотларни тарқатишга;

юридик шахснинг интеллектуал фаолияти натижаларидан ва уларга тенглаштирилган индивидуаллаштириш воситаларидан, маҳсулотни, хизматлар бажаришни индивидуаллаштириш воситаларидан қонунсиз фойдаланиб товар сотишга;

товарнинг хусусияти, уни тайёрлаш усули ва жойи, истеъмол хоссалари, сифати хусусида истеъмолчиларни чалғитишга;

хўжалик юритувчи субъектнинг, шу жумладан унинг реклама фаолияти жараёнида ҳам, ўзи ишлаб чиқарадиган ёки сотадиган товарларни бошқа хўжалик юритувчи субъектларнинг товарлари билан қўпол таққослашига;

илмий-техникавий, ишлаб чиқариш ёки савдо ахборотини, шу жумладан тижорат сирини эгасининг розилигисиз олиш, ундан фойдаланиш, уни ошкор этишга;

янги хўжалик юритувчи субъектнинг товарлар ва хизматлар бозорига киришини тўсишга йўл қўйилмайди.

. МОНОПОЛИЯГА ҚАРШИ ДАВЛАТ ОРГАНИ

9-модда. Монополияга қарши давлат органининг асосий вазифалари ва фаолият йўналишлари

10-модда. Монополияга қарши давлат органининг ваколатлари

11-модда. Ахборот олиш ҳуқуқи

12-модда. Монополияга қарши давлат органига ахборот тақдим этиш

13-модда. Монополияга қарши давлат органининг тижорат сирини сақлаш борасидаги мажбуриятлари

9-модда. Монополияга қарши давлат органининг

асосий вазифалари ва фаолият йўналишлари

Товар бозорларида рақобатни ривожлантиришга кўмаклашиш, хўжалик юритувчи субъектлар, давлат бошқаруви органлари ва маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг монополистик фаолиятини ва инсофсиз рақобатини чеклаш ҳамда тўхтатиб қўйиш соҳасида давлат сиёсатини монополияга қарши давлат органи олиб боради.

Монополияга қарши давлат органи ўз фаолиятида бошқа бошқарув органларидан мустақилдир, унинг қарорлари устидан судга шикоят қилиниши мумкин.

Монополияга қарши давлат органининг асосий вазифалари ва фаолият йўналишлари қуйидагилардан иборатдир:

монополияга қарши қонун ҳужжатлари ва истеъмолчиларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисидаги қонун ҳужжатларига риоя этилиши устидан давлат назоратини олиб бориш;

давлат мулкани бошқариш давлат органи билан биргаликда товар бозорларида рақобат муҳитини яратишга, монополиядан холи қилишнинг тармоқ ва минтақавий дастурларини ишлаб чиқиш ҳамда амалга оширишни мувофиқлаштиришга нисбатан ягона услубий ёндашувни таъминлаш;

рақобат ва тадбиркорликни ривожлантириш асосида бозор муносабатларини шакллантиришга кўмаклашиш;

монополистик фаолиятнинг, хўжалик юритувчи субъектлар товар бозорларидаги ўз устун мавқеини суиистеъмол қилишининг олдини олиш ва унга йўл қўймаслик, инсофсиз рақобатга ва истеъмолчилар манфаатлари камситилишига чек қўйиш чора-тадбирларини кўриш;

монополиячи бирлашмалар (корхоналар)нинг Ўзбекистон Республикаси Давлат реестрини юритиш (бундан кейин реестр деб аталади);

ишда ошкораликни таъминлаш, иқтисодиётни монополиядан холи қилиш, рақобатни ривожлантириш ва истеъмолчиларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилишга қаратилган чора-тадбирларни амалга оширишнинг бориши тўғрисида оммавий ахборот воситалари, шу жумладан махсус даврий нашрлар орқали фуқароларни хабардор қилиш;

монополияга қарши курашни тартибга солиш ва истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш соҳасидаги чет эл тажрибасини таҳлил этиш.

10-модда. Монополияга қарши давлат органининг ваколатлари

Монополияга қарши давлат органи қуйидаги ҳуқуқларга эга:

товар бозорларида хўжалик юритувчи субъектларнинг устун мавқеи мавжудлигини аниқлаш;

давлат ва хўжалик бошқаруви органларига, маҳаллий давлат ҳокимияти органларига, хўжалик юритувчи субъектларга ва уларнинг мансабдор шахсларига монополияга қарши қонун ҳужжатлари бузилишларини тугатиш ёки бундай бузилишларнинг оқибатларини бартараф этиш тўғрисида, дастлабки ҳолатни тиклаш ҳақида, монополияга қарши қонун ҳужжатларига хилоф шартномаларни бекор қилиш ёки ўзгартириш тўғрисида, монополияга қарши қонун ҳужжатларини бузувчи ўзлари қабул қилган қарорларни, ҳужжатларни бекор қилиш ёки ўзгартириш тўғрисида бажарилиши мажбурий бўлган кўрсатмалар бериш ва берилган кўрсатмаларнинг ижросини назорат қилиш; (ЎзР 10.10.2006 й. ЎРҚ-59-сон Қонуни таҳриридаги хат боши), (Олдинги таҳририга қаранг)

давлат бошқаруви органлари ва маҳаллий давлат ҳокимияти органларига ўзлари қабул қилган ва монополияга қарши қонун ҳужжатларига зид бўлган ҳужжатларни бекор қилиш ёки ўзгартириш тўғрисида кўрсатмалар бериш;

хўжалик юритувчи субъектлардан монополистик фаолият натижасида асоссиз олинган даромадни (фойдани) олиб қўйиш ва жарима солиш ҳақида қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда қарор қабул қилиш; (ЎзР 10.10.2006 й. ЎРҚ-59-сон Қонуни таҳриридаги хат боши), (Олдинги таҳририга қаранг)

монополияга қарши қонун ҳужжатлари бузилганлиги тўғрисида, шу жумладан монополияга қарши қонун ҳужжатларига хилоф шартномаларни тўла ёки қисман ҳақиқий эмас деб ҳисоблаш тўғрисида аризалар билан судга мурожаат қилиш, шунингдек монополияга қарши қонун ҳужжатларини

қўллаш ва уларни бузиш билан боғлиқ ишларни судда кўриб чиқишда қатнашиш;

монополияга қарши қонун ҳужжатларини бузиш билан боғлиқ жиноят аломатлари бўйича жиноят иши қўзғатиш тўғрисидаги масалани ҳал этиш учун материалларни тегишли органларга юбориш;

лицензиялашни жорий этиш ёки уни бекор қилиш, божхона тарифларини ўзгартириш, квоталар жорий этиш ёки уларни бекор қилиш, шунингдек солиқ имтиёзлари, имтиёзли кредитлар ва давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг бошқа турларини татбиқ этиш ёки бекор қилиш тўғрисида тегишли органларга таклифлар киритиш;

монополияга қарши қонун ҳужжатларини қўллаш масалалари юзасидан тушунтиришлар бериш;

товар бозорида устун мавқени эгаллаб турган хўжалик юритувчи субъектларнинг реестрини шакллантириш тартибини белгилаш;

қонун ҳужжатларида назарда тутилган бошқа ваколатларни амалга ошириш.

11-модда. Ахборот олиш ҳуқуқи

Монополияга қарши давлат органининг мансабдор шахслари хўжалик юритувчи субъектнинг ҳудудига кириш ҳамда сўров асосида зарур ҳужжатлар ва маълумотлардан фойдаланиш ҳуқуқига эгадир.

12-модда. Монополияга қарши давлат органига ахборот тақдим этиш

Хўжалик юритувчи субъектлар, давлат бошқарув органлари, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари ва бошқа ташкилотлар, уларнинг раҳбарлари, шунингдек мансабдор шахслар монополияга қарши давлат органининг талабига биноан унга керакли ҳужжатлар ва бошқа ахборотларни қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда тақдим этиши шарт. (ЎзР 20.08.1999 й. 832-1-сон Қонуни таҳриридаги модда)

13-модда. Монополияга қарши давлат органининг тижорат сирини сақлаш борасидаги мажбуриятлари

Монополияга қарши давлат органи ушбу Қонунга мувофиқ ўзига берилган ваколатларни амалга ошириш чоғида олган тижорат сирини ҳисобланган маълумотларни ошкор қилмаслиги шарт.

Монополияга қарши давлат органи ходимлари тижорат сирини ҳисобланган маълумотларни ошкор этганлари тақдирда,

улар етказган зарар қонун ҳужжатларига мувофиқ ундириб олиниши лозим.

IV. РАҚОБАТ УСТИДАН ДАВЛАТ НАЗОРАТИ

14-модда. Хўжалик субъектларини ташкил этиш, қайта ташкил этиш, тугатиш устидан давлат назорати

15-модда. Акциялар, улушлар ва бошқа мулкӣ ҳуқуқларни олиш вақтида монополияга қарши курашга доир қонун ҳужжатларига риоя этилиши устидан давлат назорати

16-модда. Хўжалик юритувчи субъектларни мажбурий тарзда бўлиб юбориш

14-модда. Хўжалик субъектларини ташкил этиш, қайта ташкил этиш, тугатиш устидан давлат назорати

Монополияга қарши давлат органи қуйидагилар устидан назоратни амалга оширади:

юридик шахслар бирлашмаларини ташкил этиш, қўшиб юбориш ва бирлаштириш;

хўжалик юритувчи субъектларни қўшиб юбориш ва бирлаштириш, молия-саноат гуруҳлари, холдинг компаниялари ташкил этиш;

корхоналарни тугатиш ва бўлиш устидан, агар бу бозорда устун мавқени эгаллаб турган хўжалик юритувчи субъектнинг пайдо бўлишига олиб келадиган бўлса, тугатиш суднинг қонуний кучга кирган қарорига мувофиқ амалга оширилган ҳоллар бундан мустасно.

Ушбу модда биринчи қисмининг учинчи ва тўртинчи хатбошиларида назарда тутилган ҳолларда хўжалик субъектларини қўшиб юбориш, бирлаштириш ва тугатиш тўғрисида қарор қабул қилган шахслар ёки органлар монополияга қарши давлат органига қуйидагиларни тақдим этадилар:

хўжалик юритувчи субъектларни ташкил этиш, қайта ташкил этиш, тугатишга розилик бериш тўғрисидаги илтимоснома;

бирлашаётган хўжалик юритувчи субъектлардан ҳар бирининг асосий фаолият турлари, уларнинг тегишли товар бозоридаги улуши ва бирлашмага киришга розилиги тўғрисидаги маълумотлар.

Монополияга қарши давлат органи қарор чиқариш учун зарур бўлган бошқа ахборотларни ҳам сўраб олишга ҳақлидир. Кўрсатиб ўтилган маълумотларни тақдим этиш хусусияти ва

шаклларига қўйиладиган талаблар монополияга қарши давлат органи томонидан тасдиқланадиган қоидаларда белгиланади.

Монополияга қарши давлат органи зарур ҳужжатларни олган вақтдан бошлаб ўттиз кундан кечиктирмай аризага қабул қилинган қарор ҳақида ёзма равишда маълум қилади.

Агар илтимосноманинг қондирилиши тегишли хўжалик юритувчи субъектнинг устун мавқеи юзага келиши ёки кучайишига ва (ёки) рақобатни чеклашга олиб келиши мумкин бўлса, агар тақдим этилган ҳужжатларни кўриб чиқиш чоғида уларда баён этилган ва қарор қабул қилиш учун аҳамиятга эга бўлган ахборот ишончсиз бўлса, монополияга қарши давлат органи илтимосномани рад этишга ҳақлидир.

Монополияга қарши давлат органи илтимосномани қондиришни рақобатни таъминлашга қаратилган талабларни бажаришга боғлиқ қилиб қўйишга ҳақлидир. Бунда мазкур талаблар, шунингдек уларни бажариш муддатлари монополияга қарши давлат органининг ушбу модда биринчи қисмининг учинчи ва тўртинчи хатбошиларида назарда тутилган ҳаракатларни амалга ошириш учун розилик бериши тўғрисидаги қарорида акс этмоғи лозим.

Агар хўжалик юритувчи субъектларни ташкил этиш, қайта ташкил этиш, тугатиш тўғрисида қарор қабул қилаётган шахслар ва органлар ўзларининг ҳаракатлари бозорда савдо шароитларини яхшилашга хизмат қилишини, харидорларга сезиларли даражада наф келтиришини исботлаб берсалар, монополияга қарши давлат органи ҳатто юқорида кўрсатиб ўтилган нохуш оқибатлар юз бериши мумкин бўлганида ҳам илтимосномани қондиришга ҳақлидир.

Хўжалик юритувчи субъектни ташкил этиш, қўшиб юбориш, бирлаштириш тегишли хўжалик юритувчи субъектнинг устун мавқеи юзага келиши ёки кучайишига ёхуд рақобатнинг чекланишига олиб келган ҳолларда хўжалик юритувчи субъектнинг муассислари, қўшиб юбориш, бирлаштириш тўғрисида қарор қабул қилган шахслар ёки органлар монополияга қарши давлат органининг талабига биноан рақобат учун зарур шароитларни тиклаш чора-тадбирларини кўришлари шарт.

Ушбу модда биринчи қисмининг учинчи ва тўртинчи хатбошиларида назарда тутилган ҳолларда хўжалик юритувчи субъектларни давлат рўйхатидан ўтказиш, шунингдек хўжалик юритувчи субъектлар тугатилиши муносабати билан уларни реестрдан чиқариш тўғрисида ёзиб қўйиш рўйхатга олувчи орган томонидан фақат монополияга қарши давлат органининг олдиндан розилигини олиб амалга оширилади.

Ушбу моддада белгиланган тартибни бузган ҳолда юридик шахсларни ташкил этиш, қўшиб юбориш ёки бирлаштириш, хўжалик юритувчи субъектларни қўшиб юбориб ва бирлаштириб, молия-саноат гуруҳлари, холдинг компаниялар ташкил этиш, шунингдек ушбу модданинг иккинчи қисмига мувофиқ монополияга қарши давлат органи қўйган талабларни бажармаслик давлат рўйхатига олишни монополияга қарши давлат органининг даъвосига биноан суд тартибида ҳақиқий эмас деб топиш учун асос бўлади.

Хўжалик юритувчи субъектлар қўшиб юборилган, бирлаштирилган тақдирда хўжалик юритувчи субъектнинг муассислари, қўшиб юбориш, бирлаштириш тўғрисида қарор қабул қилган шахслар ёки органлар бу ҳақда фаолиятнинг турини, маҳсулот ишлаб чиқариш ва реализация қилиш ҳажмларини кўрсатган ҳолда монополияга қарши давлат органини ўн беш кунлик муддат ичида хабардор қилишлари лозим. (ЎЗР 20.08.1999 й. 832-1-сон Қонуни таҳриридаги қисм)

15-модда. Акциялар, улушлар ва бошқа мулкӣ ҳуқуқларни олиш вақтида монополияга қарши курашга доир қонун ҳужжатларига риоя этилиши устидан давлат назорати

Монополияга қарши давлат органининг олдиндан олинган розилиги билан хўжалик юритувчи субъектнинг илтимосномаси асосида қуйидагилар амалга оширилади:

бир шахснинг, бир гуруҳ шахсларнинг хўжалик юритувчи субъектнинг акцияларини, устав капиталидаги овоз ҳуқуқига эга бўлган улушларини олиши, бунда ушбу шахс, бир гуруҳ шахслар мазкур акциялар, улушларнинг ўттиз беш фоиздан ортиғини тасарруф этиш ҳуқуқини олади. Ушбу талаб хўжалик юритувчи субъектни ташкил этиш чоғида унинг таъсис этувчиларига татбиқ этилмайди, молия-саноат гуруҳлари, холдинг компанияларни ташкил этиш ҳоллари бундан мустасно;

бир шахснинг, бир гуруҳ шахсларнинг хўжалик юритувчи субъектнинг тадбиркорлик фаолиятини олиб бориш ёхуд унинг ижроия органи вазифаларини амалга ошириш шартларини белгилаш имконини берувчи ҳуқуқларни олиши, шу жумладан битимлар, шартномалар, топшириқномалар, контрактлар воситасида ёки бошқа йўллар билан олиши.

Тегишли битимда қатнашувчи шахслар активларининг жами баланс қиймати энг кам иш ҳақининг тўрт минг баробари миқдоридан ортиқ бўлса ёки битим қатнашчиларидан бири товар бозорида устун мавқени эгаллаб турган хўжалик

юритувчи субъектлар реестрига киритилган хўжалик юритувчи субъект бўлса ёхуд ушбу хўжалик юритувчи субъект фаолиятини назорат қилувчи бир гуруҳ шахслар сотиб олувчи бўлса, ушбу модданинг биринчи қисмида кўрсатилган битимларни тузиш учун олдиндан розилик олиниши зарур.

Ушбу модданинг биринчи қисмида кўрсатилган битимларни тузиш учун шахслар монополияга қарши давлат органига бундай битимларни тузиш учун розилик бериш ҳақида илтимоснома тақдим этишлари ва қарор чиқариш учун зарур бўлган ахборотни маълум қилишлари лозим.

Агар битим қатнашчилари ўз ҳаракатларининг бозорда савдо шароитларини яхшилашга, товарнинг рақобатбардошлигини оширишга кўмаклашувчи, харидорларга сезиларли тарзда наф келтирувчи ижобий самараси кўриб чиқиладиган товар бозори учун келиб чиқадиган салбий оқибатлардан устун бўлишини исботласалар, ҳатто рақобатни чеклаш эҳтимоли бўлган тақдирда ҳам монополияга қарши давлат органи илтимосномани қондиришга ҳақлидир.

Жисмоний шахс активларининг жами баланс қиймати энг кам иш ҳақининг икки минг баробари миқдоридан ортиқ бўлган икки ва ундан ортиқ хўжалик юритувчи субъектларнинг ёки айна бир турдаги товар гуруҳи бўйича реестрга киритилган ёхуд айна бир турдаги ишлаб чиқариш-сотиш жараёнининг турли босқичидаги товарлар гуруҳи бўйича реестрга киритилган хўжалик юритувчи субъектларнинг ижроия органлари, директорлар кенгашлари ёки кузатув кенгашларида иштирок этган тақдирда бу шахс кўрсатилган органларга ёки кенгашларга киргани ёки сайланганидан сўнг ўн беш кун ичида монополияга қарши давлат органига хабар бериши зарур. Монополияга қарши давлат органига хабар бериладиганида аризачи унга ариза билан бирга ушбу модданинг учинчи қисмида назарда тутилган ахборотни ҳам тақдим этади.

Ушбу моддада белгиланган тартибни бузган ҳолда тузилган, устун мавқенинг вужудга келиши ёки кучайишига ёки рақобатнинг чекланишига олиб келадиган битимлар ёки ҳаракатлар ҳақиқий эмас деб топилиши мумкин.

16-модда. Хўжалик юритувчи субъектларни мажбурий тарзда бўлиб юбориш

Устун мавқени эгаллаб турган хўжалик юритувчи субъект монополияга қарши қонун ҳужжатларини бузган тақдирда, монополияга қарши давлат органи рақобатни ривожлантириш мақсадида уни мажбурий тарзда бўлиб юбориш ёки ундан

таркибий бўлинмалар негизда бир ёки бир неча юридик шахсни ажратиб чиқариш ҳақида судга даъво аризаси беришга ҳақлидир.

Хўжалик юритувчи субъектни мажбурий тарзда бўлиб юбориш қуйидаги шартларнинг ҳаммаси бўлганида, яъни:

бўлиб юборилаётган таркибий бўлинмалар ташкилий ва ҳудудий жиҳатдан ажралиб чиқиши мумкин бўлса;

унинг таркибий бўлинмалари ўртасида технология жиҳатидан ўзаро узвий боғланиш бўлмаганида;

бўлиб юбориш натижасида таркибий бўлинмалар муайян товар бозорида мустақил ишлаш имкониятига эга бўлганида амалга оширилиши мумкин.

V. МОНОПОЛИЯГА ҚАРШИ ҚОНУН ҲУЖЖАТЛАРИНИ БУЗГАНЛИК УЧУН ЖАВОБГАРЛИК

17-модда. Монополияга қарши қонун ҳужжатларини бузиш оқибатлари

18-модда. Монополияга қарши қонун ҳужжатларини бузганлик учун жарималар

19-модда. Хўжалик юритувчи субъектга етказилган зарарни тўлаш

17-модда. Монополияга қарши қонун ҳужжатларини бузиш оқибатлари

Хўжалик юритувчи субъектлар, давлат бошқаруви органлари ва маҳаллий давлат ҳокимияти органлари монополияга қарши қонун ҳужжатларини бузган тақдирда:

монополияга қарши давлат органининг кўрсатмаларини белгиланган муддатда бажаришлари;

етказилган зарарнинг ўрнини қоплашлари;

жарима, пеня тўлашлари шарт.

Монополияга қарши қонун ҳужжатларини бузганликда айбдор шахслар қонун ҳужжатларига мувофиқ маъмурий, жиноий ва бошқа тарзда жавобгарликка тортилиши мумкин. (ЎзР 20.08.1999 й. 832-1-сон Қонуни таҳриридаги қисм)

18-модда. Монополияга қарши қонун ҳужжатларини бузганлик учун жарималар

Монополияга қарши давлат органи қуйидаги қоидабузарликлар учун хўжалик юритувчи субъектларга қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда жарималар солишга ҳақлидир:

1) монополияга қарши қонун ҳужжатлари бузилишларини тугатиш, дастлабки ҳолатни тиклаш, шартномаларни бекор

қилиш ёки ўзгартириш тўғрисидаги кўрсатмаларни бажаришдан бўйин товлаганлик ёки ўз вақтида бажармаганлик учун, шунингдек монополияга қарши давлат органининг олдиндан розилигини олмай туриб, ушбу Қонун 15-моддасининг биринчи ва иккинчи қисмларида назарда тутилган ҳаракатларни амалга оширганлик ёки битимлар тузганлик учун қўйидаги миқдорларда:

давлат ва хўжалик бошқаруви органларига, маҳаллий давлат ҳокимияти органларига ва юридик шахс бўлган хўжалик юритувчи субъектларга - энг кам иш ҳақининг етмиш бараваридан юз бараваригача миқдорда ва етказилган зарарнинг беш фоизи миқдорида, бироқ энг кам иш ҳақининг икки юз бараваридан кўп бўлмаган миқдорда;

жисмоний шахс бўлган хўжалик юритувчи субъектларга - энг кам иш ҳақининг беш бараваридан етти бараваригача миқдорда;

2) монополияга қарши давлат органига ахборот тақдим этмаганлик ёки атайлаб нотўғри маълумотлар тақдим этганлик учун қўйидаги миқдорларда:

давлат ва хўжалик бошқаруви органларига, маҳаллий давлат ҳокимияти органларига ва юридик шахс бўлган хўжалик юритувчи субъектларга - энг кам иш ҳақининг ўн бараваридан йигирма бараваригача миқдорда;

жисмоний шахс бўлган хўжалик юритувчи субъектларга - энг кам иш ҳақининг уч бараваридан беш бараваригача миқдорда;

3) хўжалик юритувчи субъектларнинг рақобатни чеклашга олиб келган келишуви (келишилган ҳаракатлари) учун қўйидаги миқдорларда:

юридик шахс бўлган хўжалик юритувчи субъектларга - энг кам иш ҳақининг олтмиш бараваридан саксон бараваригача миқдорда ва етказилган зарарнинг беш фоизи миқдорида, бироқ энг кам иш ҳақининг юз эллик бараваридан кўп бўлмаган миқдорда;

жисмоний шахс бўлган хўжалик юритувчи субъектларга - энг кам иш ҳақининг беш бараваридан етти бараваригача миқдорда.

Жарима солиш суд томонидан, давлат ва хўжалик бошқаруви органлари, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари ёки хўжалик юритувчи субъект содир этилган ҳуқуқбузарликдаги айбига иқроор бўлган ва жаримани ихтиёрий равишда тўлаган тақдирда эса, монополияга қарши давлат органи томонидан амалга оширилади.

Жарима давлат ва хўжалик бошқаруви органлари, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари ёки хўжалик юритувчи субъект томонидан монополияга қарши давлат органининг жарима солинганлиги тўғрисидаги қарори олинган пайтдан эътиборан ўттиз кун муддатда тўланади ва бюджетга ўтказилади.

Хўжалик юритувчи субъектнинг охириги ҳисобот санасидаги жорий активлари суммасининг жами йигирма фоизидан ортиқ миқдорда жарима ундириш унга ундириладиган суммани ундириш тўғрисида қарор қабул қилинган кундан эътиборан олти ой мобайнида ойма-ой бўлиб тўлаш имкони берилган ҳолда амалга оширилади.

Жарима тўлаш монополияга қарши давлат органининг қарори ёки кўрсатмасини бажариш ёки монополияга қарши қонун ҳужжатларида назарда тутилган бошқа ҳаракатларни бажариш мажбуриятидан озод қилмайди. (ЎзР 10.10.2006 й. ЎРҚ-59-сон Қонуни таҳриридаги модда матни), (Олдинги таҳририга қаранг)

19-модда. Хўжалик юритувчи субъектга етказилган зарарни тўлаш

Агар давлат бошқаруви органи ёки маҳаллий давлат ҳокимияти органи, шу жумладан монополияга қарши давлат органи томонидан монополияга қарши қонун ҳужжатларига хилоф равишда қабул қилинган норматив ҳужжат тўғрисида хўжалик юритувчи субъектга ёхуд бошқа шахсга зарар келтирилса, зарар қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда тўланиши лозим. (ЎзР 20.08.1999 й. 832-1-сон Қонуни таҳриридаги қисм)

Агар хўжалик юритувчи субъектнинг монополияга қарши қонун ҳужжатларини бузувчи ҳаракати ёки ҳаракатсизлиги тўғрисида бошқа хўжалик юритувчи субъектга ёхуд бошқа шахсга зарар келтирилган бўлса, у зарар етказган хўжалик субъекти томонидан қонун ҳужжатларига мувофиқ тўланиши лозим.

VI. МОНОПОЛИЯГА ҚАРШИ ДАВЛАТ ОРГАНИНИНГ ҚАРОРЛАР ҚАБУЛ ҚИЛИШИ, УЛАР УСТИДАН ШИКОЯТ ҚИЛИШ ВА УЛАРНИ ИЖРО ЭТИШ ТАРТИБИ

20-модда. Монополияга қарши қонун ҳужжатларини бузганлик тўғрисида монополияга қарши давлат органи томонидан иш қўзғатиш ва уларни кўриб чиқиш асослари

21-модда. Монополияга қарши қонун ҳужжатларини бузганлик тўғрисидаги ишларни қўзғатиш ва кўриб чиқиш

22-модда. Монополияга қарши давлат органининг қарорларини ижро этиш

23-модда. Монополияга қарши давлат органининг қарорлари устидан шикоят қилиш тартиби ва асослари

24-модда. Монополияга қарши қонун ҳужжатларига риоя қилиниши устидан жамоат назорати

20-модда. Монополияга қарши қонун ҳужжатларини бузганлик тўғрисида монополияга қарши давлат органи томонидан иш қўзғатиш ва уларни кўриб чиқиш асослари

Монополияга қарши давлат органи монополияга қарши қонун ҳужжатларини бузиш фактларини кўриб чиқади ҳамда улар юзасидан ўз ваколатлари доирасида қарорлар чиқаради ва кўрсатмалар беради.

Монополияга қарши қонун ҳужжатларини бузганлик тўғрисида иш қўзғатиш ва уларни кўриб чиқиш учун монополияга қарши давлат органининг ўз текширувлари, хўжалик юритувчи субъектлар, давлат бошқаруви органлари ва маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг аризалари ҳамда прокуратуранинг тақдимномалари асос бўлади.

21-модда. Монополияга қарши қонун ҳужжатларини бузганлик тўғрисидаги ишларни қўзғатиш ва кўриб чиқиш

Монополияга қарши қонун ҳужжатларини бузганлик тўғрисида ишларни қўзғатиш ва кўриб чиқиш тартиби Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан белгиланади.

Монополияга қарши давлат органи томонидан ишни кўриб чиқиш натижалари бўйича қабул қилинган қарор манфаатдор томонларга ушбу қарор қабул қилинганидан сўнг беш кундан кечиктирмай ёзма равишда жўнатилади. Қабул қилинган қарор асосида бериладиган кўрсатма ҳам худди шу муддатда жўнатилади.

22-модда. Монополияга қарши давлат органининг қарорларини ижро этиш

Монополияга қарши давлат органининг қарори (кўрсатмаси) унда белгиланган муддатда ижро этилиши лозим. Қарорни (кўрсатмани) белгиланган муддатида ижро этмаслик қонун ҳужжатларида назарда тутилган оқибатларга сабаб бўлади.

23-модда. Монополияга қарши давлат органининг қарорлари устидан шикоят қилиш тартиби ва асослари

Бошқарув органлари, хўжалик юритувчи субъектлар, мансабдор шахслар монополияга қарши давлат органи қабул қилган қарордан норози бўлганлари тақдирда бундай қарорни тўла ёки қисман ҳақиқий эмас деб топиш ёхуд бекор қилиш ёки иқтисодий жазоларни қўллашга доир қарорни ўзгартириш тўғрисида ариза билан судга мурожаат қилишга ҳақлидир.

Монополияга қарши давлат органининг қарори (кўрсатмаси) устидан ушбу қарор қабул қилинган кундан бошлаб бир ой мобайнида шикоят қилиниши мумкин.

24-модда. Монополияга қарши қонун ҳужжатларига риоя қилиниши устидан жамоат назорати

Ўз уставларига мувофиқ рақобатни ривожлантиришга кўмаклашиш ва истеъмолчиларнинг манфаатларини монополистик фаолиятдан ҳимоя қилиш мақсадини кўзловчи жамоат бирлашмалари тегишли органлар билан биргаликда монополияга қарши қонун ҳужжатларига риоя қилиниши устидан жамоат назоратини амалга оширишга ҳақлидир.

**Ўзбекистон
И.Каримов**

Республикасининг

Президенти

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ
ФАРМОНИ
18.11.2008 й. N ПФ-4053**

**ИҚТИСОДИЁТ РЕАЛ СЕКТОРИ КОРХОНАЛАРИНИНГ
МОЛИЯВИЙ
БАРҚАРОРЛИГИНИ ЯНАДА ОШИРИШ
ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ ТЎҒРИСИДА**

Мазкур Фармонга ЎзР Президентининг 28.04.2010 й. ПФ-4215-сон Фармонида мувофиқ ўзгартиришлар киритилган

Иқтисодиёт реал сектори корхоналарининг капиталлашув даражасини янада ошириш ва молиявий барқарорлигини мустаҳкамлаш, иқтисодий ночор корхоналарни молиявий соғломлаштириш ва бошқариш механизмларини такомиллаштириш, иқтисодиётни таркибий ўзгартириш, ишлаб чиқаришни модернизациялаш, техник ва технологик қайта жиҳозлаш жараёнига инвестицияларни, шу жумладан, тижорат банкларининг маблағларини кенг жалб этиш мақсадида:

1. Қуйидагилар белгилансин:

2009 йилнинг 1 январидан бошлаб янги ташкил этиладиган очиқ ва ёпиқ акциядорлик жамиятлари учун устав жамғармасининг энг кам миқдори жамият давлат томонидан рўйхатга олинган санада Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг курси бўйича эквиваленти 400,0 минг АҚШ долларига тенг суммани ташкил этади;

фаолият юритаётган очиқ ва ёпиқ акциядорлик жамиятлари 2010 йилнинг 1 январигача ўзларининг устав жамғармалари миқдорини улар қайта рўйхатга олинган санада Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг курси бўйича эквиваленти камида 400 минг АҚШ долларига тенг суммага етказишлари ёки хусусий мулкчилик шаклига ўтишни таъминлашлари шарт.

Ўзбекистон Республикаси Давлат мулки қўмитаси манфаатдор вазирликлар ва идоралар, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари билан биргаликда ўзларининг устав жамғармаларини мазкур Фармонда белгиланган миқдоргача кўпайтира олмайдиган акциядорлик жамиятлари ўртасида уларни бошқа ташкилий-ҳуқуқий шаклларда қайтадан ташкил этиш бўйича кенг тушунтириш ишларини олиб борсин.

2. Ўзбекистон Республикаси Монополиядан чиқариш, рақобат ва тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш давлат қўмитаси, Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт вазирлиги,

Молия вазирлиги, Давлат мулки қўмитаси ҳамда Ўзбекистон Банклар уюшмасининг иқтисодий ночор корхоналарни молиявий соғломлаштириш механизмини такомиллаштириш тўғрисида қўйидагиларни назарда тутувчи таклифлари қабул қилинсин:

банкрот деб эълон қилинган ишлаб чиқариш корхоналарини аукцион ва танлов савдоларида тижорат банкларига мулк сифатида сотиш;

банклар томонидан банкрот корхоналарни молиявий соғломлаштириш ва қайта тиклаш, уларни техник ва технологик жиҳатдан модернизациялаш ҳамда қайтадан жиҳозлашни таъминлаш, ички ва ташқи бозорларда рақобатбардош маҳсулот ишлаб чиқаришни ташкил этиш бўйича инвестиция мажбуриятларини қабул қилиш;

кейинчалик корхоналарни стратегик инвесторларга бозор қийматида сотиш.

3. Иқтисодий ночор корхоналарни тижорат банкларига сотиш бўйича Республика комиссияси (кейинги ўринларда Комиссия деб юритилади) иловага* мувофиқ таркибда тузилсин.

Қўйидагилар Комиссиянинг асосий вазифалари ҳамда ваколатлари этиб белгилансин:

аукцион ва танлов савдоларида тижорат банкларига сотилиши лозим бўлган банкрот корхоналар рўйхатини аниқлаш;

банклар томонидан корхонани қайта тиклаш, модернизациялаш, техник ва технологик қайта жиҳозлаш, ички ва ташқи бозорларда рақобатбардош маҳсулот ишлаб чиқаришни ташкил этишни таъминлаш мажбуриятини қабул қилиш шarti билан тижорат банкларига банкрот корхоналарни сотиш бўйича аукцион ҳамда танлов савдоларининг шартлари ва натижаларини тасдиқлаш;

банкрот корхоналарни тижорат банкларига сотиш бўйича аукцион савдолари ўтказилишини ташкил этиш, танлов савдоларида банкрот корхоналарни тижорат банкларига сотиш тўғрисида қарор қабул қилиш;

тижорат банклари томонидан қабул қилинган инвестиция мажбуриятлари бажарилиши, ушбу корхоналарнинг молиявий фаолияти соғломлаштирилиши ва кейинчалик уларнинг стратегик инвесторларга сотилиши устидан мониторинг натижаларини кўриб чиқиш;

тижорат банклари шартномада назарда тутилган муддатларда инвестициялар киритиш ва корхонанинг ишлаб чиқариш фаолиятини қайта тиклаш бўйича қабул қилинган

мажбуриятларини бажармаган тақдирда ушбу банк билан олди-сотди шартномасини бекор қилиш тўғрисида қарор қабул қилиш.

Ўзбекистон Республикаси Монополиядан чиқариш ва рақобатни ривожлантириш давлат қўмитаси Комиссиянинг ишчи органи этиб белгилансин. (ЎзР Президентининг 28.04.2010 й. ПФ-4215-сон Фармони таҳриридаги хатбоши)

4. Вазирлар Маҳкамаси бир ой муддатда:

аукцион ва танлов савдоларида банкрот корхоналарни тижорат банкларига сотиш Тартибини;

иқтисодий ночор корхоналарни тижорат банкларига сотиш бўйича Республика комиссияси тўғрисидаги Низомни тасдиқласин.

5. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки Ўзбекистон Банклар уюшмаси, тижорат банклари билан биргаликда бир ой муддатда:

сотиб олинган банкрот корхоналарда ишлаб чиқаришни модернизациялаш, техник ва технологик қайта жиҳозлаш бўйича инвестиция лойиҳаларини ишлаб чиқиш, экспертиза қилиш ва сотиш борасида тижорат банклари фаолиятини такомиллаштириш;

лойиҳаларни инвестициялаш, инвестициявий кредитларни бериш ва хизмат кўрсатиш масалалари билан шуғулланувчи тижорат банкларининг таркибий бўлинмаларини юқори малакали мутахассислар билан тўлдириш бўйича комплекс чора-тадбирларни ишлаб чиқсин ва тасдиқласин.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон иқтисодиётида хусусий секторнинг улуши ва аҳамиятини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 2003 йил 24 январда қабул қилинган ПФ-3202-сон Фармони 3-бандининг иккинчи, учинчи ва бешинчи хатбошилари ўз кучини йўқотган деб ҳисоблансин.

7. Ўзбекистон Республикаси Давлат мулки қўмитаси манфаатдор вазирликлар ва идоралар билан биргаликда бир ой муддатда қонун ҳужжатларига ушбу Фармондан келиб чиқадиган ўзгартиш ва қўшимчалар тўғрисида Вазирлар Маҳкамасига таклифлар киритсин.

8. Мазкур Фармоннинг ижросини назорат қилиш Ўзбекистон Республикасининг Бош вазири Ш.М.Мирзиёев ва Ўзбекистон Республикаси Марказий банки раиси Ф.М.Муллажонов зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон
И. Каримов**

Республикаси

Президенти

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ
ФАРМОНИ
28.11.2008 й. N ПФ-4058**

**ИҚТИСОДИЁТНИНГ РЕАЛ СЕКТОРИ КОРХОНАЛАРИНИ
ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ, УЛАРНИНГ БАРҚАРОР ИШЛАШINI
ТАЪМИНЛАШ
ВА ЭКСПОРТ САЛОҲИЯТИНИ ОШИРИШ
ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ ДАСТУРИ ТЎҒРИСИДА***

Мазкур Фармонга қуйидагиларга мувофиқ ўзгартиришлар киритилган

ЎзР Президентининг 04.01.2010 й. ПФ-4164-сон Фармони,
ЎзР Президентининг 28.04.2010 й. ПФ-4215-сон Фармони

Жаҳон молия-иқтисодий кризисининг салбий оқибатларини бартараф этиш, иқтисодиёт реал сектори базавий тармоқларининг иқтисодий ўсиши барқарор суръатлари ва макроиқтисодий мутаносиблиги ҳамда барқарор ишлашни таъминлаш, аҳоли бандлигига кўмаклашиш, экспорт қилувчилар, саноатнинг етакчи тармоқлари корхоналари ҳамда кичик бизнесни аниқ манзилли қўллаб-қувватлаш мақсадида:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан ишлаб чиқилган Иқтисодиётнинг реал сектори базавий тармоқлари корхоналарини қўллаб-қувватлаш, уларнинг барқарор ишлашни таъминлаш ва экспорт салоҳиятини ошириш чора-тадбирлари дастури 1-иловага* мувофиқ тасдиқлансин.

2. Қуйидагилар республика иқтисодиёти реал сектори соҳасида жаҳон молия-иқтисодий кризисининг салбий оқибатларини бартараф этишнинг ҳал қилувчи омиллари деб ҳисоблансин:

энг аввало иқтисодиётнинг базавий тармоқларида модернизация, техник ва технологик қайта жиҳозлаш жараёнларини фаоллаштириш, сифатли, экспортга йўналтирилган рақобатбардош маҳсулотлар ишлаб чиқаришни таъминлайдиган замонавий мослашувчан минитехнологияларни татбиқ этиш;

ички ва ташқи бозорларда мамлакатимиз ишлаб чиқарувчилари маҳсулотларининг рақобатбардошлигини янада ошириш, экспорт қилувчи корхоналар томонидан янги товарлар турларини сотиш ҳажмларини кенгайтириш ҳамда маҳсулот сотишнинг истиқболли бозорларини ўзлаштириш;

иқтисод қилишнинг қаттиқ тартибини жорий этиш, жумладан, технологик жараёнларни рационализациялаш, ишлаб чиқаришда материаллар, электр ва энергия сарфини ҳамда бошқа сарф-харажатларни камайтириш ҳисобига ишлаб чиқариш харажатлари ва маҳсулот таннариhini кескин камайтириш;

техник ва ишлаб чиқариш интизомига риоя қилиш, маҳсулот сифатини бошқаришнинг халқаро стандартларини татбиқ этиш;

мослашувчан нарх-наво сиёсатини амалга ошириш, жаҳон бозорларида нарх-наво конъюнктураси тез ўзгариб бораётган шароитда экспорт механизмларини такомиллаштириш.

3. Тасдиқланган чора-тадбирлар Дастурида белгилаб қўйилган корхоналарнинг муттасил барқарор ишлашини таъминлаш, экспортга йўналтирилган рақобатбардош маҳсулотлар ишлаб чиқаришни кўпайтириш, шунингдек жаҳон молия-иқтисодий кризисининг салбий оқибатларини бартараф этиш борасидаги қўшимча омиллар ҳамда ресурсларни сафарбар этиш чора-тадбирларини сўзсиз бажариш Вазирлар Маҳкамасининг, вазирликлар, идоралар, хўжалик бирлашмалари ва корхоналар раҳбарларининг энг муҳим вазифаси этиб белгилансин.

4. Иқтисодиётнинг реал сектори базавий тармоқлари корхоналарини қўллаб-қувватлаш, уларнинг барқарор ишлашини таъминлаш ва экспорт салоҳиятини ошириш чора-тадбирлари дастури амалга оширилишининг мониторинги ҳамда тизимли назоратини таъминлаш учун 2-иловага* мувофиқ таркибда Ишчи гуруҳ тузилсин.

Ишчи гуруҳ (Р.С.Азимов):

мазкур Фармон билан тасдиқланган чора-тадбирлар Дастурининг амалга оширилиши устидан қаттиқ тизимли назоратни;

ушбу Фармон билан тасдиқланган чора-тадбирлар Дастурида назарда тутилган ҳукумат қарорлари ва дастурлар лойиҳалари ўз вақтида ишлаб чиқилиши ҳамда тасдиқлаш учун белгиланган муддатларда Вазирлар Маҳкамасига киритилишини;

жумладан, тармоқлар, минтақалар ва алоҳида корхоналар миқёсида қабул қилинган чора-тадбирлар натижаларининг мунтазам мониторинги ўтказилиши ва ҳар ойда кўриб чиқилишини;

дунёда нарх-наво ўсиши, жаҳон ва минтақа бозорлари конъюнктурасининг ўзгариши, иқтисодиёт ривожининг ички тенденциялари таҳлилидан келиб чиқиб, корхоналарнинг

барқарор ва самарали ишлашни таъминлаш борасида қўшимча чора-тадбирлар кўриш бўйича таклифлар Вазирлар Маҳкамасига тезкорлик билан киритилишини таъминласин.

5. Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимлари тасдиқланган чора-тадбирлар Дастурида назарда тутилган тадбирларнинг сўзсиз бажарилишини, шунингдек экспортни кенгайтиришда, маҳсулотнинг рақобатбардошлигини ошириш ҳамда корхоналарнинг барқарор ишлашни таъминлашда иқтисодиётнинг реал сектори корхоналарига ҳар томонлама ёрдам кўрсатилишини таъминласин.

6. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки, тижорат банклари раҳбарлари зиммасига иқтисодиётнинг реал сектори корхоналарини молиявий қўллаб-қувватлаш бўйича ўз вақтида зарур чора-тадбирлар кўриш, уларнинг асосли буюртманомалари бўйича айланма маблағларни тўлдириш ва инвестиция лойиҳаларини амалга ошириш учун кредит ресурсларини тезкор, шу жумладан, имтиёзли асосда ажратиб бериш юзасидан шахсий жавобгарлик юклансин.

7. Мазкур Фармоннинг ижросини назорат қилиш Ўзбекистон Республикасининг Бош вазири Ш.М.Мирзиёев зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон
И. Каримов**

Республикаси

Президенти

**Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2008 йил 28
ноябрда**

**қабул қилинган "Иқтисодиётнинг реал сектори
корхоналарини**

**қўллаб-қувватлаш, уларнинг барқарор ишлашни
таъминлаш**

**ва экспорт салоҳиятини ошириш чора-тадбирлари дастури
тўғрисида"ги ПФ-4058-сонли Фармонига
ШАРҲ**

Ҳозирги вақтда жаҳон иқтисодиётида кўплаб мамлакатлар молия-иқтисодий кризисни бошдан кечираётган таҳликали вазият вужудга келди. Жаҳон молия ва товар бозорларида вазиятни барқарорлаштириш, банк тизимини ҳамда иқтисодиёт реал сектори корхоналарини қўллаб-қувватлаш йўллари изланмоқда.

Шуни қайд этиш жоизки, аввалги йилларда Ўзбекистон ҳукумати томонидан қабул қилинган конкрет чора-

тадбирларнинг кенг комплекси иқтисодиётимизни жаҳон молия кризиси хатаридан муайян даражада ҳимоя этишга хизмат қилади. Иқтисодиёт таркибини аниқ мақсад йўлида такомиллаштириш таъминланмоқда, рақобатбардош тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқариш корхоналари фаол ташкил қилинмоқда, экспорт ҳажмлари муттасил ошириб борилмоқда ва унинг аввалги бир томонлама хом ашёга йўналтирилганлиги бартараф этилмоқда. Асосан ички ресурс манбаларига таянувчи барқарор молия-банк тизими шакллантирилган.

Айни вақтда, энг аввало, жаҳон товар бозорлари конъюнктурасининг ёмонлашуви, рақобатнинг кескинлашуви каби бир қатор ташқи омиллар мавжудки, булар Ўзбекистон корхоналари томонидан экспорт қилинадиган айрим маҳсулот турларининг нархи ва ҳажмлари пасайиши орқали иқтисодиётимизга салбий таъсир ўтказмоқда.

Жаҳон молия-иқтисодий кризисининг салбий оқибатларини бартараф этиш, иқтисодий ўсишнинг макроиқтисодий мутаносиблиги ва барқарор суръатларини, иқтисодиёт тармоқларининг барқарор ишлашини таъминлаш, аҳоли бандлигига кўмаклашиш, экспорт қилувчилар, саноатнинг етакчи тармоқлари корхоналари ҳамда кичик бизнесни аниқ манзилли қўллаб-қувватлаш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2008 йил 28 ноябрдаги "Иқтисодиётнинг реал сектори корхоналарини қўллаб-қувватлаш, уларнинг барқарор ишлашини таъминлаш ва экспорт салоҳиятини ошириш чора-тадбирлари дастури тўғрисида"ги ПФ-4058-сонли Фармони қабул қилинди.

Фармонда мамлакатимиз иқтисодиёти реал секторида жаҳон молия кризисининг салбий оқибатлари нималар ҳисобига бартараф этилиши мумкинлиги ва бу борадаги ҳал қилувчи омиллар аниқ белгилаб берилган, ишлаб чиқаришни кейинчалик барқарор ўстириш ва ҳажмларини кенгайтириш, маҳсулот сотишнинг янги бозорларини ўзлаштириш асослари кўрсатилган.

Биринчи навбатда, бу - корхоналарда модернизация, техник ва технологик қайта жиҳозлаш ишларини амалга оширишдан иборат. Энг аввало, бу иқтисодиётнинг базавий тармоқларига, экспортга йўналтирилган ва импорт ўрнини босадиган маҳсулот ишлаб чиқарувчи корхоналарга тааллуқлидир. Корхоналар, бирлашмалар ва хўжалик юритувчи субъектлар раҳбарларининг диққат-эътибори ишлаб чиқаришни модернизациялаш, техник ва технологик қайта жиҳозлаш борасида қабул қилинган дастурларни амалга оширишни жадаллаштириш, энг илғор технологияларни жалб этиш, халқаро сифат стандартларига

ўтиш зарурлигига қаратилганки, булар ташқи бозорларда ҳам, ички бозорларда ҳам барқарор ўрин эгаллаш имконини беради.

Хорижий иқтисодчиларнинг фикрича, ишлаб чиқаришни қайта жиҳозлаш ва янги технологияларни ўзлаштириш, бунинг ҳисобига энг кам чиқим билан сифатли рақобатбардош маҳсулот ишлаб чиқаришни таъминлаш чора-тадбирларини ўз вақтида кўрган мамлакатлар вужудга келган кризисдан нисбатан камроқ зарар билан чиқадилар.

Шу боисдан Фармонда базавий тармоқларни модернизациялаш борасидаги энг муҳим 11 та дастурни амалга оширишни жадаллаштириш, саноат корхоналарининг эскириб қолган ускуналари ва асосий фондларини жадал янгилаш, техник қайта жиҳозлаш лойиҳалари бўйича ускуналар харид қилиш буюртмаларини тезкорлик билан амалга ошириш, саноатда ва транспорт инфратузилмасида энг муҳим лойиҳаларни жорий этишни бошлаш ва уларни бажариш муддатларини камайтириш борасида қўшимча чора-тадбирлар назарда тутилган.

Мазкур тадбирларни амалга ошириш реал маблағ манбалари билан мустаҳкамланган - корхоналарнинг ўз маблағлари, банкларнинг кредитлари, шу жумладан, уларнинг капиталини сезиларли даражада кўпайтириш ҳисобидан бериладиган кредитлар, шунингдек Тикланиш ва тараққиёт жамғармаси ҳамда халқаро молия институтларининг кредитлари шулар жумласидандир.

Республика корхоналари томонидан экспорт қилинадиган бир қатор маҳсулот турлари бўйича жаҳон товар бозорларидаги жорий конъюнктуранинг кескин ёмонлашуви - бугунги кунда ғоят долзарб бўлиб турган масалалардан биридир.

Қайд этилган қийинчиликларни бартараф этиш мақсадида, Фармонда экспорт қилувчи корхоналарнинг ташқи бозорлардаги рақобатбардошлигини таъминлаш ва экспорт учун қўшимча омилларни яратишда уларни қўллаб-қувватлаш бўйича Ҳукумат томонидан аниқ чоралар кўриш назарда тутилган. Шу мақсадда экспорт қилувчи корхоналарга айланма маблағларини тўлдириш учун имтиёзли кредитлар ажратиш, уларга вақтинчалик солиқ имтиёзлари ва мавжуд кредиторлик қарзини реструктуризация қилиш имкониятини бериш мўлжалланмоқда.

Маҳсулотнинг рақобатбардошлигини таъминлаш нуқтаи назаридан қараганда, хусусан саноатнинг базавий тармоқларида ишлаб чиқариш харажатларини қатъий назоратга олиш ва иқтисод қилишнинг қаттиқ тартибини жорий этиш экспорт қилувчи корхоналар учун катта аҳамиятга эгадир. Шунинг учун ҳам Дастурда электр энергияси ва асосий

коммунал хизматлар нархларининг асоссиз ошиб кетишига йўл қўймаслик, корхоналарда технологик жараёнларни рационализациялаш, материаллар ва энергия сарфини ҳамда бошқа сарф-харажатларни камайтириш ҳисобига маҳсулот таннархини камида 20 фоизга арзонлаштириш бўйича махсус чора-тадбирлар назарда тутилган.

Чора-тадбирлар дастурида кўзда тутилганидек, электр энергетикани, ишлаб чиқариш тизимини, электр энергияни узатиш ва истеъмол қилишни кенг миқёсда модернизациялаш, энергия сарфини камайтириш ва энергияни тежаш тизимини татбиқ этиш ҳам иқтисодиётимизнинг рақобатбардошлигини оширишга йўналтирилгандир.

Шу билан бирга, чора-тадбирлар Дастурида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектлари фаолиятини янада ривожлантириш ҳамда рағбатлантиришга катта эътибор қаратилган. Бунинг учун кичик ва хусусий бизнесга тижорат банкларининг, шу жумладан, Имтиёзли кредитлаш жамғармасидан кредитлар беришни кенгайтириш, замонавий импорт ускуналар ва минитехнологиялар харид қилиш учун кредит линиялари очиш, шунингдек бир қатор қўшимча солиқ имтиёзлари бериш назарда тутилган.

Уй-жой қурилиши ва айниқса, якка тартибдаги уй-жойларни ҳисобга олган ҳолда, амалдаги уй-жой фондини таъмирлаш, тиклаш ва реконструкция қилиш чора-тадбирларининг ўзаро боғлиқ тизимини яратиш иқтисодиётни ривожлантириш ва аҳоли бандлигига кўмаклашишнинг муҳим омилдир. Фармонда мазкур йўналишда ихтисослашаётган ташкилотларни тузишни рағбатлантириш, уларга зарур замонавий ишлаб чиқариш-таъмирлаш базасини таркиб топтириш ва шакллантиришда ёрдам кўрсатиш назарда тутилган.

Мамлакатимизда озиқ-овқат маҳсулотларини ишлаб чиқаришни кенгайтириш бўйича Фармон билан тасдиқланган Дастурда белгилаб қўйилган қўшимча чора-тадбирлар ички манбалар ҳисобидан юртимизда озиқ-овқат хавфсизлигини таъминловчи ишончли захираларни яратиш имконини беради, бу эса жаҳон бозорларида асосий турдаги озиқ-овқат маҳсулотлари нархи ўсиб бораётган шароитда алоҳида аҳамиятга эгадир.

Корхоналарни модернизация қилишда, экспорт қилувчи корхоналар ва кичик бизнес субъектларини қўллаб-қувватлаш чора-тадбирларини амалга оширишда тижорат банкларининг муҳим ролини инобатга олган ҳолда, Фармонда банкларнинг реал сектор корхоналарини ўз вақтида молиявий қўллаб-

қувватлашдаги жавобгарлигини оширишга алоҳида эътибор қаратилган.

Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан қабул қилинган ушбу Фармонда назарда тутилган чора-тадбирларни амалга ошириш жаҳон молия-иқтисодий кризиси шароитларида ҳам реал сектор корхоналарининг барқарор ишлашини, иқтисодиётнинг муттасил ва мутаносиб ўсишини таъминлаш ҳамда шу асосда мамлакатимизни янада барқарор ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш ва аҳоли турмуш даражасини ошириш вазифаларини тизимли, изчил ҳал этиш имконини беради.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВАЗИРЛАР
МАҲКАМАСИНИНГ ҚАРОРИ
13.11.2002 й. N 390

БОЗОРНИ ИСТЕЪМОЛ ТОВАРЛАРИ БИЛАН
ТЎЛДИРИШНИ РАЎБАТЛАНТИРИШ ҲАМДА ИШЛАБ
ЧИҚАРУВЧИЛАР ВА САВДО ТАШКИЛОТЛАРИНИНГ
ЎЗARO МУНОСАБАТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ
ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ ТЎҒРИСИДА

Мазкур Қарорга қуйидагиларга мувофиқ ўзгартиришлар киритилган

ЎзР ВМ 30.12.2002 й. 455-сон Қарори,
ЎзР ВМ 31.03.2003 й. 164-сон Қарори,
ЎзР ВМ 01.12.2003. й. 536-сон Қарори,
ЎзР ВМ 15.08.2005 й. 198-сон Қарори,
ЎзР ВМ 06.10.2005 й. 222-сон Қарори

Юқори сифатли, рақобатбардошли истеъмол товарлари ишлаб чиқаришни кўпайтиришни ва уларнинг ассортиментини кенгайтиришни рағбатлантириш, ички истеъмол бозорини улар билан юқори даражада тўлдириш, шунингдек республиканинг ишлаб чиқарувчи корхоналари билан савдо ташкилотлари ўртасидаги ўзаро муносабатлар механизмини такомиллаштириш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси **ҚАРОР ҚИЛАДИ:**

1. Белгилаб қўйилсинки, 2003 йил 1 январдан 2007 йил 31 декабргача:

истеъмол товарлари ишлаб чиқарувчи корхоналар истеъмол товарлари ишлаб чиқаришдан олинган даромадлардан даромад (фойда) солиғини амалдаги ставкадан 20 фоизга камайтирилган ставка бўйича тўлайдилар;

болалар учун товарлар ишлаб чиқарувчи корхоналар болалар учун товарлар ишлаб чиқаришдан олинган даромадлардан даромад (фойда) солиғини 7 фоизли ставка бўйича тўлайдилар. Болалар учун товарлар гуруҳига кирувчи товарларни аниқлашда Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 14 июлдаги 327-ф-сон фармойишига ва Статистика давлат департаменти томонидан тасдиқланган саноат маҳсулоти номенклатурасига 1997 йил 17 июлдаги 8-1/3-8-сон Тушунтиришга амал қилинсин;

микрофирмалар ва кичик корхоналар истеъмол товарлари ишлаб чиқаришдан олинган тушумдан ягона солиқ тўловини амалдаги ставкадан 25 фоизга камайтирилган ставка бўйича тўлайдилар; (ЎзР ВМ 15.08.2005 й. 198-сон Қарори тахриридаги хат боши)

ишлаб чиқариш корхоналарининг истеъмол товарлари ишлаб чиқариш физик ҳажмларини кўпайтириш ҳисобига олинган даромадлари (фойдаси) даромад (фойда) солиғи ва ягона солиқ тўлови тўлашдан озод қилинади: (ЎзР ВМ 15.08.2005 й. 198-сон Қарори тахриридаги хат боши)

ноозиқ-овқат истеъмол товарлари (тамаки маҳсулотлари ва заргарлик буюмлари, кир совун ва атир совун, шунингдек бензиндан ташқари) ишлаб чиқарувчи корхоналар, бўшайдиган маблағлар ишлаб чиқаришни кўпайтиришга, ишлаб чиқарилаётган истеъмол товарларининг ассортиментини кенгайтиришга ва рақобатбардошлигини оширишга мақсадли йўналтирилган тақдирда, бюджетга акциз солиғи тўлашдан озод қилинадилар; (ЎзР ВМ 30.12.2002 й. 455-сон Қарори тахриридаги хат боши)

истеъмол товарлари ишлаб чиқарувчи корхоналарга амортизация ажратмаларининг йиллик ҳисобдан чиқариш миқдорларини асосий воситалар хизматининг фойдали муддатидан келиб чиққан ҳолда мустақил равишда белгилаш ҳуқуқи берилади. Бунда солиққа тортиш мақсадидаги амортизация ажратмаларининг йиллик миқдори Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодексига белгиланган нормалардан ошмаслиги керак;

корхоналарнинг ўзи ишлаб чиқарган истеъмол товарлари рекламасига харажатлари даромад (фойда) солиғини ҳисоблаб чиқишда солиққа тортиладиган базадан тўлиқ ҳажмда чиқариб ташланади.

2. Белгилансинки, истеъмол товарлари ишлаб чиқаришга ихтисослашаётган (истеъмол товарлари ҳажми ишлаб чиқариладиган товарлар умумий ҳажмида камида 60 фоизни ташкил қиладиган) корхоналар 2003-2005 йилларда:

истеъмол товарлари ишлаб чиқариш учун ўз ишлаб чиқаришида фойдаланиладиган хом ашё, материаллар ва бутловчи буюмлар импорти бўйича божхонада расмийлаштиришдан кейин 60 кундан кечиктирмай, микрофирмалар ва кичик корхоналар учун эса 90 кундан кечиктирмай божхона тўловлари (божхонада расмийлаштириш учун йиғимлардан ташқари) тўлайдилар. Бунда улуш кўшиш асосида (толлинг бўйича) истеъмол товарлари ишлаб чиқариш учун келтириладиган хом ашё божхона тўловларидан озод

қилинади, божхонада расмийлаштириш учун йиғимлар бундан мустасно;

ер солиғини белгиланган тартибда амалдаги ставкалар бўйича, лекин тегишли шаҳарлар ва шаҳарчаларнинг ўрта зонаси учун белгиланган ставкадан ортиқ бўлмаган ставкалар бўйича тўлайдилар;

мулк солиғини истеъмор товарлари ишлаб чиқариш учун кредитлар ҳисобига, кредитни қоплаш муддатида, лекин 7 йилдан ортиқ бўлмаган муддатда сотиб олинган асбоб-ускуналар қийматига камайтирилган солиққа тортиладиган базадан келиб чиққан ҳолда тўлайдилар;

валюта тушумини истеъмор товарларини экспорт қилишдан олинган, ўз ишлаб чиқариши эҳтиёжлари учун импорт қилинган хом ашё, материаллар ва бутловчи буюмлар қийматига камайтирилган миқдорда мажбурий равишда сотадилар.

3. Белгилаб қўйилсинки, ушбу қарорнинг 1 ва 2-бандларида назарда тутилган имтиёзлар берилиши муносабати билан бўшайдиган маблағлар корхоналар томонидан фақат ишлаб чиқариш ҳажмларини кўпайтириш, ишлаб чиқарилаётган истеъмор товарларининг ассортиментини кенгайтириш ва рақобатбардошлилигини ошириш билан боғлиқ тадбирларга йўналтирилади.

Солиққа тортишдан бўшаган маблағлардан бошқа мақсадларда фойдаланилган ҳолларда ушбу маблағлар, амалдаги қонун ҳужжатларида назарда тутилган жарима жазоларини ҳисобга олган ҳолда, тўлиқ ҳажмда бюджетга ўтказилади.

4. Истеъмор товарларининг йирик ишлаб чиқарувчиларига: ўз маҳсулотларини расмий дистрибьюторлар орқали улгуржи сотиш тизимини яратиш;

республика минтақаларида, шу жумладан буюм бозорларида фирма улгуржи-чакана савдо дўконлари шохобчаларини ривожлантириш тавсия қилинсин.

5. Истеъмор товарлари ишлаб чиқарувчи, давлат бюджетидан ва бюджетдан ташқари давлат мақсадли жамғармаларидан қарзи бўлмаган корхоналарга ишлаб чиқараётган товарларини ўз расмий дистрибьюторларига ва улгуржи савдо корхоналарига 90 кундан ортиқ бўлмаган муддат билан консигнация шартномалари бўйича, шунингдек воситачилик шартномалари ва топшириқномалар бўйича сотишга рухсат берилсин.

6. Тижорат банкларига халқ истеъмор товарлари ишлаб чиқариш бўйича янги қувватларни барпо этиш ва

ишлаётганларини кенгайтириш учун белгиланган тартибда миллий ва хорижий валютада кредитлар бериш тавсия қилинсин.

Махфий.

7. Сут, жун, қорамол ва майда моллар териси, мева-сабзавот ва полиз маҳсулотларини қайта ишлаш ҳамда молларни гўштга сўйиш билан шуғулланувчи корхоналарга мазкур қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини бевосита ишлаб чиқарувчилардан аҳолидан, деҳқон ва фермер хўжаликларидан нақд пул билан ҳисоб-китоб қилган ҳолда ўз эҳтиёжлари учун тайёрлаш ҳуқуқи берилсин.

8. Мазкур қарорнинг 1 ва 2-бандларида назарда тутилган солиқ имтиёзлари иловага мувофиқ истеъмол товарлари ишлаб чиқарувчи ишлаб чиқариш корхоналарига жорий этилади. (ЎЗР ВМ 31.03.2003 й. 164-сон Қарори тахриридаги банд)

ЎЗР ВМ 31.03.2003 й. 164-сон Қарорига мувофиқ 8 ва 9-бандлар тегишли равишда 9 ва 10-бандлар деб ҳисоблансин

9. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги, Давлат солиқ қўмитаси ҳамда бошқа манфаатдор вазирликлар ва идоралар билан биргаликда бир ой муддатда:

амалдаги қонун ҳужжатларига ушбу қарордан келиб чиқадиган ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида Вазирлар Маҳкамасига таклифлар киритсин:

идоравий норматив ҳужжатларни ушбу қарорга мувофиқлаштирсин.

10. Мазкур қарорнинг бажарилишини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазирининг ўринбосари Р.Азимов ва М.Усмонов зиммасига юклансин.

Вазирлар
И.А. Каримов

Маҳкамасининг

Раиси

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВАЗИРЛАР
МАҲКАМАСИНИНГ
ҚАРОРИ 12.08.2004 й. N 387
ТИЖОРАТ ФАОЛИЯТИ УЧУН МЎЛЖАЛЛАНГАН
ТОВАРЛАРНИ ОЛИБ КЕЛУВЧИ ЖИСМОНИЙ
ШАХСЛАРНИ РЎЙХАТДАН ЎТКАЗИШНИ
ТАРТИБГА СОЛИШ ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ
ТЎҒРИСИДА

Мазкур Қарорга қуйидагиларга мувофиқ ўзгартиришлар киритилган

ЎзР ВМ 08.09.2005 й. 206-сон Қарори,

ЎзР ВМ 11.03.2009 й. 63-сон Қарори,

ЎзР ВМ 05.06.2009 й. 152-сон Қарори

Товарларни импорт қилиш ва уларни сотиш билан шуғулланувчи жисмоний шахслар фаолиятини янада тартибга солиш, савдонинг уюшган, маданиятли шаклларини ривожлантириш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси **ҚАРОР ҚИЛАДИ:**

1. Маълумот учун қабул қилинсинки, Ҳукумат томонидан қабул қилинган қарорларга мувофиқ тижорат фаолияти учун мўлжалланган товарларни олиб келувчи жисмоний шахслар ("четдан товар олиб келувчилар"):

экспорт-импорт операцияларини ва чакана савдони амалга ошириш ҳуқуқи билан юридик шахс бўлмасдан якка тартибдаги тадбиркорлар сифатида рўйхатдан ўтишлари шарт;

"Эркин муомалага чиқариш" режимида расмийлаштирилган юк божхона декларацияси, мувофиқлик сертификатлари мавжуд бўлганда, божхона ва бошқа тўловлар тўланган тақдирда буюм бозорларида якка тартибдаги тадбиркорнинг фақат ўзи бевосита олиб келган импорт товарлар билан чакана савдони амалга оширишга ҳақлидирлар.

2. 2004 йил 1 сентябрдан бошлаб тижорат фаолияти учун мўлжалланган товарларни олиб келувчи жисмоний шахслар ("четдан товар олиб келувчилар")ни юридик шахс бўлмасдан якка тартибдаги тадбиркорлар сифатида давлат рўйхатидан ўтказиш жисмоний шахснинг яшаш жойидаги туманлар (шаҳарлар) Давлат солиқ инспекцияларида (ҳозир бўлиш тартибида) амалга ошириладиган тартиб белгилансин.

Юридик шахс бўлмасдан, импорт товарларни олиб келувчи якка тартибдаги тадбиркорлар ўз фаолиятини амалга ошириш учун:

Ўзбекистон Республикаси Ташқи иқтисодий алоқалар, инвестициялар ва савдо вазирлигида ва божхона органларида ташқи иқтисодий алоқалар қатнашчилари сифатида рўйхатдан ўтишлари; (ЎзР ВМ 08.09.2005 й. 206-сон Қарори тахриридаги хат боши)

тижорат банкида ҳисоб рақамлари очиши;

экспорт-импорт операцияларини ва чакана савдони амалга ошириш ҳуқуқига рухсатномани белгиланган тартибда расмийлаштириши;

давлат рўйхатидан ўтказилган жойдаги солиқ органларидан импорт операциялар субъектининг ҳисобга олиш картасини олиши шарт.

Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитаси, Иқтисодиёт вазирлиги, Молия вазирлиги, Ташқи иқтисодий алоқалар агентлиги, Давлат божхона қўмитаси, Марказий банки, Адлия вазирлиги юридик шахс бўлмасдан тижорат фаолияти учун мўлжалланган товарларни олиб келаётган якка тартибдаги тадбиркорларни давлат рўйхатидан ўтказиш, ҳисобга қўйиш ва импорт операциялар субъектларининг ҳисобга олиш карталарини бериш тартиби тўғрисидаги низомни 2004 йил 1 сентябргача бўлган муддатда ишлаб чиқсинлар ва тасдиқлаш учун Вазирлар Маҳкамасига киритсинлар.

Юридик шахс бўлмасдан тижорат фаолияти учун мўлжалланган товарларни олиб келаётган якка тартибдаги тадбиркорларни давлат рўйхатидан ўтказиш бўйича мазкур қарорда назарда тутилган чора-тадбирларга риоя этилиши учун шахсий жавобгарлик Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитаси ва ҳудудий солиқ органларининг биринчи раҳбарлари зиммасига юклансин.

3. Туманлар (шаҳарлар) ҳокимликлари ҳузуридаги тадбиркорлик субъектларини рўйхатдан ўтказиш инспекцияларида илгари давлат рўйхатидан ўтган юридик шахс бўлмасдан тижорат фаолияти учун мўлжалланган товарларни олиб келаётган якка тартибдаги тадбиркорлар 2004 йил 1 ноябргача бўлган муддатда яшаш жойидаги туманлар (шаҳарлар)нинг Давлат солиқ инспекцияларида қайта рўйхатдан ўтишлари шарт.

4. Юридик шахс бўлмасдан тижорат фаолияти учун мўлжалланган товарларни олиб келаётган якка тартибдаги тадбиркорлар давлат рўйхатидан ўтказилганлиги учун туманлар (шаҳарлар) солиқ инспекциялари томонидан энг кам ойлик иш ҳақининг 2 баравари миқдорида давлат божи ундирилади. (ЎзР ВМ 05.06.2009 й. 152-сон Қарори тахриридаги банд), (Олдинги тахририга қаранг)

5. Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитаси 2004 йил 1 сентябрдан бошлаб:

юридик шахс бўлмасдан товарлар импорти билан шуғулланаётган якка тартибдаги тадбиркорларнинг ҳисобга олиш регистри юритилишини, унга содир этилган импорт операциялари ва бюджетга тегишли тўловлар тўғрисидаги маълумотлар киритилишини;

белгиланган тартибда рўйхатдан ўтказилган ва регистрга киритилган якка тартибдаги тадбиркорларга импорт операциялари субъектларининг ҳисобга олиш карталари берилишини таъминласин.

6. Ўзбекистон Республикаси Ташқи иқтисодий алоқалар, инвестициялар ва савдо вазирлиги юридик шахс бўлмасдан товарлар импорти билан шуғулланаётган якка тартибдаги тадбиркорларни рўйхатдан ўтказсин, 1 йил муддатга тегишли гувоҳнома берган ҳолда уларни ташқи иқтисодий алоқалар қатнашчилари реестрига тегишли ҳисобга олиш тартиб рақами билан киритсин. (ЎзР ВМ 08.09.2005 й. 206-сон Қарори тахриридаги банд)

7. Белгилансинки, мазкур қарор чиққунга қадар якка тартибдаги тадбиркорлар томонидан Ўзбекистон Республикаси ҳудудига олиб келинган ва "Вақтинча сақлаш" режимида жойлаштирилган товарларнинг божхона расмийлаштируви илгари белгиланган тартибда амалга оширилади.

8. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги манфаатдор вазирликлар ва идоралар билан биргаликда амалдаги қонун ҳужжатларига ушбу қарордан келиб чиқадиган ўзгартириш ва қўшимчалар тўғрисида бир ой муддатда Вазирлар Маҳкамасига таклифлар киритсин.

9. Мазкур қарорнинг бажарилишини назорат қилиш Ўзбекистон Республикасининг Бош вазири Ш.М. Мирзиёев зиммасига юклансин.

Вазирлар Маҳкамасининг Раиси
Каримов

И.

ТАВСИЯ ЭТИЛГАН АДАБИЁТЛАР РҲЙХАТИ

I. Ўзбекистон Республикаси Қонунлари

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси.- Т.: Ўзбекистон, 2010.

2. Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 11 декабрдаги “Хусусий корхона тўғрисида”ги Қонуни.-Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. № 3 - Т.: Адолат, 2004. - 145 б.

3. Ўзбекистон Республикасининг “Акциядорлик жамияти ва акциядорларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонунига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳақида. // Халқ сўзи.- 2007 йил 22 декабрь.

II. Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармонлари ва Қарорлари

4. “Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик” Давлат дастури. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. 20.01.2010 й. № ПҚ-1266.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Тадбиркорлик субъектларини текширишларни янада қисқартириш ва улар фаолиятини назорат қилишни ташкил этиш тизимини такомиллаштириш борасидаги қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида” 2011 йил 4 апрелдаги ПФ-1068-сонли Фармони.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармойиши. Иқтисодий ночор корхоналарни тижорат банкларига сотиш тартибини тасдиқлаш тўғрисида. 2008 йил 19 ноябрь, Ф-4010-сон.

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори. Ишлаб чиқариш ва ижтимоий инфратузилмани янада ривожлантириш юзасидан қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида. 2009 йил 20 январь, ПҚ-1041-сон.

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори. Маҳаллий ноозик-овқат истеъмол товарлари ишлаб чиқариш кенгайтирилишини рағбатлантириш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида. 2009 йил 28 январь, ПҚ-1050-сон.

9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. Озик-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқаришни кенгайтириш ва ички бозорни

тўлдириш юзасидан қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида. 2009 йил 26 январь, ПҚ-1047-сон.

10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Иқтисодиётнинг реал сектори корхоналарини қўллаб-қувватлаш, уларни барқарор ишлашни таъминлаш ва экспорт салоҳиятини ошириш чора-тадбирлари дастури тўғрисида. 2008 йил 28 ноябрь, ПФ-4058-сон.

11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Иқтисодиёт реал сектори корхоналарининг молиявий барқарорлигини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида. 2008 йил 18 ноябрь, ПФ-4053-сон.

12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида 2010 йилгача бўлган даврда хизмат кўрсатиш ва сервис соҳасини ривожлантиришни жадаллаштиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2007 йил 21 майдаги ПҚ-640-сонли қарори.

13. “Монополияга қарши ишларни тартибга солиш ва рақобатни ривожлантириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2010 йил 26 февралдаги ПФ-4191-сон Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами – 9 сон – 2010- 9 март.

14. “Қишлоқ тараққиёти ва фаровонлиги йили” Давлат дастури. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. 26.01.2009 й. N ПҚ-1046.

15. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Бозор ислохотларини чуқурлаштириш ва иқтисодиётни янада эркинлаштириш соҳасидаги устувор йўналишлар амалга оширилишини жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисидаги” Фармони// Халқ сўзи, 2005 , 15 июн.

16. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Тадбиркорлик субъектлари томонидан тақдим этиладиган хисобот тизимини такомиллаштириш ва уни ноқонуний талаб этганлик учун жавобгарликни

кучайтириш тўғрисида” Фармони// Халқ сўзи, 2005,15 июн.

III. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси Қарорлари ва Ўзбекистон Республикаси вазирликларининг ҳуқуқий-меъёрий ҳужжатлари

17. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Маҳсулот (ишлар, хизматлар) ни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатларининг таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби” тўғрисида Қарори//Ўзбекистон Республикаси ҳукуматининг қарорлари тўплами, 1999 54 – сон, 1999 декабр. – Т.:Ўзбекистон. Адлия вазирлиги., 2000.-15-20 б. Маҳсулот (ишлар, хизматлар)ни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатларининг таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисида НИЗОМ. 1999 йил 5 февраль. – Т.:Ўзбекистон, 1999.- 92 б.

18. О мерах по дальнейшему развитию и модернизации предприятий текстильной промышленности и расширению производства отечественных непродовольственных потребительских товаров на 2009-2011 годы: Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 20 августа 2009 года № 236 //Собрание законодательства Республики Узбекистан – 2009. - № 34. – 372.

IV. Ўзбекистон Республикаси Президенти асарлари

19. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза), “Халқ сўзи”, 2010 йил 13 ноябрь (№ 220),

20. Каримов И.А. Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади. - Президент Ислом Каримовнинг 2010 йилда мамлакатимизни

ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2011 йилга мўлжалланган энг муҳим устувор йўналишларга бағишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси //Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

21. И.А.Каримов. Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлиги янада юксалтиришдир/- Тошкент: «Ўзбекистон», 2010. – 83 б.

22. И.А.Каримов Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари/-Т.:Ўзбекистон, 2009.-56 б.

23. Каримов И.А. Мамлакатимиз тараққиётининг қонуний асосларини мустаҳкамлаш фаолиятимиз мезони бўлиши даркор. Халқ сўзи, 2006 йил 25 феврал.

24. Каримов И.А. “Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир”. -Т.: Ўзбекистон, 2005. – 136 б.

V. Дарсликлар

25. Ishmuhamedov A.E. va bosh. Milliy va xalqaro iqtisodiyot: Darslik. – Т.: 2010. – 316 б.

26. Максимова В.Ф. Микроэкономика: учебник. М.: Маркет ДС, 2010. – 368 с.

27. Баринов В.А. Организационное проектирование. Учебник. – М.: ИНФРА-М, 2010. – 384 с.

28. Микроэкономика: практический подход (Managerial Economics): учебник / кол. авторов; под ред. А.Г.Грязновой и А.Ю.Юданова. – 5-е изд., стер. – М.: КНОРУС, 2009. – 704 с.

29. Самуэльсон П.Э, Нордхаус В.Д. Экономика, 18-е издание: Пер. с англ. – М.: ООО «И.Д.Вильямс», 2009. – 1360 с.

30. И. Архипов. Экономика. Учебник. – М.: ТК Велби, 2008. – 263 с.

31. И.Н. Чуев., Л.Н. Чуева. Экономика предприятия. Учебник. 5-е издание., – М.: «Дашков и К», 2008. – 562 с.

32. О.И. Волкова., О.В. Девяткина. Экономика предприятия (фирмы). Учебник.— 3-е издание — М.: ИНФРА-М, 2007.- 563 ст.

33. В.Я. Горфинкеля, В.А. Швандара. Экономика предприятия. Учебник для вузов. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007.- 456 с.

34. Нуриев Р.М. Курс микроэкономики. Учебник для вузов, 3-е издание, М.: НОРМА - Инфра, 2007.- 361 с.

35. Тарасевич Д.С. Гребенников Т.И. Леусский Д.И. Микроэкономика: Учебник. - М.: ЮРАЙТ, 2007. -375с.

36. Фуломов С.С, Алимов Р.Х, Салимов Б.Т. Микроиқтисодиёт: Олий ўқув юртлари учун дарслик .-Т.: Шарқ, 2007. - 320 б.

37. Эгамбердиев Э. Микроиқтисодиёт: Дарслик. - Т.:ТМИ, 2006.- 226 б.

38. Salimov B.T., Muxitdinova U.S., Mustafakulov Sh.I., Salimov B.B. Mikroiqtisodiyot: Darslik-T.: Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005.-208 b.

39. Гальперин В.М. и другие. Микроэкономика. В 2-х т.- СПб.: Экономическая школа, 2003. - 378 с.

VI. Ўқув қўлланмалар

40. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг “Мамлакатимизни модернизация қилиш ва кучли фуқаролик жамияти барпо этиш – устувор мақсадимиздир” ҳамда “Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир” номли маърузаларини ўрганиш бўйича ўқув-услубий мажмуа. – Тошкент: Иқтисодиёт. - 2010.

41. Бу муқаддас Ватанда азиздир инсон. Ўзбекистоннинг 19 йил мустақил тараққиёт йўлида жамиятни модернизациялаш ва иқтисодиётни инновацион ривожлантиришнинг дадил одимлари ва муваффақиятлари: талаба ёшлар ва кенг жамоатчилик билан учрашувларда фойдаланиш учун ижтимоий-иқтисодий ва маънавий-маърифий мавзуда илмий-оммабоп рисола. – Т.: “Иқтисодиёт”, 2010. - 148 б.

42. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг БМТ саммитининг Мингйиллик ривожланиш мақсадларига бағишланган ялпи мажлисидаги нутқини ўрганиш бўйича ўқув-услубий мажмуа. Тошкент: “Иқтисодиёт” нашриёти, 2010. – 146 б.

43. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг 2010 йил 12 ноябрдаги қўшма мажлисидаги “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” мавзусидаги маърузасини ўрганиш бўйича ўқув-услубий мажмуа, Т.: “Иқтисодиёт” 2010.

44. Салимов Б.Т., Мустафакулов Ш.И. Микроиқтисодиёт: масалалар, науналар, топшириқлар, тестлар.- Т.: “Gi Print”, 2010.-244 б.

45. Просветов Г.И. Стратегия предприятия. Учеб. практическое пособ. – М.: «Альфа-Пресс», 2010. – 184 с.

46. Голубев М.П. Методология создания эффективных вертикально интегрированных холдингов. Учеб. пособ. – М.: ИНФРА-М, 2010. – 521 с.

47. Дресвянников В.А. Управление знаниями организации. Учеб. пособ. – М.: КНОРУС, 2010. – 344 с.

48. Ходиев Б.Ю. ва бошқ. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик: ўқув қўлланма. – Т.: ТДИУ, 2010. – 267 б.

49. Апалькова Т.Г. Микроэкономика: Учеб. пособие для вузов – М.: Изд-во МГОУ, 2009.- 81 с.

50. Маховикова Г.А. Микроэкономика: Учеб. пособие – М.: Эксмо, 2009.- 224 с.

51. Скляренко В.К., Прудников В.М. Экономика предприятия. Конспект лекций. — М.: ИНФРА-М, 2008.- 345 с.

52. Мокий М.С. Экономика организации (предприятия). Учебное пособие. - М.: «Экзамен», 2007. – 564 с.

53. Дорохина Е.Ю. Моделирование микроэкономики: Учебное пособие для вузов / Е.Ю.Дорохина,

М.А.Халилов: Под общ ред. Н.П.Тихомирова. - М.:Экзамен, 2003. - 224 с.

54.Климов С.М. Микроэкономика: Учебное пособие // С.М.Климов, А.П.Семин, Т.А.Федорова. - СПб.: ИВЭСЭП, Знание, 2003. - 350 с.

55. Салимов Б.Т., Ўроқов Н.И., Мустафақулов Ш.И., Салимов Б.Б. Микроиқтисодиёт: Маърузалар матни . - Т.: Молия иқтисодчи, 2005.- 360 б.

56.Salimov B.T., Hamdamov Q.S., O'raqov N.I. Mikroiqtisodiyot: Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma- Т.: "Ijod dunyosi", 2003.- 256 б.

57.Чеканский А.Н., Фролова Н.Л. Микроэкономика-2: Учебное пособие. - М.: ТЕИС, 2003.- 245 с.

VII. Статистика тўпламлари маълумотлари

58.Инвестиции республики Узбекистан 2010. Статистический сборник. - Т.: Госкомитет РУз по статистике, 2010. - 148 с

59.Сельское хозяйство Узбекистана 2010. Статистический сборник. - Т.: Госкомитет РУз по статистике, 2011. - 160 с

60.Промышленность республики Узбекистан 2010. Статистический сборник. - Т.: Госкомитет РУз по статистике, 2011. - 156 с.

VIII. Интернет сайтлари

61. "<http://www.economics.ru>"

62. "<http://www.imce.ru>"

63. "Norma" 2010.

64. "Pravo" 2010.

R.S. MURATOV, I.A. DJALALOVA, S.SH.ORIPOV

KORXONA IQTISODIYOTI

(DARSLIK)

TDIU bosmoxonasida bosildi.

Toshkent sh., O'zbekiston shoh ko'chasi, 49-uy

SHartli bosma tabog'i – 25,0

Adadi: 500 nusxa